

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi

N.T.OLIMXO‘JAYEVA

# BIOANORGANIK VA FIZKOLLOID KIMYO

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi  
tomonidan tibbiyot oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun  
o‘quv qo‘llanmasi sifatida tavsija etilgan*

«O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi»  
Davlat ilmiy nashriyoti

Toshkent 2005

Olimxo'jayeva Nazira Tillaxo'jayevna.

O49 **Bioanorganik va fizkolloid kimyo:** tibbiyot oliv o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanmasi / N.T.Olimxo'jayeva; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. — T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. — 368 b.

BBK24.11ya73+24.6ya73

Taqrizchilar: **A.G'.Maxsumov** — kimyo fanlari doktori, professor.  
**S.Z.Orifjonov** — kimyo fanlari nomzodi, dotsent.

**Olimxo'jayeva Nazira Tillaxo'jayevna**  
kimyo fanlari nomzodi, dotsent

## **BIOANORGANIK VA FIZKOLLOID KIMYO**

*O'quv nashri*

**«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»**  
Davlat ilmiy nashriyoti

Muharrirlar: *R.Ma'rupov, H.Zokirov*  
Badiiy muharrir *A.Burxonov*  
Texnik muharrir *M.Alimov*  
Sahifalovchi *Sh.Rahimqoriyev*

Bosishga 2005-yil 10.10 da ruxsat etildi. Bichimi 60×90<sup>1/16</sup>. Times garniturasi.  
Ofset bosma usulida bosildi. Sharqli b. t. 23,0. Nashriyot hisob tabog'i 26,61.  
Adadi 3000 nusxa. BuyurtmaA-304 Bahosi shartnomaga asosida.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining «O'zbekiston» nashriyot-matbaa  
ijodiy uyida chop etildi. Toshkent, 700129, Navoiy ko'chasi, 30.

O 1704000000-11 2005  
358-2005

ISBN 5-89890-106-X

© «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»  
Davlat ilmiy nashriyoti, 2005.

---

## **SO'ZBOSHI**

Bioanorganik va fizkolloid kimyo fanini tibbiyat oliv o'quv yurti talabalari birinchi o'quv yili davomida o'r ganadilar. Bu fan quyidagi asosiy bo'limlarni o'z ichiga oladi:

1. Bioanorganik kimyoni biologik sistemalarga qo'llashning nazariy asoslari.
2. Biogen elementlar kimyosi.
3. Biologik obyektlar, dori preparatlarining sifat va miqdoriy analiz asoslari.
4. Biofizik kimyoni biologik sistemalarga qo'llashning nazariy asoslari.
5. Fizkolloid kimyoni biologik sistemalarga qo'llashning nazariy asoslari.
6. Kimyoviy jarayonlarning issiqlik effekti.
7. Kimyoviy termodinamika.
8. Kimyoviy kinetika.

Bu o'quv qo'llanma bioanorganik va fizkolloid kimyoni o'rganadigan tibbiyat oliv o'quv yurti talabalariga yordam tariqasida tuzilgan. Qo'llanma talabalarning amaliy mashg'ulotlarga mustaqil tayyorlanishi uchun zarurdir.

**Bioanorganik va fizkolloid kimyo kursining maqsadi:** talabalarda kimyoviy jarayonlarni o'rganish asosida tirik organizmda kechadigan modda o'zgarishi mahsulotlarini oldindan sifat va miqdoriy aniqlash ko'nikmalarini fanning hozirgi zamon yutuqlari asosida shakllantirish. Shuningdek, kimyoning muhim nazariy bilimlarini sistemalashtirib, bu bilimlarni tirik organizmda borayotgan normal va patologik holatlardagi jarayonlarga qo'llay bilish va xulosalar chiqarishni o'rgatish.

Bioanorganik va fizkolloid kimyo kursini o'zlashtirish va kimyo fanining muhim nazariy bilimlarini sistemalashtirish natijasida:

### **Talaba quyidagilarni biliishi kerak:**

1. Eritmalar haqidagi ta'lilot, uning asosida elektrolit va noelektrolitlar xossalarni baholash va uni biokimyoviy jarayonlar borishiga ta'sirini avvaldan belgilash; eritma tarkibini ifodalash usullari;

kislota va asoslarning protolitik nazariyasini qo'llagan holda, tirik organizmda kechadigan kislota-asos muvozanatlarini ko'rib chiqishni.

2. Oksidlanish-qaytarilish va cho'kish jarayonlari borishining asosiy qonuniyatlari, ularni biokimyoviy sistemalarda va dorivor moddalarning tibbiyotda ishlatalishida hosil bo'ladijan moddalarni bashorat qilishda qo'llashni.

3. Biomolekulalar hosil bo'lishi va tuzilishini o'rganishda atom tuzilish kvant-mexanika nazariyasi asoslarini, kimyoviy bog' hosil bo'lishini o'rganishda hozirgi zamon nazariyasidan foydalanishni.

4. Tirik organizmda metall ionlari va bioligandlar orasida hosil bo'lish ehtimoli ko'proq bo'lgan moddalarni bashorat qilishda kompleks birikmalarni reaksiyaga kirishish xususiyati hamda tuzilish nazariyasi asoslarini tatbiq qilish va ularning tibbiyotda qo'llanishini;

5. Elementlarni D.I. Mendeleyev davriy sistemasida joylashgan o'rniiga qarab *s*-, *p*-, *d*-element birikmalarining tipik xossalarni, kimyoviy elementlarning biologik sistemalarda o'zgarish ehtimolini bashorat qilishni;

6. Biokimyoviy jarayonlarning yo'naliishi va borishini belgilaydigan kimyoviy jarayonlar termodynamikasiga taalluqli asosiy tushuncha va qonunlarni.

7. Kimyoviy kinetikaning asosiy qonunlarini biologik sistemalarga tatbiq qila olishni.

Bioanorganik va fizkolloid kimyo kursini o'zlashtirish natijasida:

### **Talaba quyidagilarni bajara olishi kerak:**

1. Mustaqil ravishda o'quv va bildirgich adabiyotlardan foydalanish hamda ulardagi ma'lumotlarni namunaviy masalalarni yechishga va biologik sistemalarga tatbiq qilishni.

2. Muayyan birikma olish reaksiyasini o'tkazish uchun sharoit tanlashni.

3. O'tkazish mumkin bo'lgan kimyoviy jarayonlarni bashorat qilish va boradigan jarayonlar tenglamasini tuzishni;

4. Tibbiy preparatlar va biologik obyektlarni sifat va miqdor jihatdan analiz qilishda kimyoviy laboratoriya ishlarini zamonaviy usulda bajarishni;

5. Bajarilayotgan analizga referatlar tuzish va tibbiy amaliyotga tatbiq qilish uchun olingan natijalarni ilmiy asoslab berishni.

Qo'llanmada masalalar va ularning yechimlaridan namunalar keltirilgan, bu esa aniq masalalarni yechishda nazariy asoslarni tatbiq etishga yo'llanma bo'ladi. Ularni talqinidan so'ng savollarga javob berish, mashg'ulotlar muhokamasi, masalalar yechish va taklif etilgan laboratoriya ishlarini bajarishga o'tish tavsiya etiladi.

Mazkur qo'llanmaga qator yillar mobaynida Toshkent pediatriya tibbiyot institutida o'quv jarayonida bioanorganik va fizkolloid kimyonи o'rganish uchun qo'llangan ishlар asos qilib olingan. O'quv qo'llanma tibbiyot instituti talabalarini «Bioanorganik va fizkolloid kimyo» kursi bo'yicha o'qitilish programmasi asosida tuzilgan.

Qo'llanmani tuzishda bioanorganik va fizkolloid kimyonи tibbiyotga moyil ko'rinishda tuzishga alohida etibor berilgan.

## I b o b

### **KIMYOVIY LABORATORIYALARDA ISHLASH TARTIBI**

Zamonaviy kimyoviy tekshirish usullari murakkab va turli-tuman. Ularning dastlabki bosqichi bionoorganik kimyo bo'yicha bajariladigan laboratoriya-amaliy mashg'ulotlaridir. Unda talabada laboratoriya asbob-anjomlari, idishlar bilan ishlashda dastlabki ko'nikmalar hosil bo'ladi hamda uncha murakkab bo'limgan tajribalar o'tkaziladi.

Kimyoviy laboratoriya da ishlayotgan har bir talaba quyidagi qoidalarga qat'iy rioya qilishi kerak:

1. Laboratoriyyadagi har bir ishlovchiga alohida ish joyi tayinlanadi, uni keraksiz narsalar bilan uyib tashlash, stolga papka, kitoblar va boshqa ortiqcha narsalar qo'yish mumkin emas. Ish joyida tartib va tozalikka rioya qilishi kerak.

2. Har bir laboratoriya ishidan oldin unga taalluqli nazariy materiallarni o'rganish kerak hamda yo'riqnomasi bilan chuqur tanishib, noaniq savollarni aniqlangandan so'ng tajribani boshlash lozim. Har bir laboratoriya ishi alohida bajariladi.

3. Elektr quvvati, gaz, suv, reaktivlar tejamkorlik bilan ishlatilishi lozim. Tajribalar uchun modda eng kam miqdorda olinadi. Ishlatilmay qolgan yoki ortiqcha olingan reaktivlarni qayta idishga solish mumkin emas. Kam uchraydigan, qimmatbaho va zaharli modda qoldiqlarini laborantda saqlanadigan mahsus idishga to'kish lozim.

4. Ishlatilgandan so'ng barcha reaktiv va eritmalar saqlanadigan idish qopqog'ini yopib qo'ying, shu bilan birga qopqoqlarni almashtirib yubormang. Umumiyligi ishlatiladigan reaktivlarni o'z ish joyiga olib ketish man qilinadi. Reaktivlarni idishi bilan kitob va daftarlardan ustiga qo'yish mumkin emas.

5. Laboratoriya xalat kiyib ishlanadi, u yerda ovqat yeyish, chekish va baland ovozda gaplashish qat'yan man etiladi.

6. Ishni tugatgandan so'ng foydalanilgan idishlarni yuvib qo'yish, ish joyini tozalash, gaz, suv, elektr asboblarini o'chirib qo'yish zarur.

Hamma o'tkazilgan laboratoriya ishlarining natijalari laboratoriya jurnaliga yoziladi. Unda ana shu ishni bajarish uchun zarur bo'lган nazariy ma'lumotlar, kuzatishlar yoziladi, reaksiya tenglamalari, hisoblar, savollarga javoblar, masalalar yechimi, analizning ilmiy asoslangan natijalari qayd etiladi. Jurnalda yozuv tartibli bo'lishi va aniq yozilishi kerak-ki, bu ish bilan tanish bo'lmagan kimyogar ham uni o'qib tajriba qanday bajarilganligi, unda nimalar kuzatilganligi, bajaruvchi qanday xulosaga kelganligi haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'la olishi kerak. Laboratoriya jurnalini analiz olib borish mobaynida to'ldirib borish, tajriba bayonida raqamlarni o'zgartirish lozim bo'lsa, ustiga chizib yoniga qayta yozish lozim.

### **Kimyoviy laboratoriyalarda ishlashda texnika xavfsizligi qoidalari**

Tajribani qo'llanmada yozilishi bo'yicha olib borish lozim. Qizdirilayotgan kolba va probirkaga og'zini o'zingizga va yoningizda ishlayotgan talabaga qaratmang. Jarayon (reaksiya) borayotgan idish og'ziga engashib qarash mumkin emas.

Tez alanga oluvchi moddalar bilan ishlayotganda olovdan uzoqda bo'lish kerak.

O'yuvchi, zaharli va hidi o'tkir moddalar bilan bajariladigan ishni mo'rkonli javon ichida bajarish kerak. Konsentrangan kislota va ishqorlar ham shu yerga qo'yiladi. Ularning qoldig'ini chig'anoqqa to'kmang, balki maxsus ajratilgan idishga quying. Zaharli gaz yoki bug' ajralib chiqishi bilan bog'liq barcha ishlar mo'rkonli javon ichida bajariladi.

Issiq idish va asboblar maxsus taglikka qo'yiladi. Yuz va qo'llarga kislota tekkanda avval kuchli suv oqimida, so'ngra ichimlik sodasining kuchsiz eritmasida yuviladi; teriga ishqor tekkanda avval suv bilan, so'ngra suyultirilgan sirkal kislota eritmasi bilan yuviladi.

Issiq jism va kimyoviy moddalardan kuyganda kuygan joyga kaliy permanganatning kuchsiz eritmasi shimdirligan doka yopiladi. Shisha kesganda qonni kaliy permanganatning kuchsiz, eritmasi yoki spirt bilan yuviladi, yaraga yo'd surtib bog'lab qo'yiladi.

Tarkibida simob, marginush, bariy, qo'rg'oshin saqllovchi tuzlar zaharli ekanini esda tutish lozim, ular bilan ishlagandan so'ng qo'lni yaxshilab yuvish kerak.

Gazlarni hidiga ko‘ra tekshirayotganda probirkani chap qo‘lga olib, burundan pastroqda ushlanadi va o‘ng qo‘l bilan burun tomon yelpiladi.

Shuni esda tutish kerakki, kimyoviy laboratoriyalarda ishlash alohida e’tibor, tartib va ishchanlikni talab etadi. Bu ishdagi yutuqlar mezonidir.

Har bir talaba kimyoviy laboratoriyalarda ishlash texnika xavf-sizligi qoidalarini o‘rganganidan so‘nggina laboratoriya ishlarini bajarishiga ruhsat etiladi.

## II b o b

### ERITMALAR

#### XALQARO SI SISTEMASIDA ERITMA KONSENTRATSIYASINI IFODALASH USULLARI

**Mashg‘ulotning maqsadi.** Dorivor modda va biologik obyektlarni tekshirish uchun zarur bo‘lgan turli konsentratsiyadagi eritmalar tayyorlashda miqdoriy hisoblarni o‘rganish.

**O‘rganilayotgan mavzuning ahamiyati.** Suyuq eritmalar, avvalo suvli eritmalarning tabiatda ahamiyati katta. Ular tirik organizm uchun, ayniqsa hayotiy zarur jarayonlar, bиринчи navbatda moddalar almashinuvni uchun zarur omil hisoblanadi. Biologik suyuqliklar: qon plazmasi, limfa, me’da shirasi, siydk va boshqalar oqsil, uglevod, yog‘ hamda tuzlarning suvda erigan murakkab aralashmalaridir. Dorivor moddalarni ishlatishda ularning suvda eruvchanligi hisobga olinadi. Dorivor modda eritmalarini tibbiyotda ishlatilganda uni qabul qilish miqdori aniq ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak. Shuning uchun shifokor eritma konsentratsiyasini ifodalovchi birliklarni bilishi kerak.

#### Boshlang‘ich bilim darajasi:

1. Moddaning suvda eruvchanligi.
2. Erigan modda, erituvchi, eritma tushunchalari.
3. D.I. Mendeleevning eritmalar hosil bo‘lish kimyoviy nazariyasi.
4. Eritmalar konsentratsiyasi.

#### Mustaqil tayyorlanish uchun o‘quv adabiyotlar:

1. *L.N. Glinka.* Umumiy ximiya. T., 1968, 254- bet.
2. *X. Rustamov.* Umumiy ximiya. T., 1969, 99- bet.
3. *X.R. Rahimov.* Anorganik ximiya. T., 1974, 108- bet.

4. A.B. Бабков, Г.Н. Горшкова, А.М. Кононов. Практикум по общей химии с элементами количественного анализа. М., 1978, 532- bet.

5. S.S.Qosimova, S.M.Masharipov, Q.O.Najimov. Umumiylar va bioorganik kimyodan amaliy mashg'ulotlar. T., 2001, 10–14- betlar.

6. X.H.Hakimov, A.Z.Tatarskaya, N.T.Olimxo'jayeva. Umumiylar kimyodan amaliy mashg'ulotlar. T., 1993, 9–21- betlar.

### Darsda ko'rildigani savollar:

1. Eritma, erigan modda, erituvchi, moddalarning suvda eruvchanligi.

2. To'yingan, to'yinmagan, o'ta to'yingan, konsentrangan, suyul-tirilgan eritmalar.

3. Eritmalar konsentratsiyasi va ularni SI sistemasida ifodalash usullari:

3.1. Komponentning massa ulushi –  $\omega(X)$ ,  $\omega(X)\%$ .

3.2. Komponentning molyar ulushi –  $N(X)$ .

3.3. Komponentning hajmiy ulushi –  $\phi(X)$ .

3.4. Molyar konsentratsiya –  $c(X)$ .

3.5. Molyal konsentratsiya –  $b(X)$ .

3.6. Ekvivalent molyar konsentratsiya –  $c(f_{ekv}(X)X)$ .

3.6.1. Ekvivalentlik faktori –  $(f_{ekv}(X))$ .

3.6.2. Ekvivalent molyar massa –  $M(f_{ekv}(X)X)$ .

3.6.3. Ekvivalent modda miqdori –  $n(f_{ekv}(X)X)$ .

3.7. Eritmaning titri –  $t(x)$ .

4. Mavzu bo'yicha masalalar yechish.

## MA'LUMOTLAR YIG'INDISI

### Eritmalar. SI sistemasida eritma konsentratsiyasining o'lchov birliklari va asosiy terminlari

*Eritmalar* deb, 2 va undan ortiq tarkibiy qismlardan (komponentlardan) va ularning o'zaro ta'sir maxsulotidan tarkib topgan bir jinsli (gomogen) sistemalarga aytildi. Eritmada erigan modda va erituvchi zarralari bir tekis tarqalgan bo'lib, ularni mikroskop yordamida ham ko'rib bo'lmaydi. Har qanday eritma erituvchi va erigan moddadan iborat. Agregat holatini saqlab qolib eritmaga o'tkazadigan hamda ko'proq miqdorda olingan komponent *erituvchi* deyiladi. Masalan: sulfat kislotaning 10% li eritmasida suv erituvchi, sulfat kislota esa erigan moddadir.

Suvda qattiq, suyuq va gazsimon moddalar erishi mumkin. Qattiq moddalarning suvda erishi anchagini murakkab jarayondir. Bunda

qattiq modda kristallari sirtidan alohida molekulalar ajralib chiqib, diffuziya tufayli butun erituvchi hajmida taqsimlanishi kuzatiladi.

Kristallning erishi bilan birga teskari jarayon, eritmadiagi molekulalarning qayta kristallanishi ham sodir bo'ladi. Erigan modda ortiqcha bo'lsa, bunda ma'lum vaqt dan keyin muvozanat yuzaga keladi. Erigan modda bilan muvozanat xolatida bo'ladigan eritma to'yangan eritma deyiladi. Ayni temperaturada to'yangan eritmada eng ko'p erishi mumkin bo'lgan modda bo'ladi. To'yinmagan eritmada erigan modda miqdori to'yangan eritmaga nisbatan kam bo'ladi. Bunday eritmada qattiq moddaning erish tezligi, erigan moddaning cho'kish tezligidan katta bo'ladi. O'ta to'yangan eritmada esa erigan modda miqdori to'yangan eritmaga nisbatan ko'p bo'ladi. Bunday eritmalar beqaror bo'lib, erigan modda kristallaridan bir necha donasi tashlansa, eritmada yana kristallanish sodir bo'ladi.

Har qanday modda eruvchanlik bilan taysiflanadi. Eruvchanlik moddaning suvda yoki boshqa erituvchida erish qobiliyatidir. Eruvchanlikni miqdori jihatdan taysiflash uchun ma'lum temperaturada 100 g erituvchida eng ko'pi bilan erishi mumkin bo'lgan modda miqdori hisobga olinadi. Erigan moddaning bu miqdori eruvchanlik yoki eruvchanlik koeffitsiyenti deyiladi. Masalan 100 g suvda 18 °C da 35,86 g osh tuzi eriydi. Demak, osh tuzining 18 °C dagi eruvchanligi 35,86 ga teng. Moddalar eruvchanligiga ko'ra yaxshi eriydigan, oz eriydigan va yomon eriydigan turlarga bo'linadi. Ammo mutlaqo erimaydigan moddalar bo'lmaydi. Moddalarning eruvchanligiga erigan modda va erituvchining tabiatini, temperaturani, gazsimon moddalarda bosim ta'sir ko'rsatadi. Erigan modda va erituvchi molekulalari qutbli yoki qutbsiz bog' bilan bog'langan bo'lsa eruvchanlik qiymati katta, agar ulardan biri qutbli, ikkinchisi qutbsiz bo'lsa eruvchanligi kam bo'ladi. Temperatura ko'tarilganda ko'pchilik moddalarning eruvchanligi ortadi. Masalan 0 °C da 100 g suvda 30 g, 80 °C da esa 165 g kaliy nitrat eriydi. Ba'zi moddalarning eruvchanligi temperatura ortishi bilan juda oz o'zgaradi, ba'zilariniki esa kamayadi.

Gazlarning eruvchanligi bosim ortishi bilan ortadi.

Erish jarayonida issiqlik ajralishi yoki yutilishi mumkin. Masalan: kaliy gidroksid, natriy gidroksid, sulfat kislota eriganda issiqlik ajralib chiqadi (ekzotermik jarayon), kaliy nitrat, ammoniy xlorid eriganda esa issiqlik yutiladi (endotermik jarayon).

Bir mol modda eriganda ajralib chiqadigan yoki yutiladigan issiqlik miqdori shu moddaning erish issiqligi deyiladi. Masalan: kaliy gidroksidning erish issiqligi  $-55,6 \text{ kJ/mol}$ , ammoniy nitratning erish issiqligi  $+26,4 \text{ kJ/mol}$ .

Eritmalar kontsentrasiya bilan tavsiflanadi. *Eritmaning kontsentrasiyasi* deb eritmaning yoki erituvchining muayyan miqdorida erigan moddaning muayyan miqdoriga aytildi. Shunga ko'ra, eritmalar konsentrangan va suyultirilgan bo'ladi. Agar erituvchi bilan erigan modda miqdorini solishtirish mumkin bo'lsa eritma *konsentrangan*, solishtirib bo'lmasa — *suyultirilgan* deyiladi. Masalan: 100 g suvda 35 g osh tuzi erisa bu eritma konsentrangan, 0,35 g erisa *suyultirilgan eritma* deyiladi.

Eritmalar konsentratsiyasi SI sistemasida ifodalanadi.

Bu sistemada massaning asosiy birligi *kilogramm (kg)*, *gramm (g)*, hajm birligi — *litr (l)*, *millilitr (ml)*; moddaning miqdoriy birligi — *mol* deb qabul qilingan.

**Sistemadagi modda miqdori  $n(X)$**  — o'lchamli fizik kattalik bo'lib, sistemadagi zarrachalar — atom, molekula, ion, elektron va boshqalar soni bilan ifodalanadi. Bu modda miqdori — 0,12 kg  $^{12}\text{C}$  izotopida necha atom bo'lsa, shuncha aniq yoki shartli zarrachalar saqlaydi.

Masalan:  $n(\text{HCl}) = 2 \text{ mol}$ ;  $n(\text{H}^+) = 10^{-3} \text{ mol}$ ;  $n(\text{Mg}^{2+}) = 3 \text{ mol}$ .

**Molar massa —  $M(X)$**  sistemadagi 1 mol modda massasi. Modda massasi uning miqdoriga nisbatini ko'rsatadi. O'lchov birliklari —  $\text{kg/mol}$ ;  $\text{g/mol}$ ;

$$M(X) = \frac{m(X)}{n(X)}, \text{ g/mol},$$

bu yerda:  $M(X)$  — sistemadagi  $X$  moddaning molar massasi;  $m(X)$  — sistemadagi  $X$  modda massasi;  $n(X)$  — sistemadagi  $X$  modda miqdori.

Masalan:  $M(\text{C1}_2) = 70,916 \text{ g/mol}$ ;  $M(\text{Ca}^{2+}) = 40,08 \text{ g/mol}$ ;  $M(\text{NaCl}) = 58,50 \text{ g/mol}$ .

**Komponentning massa ulushi  $\omega(X)$ ,  $\omega\%(X)$**  — nisbiy kattalik bo'lib, sistemadagi (eritma) berilgan modda (komponent) massasining sistema (eritma) umumiyl massasiga nisbatini ko'rsatadi (protsent konsentratsiya tushunchasi o'rniga). U kasr sonlarda va protsentlarda (%) ifodalanishi mumkin:

$$\omega(X) = \frac{m(X)}{m(\text{eritma})}; \quad \omega\%(X) = \frac{m(X)}{m(\text{eritma})} \cdot 100\%.$$

Masalan:  $\omega\%(\text{NaCl}) = 20\%$ ;  $\omega\%(\text{HC1}) = 37\%$ .

**Molar ulush  $N(X)$**  — nisbiy kattalik bo'lib, sistema (eritma)dagи modda (komponent) miqdorini sistema (eritma) umumiyl modda miqdoriga nisbatini ifodalaydi:

$$N(X) = \frac{n(X)}{n(\text{eritma})}.$$

Masalan:  $N(\text{HCl}) = 0,5$ ;  $N(\text{NaCl}) = 0,8$ .

**Hajmiy ulush**  $\varphi(X)$  – nisbiy kattalik, sistemadagi modda (komponent) hajmini, sistema (eritma) umumiy hajmiga nisbatiga teng:

$$\varphi(X) = \frac{V(X)}{V(\text{eritma})}.$$

Masalan:  $\varphi(\text{HCl}) = 0,3$ ;  $\varphi(\text{NaCl}) = 0,5$ .

**Molyar konsentratsiya** –  $c(X)$  – erigan modda (komponent) miqdorini sistema (eritma) hajmiga nisbatini ko'rsatadi:

$$c(X) = \frac{n(X)}{V(\text{eritma})} = \frac{m(X)}{M(X) \cdot V(\text{eritma})}, \text{ mol/l.}$$

Masalan,  $c(\text{HC1}) = 0,1550 \text{ mol/l}$ ;  $c(\text{Cu}^{2+}) = 0,2378 \text{ mol/l}$ .

**Molyal konsentratsiya**  $b(X)$  – erigan modda miqdorini erituvchi massasiga nisbatini ko'rsatadi:


$$b(X) = \frac{n(X)}{m(\text{erituvchi})} = \frac{m(X)}{M(X) \cdot m(\text{erituvchi})}, \text{ mol/kg.}$$

Masalan:  $b(\text{HC1}) = 0,1000 \text{ mol/kg.}$


**Ekvivalentlik omili**  $f_{ekv}(X) = \frac{1}{Z}$  – o'lchamsiz kattalik, u  $X$  moddaning kislota-asos reaksiyalarida bitta vodorod ioniga yoki oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida bitta elektronga to'g'ri kladigan mavjud zarrachalar ulushini ifodalaydi. Ekvivalentlik omili berilgan reaksiya stexiometriyasi asosida hisoblanadi.

Masalan:  $2\text{NaOH} + \text{H}_2\text{SO}_4 = \text{Na}_2\text{SO}_4 + 2\text{H}_2\text{O}$ ,

bu reaksiyani 1 mol NaOH ga nisbatan yozsa,



$$f_{ekv}(\text{NaOH}) = 1, f_{ekv}(\text{H}_2\text{SO}_4) = \frac{1}{2}.$$



$$f_{ekv}(\text{FeSO}_4) = 1, f_{ekv}(\text{KMnO}_4) = 1.$$

**Ekvivalent  $f_{\text{ekv}}(X) X = \frac{1}{Z} X$**  – o‘lchamsiz kattalik, kislota-asos reaksiyalarida bir vodorod ioni yoki oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida bir elektronga ekvivalent bo‘lgan  $X$  moddaning mayjud yoki shartli zarrachalari.

**Ekvivalent molyar massa –  $M(f_{\text{ekv}}(X)X) = M(\frac{1}{Z} X)$**  – moddaning bir mol ekvivalent massasi bo‘lib, ekvivalentlik omilini shu modda molyar massasiga ko‘paytmasiga teng:

$$M(f_{\text{ekv}}(X)X) = M(\frac{1}{Z} X) = f_{\text{ekv}}(X) \cdot M(X), \text{ g/mol.}$$

$$\text{Masalan: } M(\frac{1}{2} \text{ H}_2\text{SO}_4) = \frac{1}{2} M(\text{H}_2\text{SO}_4) = \frac{1}{2} \cdot 98,0 = 49,0, \text{ g/mol.}$$

**Ekvivalent modda miqdori –  $n(f_{\text{ekv}}(X)X = n(\frac{1}{Z} X)$**  – ekvivalent zarrachalaridan tashkil topgan modda miqdori.

$$n\left(\frac{1}{Z} X\right) = \frac{m(X)}{M\left(\frac{1}{Z} X\right)}, \text{ mol.}$$

$$\text{Masalan: } n\left(\frac{1}{Z} \text{ Ca}^{2+}\right) = 0,5 \text{ mol}; \quad n\left(\frac{1}{Z} \text{ H}_2\text{SO}_4\right) = 0,1 \text{ mol.}$$

**Ekvivalent molyar konsentratsiya** (yoki normal konsentratsiya) –  $c(f_{\text{ekv}}(X)X = c(\frac{1}{Z} X)$  sistemadagi (eritmadi) ekvivalent modda miqdorini shu sistema (eritma) hajmiga nisbatiga teng:

$$c(f_{\text{ekv}}(X)X) = c\left(\frac{1}{Z} X\right) = \frac{n\left(\frac{1}{Z} X\right)}{V(\text{eritma})} = \frac{m(X)}{M\left(\frac{1}{Z} X\right) \cdot V(\text{eritma})} \text{ mol/l.}$$

$$\text{Masalan: } c\left(\frac{1}{2} \text{ H}_2\text{SO}_4\right) = 0,1000 \frac{\text{mol}}{\text{l}}.$$

**Eritma titri –  $t(X)$**  – 1 ml eritmadi  $X$  modda massasini ko‘rsatadi:

$$t(X) = \frac{m(X)}{V(\text{eritma})}, \text{ g/ml;}$$

$$t(\text{HCl}) = 0,003278 \text{ g/ml.}$$

### Mavzu bo'yicha masalalar va ularni yechish namunalarini

**1- masala.** 50,00 g  $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$  kristallogidrat va 200,00 g suvdan hosil bo'lgan eritmadi kristallogidrat va suvsiz mis sulfatning massa ulushini aniqlang.

**Berilgan:**

$$m(\text{H}_2\text{O}) = 200,00 \text{ g}$$

$$m(\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}) = 50,00 \text{ g}$$

$$M(\text{CuSO}_4) = 160,00 \text{ g/mol}$$

$$M(\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}) = 250,00 \text{ g/mol}.$$


---

$$\omega\%(\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}) = ?$$

$$\omega\% (\text{CuSO}_4) = ?$$

**Yechish:**

1. Hosil bo'lgan eritmaning massasi topiladi:

$$m(\text{eritma}) = m(\text{modda}) + m(\text{H}_2\text{O}) = 50,00 \text{ g} + 200,00 \text{ g} = 250,00 \text{ g};$$


$$m(\text{eritma}) = 250,00 \text{ g}.$$

2. Eritmadagi  $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$  ning massa ulushi aniqlanadi:

$$\omega\%(\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}) = \frac{m(\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O})}{m(\text{eritma})} \cdot 100\%$$

$$\omega\%(\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}) = \frac{50,00}{250,0} \cdot 100\% \frac{\text{g}}{\text{g}} \cdot \% = 20\%.$$

3. 50,00 g kristallogidratdagi suvsiz tuzning massasi topiladi.  $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$  ning molyar massasi 250,00 g/mol ga teng,  $\text{CuSO}_4$  molyar massasi 160,00 g/mol ga teng. 1 mol  $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$  da 1 mol  $\text{CuSO}_4$  bor. Shunday qilib, 1 mol  $\cdot$  250,00 g/mol = 250,00 g  $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$  da 1 mol  $\cdot$  160,00 g/mol = 160,00 g  $\text{CuSO}_4$  bor:



proporsiyani yechib mis sulfat massasi topiladi:

$$m(\text{CuSO}_4) = \frac{160,00 \cdot 50,00}{250,00} \frac{\text{g} \cdot \text{g}}{\text{g}} = 32,00 \text{ g}.$$

4. Suvsiz tuzning massa ulushi topiladi:

$$\omega\%(\text{CuSO}_4) = \frac{m(\text{CuSO}_4)}{m(\text{eritma})} \cdot 100\%,$$

$$\omega\%(\text{CuSO}_4) = \frac{32,00}{250,0} \cdot 100 \frac{\text{g}}{\text{g}} \cdot \% = 12,80\%.$$

Javob:  $\omega\%(\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}) = 20\%; \omega\%(\text{CuSO}_4) = 12,80\%.$

**2- masala.** 2,00 / 0,1000 mol/l eritma tayyorlash uchun 96% li  $\text{H}_2\text{SO}_4$  ( $\rho = 1,84 \text{ g/ml}$ ) eritmasidan necha ml olish kerak?

**Berilgan:**

$$\omega\%(\text{H}_2\text{SO}_4) = 96\%;$$

$$\rho = 1,84 \text{ g/ml}$$

$$V(\text{eritma}) = 2,00 \text{ l}$$

$$c(\text{H}_2\text{SO}_4) = 0,1000 \text{ mol/l}$$

$$M(\text{H}_2\text{SO}_4) = 98,00 \text{ g/mol}$$


---

$$V(\text{eritma})=?$$

**Yechish:**

1. 2,00 / 0,1000 mol/l konsentratsiyali eritmada  $\text{H}_2\text{SO}_4$  massasi topiladi.

$$c(\text{H}_2\text{SO}_4) = \frac{m(\text{H}_2\text{SO}_4)}{M(\text{H}_2\text{SO}_4)V(\text{eritma})}, \text{ bundan}$$

$$m(\text{H}_2\text{SO}_4) = c(\text{H}_2\text{SO}_4) \cdot M(\text{H}_2\text{SO}_4) \cdot V(\text{eritma})$$

$$m(\text{H}_2\text{SO}_4) = 0,1000 \cdot 98 \cdot 2,00 \frac{\text{mol} \cdot \text{g/l}}{\text{l} \cdot \text{mol}} = 19,60 \text{ g.}$$

$$m(\text{H}_2\text{SO}_4) = 19,60 \text{ g.}$$

2. 19,60 g  $\text{H}_2\text{SO}_4$  saqlagan 96% li (massa jihatdan)  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasi massasi topiladi:

$$\omega\%(\text{H}_2\text{SO}_4) = \frac{m(\text{H}_2\text{SO}_4)}{m(\text{eritma})} \cdot 100\%,$$

$$\text{bundan} \quad m(\text{eritma}) = \frac{m(\text{H}_2\text{SO}_4)}{\omega\%(\text{H}_2\text{SO}_4)} \cdot 100\%$$

$$m(\text{eritma}) = \frac{19,6 \cdot 100}{96} \frac{\text{g}\%}{\%} = 20,42 \text{ g.}$$

3. Zichligini bilgan holda  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasi hajmi aniqlanadi.

$$m(\text{eritma}) = V(\text{eritma}) \cdot \rho(\text{eritma});$$

$$V(\text{eritma}) = \frac{m(\text{eritma})}{\rho(\text{eritma})}$$

$$V(\text{eritma}) = \frac{20,42}{1,84} \frac{\text{g}\cdot\text{ml}}{\text{g}} = 11,10 \text{ ml}.$$

Javob:  $V(\text{eritma}) = 11,10 \text{ ml.}$

**3- masala.** Antiseptik vosita – brilliant ko‘kining 200,00 ml 2,0% li (massa jihatdan) spirtdagi eritmasining molyar konsentratsiyasini aniqlang.  $M(\text{bril. ko‘ki}) = 492 \text{ g/mol}$ ; ( $\rho = 0,80 \text{ g/ml}$ ).

Berilgan:

$$V(\text{eritma}) = 200,00 \text{ ml}$$

$$\omega\%(\text{bril. ko‘ki}) = 2,0\%$$

$$\rho(\text{eritma}) = 0,80 \text{ g/ml}$$

$$M(\text{bril. ko‘ki}) = 492,00 \text{ g/mol}$$

$$c(\text{bril. ko‘ki}) = ?$$

**Yechish:**

1. 200,00 g brilliant ko‘ki eritmasi tarkibidagi modda massasi topiladi:

$$m(\text{bril. ko‘ki}) = \frac{200,00 \cdot 2,0 \text{ g}\%}{100\%} = 4 \text{ g}.$$

2. Spirtni eritmaning hajmi aniqlanadi:

$$V(\text{eritma}) = \frac{m(\text{eritma})}{\rho(\text{eritma})}$$

$$V(\text{eritma}) = \frac{200,00}{0,80} \frac{\text{g}\cdot\text{ml}}{\text{g}} = 250,00 \text{ ml} = 0,25 \text{ l}.$$

3. Eritmadagi moddaning molyar konsentratsiyasi aniqlanadi:

$$c(\text{bril. ko‘ki}) = \frac{m(\text{bril. ko‘ki})}{M(\text{bril. ko‘ki}) \cdot V(\text{eritma})};$$

$$c(\text{bril. ko‘ki}) = \frac{4}{492,00 \cdot 0,25} \frac{\text{g}\cdot\text{mol}}{\text{g}\cdot\text{l}} = 0,0325 \text{ mol/l}.$$

Javob:  $c(\text{bril. ko‘ki}) = 0,0325 \text{ mol/l.}$

**4- masala.** Dorivor preparatlarni analiz qilishda qo‘llaniladigan NaOH eritmasining titri 0,003600 g/ml ga teng. Sulfat kislota bilan reaksiyaga kirishib nordon tuz hosil qiladi. Uning sulfat kislota bilan

reaksiyada ekvivalent molyar konsentratsiyasi qanday? NaOH ning eritmadagi massa ulushi (%) qanday? 1,00 l shunday eritma tayyorlash uchun zarur bo'lgan NaOH massasini aniqlang.

**Berilgan:**

$$t(\text{NaOH}) = 0,003800 \text{ g/ml}$$

$$V(\text{eritma}) = 1,00 \text{ l} = 1000 \text{ ml}$$

$$M(\text{NaOH}) = 40,0 \text{ g/mol}$$


$$\rho(\text{eritma}) = 1,0 \text{ g/ml}$$

$$c(\text{NaOH}) = ? \quad m(\text{NaOH}) = ?$$

$$\omega\%(\text{NaOH}) = ?$$

**Yechish:**

Reaksiya tenglamasi quyidagicha:



$$f_{\text{ekv}}(\text{H}_2\text{SO}_4) = 1; \quad f_{\text{ekv}}(\text{NaOH}) = 1.$$

Bunday holatda NaOH eritmasining ekvivalent molyar konsentratsiyasi uning molyar konsentratsiyasiga teng bo'ladi.

1. 1,00 l eritma tayyorlash uchun zarur bo'lgan NaOH massasi topiladi:

$$t(\text{NaOH}) = \frac{m(\text{NaOH})}{V(\text{eritma})};$$

$$m(\text{NaOH}) = t(\text{NaOH}) \cdot V(\text{eritma});$$

$$m(\text{NaOH}) = 0,003800 \cdot 1000 \frac{\text{g} \cdot \text{ml}}{\text{ml}} = 3,8 \text{ g.}$$

2. Eritmaning molyar konsentratsiyasi topiladi:

$$c(\text{NaOH}) = \frac{m(\text{NaOH})}{M(\text{NaOH}) \cdot V(\text{eritma})};$$

$$c(\text{NaOH}) = \frac{3,8 \text{ g} \cdot \text{mol}}{40 \cdot 1 \text{ g} \cdot \text{l}} = 0,0950 \text{ mol/l.}$$

3. 1 litr eritmaning massasi aniqlanadi:

$$m(\text{eritma}) = \rho \cdot V(\text{eritma}); \quad m(\text{eritma}) = 1000 \cdot 1 \frac{\text{g} \cdot \text{ml}}{\text{ml}} = 1000 \text{ g.}$$

4. Eritmadagi NaOH ning massa ulushi (%) topiladi:

$$\omega\%(\text{NaOH}) = \frac{m(\text{NaOH})}{m(\text{eritma})} \cdot 100\%;$$

$$\omega\%(\text{NaOH}) = \frac{3,8 \cdot 100}{1000} \frac{\text{g}\%}{\text{g}} = 0,38\%;$$

Javob:  $c(\text{NaOH}) = 0,0950 \text{ mol/l}$ ;  $\omega\%(\text{NaOH}) = 0,38\%$ ;  
 $m(\text{NaOH}) = 3,8 \text{ g}$ .

### Vaziyatli masalalar

1. Me'da shirasi kislotaliligi yetishmovchiligidagi ishlataliladigan 1,00 / 3,0% li (massa jihatdan) HCl eritmasini tayyorlash uchun uning 30% li ( $\rho = 1,152 \text{ g/ml}$ ) eritmasidan necha millilitr olish kerak? Hosil bo'lgan eritmaning molyar konsentratsiyasini aniqlang (eritmani standartlash NaOH bo'yicha olib boriladi).

Javob:  $V(\text{HCl}) = 86,80 \text{ ml}$ ;  $c(\text{HCl}) = 9,47 \text{ mol/l}$ .

2. Fiziologik eritmaning (0,86%) NaCl ( $\rho = 1,00 \text{ g/ml}$ ) molyar konsentratsiyasini hisoblang. Fiziologik eritma tayyorlash uchun 200 ml 20% li (massa jihatdan) NaCl eritmasiga ( $\rho = 1,012 \text{ g/ml}$ ) qancha suv qo'shish kerak?

Javob:  $c(\text{NaCl}) = 0,1470 \text{ mol/l}$ ;  $V(\text{H}_2\text{O}) = 4504,6 \text{ ml}$ .

### Mavzuni o'zlashtirishni mustaqil nazorat qilish uchun savollar va masalalar

1. Erigan moddaning molyal ulushi nima?

2. Erigan moddaning hajmi ulushi nima?

3. Tibbiyotda glitserinning ( $\text{C}_3\text{H}_8\text{O}_3$ ) 85% li (massa jihatdan) eritmasi keng qo'llanadi. Shu eritmadiagi glitserin va suvning molyal ulushini aniqlang ( $\rho = 1,222 \text{ g/ml}$ ).

4. Biokimyoiy analizda qondagi qand miqdorini aniqlashda  $\text{ZnSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$  ning 45% li (massa jihatdan) eritmasi qo'llanadi. a) 2,00 kg shunday eritmani tayyorlash uchun qancha tuz va suv kerak? b) 500,00 ml 0,1000 molyal va 0,1000 molyar eritma tayyorlash uchun-chi? ( $\rho = 1,019 \text{ g/ml}$ ).

5. Massa ulushi 5% bo'lgan 200,00 g yodning spirtdagi eritmasini tayyorlash uchun necha gramm yo'd va necha millilitr spirt ( $\rho = 0,80 \text{ g/ml}$ ) kerak?


6. Organizm ko'p miqdorda qon yo'qtoganda unga NaCl ning 0,86% li (massa jihatdan) eritmasi fiziologik eritma sifatida yuboriladi. Shu eritmaning molyar konsentratsiyasini va titrini aniqlang. Organizmga 400 ml fiziologik eritma yuborilgandagi tuzning massasini aniqlang.

7. Kalsiy xlorid tuzining eritmasi qon to‘xtatuvchi modda sifatida ishlataladi. «K.T.» tamg‘ali kalsiy xlorid kristallogidratidan 200 ml ( $\rho = 1 \text{ g/ml}$ ) bo‘lgan  $\text{CaCl}_2$  eritmasini tayyorlash uchun qancha tuz olish kerak. Hosil bo‘lgan eritmaning molyar konsentratsiyasini aniqlang.

8. 280 g suvda 40 g glukoza eritildi. Hosil bo‘lgan eritmada glukozaning massa ulushini (%) aniqlang.

### Test savollari

1. Quyidagi reaksiyada  $\text{H}_2\text{SO}_4$  ning ekvivalentlik omilini aniqlang:



- a) 1;    b) 2;    d)  $1/2$ ;    e)  $1/3$ .

2.  $\text{NaOH}$  eritmasining titri  $0,03600 \text{ g/ml}$  ga teng. Shu eritmaning molyar konsentratsiyasini aniqlang.

- a)  $9 \text{ mol/l}$ ;    b)  $0,9 \text{ mol/l}$ ;    d)  $0,0014 \text{ mol/l}$ ;    e)  $0,014 \text{ mol/l}$ .


3. Qanday eritmaga quyidagi qiymat taalluqli:  $V_{\text{erish}} < V_{\text{kristallanish}}$ ?

- a) to‘yingan eritma;                         d) o‘ta to‘yingan eritma;  
b) to‘yinmagan eritma;                         e) suyultirilgan eritma.

4. 280 g suvda 40 g glukoza eritilishidan hosil bo‘lgan eritmada glukozaning massa ulushini aniqlang.

- a) 24,6%;    b) 12,5%;    d) 40%;    e) 8%.

5. Quyidagi reaksiyada  $\text{H}_2\text{SO}_4$  ning ekvivalentlik omilini aniqlang:



- a) 2;    b) 1;    d)  $1/2$ ;    e) 4.

6. Eritmalar necha xil agregat holatda mavjud bo‘ladi?

- a) 2;    b) 3;    d) 1;    g) 4.

9.  $\text{NaOH}$  ning konsentrangan eritmasini ko‘rsating.

- a) 0,36%;    b) 0,40%;    d) 56%;    e) 0,56%.

10.  $\text{NaCl}$  ning fiziologik eritmasi molyar konsentratsiyasini aniqlang ( $\omega\%(\text{NaCl}) = 0,86\%$ ,  $t = 22^\circ\text{C}$ ,  $\rho = 1 \text{ g/ml}$ ).

- a)  $1 \text{ mol/l}$ ;    b)  $0,14 \text{ mol/l}$ ;    d)  $1,5 \text{ mol/l}$ ;    e)  $9,31 \text{ mol/l}$ .

## LABORATORIYA ISHI

### **1- tajriba. Berilgan konsentratsiyada eritmalar tayyorlash.**

Berilgan konsentratsiyada eritma tayyorlash 3 xil usulda olib boriladi:

- I. Qattiq moddadan namuna olish usuli.
- II. Konsentrlangan eritmalarni suyultirish usuli.
- III. Fiksanallardan foydalanish usuli.

### **Qattiq moddalardan namuna olish usuli bilan buyurilgan konsentratsiyali eritma tayyorlash**

O'qituvchidan qaysi tuzdan necha protsentli eritma tayyorlash to'g'risidagi topshiriqni olgandan so'ng, ishni quyidagi tartibda bajariladi.

1. Eritma tayyorlash uchun qancha tuz kerakligini hisoblab uni texnik tarozida 0,01g gacha aniqlik bilan tortib olinadi.
2. Suv massasini uning hajmiga teng deb hisoblab, kerakli suvni o'lchov silindrda o'lchab olinadi va uni tuz solingan stakan yoki kolbaga quyiladi.
3. Stakandagi tuz to'liq erib ketguncha eritmaning uchi rezinali shisha tayoqcha bilan aralashdiriladi. Erish jarayonida eritmaning qizishi yoki sovishi kuzatilsa, eritma xona temperaturasiiga kelguncha kutiladi.
4. Eritmani quruq o'lchov silindriga quyib, zichligini areometr bilan o'lchanadi. O'lchanigan zichlikka mos keladigan eritmaning protsentli konsentratsiyasini jadvaldan topiladi.
5. Eritma tayyorlashda yo'l qo'yilgan xatolik quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$\% \text{ xato} = \frac{\omega_{naz} - \omega_{amaly}}{\omega_{naz}} \cdot 100\%.$$

6. Tayyorlangan eritmaning molyar, ekvivalent molyar va molyal konsentratsiyalari hisoblanadi.

### **Konsentrlangan eritmalarни suyultirish usuli bilan berilgan konsentratsiyali eritma tayyorlash**

### **2- tajriba. Konsentratsiyasi 0,1000 mol/l bo'lgan sulfat kislota eritmasini tayyorlash.**

1. Menzurkaga berilgan sulfat kislotadan quyib, areometr yordamida uning zichligi aniqlanadi va ilovada berilgan jadvaldan foydalanib aniqlangan zichlikka mos keladigan protsentli konsentratsiyasi aniqlaniladi.

2. 100,00 ml 0,1000 mol/l  $H_2SO_4$  eritmasini tayyorlash uchun berilgan kislotadan qancha hajm olinishi hisoblanadi.

3. Hisoblangan hajmdagi  $H_2SO_4$  ni kichkina menzurkada o'lchab olinadi va uni yarmigacha distillangan suv quyilgan 100,00 ml li o'lchov kolbasiga voronka yordamida asta-sekin quyiladi. O'lchov kolbasidagi aralashma xona temperaturasigacha sovitilib, ehtiyyotlik bilan kolbaning belgisigacha yana suv quyiladi. O'lchov kolbasi mahkam berkitilib, bir necha marta aralashtirilgach, tayyor bo'lgan eritma laborantga topshiriladi.

## KISLOTA-ASOSLI MUVOZANAT

**Mashg'ulotning maqsadi.** Dorivor preparatlar va biologik suyuqliklarda  $pH$  ni eksperimental aniqlash va miqdoriy hisoblashni o'rGANISH.

**O'rganilayotgan mavzuning ahamiyati.** Vodorod ionlari konsentratsiyasining doimiyligi tirik organizm ichki muhitining muhim konstantalaridan biridir. Masalan, odam qonining vodorod ko'rsatkichi ( $pH$ )ning qiymati  $7,4 \pm 0,04$  ga, me'da shirasiniki —  $1,85 \pm 0,15$  ga, so'laginiki —  $6,0 \pm 0,30$  ga, siydiginiki —  $5,0\text{--}8,0$  ga teng.

Biologik sistemalarda  $pH$  ning, avvalo qon  $pH$  ining sezilarli o'zgarishi hayot faoliyatining chuqur buzilishiga va oqibatda o'limga sabab bo'lishi mumkin.

Ba'zi biologik suyuqliklar uchun  $pH$  o'zgarishining fiziologik chegaradagi qiymatlari jadvalda keltirilgan.

Biosistemalar	$pH$ o'zgarishining fiziologik chegaralari	$pH$ ning o'rtacha qiymati
1. Qon zardobi	7,26–7,47	7,36
2. Me'da shirasi	0,9–2,0	1,65
3. Me'da osti bezi shirasi	6,0–9,0	8,0
4. Orqa miya suyuqligi	7,35–7,80	7,6
5. So'lak	5,6–7,6	6,75
6. O't yo'llaridagi safro	6,2–8,5	7,35
7. Ko'z yoshi suyuqligi	7,6–7,8	7,7
8. Siydiq	4,5–7,0	5,8
9. Ona suti	6,6–6,9	6,75
10. Axlat	7,0–7,5	7,25
11. O't pufagidagi safro	5,6–7,9	6,8
12. Jigar hujayralarining ichki suyuqligi	6,4 – 6,5	6,45

Turli kasalliklar oqibatida organizmda reaksiya muhitining kislotali tomonga o'zgarishi – *asidoz*, ishqoriy tomonga o'zgarishi – *alkaloz* deb ataladi. Atsidoz ham, alkaloz ham hayot uchun xavfli. *pH* ning normadan kam bo'lishi birinchi navbatda fermentlar faolligining susayishiga va hujayralardagi reaksiyalarning normal borishi buzilishiga olib keladi, chunki har bir ferment *pH* ning ma'lum chegara qiymatida o'z funksiyasini normal holatda bajaradi. Bu esa ba'zi kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Bir qator kasalliklarda odam organizmida kislota-asos muvozanati buzilishi ro'y beradi. Masalan, diabetning og'ir turida atsidoz, jigar sirrozida alkaloz kuzatiladi.

Turli biologik suyuqliklarda *pH* ni aniqlash tibbiyot amaliyotida zarur omillardan hisoblanadi.

### **Boshlang'ich bilim darajasi:**

1. Eritmalar haqida tushuncha.
2. Elektrolitik dissotsiatsiya nazariyasi.
3. Massalar ta'siri qonuni.

### **Mustaqil tayyorlanish uchun o'quv adabiyotlar:**

1. *N.L.Glinka*. Umumi ximiya. T., 1968, 220- bet.
2. *X.Rustamov*. Umumi ximiya. T., 1969, 83- bet.
3. *C.C.Оленин, Г.Н.Фадеев*. Неорганическая химия., М., 1985, 131- bet.
4. *И.К.Цитович*. Курс аналитической химии. М., 1985, 25-bet.
5. *А.С.Ленский*. Введение в бионеорганическую и биофизическую химию. М., 1989, 139- bet.
6. *S.S.Qosimova, S.M.Masharipov, Q.O.Najimov*. Umumi va bioorganik kimyodan amaliy mashg'ulotlar. T., 2001, 14- bet.
7. *X.H.Hakimov, A.Z.Tatarskaya, N.T.Olimxo'jaeva*. Umumi kimyodan amaliy mashg'ulotlar. T., 1993, 43–48- betlar.

### **Darsda ko'rildigan savollar:**


1. Kislota va asoslarning protolitik nazariyasi.
2. Suvning ion ko'paytmasi.
3. Vodorod ko'rsatkichi.
4. Eritmalarning *pH* qiymatini aniqlash usullari.
5. Mavzu bo'yicha masalalar yechish.

## **MA'LUMOTLAR YIG'INDISI**



### **Kislota va asoslarning protolitik nazariyasi asoslari**

Kislota va asoslarning protolitik nazariyasi 1923- yilda Brensted va Lourilar tomonidan taklif etilgan. Bu nazariyaga asosan kislotalarga


o‘zidan proton ajratuvchi moddalar (yoki ionlar), asoslarga esa proton biriktirib oluvchi moddalar (yoki ionlar) kiradi. Unisi ham, bunisi ham *protolitlar* deyiladi. Proton berish qaytar jarayon bo‘lib, bunda hosil bo‘lgan qoldiq asos protonni biriktirib olishi va yana kislota hosil qilishi mumkin:




Eritmada protonlar mustaqil bo‘la olmaydi, ular faqat kislotadan asosga o‘tadi. Shuning uchun eritmada doimo 2 ta jarayon boradi:



Ular orasidagi muvozanatni quyidagi tenglama bilan ifodalash mumkin:




Masalan:





Shunday qilib protolitik nazariyaga ko‘ra, boshlang‘ich kislota va asoslardan doimo yangi kislota va asos hosil bo‘ladi, ular bunday jarayonlarda *tutash kislota* va *asoslar* deyiladi. Neytral molekulalar, musbat va manfiy ionlar kislota hamda asos bo‘lishi mumkin.

Kislota                  Asos




Shuni esda saqlash kerakki, suvli muhitda hamma ionlar, jumladan vodorod kationlari ham gidratlangan bo‘ladi. Gidratlangan vodorod kationlari  $\text{H}_3\text{O}^+$  – *gidroksoniy ionlari* deyiladi. Shunday qilib, elektrolitlar dissotsiatsiyasi tenglamasi to‘g‘riroq tarzda quyidagicha yoziladi:




Lekin ko‘pincha soddalashtirish uchun tenglamada  $\text{H}_3\text{O}^+$  emas, balki  $\text{H}^+$  deb yoziladi.

Ba'zi moddalar (yoki ionlar) sharoitga qarab kislota va asos xossasini namoyon qiladi. Masalan, suv  $NH_3$  bilan ta'sirlashganda kislota xossasini namoyon qiladi:




HCl bilan o'zaro ta'sirlanganda esa asos xossani namoyon qiladi:




Sharoitga qarab ham kislotali, ham asosli xossani namoyon qiladigan moddalar *amfolitlar* deyiladi. Yuqorida ko'rilgan misolda suv amfolitdir.

Neytrallanish reaksiyasiga protolitik nazariyaga ko'ra protonning kislotadan asosga o'tish jarayoni deb qaraladi:




### Suvning ion ko'paytmasi. Vodorod ko'rsatkich

Toza suv elektr tokini juda oz o'tkazadi. Bunga sabab, suv kuchsiz elektrolit bo'lib, ionlarga juda kam dissotsiatsiyalanadi:



yoki soddalashtirilgan holda



Suvning dissotsiatsiyalanish konstantasi quyidagiga teng:

$$K_{\text{diss}} = \frac{c(H^+) \cdot c(OH^-)}{c(H_2O)}, \quad K_{\text{diss}} = 1,8 \cdot 10^{-16}.$$

Bu yerda  $c(H_2O)$  suvning dissotsiatsiyalanmagan molekulalari konsentratsiyasi bo'lib, uning miqdori 1 l suv uchun

$$\frac{1000 \text{ g}}{18 \text{ g/mol}} = 55,55 \text{ mol}$$

ga teng.

$22^\circ C$  da suv uchun  $K = 1,8 \cdot 10^{-16}$  deb qarab, tenglamani quyida-gicha yozish mumkin:

$$K \cdot c_i(H_2O) = c(H^+) \cdot c(OH^-) = 1,8 \cdot 10^{-16} \cdot 55,55 = 10^{-14}.$$

$$\text{Bundan } K_{H_2O} = c(H^+) \cdot c(OH^-) = 10^{-14},$$

$K_{H_2O}$  – suvning ion ko'paytmasi.

Shunday qilib, suvda  $H^+$  va  $OH^-$  ionlari konsentratsiyalarining ko'paytmasi doimiy qiymatga ega. U  $22\text{ }^\circ\text{C}$  da  $10^{-14}$  ga teng.

Eritma reaksiyasi  $H^+$  konsentratsiyasi bilan tavsiflanadi.


Neytral eritmalarda:

$$c(H^+) = c(OH^-) = \sqrt{10^{-14}} = 10^{-7} \text{ mol/l.}$$

Kislotali eritmalarda:  $c(H^+) > c(OH^-)$   $c(H^+) > 10^{-7} \text{ mol/l.}$

Ishqoriy eritmalarda:  $c(H^+) < c(OH^-)$   $c(H^+) < 10^{-7} \text{ mol/l.}$

Suvga ishqor quyilsa, vodorod ionlarining konsentratsiyasi kamayib,  $10^{-7} \text{ mol/l}$  va  $10^{-14} \text{ mol/l}$  oralig'iда bo'lishi mumkin. Ayni paytda eritmada  $OH^-$  ionlarining konsentratsiyasi esa  $10^{-7} \text{ mol/l}$  dan ko'payib ketadi. Vodorod ionining konsentratsiyasi qiymatiga qarab reaksiya muhitining kislotali, ishqoriy yoki neytral ekanligini aniqlash mumkin.



Suvning ion ko'paytmasidan foydalanib, agar  $OH^-$  ionlarining konsentratsiyasi ma'lum bo'lsa  $H^+$  ionlarining konsentratsiyasini va aksincha,  $H^+$  ionlarining konsentratsiyasi ma'lum bo'lsa,  $OH^-$  ionlari konsentratsiyasini aniqlash mumkin.

$$c(H^+) = \frac{1 \cdot 10^{-14}}{c(OH^-)} \quad \text{yoki} \quad c(OH^-) = \frac{1 \cdot 10^{-14}}{c(H^+)},$$

$$\text{Masalan: } c(H^+) = 10^{-4} \text{ mol/l bo'lsa, } c(OH^-) = \frac{1 \cdot 10^{-14}}{c(H^+)},$$

$$c(OH^-) = \frac{1 \cdot 10^{-14}}{c(H^+)} = \frac{1 \cdot 10^{-14}}{10^{-4}} = 10^{-10} \text{ mol/l.}$$

Eritma reaksiyasini vodorod ko'rsatkich —  $pH$  bilan tavsiflash oddiy va qulaydir.

Eritmadagi vodorod ionlari konsentratsiyasining manfiy ishora bilan olingan o'nlik logarifmi *vodorod ko'rsatkich* yoki *pH* deyiladi:

$$pH = -\lg c(H^+).$$

$$\text{Masalan, } c(H^+) = 10^{-3} \text{ bo'lsa, } pH = -\lg 10^{-3} = 3 \lg 10 = 3.$$

Neytral eritmalar uchun:  $pH = 7$ .


Kislotali eritmalar uchun:  $pH < 7$ .

Ishqoriy eritmalar uchun:  $pH > 7$ .

Gidroksid ionlari konsestratsiyasining manfiy ishora bilan olingan o‘nlik logarifm qiymati  $pOH$  deyiladi.  $pOH = -\lg c(\text{OH}^-)$  ga teng.

Masalan,  $c(\text{OH}^-) = 10^{-8}$  bo‘lsa  $pOH = -\lg 10^{-8} = 8 \lg 10 = 8$ .

Shunday qilib,  $pH + pOH = 14$ ; bundan  $pH = 14 - pOH$ , yoki  $pOH = 14 - pH$



Eritmarning  $pH$  qiymatini aniqlash uchun bir necha usullar qo‘llanadi. Bulardan biri indikator rangining o‘zgarishidir. Eritmaning  $pH$  ini tajribada aniqlash uchun kislota-asosli indikatorlar qo‘llanadi. Ko‘p ishlatiladigan indikatorlarga metilzarg‘aldog‘i, metilqizili, fenolftalein, timolftalein, lakkus qog‘ozni misol bo‘ladi. Masalan, metilzarg‘aldog‘i indikatori kislotali muhitda  $pH < 3,1$  bo‘lganda pushti rangli,  $pH > 4,4$  bo‘lganda sariq rangli bo‘ladi. Fenolftalein indikatori  $pH < 8$  bo‘lganda rangsiz,  $pH > 9,8$  bo‘lganda to‘q pushti ranglidir. Lakkus qog‘ozni esa kislotali muhitda  $pH < 5$  bo‘lganda qizil, neytral muhitda  $5 < pH < 8$  pushti, ishqoriy muhitda  $pH > 8$  ko‘k rangli bo‘ladi. Eritmaning  $pH$  ini taqriban aniqlash uchun universal indikatordan ham foydalaniлади. Keyingi paytlarda indikator eritmasi singdirilgan qog‘ozdan keng foydalaniлади. Rangli shkala etalonidan foydalaniб, indikator qog‘ozni rangiga qarab, eritmaning  $pH$  ini aniqlash mumkin.

Eritmaning  $pH$  ini aniqroq o‘lchashda  $pH$  metrlardan foydalaniлади.

### Mavzu bo‘yicha masalalar va ularni yechish namunasi

**1- masala.**  $c(\text{OH}^-) = 10^{-4}$  mol/l va  $c(\text{OH}^-) = 10^{-11}$  mol/l bo‘lgan eritmadiagi  $c(\text{H}^+)$  ni hisoblang.

**Berilgan:**

$$c(\text{OH}^-) = 10^{-4} \text{ mol/l}$$

$$c(\text{OH}^-) = 10^{-11} \text{ mol/l}$$

$$c(\text{H}^+) = ?$$

**Yechish:**

$$c(\text{H}^+) \cdot c(\text{OH}^-) = 10^{-14}$$

$$c(\text{H}^+) = 10^{-14}/c(\text{OH}^-)$$

$$1) c(\text{H}^+) = 10^{-14}/10^{-4} = 10^{-10} \text{ mol/l}$$

$$2) c(\text{H}^+) = 10^{-14}/10^{-11} = 10^{-3} \text{ mol/l}$$

Javob:  $c(\text{H}^+) = 10^{-10} \text{ mol/l}$ ;  $c(\text{H}^+) = 10^{-3} \text{ mol/l}$ .

**2- masala.**  $c(\text{OH}^-) = 10^{-5} \text{ mol/l}$  bo'lgan eritmaning  $c(\text{H}^+)$  va  $pH$  ni hisoblang.

**Berilgan:**

$$c(\text{OH}^-) = 10^{-5} \text{ mol/l}$$

$$c(\text{H}^+) = ? \quad pH = ?$$

**Yechish:**

$$pOH = -\lg c(\text{OH}^-) = -\lg 10^{-5} = 5,$$

$$pH + pOH = 14; \quad pH = 14 - pOH = 14 - 5 = 9,$$

$$c(\text{H}^+) = 10^{-9} \text{ mol/l}.$$

Javob:  $c(\text{H}^+) = 10^{-9} \text{ mol/l}$ ;  $pH = 9$ .

**3- masala.**  $c(\text{H}^+)$ : a)  $2 \cdot 10^{-4} \text{ mol/l}$ ; b)  $5 \cdot 10^{-6} \text{ mol/l}$ ;  
d)  $9 \cdot 10^{-9} \text{ mol/l}$  bo'lgan eritmaning  $pH$  ini hisoblang.

**Berilgan:**

$$c(\text{H}^+) = 2 \cdot 10^{-4} \text{ mol/l},$$

$$c(\text{H}^+) = 5 \cdot 10^{-6} \text{ mol/l},$$

$$c(\text{H}^+) = 9 \cdot 10^{-9} \text{ mol/l}$$

$$pH = ?$$

**Yechish:**

$$pH = -\lg c(\text{H}^+)$$

$$\text{a)} pH = -\lg(2 \cdot 10^{-4}) = 4 - \lg 2 = 3,70; \quad pH = 3,70;$$

$$\text{b)} pH = -\lg(5 \cdot 10^{-6}) = 6 - \lg 5 = 5,31; \quad pH = 5,31;$$

$$\text{d)} pH = -\lg(9 \cdot 10^{-9}) = 9 - \lg 9 = 8,05; \quad pH = 8,05.$$

Javob:  $pH = 3,70$ ;  $pH = 5,31$ ;  $pH = 8,05$ .

**4- masala.** Hajmi 1 l bo'lgan eritmada 6,3 g nitrat kislota eritilgan. Eritmaning  $pH$  qiymatini aniqlang. Eritma 100 marta suyultirilgandan songgi  $pH$  qiymatini hisoblang.

**Berilgan:**

$$V(\text{eritma}) = 1 \text{ l}$$

$$m(\text{HNO}_3) = 6,3 \text{ g}$$


---

$$pH = ?$$

Eritma 100 marta suyultirilgandan song  $pH = ?$

**Yechish:**

1.  $\text{HNO}_3$  ning modda miqdori teng:

$$n(\text{HNO}_3) = \frac{m(\text{HNO}_3)}{M(\text{HNO}_3)} = \frac{6,3 \text{ g} \cdot \text{mol}}{63 \text{ g}} = 0,1 \text{ mol}.$$

2. Eritmadagi  $\text{HNO}_3$  ning molyar konsentratsiyasi:

$$c(\text{HNO}_3) = \frac{n(\text{HNO}_3)}{V(\text{eritma})} = \frac{0,1 \text{ mol}}{1 \text{ l}} = 0,1 \frac{\text{mol}}{\text{l}}.$$

$$3. pH = -\lg c(\text{H}^+) = -\lg 0,1 = -\lg(1 \cdot 10^{-1}) = 1.$$

4. Eritma 100 marta suyultirilgandan song:

$$n(\text{HNO}_3) = 0,1 \text{ mol} : 100 = 1 \cdot 10^{-3} \text{ mol},$$

$$c(\text{HNO}_3) = \frac{n(\text{HNO}_3)}{V(\text{eritma})} = \frac{1 \cdot 10^{-3} \text{ mol}}{100 \text{ l}} = 1 \cdot 10^{-5} \frac{\text{mol}}{\text{l}},$$

$$pH = -\lg c(\text{H}^+) = -\lg(1 \cdot 10^{-5}) = 5.$$

*Javob:*  $pH = 1$ ; eritma 100 marta suyultirilgandan song  $pH = 5$ .

### **Mavzuni o'zlashtirishni mustaqil nazorat qilish uchun savol va masalalar**

1. Kislotali, ishqoriy va neytral muhitda  $pH$  qiymati qanday?
2. Suv ionlarining ko'paytmasi qanday omillarga bog'liq?
3. Agar oshqozon shirasining kislotaligi 3,5 ga teng bo'lsa kishi salomatligi haqida qanday xulosa chiqarish mumkin?
4. Eritmaning  $pH$  qiymati 4 ga teng. Shu eritmaning  $c(\text{H}^+)$  va  $c(\text{OH}^-)$  ni aniqlang.
5. Tibbiyot amaliyotida biologik obyektlar  $pH$ ini aniqlash zarurati bormi?
6. Eritmada  $c(\text{H}^+) = 3 \cdot 10^{-4} \text{ mol/l}$ . Eritmaning  $pH$  va  $pOH$  qiymatini aniqlang.

## Vaziyatli masalalar

1. Agar me'da shirasining vodorod ioni konsentratsiyasi  $c(H^+) = 10^{-3}$  mol/l ga teng bo'lsa, uning  $pH$  i nechaga teng va kishi salomatligi haqida qanday xulosa chiqarish mumkin?

*Javob:*  $pH = 3$ . Me'da shirasining kislotaligi kamaygan.

2. Me'da shirasining kislotaligi kamayganda tibbiy preparat sifatida ishlataladigan 3% li xlorid kislota eritmasining  $pH$  ini aniqlang.

*Javob:*  $pH = 0,085$ .

## Test savollari

1. Vodorod va gidroksid ionlarning ko'paytmasi nimaga teng?

a) 7;    b) 14;    d)  $10^{-7}$ ;    e)  $10^{-14}$ .

2. Eritmaga kislota qo'shilganda vodorod ionlarining konsentratsiyasi qanday o'zgaradi?

a) vodorod ionlarining konsentratsiyasi ortadi;  
 b) vodorod ionlarining konsentratsiyasi kamayadi;  
 d) vodorod ionlarining konsentratsiyasi o'zgarmaydi;  
 e) vodorod ionlarining konsentratsiyasi avval ortadi, so'ng kamayadi.

3. 0,0010 molyarli HCl eritmasidagi vodorod ionlarining konsentratsiyasini aniqlang.

a)  $10^{-2}$ ;    b)  $10^{-3}$ ;    d)  $10^{-4}$ ;    e)  $10^{-11}$ .

4. 0,0010 molyarli HCl eritmasidagi gidroksid ionlarining konsentratsiyasini aniqlang.

a)  $10^{-12}$ ;    b)  $10^{-3}$ ;    d)  $10^{-10}$ ;    e)  $10^{-11}$ .

5. 0,0100 molyarli HCl eritmasining  $pH$  ini aniqlang.

a) 2;    b) 3;    d) 11;    e) 12.

6. 0,0100 molyarli HCl eritmasining  $pOH$  ini aniqlang.

a) 2;    b) 3;    d) 11;    e) 12.

7. Protolitik nazariyaga ko'ra asoslar deb ...

a) proton biriktirib oluvchi moddalarga aytildi;  
 b) proton beruvchi moddalarga aytildi;

- d) ham proton berib, ham qabul qiluvchi moddalarga aytildi;  
e) protonlar donoriga aytildi.

8. Protolitik nazariyaga ko‘ra kislotalar deb ...

- a) proton biriktirib oluvchi moddalarga aytildi;  
b) proton beruvchi moddalarga aytildi;  
d) ham proton berib, ham qabul qiluvchi moddalarga aytildi;  
e) protonlar aktsentoriga aytildi.

9.  $c(H^+) = 10^{-3}$ .  $c(OH^-)$  ni aniqlang.

- a)  $10^{-5}$ ; b)  $10^{-11}$ ; d)  $10^{-12}$ ; e)  $10^{-6}$ .

10.  $c(OH^-) = 10^{-5}$ .  $pH$  ni aniqlang.

- a) 5; b) 9; d) 6; e) 10.

## LABORATORIYA ISHI

### Eritmalar $pH$ ini kalorimetrik aniqlash (bufersiz usul)

Eritmalar  $pH$  ini bufersiz usulda aniqlash uchun Mixaels qutichasidan foydalilaniladi. U quyidagilardan iborat:

- 1) nitrofenolning boshlang‘ich induktori bo‘lgan 4 ta idish;
- 2)  $pH$  o‘zgarish oralig‘i 1–14 bo‘lgan rangli shkalali universal indikator;
- 3) 4 qator kavsharlangan probirkalarda etalonlar;
- 4) chinni idishcha yoki buyum oynachasi, shisha tayoqcha va pipetka;
- 5) 6 uyachali va probirkali komparator.

**Ishning bajaralishi.** Mixaels probirkalari yordamida  $pH$  ni aniqlash quyidagicha bajariladi:

1) universal indikator va rangli shkala bo‘yicha me’da  $pH$  ni aniqlanadi. Buning uchun buyum oynasiga me’da shirasidan bir necha tomchi tomiziladi va universal indikator qog‘ozcha ho‘llanadi. Indikatorli qog‘ozchani rangli shkala ranglari bilan solishtiriladi va u bo‘yicha me’da shirasining taxminiy  $pH$  qiymati aniqlanadi;

2) Mixaels qutisidan indikator shunday tanlanadiki, eritmaning topilgan taxminiy  $pH$  qiymati indikator rangining o‘zgarishi oralig‘ida bo‘lishi kerak;

3) diametri etalonniki bilan bir xil bo‘lgan probirkaga 0,6 m/l me’da shirasi solinadi va tanlab olingan indikatordan 0,1 m/l qo‘sib aralashtiriladi;

4) Me'da shirasi va indikator solingan probirkani komparatorga qo'yib o'sha indikatorli etalon bilan solishtiriladi. Bo'yalish intensivligining mosligi etalon bilan eritma  $pH$  ning tengligini ko'rsatadi. Shunday usulda siyidik  $pH$  ini aniqlab, bemorning solamatligi haqida xulosa chiqarish mumkin.

## BUFER ERITMALARNING XOSSALARI

**Mashg'ulotning maqsadi.** Biologik sistemalarda bufer eritmalarning ta'sir mexanizmini oldindan belgilashni o'rganish, bufer eritmalar  $pH$  ini miqdoriy hisoblash va eksperimental aniqlashni o'rganish.

**O'r ganilayotgan mavzuning ahamiyati.** Bufer sistemalar xossalari bilish va ularni tibbiyat amaliyotida konkret masalalarni hal qilishga tadbiq qila bilish zarur, chunki bu sistemalar organizmda kislota-asos muvozanatini saqlab turishda muhim rol o'yнaydi. Ular qon, hujayra ichi va hujayralararo suyuqliklar kislotaliligini boshqarib turadi, shu bilan birga ferment va gormonlar yuqori faollikni namoyon qilishi uchun maqbul sharoit yaratib beradi. Tirik organizmda qon  $pH$  ining normal qiymati 7,36. U bikarbonat bufer sistemasi va qonning butun bufer sig'imining 75% ini tashkil etadigan qudratlil gemoglobin va oksigemoglobin bufer sistemasi bilan ta'minlanadi. Arteriyalarda qon  $pH$  ining doimiyligi ham gemoglobin va oksigemoglobin sistemasi bilan ushlab turiladi. Siyidik va hazm azolari suyuqligida fosfatli buferning bo'lishi muhim.

### Boshlang'ich bilim darajasi:

1. Massalar ta'siri qonuni.
2. Kimyoviy muvozanat, kimiyoiy muvozanatning siljishi.
3. Suvning ion ko'paytmasi, vodorod ko'rsatgich.
4. Kuchli va kuchsiz kislota va asos eritmalarini nazariyasi.
5. Eritma konsentratsiyasini ifodalash usullari.

### Mustaqil tayyorlanish uchun o'quv adabiyotlar:

1. *X.Rustamov.* Umumiyl ximiya. T., 1969, 129- bet.
2. *В.Н.Алексеев.* Количественный анализ. М., 1972, 280- bet.
3. *К.А.Селезнёв.* Аналитическая химия. М., 1973, 30- bet.
4. *И.К.Цитович.* Курс аналитической химии. М., 1985, 31- bet.
5. *С.С.Оленин, Г.Н.Фадеев.* Неорганическая химия. М., 1985, 135- bet.

6. A.C.Ленский. Введение в бионеорганическую и биофизическую химию. М., 1989, 151- bet.
7. S.S.Qosimova, S.M.Masharipov, Q.O.Najimov. Umumiy va bioorganik kimyodan amaliy mashg'ulotlar. T., 2001, 61–68- betlar.
8. X.H.Hakimov, A.Z.Tatarskaya, N.T.Olimxo'jayeva. Umumiy kimyodan amaliy mashg'ulotlar. T., 1993, 49–55- betlar.


### Darsda ko'rildigan savollar:

1. Bufer eritmalar va ularning sinflanishi.
2. Bufer eritmalarining  $pH$  qiymatini aniqlash. Genderson–Gasselbax tenglamasi.
3. Bufer eritmalarining ta'sir mexanizmi.
4. Bufer sistemalar  $pH$  qiymatiga suyultirishning ta'siri.
5. Bufer eritmalarining biologik ahamiyati.

## MA'LUMOTLAR YIG'INDISI

### Bufer eritmalarlar


Ko'pchilik eritmalarining  $pH$  qiymati vaqt o'tishi bilan havodagi kislota va ishqor tabiatli moddalar ta'sirida o'zgaradi. Masalan, havodagi  $CO_2$  ning erishi sababli ishqor eritmasining  $pH$  qiymati o'zgaradi. Bunga quyidagi reaksiyaning borishi sabab bo'ladi:




Lekin shunday eritmalar borki, ularga nafaqat  $CO_2$ , balki oz miqdorda kuchli kislota yoki ishqor qo'shilganda ham o'zining  $pH$  qiymatini o'zgartirmay saqlab qoladi. Bunday eritmalar *bufer eritmalar* yoki *bufer sistemalar* deyiladi.

Ular tarkibiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

1) kuchsiz kislota va shu kislotaning kuchli asos bilan hosil qilgan tuzi aralashmasidan tashkil topgan:



2) kuchsiz asos va shu asosning kuchli kislota bilan hosil qilgan tuzi aralashmasidan tashkil topgan:





3) ko'p negizli kislotalarning nordon tuzi aralashmasidan tashkil topgan:



Fosfatli bufer sistemada kislota vazifasini  $\text{NaH}_2\text{PO}_4$ , asos vazifasini  $\text{Na}_2\text{HPO}_4$  bajaradi.

Bufer sistemalarning vodorod ko'rsatkichi ( $pH$ ) Genderson–Gasselbox tenglamasi bo'yicha hisoblanadi. Buni asetatli bufer (kislotali bufer) misolida ko'rish mumkin:



Bufer sistemadagi vodorod ionlarining konsentratsiyasi kuchsiz sirka kislota molekulasining dissotsiatsiyalanish konstantasiga bog'liq:

$$K = \frac{c(\text{H}^+) \cdot c(\text{CH}_3\text{COO}^-)}{c(\text{CH}_3\text{COOH})}.$$

Bu formuladan vodorod ionlarining konsentratsiyasi topiladi:

$$c(\text{H}^+) = \frac{K \cdot c(\text{CH}_3\text{COOH})}{c(\text{CH}_3\text{COO}^-)}.$$

Sirka kislota kuchsiz kislota bo'lgani sababli juda kam ionlarga ajraladi, ya'ni eritmada ionlanmagan molekulalarning miqdori ko'p. Natriy asetat tuzi esa kuchli elektrolit bo'lgani uchun ionlarga to'liq ajraladi. Eritmada asetat ionlarining ko'payishi sirka kislotaning ionlanishini kamaytiradi. Eritmada ionlarga ajralmagan sirka kislotaning molekulalari ko'pligini e'tiborga olib  $c(\text{CH}_3\text{COOH})$  ni kislotaning umumiy konsentratsiyasiga teng deb qabul qilinadi:

$$c(\text{CH}_3\text{COOH}) = c_{\text{kislota}}.$$

Eritmada  $\text{CH}_3\text{COONa}$  yaxshi ionlangani uchun barcha  $\text{CH}_3\text{COO}^-$  ionlari tuzning ionlanishidan hosil bo'ladi. Bu ionlarning konsentratsiyasini tuzning umumiy konsentratsiyasiga teng deb qarash mumkin, ya'ni

$$c(\text{CH}_3\text{COO}^-) = c_{\text{tuz}}, \text{ u holda } c(\text{H}^+) = K \cdot \frac{c_{\text{kislota}}}{c_{\text{tuz}}}.$$

Bu tenglamani logarifmlab, uning qiymatini ( $-1$ ) ga ko'paytirilsa, quyidagi formula kelib chiqadi:

$$-\lg c(\text{H}^+) = -\lg K + \lg \frac{c_{\text{tuz}}}{c_{\text{kislota}}}.$$

$-\lg c(H^+) = pH$ ;  $-\lg K = pK$  Ekanligini hisobga olib, bu formulani quyidagi ko‘rinishda yozish mumkin:

$$\text{kislotali bufer uchun} \quad pH = pK_{\text{kislota}} - \lg \frac{c_{\text{kislota}}}{c_{\text{tuz}}}.$$


Shunday qilib, bufer eritmaning  $pH$  i olingan tuz va kislota konsentratsiyalarining nisbati bilan ifodalanadi. Huddi shu yo‘l bilan kuchsiz asos va uning tuzidan iborat bo‘lgan bufer eritma (ishqoriy bufer) uchun quyidagi tenglamalarni yozish mumkin:

$$\text{ishqoriy bufer uchun} \quad pH = 14 - pK_{\text{asos}} + \lg \frac{c_{\text{asos}}}{c_{\text{tuz}}}.$$

Buferlarga oz miqdorda kislota yoki ishqor qo‘shilganda ularning  $pH$  i amalda o‘zgarmaydi, chunki quyida keltirilgan tenglama bo‘yicha qo‘shilgan kuchli kislota ekvivalent miqdor kuchsiz kislota (kuchsiz asos) yoki qo‘shilgan ishqor ekvivalent miqdordagi tuz bilan almashinadi:



Qo‘shilayotgan kislota bufer sistemaning komponentlaridan biri  $\text{CH}_3\text{COONa}$  bilan quyidagicha reaksiyaga kirishadi:




Bunda  $\text{CH}_3\text{COONa}$  ning bir qismi  $\text{CH}_3\text{COOH}$  ga o‘tadi. Buning oqibatida vodorod ionlari to‘liq kuchsiz kislota  $\text{CH}_3\text{COOH}$  ga bog‘lanadi va  $c(H^+)$  hamda  $pH$  qiymatlari o‘zgarmaydi.<sup>3</sup>

Bu sistemaga ishqor qo‘shilganda esa quyidagi o‘zgarish ro‘y beradi:



Qo‘shilayotgan ishqor bufer sistemaning komponentlaridan biri bo‘lgan  $\text{CH}_3\text{COOH}$  bilan quyidagicha reaksiyaga kirishadi:



Bu jarayonda gidroksid ionlari sirka kislota protoni bilan bog‘lanadi va kuchsiz elektrolit suv hosil qiladi. Shuning uchun  $c(\text{OH}^-)$  konsentratsiyasi o‘zgarmaydi, oqibatda  $pH$  deyarli o‘zgarmay qoladi.

3 ~ Bioanorganik va fizkolloid kimyo

Bufer sistemalarni 100 martagacha suyultirish ularning  $pH$  qiymatiga juda kam ta'sir ko'rsatadi, chunki ikkala komponent konsentratsiyasi bir me'yorda kamayadi. Yuqorida keltirilgan tenglamalarga ko'ra  $c_{\text{kislota}}$  va  $c_{\text{asos}}$  konsentratsiyasi nisbati o'zgarmaydi.

Bufer sistemalarning  $pH$  ini doimiy ushlab turish cheklangandir va u qo'shilayotgan kislota hamda ishqorning miqdoriga bogliq bo'ladi.

Bufer sistemaning reaksiya muhitini o'zgarishiga qarshi turishi bufer sig'im bilan aniqlanadi. *Bufer sig'im* 1 l bufer eritmaning  $pH$  qiymatini dastlabki ko'rsatkichiga nisbatan bir birlikka o'zgartirish uchun qo'shiladigan kuchli kislota yoki kuchli asosning mol ekvivalent miqdori bilan belgilanadi:

$$B = \frac{c}{pH_1 - pH_0}, \text{ mol/l},$$

bu yerda:  $B$  – bufer sig'imi;  $c$  – kuchli kislota yoki asos miqdori,  $\text{mol/l}$ ;  $pH_0$  – kislota yoki asos qo'shilgunga qadar bo'lgan eritmaning vodorod ko'rsatkichi;  $pH_1$  – kislota yoki asos qo'shilgandan keyingi eritmaning vodorod ko'rsatkichi.

Buferni tashkil etuvchi kislota (asos) va tuz konsentratsiyasining ortishi bilan sistemaning bufer sig'imi ortadi. Shunday qilib, bufer aralashmaning  $pH$  qiymati faqat komponentlar nisbati va kuchsiz kislota yoki asosning dissotsiatsiya konstantasiga ( $K_{\text{diss}}$ ), bufer sig'imi esa komponentlar nisbati va ularning konsentratsiyasiga bog'liq bo'ladi.

Biologik sistemalardagi bufer eritmalarining  $pH$  qiymati quyidagi tenglama bilan aniqlanadi:

$$pH = pK_0 + \lg \frac{c(\text{proton akseptori})}{c(\text{proton donori})}, \text{ mol/l}.$$

Odam organizmida oqsil buferi katta rol o'ynaydi, u protein (Pt) va uning kuchli asos bilan hosil qilgan tuzidan tashkil topgan:



Oqsillar hisobiga organizmning hamma hujayralari va to'qimalari ma'lum bufer ta'siriga ega bo'ladi, masalan, teriga tushadigan oz miqdordagi kislota yoki ishqor tez neytrallanadi.

Qonda gemoglobin, oksigemoglobin bikarbonat, protein va fosfat bufer sistemalar mavjud.

Bikarbonatli bufer sistema  $\text{H}_2\text{CO}_3 + \text{NaHCO}_3$  asosan hujayra tashqarisidagi buferdir. Qon umumiyl bufer sig'iminining deyarli 10% i bikarbonat buferga to'g'ri keladi. Qonning  $pH$  qiymati normal bo'lgan, ya'ni  $pH = 7,4$  da bikarbonat bufer sistemaning tarkibiy nisbati 1 : 20 ga teng. Qonga kuchli kislota yoki asos tushganda bikarbonat bufer sistema ta'sirini quyidagicha ko'rsatish mumkin.

Masalan, 1,00 l qon zardobiga 10,00 ml 0,1000 molyarli xlorid kislota qo'shilganda  $pH$  7,4 dan 7,2 ga o'zgaradi. Agar shuncha miqdordagi xlorid kislota 1,00 l suvgaga yoki fiziologik eritmaga qo'shilsa,  $pH$  qiymati 7,4 dan 5,0 gacha o'zgaradi.

Siydikda va ovqat hazm qilish bezlari suyuqligida fosfatli buferning bo'lishi  $\text{NaH}_2\text{PO}_4 + \text{Na}_2\text{HPO}_4$  katta ahamiyatga ega. Fosfat bufer sistemaning qondagi konsentratsiyasi karbonatli bufer sistemaga nisbatan kamroq. Fosfatli bufer sistema umumiy qon bufer sig'imining 1% ini tashkil qiladi.

Bufer sistemalar tirik organizmni normal hayot faoliyati uchun juda zarur hisoblanadi.

### **Mavzu bo'yicha masalalar va ularni yechish namunalari**

**1- masala.** Komponentlari bir xil nisbatlarda olingan 0,1000 mol/l konsentratsiyali sirkakislota va 0,1000 mol/l natriy asetatdan tashkil topgan asetatlbufer sistemaning  $pH$  ini aniqlang ( $K(\text{CH}_3\text{COOH}) = 1,8 \cdot 10^{-5}$ ).

**Berilgan:**

$$c(\text{CH}_3\text{COOH}) = 0,1000 \text{ mol/l}$$

$$c(\text{CH}_3\text{COONa}) = 0,1000 \text{ mol/l}$$

$$K(\text{CH}_3\text{COOH}) = 1,8 \cdot 10^{-5}.$$


---

$$pH = ?$$

**Yechish.** Genderson-Gasselbox tenglamasiga ko'ra:

$$pH = pK_{\text{k-ta}} - \lg \frac{c_{\text{k-ta}}}{c_{\text{tuz}}}, \quad pK = -\lg 1,8 \cdot 10^{-5} = 5 - \lg 1,8 = 4,75,$$

$$pH = 4,75 - \lg \frac{0,1000}{0,1000} = 4,75.$$

*Javob:*  $pH = 4,75$ .

**2- masala.** Komponentlarining konsentratsiyasi 0,1000 mol/l bo'lgan asetat buferga 0,0100 mol/l HCl va NaOH eritmalarini qo'shilgandan keyingi  $pH$  ni aniqlang ( $pK(\text{CH}_3\text{COOH}) = 4,75$ ).

**Berilgan:**

$$c(\text{CH}_3\text{COOH}) = 0,1000 \text{ mol/l}$$

$$c(\text{CH}_3\text{COONa}) = 0,1000 \text{ mol/l}$$

$$c(\text{HCl}) = 0,0100 \text{ mol/l}$$

$$c(\text{NaOH}) = 0,0100 \text{ mol/l}.$$


---

$$pH = ?$$

**Yechish:**

1) HCl qo'shilgandan so'ng kislotaning konsentratsiyasi 0,1100 mol/l, tuzniki esa 0,0900 mol/l bo'ladi:

$$pH = 4,75 - \lg \frac{0,1100}{0,0900} = 4,66;$$

$$\Delta pH = 4,75 - 4,66 = 0,09;$$

2) NaOH qo'shilgandan so'ng kislotaning konsentratsiyasi 0,0900 mol/l, tuzniki esa 0,1100 mol/l bo'ladi:

$$pH = 4,75 - \lg \frac{0,0900}{0,1100} = 4,88;$$

$$\Delta pH = 4,75 - 4,88 = -0,13.$$

*Javob:* Bufer sistemaning pH qiymati kislota qo'shilgandan so'ng 0,09 birlikka kamayadi, ishqor qo'shilgandan so'ng esa 0,13 birlikka ortadi.

**3- masala.** Komponentlarining konsentratsiyasi 0,5000 mol/l bo'lgan ammiakli bufer sistemadan 1,00 m/l olib, unga 100,00 ml suv qo'shing va pH ini aniqlang ( $pK(\text{NH}_4\text{OH}) = 4,75$ ).

**Berilgan:**

$$c(\text{NH}_4\text{OH}) = 0,5000 \text{ mol/l}$$

$$c(\text{NH}_4\text{Cl}) = 0,5000 \text{ mol/l}$$

$$V(\text{H}_2\text{O}) = 100,00 \text{ ml}$$

$$V(\text{eritma}) = 1,00 \text{ ml}$$

$$pH = ?$$

**Yechish.** Suv bilan suyultirilgandan so'ng komponentlarning konsentratsiyasi 0,0050 mol/l ga teng bo'ladi:

$$pH = 14 - pK_{\text{asos}} + \lg \frac{c(\text{asos})}{c(\text{tuz})} = 14 - 4,75 + \lg \frac{0,0050}{0,0050} = 9,25.$$

*Javob:*  $pH = 9,25$ . Suv bilan 100 marta suyultirilganda bufer sistemaning pH'i o'zgarmaydi, chunki komponentlarning konsentratsiyasi bir xilda 100 marta kamayadi.

### **Mavzuni o'zlashtirishni mustaqil nazorat qilish uchun savol va masalalar**

1. Bufer sistemalarga ta'rif bering va tarkibini ko'rsating.
2. Fosfatli va bikarbonatli buferlarning ta'sir mexanizmini keltiring.
3. Oqsil bufer komponentlarini ko'rsating.

4. Biologik suyuqliklarda – siyidik, ovqat hazm qilish bezlari suyuqligida fosfatli buferning ta'siri amalga oshiriladi. Komponentlar nisbati bir xil bo'lib, 0,1000 mol/l  $\text{NaH}_2\text{PO}_4$  va  $\text{Na}_2\text{HPO}_4$  eritmalaridan tashkil topgan buferning  $pH$  ini aniqlang.  $K_{(\text{H}_3\text{PO}_4)^-} = 6,8 \cdot 10^{-8}$ .

5. Bufer sig'imi nima va u qanday omillarga bog'liq?

6. Bufer sig'im qaysi formula bilan aniqlanadi?

### Vaziyatli masalalar

**1- masala.** Qonda bikarbonatli bufer sistemaning konsentratsiyasi yuqori. Komponentlar nisbati bir xil bo'lib, 0,1000 mol/l  $\text{H}_2\text{CO}_3$  va  $\text{NaHCO}_3$  dan tashkil topgan bufer sistema suv bilan 100 marta suyultirilganda; 0,0100 mol/l HCl yoki NaOH qo'shilganda  $pH$  qiymati o'zgaradimi?  $K_{(\text{H}_2\text{CO}_3)} = 4,5 \cdot 10^{-7}$ .

Javob: komponentlar nisbati bir xil bo'lгanda  $pH = 6,3$ ;

HCl qo'shilgandan so'ng  $pH = 6,29$ ;

NaOH qo'shilgandan so'ng  $pH = 6,48$  bo'ladi;

100 marta suyultirilganda esa  $pH$  o'zgarmaydi.

**2- masala.** Komponentlar nisbati bir xil bo'lib, 0,5000 mol/l  $\text{CH}_3\text{COOH}$  va  $\text{CH}_3\text{COONa}$  dan iborat asetatli bufer sistemaning  $pH$  ini aniqlang. ( $pK_{(\text{CH}_3\text{COOH})} = 4,75$ .)

Javob:  $pH = 4,75$ .

### Test savollari

1. Bufer sistemalar organizmda qanday vazifani bajaradi?

- a) osmotik bosimni doimiy saqlab turadi;
- b) organizm biosuyuqligi  $pH$  ni doimiy saqlaydi;
- d) qonning  $pH$  ini doimiy saqlaydi;
- e) biologik suyuqliklarning  $pH$  ini oshiradi.

2. Bufer eritmalarining  $pH$  i komponentlar nisbatiga bog'liqmi?

- a) ha;    b) yo'q;    d) agregat holatiga bog'liq;
- e) komponentlarning tabiatiga bog'liq.

3. Bufer sig'im qaysi formula bilan aniqlanadi?

$$\text{a) } \beta = \frac{c_1 - c_2}{pH_1 - pH_0}; \quad \text{d) } \beta = \frac{c}{pH_1 - pH_0};$$

$$\text{b) } \beta = \frac{c}{pH_0 - pH_1}; \quad \text{e) } \beta = \frac{c_1 - c_2}{pH_0}.$$

4. Bikarbonatli bufer qon umumiy bufer sig‘imining necha protsentini tashkil qiladi?

- a) 50%;    b) 75%;    d) 10%;    e) 100%.

5. Qaysi biologik suyuqlikning ko‘proq qiymatini fosfat bufer tashkil qiladi?

- a) qon;    b) siydir;    d) siydir va ovqat hazm qilish shirasi;  
e) ovqat hazm qilish shirasi.

6. Komponentlarining konsentratsiyasi 0,1000 mol/l bo‘lgan ammiakli bufer sistemani 100 marta suyultirilganda  $pH$  i nechaga teng bo‘ladi?

- a) 4,75;    b) 4,95;    d) 9,25;    e) 9,55.

7. Asetatlari bufer sistemaga oz miqdorda  $HCl$  qo‘shilganda bufer sistemaning  $pH$  qiymati qanday o‘zgaradi?

- a) keskin ortadi;                  d) deyarli o‘zgarmaydi;  
b) keskin kamayadi;                e) 2 marta ortadi.

8. Ammiakli bufer sistemaga oz miqdorda  $NaOH$  qo‘shilganda bufer sistemaning pH qiymati qanday o‘zgaradi?

- a) keskin ortadi;                  d) deyarli o‘zgarmaydi;  
b) keskin kamayadi;                e) 2 marta ortadi.

9. Komponentlarning konsentratsiyasi 0,5000 mol// bo‘lgan fosfatli bufer sistemani 10 marta suyultirilganda  $pH$  qiymati qanday o‘zgaradi?

- a) o‘zgarmaydi;                  d) 2 marta ortadi;  
b) juda oz ortadi;                 e) 2 marta kamayadi.

10. Oqsil bufer sistemaning komponentlarini ko‘rsating:

- |                           |                            |
|---------------------------|----------------------------|
| a) $CH_3COOH + CH_3COONa$ | d) $PtCOOH + PtCOONa$      |
| b) $H_2CO_3 + NaHCO_3$    | e) $NaH_2PO_4 + Na_2HPO_4$ |

### **LABORATORIYA ISHI**

#### **Bufer eritmalar tayyorlash va ularning xossalalarini tekshirish**

##### **1- tajriba. Bufer eritma tayyorlash.**

Tajriba uchun 0,1000 mol/l konsentratsiyali  $CH_3COOH$  va  $CH_3COONa$  eritmalaridan foydalaniladi.

5 ta bir xil probirkaga jadvalda ko'rsatilgan hajmlarda sirkal kislota va uning tuzli eritmalar solinadi.

Har bir probirkaga 3 tomchidan metilzarg'aldog'i solinadi, aralashdiriladi va jadvalda bufer aralashmalar rangi ko'rsatiladi. So'ngra bufer eritmalar  $pH$  ining nazariy qiymati quyidagi formula bo'yicha hisoblab topiladi:

$$pH = pK_{(\text{kislota})} - \lg \frac{V_{(\text{kislota})}}{V_{(\text{tuz})}}.$$

Probirk	Bufer aralashmaning tarkibi, ml		Aralashma $pH$ ining hisoblangan qiymati	Indikator qo'shilgandan keyingi rangi
	$\text{CH}_3\text{COOH}$	$\text{CH}_3\text{COONa}$		
1	10,0	10,0		
2	15,0	5,0		
3	12,0	8,0		
4	8,0	12,0		
5	5,0	15,0		

## 2- tajriba. Suyultirishning bufer eritma $pH$ iga ta'siri.

Probirkada 5,00 ml sirkal kislota va huddi shunday hajmdagi uning tuzidan tashkil topgan bufer aralashma tayyorlanadi. Shu aralashmadan 2,00 ml olib boshqa probirkaga solinadi va 6,00 ml suv qo'shib suyultiriladi. Har bir probirkaga 2 tomchidan metilqizili indikatori qo'shiladi. Eritma qaysi rangga bo'yaladi? Suyultirishning bufer eritma  $pH$  iga ta'siri haqida xulosa chiqariladi.

## 3- tajriba. Kislota va ishqorning bufer eritma $pH$ iga ta'siri.

3 ta probirkada 5,00 ml  $\text{CH}_3\text{COOH}$  va 5,00 ml  $\text{CH}_3\text{COONa}$  dan tashkil topgan bufer eritma tayyorlanadi. Birinchi probirkaga 5 tomchi 0,1000 mol/l HCl, ikkinchisiga 5 tomchi 0,1000 mol/l NaOH eritmasi, uchinchisiga 5 tomchi distillangan suv solib, metil qizili indikatori tomiziladi. Eritmalarning rangi belgilanadi. Oz miqdordagi kislota va ishqorning bufer eritma  $pH$  iga ta'siri to'g'risida xulosa chiqariladi.

## 4-tajriba. Qon zardobining bufer sig'imini aniqlash.

2 ta kolbaga 5,00 m/l dan qon zardobi o'lchab solinadi ( $pH = 7,4$ ). Kolbalarning biriga 2 tomchi fenolftalein qo'shib 0,1000 mol/l NaOH eritmasi bilan och pushti ranggacha titrlanadi.

Ikkinci kolbaga 2 tomchi metilzarg'aldog'i indikatori qo'shib 0,1000 mol/l HCl eritmasi bilan sariq-pushti ranggacha titrlanadi. Natijalar jadvalga kiritiladi va qon zardobining bufer sig'imi asos va kislotaga nisbatan quyidagi formulalar orqali hisoblanadi:

$$B_{\text{kislot}} = \frac{c_{\text{kislot}} \cdot V_{\text{kislot}} \cdot 200}{pH_0 - pH_1},$$

$$B_{\text{asos}} = \frac{c_{\text{asos}} \cdot V_{\text{asos}} \cdot 200}{pH_1 - pH_0}.$$

Tartib raqami	$V$ (qon zardobi)	$V$ (HCl)	$pH_0$	$pH_1$	$B$ (qon zardobi)

## ERITMALARNING KOLLIGATIV XOSSALARI

**Mashg'ulotning maqsadi.** Eritmalarning kolligativ xossalari, osmotik bosimi haqida ma'lumotga ega bo'lib, biologik suyuqliklar va dorivor preparatlar eritmalarining osmotik bosimi miqdorini hisoblashni o'rganish.

**O'r ganilayotgan mavzuning ahamiyi.** Osmos hodisasi o'simlik va tirik organizmlar hayotida katta ro'l o'yndaydi. Hujayra yuzasi va organizm to'qimalari qobiqlari yarim o'tkazgich membrana xossalariga ega. Osmotik bosim organizm ichida eng muhim omil bo'lib, uning turli qismlarida suv taqsimotini belgilaydi, qiymati doimiydir. U organizmdagi oziq-ovqat mahsulotlari so'rishi va yutilishiga yordam beradi.

Odam qonida va boshqa biologik suyuqliklarda osmotik bosim doimiyligi ta'minlanib turadi. Tana harorati 37 °C bo'lganda qonning osmotik bosim qiymati 740–780 kPa (7,7 atm.) oralig'ida bo'ladi. Bosimning bunday qiymati turli moddalarning qondagi miqdoriga bog'liqidir.

Biologik suyuqliklar osmotik bosimining qiymatini buzmaslik uchun odam va hayvon organizmiga faqat izotonik eritmalarни katta hajmda quyish mumkin. Gipertonik eritmalar tomir tortishishi va shamollash jarayonida inyeksiya holida ishlataladi, gipotonik eritmalar esa ishlatilmaydi.

Ma'vzuni chuqur o'zlashtirgan holda dorivor preparatlar eritmalarini va turli biologik suyuqliklar osmotik bosimini, konsentratsiyasini va boshqalarni aniqlash mumkin.

**Boshlang'ich bilim darajasi:**

1. Elektrolit va noelektrolitlar.
2. Diffuziya jarayoni.
3. Eritmalarning turlari.
4. Eritmalarning konsentratsiyasini ifodalash usullari.

**Mustaqil tayyorlanish uchun o‘quv adabiyotlar:**

1. *X.H.Hakimov, A.Z.Tatarskaya, N.T.Olimxo‘jayeva.* Umumiy kimyodan amaliy mashg‘ulotlar. Т., 1993, 134–144- betlar.
5. *A.C.Ленский.* Введение в бионеорганическую и биофизическую химию. М., 1989, 112–120- betlar.
3. *A.B.Akbarov.* Bioanorganik va biofizik kimyo asoslari. Т., 1995, 175–194- betlar.
4. *М.И.Равич-Шербо, В.В.Новиков.* Физическая и коллоидная химия. М., 1975, 37–45- betlar.

**Darsda ko‘riladigan savollar:**

1. Eritmalarning kolligativ xossalari.
2. Osmos hodisasi va osmotik bosim.
3. Vant-Goff qonuni va izotonik koeffitsient.
4. Giper-, gipo- va izotonik eritmalar.
5. Plazmoliz va gemoliz.
6. Osmos turlari va ularning biologik jarayonlardagi ahamiyati.
7. Elektroosmos va anomal osmos.
8. Eritma ustidagi bug‘ bosimi va Raul qonuni.
9. Ebulioskopiya va krioskopiya.
10. Osmos hodisasining tibbiyotdagi ahamiyati.

**MA’LUMOTLAR YIG‘INDISI****Eritmalarning kolligativ xossalari**

Eritmalarda qator xossalalar borki, ular erigan modda tabiatiga emas, balki eritmaning konsentratsiyasiga bog‘liq bo‘ladi.

Bunday xossalalar eritmalarning *kolligativ xossalari* deyiladi.

Ideal holatga yaqinlashgan, ya‘ni o‘ta suyultirilgan eritmalarda kolligativ xossalalar deganda eritmalarning osmotik bosimi, eritma sathidagi bug‘ bosimining kamayishi, eritma qaynash temperaturasining ortishi, muzlash temperaturasining pasayish holatlari tushuniladi.

Eritmalarning kolligativ xossalarini o‘rganish erigan modda massasini, ularning dissotsiatsiyalanish darajalarini va assotsiatsiya qiymatlarini aniqlash imkoniyatlarini beradi.


## Osmos hodisasi va osmotik bosim

Eritmalardagi osmos hodisasi eritma hosil bo'lishidagi molekulyar kinetik mexanizmining tarkibiy qismlaridan bo'lgan diffuziya jarayoni natijasida yuzaga keladi. Ma'lumki, erigan modda va erituvchi zarrachalari doimo harakatda bo'ladi.

Agar shisha silindrga biror moddaning, masalan, kaliy bixromatning quyuq eritmasi solinib, uning ustiga ehtiyojkorlik bilan suv quyilsa, modda zarrachalari vaqt o'tishi bilan butun suyuqlik hajmiga baravar tarqaladi va bu jarayon butun hajmda moddaning konsentratsiyasi bir xil bo'lguncha davom etadi, ya'ni diffuziya hodisasi ro'y beradi.

Agar eritma va toza erituvchi orasiga yoki har xil konsentratsiyali eritmalar orasiga faqat erituvchi molekulalari o'ta oladigan yarim o'tkazgich to'siq – membrana joylashtirilsa, erituvchi molekulalarining membrana orqali eritmaga va eritmadan toza erituvchiga o'tishi kuzatiladi (1- rasm). Ammo erituvchi molekulalarining toza suvdan eritmaga o'tish tezligi yoki erigan modda konsentratsiyasi kamroq bo'lgan eritmadan konsentratsiyasi yuqori bo'lgan qatlamiga o'tishiga qaraganda ko'proq bo'ladi. Bu jarayon ikkita eritma orasidagi konsentratsiyalar farqi tenglashguncha davom etadi. Buning natijasida konsentratsiyasi yuqori bo'lgan bo'limdagи eritmaning hajmi ko'payadi (konsentratsiyasi kamayib ideal eritmaga yaqinlashadi). Natijada gidrostatik bosim qiymati ortadi va erituvchi molekulalarining teskari tomonga qarab o'tishi kuchayadi. Ma'lum vaqt o'tgandan so'ng eritmalarning sath o'zgarishlari (ularning sathlari orasidagi masofa qiymatining ( $h$ ) o'zgarishi) to'xtaydi.

Erituvchining (diffuziya hisobiga) yarim o'tkazgich membrana orqali erigan modda konsentratsiyasi kam bo'lgan eritmadan erigan modda konsentratsiyasi ko'p bo'lgan eritmaga o'z-o'zidan o'tish



**1- rasm.** Osmos hodisasi.

jarayonini *osmos* deb ataladi. Osmos holatini to'xtatish uchun eritmaga ta'sir ettirish zarur bo'lgan bosim qiyamatiga *osmotik bosim* ( $P$ ) deyiladi.

Osmotik bosim osmometr yordamida o'lchanadi. Ilk bor osmometri 1877-yilda Pfeffer yasagan.

Osmotik bosim quyidagi omillarga bog'liq:

- o'zgarmas temperaturada osmotik bosim erigan modda konsentratsiyasiga ( $c$ ) to'g'ri proporsional ( $T = \text{const}$ ,  $P_{\text{osm}} = k \cdot c$ );
- konsentartsiya o'zgarmas bo'lganda osmotik bosim absolut temperaturaga to'g'ri proporsional ( $c = \text{const}$ ,  $P_{\text{osm}} = k \cdot T$ ).

Shu ikki holatga (ya'ni  $P_{\text{osm}}$  temperatura va konsentratsiyaga bog'liqligiga) asoslangan holda Vant-Goff (1887-yil) o'z qonunini kashf etdi: *eritmaning osmotik bosimi eritmada erigan moddaning gaz holatida bo'lgan va eritma hajmiga teng bo'lgan hajjni egallagan holatda ko'rsatadigan bosim qiyamatiga teng bo'ladi*.

Demak, ideal eritmaning osmotik bosimini Klapayron—Mendeleyev tenglamasi bo'yicha hisoblab topish mumkin:

$$PV = nRT, \quad (1)$$

$$P_{\text{osm}} \cdot V = nRT \quad (2)$$

bu yerda:  $V$  — eritma egallagan hajm;

$R$  — gaz doimisi 8, 311  $\text{J} \cdot \text{kPa} / \text{mol} \cdot \text{K}$ ;

$T$  — absolut temperatura (273 K);

$n$  — erigan moddaning mollar soni.

Agar Klapayron—Mendeleyev tenglamasini  $P_{\text{osm}}$  ga nisbatan yechilsa,

$$P_{\text{osm}} = \frac{nRT}{V}. \quad (3)$$

$c = n/V$  bo'lgani uchun  $c$  ning qiymatini (3) tenglamaga qo'yilsa Vant-Goff qoidasining matematik ifodasi kelib chiqadi:

$$P_{\text{osm}} = cRT \quad (4)$$

Bu tenglama noelektrolit moddalar eritmasining osmotik bosimini aniqlash imkonini beradi.

Vant-Goff qoidasiga ko'ra bir xil konsentratsiyali har xil moddalar o'zaro teng osmotik bosimga ega bo'lishi kerak degan xulosa kelib chiqishi mumkin. Ammo amalda bunday holat kuzatilmaydi. Bunga sabab, turli tabiatli moddalarning ionlanish va assotsialanish darajalari har xil bo'ladi. Shu sababdan yuqoridagi tenglamaga (agar modda elektrolit bo'lsa) Vant-Goffning izotonik koeffitsienti tushunchasi ( $i$ ) kiritiladi va formula (4) quyidagicha yoziladi:

$$P_{\text{osm}} = icRT. \quad (5)$$

Bu formula elektrolitlar eritmasing osmotik bosimini aniqlash imkonini beradi.

O‘z navbatida  $i$  – eritmadağı ionlar soni ( $N$ )ning umumiy molekulalar soni ( $N_0$ )ga bo‘lgan nisbatiga teng:

$$i = N/N_0. \quad (6)$$

$i$  ning absolyut qiymatini aniqlash uchun quyidagi tenglamani keltirib chiqarish mumkin:

$$i = 1 + \alpha(n - 1), \quad (7)$$

bu yerda:  $\alpha$  – elektrolitning dissotsiatsiya darajasi;  $n$  – eritmadağı ionlar soni.

Masalan, NaCl uchun (kuchli elektrolit  $\alpha = 1$ )  $i = 1 + 1 \cdot (2 - 1) = 2$ , chunki NaCl ikkita ionga dissotsiatsiyalaniadi, Al<sub>2</sub>(SO<sub>4</sub>)<sub>3</sub> uchun ( $\alpha = 1$ )  $i = 1 + 1 \cdot (5 - 1) = 5$ , chunki Al<sub>2</sub>(SO<sub>4</sub>)<sub>3</sub> beshta ionga dissotsiatsiyalaniadi.

Ma’lumki, eritmaning molar konsentratsiyasi  $c(X)$  quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$c(X) = \frac{n(X)}{V(\text{eritma})} = \frac{m(X)}{M(X) \cdot V(\text{eritma})}, \text{ mol/l}. \quad (8)$$

Shu sababli (4) tenglamani quyidagicha ifodalash mumkin:

$$P_{\text{osm}} = \frac{m(X)}{M(X) \cdot V(\text{eritma})} RT. \quad (9)$$

Ushbu tenglama asosida eritmaning hajmi, osmotik bosimi va erigan modda massasini bilgan holda noelektrolit tabiatli moddalarning molekular massasini quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$M(X) = \frac{m(X)}{P_{\text{osm}} \cdot V(\text{eritma})} RT. \quad (10)$$

Eritmalar osmotik bosim qiymatiga ko‘ra:

1) izotonik  $P_{\text{stand}} = P_{\text{osm}}$ .

2) gipertonik  $P_{\text{stand}} < P_{\text{osm}}$ .

3) gipotonik  $P_{\text{stand}} > P_{\text{osm}}$  eritmalar turiga bo‘linadi.

Standart qilib olingan eritma osmotik bosimiga teng osmotik bosimli eritmalar – *izotonik*, osmotik bosimi standart eritmanikidan yuqori bo‘lganlari – *gipertonik*, kamlari *gipotonik eritmalar* deyiladi.

Biologik sistemalarda standart eritma sifatida osmotik bosimi 740–780 kPa (7,6–7,8 atm) bo‘lgan hujayra ichi suyuqligi (qon) qabul qilingan. Organizmdagi biosuyuqliklarning osmotik bosim

qiymati ularda erigan quyi molekulyar va kolloid holatdagi yuqori molekular moddalar (asosan oqsillar) hisobiga kelib chiqadi. Qon va to'qimalar orasidagi suv almashinuvi zardob tarkibidagi oqsil molekulalarining miqdori bilan belgilanadigan onkotik bosim (kolloidosmotik bosim) hisobiga sodir bo'ladi va u umumiy bosim qiymatining taxminan 0,5% ini tashkil qiladi. Odam qon-tomir sistemasining onkotik bosimi qiymati taxminan 4 kPa, to'qima va limfa suyuqliklariniki esa 1,33 kPa ni tashkil etadi.

0,86% li NaCl eritmasining osmotik bosimi qonning osmotik bosimiga teng, ya'ni bu eritma izotonik eritma hisoblanadi. Glukozaning 4,5–5% li eritmasi ham izotonik eritmadir. Bu eritmalarni odam organizmiga ko'plab (litrlab) quyish mumkin.

Odam organizmidagi osmotik bosimni doimiy saqlanib turishi *izoosmiya* deyiladi. Izoosmiyaning buzilishi organizm uchun xavflidir.

Gipertonik eritmalarning organizmga kiritilishi hujayralarning siqilishiga olib keladi, bu yallig'langan hujayralar uchun foydalidir. Shuning uchun yallig'lanishga qarshi dorivor preparat sifatida tomirga 10–20 ml glukozaning 40% li eritmasi yuboriladi. Gipertonik eritmani organizmga haddan tashqari ko'p yuborilishi *plazmoliz* hodisasiga olib keladi, bunda hujayra siqiladi va halok bo'lishigacha borishi mumkin (*ekzoosmos hodisasi*). O'z navbatida gipotonik eritmlar yuborilsa, hujayra bo'rtishi va qobig'inining yorilishiga olib keladi va *gemoliz* yuz beradi (*endoosmos hodisasi*).

*Sitoliz* – hayvon va o'simlik to'qimalarining turli tashqi omillar ta'sirida, ko'pincha hujayraning yarim o'tkazgich membranasining ikki tomonida osmotik bosimning o'zgarishi natijasida kelib chiqadigan holat.

Gemolizning xavfli oqibatlari yuqoridagi hodisalardan tashqari hujayra qobig'i (membrana) o'tkazuvchanligining susayishiga ham bog'liq, bu, masalan, organizmga strosantin, novurit, geparinlar kiritilishi natijasida yuz beradi.

Me'yordan ortiq sho'r yoki shirin oziq-ovqatlar iste'mol qilin-ganda, organizm chanqoqni his etadi, ya'ni hujayralararo suyuqliklarda osmotik bosim oshayotgani haqida habar qiladi.

## **Osmos turlari va osmos hodisalarining biologik jarayonlardagi ahamiyati**

Tirik organizmda qator gradient turlari o'zaro ajratiladi. Bulardan quydagilarni keltirish mumkin:

1. Konsentratsiya gradiyenti.

2. Osmotik gradiyent.
3. Elektr gradiyenti.
4. Suyuqlikning gidrostatik bosim gradiyenti.

Osmotik va elektr gradiyentlari hisobiga kelib chiqadigan osmos hodisalari quyidagilarga bo‘linadi:

1. Osmos.
2. Elektroosmos.
3. Anomal osmos.

Osmos hodisasi o‘simlik va hayvon organizmlari uchun katta ahamiyatga ega. U hujayra va hujayralararo suyuqliklarni yetarlicha suv bilan ta’minlab turishga yordam beradi. Bunda vujudga kelgan osmotik bosim hujayralarning turg‘unligiga, ya’ni ularning o‘ziga xos tarangligiga sabab bo‘ladi. Shu bilan birga u to‘qimalarning elastikligini, organlarning ma’lum shaklda bo‘lishini saqlab turishiga yordam beradi.

Osmos hodisasi tirik organizmda ko‘pchilik jarayonlarni amalgaga oshirishda bevosita ishtirok etadi. Jumladan, qon va to‘qima orasidagi suv almashinuvini ta’minlab beradi. Odam qonining osmotik bosimi 740–780 kPa (7,6–7,8 atm) bo‘ladi va u qonda erigan barcha moddalar hisobiga kelib chiqadi. Bu moddalardan eng ahamiyatlisi oqsillardir. Ular qonning onkotik (kolloid-osmotik) bosimini belgilaydi. Qonning umumiy osmotik bosimi uning onkotik bosimidan qariyb 200 marta katta. Ammo suv almashinushi jarayonida oqsillar asosiy komponent (tarkibiy qism) rolini o‘ynaydi, chunki membrana devorlaridan o‘ta olmaydi.

Qonning osmotik bosim qiymatining o‘zgarishi qator ko‘ngilsiz hollarga olib keladi. Masalan, qon plazmasi osmotik bosimining keskin kamayishi, hujayra ichidagi osmotik bosimi katta bo‘lgan eritrotsitlarga suv kirishiga olib keladi va natijada hujayralar yoriladi, bunga *gemoliz* deyiladi. Agar gemoliz letal tabiatga ega bo‘lsa, odam halok bo‘lishi mumkin.

Agar qon plazmasining osmotik bosimi keskin oshib ketsa, hujayra ichidagi bosim plazma bosimiga qaraganda katta bo‘ladi. Natijada hujayra ichidagi suv qon plazmasiga kira boshlaydi, hujayra burushib qoladi (*plazmoliz jarayoni*), undagi biokimyoviy jarayonlar buzuladi va hujayra halok bo‘ladi.

Osmos hodisasi tibbiyotda davolash maqsadida (masalan, tibbiyotda 0,86% li NaCl ning eritmasi) keng qo‘llanadi. Bu eritma ning osmotik bosimi qonning osmotik bosimiga teng, u *fiziologik eritma* deb ataladi. Organizm suvsizlanganda, bemor ko‘p qon yo‘qtganda organizmga ko‘p miqdorda fiziologik eritma yuboriladi. Og‘ir

yuqumli kasalliklarda, kuchli shamollahda qon hujayralarida normadan ortiq suv yig'iladi. Uni yo'qotish maqsadida bemor qon tomiriga gipertonik eritma yoki oqsil saqllovchi preparatlar yuboriladi. Yiringlagan to'qimalardan pattosni yo'qotish maqsadida (suv yig'ilganda – shish paydo bo'lganda) bemorning shu joyiga gipertonik eritmaga botirib olingan bog'lam qo'yib bog'lanadi. Qadimda tabiblar shu maqsadda nomakob va siyidkdan foydalanganlar.

### **Eritma ustidagi bug' bosimi va Raul qonuni**

Bug' bosimi, eritmaning qaynash va muzlash temperaturalari eritmalarining eng asosiy xossalari hisoblanadi. Eritmalarning bu xossalari toza erituvchilarnikidan farq qiladi, ya'ni undagi erigan modda zarrachalarining soniga bog'liq bo'ladi. Eritmalarning bunday xossalari Vant-Goff va Raul qonunlari yordamida tushuntirish mumkin.

Ma'lum bir temperaturada moddaning bug' holatiga o'tish tezligi uning kondensatsiya hisobiga dastlabki (masalan, eritma) holatiga o'tish tezligiga teng bo'lganda kuzatiladigan bug' bosimi *eritma ustidagi to'yingan bug' bosimi* deb ataladi. Sof erituvchi bilan eritma ustidagi bug' bosimlari o'zaro farq qiladi. Birinchi holdagi bosim ikkinchi holdagi bosimdan katta bo'ladi. Bunga sabab, sof erituvchining sathi faqat shu modda molekulalaridan iborat bo'ladi, eritmada esa sath yuzasining ma'lum bir qismi erigan modda zarrachalari bilan egallangan bo'ladi. Bundan tashqari erigan modda zarrachalari erituvchi modda molekulalarining ma'lum bir miqdorini o'ziga biriktirib olgan bo'lishi ham mumkin – shu holatlarning hammasi eritma ustidagi bug' bosimning kamayishiga olib keladi.

1886-yilda F.M.Raul quyidagini aniqladi: erituvchining eritma sathidagi bosimining nisbiy kamayishi erigan moddaning mol ulushiga teng, ya'ni bosimning nisbiy kamayishi erigan modda miqdorining erituvchi va erigan moddalar miqdorlarining yig'indisiga bo'lgan nisbatiga teng:

$$\frac{P_0 - P}{P_0} = \frac{n}{n + N},$$

bu yerda:  $P_0$  – sof erituvchi sathidagi to'yingan bug' bosimi;  $P$  – to'yingan bug'ning eritma sathidagi bosimi;  $n$  – erigan moddaning mol miqdori;  $N$  – erituvchining mol miqdori.

Raul va Vant-Goff qonunlari faqat ideal eritmalar uchungina haqlidir. Amalda o'ta suyultirilgan eritmalar ideal eritmalariga o'xshashligini hisobga olgan holda quyidagilarni yozish mumkin:

$$\frac{n}{n+N} \approx \frac{n}{N}, \text{ bundan } \frac{P_0 - P}{P_0} = \frac{n}{N}.$$

Agar erigan modda elektrolit tabiatiga ega bo'lsa, bu tenglama quyidagicha yoziladi:

$$\frac{P_0 - P}{P_0} = \frac{in}{in - N},$$

$i$  – izotonik koeffitsient.

Eritma ustidagi bug' bosimining pasayishi erituvchi tabiatiga bog'liq bo'lib, erigan modda tabiatiga bog'liq emas.

### **Qaynash temperaturasining ko'tarilishi va muzlash temperaturasining pasayishi. Ebulioskopiya va krioskopiya**

Suyuqlik sathidagi bug' bosimining tashqi muhit bosimiga teng bo'lgan holatga *suyuqlikning qaynash temperaturasi* deyiladi. Bu holda moddaning suyuq va bug' holatlari o'rtasida muvozanat sodir bo'ladi. Bosim 101325 Pa qiymatiga ega bo'lgandagi moddalarning qaynash temperaturasi *normal qaynash temperaturasi* deyiladi. Kam bug'lanuvchi moddalarning eritmasi ustidagi to'yingan bug' bosimi, sof erituvchi bug' bosimidan past. Bunday eritma qaynashi uchun sof erituvchining qaynash temperaturasidan yuqoriroq temperatura zarur.

*Muzlash temperaturasi* deganda suyuqlik ustidagi to'yingan bug' bosimining kristall holatidagi qattiq faza ustidagi to'yingan bug' bosimiga to'g'ri keladigan temperatura tushuniladi. Kam bug'lanuvchi moddalar eritmasining muzlash temperaturasi sof erituvchining muzlash temperaturasidan past bo'ladi.

Agar biror bir erituvchida modda eritsa, ya'ni erituvchi eritmaga aylansa qaynash va muzlash temperaturasi o'zgaradi. Buni Raul qonunidan kelib chiqadigan xulosa bilan tushuntiriladi.

1. Eritmaning muzlash temperaturasi toza erituvchinikidan past bo'ladi.

2. Eritmaning qaynash temperaturasi toza erituvchinikidan yuqori.

Suyultirilgan eritmalardagi qaynash temperaturasining ko'tarilishi va muzlash temperaturasining pasayishi eritmalarining molyal konsentratsiyalariga (molyalligiga) to'g'ri proporsional.

Ularning matematik ifodasi quyidagicha:

$$\Delta T_{\text{qaynash}} = E \cdot b(x),$$

$$\Delta T_{\text{muzlash}} = K \cdot b(x),$$

bu yerda:  $\Delta T_{\text{qaynash}}$  – sof erituvchi bilan eritmaning qaynash temperaturasi orasidagi farq;  $\Delta T_{\text{muzlash}}$  – sof erituvchi bilan eritmaning muzlash temperaturasi orasidagi farq;  $b(x)$  – eritmaning molyalligi;  $E$  va  $K$  – ebulioskopik va krioskopik doimiylar, ularning qiymatlari erituvchi tabiatiga bog'liq.

Agar 1000 g erituvchida 1 mol modda erigan bo'lsa, ya'ni  $b(x) = 1 \text{ mol/kg}$  bo'lsa, bu holda  $\Delta T_{\text{qaynash}} = E$ ,  $\Delta T_{\text{muzlash}} = K$ .

Raul qonunidan chiqqan xulosadan ko'rinish turibdiki, eritma konsentratsiyasi kichik bo'lgan hollarda eritmalarining  $\Delta T_{\text{qaynash}}$ ,  $\Delta T_{\text{muzlash}}$  qiymatlari va modda miqdorlari orasida to'g'ri proporsionallik mavjud.

Ammo konsentratsiya oshishi bilan bu proporsionallik buziladi.

Agar erigan modda elektrolit tabiatiga ega bo'lsa, u holda

$$\Delta T_{\text{qaynash}} = iEb(x), \quad \Delta T_{\text{muzlash}} = iKb(x).$$

Tajribada bu farqlarni aniqlab, eritmaning molyal konsentratsiyasini hisoblash mumkin.

Barcha kolligativ xossalalar o'zaro bir-biri bilan bog'liq. Ma'lum konsentratsiyali eritmaning qaynash temperaturasini bilgan holda, uning muzlash temperaturasi pasayishini, shu bilan birga to'yingan bug' bosimining nisbatan pasayishini va osmotik bosimdagi o'zgarishlarni ham oldindan aytib berish mumkin.

Masalan, 1 litr suvda 60 g siydkhil eritilganda suvning muzlash temperaturasi 1,86 ° ga kamayadi. Bunday kattalik *suvning krioskopik doimisi* deyiladi. Noelektrolit moddaning bir molyar eritmasini sof erituvchiga nisbatan muzlash temperurasining pasayishi *krioskopik doimiy* deyiladi. Turli erituvchilarining krioskopik doimiyлari turlicha bo'ladi. Masalan, benzol uchun  $K = 5,12$ , kamfora uchun  $K = 40,2$  va hokazo.

Moddaning nisbiy molekulyar massasini aniqlash uning sof erituvchiga nisbatan muzlash temperurasining o'zgarishini aniqlashga asoslanadi. Ebulioskopik va krioskopik doimiyлarning ma'nosini eritma molyalligi 1 mol/kg ga teng bo'lganda, ularning sof erituvchi va eritma qaynash va muzlash temperaturalarining farqiga teng bo'lishi bilan belgilanadi:

$$\frac{\Delta P}{\Delta P_A^0} = N_B, \quad \text{bunda } \Delta P = \Delta P_A^0 - P_A,$$

bu yerda:  $P_A$  – erituvchining eritma ustidagi bug' bosimi;  $\Delta P_A^0$  – sof erituvchi ustidagi bug' bosimi.

Eritmalar muzlash temperurasining pasayishi va qaynash temperurasining ortishi ulardagi zarrachalar soniga bog'liq bo'ladi, unda

elektrolit eritmalarining xossalari bir xil konsentratsiyali noelektrolit eritmalarining xossalardan farq qiladi. Masalan, molyal konsentratsiyasi bir xil bo‘lgan osh tuzi va siydkhil eritmasining muzlash temperaturasini solishtirsa:



eritmada:

$$b(\text{NaCl}) = 0,0100 \text{ mol/kg};$$

$$b(\text{Na}^+) = 0,0100 \text{ mol/kg};$$

$$b(\text{Cl}^-) = 0,0100 \text{ mol/kg};$$

$$\text{yig'indisi } 0,0200 \text{ mol/kg ga teng.}$$

$\text{CO}(\text{NH}_2)$  eritmada ionlarga ajralmaydi, shuning uchun molyal konsentratsiya o‘zgarmaydi, ya’ni  $b(\text{CO}(\text{NH}_2)) = 0,0100 \text{ mol/kg}$  ligicha qoladi. Shuning uchun elektrolit eritmasi ( $\text{NaCl}$  eritmasi)ning muzlash temperaturasi noelektrolit (siydkhil) eritmasinikidan 2 marta ko‘p. Bu qiymatlar nisbatini *izotonik koeffitsiyent* deb ataladi:

$$i = \frac{dt_{\text{el.muz}}}{dt_{\text{noel.muz}}}$$

### Mavzu bo‘yicha masalalar va ularni yechish namunalari

**1- masala.** 750 g benzolda 27 g modda erishidan hosil bo‘lgan eritma  $3,5^\circ\text{C}$  da muzlaydi. Toza benzol  $5,5^\circ\text{C}$  da muzlaydi. Benzolda erigan moddaning nisbiy molekular massasini hisoblang. Benzolning krioskopik doimiysi  $5,2 \text{ grad/mol}$  ga teng.

**Berilgan:**

$$m(\text{modda}) = 27,0 \text{ g}$$

$$m(\text{C}_6\text{H}_6) = 750,0 \text{ g}$$

$$t_{\text{muzl.}}(\text{eritma}) = 3,5^\circ\text{C}$$

$$t_{\text{muzl.}}(\text{C}_6\text{H}_6) = 5,5^\circ\text{C}$$

$$K = 5,2 \text{ grad/mol}$$


---

$$M(\text{modda}) = ?$$

**Yechish:**

1. Benzolga nisbatan eritma muzlash temperaturasining pasayishi:

$$\Delta t_{\text{muzl.}} = t_{\text{muzl.}}(\text{C}_6\text{H}_6) - t_{\text{muzl.}}(\text{eritma})$$

$$\Delta t_{\text{muzl.}} = 5,5^\circ\text{C} - 3,5^\circ\text{C} = 2,0^\circ\text{C}$$

ni tashkil etadi.

2. Benzolda erigan moddaning nisbiy molekular massasi qiymatiga ko‘ra hisoblanadi:

$$\Delta t_{\text{muzl.}} = K \frac{m_{\text{modda}} \cdot 1000}{M_{\text{modda}} \cdot m_{(C_6H_6)}},$$

$$M_{\text{modda}} = K \frac{m_{\text{modda}} \cdot 1000}{\Delta t_{\text{muzl.}} \cdot m_{(C_6H_6)}},$$

$$M_{\text{modda}} = 5,2 \cdot \frac{27,0 \cdot 1000 \text{ grad} \cdot \text{g} \cdot \text{g}}{750,0 \cdot 2,0 \text{ mol} \cdot \text{g} \cdot \text{grad}} = 93,6 \text{ g/mol}.$$

Javob:  $M(\text{modda}) = 93,6 \text{ g/mol}$ .

**2- masala.** 250,0 g suv va 54,0 g glukoza ( $C_6H_{12}O_6$ ) dan tashkil topgan eritma qanday temperaturada kristallanishini hisoblang. Glukozaning krioskopik doimiysi 1,86 grad/mol ga teng.

**Berilgan:**

$$m(H_2O) = 250,0 \text{ g}$$

$$m(C_6H_{12}O_6) = 54,0 \text{ g}$$

$$M(C_6H_{12}O_6) = 180,0 \text{ g/mol}$$

$$K = 1,86 \text{ grad/mol}$$


---

$$t_{\text{krist.}} = ?$$

**Yechish:**

1000 g suvdagi glukozaning massasi hisoblanadi:

$$250,0 \text{ g } H_2O \longrightarrow 54,0 \text{ g } C_6H_{12}O_6$$

$$1000 \text{ g } H_2O \longrightarrow x \text{ g } C_6H_{12}O_6$$

$$m(C_6H_{12}O_6) = 216,0 \text{ g}$$

Glukoza eritmasining molyal konsentratsiyasi topiladi:

$$b(C_6H_{12}O_6) = \frac{m(C_6H_{12}O_6)}{M(C_6H_{12}O_6) \cdot m(H_2O)},$$

$$b(C_6H_{12}O_6) = \frac{216,0 \cdot 1000 \text{ g} \cdot \text{mol}}{180,0 \cdot 1000 \text{ g} \cdot \text{kg}} = 1,20 \text{ mol/kg}.$$

Eritmaning  $\Delta t_{\text{krist.}}^0$  i topiladi:

$$\Delta t_{\text{krist.}}^0 = K \cdot b(C_6H_{12}O_6) = 1,86 \cdot 1,20 \frac{\text{grad} \cdot \text{mol}}{\text{mol} \cdot \text{kg}} = 2,23 \text{ }^{\circ}\text{C}.$$

Eritmaning kristallanish temperaturasi aniqladi:

$$\Delta t_{\text{krist.}} = \Delta t_{\text{krist. e-chi}} - \Delta t_{\text{krist. eritma}}$$

Ko'rilgan misolda erituvchi  $\text{H}_2\text{O}$ , uning  $t_{\text{krist.}} = 0^\circ\text{C}$ , demak,

$$t_{\text{krist.}} = 0 - 2,23^\circ = -2,23^\circ\text{C}.$$

*Javob:*  $t_{\text{krist. eritma}} = -2,23^\circ\text{C}$ .

**3- masala.** Birinchi eritma ikkinchisiga nisbatan gipertonik, izotonik yoki gipotonikligini tushuntiring:

1. Molyar konsentratsiyalari  $1,000 \text{ mol/l}$   $\text{NaCl}$  va  $0,1000 \text{ mol/l}$   $\text{NaCl}$ .

2. Molyar konsentratsiyalari  $0,5000 \text{ mol/l}$   $\text{CO}(\text{NH}_2)_2$  va  $0,5000 \text{ mol/l}$   $\text{C}_6\text{H}_{12}\text{O}_6$ .

3. Molyar konsentratsiyalari  $0,1000 \text{ mol/l}$   $\text{NaCl}$  va  $0,1000 \text{ mol/l}$   $\text{CO}(\text{NH}_2)_2$ .

### Yechish:

Ma'lumki, eritmalarning osmotik bosimi Vant-Goff qonuniga muvofiq hisoblanadi:

$$P_{\text{osm}} = cRT$$

noelektrolitlarning  
suyultirilgan eritmasi  
uchun

$$P_{\text{osm}} = icRT$$

elektrolitlarning  
suyultirilgan eritmasi  
uchun

Osmotik bosim qiymati eritma konsentratsiyasi va temperaturaga bog'liq bo'lib, erituvchi va erigan modda tabiatiga emas, balki zarrachalar soniga bog'liq.

1.  $1,0000 \text{ mol/l}$   $\text{NaCl}$  eritmasining molyar konsentratsiyasi  $0,1000 \text{ mol/l}$   $\text{NaCl}$  eritmasiga nisbatan 10 marta katta, shuning uchun birinchi eritma ikkinchisiga nisbatan gipertonikdir.

2. Siydkechil va glukoza noelektrolitlardir, ularning eritmalarini bir xil konsentratsiyali, demak, ularning osmotik bosimi ham bir xil, shuning uchun bu eritmalar izotonikdir.

3.  $\text{NaCl}$  elektrolit,  $\text{CO}(\text{NH}_2)_2$  noelektrolit.  $\text{NaCl}$  ikkita ionga dissotsiatsiyaladi:



$$i = 1 + \alpha(n - 1) = 1 + 1 \cdot (2 - 1) = 2.$$

Shunday qilib, birinchi eritmaning osmotik bosimi ikkinchi eritmaniga qaraganda 2 marta yuqori bo'ladi, ya'ni u ikkinchi eritmaga nisbatan gipertonik.

**4- masala.** Osmotik bosimi  $37^{\circ}\text{C}$  da  $760 \text{ kPa}$  ga teng bo‘lishi uchun  $1,0 \text{ mol}$  noelektrolit qanday hajmdagi eritmada bo‘lishi kerak?

**Berilgan:**

$$n_{\text{modda}} = 1,0 \text{ mol}$$

$$P_{\text{osm}} = 760 \text{ kPa}$$

$$t = 37^{\circ}\text{C}, T = 310 \text{ K}$$

$$R = 8,31 \text{ J} \cdot \text{kPa}/(\text{mol} \cdot \text{K})$$


---

$$V_{\text{eritma}} = ?$$

**Yechish:**

Vant-Goff qonuniga binoan  $P_{\text{osm}} = cRT$ ;

$$c = \frac{n_{\text{(modda)}}}{V_{\text{(eritma)}}}; P_{\text{osm}} = \frac{n_{\text{(modda)}}}{V_{\text{(eritma)}}} RT.$$

Bundan:

$$V_{\text{(eritma)}} = \frac{n_{\text{(modda)}} \cdot RT}{P_{\text{osm}}} = 3,39 \text{ l},$$

$$V_{\text{(eritma)}} = \frac{1,0 \cdot 8,31 \cdot 310 \text{ mol} \cdot \text{l} \cdot \text{kPa} \cdot \text{K}}{760 \text{ kPa} \cdot \text{mol} \cdot \text{K}} = 3,39 \text{ l}.$$

Javob:  $V_{\text{(eritma)}} = 3,39 \text{ l}$ .

### Mavzuni o‘zlashtirishni mustaqil nazorat qilish uchun savol va masalalar

1. Eritmalarning osmotik bosimi qanday birlikda o‘lchanadi?
2. Raul qonuni qanday ta’riflanadi?
3. Eritmalarning osmotik bosimi nima sababdan temperatura ortishi bilan ortadi?
4. Ebulioskopik va krioskopik doimiylarining fizik ma’nosi qanday?
5.  $0,1000 \text{ mol/l}$  qand va tuz eritmalarini izotonikmi?
6. Biologik suyuqliklar, mevalar, go‘sht va qon nima uchun  $0^{\circ}\text{C}$  da muzlamaydi?
7.  $30\%$  li (massa jihatdan)  $\text{MgSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$  ( $c = 1,215 \text{ g/ml}$ ) eritmasi tibbiyotda surgi dori sifatida qo’llanadi. Shu eritmaning  $37^{\circ}\text{C}$  dagi osmotik bosimini hisoblab toping ( $\rho = 0,92$ ).
8. Eritma muzlash temperaturasining sof erituvchi muzlash temperaturasidan farqini tushuntiring.
9. Nima uchun dengiz suvida cho‘milganda ko‘z qizarishi kuzatiladi?

### Vaziyatli masalalar

1. Qon plazmasi muzlash temperaturasining pasayishi – 0,56 °C ga teng. Qonga izotonik bo‘lgan natriy xlorid eritmasini tayyorlash uchun 1,0 l suvda eritish kerak bo‘lgan osh tuzi miqdorini hisoblang.

*Javob:*  $m(\text{NaCl}) = 8,81 \text{ g}$ .

2. Bemor ko‘p qon yo‘qotganda tomchilab fiziologik eritma (osh tuzining 0,86% li eritmasi) yuboriladi. Fiziologik eritmaning osmotik bosimini aniqlang ( $\rho = 1 \text{ g/ml}$ ,  $\alpha = 1$ ,  $t = 37^\circ\text{C}$ ). Bu eritma qon plazmasiga izotonikmi?

*Javob:*  $P_{\text{osm}} = 757,4 \text{ kPa}$ , izotonik.

3. Jarrohhlikda «gipertonik bog‘lamlar» ishlataladi. Bu NaCl ning gipertonik eritmasida ho‘llab yiringli yaraga kiritib qo‘yilgan doka bo‘lakchalaridir. 10% li gipertonik NaCl eritmasining osmotik bosimini hisoblang. ( $\rho = 1,05 \text{ g/ml}$ ,  $\alpha = 0,89$ ,  $t = 37^\circ\text{C}$ ). «Gipertonik bog‘lov»larning ta’siri nimaga asoslanganligini tushuntiring.

*Javob:*  $P_{\text{osm}} = 8739 \text{ kPa}$ .

### Test savollari

1. Osmotik bosimning kattaligi qanday parametrlarga bog‘liq?

- a) idish parametrlariga;      d) temperaturaga;
- b) erituvchining miqdoriga;    e) erituvchining tabiatiga.

2. Gipotonik eritmani ko‘rsating:

- a) 0,5% NaCl;    b) 1% NaCl;    d) 0,86% NaCl;    e) 5% NaCl.

3. Organizmdagi gemoliz jarayoniga qaysi javob mos keladi.

- a) suv molekulalari eritmadan hujayraga o‘tganda;
- b) qonga gipertonik eritma quyilganda;
- d) hujayra bujmayganda;
- e) qonga gipotonik eritma quyilganda.

4. Izotonik koeffitsiyent nimani ko‘rsatadi?

- a) osmotik bosim qiymati necha marta ortishini ko‘rsatadi;
- b) osmotik bosim qiymati necha marta kamayishini ko‘rsatadi;
- d) osmotik bosimni hisobdagagi va kuzatuvdagagi farqini ko‘rsatadi;
- e) elektritolitning osmotik bosimi noelektrolitnikidan necha marta kattaligini.


5. Osmotik bosim birligini ko'rsating.
- mol/l;
  - kPa;
  - kJ;
  - mol/kg.
6. NaNO<sub>3</sub> uchun izotonik koeffitsiyent nechaga teng?
- 2;
  - 4;
  - 6;
  - 5.
7. Eritmalarning osmotik bosimi qaysi qonuniyatga bo'ysinadi?
- Boyl-Marriot qonuniga;
  - Raul qonuniga;
  - Vant-Goff qonuniga;
  - Gey-Lyussak qonuniga.
8. 3% (massa jihatidan) glukoza eritmasini ( $\rho = 1,011 \text{ g/ml}$ ) ko'p miqdorda tomir orqali yuborish mumkinmi?
- yuborish mumkin;
  - yuborish mumkin emas;
  - faqat 50 ml yuborish mumkin;
  - faqat 100 ml yuborish mumkin.
9. 1000 g suvda 400 g gemoglobin eriganida muzlash temperaturasi 0,012 °C ga kamayadi. Gemoglobinning nisbiy molekular massasi nechaga teng? ( $K(H_2O) = 1,86 \text{ grad/mol.}$ )
- 62015;
  - 3107;
  - 1555;
  - 1725.
10. 0,86% osh tuzi eritmasining osmotik bosimini aniqlang.
- 375,5 kPa;
  - 757,4 kPa;
  - 1500 kPa;
  - 100 kPa.

## LABORATORIYA ISHI

*I- laboratoriya ishi*

**«Sun'iy» hujayraning o'sishi. «Traube» to'qimasni**

100 ml li idishga to'ldirib 5% li CuSO<sub>4</sub> eritmasi solinadi va unga sariq qon tuzi kristallaridan bir nechta solinadi (kaliy geksatsiano ferrat (II)). Ma'lum vaqt dan so'ng idishda ajoyib o'zgarish kuzatiladi, kristallchalar eritmada erib, CuSO<sub>4</sub> bilan ta'sirlashadi:



Hosil bo'lgan mis geksatsiano ferrat (II) plynokasi sariq qon tuzi kristallarini o'ziga yaqin turgan eritma bilan birga o'rab olib, «sun'iy to'qima» hosil qiladi. Bu to'qima o'sishni davom ettirish xususiyatiga ham ega, chunki uning devorlari yarim o'tkazgich xossasini namoyon

qiladi. Suv molekulasi «to‘qima» ichiga kirib uning hajmini oshiradi, natijada «to‘qima» yorilib sariq qon tuzi eritmasi tashqariga oqib chiqadi. Jarayon yana qaytarilishi natijasda «to‘qima» o‘sadi va o‘ziga xos o‘sintalar, shoxlanishlar hosil qiladi.

### *2- laboratoriya ishi*

#### **Qon plazmasining osmotik xossalari o‘rganish**

**1- tajriba.** Tajriba uchun 3 ta probirkaga olinadi; birinchisiga 10 tomchi NaCl ning izotonik eritmasi, ikkinchisiga 10 tomchi NaCl ning gipertonik eritmasi, uchinchisiga shu tuzning gipotonik eritmasidan solinadi. Har bir probirkaga bir tomchidan qon plazmasi tomiziladi. Sodir bo‘layotgan hodisa kuzatiladi va xulosa qilinadi. Xulosalar ilmiy asoslab yoziladi.

**2- tajriba.** Probirkadagi 10 tomchi izotonik eritmaga 1 tomchi 0,5000 molyarli  $H_2SO_4$  eritmasi tomiziladi. Yuz bergan hodisalarни ilmiy asoslab tushuntiriladi. Qanday eritmalarning odam organizmiga kiritilishi patologik holatlarga olib keladi? Tirik organizmga ko‘p miqdorda kislota tabiatli moddalar kiritilishi organizmn qanday holatga keltiradi?

**3- tajriba.** 3 ta probirkaga 10 tomchidan izotonik eritma va 1 tomchidan qon plazmasi tomiziladi. Birinchi probirkaga 1 tomchi 10% li NaCl eritmasi, ikkinchi probirkaga 1 tomchi CuSO<sub>4</sub> eritmasi tomiziladi, uchinchi probirkani solishtirish uchun qoldiriladi. Mis ionlarining organizmga ta’siri natijasida Vilson kasalligi kelib chiqishi tushuntiriladi.

### *3- laboratoriya ishi*


#### **Nisbiy molekular massani kriometrik usulda aniqlash**

Bu usulning mohiyati shundaki, u tajriba yo‘li bilan sof erituvchi va eritmaning muzlash temperaturasini aniqlash hamda muzlash nuqtasining pasayishiga ko‘ra molyar massani aniqlashga yordam beradi. Ishni bajarish uchun maxsus asbobdan foydalilaniladi (2- rasm). U sovituvchi aralashma uchun qalin devorli stakan 1, aralash tirgich 2, qopqoq 3, turli diametrli probirkalar 4 va 7, eritma uchun aralash tirgich 5 va Bekman differensial temperatura o‘lchagichi (termometr) 6 dan tashkil topgan. Bekman asbobi avvaldan 0 °C da simob ko‘rsatkichi 1,75–2,85 °C oralig‘ida bo‘ladigan qilib sozlab qo‘yilgan bo‘ladi.

**Ishning borishi.** Qalin devorli stakanga muz yoki qor solib osh tuzi qo'shiladi va yaxshilab aralashtiriladi. Sovituvchi aralashmaga termometr tushiriladi va temperatura  $-6^{\circ}\text{C}$  gacha tushishi ni kuzatiladi. Ichki probirkaga pipetka bilan 10,00 ml distillangan suv quyiladi, uni aralash-tirgich va Bekman termometri o'rnatilgan qopqoq bilan yopiladi. Bekman termometri probirkani sovituvchi aralashmaga tushiriladi. Suvni aralash-tirgich bilan to'xtovsiz aralashtirib turgan holda, temperatura o'zgarishi kuzatiladi va muz kristallari ajralib chiqishiga javob beruvchi tempe-ratura topiladi. Odatda, tajribada sovish ozgina ko'proq bo'ladi va muzlash temperatura nuqtasi dan pastroq tushadi. Biroz pasaygandan so'ng simob ustuni birdan sakrab yuqori ko'tariladi va suvning muzlash temperaturasi nuqtasida to'xtaydi. Bekman termometri belgilagan maksimal temperatura suvning haqiqiy muzlash temperaturasi bo'ladi. Uni jurnalga  $0,005^{\circ}\text{C}$  gacha aniqlikda yoziladi.

Probirkika muftadan chiqarib olinadi, qo'l bilan isitib, undagi muz eritiladi. Tajriba qaytariladi.

Suvli probirkani chiqariladi, unga moddaning (siydikchil, qand, glukoza va hokazo) aniq o'lchangan miqdori solinadi va aralashtirib turib eritiladi. Probirkani termometr va aralashirgichli qopqoq bilan yopib, sovituvchi aralashmaga joylashtiriladi va aralashtirib turib eritmaning muzlash temperaturasi aniqlanadi. Probirkani qo'l bilan isitib, muz kristallari eritiladi. Tajribani 3—4 marta takrorlanadi. Tajriba natijalari va ma'lumotlarni jadvalga yoziladi.



2- rasm. Osmotik o'lchagich:

1 — qalin devorli stan; 2 — aralashirgich; 3 — qopqoq; 4, 7 — probirkalar; 5 — aralashirgich; 6 — Bekman termometri.

Suvning miqdori, g	Bekman termometri bo'yicha $\text{H}_2\text{O}$ ning muzlash tem-si			Moddaning massasi	Bekman termometri bo'yicha eritmaning muzlash tem-si		
	I	II	o'rtachasi		I	II	o'rtachasi

Tajriba natijalariga ko'ra moddaning molyar massasi hisoblanadi:

$$\Delta t_{\text{muzl.}}^{\circ} = \frac{K \cdot \alpha \cdot 1000}{M \cdot m}, \quad M = \frac{K \cdot \alpha \cdot 1000}{m \cdot \Delta t^{\circ}}, \text{ g/mol ,}$$

bu yerda:  $M$  – moddaning molyar massasi (g/mol);  $\alpha$  – erigan modda massasi (g);  $m$  – erituvchi (suvning)ning massasi, g;  $K$  – suvning krioskopik doimiysi,  $K = 1,86$  grad/mol.

Molyar massa son jihatidan moddaning nisbiy molekular massasi  $M_r$  (modda)ga teng.

Moddaning tajribada aniqlangan molyar massasi aniqlanadi va nisbiy xato topiladi:


$$\text{hato (\%)} = \frac{M_r(\text{haqiqiy}) - M_r(\text{topilgani})}{M_r(\text{haqiqiy})}.$$

#### 4- laboratoriya ishi

### Osmos, turgor (endoosmos) va plazmoliz (ekzoosmos) hodisalarini kuzatish

**1- tajriba.** Tajriba o'tkazish uchun 2 ta qalin devorli hajmi 6,00 l li idish, 2 ta qalin devorli 0,50 l hajmli kimyoviy stakan, yarim o'tkazgichli plyonka (hayvon pufakchasi, pergament yoki sellofan), ingichka ip, qand ishlatiladi (3- rasm).

**Ishga tayyorgarlik.** Stakanni bo'g'zigacha qandning to'yingan eritmasi bilan to'ldiriladi. Stakan og'zidan 3–4 sm kattalikda sellofan qirqib olinadi va uni suvda ho'llanadi. Ho'llangan plyonkani ostidagi



**3- rasm.** Endoosmos va ekzoosmos hodisasi:

$a$  – gipertonik eritma;  $b$  – gipotonik eritma;  
 $1$  – suv;  $2, 3$  – qandning to'yingan eritmasi;  $4$  – suv.

havo pufakchalari qoldirmay idishga tortiladi. Parda chetlarini qaytarib, uni tarang tortiladi, buklangan joylarini stakan og'zi bo'ylab teng taqsimlab (bir necha marta chilvir bilan aylantirib tugun qilib bog'lanadi). Ikkinci stakanni suv bilan to'ldiriladi va yarim o'tkazgich parda bilan shunday yopiladi.

**Ishning borishi.** Birinchi stakanni 3/4 qismi suv bilan to'ldirilgan katta idishga joylashtiriladi. Boshida yassi turgan yarim o'tkazgich parda 2–3 soatdan so'ng shisha boshlaydi (endoosmos). Ikkinci stakanni 3/4 qismi qandning to'yingan eritmasi bilan to'ldirilgan katta idishga joylashtiriladi. Bu holatda yassi parda ichga botadi (ekzoosmos).

Bu hodisalar tushuntiriladi.


### 2- tajriba. Osmotik bosim.

**Ishga tayyorgarlik.** Forshossning keng teshigini yarim o'tkazgich bilan zich qilib bog'lanadi. Forshossni fuksin bilan bo'yagan qandning to'yingan eritmasi bilan tepasigacha to'ldiriladi (4- rasm). Forshossning yuqori uchi rezina naycha bilan uzun shisha nayga ulanadi (diametri 3–5 mm, uzinligi 1 m li), unga esa tepasiga kichik stakan biriktirilgan egik shisha naycha ulanadi.

**Ishning borishi.** Tayyorlab qo'yilgan osmotik yacheykani suvli stakanga joylashtiriladi, uzun nayni esa shtativga mahkamlanadi. Suv darhol stakandan yarim o'tkazgich pylonka orqali osmotik yacheyka ichiga tomon harakat qiladi va bo'yagan qand eritmasi naycha ichida ko'tarila boshlaydi. Mashg'ulot oxirida naycha ichidagi eritmaning ko'tarilgan balandligi belgilanadi. Suyuqlik bir necha sekunddan so'ng nay yuqorisigacha ko'tariladi va stakanga tomadi.

### 3- tajriba. Qon plazmasining izotonikligini o'rghanish (eritrotsitlar reaksiysi bo'yicha).

4 ta probirkaga tayyorlanadi. Probirkalarga 3,00 ml dan 0,85, 0,8, 0,9% li NaCl eritmalari va distillangan suv solinadi. Har bir probirkaga 2 tomchidan sitratli qon qo'shiladi va shisha tayoqcha bilan aralashtiriladi. Borayotgan hodisalar yozib olinadi va tushuntirib beriladi. Ular haqida ilmiy asoslangan xulosalar chiqariladi. Tekshirish uchun qonni ho'l probirkalarga olish mumkinmi? Javobni asoslang.



**4- rasm.** Osmotik bosim o'chagich.

## III b o b

### **TITRIMETRIK ANALIZ**

#### **TITRIMETRIK ANALIZGA KIRISH**

**Mashg‘ulotning maqsadi:** miqdoriy analiz usullaridan biri titrimetrik analiz asoslari bilan tanishish. Bu analiz tibbiyot amaliyotida biologik obyektlarni va dorivor preparatlarni tekshirishda qo‘llanadi, shu bilan birga undan atrof-muhitning sanitariya holatini baholashda foydalaniadi.

**O‘rganilayotgan mavzuning ahamiyati.** Titrimetrik analiz usuli – biologik obyektlarning miqdoriy tarkibini aniqlash uchun tibbiy-biologik tekshiruvlarda, dorivor va farmakologik preparatlar analizida keng qo‘llanadi.

Tirik organizmlardagi turli muhitlar ta’sirini bilmasdan, ularda boradigan jarayonlar mohiyati, davolashning ilmiy asoslangan yo‘nalishlari haqida to‘g‘ri xulosa chiqarib bo‘lmaydi.

Ko‘pgina kasalliklarga tashxis qo‘yishda, qon, siyidik, me’dá shirasi va boshqa biologik eritmalarda organizm to‘qimalaridagi normal miqdoriy tarkib bilan nosog‘lom organizmni taqqoslash orqali amalga oshiriladi.

Shuning uchun tibbiyot xodimlari, ayniqsa shifokorlar titrimetrik analiz usullari va asosiy yo‘nalishlarini bilishi zarur.

#### **Boshlang‘ich bilim darajasi:**

1. Kislota, asos, tuzlarning elektrolitik dissotsiya nazariyasi.
2. Kimyoviy reaksiya turlari (ionli va molekulyar ko‘rinishda).
3. Konsentrasiyani ifodalash usullari.

#### **Mustaqil tayyorlanish uchun adabiyotlar:**

1. *V.N.Alekseyev. Miqdoriy analiz.* M., 1972, 193- bet.
2. *A.A. Селезнёв. Аналитическая химия.* М., 1973, 164- bet.
3. *И.К.Цитович. Курс аналитической химии.* М., 1985, 212- bet.
4. *S.S.Qosimova, S.M.Masharipov, Q.O.Najimov. Umumiyl va bioorganik kimyodan amaliy mashg‘ulotlar.* T., 2001, 43–45- betlar.
5. *X.H.Hakimov, A.Z.Tatarskaya, N.T.Olimxo’jayeva. Umumiyl kimyodan amaliy mashg‘ulotlar.* T., 1993, 56–58- betlar.

#### **Darsda ko‘riladigan savollar:**

1. Analitik kimyoning asosiy masalalari.
  2. Titrimetrik analiz asoslari.
- 2.1. Titrimetrik analizda qo‘llanadigan asosiy tushunchalar.

- 2.2. Ekvivalentlik nuqtasi.
- 2.3. Titrimetrik analizda qo'llanadigan reaksiyalarga qo'yiladigan talablar.
- 2.4. O'lchov idishlari: byuretka, pipetka, o'lchov kolbalari, o'lchov silindrlari.
- 2.5. Titrlash usuli.
- 2.6. Titrlash usulidagi hisoblash ishlari.
- 2.7. Titrimetrik analiz usullarining sinflanishi.
3. Titrimetrik analiz usullarining tibbiyotda qo'llanishi.
4. Laboratoriya ishi.

## MA'LUMOTLAR YIG'INDISI

Analitik kimyo – moddalar va ularning aralashmalarining sifat va miqdoriy tarkibini tekshirish, ya'ni analiz qilinayotgan modda qanday element, atom, ion yoki molekuladan tashkil topgan ekanini aniqlashga asoslangan. Analitik kimyo 2 bo'limdan iborat:

1. Miqdoriy analiz.
2. Sifat analizi.

**Miqdoriy analiz** usullari bilan tekshirilayotgan moddaning tarkibidagi komponentlar qanday miqdoriy nisbatda ekanini aniqlanadi.

Miqdoriy analiz turli usullar bilan amalga oshiriladi: moddaning eritmadiagi miqdorini titrlashga sarf bo'lgan reagent miqdoriga yoki reaksiya natijasida hosil bo'ladigan cho'kma miqdoriga qarab va boshqa shu kabi usullar bilan aniqlanadi.

Miqdoriy analizning eng muhim usullari – tortma, kallorimetrik va titrimetrik (hajmiy) usullar.

*Tortma analiz* usulida tekshirilayotgan modda qiyin eriydigan cho'kma holiga o'tkaziladi va eritmadan filtrlab to'liq ajratib olinadi, massasi o'zgarmas bo'lguncha quritiladi va tigelda tortib olinadi. Hosil bo'lgan cho'kmaning massasini bilgan holda, kimyoviy formulasiga ko'ra analiz qilinayotgan moddaning tarkibiy qismi aniqlanadi.

*Kallorimetrik titrlashda* esa aniq konsentratsiyali eritma rangi bilan tekshirilayotgan eritma rangini solishtiriladi.

Klinik analizda titrimetrik analiz usuli keng qo'llanadi, chunki uni o'tkazishga kam vaqt talab etiladi, ishni amalga oshirish yo'nalishi sodda, anqlik darajasi yuqori.

*Titrimetrik analiz usuli* tekshirilayotgan modda bilan kimyoviy reaksiyaga kirishayotgan titrlangan eritma hajmini aniq belgilashga asoslangan. Bu analiz usulida biror moddaning konsentratsiyasini

aniqlash uchun albatta ikkinchi eritmaning konsentratsiyasi ma'lum (titrlangan eritma) bo'lishi kerak. Titri (konsentratsiyasi) ma'lum bo'lgan eritmani konsentratsiyasi noma'lum bo'lgan eritmaga byuretka yordamida tomchilab quyish jarayoniga *titrlash* deyiladi. Titrlash termini titr so'zidan olingan bo'lib, u 1 ml eritmadagi reagentning gramm hisobidagi miqdorini bildiradi.

Konsentratsiyasi ma'lum eritma – *titrlangan yoki ishchi eritma* deyiladi. Bunday eritmani erituvchi va erigan modda miqdorini aniq o'lchab tayyorlash mumkin yoki boshqa konsentratsiyasi ma'lum eritma yordamida aniqlash mumkin. Birinchi holda eritma *aniq titrli* deyiladi, ikkinchi holda *aniqlangan titrli eritma* deyiladi. Titrlangan eritmalarни tayyorlash uchun fiksanallardan foydalanish mumkin. Fiksanallar shisha ampulalarda 1,00 l aniq molyar konsentratsiyali eritmasini tayyorlash mumkin bo'lgan aniq miqdor o'lchamidagi qattiq moddalar yoki aniq o'lchamidagi suyuqliklardir. Eritma tayyorlash uchun fiksanal ichidagi eritma 1 l li o'lchov kolbasiga solinadi va ustiga kolbaning o'lchov chizig'igacha erituvchi qo'shiladi. Titrlangan eritma tayyorlash uchun eritilayotgan moddaning tarkibi o'ta sof va doimiy (o'zgarmas) bo'lishi, saqlanganda havoda o'zgarmaydigan bo'lishi kerak. Bunday moddalarga ko'pgina tuzlar (natriy tetraborat (bura)  $\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$ , natriy oksalat  $\text{Na}_2\text{C}_2\text{O}_4$ , kaliy bixromat  $\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$ , natriy xlorid  $\text{NaCl}$ ), oksalat kislota  $\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  va boshqalar misol bo'ladi.

Titrimetrik analizda natijani aniq olish asoslaridan biri bu ishchi eritma konsentratsiyasi aniqlik darajasining yuqoriligidir. Shunday aniqlikda tayyorlangan eritmalarni saqlashda quyidagilarga e'tibor beriladi:

- 1) saqlanganida eritma bug'lanmasligi kerak;
- 2) atrof muhitdan ifloslanmasligi kerak;
- 3) parchalanmasligi kerak.

Titrlangan eritmalarning konsentratsiyasi doimo boshqa standart eritmalar yordamida tekshirib turiladi.

Titrlash davomida titrlashning (reaksiyaning) tugashini aniqlay bilish kerak, bu *ekvivalent nuqta* deb ataladi va ta'sir etuvchi moddalar miqdori o'zaro ekvivalent bo'lganda yuzaga keladi. Ekvivalent nuqtani aniqlash maqsadida titrimetrik analizda indikatorlardan foydalaniladi. *Indikatorlar* deb, titrlashda eritmaga oz miqdorda qo'shiladigan va ekvivalent nuqtaga yetganda ko'z bilan ko'rsa bo'ladigan darajada rangi o'zgaradigan yoki cho'kma hosil qiladigan moddalarga aytildi. Ba'zan indikatorlar vazifasini reaksiyaga kirishayotgan moddalardan biri bajarishi mumkin.


Titrimetrik analizda quyidagi shartlarga javob beradigan reaksiyalarga qo'llaniladi:

- 1) tekshirilayotgan modda va reaktiv orasidagi reaksiya ma'lum bir stexiometrik nisbatlarda borishi kerak;
- 2) ta'sirlashuvchi 2 modda orasidagi reaksiya tez borishi kerak;
- 3) reaksiya oxirigacha borishi, ya'ni reaksiyaning qaytishiga yo'l qo'ymaslik kerak;
- 4) reaksiya jarayonida qo'shimcha yonaki reaksiyalar bormasligi kerak.


Titrimetrik analizda eritmaning hajmini aniq o'lchab olish kerak. Buning uchun o'lchov idishlari: byuretka, pipetka, o'lchov kolbalari va o'lchov silindrлari ishlataladi.

**Byuretkalar** titrlash jarayonida reagentni tomchilab sarflash va qancha hajm sarf bo'lganini aniq bilish uchun zarur. Byuretkalar hajm o'lchamlari belgilangan shkalali shisha trubkadan iborat bo'lib, bir uchiga shisha jo'mrak o'rnatilgan yoki sharikli rezina trubkaga pipetkacha ulangan bo'ladi (5- rasm). Ularning hajmi 10,00 ml dan 100,00 ml gacha. Natijalar aniqligini oshirish uchun 1,00–2,00 ml li byuretkalardan ham foydalaniladi, ular *mikrobyuretkalar* deyiladi. Ko'pincha hajmi 10,00, 25,00 va 50,00 ml bo'lgan byuretkalar ishlataladi. Byuretkaning shkala chiziqlari yuqoridaan 0 dan boshlanib pastga tomon 1 ml dan farqlanib boradi. 1 ml li oraliq 10 bo'lakka bo'lingan. Sarf bo'lgan eritma hajmi boshlang'ich va titrlash oxiridagi holatlar orasidagi farqdan aniqlanadi. Bunda suyuqlik sathidagi botiq menisk chizig'i «0» soniga mos kelishi kerak va bu holatni kuzatilganda ko'z bilan teng bir chiziqd qaralaди. Byuretkani voronka yordamida to'ldiriladi va chang tushmasligi uchun qalpoqcha bilan yopiladi. To'ldirishdan oldin eritmani konsentratsiyasi o'zgarmasligi uchun byuretka 3 marta standart eritma bilan chayiladi. Ish tugagandan keyin byuretka distillangan suvgaga chayib, to'ldirib, yopib qo'yiladi.



**Pipetkalar** eritmani aniq hajmda bir idishdan boshqa idishga solish uchun ishlataladi. Pipetka shisha naychadan iborat bo'lib, pastga tomon diametri torayib boradi (6- rasm). Yuqori qismida pipetka hajmi yozilgan bo'ladi: 1,00 ml dan 100,00 ml gacha bo'lishi mumkin. Mingdan bir bo'lak aniqlikgacha o'lchash uchun 1,00 ml hajmli pipetkalar ishlataladi. Pipetkalar maxsus shtativlarda vertikal holatda saqlanadi. Pipetkani rezina grusha



5- rasm.  
Byuretkalar.

**6- rasm.** Pipetkalar.

1 – bir xil hajmli eritmalar uchun; 2 – har xil hajmli eritmalar uchun.

**7- rasm.** O'ichov silindri.**8- rasm.** O'ichov kolbalari.

yordamida to'ldiriladi yoki so'rib olish usulidan foydalaniлади. Bunda kerakligidan ozgina ko'проq miqdorda eritma so'rib olinib, suyuqlik to'kilib ketmasligi uchun ko'rsatkich barmoq bilan yuqori qismi yopiladi. Ko'z qarshisiga olib kelinadi va barmoqni biroz bo'shatilsa, suyuqlik tomchilay boshlaydi va meniskga etganda ko'rsatkich barmoq bilan yana yopiladi. Pipetkadan suyuqliknini idishga quyishda pipetka uchini idish devoriga tegizib turiladi. Suyuqlik tushib bo'lganidan so'ng 20–30 sek kutiladi va pipetka idishdan olinadi. Suyuqlikning oxirgi tomchisi pipetkadan puflab chiqarilmaydi. Ish boshlashdan avval pipetka o'sha eritmada chayiladi, keyin kerakli miqdorda eritma o'ichab olinadi. Ish tugatilgandan keyin pipetka distillangan suvgaga chayib qo'yiladi.

**O'ichov silindrлari** eritmalarни ma'lum hajmda o'ichab olish uchun ishlataladi (7- rasm). Ular ma'lum hajmdiagi eritmalarни aralashtirish yoki tayyorlashda qo'l keladi. Ular 5,00; 10,00; 25,00; 50,00; 100,00; 500,00; 1000,00 ml hajmlarga muljallangan bo'ladi.

**O'ichov kolbalari** asosan aniq konsentratsiyali eritmalar tayyorlashda ishlataladi. Bular tagi yassi, uzun va ingichka bo'yinli kolbalardir (8- rasm). Bo'yinchasida belgi chizigi bo'lib, shu belgigacha erituvchi bilan to'ldiriladi (menisk chizig'ini e'tiborga olgan holda). Ushbu kolbalar 50,00; 100,00; 200,00; 500,00; 1000,00; 5000,00 ml hajmlarga

mo‘ljallangan bo‘ladi. Kolbani shisha tiqin bilan berkitib qo‘yiladi. Eritma tayyorlashda avval voronkadan, so‘ngra eritish nihoyasida pipetkadan foydalaniladi.

Kimyoviy analizda idishlar o‘ta tozaligiga rioya qilinadi, bu aniq natija olishda katta ahamiyatga ega. Toza idish deyilganda idish devorlarida tomchilar va uning izlari qolmasligi tushuniladi. Agar ular mavjud bo‘lsa, idishni xromli aralashmada ushlab turiladi, so‘ng distillangan suv bilan chayiladi.

Titrlash jarayoni quyidagi yo‘nalishda olib boriladi:

- 1) toza byuretkani 2–3 marta ishchi eritma bilan chayiladi;
- 2) byuretkani vertikal holatda o‘rnatib, titrlangan eritma bilan «0» dan yuqoriroqqacha to‘ldiriladi;
- 3) byuretkadagi eritmaning ortiqcha qismi byuretka uchidagi havoni siqib chiqarish uchun ishlataladi;
- 4) eritma hajmi «0» chizig‘iga keltiriladi. Byuretka uchida tomchi qolmasligi kerak;
- 5) titrlash kolbasiga pipetka yordamida kerakli miqdorda tekshirilayotgan eritma solinadi;
- 6) byuretkadan kolbaga eritmani asta-sekinlik bilan ekvivalent nuqtasiga erishguncha tomiziladi;
- 7) sarf bo‘lgan eritma hajmini o‘lchashda rangli eritmalarدا meniskning yuqori qismidan, rangsizlarda esa pastki qismidan o‘lchanadi;
- 8) ish tugatilganda byuretkani suv bilan to‘ldirilib yopib qo‘yiladi;
- 9) kimyoviy analizda xatolikka yo‘l qo‘yilishi mumkin. Shuning uchun analiz bir necha marta (tajriba) o‘tkaziladi va sarf bo‘lgan eritma hajmini o‘rtacha qiymati bo‘yicha hisoblash olib boriladi. Xatoliklar byuretkani «0» chizig‘igacha to‘g‘ri to‘ldirilmaganlik, hajmni byuretka shkalasidan to‘g‘ri hisoblay bilmaslik va hokazolar natijasida kelib chiqadi.

Titrimetrik analizda hisoblash ishlari *ekvivalentlar qonuni* asosida olib boriladi: ekvivalent molyar konsentratsiyasi bir xil bo‘lgan eritmalar o‘zaro teng hajmda ta’sirlashadi. Turli konsentratsiyali eritmalar ta’sirlashganda moddalarning hajmi konsentratsiyaga teskari proporsional bo‘ladi. Ekvivalentlar qonunining matematik ifodasi quyidagicha:



$$\frac{V_1}{V_2} = \frac{c\left(\frac{1}{Z}X_2\right)}{c\left(\frac{1}{Z}X_1\right)}. \quad (1)$$

Har 2 ta'sirlashuvchi moddalarning ekvivalent molyar konsentratsiyasining hajmiga ko'paytmasi o'zgarmas kattalikdir. Shu qonuniyatlar asosida turli hisoblashlar olib boriladi.

Masalan, bir eritmaning ekvivalent molyar konsentratsiyasi va titrashga sarf bo'lgan eritmaning hajmi ma'lum bo'lsa, ikkinchi eritmaning ekvivalent molyar konsentratsiyasi va titrini aniqlash mumkin.

Masalan: 20,00 ml sulfat kislota eritmasini titrashda 12,00 ml ekvivalent molyar konsentratsiyasi 0,2000 mol/l bo'lgan ishqor eritmasi sarflandi. Eritmadagi  $\text{H}_2\text{SO}_4$  ning titri va ekvivalent molyar konsentratsiyasini hisoblash kerak.

Reaksiya tenglamasi:



Tenglamalardan ko'rinish turibdiki,  $\text{H}_2\text{SO}_4$  ning ekvivalentlik omili  $\frac{1}{2}$  ga, NaOH niki esa 1 ga teng. Ekvivalentlar qonuniga ko'ra:

$$c\left(\frac{1}{2} \text{H}_2\text{SO}_4\right) = \frac{c(\text{NaOH}) \cdot V(\text{NaOH})}{V(\text{H}_2\text{SO}_4)} \frac{\text{mol} \cdot \text{ml}}{\text{ml} \cdot \text{l}} = \frac{\text{mol}}{\text{l}},$$

$$c\left(\frac{1}{2} \text{H}_2\text{SO}_4\right) = \frac{0,2000 \cdot 12,00}{20,00} \frac{\text{mol} \cdot \text{ml}}{\text{ml} \cdot \text{l}} = 0,1200 \frac{\text{mol}}{\text{l}},$$

$$t(\text{H}_2\text{SO}_4) = \frac{c\left(\frac{1}{2} \text{H}_2\text{SO}_4\right) \cdot M\left(\frac{1}{2} \text{H}_2\text{SO}_4\right)}{1000}, \frac{\text{g}}{\text{ml}},$$

$$t(\text{H}_2\text{SO}_4) = \frac{0,1200 \cdot 49}{1000} \frac{\text{g} \cdot \text{mol}}{\text{ml} \cdot \text{mol}} = 0,005880 \frac{\text{g}}{\text{ml}}.$$

Titrimetrik analizda hisoblash yuqori darajada aniqlikni talab qiladi. Shuning uchun eritmalar hajmini 0,10 ml daraja aniqlikda o'lchanadi etiladi:

$$V(\text{HCl}) = 10,27 \text{ ml} \text{ yoki } V(\text{NaOH}) = 22,82 \text{ ml}.$$

Konsentratsiyani yanada yuqori daraja aniqlikda, verguldan keyin 4 ta aniq qiymatgacha, titr nollardan keyin 4 ta aniq qiymatgacha aniqlikda o'lchanadi, masalan:

$$c(\text{HCl}) = 0,1025 \text{ mol/l},$$

$$c(\text{NaOH}) = 0,0932 \text{ mol/l},$$

$$t(\text{HCl}) = 0,003600 \text{ g/ml}.$$

Bajarilayotgan analiz asosida qanday reaksiyalar borishiga qarab titrimetrik analiz quyidagi usullarga bo'linadi:

- 1) kislota-asosli titrlash yoki neytrallanish usuli;
- 2) oksidlanish-qaytarilish yoki oksidimetriya usuli;
- 3) kompleksonometriya usuli;
- 4) cho'ktirish usuli.

### **Mavzu bo'yicha masalalar va ularni yechish namunalari**

**1- masala.** Tibbiyotda kaliy permanganatning 0,1–0,5% li eritmasi antiseptik vosita sifatida yaralarni yuvishda, 0,01–0,1% li eritmasi tomoq chayishda, oshqozonni yuvish uchun esa 0,02–0,1% li eritmasi ishlatiladi. Titrimetrik analizning qaysi usuli bo'yicha  $\text{KMnO}_4$  eritmasining konsentratsiyasini aniqlash mumkin (agar oksalat kislotaning titrlangan eritmasi bo'lsa)?

**Yechish:** kaliy permanganat oksidlovchi, oksalat kislota esa qaytaruvchi ekanligini e'tiborga olinsa, oksidimetriya usulidan foydalananish mumkin.

*Javob:* oksidimetriya usuli bo'yicha aniqlash mumkin.

**2- masala.** Agar 20,00 ml HCl ni tirlashga 19,87 ml 0,1000 mol/l konsentratsiyali NaOH eritmasi sarf bo'lgan bo'lsa, HCl ning ekvivalent molyar konsentratsiyasi va titrini aniqlang.

**Berilgan:**

$$V(\text{HCl}) = 20,00 \text{ ml}$$

$$V(\text{NaOH}) = 19,87 \text{ ml}$$


$$c(\text{NaOH}) = 0,1000 \text{ mol/l}$$

$$M(\text{HCl}) = 36,5 \text{ g/mol}$$

$$c(\text{HCl}) = ? \quad t(\text{HCl}) = ?$$

**Yechish:**

Reaksiya tenglamasi:



Shunday qilib:  $f_{\text{ekv}}(\text{NaOH}) = 1$ ,  $f_{\text{ekv}}(\text{HCl}) = 1$ .

1. Ekvivalentlar qonuniga ko‘ra HCl eritmasining molyar konsentratsiyasi hisoblanadi:

$$c(\text{NaOH}) \cdot V(\text{NaOH}) = c(\text{HCl}) \cdot V(\text{HCl}),$$

$$c(\text{HCl}) = \frac{c(\text{NaOH}) \cdot V(\text{NaOH})}{V(\text{HCl})},$$

$$c(\text{HCl}) = \frac{0,1000 \cdot 19,87}{20,00} \frac{\text{mol} \cdot \text{ml}}{\text{l} \cdot \text{ml}} = 0,0993 \text{ mol/l}.$$

2.  $c(\text{HCl})$  natijasiga ko‘ra eritmaning titri aniqlanadi:

$$t(\text{HCl}) = \frac{c(\text{HCl}) \cdot M(\text{HCl})}{1000},$$

$$t(\text{HCl}) = \frac{0,09935 \cdot 36,5}{1000} \frac{\text{mol} \cdot \text{g}}{\text{ml} \cdot \text{mol}} = 0,003626 \text{ g/ml},$$

Javob:  $c(\text{HCl}) = 0,0993 \text{ mol/l}$ ;  $t(\text{HCl}) = 0,003626 \text{ g/ml}$ .

### **Mavzuni o‘zlashtirishni mustaqil nazorat qilish uchun savol va masalalar**

1. Titrimetrik analizda qo‘llanadigan reaksiyalar qanday talablarga javob berishi kerak?

2. Nima sababdan pipetka va byuretkalarni ishlatishdan avval shu eritma bilan chayish lozim? Titrlash uchun mo‘ljallangan kolbani ham shu eritma bilan chayish kerakmi?

3. Pipetka uchida qolgan tomchi eritmani nima qilish kerak?

4. Titrlash jarayonida eksperimentator titrlash uchun quyidagi hajmlarda eritma sarflanganligini aniqlang: 15,27 ml, 18,17 ml va 12,89 ml. Keltirilgan qiymatlardan o‘rtacha arifmetik qiymatni olib analiz natijasini hisoblash mumkinmi?

5. 10,00 ml HCl eritmasini tirlashga 9,80 ml 0,1000 mol/l konsentratsiyali NaOH eritmasi sarf bo‘lgan. HCl ning ekvivalent molyar konsentratsiyasi va titrini aniqlang.

6. Ekvivalent molyar konsentratsiyasi 0,1510 mol/l hajmi 10,00 ml bo‘lgan HCl eritmasini titrlashga 10,00 ml NaOH eritmasi sarf bo‘lgan. NaOH ning ekvivalent molyar konsentratsiyasi va titrini aniqlang.

### **Vaziyatli masalalar**

1. Oshqozon shirasida xlorid kislotaning massa ulushi 0,5% bo‘lsa, 10,00 ml oshqozon shirasini titrlash uchun necha millilitr 0,1000 mol/l NaOH eritmasi sarf bo‘ladi ( $\rho = 1,00 \text{ g/ml}$ ).

Javob:  $V(\text{NaOH}) = 13,70 \text{ ml}$ .

2. 10,00 ml NH<sub>3</sub> eritmasini quyidagi reaksiya



bo'yicha titrlash uchun konsentratsiyasi 0,0980 mol// HCl eritmasidan 8,20 ml sarf bo'ldi. NH<sub>3</sub> ning ekvivalent molyar konsentratsiyasini aniqlang.

*Javob:*  $c(\text{NH}_3) = 0,0804 \text{ mol/l.}$

3. Qo'rg'oshin asetat – Pb(CH<sub>3</sub>COO)<sub>2</sub> bog'lovchi modda sifatida terining yallig'lanish kasalliklarini davolashda ishlataladi. Uning 100,00 ml 0,5% li eritmasini tayyorlash uchun zarur bo'lgan modda massasini hisoblang ( $\rho = 1,00 \text{ g/ml}$ ). Bu eritmada qo'rg'oshining massa ulushi (%) qanday?

*Javob:*  $m(\text{Pb}(\text{CH}_3\text{COO})_2) = 0,5 \text{ g}; \omega\%(\text{Pb}) = 0,32\%.$

### Test savollari

1. Titrimetrik analizda eritma titri (*t*) ning aniqlik darajasi yuqori bo'lishi talab etiladi. Qaysi javob shu fikrga mos keladi?

- a) 0,03 g/ml; b) 0,003715 g/ml; d) 0,375 g/ml; e) 0,037 g/ml.

2. Qaysi qiymatlар titrimetrik analizdagi hajmlar mutanosibligini ifodalaydi?

- a) 2,51 ml, 10,52 ml, 8,78 ml; d) 15,27 ml, 15,22 ml, 15,31 ml;  
b) 5,73 ml, 7,02 ml, 15,76 ml; e) 1,07 ml, 5,34 ml, 0,78 ml.

3. Titrlangan eritma hajmini qanday o'lchov asbobida o'lchanadi?

- a) pipetka; b) o'lchov kolbasi; d) byuretka; e) kolba.

4. Kislota-asosli titrlash usuli asosida qanday reaksiya yotadi?

- a) okisidlaniш-qaytarilish reaksiyasi;  
b) neytrallanish reaksiyasi;  
d) kompleks birikmalar hosil bo'lish reaksiyasi;  
e) issiqlik ajralishi bilan boradigan reaksiyalar.

5. Qanday eritma titrlangan deyiladi?

- a) noaniq konsentratsiyali eritma;  
b) yangi tayyorlangan eritma;  
d) aniq konsentratsiyali eritma;  
e) konsentratsiyasini aniqlash kerak bo'lgan eritma.

6. Ekvivalent nuqta nima?

- a) reaksiyaning tugash nuqtasi;
- b) reaksiyaning boshlanish nuqtasi;
- c) 2 moddaning ta'sirlashuvi;
- d) hajmlar teng bo'lgandagi nuqta.

7. Titrimetrik analizdagi hisoblashlar qanday qonuniyat asosida olib boriladi?

- a) massaning saqlanish qonuni;
- b) Ostvaldning suyultirish qonuni;
- c) ekvivalentlar qonuni;
- d) massalar ta'siri qonuni.

8. Pipetkalar nima maqsadida ishlatiladi?

- a) eritma hajmini aniq o'lhash uchun;
- b) eritmalar tayyorlash uchun;
- c) titrlash uchun;
- d) eritmani suyultirish uchun.

9. Eritmaning titri nima?

- a) 1 l eritmada erigan moddaning grammlar hisobidagi miqdori;
- b) 1 l eritmada erigan moddaning mollar soni;
- c) 1 kg eritmada erigan moddaning mollar soni;
- d) 1 ml eritmada erigan moddaning grammlari hisobidagi miqdori.

10. Ekvivalent nuqtasi ni aniqlash uchun qanday moddalar ishlatiladi?

- |                  |                    |
|------------------|--------------------|
| a) indikatorlar; | d) promotorlar;    |
| b) ingibitorlar; | e) katalizatorlar. |

### **LABORATORIYA ISHI**

#### **Titrimetrik analiz usulida (suvda) o'lchov idishlari bilan ishlash texnikasi**

Titrimetrik analizda eritmalar hajmini aniq o'lhash uchun quyidagi o'lchov idishlari qo'llanadi: byuretka, pipetka, o'lchov kolbalari, silindrlar. Suvda o'tkaziladigan tajribalarda ulardan to'g'ri foydalanishni o'rGANISH zarur, chunki titrimetrik analizda asosiy xatoliklar hajmni noto'g'ri o'lhashdan kelib chiqadi.

## KISLOTA ASOSLI TITRLASH USULINING NAZARIY ASOSLARI

**Mashg‘ulotning maqsadi.** Indikatorlarning rang o‘zgarish mexanizmini bilgan holda, ularni to‘g‘ri tanlab, biologik suyuqliklarni va dorivor preparatlarni kislota-asosli titrlash usuli bilan analiz qilish, shuningdek titrlash egri chizig‘i yordamida indikatorni to‘g‘ri tanlay bilishni o‘rganish.

**O‘rganilayotgan mavzuning ahamiyati.** Kislota asosli indikatorlarning rang o‘zgarish nazariyasini bilgan holda har bir alohida titrlash jarayoni uchun indikatorni to‘g‘ri tanlay bilish zarur. Indikatorlarni to‘g‘ri tanlash katta ahamiyatga ega, chunki biologik obyekt va dorivor moddalarning analiz natijalari aniqligi indikator to‘g‘ri tanlanganligi va titrlash to‘g‘ri olib borilganligiga bog‘liq.

### Boshlang‘ich bilim darajasi:

1. Neytrallanish reaksiyasi.
2. Massalar ta‘siri qonuni.
3. Kimyoiy muvozanat.
4. Tuzlarning gidrolizi.

### Mustaqil tayyorlanish uchun adabiyotlar:

1. В.Н.Алексеев. Количественный анализ. М., 1972, 238- bet.
2. К.А.Селезнёв. Аналитическая химия. М., 1973, 173- bet.
3. И.К.Цитович. Курс аналитической химии. М., 1983, 228- bet.
4. А.В.Бабков, Г.Н.Горшкова, А.М.Канонов. Практикум по общей химии с элементами количественного анализа. М., 1978, 98- bet.
5. X.H.Hakimov, A.Z.Tatarskaya, N.T.Olimxo‘jayeva. Umumiy kimyodan amaliy mashg‘ulotlar. T., 1993, 58–73- betlar.
6. S.S.Qosimova, S.M.Masharipov, Q.O.Najimov. Umumiy va bioorganik kimyodan amaliy mashg‘ulotlar. T., 2001, 46–49- betlar.

### Darsda ko‘riladigan savollar:

1. Indikatorlarning ion nazariyasi.
2. Indikator ko‘rsatkichi haqida tushuncha.
3. Indikatorlarning rang o‘zgarish oralig‘i.
4. Titrlash egri chizig‘i.
  - 4.1. Sakrash oralig‘i.
  - 4.2. Ekvivalent nuqta.
  - 4.3 Indikator tanlash.
5. Laboratoriya ishi.

## MA'LUMOTLAR YIG'INDISI

### Kislota-asosli indikatorlar

Kislota-asosli titrlash usulida jarayonning tugagan nuqtasini indikatorlar yordamida aniqlanadi. Eritmaning muhitiga qarab o'z rangini o'zgartiradigan moddalar *kislota-asosli indikatorlar* deyladi: metilzarg'aldog'i, metilqizili, neytralqizili, laksmus, fenolftalein, timolftalein. Indikatorlarning ion nazariyasiga ko'ra, kislota-asosli indikatorlar kuchsiz organik kislota yoki asoslar bo'lib, molekula shaklining rangi ion shaklining rangidan keskin farq qiladi. Indikatorlar bir va ikki xil rangli bo'ladi. Bir xil rangli indikatorlarning ionlashmagan molekulalari rangsiz, ion shakli esa rangli bo'ladi. Ikki xil rangli indikatorlarning ionlashmagan shakli bir rangli (masalan qizil), ion shakli esa boshqa rangli (masalan, sariq). Bir xil rangli indikatorlarga fenolftalein, timolftalein, ikki xil rangliga – metilzarg'aldog'i, metilqizili, neytralqizili, laksmus va boshqalar misol bo'ladi.

Titrimetrik analizda ko'pincha indikator sifatida kuchsiz organik kislotalar qo'llanadi. Indikator kuchsiz elektrolit sifatida dissotsiatsiyalanadi. Suvda eritilganda uning ikki shakli orasida muvozanat qaror topadi:

$$HInd = H^+ + Ind^- \quad (1)$$

bu yerda:  $HInd$  – indikatorning ionlashmagan shakli;  $Ind^-$  – indikator anioni.

Kislota qo'shilishi vodorod ionlarining konsentratsiyasi ko'payishi-ga va massalar ta'siri qonuniga ko'ra muvozanatning chapga siljishiga olib keladi, ya'ni eritma indikatorning dissotsiatsiyalanmagan molekulasi rangiga kiradi. Aksincha, eritmaga ishqor qo'shilsa gidroksid ionlari indikatorning vodorod ionlarini bog'lab kuchsiz elektrolit suv hosil qiladi; muvozanat o'ngga siljiydi va eritma indikatorning ion shakldagi rangiga kiradi. Shunday qilib, indikatorning rang o'zgarishi eritmaning  $pH$  qiymati o'zgarishiga bog'liq.

Indikatorning elektrolitik dissotsiatsiyalanish konstantasini ifodalash uchun quyidagi tenglama to'g'ri bo'ladi:

$$K_{HInd} = \frac{c(H^+) \cdot c(Ind^-)}{c(HInd)}, \quad (2)$$

$K_{HInd}$  – indikatorning ehtimollik ionlanish konstantasi.

(2) tenglamani o'zgartirilsa:

$$\frac{c(HInd)}{c(Ind^-)} = \frac{c(H^+)}{K_{HInd}}$$

va uni  $c(H^+)$ ga nisbatan yechilsa:

$$c(H^+) = \frac{K_{HInd} \cdot c(HInd)}{c(Ind^-)},$$

$$\lg c(H^+) = -\lg K_{HInd} - \frac{\lg c(HInd)}{c(Ind^-)}$$

kelib chiqadi. Bundan:

$$pH = pK - \frac{\lg c(HInd)}{c(Ind^-)},$$

bu yerda:  $c(HInd)$  – indikatorning kislotali muhitdagi shakli, u  $c_{kislot,sh}$  bilan ifodalanadi;  $c(Ind^-)$  – indikatorning ishqoriy muhitdagi shakli, u  $c_{ishq,sh}$  bilan ifodalanadi.

Shunday qilib:

$$pH = pK - \lg \frac{c_{kislota,sh}}{c_{ishqor,sh}}, \quad (3)$$

$pK = -\lg K$  – indikator ko'rsatkichi.

(3) tenglama indikator rangi va eritma  $pH$  i orasidagi bog'lanishni ko'rsatadi.  $K_{HInd}$  qiymati qanchalik kichik bo'lsa, u qo'shilayotgan kislota yoki asos ta'sirida shunchalik yuqori  $pH$  qiymatida o'z rangini o'zgartiradi.

Agar  $c_{kislota,sh} = c_{ishq,sh}$ , bo'lsa, unda  $c_{kislota,sh}/c_{ishq,sh} = 1$  bo'ladi.

Bunda  $pH = pK$ , ya'ni indikator ko'rsatkichi kattaligini ko'rsatadi, unda indikatorning 50% i molekula shaklida, 50% i ion shaklida bo'ladi. Kislota yoki ishqor qo'shib,  $c_{kislota,sh}/c_{ishq,sh}$  nisbatini o'zgartirish ular orasidagi muvozanatning o'zgarishiga olib keladi, bu esa rang o'zgarishiga sabab bo'ladi. Odam ko'zining rang ajratishi chegaralangan bo'lib, agar indikator shakkari konsentratsiyasi bir-biridan 10 marta farq qilsa, ularni ajrata olmaydi. Shuning uchun indikator rangi  $pH$  ning har qanday o'zgarishida emas, balki uning ma'lum qiymati orasida o'zgaradi. Bu oraliq *indikatorning rang o'zgarish oralig'i* deyiladi. U odatda  $pH$  ga nisbatan u yoki bu tomonga bir birlik siljiydi, ya'ni  $pH = pK \pm 1$ . Masalan, metilzarg'aldoq indikatorining rang o'zgarish oralig'i  $pH = 3,1 - 4,4$ . Shu oraliq ichida indikator rangi pushtidan sariq ranga o'zgaradi.  $pH > 4,4$  bo'lganda metilzarg'aldoq sariq rangini,  $pH < 3,1$  bo'lganda esa pushti rangini saqlaydi. Berilgan indikatorning titrlash tugatilgan paytdagi  $pH$  qiymati *titrlash ko'rsatkichi* deyiladi va  $pT$  bilan belgilanadi. Titrlash ko'rsatkichi indikatorning bir shakldan ikkinchisiga o'tishida rang o'zgarishi  $pH$  qiymatlar yig'indisining yarmi tariqasida hisoblanadi. Masalan:

$$pT_{m-z} = (3,1 + 4,4)/2 = 3,75,$$

$$pT_{f-f} = (8 + 10)/2 = 9.$$

Ideal holatda titrlash  $pH = pT$  bo'lganda tugaydi.

Kislota-asosli titrlash usulining asosiy indikatorlari quyidagi rang o'zgarish oralig'i va titrlash ko'rsatkichiga ega:

	Rang o'zgarish oralig'i	Titrlash ko'rsatkichi $pT$
Metilzarg'aldoq	3,1–4,4	3,75
Metilqizili	4,4–6,2	5,3
Fenolftalein	8,0 – 10,0	9,0
Lakmus	5,0 – 8,0	6,5

### **Titrlash egri chizig'i. Indikator tanlash**

Kislota-asosli titrlash usulida ekvivalent nuqta qo'shiladigan indikatorning rangi o'zgarishiga ko'ra aniqlanadi. Indikatorni to'g'ri tanlash uchun titrlash jarayonida eritma muhitining kislotali yoki ishqoriyligi ( $pH$ ) o'zgarishini aniqlash lozim. Eritmaning  $pH$  qiymati uzlusiz o'zgarishini grafik tarzda ko'rsatish qabul qilingan.

Eritma muhitining o'zgarishi titrlash egri chizig'i yordamida ko'rsatiladi. Titrlash jarayonida qo'shilayotgan kislota yoki asos eritmasining hajmiga qarab eritma  $pH$  i o'zgarishining grafik tasviri *titrlash egri chizig'i* deyiladi. Titrlash egri chizig'ini tuzish uchun to'g'ri chiziqli koordinata o'qaridan foydalanib grafik chiziladi. Abssissa o'qida qo'shilayotgan titrlangan eritmaning hajmi (ml), ordinata o'qida esa eritmaning  $pH$  qiymati ko'rsatiladi.

### **Kuchli asosni kuchli kislota bilan titrlash egri chizig'i**

100,00 m/ ekvivalent molyar konsentratsiyasi 0,1000 mol//bo'lgan NaOH eritmiasini ekvivalent molyar konsentratsiyasi 0,1000 mol//bo'lgan HCl eritmasi bilan asidimetrik titrlash egri chizig'ini ko'ramiz. 100,00 m/ ekvivalent molyar konsentratsiyasi 0,1000 mol/l bo'lgan NaOH ni titrlashda  $pH$  i 13 ga,  $pOH$  esa 1 ga teng bo'ladi. 90,00 m/ ekvivalent molyar konsentratsiyasi 0,1000 mol//bo'lgan HCl eritmasi qo'shilganda NaOH ning konsentratsiyasi 10 marta kamayadi va  $pH = 12$ ,  $pOH = 2$  ga teng bo'ladi. Yana 9,00 m/ (hammasi bo'lib 99,00 m/) HCl eritmasi qo'shilganda NaOH ning konsentratsiyasi yana 10 marta kamayadi va eritma  $pH = 11$ ,  $pOH = 3$ . HCl eritmasini qo'shishni asta-sekin davom ettirib, olingan  $pH$  qiymatlarini grafik tarzida joylab titrlash egri chizig'ini keltirib chiqariladi.

Kuchli asosni kuchli kislota bilan titrlash egri chizig‘ida boshlangich holatda muhit  $pH$  qiymati avval bir tekisda o‘zgaradi, muhit ishqoriy bo‘ladi.  $pH = 10$  bo‘lganda  $pH$  keskin o‘zgaradi va muhit kislotali bo‘lib qoladi ( $pH = 4$ ). Undan keyin yana  $pH$  kislotali muhitda bir tekisda o‘zgarib boradi.


Titrlash egri chizig‘ida muhit  $pH$  ining keskin o‘zgarishi *sakrash oralig‘i* deyiladi. Titrlash egri chizig‘ida sakrash  $pH = 4–10$  oralig‘ida kuzatiladi.

Sakrash oralig‘iniq o‘rtasi *ekvivalent nuqta* deyiladi. Kuchli asosni kuchli kislota bilan titrlashda ekvivalent nuqta  $pH = 7$  ga to‘g‘ri keladi. Kuchli kislotali kuchli asos bilan titrlash egri chizig‘i qaramaqarshi ko‘rinishda bo‘ladi. U kislotali muhitda boshlanadi (kislota titrlanadi). Sakrash oralig‘i  $pH = 4$  da boshlanib  $pH = 10$  da tugaydi. Bu holda ham ekvivalent nuqta  $pH = 7$  ga to‘g‘ri keladi. Kuchli kislotali kuchli asos bilan titrlash egri chizig‘i 9- rasmida ko‘rsatilgan.

Titrlashdagi sakrash oralig‘i titrlanayotgan kislota yoki asosning konsentratsiyasiga bog‘liq. Ekvivalent molyar konsentratsiyasi 0,0100 mol//bo‘lgan kislotalning huddi shunday konsentratsiyali ishqor eritmasi bilan titrlaganda sakrash oralig‘i kichiklashadi va  $pH = 5$  dan  $pH = 9$  bo‘lib qoladi.


Titrlash egri chizig‘idan foydalanib unga mos indikatorlar tanlanadi. Har bir titrlashga faqat sakrash oralig‘ining  $pH$  qiymatlarida rangini o‘zgartiradigan indikator yaroqlidir.

Kuchli kislotali kuchli asos bilan titrlaganda rang o‘zgarish oralig‘i  $pH = 8,0 – 10,0$  bo‘lgan fenolftalein, rang o‘zgarish oralig‘i  $pH = 3,1 – 4,4$  bo‘lgan metilzarg‘aldoq, rang o‘zgarish oralig‘i  $pH = 4,4 – 6,2$  bo‘lgan metilqizili, rang o‘zgarish oralig‘i  $pH = 5 – 8$  bo‘lgan laksmus va  $pH = 4,0 – 10,0$  qiymati oralig‘ida bo‘lgan boshqa indikatorlardan foydalanish mumkin.



**9- rasm.** Ekvivalent molyar konsentratsiyasi 0,1000 mol// HCl eritmasini ekvivalent molyar konsentratsiyasi 0,1000 mol// NaOH bilan titlash egri chizig‘i.

## Kuchsiz kislotani kuchli asos bilan titrlash egri chizig'i



**10- rasm.** Ekvivalent molyar konsentratsiyasi 0,1000 mol/l  $\text{CH}_3\text{COOH}$  eritmasini ekvivalent molyar konsentratsiyasi 0,1000 mol/l NaOH bilan titlash egri chizig'i.

titrlanayotgan kislota qancha kuchsiz bo'lsa, sakrash oralig'i va ekvivalent nuqta shunchalik ko'p ishqoriy muhitga surilgan bo'ladi.

Kuchsiz kislotani kuchli asos bilan titrlaganda rang o'zgarish oralig'i  $pH = 8,0 - 10,0$  bo'lgan fenolftalein indikatori qo'llanadi.

## Kuchsiz asosni kuchli kislota bilan titrlash egri chizig'i

Ekvivalent molyar konsentratsiyasi 0,1000 mol/l bo'lgan  $\text{NH}_4\text{OH}$  eritmasini 0,1000 mol/l ekvivalent molyar konsentratsiyali  $\text{HCl}$  eritmasi bilan titrlash egri chizig'i 11- rasmda keltirilgan.

Reaksiya mahsuloti hosil bo'lgan  $\text{NH}_4\text{Cl}$  tuzining eritmasi kislotali muhit hosil qilib gidrotizlanadi. Shuning uchun ekvivalent nuqta kislotali muhitda  $pH < 7$  bo'ladi. Titrlash egri chizig'i buni tasdiqlaydi.


Haqiqatan ham bu jarayonda sakrash oralig'i  $pH = 4$  dan  $pH = 6,2$  gacha bo'lib, ekvivalent nuqta  $pH = 5,4$  ga teng bo'ladi.

Bu holatda indikator sifatida metilzarg'aldoq'i ( $pT = 3,75$ ) va metilqizili ( $pT = 5,3$ ) ishlataladi. Lakmus va fenolftalein ishlatilmaydi, chunki ularning titrlash ko'rsatkichlari sakrash oralig'iga mos kelmaydi.


Kuchsiz kislotani kuchsiz asos bilan titrlash mumkin emas, chunki bu jarayon sakrash oralig'iga ega bo'lmaydi (12- rasm).

Kuchsiz kislotani kuchli asos bilan titrlash egri chizig'i ko'rinishi bir muncha o'zgacha. Ekvivalent molyar konsentratsiyasi 0,1000 mol/l bo'lgan kuchsiz sirka kislota  $\text{CH}_3\text{COOH}$  ni ekvivalent molyar konsentratsiyasi 0,1000 mol/l bo'lgan kuchli asos NaOH bilan titrlash egri chizig'i 10- rasmda keltirilgan.

Titrlash natijasida hosil bo'lgan natriy asetat tuzi  $\text{CH}_3\text{COONa}$  gidrolizlanib, ishqoriy muhit hosil qiladi. Shuning uchun sakrash ishqoriy muhitga surilgan bo'lib  $pH = 7,8 - 10,0$  oralig'i da yotadi. Shuni aytish kerakki,



**11- rasm.** Ekvivalent molyar konsentratsiyasi 0,1000 mol/l  $\text{NH}_4\text{OH}$  eritmasini ekvivalent molyar konsentratsiyasi 0,1000 mol/l HCl bilan titrlash egri chizig'i.



**12- rasm.** Ekvivalent molyar konsentratsiyasi 0,1000 mol/l  $\text{CH}_3\text{COOH}$  eritmasini ekvivalent molyar konsentratsiyasi 0,1000 mol/l  $\text{NH}_4\text{OH}$  bilan titrlash egri chizig'i.

Titrimetrik analiz usullari tibbyotda keng qo'llanadi. Bu usullar biologik suyuqliklarning kislotaliligini, bilologik suyuqliklar tarkibidagi oksidlovchi va qaytaruvchilarning miqdorini, biologik suyuqliklar tarkibidagi metall ionlarining miqdorini analiz qilishda keng qo'llanadi. Titrimetrik analiz usullari yordamida dorivor preparatlar sifatida ishlatiladigan xlorid, borat va ko'pchilik organik kislota eritmalarini miqdoriy analiz qilinadi. Sanitariya-gigienik jihatdan bu usullar yordamida oziq-ovqat mahsulotlarining kislotaliligi, suvning qattiqligi va boshqalar aniqlanadi.

### Mayzu bo'yicha masalalar va ularni yechish namunasi

**1- masala.** Eritma fenolftalein qo'shilganda rangsiz, fenolqizili qo'shilganda esa qizil rangga ega. Ushbu eritma muhitining taxminiy  $pH$  qiymatini aniqlang.

#### Yechish:

1. Fenolftaleinning rang o'zgarish oraliq'i  $pH = 8,0 - 10,0$ , rangsizdan binafsha rangga o'tadi.
2. Fenol qizilining rang o'zgarishi oraliq'i esa  $pH = 6,8 - 8,4$ , sariqdan qizil rangga o'zgaradi.

3. Eritma fenolftalein ishtirokida rangsiz, fenol qizili ishtirokida qizil rang hosil qiladi, demak, uning  $pH$  qiymati 8,0–8,4 oralig‘ida yotadi.

**2- masala.** Ammoniy gidroksidni xlorid kislota bilan titrlash egri chizig‘ini tushuntiring va titrlash reaksiyasiga indikator tanlang.

### Yechish:

1. Jarayon quyidagi reaksiya asosida boradi:



2. Hosil bo‘lgan tuz gidrolizi natijasida eritma kislotali muhitga ega bo‘lib ekvivalent nuqta  $pH < 7$  bo‘ladi.

3. Bu jarayonda sakrash oralig‘i  $pH = 4$  dan  $pH = 6,2$  gacha bo‘ladi.

Shunday qilib, bu jarayon uchun metilzarg‘aldoq ( $pH = 3,1$ –4,4) va metilqizili ( $pH = 4,4$ –6,2) ishlatalishi mumkin.

### Mavzuni o‘zlashtirishni mustaqil nazorat qilish uchun savol va masalalar

1. Qanday indikatorlar kislota asosli indikatorlarga kiritiladi?
2. Indikatorning rang o‘zgarish oraligi nima?
3. Indikator ko‘rsatkichi nimani bildiradi?
4. Indikator rangi bilan eritmaning  $pH$  i orasida qanday bog‘liqlik kuzatiladi?
5. Agar titrlashdagi sakrash  $pH = 5,0$ –9,0 oralig‘ida bo‘lsa, qaysi indikatorni ishlatalish mumkin?
6. Kuchli kislotani kuchsiz asos bilan titrlashda ekvivalent nuqtani va qaysi indikatordan foydalanish mumkinligini ayting.
7. Kuchsiz kislotani kuchli asos bilan titrlashda qaysi indikatordan foydalanish mumkin va unda ekvivalent nuqta qayerda joylashadi?

### Vaziyatli masalalar

1. Bromtimol ko‘kining ionlanish konstantasi  $1,6 \cdot 10^{-7}$  ga teng bo‘lsa (kislotali indikator) titrlash ko‘rsatkichini hisoblang.

*Javob:*  $pK = 6,8$ .

2. Agar eritma nitrofenol qo‘shilganda rangsiz bo‘lsa, bromkrezol ko‘kida ko‘k rangga kirsa, biologik suyuqlik  $pH$  ining taxminiy qiymatini ayting. Nitrofenolning sakrash oralig‘i  $pH$  5,6–7,6 –

rangsizdan sariqqa o'tadi; bromtimol ko'kining sakrash oralig'i  $pH$  3,8 dan 5,4 gacha – sariqdan ko'kka o'tadi.

*Javob:*  $pH = 5,4\text{--}5,6$ .

3. Sirka kislotaning kaliy gidroksid bilan titrlash jarayoniga mos indikatorni tanlang.

*Javob:* fenolftalein, timolftalein.

### Test savollari

1. Indikatorning rang o'zgarish oraligi nima?

- a) indikatorning 50% i molekula shaklda, 50% i ion shaklda bo'lgan  $pH$  qiymati;
- b) indikatorning bir rangdan ikkinchi rangga o'tish oralig'i;
- d) titrlashdagi eritma  $pH$  qiymati o'zgarishining grafik tasviri;
- e) ekvivalent nuqta yaqinida I tomchi ishchi eritmadan eritma  $pH$  ining keskin o'zgarishi.

2. Titrlash egri chizig'i nima?

- a) indikatorning 50% i molekula shaklda, 50% i ion shaklda bo'lgan  $pH$  qiymati;
- b) indikatorning bir rangdan ikkinchi rangga o'tgandagi  $pH$  qiymati;
- d) titrlash jarayonida eritma  $pH$  qiymati o'zgarishining grafik tasviri;
- e) ekvivalent nuqta yaqinida bir tomchi ishchi eritmadan eritma  $pH$  ining keskin o'zgarishi.

3. Titrlashda sakrash oralig'i nima?

- a) indikatorning 50% i molekula shaklda, 50% i ion shaklda bo'lgan  $pH$  qiymati;
- b) indikatorning bir rangdan ikkinchi rangga o'tgandagi  $pH$  qiymati;
- d) titrlash jarayonida eritma  $pH$  qiymati o'zgarishining grafik tasviri;
- e) ekvivalent nuqta yaqinida bir tomchi ishchi eritmadan eritma  $pH$  ining keskin o'zgarishi.

4. Qanday indikatorlar bir xil rangli indikatorlar deyiladi?

- a) ikkala shakli ham rangli bo'lsa;
- b) faqat bir shakli rangli bo'lsa;
- d) ikkala shakli ham rangsiz bo'lsa;
- e) ikkala shakli ham bir xil rangda bo'lsa.

5. Qanday indikatorlar ikki xil rangli indikatorlar deyiladi?

- a) ikkala shakli ham rangli bo'lsa;
- b) faqat bir shakli rangli bo'lsa;
- c) ikkala shakli ham rangsiz bo'lsa;
- d) ikkala shakli ham bir xil rangda bo'lsa.

6. Bir xil rangli indikatorni ko'rsating?

- a) lakmus;    b) fenolftalein;    d) metilzarg'aldog'i;    e) metilqizili.

7. Titrlash ko'rsatkichi deganda nima tushuniladi?

- a) indikatorning 50% i molekula shaklda, 50% i ion shaklda bo'lgan  $pH$  qiymati;
- b) indikatorning bir rangdan ikkinchi rangga o'tgandagi  $pH$  qiymati;
- c) titrlash jarayonida eritma  $pH$  qiymati o'zgarishining grafik tasviri;
- e) ekvivalent nuqta yaqinida bir tomchi ishchi eritmadan eritma  $pH$  ining keskin o'zgarishi.

8. Qaysi indikatorning rang o'zgarishi oralig'i  $pH = 3,1-4,4$  ni tashkil qiladi?

- a) lakmus;    b) fenolftalein;    d) metilzarg'aldog'i;    e) metilqizili.

9. Qaysi indikatorning rang o'zgarishi oralig'i  $pH = 8,2-10,0$  da bo'ladi?

- a) lakmus;    b) fenolftalein;    d) metilzarg'aldog'i;    e) metilqizili.

10. Ammoniy gidroksidni xlorid kislota bilan titrlashda qaysi indikatorni qo'llash mumkin?

- a) lakmus;    b) fenolftalein;    d) metilzarg'aldog'i;    e) metilqizili.

## KISLOTA-ASOSLI TITRLASH USULI. ALKALIMETRIYA

**Mashg'ulotning maqsadi:** kislota-asos reaksiyalarining borish qonunlarini bilgan holda biologik obyekt va dorivor preparatlarda kislotalar va gidrolizlanganda kislotali muhit hosil qiluvchi tuzlar miqdorini aniqlashni o'rganish.

**O'rganilayotgan mavzuning ahamiyati.** Kislota-asosli titrlash usuli tibbiy-biologik tekshiruvlarda klinik analizlar o'tkazish, oziq-ovqat

mahsulotlari va suvning sanitariya-gigiena holatini tekshirish, dori shakllari va preparatlarini analiz qilishda qo'llanadi. Bu usul bilan eritmalarda kislotalar, ishqorlar va gidrolizlanganda kislotali yoki ishqoriy muhit hosil qiluvchi tuzlar miqdorini aniqlash mumkin. Masalan, bu usul bilan me'da shirasi, siyidik va boshqa biologik suyuqliklarning kislotaliligi tekshiriladi. Dorivor preparatlar sifatida ishlatiladigan xlorid, sulfat, borat va ko'pchilik organik kislotalar eritmalarini miqdoriy analiz qilinadi. Sanitariya-gigiena jihatdan oziq-ovqat mahsulotlarining kislotaliligi, suvning qattiqligi va boshqalar aniqlanadi.

### **Boshlang'ich bilim darajasi:**

1. Neytrallanish reaksiyasi.
2. Vodorod ko'rsatkich.
3. Tuzlarning gidroliz reaksiyasi.
4. Kislota-asosli titrlash usulining indikator nazariyasi.
5. Eritma tarkibini ifodalash usullari.
6. Titrlangan eritmalarini tayyorlash.

### **Mustaqil tayyorlanish uchun o'quv adabiyotlari:**

1. Н.А.Алексеев. Количественный анализ. М., 1972, 294- bet.
2. Н.А.Селезнёв. Аналитическая химия. М., 1973, 183- bet.
3. И.К.Цитович. Курс аналитической химии. М., 1985, 249- bet.
4. А.В.Бабков, Г.Н.Горошкова, А.М.Кононов. Практикум по общей химии с элементами количественного анализа. М., 1978, 109- bet.
5. X.H.Hakimov, A.Z.Tatarskaya, N.T.Olimxo'jayeva. Umumiy kimyodan amaliy mashg'ulotlar. T., 1993, 74–75- betlar.
6. S.S.Qosimova, S.M.Masharipov, Q.O.Najimov. Umumiy va bioorganik kimyodan amaliy mashg'ulotlar, T., 2001, 51–53- betlar.

### **Darsda ko'rildigani savollar:**

1. Kislota-asosli titrlash usulining nazariy asoslari.
2. Laboratoriya ishining nazariy asoslari.
  - 2.1. Kimyoviy reaksiya tenglamasi.
  - 2.2. Indikator tanlash.
  - 2.3. Laboratoriya ishining bajarish uslubi.
  - 2.4. Hisoblash formulalari.
  - 2.5. Analiz natijalaridan xulosa chiqarish.
3. Kislota-asosli titrlash usulining tibbiyotda qo'llanishi.
4. Laboratoriya ishi.

## MA'LUMOTLAR YIG'INDISI

### Kislota-asosli titrlash usullari. Alkalimetriya

Kislota-asosli titrlash usuli negizida mahsulotining biri suv bo'lgan neytrallanish reaksiyasi yotadi:



Bu usul yordamida kuchli kislotaning titrlangan eritmasidan foydalanib, ishqor yoki gidrolizlanganda ishqoriy muhit hosil qiluvchi tyzlar miqdorini aniqlash (*asidimetriya*) yoki titrlangan ishqor eritmasidan foydalanib kislota yoki gidrolizlanganda kislotali muhit hosil qiluvchi tyzlar miqdorini aniqlash (*alkalimetriya*) mumkin. Ekviivalentlik nuqtasi  $pH$  ning ma'lum qiymatida yotadi va o'zaro ta'sirlashayotgan kislota va asos kuchiga bog'liq bo'ladi.


Kislota-asosli titrlash usulida ekvivalent nuqtasi (reaksiyaning tugash nuqtasi) indikatorlar yordamida aniqlanadi. Bu usul bilan titrlash davomida eritma muhitining  $pH$  qiymati o'zgaradi, shu sababli ekvivalent nuqtani aniqlashda kislota-asosli indikatorlardan foydalaniladi. Bunday indikatorlarga metilzarg'aldoq'i, metilqizili, fenolftalein, timolftalein, lakmus va boshqalarini keltirish mumkin.

Bu indikatorlar muhit  $pH$  qiymatiga qarab o'z rangini o'zgartiradi. Masalan, metilzarg'aldoq indikatori  $pH = 3,1-4,4$  oraliq'ida o'z rangini o'zgartiradi.  $pH < 3,1$  bo'lganda bu indikator pushti rangli,  $pH > 4,4$  bo'lganda sariq rangli. Fenolftalein indikator  $pH < 8$  bo'lganda rangsiz,  $pH > 10$  bo'lganda binafsha rangli, lakmus  $pH < 5$  bo'lganda qizil,  $pH < 8$  bo'lganda ko'k rangli.


Titrlash davomida reaksiya muhiti o'zgaradi va eritma muhitiga qarab kerakli indikator tanlanadi. Reaksiya muhiti reaksiya natijasida hosil bo'lgan tuz tabiatiga bog'liq. Agar hosil bo'lgan tuz kuchli asos va kuchsiz kislotadan hosil bo'lgan bo'lsa, reaksiya muhiti asosli bo'ladi. Bu holda asosli muhitga rangini o'zgartiradigan indikatorlar – fenolftalein, timolftaleindan foydalaniladi. Agar tuz kuchsiz asos, kuchli kislotadan hosil bo'lgan bo'lsa, reaksiya muhiti kislotali bo'lib, kuchsiz kislotali muhitda rangini o'zgartiradigan indikatorlar – metilzarg'aldoq, metilqizil indikator qo'llash mumkin. Agar tuz kuchli asos va kuchli kislotadan hosil bo'lgan bo'lsa, hamma indikatorlardan foydalanish mumkin.

Alkalimetriya usuli bilan titrlashda ko'pincha xlorid kislota eritmasi ishchi eritma sifatida qo'llanadi. Uning konsentratsiyasini aniqlash uchun ma'lum konsentratsiyali (titrlangan) natriy tetraborat eritma-

sidan foydalaniadi. Bu tuzning suvli eritmasi gidrolizlanishi oqibatida ishqoriy muhit hosil bo‘ladi:




Shuning uchun uni kislota bilan titrlash mumkin:



Umumiylenglamasi:



yoki



Reaksiya tenglamasidan ko‘rinib turibdiki, reaksiya natijasida kuchsiz ortoborat kislota hosil bo‘ladi, uning eritmasining  $pH = 4,6$ . Demak, ekvivalentlik nuqtasini metilzarg‘aldoq indikatori rang o‘zgarishiga qarab belgilasa bo‘ladi, chunki uning rang o‘zgarish oralig‘i  $pH = 3,0–4,4$  da yotadi.

Standartlangan xlorid kislota eritmasi dorivor preparatlar, asoslar, gidrolizlanganda ishqoriy muhit hosil qiluvchi tuzlar va boshqalarni analiz qilishda ishlatiladi.

Kislota-asosli titrlash usuli klinik-diagnostik ahamiyatga ega. Bu usuldan foydalanim tibbiyot amaliyotida oziq-ovqat mahsulotlari, ichimlik suvi, ona sutining kislotaliligi aniqlanadi.

Kislota-asosli moddalarning biologik muhitini hujayralarga va tirik organizmning biologik faoliyatiga ta’sir etadi. Organizmdagi barcha biologik suyuqliklar – me‘da shirasi, qon, siyrik, o‘t suyuqligi, ter va boshqalar ma’lum  $pH$  qiymatiga ega. Bu kattalikning o‘zgarishi patologik holatlarga olib keladi. Shuning uchun organizm biosuyuqliklarining kislotaliligini aniqlash tibbiyot amaliyotida katta ahamiyat kasb etadi.

Laboratoriya ishida talabalar me‘da shirasining umumiyl kislotaliligini aniqlaydilar.

Me‘da shirasi kuchli kislotali muhitga ega bo‘lgan rangsiz suyuqlikdir. Me‘da shirasi tarkibiga suv, oqsillar, fermentlar (pepsin), xlorid kislota, nordon ta’sir etuvchi fosfatlar va bir qator boshqa moddalar kiradi.

Me‘da shirasining kislotali reaksiysi uning tarkibidagi xlorid kislota, nordon ta’sir etuvchi fosfatlar borligidan, patologik jarayonlarda esa sut kislotasi va uchuvchan yog‘ kislotalar borligidan vujudga keladi.

Me‘da shirasiga nordon ta’sir etuvchi moddalar yig‘indisini umumiyl kislotalilik deyiladi.

Oqsil va uning hazm bo‘lish mahsulotlari bilan bog‘liq bo‘lgan xlorid kislota *bog‘langan xlorid kislota* deyiladi, ortib qolgan xlorid kislota esa *erkin xlorid kislota* deyiladi.

Turli kasalliklarda ajraladigan me‘da shirasining miqdori ham, uning tarkibidagi xlorid kislutaning miqdori ham o‘zgarichi mumkin.

Me‘da shirasidagi HCl konsentratsiyasining o‘zgarishi me‘da-ichak trakti xastaliklariga sabab bo‘ladi. Me‘da shirasini *pH* ining qiymati normada 0,9–2,0 bo‘ladi. Kislotaligi ortishi ( $pH < 0,9$ ) – giperxlorgidriya, me‘da yallig‘lanishiga olib keladi. Me‘da shirasi kislotaligining kamayishi ( $pH > 2,0$ ) – giperxlorgidriya va  $pH = 0$  ga tushishi – axlorgidriya, onkologik kasallikkarga olib keladi.

Me‘da shirasining umumiy miqdori, rangi, hidri, fermentativ faolligi ham o‘zgarib turishi mumkin. Shuning uchun klinik amaliyotda, diagnostikada va me‘da-ichak kasalliklarini davolashda kislota asosli titrash usuli keng qo‘llanadi. Shilliq borligi, umumiy kislotaligi, erkin va bog‘langan xlorid kislolar, me‘da shirasida sut kislota, o‘t zardobi va qon borligi aniqlanadi.

### Mavzu bo‘yicha masalalar va ularni yechish namunalari

**1- masala.** 20,00 ml xlorid kislota eritmasini titrash uchun 18,27 ml ekvivalent molyar konsentratsiyasi  $c(1/2 \text{ Na}_2\text{B}_4\text{O}_7) = 0,0952 \text{ mol/l}$  bo‘lgan natriy tetraborat eritmasi sarflangan. Xlorid kislota eritmasining ekvivalent molyar konsentratsiyasi va titrini hisoblang.


**Berilgan:**

$$\begin{aligned} V(\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7) &= 20,00 \text{ ml} \\ c(1/2 \text{ Na}_2\text{B}_4\text{O}_7) &= 0,0952 \text{ mol/l} \\ V(\text{HCl}) &= 18,27 \text{ ml} \\ M(\text{HCl}) &= 36,5 \text{ g/mol} \end{aligned}$$

$$c(\text{HCl}) = ? \quad t(\text{HCl}) = ?$$

**Yechish:**

Reaksiya tenglamasi:



$$f_{\text{ekv}}(\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7) = \frac{1}{2}; \quad f_{\text{ekv}}(\text{HCl}) = 1.$$

1. Ekvivalentlar qonuniga ko‘ra HCl eritmasining konsentratsiyasi topiladi:

$$V(\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7) \cdot c\left(\frac{1}{2} \text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7\right) = V(\text{HCl}) \cdot c(\text{HCl})$$

$$c(\text{HCl}) = \frac{V(\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7) \cdot c\left(\frac{1}{2} \text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7\right)}{V(\text{HCl})},$$


$$c(\text{HCl}) = \frac{20,00 \cdot 0,0952}{18,27} \frac{\text{m}/\text{mol}}{\text{ml}/\text{l}} = 0,1042 \text{ mol/l}.$$

2. Eritmaning titri  $t(\text{HCl})$  aniqlanadi:

$$t(\text{HCl}) = \frac{c(\text{HCl}) \cdot M(\text{HCl})}{1000} = \frac{0,0142 \cdot 36,5}{1000} \frac{\text{mol} \cdot \text{g}}{\text{ml} \cdot \text{mol}} = 0,003804 \text{ g/ml}.$$

Javob:  $c(\text{HCl}) = 0,1042 \text{ mol/l}$ ;  $t(\text{HCl}) = 0,003804 \text{ g/ml}$ .

**2- masala.** Xlorid kislota eritmasini quyidagi reaksiyaga ko'ra:



kislota-asosli titrlash uchun zarur bo'lgan 500,00 ml 0,1000 mol/l li eritma tayyorlash uchun qancha  $\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$  kerakligini hisoblang.

**Berilgan:**

$$m(V(\text{eritma})) = 500,00 \text{ ml} = 0,5 \text{ l}$$

$$c(1/2 \text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7) = 0,1000 \text{ mol/l}$$


$$M(\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7 \cdot 10\text{H}_2\text{O}) = 381,4 \text{ g/mol}$$

---


$$m(\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7) = ?$$

**Yechish:**

1. Reaksiya tenglamasi:



Tenglamadan  $f_{\text{ekv}}(\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7) = \frac{1}{2}$ ;  $f_{\text{ekv}}(\text{HCl}) = 1$  ligi ko'rinishi.

Bundan  $\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$  ning ekvivalent molyar massasi

$M(\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7 \cdot 10\text{H}_2\text{O}) = f_{\text{ekv}}(\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7 \cdot 10\text{H}_2\text{O}) \cdot M(\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7 \cdot 10\text{H}_2\text{O})$  ga teng.

$$M\left(\frac{1}{2} \text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7 \cdot 10\text{H}_2\text{O}\right) = \frac{1}{2} \cdot 381,4 \text{ g/mol} = 190,7 \text{ g/mol}.$$

2. 500 ml (0,5 l)  $\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$  eritmasidagi mollar soni topiladi:

$$n(\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7 \cdot 10\text{H}_2\text{O}) = c\left(\frac{1}{2}\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7 \cdot 10\text{H}_2\text{O}\right) \cdot V(\text{eritma})$$

$$n(\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7 \cdot 10\text{H}_2\text{O}) = 0,1000 \cdot 0,5 \frac{\text{mol} \cdot l}{l} = 0,05 \text{ mol.}$$

3.  $n(\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7 \cdot 10\text{H}_2\text{O})$  ning topilgan qiymatiga ko'ra va  $M\left(\frac{1}{2}\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7 \cdot 10\text{H}_2\text{O}\right)$  ning qiymatini nazarda tutib, shu tuz massasi hisoblanadi:

$$m\left(\frac{1}{2}\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7 \cdot 10\text{H}_2\text{O}\right) = n(\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7 \cdot 10\text{H}_2\text{O}) \cdot M\left(\frac{1}{2}\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7 \cdot 10\text{H}_2\text{O}\right)$$

$$m\left(\frac{1}{2}\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7 \cdot 10\text{H}_2\text{O}\right) = 0,05 \cdot 190,7 \frac{\text{mol} \cdot \text{g}}{\text{mol}} = 9,53 \text{ g.}$$

$$Javob: m\left(\frac{1}{2}\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7 \cdot 10\text{H}_2\text{O}\right) = 9,53 \text{ g.}$$

### **Mavzuni o'zlashtirishni mustaqil nazorat qilish uchun savol va masalalar**

1. Kislota-asosli titrlash usulining negizida qanday reaksiyalar yotadi?
2. Kislota-asosli titrlash usulida ekvivalent nuqta qanday aniqlanadi?
3. Sirka kislotani kaliy gidroksid bilan titrlashga mos keladigan indikator tanlang.
4. Farmatsevtik preparatlar, masalan, salitsil, atsetilsalitsil, limon, nikotin va boshqa kislotalar analiz qilinganda ishqor eritmasi bilan titrlanadi. Bu analizda qanday indikatordan foydalanish mumkin?
5. 20,00 ml ekvivalent molyar konsentratsiyasi 0,1120 mol/l bo'lgan natriy tetraboratni titrlash uchun 18,20 ml xlorid kislota surʼi bo'ldi. Xlorid kislota eritmasining ekvivalent molyar konsentratsiyasi va titrini aniqlang.
6. Xlorid kislota eritmasini quyidagi reaksiyaga ko'ra



kislota-asosli titrlash uchun zarur bo'lgan 100,00 ml 0,0950 mol/l li eritma tayyorlash uchun necha gramm  $\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$  kerakligini hisoblang.

### Vaziyatli masalalar

1. Xlorid kislota me'da shirasida 0,5% ni (massa jihatdan) tashkil etadi. 10,00 ml ( $\rho = 1,03 \text{ g/ml}$ ) me'da shirasini titrlash uchun 0,1000 mol/l li NaOH eritmasidan necha ml sarf bo'lishini hisoblang.

*Javob:*  $V(\text{NaOH}) = 14,1 \text{ ml}$ .

2. Og'izni chayish, ko'zni yuvish uchun ishlatiladigan borat kislota miqdori alkalimetrik usul bilan aniqlanadi. Agar 2,00 m/l  $\text{H}_3\text{BO}_3$  ni titrlash uchun 10,00 m/l 0,1000 mol/l NaOH eritmasi sarflangan bo'lsa, borat kislota eritmasining ekvivalent molyar konsentratsiyasi va eritmadaagi  $\text{H}_3\text{BO}_3$  ning massa ulushi qanday?  $M(\text{H}_3\text{BO}_3) = 61,83 \text{ g/mol}$ .

*Javob:*  $c(\text{H}_3\text{BO}_3) = 0,5000 \text{ mol/l}; \omega\%(\text{H}_3\text{BO}_3) = 3,09\%$ .

### Test savollari

1. Titrimetrik analizning qaysi usuli bilan sirka kislotaning konsentratsiyasini aniqlash mumkin? (Bunda titrlangan eritma sifatida ishqor eritmasi ishlatilgan.)

- a) atsidimetriya; d) oksidimetriya;
- b) alkalimetriya; e) kompleksonometriya.

2. Fenoltalein indikatorini qaysi reaksiya asosida boradigan titrlashda qo'llash mumkin?

- a)  $\text{NH}_3 + \text{HCl}$ ; d)  $\text{Na}_3\text{PO}_4 + \text{HCl}$ ;
- b)  $\text{Na}_2\text{CO}_3 + \text{HNO}_3$ ; e)  $\text{HCOOH} + \text{NaOH}$ .

3. Qaysi holatda ekvivalent nuqta ishqoriy muhitda bo'ladi?

- a) kuchli kislota kuchsiz asos bilan titrlanganda;
- b) kuchli kislota kuchli asos bilan titrlanganda;
- d) kuchsiz kislota kuchli asos bilan titrlanganda;
- e) kuchsiz kislota kuchsiz asos bilan titrlanganda.

4. Qaysi holatda ekvivalent nuqta kislotali muhitda bo'ladi?

- a) kuchli kislota kuchsiz asos bilan titrlanganda;
- b) kuchli kislota kuchli asos bilan titrlanganda;
- d) kuchsiz kislota kuchli asos bilan titrlanganda;
- e) kuchsiz kislota kuchsiz asos bilan titrlanganda.

5. Qaysi holatda ekvivalent nuqta neytral muhitda bo'ladi?

- a) kuchli kislota kuchsiz asos bilan titrlanganda;
- b) kuchli kislota kuchli asos bilan titrlanganda;

- d) kuchsiz kislota kuchli asos bilan titrlanganda;  
 e) umuman neytral muhit hosil bo'lmaydi.

6. Me'da shirasining *pH* qiymatini ko'rsating?

- a) 2–4;    b) 0,9–2;    d) 4–6;    e) 3–5.

7. Eritmaning konsentratsiyasi qanday aniqlik bilan o'lchanadi?

- a) 0,03 mol/l;                         d) 0,09328 mol/l;  
 b) 0,1025 mol/l;                         e) 0,081293 mol/l.

8. Eritmalarning hajmi qanday aniqlik bilan o'lchanadi?

- a) 10,25 mL;    b) 11,252 mL;    d) 11 mL;    g) 12,5 mL.

9. HCl ni  $\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7$  bilan titrlanganda ekvivalent molyar konsentratsiyasi qaysi formula bilan hisoblanadi?

$$\text{a) } c(\text{HCl}) = \frac{c\left(\frac{1}{2}\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7\right) \cdot V(\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7)}{V(\text{HCl})};$$

$$\text{b) } c(\text{HCl}) = \frac{c\left(\frac{1}{2}\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7\right) \cdot V(\text{HCl})}{V(\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7)};$$

$$\text{d) } c(\text{HCl}) = \frac{c\left(\frac{1}{2}\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7\right) \cdot V(\text{HCl}) \cdot M(\text{HCl})}{1000};$$

$$\text{e) } c(\text{HCl}) = \frac{m(\text{HCl}) \cdot M(\text{HCl})}{M(\text{HCl}) \cdot V(\text{HCl})}.$$

10. HCl eritmasini  $\text{NH}_4\text{OH}$  bilan titrlanganda qaysi indikator qo'llaniladi?

- a) fenolftalein;    b) lakmus;    d) metilzarg'aldog'i;    e) timolftalein.

## LABORATORIYA ISHI

### 1. Me'da shirasidagi xlorid kislota konsentratsiyasini aniqlash

Pipetka bilan 10,00 mL me'da shirasi eritmasi o'lchab olinadi va titrlash uchun mo'ljallangan kolbaga solinadi. Unga 1–2 tomchi metilzarg'aldoq qo'shib, standartlangan natriy tetraborat eritmasi bilan bir tomchi  $\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7$  dan eritma pushti rangdan sariq rangga kirguncha

titrlanadi. Titrlash yana 2 marta takrorlanadi va o'rtacha hajm qiymatidan xlorid kislota konsentratsiyasi va titri quyidagi formula bilan hisoblanadi.

Tajriba natijalari jadvalda ko'rsatiladi.

Nº	$V(\text{HCl})$ , ml	$c(1/2\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7)$ , mol/l	$V(\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7)$ , ml	$c(\text{HCl})$ , mol/l	$t(\text{HCl})$ , g/ml	Indikator
1	10,00					metilzarg'aldoq
2	10,00					metilzarg'aldoq
3	10,00					metilzarg'aldoq
O'rtacha qiymati						

$$f_{\text{ekv}}(\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7) = \frac{1}{2}; f_{\text{ekv}}(\text{HCl}) = 1.$$

Hisoblar quyidagi tenglamalar bo'yicha bajariladi:

$$c(\text{HCl}) = \frac{V(\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7) \cdot c\left(\frac{1}{2}\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7\right)}{V(\text{HCl})}, \text{ mol/l},$$

$$t(\text{HCl}) = \frac{c(\text{HCl}) \cdot M(\text{HCl})}{1000}, \text{ g/ml},$$

$M(\text{HCl})$  – HCl ning molyar massasi;  $M(\text{HCl}) = 36,5 \text{ g/mol}$ .


$pH = -\lg c(\text{H}^+)$  formuladan  $pH$  aniqlanadi.

Talabalarga berilgan 3 xil eritmani shu tarzda analiz qilib, ulardan tegishli xulosalar chiqariladi.



8,2–8,4%li (massa jihatidan) HCl eritmasi me'da shirasi kislotaliligi taqchilligida mikstura holatda ichishga buyuriladi. Uning miqdoriy analizini natriy tetraboratning standart eritmasi yoki NaOH va KOH larning standart eritmalari yordamida olib boriladi. Analiz o'tkazish usuli yuqoridagidek.

## 2. Alkalimetriya usuli sirka kislota konsentratsiyasi va massasini aniqlash

Sirka kislota kuchsiz kislota bo'lgani uchun uni kuchli ishqor eritmasi bilan titrlanadi.



Reaksiya natijasi kuchsiz kislota bilan kuchli ishqordan tarkib topgan tuz hosil bo'lib, u qisman gidrolizga uchraydi:



Reaksiya tenglamasidan ko'rinish turibdiki,  $\text{CH}_3\text{COONa}$  gidrolizi natijasida reaksiya muhiti ishqoriy bo'ladi ( $pH > 7$ ). Shuning uchun sirka kislotani kuchli ishqor bilan titrlashda fenolftalein indikatoridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

**Titrlash tartibi.** Byuretkani  $\text{NaOH}$  ning ishchi eritmasi bilan «0» nuqtasigacha to'ldirish bilan ishchi holatga keltiriladi. Titrlash kolbasiga pipetka yordamida 10,00 ml sirka kislota eritmasi solib, uning ustiga 2 tomchi fenolftalein indikatori qo'shiladi va aralashmani och pushti rang hosil bo'lguncha byuretkadagi  $\text{NaOH}$  eritmasi bilan titrlanadi. Titrlash 3 marta takrorlanadi va olingan qiymatlar jadvalga kiritiladi.

Nº	$V(\text{CH}_3\text{COOH})$ , ml	Indikator f-f, tomchi	$V(\text{NaOH})$ , ml	$M(\text{CH}_3\text{COOH})$ , g/mol	$c(\text{CH}_3\text{COOH})$ , mol/l	$t(\text{CH}_3\text{COOH})$ , g/ml
1	10,00	2				
2	10,00	2				
3	10,00	2				
O'ttacha qiymat						

Hisoblash formulalari:


$$c(\text{CH}_3\text{COOH}) = \frac{c(\text{NaOH}) \cdot V(\text{NaOH})}{V(\text{CH}_3\text{COOH})}, \text{ mol/l},$$

$$t(\text{CH}_3\text{COOH}) = \frac{c(\text{CH}_3\text{COOH}) \cdot M(\text{CH}_3\text{COOH})}{1000}, \text{ g/ml},$$

$$m = t(\text{CH}_3\text{COOH}) \cdot V(\text{CH}_3\text{COOH}), \text{ g}.$$



### 3. Natriy gidroksid va natriy karbonat aralashmasidagi komponentlar miqdorini aniqlash

Natriy gidroksid gigroskopik modda bo'lgani uchun uning ma'lum bir qismi havodagi karbonat angidridni biriktirib natriy karbonatga aylanadi:




Shuning uchun amaliyotda ishlatiladigan natriy gidroksid o'zida ma'lum miqdorda natriy karbonat saqlaydi. Quyidagi usul tibbiyot amaliyotida ishlatiladigan NaOH tarkibidagi  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  ni aniqlashga asoslangan. NaOH va  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  aralashmasidagi ularning miqdorini aniqlash uchun ishchi eritma sifatida HCl ishlatiladi. Bunda fenolftalein va metilzarg'aldoq indikatorlaridan foydalaniladi. HCl bilan titrlashda avval fenolftalien indikatori ishtirokida uning rangi yo'qolguncha titrlanadi, so'ngra metilzarg'aldoq indikatori ishtirokida qizilpushti rang hosil bo'lguncha titrlanadi. Indikatorlarning bunday tartibda qo'shilishi quyidagi reaksiyalarga bog'liq.

f-f



m-z



Titrlash davomida fenolftalein ishtirokida aralashmadagi NaOH ning hammasi va  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  ning yarmi HCl bilan reaksiyaga kirishadi (1, 2- tenglama). Reaksiyaning ekvivalent nuqtasi eritmada hosil bo'lgan  $\text{NaHCO}_3$  bilan tavsiflanadi, bu holda eritmaning pH qiymati 8,5 ga teng bo'ladi. Fenolftalein indikatorining rang o'zgarish oraliqi  $pH = 8$  dan  $pH = 10$  gacha. Titrlashni metilzarg'aldoq indikatori ishtirokida davom ettiriladi. Bunda HCl faqat  $\text{NaHCO}_3$  ni titrlashga sarflanadi (3- tenglama).

**Aniqlash tartibi.** Titrlash kolbasiga pipetka yordamida 10,00 ml NaOH va  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  aralashmasi olib, unga 1–2 tomchi indikator – fenolftalein qo'shiladi. Pushti rangga ega bo'lgan eritmani konsentratsiyasi ma'lum bo'lgan HCl eritmasi bilan tekshiriluvchi eritmaning pushti rangi yo'qolguncha titrlanadi. Sarf bo'lgan HCl ning hajmi  $V_1$  bilan belgilanadi. Hosil bo'lgan rangsiz aralashmaga 2–3 tomchi metilzarg'aldoq indikatori qo'shiladi, bunda sariq rang eritma hosil bo'ladi. Titrlashni HCl bilan qizil-pushti rang hosil bo'lguncha davom ettiriladi va kislotaning umumiy hajmini (fenolftalein va metilzarg'aldoq ishtirokida reaksiya uchun ketgan HCl hajmi)  $V_2$  bilan belgilanadi. Titrlashni 3 marta takrorlanadi va olingan natijalar jadvalga kiritiladi.

Nº	$V(\text{NaOH} + \text{NaHCO}_3)$ , ml	Indikator f-f	$V_1(\text{HCl})$ , ml	Indikator m-z	$V_2(\text{HCl})$ , ml	$c(\text{HCl})$ , mol/l
1	10,00	2		2		
2	10,00	2		2		
3	10,00	2		2		
O'rtacha qiymat						

**Hisoblash formulalari:**

$$m(\text{NaOH}) = \frac{c(\text{HCl}) \cdot 2(V_1 - V_2) \cdot M(\text{NaOH})}{1000}, \text{ g},$$

$$m(\text{Na}_2\text{CO}_3) = \frac{c(\text{HCl}) \cdot 2(V_2 - V_1) \cdot M(\text{Na}_2\text{CO}_3)}{1000}.$$

### **KISLOTA-ASOSLI TITRLASH USULI. ASIDIMETRIYA**

**Mashg'ulotning maqsadi.** Kislota-asos reaksiyalarining borish qonunlarini bilgan holda biologik obyekt va dorivor preparatlarda asoslar va gidrolizlanganda ishqoriy muhit hosil qiluvchi tuzlar miqdorini aniqlashni o'rganish.

**O'r ganilayotgan mavzuning ahamiyati.** Ammiak tirik organizmda aminokislotalarning parchalanishi mahsulotidir. Uning bir qismi siyidik bilan organizmdan chiqib ketadi (1 sutkada 0,5–1,2 g). Ba'zi patologik holatlarda ammiakning organizmdagi miqdori ortadi. Ammiak organizm uchun zaharli. Uning qondagi miqdori 0,05 mg dan oshmasligi kerak. Biologik suyuqliklarda ammiakning miqdori ortib ketishi giperammoniemiya holatini keltiradi, shuning uchun biologik suyuqliklar tarkibidagi ammiak miqdorini aniqlash diagnostik ahamiyatga ega.

Tibbiyotda ammiakning 10% li eritmasi – «Novshadil spirti» keng qo'llanadi.

**Boshlang'ich bilim darajasi:**

1. Neytrallanish reaksiyalarini.
2. Vodorod ko'rsatkich – pH.
3. Tuzlarning gidrolizi.
4. Kislota-asosli titrlash usulining nazariy asoslari.

**Mustaqil tayyorlanish uchun adabiyotlar:**

1. Н.А.Алексеев. Количественный анализ. М., 1972, 296- bet.
2. Н.А.Цитович. Курс аналитической химии. М., 1985, 249- bet.
3. А.В.Бабков, Г.Н.Горошкова, А.М.Кононов. Практикум по общей химии с элементами количественного анализа. М., 1978, 109- bet.
4. X.H.Hakimov, A.Z.Tatarskaya, N.T.Olimxo'jayeva. Umumiy kimyodan amaliy mashg'ulotlar. T., 1993, 75–77- betlar.

5. S.S.Qosimova, S.M.Masharipov, Q.O.Najimov. Umumiy va bioorganik kimyodan amaliy mashg'ulotlar. T., 2001, 52–53- betlar.

### Darsda ko'rildigan savollar:

1. Aniqlanayotgan modda bo'yicha titr.
2. Laboratoriya ishining nazariy asoslari.
  - 2.1. Kimyoviy reaksiya tenglamasi.
  - 2.2. Indikator tanlash.
  - 2.3. Laboratoriya ishini bajarish uslubi.
  - 2.4. Hisoblash formulalari.
  - 2.5. Eksperimental natijalaridan xulosa chiqarish.
3. Asidimetriya usulining klinik analizda qo'llanilishi.
4. Laboratoriya ishi.

## MA'LUMOTLAR YIG'INDISI

### Kislota-asosli titrlash usuli. Asidimetriya

Standartlangan xlorid kislota eritmasi asoslar va gidrolizlanganda ishqoriy muhit hosil qiladigan tuzlarni miqdoriy analizida foydalaniladi. Misol tariqasida suvli eritmalarda  $\text{NH}_3$  ni aniqlashni ko'rib chiqish mumkin. Xlorid kislotaning  $\text{NH}_3$  (suvli eritmada) bilan o'zaro ta'siri quyidagi reaksiya tenglamasi bo'yicha boradi:



$$f_{ekv}(\text{NH}_3) = 1, \quad f_{ekv}(\text{HCl}) = 1$$

Ekvivalent nuqta ta'sirlashayotgan moddalar miqdori ekvivalent bo'lganda qaror topadi, ya'ni

$$n(\text{NH}_3) = n(\text{HCl})$$

Bu kattaliklarni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$n(\text{NH}_3) = \frac{m(\text{NH}_3)}{M(\text{NH}_3)}; \quad n(\text{HCl}) = c(\text{HCl}) \cdot V(\text{eritma})$$

bu yerda:  $m(\text{NH}_3)$  –  $\text{NH}_3$ ning massasi, g;  $M(\text{NH}_3)$  –  $\text{NH}_3$  ning molyar massasi, g/mol;  $c(\text{HCl})$  –  $\text{HCl}$  ning molyar konsentratsiyasi, mol/l;  $V(\text{eritma})$  –  $\text{HCl}$  eritmasining hajmi, ml.

$$\text{Shunday qilib: } \frac{m(\text{NH}_3)}{M(\text{NH}_3)} = c(\text{HCl}) \cdot V(\text{eritma}).$$

Bu ifodadan ammiak massasi

$$m(\text{NH}_3) = c(\text{HCl}) \cdot V(\text{eritma}) \cdot M(\text{NH}_3)$$

ga teng.

Berilgan tenglikni o'zgartirilsa:

$$\frac{m(\text{NH}_3)}{V(\text{eritma})} = c(\text{HCl}) \cdot M(\text{NH}_3)$$

va uni 1 ml ga nisbatan yozilsa:

$$\tau(\text{HCl}/\text{NH}_3) = \frac{c(\text{HCl}) \cdot M(\text{NH}_3)}{1000}, \text{ g/ml},$$

$c(\text{HCl})$  – xlorid kislota eritmasining ekvivalent molyar konsentrasiysi, mol/l, berilgan ifoda uchun aniq kattalik;  $M(\text{NH}_3)$  –  $\text{NH}_3$  ning molyar massasi, u 17 g/mol ga teng.

Bu ma'lum kattaliklarni o'rinaliga qo'yib  $\tau(\text{HCl}/\text{NH}_3)$  ni hisoblash mumkin, u ham doimiy qiymatga ega bo'ladi. Agar qandaydir obyektdan ammiakni aniqlashda uning eritmasini titrlash uchun  $V(\text{HCl})$  sarflansa, unda titrlanayotgan eritmadi ammiak massasi quyidagicha bo'ladi:


$$m(\text{NH}_3) = \tau(\text{HCl}/\text{NH}_3) \cdot V(\text{HCl}).$$

### Mavzu bo'yicha masalalar va ularni yechish namunalari

**1- masala.** Ammoniy gidroksidni xlorid kislota bilan titrlash egri chizig'i yo'lini tushuntiring, berilgan titrlash reaksiyasi uchun indikator tanlang.

#### Yechish:

1. Aytaylik ammiakning suvli eritmasini xlorid kislota bilan titrlanadi:




Reaksiya natijasida  $\text{NH}_4\text{Cl}$  tuzi hosil bo'ladi, bu esa ekvivalent nuqtadagi  $pH$  ga ta'sir etadi.

2.  $\text{NH}_4\text{Cl}$  gidrolizi natijasida eritmada kislotali muhit hosil bo'lib, ekvivalent nuqta  $pH < 7$  da joylashadi.

3. Kuchsiz asosni kuchli kislota bilan titrlash egriligidagi sakrash chegarasi  $pH = 4$  dan  $pH = 6,2$  oralig'ida joylashadi.

4. Shunday qilib, titrlash uchun metilzarg'aldoq (o'tish oralig'i  $pH = 3,1-4,4$ ) va metilqizili ( $pH = 4,4-6,2$ ) kabi indikatorlarni ishlatish mumkin.

**2- masala.** 3,0 g choy sodasi 250,00 ml li o'lgchov kolbasidagi suvda eritildi:



Yuqoridagi reaksiya bo'yicha shu eritmaning 10,00 ml ni titrlash uchun 11,53 ml konsentratsiyasi 0,1000 mol/l bo'lgan xlorid kislota eritmasi sarf bo'ldi. Eritmadagi  $\text{NaHCO}_3$ ning molyar konsentratsiyasi va titrini aniglanq.

**Berilgan:**

$$m(\text{namuna}) = 3,0 \text{ g}$$

$$V(\text{eritma}) = 250,00 \text{ ml}$$

$$V(\text{NaHCO}_3) = 10,00 \text{ ml}$$

$$V(\text{HCl}) = 11,53 \text{ ml}$$

$$c(\text{HCl}) = 0,1000 \text{ mol/l}$$

$$M(\text{NaHCO}_3) = 84,0 \text{ g/mol}$$

$$c(\text{NaHCO}_3) = ? \quad t(\text{NaHCO}_3) = ? \quad \omega\%(\text{NaHCO}_3) = ?$$

**Yechish:**

1. Ekvivalentlar qonuniga binoan  $\text{NaHCO}_3$  eritmasining molyar konsentratsiyasi topiladi:

$$f_{\text{ekv}}(\text{NaHCO}_3) = 1, \quad f_{\text{ekv}}(\text{HCl}) = 1$$

$$c(\text{HCl}) \cdot V(\text{HCl}) = c(\text{NaHCO}_3) \cdot V(\text{NaHCO}_3)$$

$$c(\text{NaHCO}_3) = \frac{0,1000 \cdot 11,53}{10,00} \frac{\text{mol} \cdot \text{ml}}{\text{l} \cdot \text{ml}} = 0,1153 \text{ mol/l}$$

2.  $c(\text{NaHCO}_3)$  qiymatiga ko'ra  $\text{NaHCO}_3$  eritmasining titri topiladi:

$$t(\text{NaHCO}_3) = \frac{c(\text{NaHCO}_3) \cdot M(\text{NaHCO}_3)}{1000}$$

$$t(\text{NaHCO}_3) = \frac{0,1153 \cdot 84,0}{1000} \frac{\text{mol} \cdot \text{g}}{\text{ml} \cdot \text{mol}} = 0,009685 \text{ g/ml.}$$

*Javob:*  $c(\text{NaHCO}_3) = 0,1153 \text{ mol/l};$

$$t(\text{NaHCO}_3) = 0,009685 \text{ g/mol.}$$

**3- masala.** 500,00 ml natriy gidroksid eritmasini tayyorlash uchun necha gramm ishqor eritmasi kerak? Titrlash jarayonida shu eritmaning 20,00 ml ni titrlash uchun 18,50 ml ekvivalent molyar konsentratsiyasi 0,1000 mol/l bo'lgan sulfat kislota eritmasi sarflandi.

**Berilgan:**

$$V(\text{eritma}) = 500,00 \text{ ml}$$

$$V(\text{eritma}) = 20,00 \text{ ml}$$

$$V(\text{H}_2\text{SO}_4) = 18,50 \text{ ml}$$

$$c\left(\frac{1}{2} \text{H}_2\text{SO}_4\right) = 0,1000 \text{ mol/l}$$



$$M(\text{NaOH}) = 40,0 \text{ g/mol}$$


---

$$m(\text{NaOH}) = ?$$

**Yechish:**

Bunda quyidagi reaksiya boradi:



$$\text{Shunday qilib } f_{\text{ekv}}(\text{NaOH}) = 1, \quad f_{\text{ekv}}(\text{H}_2\text{SO}_4) = \frac{1}{2}.$$

Ekvivalentlar qonuniga asosan NaOH ning ekvivalent molyar konsentratsiyasi topiladi:

$$c(\text{NaOH}) = \frac{c\left(\frac{1}{2} \text{H}_2\text{SO}_4\right) \cdot V(\text{H}_2\text{SO}_4)}{V(\text{NaOH})},$$

$$c(\text{NaOH}) = \frac{0,1000 \cdot 18,50}{20,00} \frac{\text{mol} \cdot \text{ml}}{\text{l} \cdot \text{ml}} = 0,0925 \text{ mol/l}.$$

1. 500,00 ml (0,5 l) eritmada NaOH ning massasi aniqlanadi:

$$m(\text{NaOH}) = c(\text{NaOH}) \cdot V(\text{eritma}) \cdot M(\text{NaOH}),$$

$$m(\text{NaOH}) = 0,0925 \cdot 0,5 \cdot 40 \frac{\text{mol} \cdot \text{l} \cdot \text{g}}{\text{l} \cdot \text{mol}} = 1,85 \text{ g}.$$

*Javob:*  $m(\text{NaOH}) = 1,85 \text{ g}.$

## **Mavzuni o'zlashtirishni mustaqil nazorat qilish uchun savol va masalalar**

1. Nima uchun titrimetrik analizda kuchsiz asos va kuchsiz kislota orasida boradigan neytrallanish reaksiyalari ishlatalmaydi?
2. Ammoniy gidroksidni sulfat kislota bilan titrlashda qanday indikatordan foydalaniladi?
3. Kaliy gidroksidni sirka kislota bilan titrlashga mos keladigan indikator tanlang.
4. Eritmaning aniqlanayotgan moddaga ko'ra titri nima?
5. Ammiakning suvli eritmasini titrlash uchun 15,75 ml 0,1025 mol/l li xlorid kislota eritmasi sarf bo'lgan. Tekshirilayotgan eritmadi ammiakning massasini aniqlang.
6. 20,00 ml ammiak eritmasini titrlash uchun 21,80 ml ekvivalent molyar konsentratsiyasi 0,0950 mol/l bo'lgan nitrat kislota eritmasi sarf bo'ldi. Ammiak eritmasining ekvivalent molyar konsentratsiyasi va titrini aniqlang.

### **Vaziyatli masalalar**

1. 10% li (massa jihatdan) ammiak eritmasi – «novshadil spirti» bemorlarni behush holattan chiqarishda nafas olishni kuchaytirish uchun ishlataladi. Uning miqdori asidimetrik usul bilan aniqlanadi. Buning uchun 5,00 ml preparat, hajmi 100,00 ml li kolbadagi suvda eritiladi. Agar 10,00 ml eritmani titrlash uchun 14,00 ml 0,1000 mol/l konsentratsiyali HCl eritmasi sarflangan bo'lsa, hosil bo'lgan eritma ning ekvivalent molyar konsentratsiyasi, massa ulushi (%) va titri qanday?

*Javob:*  $c(\text{NH}_3) = 0,1400 \text{ mol/l}$ ;  $t(\text{NH}_3) = 0,002380 \text{ g/ml}$ ;  
 $\omega\%(\text{NH}_3) = 0,24\%$ .

2. Tinchlantiruvchi ta'sirga ega kodein preparati miqdorini HCl eritmasi bilan, o'tish oralig'i  $pH$  qiymati 4,2–6,3 bo'lgan metilqizili ishtirokida aniqlanadi. Ushbu titrlashda ekvivalent nuqta joylashgan  $pH$  qiymatini tushuntiring.

*Javob:*  $pH = 4-7$ .

### **Test savollari**

1. Qaysi titrlashda ekvivalent nuqta  $pH > 7$  ga to'g'ri keladi?
 

a) $\text{HNO}_3 + \text{KOH} \rightarrow$	d) $\text{NH}_3 + \text{HCl} \rightarrow$
b) $\text{NaOH} + \text{HCl} \rightarrow$	e) $\text{HCOOH} + \text{NaOH} \rightarrow$

2. Metilzarg‘aldoqning rang o‘zgarish  $pH$  oralig‘ini ko‘rsating.  
 a) 8,2–9,8; b) 5,6–7,4; d) 5,0–8,0; e) 3,1–4,2.
3. Qaysi titrlashda ekvivalent nuqta  $pH < 7$ ga to‘g‘ri keladi?  
 a)  $\text{HCOOH} + \text{KOH} \rightarrow$  d)  $\text{HCl} + \text{KOH} \rightarrow$   
 b)  $\text{CH}_3\text{CH}_2\text{COOH} + \text{KOH} \rightarrow$  e)  $\text{NH}_3 + \text{HCl} \rightarrow$
4. Qaysi titrlash jarayonida fenolftalein indikatori qo‘llanadi?  
 a)  $\text{NH}_3 + \text{HCl} \rightarrow$  d)  $\text{Na}_3\text{PO}_4 + \text{HCl} \rightarrow$   
 b)  $\text{NaOH} + \text{HCl} \rightarrow$  e)  $\text{HCOOH} + \text{NaOH} \rightarrow$
5. Qaysi titrlashda ekvivalent nuqta  $pH = 7$  ga to‘g‘ri keladi?  
 a)  $\text{HNO}_3 + \text{NH}_4\text{OH} \rightarrow$  d)  $\text{NH}_3 + \text{HCl} \rightarrow$   
 b)  $\text{HCOOH} + \text{NaOH} \rightarrow$  e)  $\text{HNO}_3 + \text{NaOH} \rightarrow$
6. Qaysi titrlash jarayonida metilzarg‘aldoq indikatori qo‘llanadi?  
 a)  $\text{C}_6\text{H}_5\text{OH} + \text{NaOH} \rightarrow$  d)  $\text{NH}_3 + \text{HCl} \rightarrow$   
 b)  $\text{HCOOH} + \text{NaOH} \rightarrow$  e)  $\text{HNO}_3 + \text{NaOH} \rightarrow$
7. Quyidagi reaksiya uchun indikator tanlang:  $\text{HCN} + \text{KOH} \rightarrow$   
 a) metilzarg‘aldoq‘; b) fenolftalein; d) lakmus; e) metilqizili.
8. Qaysi eritmaning  $pH$  qiymati eng katta?  
 a)  $(\text{NH}_4)_2\text{CO}_3$ ; b)  $\text{K}_2\text{CO}_3$ ; d)  $\text{KNO}_3$ ; e)  $\text{KCl}$ ; f)  $\text{NaNO}_3$ .
9. Titrlash egri chizig‘i nima?  
 a) eritma  $pH$  i o‘zgarishining grafik tasviri;  
 b) eritma hajmi o‘zgarishining grafik tasviri;  
 d) eritma konsentratsiyasi o‘zgarishining grafik tasviri;  
 e) eritma bosimining o‘zgarishining grafik tasviri.
10.  $\text{NH}_4\text{OH} + \text{HNO}_3$  reaksiya uchun qaysi indikator qo‘llash mumkin?  
 a) metilzarg‘aldoq; d) lakmus;  
 b) fenolftalein; e) indikator qo‘llanmaydi.

### LABORATORIYA ISHI

**Eritmadagi ammiak massasini nazorat-analitik usulda aniqlash**

**Ishning borishi.** Titrlash kolbasiga ma’lum miqdorda ammiak eritmasi solinadi (o‘qituvchi vazifa sifatida beradi), unga 1–2 tomchi metilzarg‘aldoq eritmasi qo‘shiladi va sariq rangni oxirgi 1 tomchi

xlorid kislotadan och pushti rangga o'tguncha standartlangan xlorid kislota eritmasi bilan titrlanadi. Aniqlashni yana 2 marta qaytariladi, o'zaro yaqin natijalardan o'rta arifmetik qiymat olinadi va ammiak massasi hisoblanadi. Tajriba natijalarini jadvalda ko'rsatiladi.

Nº	$V(\text{NH}_3)$ , ml	$V(\text{HCl})$ , ml	$c(\text{HCl})$ , mol/l	$t(\text{HCl}/ \text{NH}_3)$ , g/ml	$m(\text{NH}_3)$ , g	Indikator
1						M-z
2						M-z
3						M-z
O'rtacha qiymati						

Hisoblar quyidagi tenglama bo'yicha bajariladi:

$$m(\text{NH}_3) = t(\text{HCl}/ \text{NH}_3) \cdot V(\text{HCl}),$$

bunda:  $t(\text{HCl}/ \text{NH}_3)$  – HCl ning ammiakka nisbatan titri:

$$t(\text{HCl}/ \text{NH}_3) = \frac{c(\text{HCl}) \cdot M(\text{NH}_3)}{1000}, \text{ g/ml};$$

$V(\text{HCl})$  –  $\text{NH}_3$  eritmasini titrlash uchun sarf bo'lgan HCl ning hajmi.

## KOMPLEKS BIRIKMALAR

**Mashg'ulotning maqsadi.** Kompleks hosil qiluvchi reaksiya mahsulotlarining tavsifi, ishlatish imkoniyatlarini aniqlashga sistemali yondoshuvni o'rganish, biologik sistemalarda kompleks birikmalar hosil bo'lishini oldindan belgilash.

**O'rganilayotgan mavzuning ahamiyati.** Kompleks hosil bo'lувчи reaksiyalarining borish qonunlari va ularni biologik sistemalarga tatbiq qilishni bilish shifokorlar uchun juda zarur, chunki tirik organizmda boradigan ko'pchilik biokimyoiy jarayonlar kompleks birikmalar ishtirokida boradi. Xlorofill – magniyning kompleks birikmasi, gemoglobin – temirning kompleks birikmasi,  $B_{12}$  vitamini – kobaltning kompleks birikmasi va boshqalar. Metallofermentlar ham kompleks birikmalardir. Masalan, sitoxrom oksidaza va seruloplazmin – misning, karboksipeptidaza va karboangidraza fermentlari – ruxning kompleks birikmalari. Fermentativ jarayonlarning faollanishi (so'nishi) metallarning kompleks hosil qilishi oqibatida amalga oshadi. Masalan, magniy organizmda boradigan muhim biokimyoiy jarayonlarning biri bo'lgan ATP gidrolizini katalizlaydi

(kuchaytiradi). Berilliy magniy saqlovchi fermentlarni, kadmiy esa rux saqlovchi fermentlarni barqarorroq kompleks hosil bo‘lishi va biometallarni siqib chiqarishi hisobiga ingibirlaydi (so‘ndiradi). Kompleks hosil bo‘lishi jarayonlarini dorivor vositalar (preparatlar) ishlatalishda hisobga olish kerak, chunki ularning ko‘pchiligi biometallar uchun yaxshi ligand bo‘lishi mumkin yoki tarkibida metall saqlagani holda organizmdagi bioligandlar bilan barqaror koordinatsion birikmalar hosil qilishi mumkin.

Metallarning, birinchi navbatda, og‘ir metallarning, masalan, simob, qo‘rg‘oshin, vismut, marginush va boshqalarning ortiqcha miqdorda organizmga tushishi zaharli ta’sir ko‘rsatadi, bu ularning organizmdagi kislorod, azot, otingugurt va boshqa bioelementlar saqlovchi biomolekulalar bilan kompleks birikmalar hosil qilishi oqibatidir. Bunday zaharlanishni davolash organizmga yanada barqarorroq, suvda yaxshi eriydigan kompleks birikmalar hosil qiluvchi ligandlar kiritish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Bu jarayonda kompleksonlar, unitiol, dimerkaprol, penitsilamin va boshqa preparatlar (antidotlar) samarali vosita hisoblanadi.

Organizmda bioelementlar taqchilligida odatda, ularni ko‘pincha odam organizmi uchun zaharli bo‘lgan anorganik tuzlar holida emas, balki bioligandlar bilan hosil qilgan koordinatsion birikmalar holida kiritiladi. Masalan, tarkibida kobal’t saqlovchi  $B_{12}$  vitamini, temir saqlovchi ferrotseron, gemostimulin va boshqalar shular jumlasidandir. Kompleks birikmalar tibbiyotda qator kasalliklarni davolashda ishlataladi. Masalan, platina birikmalari rakka qarshi preparatlar bo‘lib, xavfli o‘smalearning o‘sishini sekinlashtiradi. Kupir  $CuCl_2 \cdot 2B_6$  sil va gepatit kasalligini davolashda, ferramid – temirning nikotin kislota amidi bilan kompleksi bo‘lib, kamqonlikning hamma turida qo‘llanadi, koamid – kobaltning nikotin kislota amidi bilan kompleksi bo‘lib, yopiq suyak sinishlarining bitishiga yaxshi ta’sir ko‘rsatadi, kobavit – kobaltning U vitamini bilan kompleksi gepatit, kamqonlik kasalliklarini davolashda qo‘llanadi.

### **Boshlang‘ich bilim darajasi:**

1. Molekular va ion tenglamalar.
2. Massalar ta’siri qonuni.
3. Kimyoiy muvozanat.
4. Suvning qattiqligi.

### **Mustaqil tayyorlanish uchun o‘quv materiallari:**

1. *N.L.Glinka.* Umumiy ximiya. T., 1968. 653- bet.
2. *X.R.Rahimov.* Anorganik ximiya. T., 1974. 148- bet.

3. X.Rustamov. Umumiyl ximiya. T., 1969.
4. С.С.Оленин, Г.Н.Фадеев. Неорганическая химия. М., 1979, 94- bet.
5. И.К.Цитович. Курс аналитической химии. М., 1985, 57, 263- betlar.
6. Н.А.Алексеев. Количественный анализ. М., 1972, 336- bet.
7. Н.А.Селезнёв. Аналитическая химия. М., 1973, 222- bet.
8. А.С.Ленский. Введение в бионеорганическую и биофизическую химию». М., 1989.
9. X.H.Hakimov, A.Z.Tatarskaya, N.T.Olimxo'jayeva. Umumiy kimyodan amaliy mashg'ulotlar. T., 1993, 117–120- betlar.
10. S.S.Qosimova, S.M.Masharipov, Q.O.Najimov. Umumiyl va bioorganik kimyodan amaliy mashg'ulotlar. T., 2001, 69–72- betlar.

### Darsda ko'rildigani savollar:



1. Kompleks birikmalar.
2. Kompleks birikmalarning olinishi.
3. Kompleks birikmalar tuzilishi haqida A.Verner nazariyasi.
4. Kompleks birikmalarning sinflanishi.
5. Ichki kompleks birikmalar.
6. Kompleks birikmalar eritmasida muvozanat.
7. Kompleks birikmalarning begarorlik va barqarorlik konstantasi.
8. Kompleks hosil bo'lish reaksiyalarining yo'nalishini ilmiy asoslash.
9. Kompleks birikmalarning tibbiyotdagi ahamiyati.
10. Laboratoriya ishi.

## МА'LUMOTLAR YIG'INDISI

Tabiatda uchraydigan barcha kimyoviy moddalarni shartli ravishda 2 guruhga bo'lislum mumkin:

1. Oddiy yoki birinchi darajali moddalar:  $\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{NH}_3$ ,  $\text{AgCl}$ ,  $\text{KCN}$  va boshqalar.
2. Murakkab, yoki yuqori darajali moddalar:  $[\text{Ag}(\text{NH}_3)_2]\text{Cl}$ ,  $\text{K}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]$ ,  $\text{H}_2[\text{HgCl}_4]$  va boshqalar.



Murakkab yoki yuqori darajali moddalar oddiy modda molekulalarining o'zaro ta'siri natijasida hosil bo'ladi. Masalan:



Ularning tarkibiga kirgan murakkab ionlar kompleks ionlar deb ataladi. Kompleks birikmalar kristall holatda va eritmada mustaqil ravishda mavjud bo'lishi mumkin.

**Kompleks birikmalar** deb ligandlar bilan o'rangan, markaziy atomdan iborat bo'lgan, kristall panjarasida murakkab kompleks ion saqlaydigan moddalarga aytildi.

Kompleks birikmalar kristall holatda va eritmada mavjud bo'la oladi:



Kompleks birikmalarning tuzilishini 1863- yili shved olimi Alfred Verner keltirgan nazariya tushuntirib beradi.

Bu nazariya quyidagilardan iborat:

1. Ko'pchilik elementlarda asosiy valentlikdan tashqari yonaki valentliklar mavjud bo'lib, ular ba'zi reaksiyalarda kuzatiladi.

2. Asosiy valentliklarning to'yinishi birinchi tartibli birikmalar hosil bo'lishi asosida yotadi, masalan oddiy binar birikmalar hosil bo'lishida: HCl, H<sub>2</sub>O, NH<sub>3</sub>, CaCl<sub>2</sub> va boshqalar.

3. Yonaki valentliklarning to'yinishi yuqori tartibli birikmalar hosil bo'lishi asosida yotadi, masalan: [NH<sub>4</sub>]Cl, K<sub>3</sub>[Fe(CN)<sub>6</sub>], K<sub>4</sub>[Fe(CN)<sub>6</sub>], [Al(H<sub>2</sub>O)<sub>6</sub>]Cl<sub>3</sub> va boshqalar.

4. Elementlarning yonaki valentliklari aniq fazoviy yo'naluvchanlikka ega bo'ladi.

Shularga asoslanib, A.Verner kompleks birikmalar tuzilishini quyidagicha asoslab berdi:

1. Kompleks birikmalarda markaziy o'rinni kompleks hosil qiluvchi ion yoki markaziy atom egallaydi. Ko'pincha markaziy atom vazifasini musbat zaryadlangan metall atomi bajaradi, [NH<sub>4</sub>]Cl tizi bundan mustasno, bu birikmada markaziy atom vazifasini N<sup>-3</sup>bajaradi.

2. Markaziy atom atrofida ligandlar yoki addendlar deb nomlangan qarama-qarshi ionlar yoki qutbli molekulalar koordinatsiyalanadi. Ligand vazifasini neytral molekulalar – NH<sub>3</sub>, H<sub>2</sub>O, NO, CO; kislota qoldiqlari – CN<sup>-</sup>, CNS<sup>-</sup>, NO<sub>2</sub><sup>-</sup>, Cl<sup>-</sup>, I<sup>-</sup>, CO<sub>3</sub><sup>2-</sup>, S<sub>2</sub>O<sub>3</sub><sup>2-</sup>; gidroksid ionlar – OH<sup>-</sup> va boshqalar bajaradi.

3. Markaziy atom yoki kompleks hosil qiluvchi ion ligandlar bilan bevosita bog'lanib kompleks birikmaning ichki sferasini hosil qiladi.

4. Markaziy atom bilan bevosita bog'lanmagan va ichki sferaga sig'magan barcha ionlar kompleks birikmaning tashqi sferasini tashkil etadi.

5. O'zida ortiqcha musbat yoki manfiy zaryad saqlovchi kompleks guruh *kompleks ion* deyiladi. Kompleks ion musbat, manfiy yoki zaryadsiz bo'lishi mumkin.


Kompleks ionning zaryadi kompleks hosil qiluvchi ion bilan ligandlar zaryadlarining algebraik yig'indisiga teng.

6. Markaziy atom bilan bog'langan bir dentantli ligandlar soni koordinatsion son deyiladi. Koordinatsion son markaziy atom tabiatiga, geometrik tuzilishiga va ligandlar tabiatiga bog'liq. U 1dan 12 gacha qiymatlarni qabul qiladi, ko'p hollarda uning qiymati 4 va 6 ga teng. Koordinatsion soni 6 ga teng komplekslar oktaedrik tuzilishga, koordinatsion soni 4ga teng bo'lgan komplekslar esa tetraedrik yoki yassi kvadrat tuzilishga ega bo'ladi.

Ba'zi kompleks hosil qiluvchi ionlarga xos bdilgan koordinatsion sonlar jadvalda keltirilgan.

Koordinatsion sonlar	2	4	6	8
Kompleks hosil qiluvchi ionlar	$\text{Cu}^+$ $\text{Ag}^+$ $\text{Au}^+$	$\text{Cu}^{+2}$ , $\text{Co}^{+2}$ $\text{Hg}^{+2}$ , $\text{Pb}^{+2}$ $\text{Pt}^{+2}$ , $\text{Zn}^{+2}$	$\text{Fe}^{+2}$ , $\text{Fe}^{+3}$ $\text{Co}^{+3}$ , $\text{Cr}^{+3}$ $\text{Al}^{+3}$ , $\text{Mg}^{+2}$	$\text{Ca}^{+2}$ $\text{Sr}^{+2}$ $\text{Ba}^{+2}$ $\text{Pt}^{+4}$

Shunday qilib, kompleks hosil qiluvchi ion va ligandlarning zaryadi, markaziy atomning koordinatsion soni va tashqi sferalni ion zaryadini bilgan holda kompleks birikmaning tuzilishini ko'rsatish mumkin:



## Kompleks birikmalarning sinflanishi

I. Kompleks birikmalar tarkibidagi ligandlar tabiatiga ko'ra sinflanadi:

1. Molekular monodentant ligandlar saqlagan komplekslar. Bunday turdag'i kompleks birikmalarga quyidagilar kirdi:

a) *gidratlar* – ligand vazifasini faqat suv molekulalari bajaradi (akva-komplekslar). Masalan:  $[Cu(H_2O)_4]Cl_2$ ,  $[Cr(H_2O)_6]Cl_3$ ;

b) *ammiakatlar* – ligand vazifasini faqat ammiak molekulasi bajaradi. Masalan:  $[Ag(NH_3)_2]Cl$ ,  $[Cu(NH_3)_4]SO_4$ ;

d) *metallarning karbonillari* – ligand vazifasini uglerod monooksid bajaradi:  $[Fe(CO)_5]$ ,  $[V(CO)_6]$ .

2. Ligand vazifasini ionlar yoki kislota qoldiqlari (anionlar) bajaruvchi asidokomplekslar:

a) *gidroksokomplekslar* – ligand vazifasini gidroksil guruh bajaradi. Masalan:  $[Al(OH)_6]Cl_3$ ,  $[Zn(OH)_4]Cl_2$ ;

b) *asidokomplekslar* – ligand vazifasini kislota qoldiqlari bajaradi. Masalan:  $K_4[Fe(CN)_6]$ ,  $K_3[Fe(CN)_6]$ ,  $K[Ag(NO_2)_2]$ .

Kompleks birikmalar kislota qoldig'i tabiatiga ko'ra ham sinflanadi:

*Ftorokomplekslar* –  $K_2[BeF_4]$ ,  $Na_3[AlF_6]$ .

*Sianokomplekslar* –  $K_3[Fe(CN)_6]$ .

d) *aralash komplekslar* – bir nechta har xil ligandlar tutgan kompleks birikmalar. Masalan:  $[Pt(NH_3)_2Cl_2]$ ,  $[Co(NH_3)_4Cl_2]Cl$ .


II. Kompleks birikmalar kompleks ionning zaryadiga ko'ra ham sinflanadi.

Agar kompleks ion zaryadi musbat bo'lsa – *kation* kompleks:  $[Ag(NH_3)_2]Cl$ ,  $[Cu(H_2O)_4]SO_4$ .

Agar kompleks ion zaryadi manfiy bo'lsa – *anion* kompleks:  $Na_3[Co(NO_2)_6]$ ,  $K_4[Fe(CN)_6]$ .

Agar kompleks ion zaryadsiz bo'lsa – *neytral* kompleks:  $[Pt(NH_3)_2Cl_2]$ .

III. Polidentant ligandlardan hosil bo'lgan *halqali kompleks birikmalar* (xelat komplekslar). Masalan, aminosirka kislotaning Cu (II) bilan hosil qilgan kompleks birikmasi:



Odatda markaziy atom bilan ligandlar orasida kimyoviy bog' donor-akseptor mexanizmda amalga oshadi. Bunday birikmalarda ligandlar bo'linmagan elektron jufti saqlagani uchun elektron just *donori*, markaziy atom esa bu elektronlarni joylashishi uchun bo'sh orbitalga ega bo'lgani uchun elektron just *akseptori* vazifasini bajaradi.


Ligandlar markaziy atom bilan bir nechta bog' orqali bog'lanishi mumkin. Ligandlarning markaziy atom atrofida egallay oladigan koordinatsion nuqtalar soni uning *dentantligi* yoki *koordinatsion sig'imi* deyiladi.

Ligandlar dentantligiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi.

1. *Bir dentantli* ligandlar – markaziy atom atrofida 1 ta koordinatsion nuqtani egallaydi, yoki markaziy ion bilan ligand bitta bog' bilan bog'langan. Bularga bir zaryadli kislota qoldiqlari ( $\text{Cl}^-$ ,  $\text{I}^-$ ,  $\text{F}^-$ ,  $\text{NO}_3^-$ ,  $\text{NO}_2^-$ ) neytral molekulalar ( $\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{NH}_3$ ) hamda gidroksid ion  $\text{OH}^-$  misol bo'ladi.

2. *Ikki dentantli* ligandlar – markaziy atom atrofida 2 ta koordinatsion nuqtani egallaydi yoki markaziy atom bilan ligand 2 ta bog' bilan bog'langan. Ikki dentantli ligandlarga  $\text{SO}_4^{2-}$ ,  $\text{S}_2\text{O}_3^{2-}$  ionlari, etilendiamin molekulasi va boshqalar misol bo'ladi.

3. *Uch va ko'pdentantli* ligandlar – markaziy atom atrofida 3 ta va undan ko'p koordinatsion nuqtalarni egallaydi, yoki markaziy atom bilan ligandlar 3 ta va undan ortiq bog' bilan bog'langan. Uch dentantli ligandlarga dietenuchamin –  $\text{H}_2\text{NCH}_2\text{CH}_2\text{NHCH}_2\text{CH}_2\text{NH}_2$ , to'rt dentantli ligandlarga etilendiamindiatsetat –  $\text{HOOCCH}_2\text{NHCH}_2\text{CH}_2\text{NHCH}_2\text{COOH}$  va ko'p dentantli ligandlarga



misol bo'la oladi.

Ikki, uch va ko'pdentantli ligandlar halqali xelat kompleks birikmalarni hosil qiladi. Bunday birikmalar metallxelatlar, jarayon esa xelatlanish jarayoni deyiladi.

Kompleks birikmalar tarkibida metall xelatlar bo'lishi kompleks birikmalarning barqarorligini oshiradi. Buni L.A.Chugayevning halqalar qoidasi quyidagicha ta'riflaydi: metallxelat hosil qilishda ishtirok etadigan atomlar soni 5 yoki 6 ga teng bo'lganda eng katta barqarorlikka ega bo'lgan komplekslar hosil bo'ladi.

## Ichki kompleks birikmalar

Ichki kompleks birikmalar tarkibida metallga almashadigan vodoroddan tashqari taqsimlanmagan elektron jufti saqlagan funksional guruhlar saqlovchi organik birikmalardir. Bunday organik birikmalar metall ionlari bilan reaksiyaga kirishishi natijasida ichki kompleks birikmalar hosil qiladi, ular valentli bog'dan tashqari koordinatsion (donor-akseptor) bog' ham hosil bo'ladi.

Ichki kompleks birikmalarning molekulalari siklik (halqasimon) tuzilishga ega. Ularda odatda 5 va 6 a'zoli mustahkam halqa bo'ladi. Suvda yaxshi va o'z eriydi, ko'pincha yorqin rangga ega bo'lib, kam ionlanadi.


Ichki kompleks birikmalar alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ko'pchilik metalloproteidlarning oqsil qismi metall ionlari bilan shu mexanizm bo'yicha bog'langan.

Ichki kompleks birikmalar tarkibidagi ligandlar polidentant tabiatiga ega bo'lib, tarkibida 2 va undan ortiq funksional guruh saqlaydi:


1. Almashinish reaksiyasi hisobiga qutbli kovalent bog' hosil qiladigan  $\text{--COOH}$ ,  $\text{--NH}_2$ ,  $\text{--NH}$ ,  $\text{--OH}$ ,  $\text{--HS}$  va boshqalar.

2. Elektron juftlar donori  $\rightarrow \text{N} > \text{NH} > \text{CO} > \text{S}$  va boshqalar.

Ichki kompleks birikmalar tarkibidagi ligandlar kompleksonlar deb ataladi. Odatda, metall ionlari va kompleksonlarning nisbati 1 : 1 bo'ladi. Kompleksonlar jumlasiga aminopolikarbon kislotalar va ularning hosilalari, aminosirkha kislota (glitsin), etilendiamintetrasirkha kislota va uning ikki natriyli tuzi (komplekson III) va boshqalar. kiradi:




Ichki kompleks birikma hosil bo'lishini aminosirkha kislota bilan mis ionlari orasidagi ta'sirlashuv reaksiyasida ko'rib chiqiladi:



Hosil bo'lgan birikmada  $\text{Cu}^{2+}$  aminosirkha kislota bilan 2 ta kislota qoldig'i bilan 4 ta bog' orqali bog'langan: 2 tasi — ion bog' karboksil guruhdagi 2 ta vodorod ionining mis (II)ga almashinishidan hosil bo'lgan, 2 tasi esa aminoguruhning bo'linmagan elektron jufti bilan misning bo'sh orbitali hisobiga donor akseptor ta'sirlashuv hisobiga.

Birinchi 2 ta bog' to'g'ri chiziq bilan, 2 tasi esa punktir chiziq bilan ko'rsatilgan.

Komplekslardan etilendiamintetrasirka kislota (EDTA) va uning ikki natriyli tuzi kompleks III yoki trilon B deb nomlangan EDTA ning ikki natriyli tuzi katta ahamiyatga ega. Kompleks III metall (II) ionlari bilan quyidagi tuzilishga ega bo'lган barqaror ichki kompleks birikma hosil qiladi:



Ichki kompleks birikmalarda metall ionlari ligand bilan 2 ta har xil bog' orqali bog'langani sababli, kompleks birikma eritma holga o'tganda o'zining avvalgi xossalarni saqlab qolmaydi.

Kompleks III ning turli xil metallar bilan hosil qilgan ichki kompleks birikmalari ko'pincha yorqin rangli bo'lib, ular analitik kimyoda kationlarni aniqlashda reagent vazifasini bajaradi. Kompleks III miqdoriy analizda metall ionlarini kompleksometrik usulda aniqlashda keng qo'llanadi. Bu usul 1945-yili G.Shvasenbax tomonidan topilgan.

Ichki kompleks birikmalar organizmning hayot faoliyatida katta ahamiyat kasb etadi, chunki kislorodni o'pkadan to'qimalarga tashish vazifasini bajaruvchi gemoglobinning murakkab molekulasi ( $M \approx 67000$ ), o'z tarkibida prostetik (nooqsil) guruhlar yoki gemlar saqlaydi va bu birikmalar ichki kompleks birikmalardir.

O'simlik hayotida katta ahamiyat kasb etuvchi xlorofillar ichki kompleks birikmalar jumlasiga kirib, ularda kompleks hosil qiluvchi ion vazifasini magniy ioni bajaradi.

Ko'pchilik fermentlar molekulalari ham ichki kompleks birikmalar turkumiga kirib, ularda kompleks hosil qiluvchi atom vazifasini temir, rux, kobalt, mis, marganes, magniy va boshqalar bajaradi.

### **Kompleks birikmalarning nomlanishi**

Kompleks birikmalar quyidagicha nomlanadi:


1. Agar kompleks birikma elektroneytral bo'lsa, avval ligandlar soni va nomi, so'ngra markaziy atomning nomi o'qiladi va qavs ichida uning oksidlanish darajasi ko'rsatiladi. Masalan,  $[\text{Pt}(\text{NH}_3)_2\text{Cl}_2]$  – dixlordiammin platina (II).

2. Kation kompleks birikmalarni nomlashda avval ligandlar soni va nomi, so'ngra kompleks hosil qiluvchi atomning nomi o'qiladi va qavs ichida uning oksidlanish darajasi ko'rsatiladi. Masalan,  $[Cu(NH_3)_4]SO_4$  – tetraamin mis (II) sulfat.


3. Anion kompleks birikmalarni nomlashda avval tashqi sfera kationi o'qilib, so'ngra ligandlar soni va nomi o'qiladi. Oxirida kompleks hosil qiluvchining lotincha nomiga -at qo'shimchasi qo'shib o'qilib, qavs ichida oksidlanish darajasi ko'rsatiladi. Masalan,  $K_3[Fe(CN)_6]$  – kaliy geksatsianoferrat (III).

### ~~Kompleks birikma eritmalaridagi muvozanat~~

Suvli eritmalarda kompleks birikmalar dissotsilanadi. Birlamchi dissotsiatsiya kuchli elektrolitlar dissotsiatsiyasi ko'rinishida boradi:



Ichki koordinatsion sferaning dissotsiatsiyasi kompleks zarracha, markaziy ion va ligandlar orasidagi muvozanat bilan tavsiflanadi, u (muvozanat) massalar ta'siri qonuniga bo'yсинади va kompleks ionning beqarorlik konstantasi deb nom olgan muvozanat konstantasi bilan tavsiflanadi:



$$K_{\text{beqarorlik}} = \frac{c(Ag^+) \cdot c^2(NH_3^0)}{c([Ag(NH_3)_2]^+)} = 6,8 \cdot 10^{-8}.$$

$K_{\text{beqarorlik}}$  kompleks ionning barqarorlik o'chovi bo'lib xizmat qiladi. Kompleks ion qancha barqaror bo'lsa, beqarorlik konstantasi qiymati shunchalik kichik bo'ladi. Komplekslarning barqarorligini baholash uchun ko'pincha  $K_{\text{beqarorlik}}$  ga teskari qiymatga ega bo'lgan barqarorlik konstanta  $B$  dan foydalaniladi:

$$B = \frac{1}{K_{\text{beqarorlik}}}.$$

Uning logarifmi butun sonni ifodalaydi va bir qator birikmalarning barqarorligini solishtirish uchun juda qulaydir:

$$\lg B_{([Ag(NH_3)_2]^+)} = \frac{1}{6,8 \cdot 10^{-8}} = 7,23.$$

$K_{\text{beqarorlik}}$ ,  $B$ ,  $\lg B$  qiymatlari ma'lumotnoma (spravochnik)larda keltiriladi.  $K_{\text{beqarorlik}}$  qiymatidan foydalangan holda kompleks birikma-

larning hosil bo'lishi va parchalanishi bilan boradigan reaksiyalar yo'nalishini avvaldan aytib berish mumkin.

1. Kompleks hosil bo'lishida reaksiya doimo eng kam  $K_{\text{beqarorlik}}$  qiymatga ega bo'lgan birikma hosil bo'lish tomonga, ya'ni eng barqaror kompleks birikma hosil bo'lish tomonga yo'naladi.


Masalan,

$$K_{\text{beqarorlik} [\text{Ag}(\text{NO}_2)_2]^-} = 1,5 \cdot 10^{-3},$$


$$K_{\text{beqarorlik} [\text{Ag}(\text{NH}_3)_2]^+} = 6,8 \cdot 10^{-8},$$

$$K_{\text{beqarorlik} [\text{Ag}(\text{CN})_2]^-} = 1,1 \cdot 10^{-21}.$$

$[\text{Ag}(\text{CN})_2]^-$  kompleks ionning  $K_{\text{beqarorlik}}$  qiymati eng kichik bo'lgani uchun birinchi va ikkinchi komplekslar  $\text{KCN}$  bilan reaksiyaga kirishib, sianid komplekslarini hosil qiladi:



yoki quyidagi reaksiya sodir bo'lishi mumkin:



$[\text{Ag}(\text{CN})_2]^-$  ammiak bilan reaksiyaga kirishmaydi, chunki  $K_{\text{beqarorlik} [\text{Ag}(\text{CN})_2]^-}$  qiymati  $K_{\text{beqarorlik} [\text{Ag}(\text{NH}_3)_2]^+}$  qiymatidan kichik.

### Mavzu bo'yicha masalalar va ularni yechish namunasi

**1- masala.** Quyidagi kompleks ionlarning zaryadini va ularning ichida kation, anion va neytral komplekslarni ko'rsating.

- A)  $[\text{Co}(\text{NH}_3)_5\text{Cl}]$     B)  $[\text{Cr}(\text{NH}_3)_4 \text{PO}_4]$     D)  $[\text{Ag}(\text{NH}_3)_2]$   
 E)  $[\text{Cr}(\text{OH})_6]$     F)  $[\text{Co}(\text{NH}_3)_3(\text{NO}_2)_3]$     G)  $[\text{Cu}(\text{H}_2\text{O})_4]$

**Yechish:**

a) kobalt ionining zaryadi +3 ga, ammiak molekulasining zaryadi 0 ga, xlor ioniniki -1 ga teng. Ichki sferaga kiruvchi ion zaryadining algebraik yig'indisini aniqlanadi:

$$( +3 ) + ( 0 ) \cdot 5 + ( -1 ) = +2$$

Kompleks ion zaryadi +2 ga teng, demak, u kation kompleks:  $[\text{Co}(\text{NH}_3)_5\text{Cl}]^{+2}$ .

- b) Cr = (+3), NH<sub>3</sub> = 0, PO<sub>4</sub><sup>-</sup> = (-3),  
 $(+3) + (0) \cdot 4 + (-3) = 0$ , neytral – [Cr(NH<sub>3</sub>)<sub>4</sub>PO<sub>4</sub>];
- d) Ag = (+1), NH<sub>3</sub> = (0),  
 $(+1) + (0) \cdot 2 = +1$  kation – [Ag(NH<sub>3</sub>)<sub>2</sub>]<sup>+</sup>;
- e) Cr = (+3), OH = (-1),  
 $(+3) + (-1) \cdot 6 = -3$  anion – [Cr(OH)<sub>6</sub>]<sup>3-</sup>;
- f) Co = (+3), NH<sub>3</sub> = 0, NO<sub>2</sub> = (-1),  
 $(+3) + (0) \cdot 3 + (-1) \cdot 3 = 0$  neytral – [Co(NH)<sub>3</sub>(NO<sub>2</sub>)<sub>3</sub>];
- g) Cu = (+2), H<sub>2</sub>O = (0),  
 $(+2) + (0) \cdot 4 = +2$  kation – [Cu(H<sub>2</sub>O)<sub>4</sub>]<sup>2+</sup>.


**2- masala.** Qaysi holatda ko'rsatilgan modda eritmalari orasida o'zaro ta'sir vujudga kelishini aniqlang. Reaksiya tenglamasini yozing.



**Yechish:**

a) [Ag(NH<sub>3</sub>)<sub>2</sub>]<sup>+</sup> ionining beqarorlik konstantasi  $6,8 \cdot 10^{-8}$ , [Ag(CN)<sub>2</sub>]<sup>-</sup> ioniniki esa  $1,1 \cdot 10^{-21}$  ga teng. Shunday qilib [Ag(CN)<sub>2</sub>]<sup>-</sup> kompleksi barqarorroq. Shuning uchun u NH<sub>3</sub> bilan reaksiyaga kirishmaydi;

b) [Ag(NH<sub>3</sub>)<sub>2</sub>]<sup>+</sup> ionining beqarorlik konstantasi  $6,8 \cdot 10^{-8}$ , [Ag(NO<sub>2</sub>)<sub>2</sub>]<sup>-</sup> ionniki esa  $1,5 \cdot 10^{-3}$  ga teng. Bu holda [Ag(NH<sub>3</sub>)<sub>2</sub>]<sup>+</sup> kompleks barqarorroq. Ular orasida quyidagi reaksiya sodir bo'ladi:



**3- masala.** 1,000 mol miqdorda mo'l NH<sub>3</sub> saqlagan, konsentratsiyasi 0,1000 mol/l bo'lgan [Ag(NH<sub>3</sub>)<sub>2</sub>]NO<sub>2</sub> eritmasidagi Ag<sup>+</sup> ioni konsentratsiyasini aniqlang.

**Berilgan:**

$$c[\text{Ag}(\text{NH}_3)_2]\text{NO}_2 = 0,1000 \text{ mol/l}$$


$$c(\text{NH}_3) = 1,000 \text{ mol/l}$$

$$K_{\text{beqarorlik}} = 6,8 \cdot 10^{-8}$$

$$c(\text{Ag}^+) = ?$$

**Yechish:**

1. Kompleks birikmaning eritmadi dissotsiatsiya tenglamasi:



$\text{NH}_3$  miqdori mo'l bo'lganda muvozanat chagpa siljiydi va (2)-dissotsiatsiya natijasida hosil bo'layotgan  $\text{NH}_3$  miqdori oz bo'lgani uchun uni hisobga olinmasa ham bo'ladi.

$$K_{\text{beqarorlik}} = \frac{c(\text{Ag}^+) \cdot c^2(\text{NH}_3)}{c([\text{Ag}(\text{NH}_3)_2]^+)}.$$

Bu tenglikdan  $\text{Ag}^+$  ioni konsentratsiyasi topiladi:

$$c(\text{Ag}^+) = \frac{K_{\text{beqarorlik}} \cdot c([\text{Ag}(\text{NH}_3)_2]^+)}{c^2(\text{NH}_3)} = \frac{6,8 \cdot 10^{-8} \cdot 0,1000}{(1,000)^2} = 6,8 \cdot 10^{-9} \text{ mol/l}.$$

### Mavzuni o'zlashtirishni mustaqil nazorat qilish uchun savol va masalalar

1. Quyidagi kompleks birikmani koordinatsion nazariyaga ko'ra ta'riflang:  $\text{Na}_3[\text{Co}(\text{NO}_2)_6]$ .
  - a) Markaziy atomning oksidlanish darajasi;
  - b) kompleks ionning zaryadi;
  - c) ligandlar;
  - d) tashqi sfera ionlari;
  - e) koordinatsion son;
  - f) kompleks ionning turi (kation, anion, neytral);
  - g) kompleks ion dissotsiatsiyasi (birlamchi, ikkilamchi);
  - i) beqarorlik konstantasini ifodalang.
2. Kompleks ionda markaziy atom va ligandlar orasida qanday kimyoviy bog' mavjud?
3. Quyidagi kompleks birikmalardagi markaziy atomning oksidlanish darajasi va koordinatsion sonini ko'rsating:
  - 1)  $\text{K}_2[\text{Pt}(\text{Cl}_4)]$ ; 2)  $[\text{Pt}(\text{NH}_3)_2\text{Cl}_2]$ ; 3)  $[\text{Pt}(\text{NH}_3)_3\text{Cl}]\text{Cl}$ .
4. Quyidagi kompleks birikmalar uchun beqarorlik konstantasi qiymatini ko'rsating: 1)  $(\text{NH}_4)_2[\text{Co}(\text{SCN})_4]$ ; 2)  $\text{Na}_3[\text{Co}(\text{NO}_2)_6]$ ; 3)  $[\text{Co}(\text{NH}_3)_6]\text{Cl}$ .

### Vaziyatli masalalar

1.  $\text{PtCl}_4 \cdot 6\text{NH}_3$  eritmasidan kumush nitrat hamma xlor ionlarini kumush xlorid ko'rinishida to'liq cho'ktiradi,  $\text{PtCl}_4 \cdot 3\text{NH}_3$  tuzi eritmasi tarkibiga kirgan xlorni esa faqat bir qisminigina cho'ktiradi. Shu tuzlarning koordinatsion formulalarini yozing, ularning har biridagi platinaning koordinatsion sonini aniqlang.

*Javob:*  $\text{PtCl}_4 \cdot 6\text{NH}_3$  birikmasi eritmasidan kumush nitrat hamma xlor ionlarini cho'ktiradi, demak, to'rttala xlor ioni tashqi sferada joylashgan.

Bu kompleks birikmaning formulasi:  $[\text{Pt}(\text{NH}_3)_6]\text{Cl}_4$ .

$\text{PtCl}_4 \cdot 3\text{NH}_3$  tuzi eritmasidan uning tarkibiga kirgan xlorning 1/4 qismi cho'kadi. Demak, bitta xlor ioni tashqi doirada, qolgan uchtasi esa ichki doirada joylashgan. Birikma quyidagi formulaga mos keladi:  $[\text{Pt}(\text{NH}_3)_3\text{Cl}_3]\text{Cl}$ .

Platinaning koordinatsion soni ikkala birikmada ham 6 ga teng.

2. Quyidagi kompleks birikmada  $[\text{Cu}(\text{NH}_3)_2(\text{OH})_2]$ :

- a) markaziy atom;
- b) markaziy atomning oksidlanish darajasi;
- d) ligandlar;
- e) kompleks ion zaryadini ko'rsating.

*Javob:* Cu; +2; NH<sub>3</sub>, OH; 0.

### Test savollari

1. Kompleks ionning zaryadini ko'rsating:  $[\text{Ag}(\text{NO}_2)_2]^-$ .

- a) +1;    b) -1;    d) +2;    e) -2.

2. Neytral kompleksni ko'rsating.

- a)  $[\text{HgI}_4]$ ;    b)  $[\text{Ag}(\text{NH}_3)_2]$ ;    d)  $[\text{Al}(\text{NH}_3)_3\text{Cl}_3]$ ;    e)  $[\text{Ag}(\text{NO}_2)_2]$ .

3. Kompleks birikmani nomlang:  $\text{Na}_2[\text{Sn}(\text{OH})_6]$ .

- a) natriy geksagidroksostannat (IV);
- b) natriy geksagidroksostannat (VI);
- d) natriy tetragidroksostannat(II);
- e) natriy geksagidroksostannit (VI).

4. Kompleks ionning zaryadini ko'rsating:  $[\text{Cr}(\text{H}_2\text{O})_6]\text{Cl}_3$ .

- a) +2;    b) +3;    d) -2;    e) 0.

5. Ligandlar – bu ...

- |                              |                |
|------------------------------|----------------|
| a) elektron juft donori;     | d) kislotalar; |
| b) elektron juft aktseptori; | e) amfolitlar. |

6. Quyidagi kompleks birikmada markaziy atomning koordinatsion sonini ko'rsating:  $\text{K}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]$ .

- a) 2;    b) 4;    d) 6;    e) 5.

7. Quyidagi kompleks birikmada markaziy atomning zaryadi va koordinatsion sonini ko'rsating:  $[\text{Pt}(\text{NH}_3)_2\text{Cl}_2]$ .

- a) +2,4; b) +2,6; d) +4,4; e) +6,6.

8. Quyidagi kompleks birikmalar turini ko'rsating:  $\text{K}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]$ ,  $[\text{Cr}(\text{H}_2\text{O})_6]\text{Cl}_3$ ,  $[\text{Ag}(\text{NH}_3)_2]\text{Cl}$ .

- a) atsidokompleks, ammiakat, akvokompleks;  
 b) akvokompleks, atsidokompleks, ammiakat;  
 d) ammiakat, atsidokompleks, akvokompleks;  
 e) atsidokompleks, akvokompleks, ammiakat.

9. Quyidagi kompleks birikmaning markaziy atomini, uning oksidlanish darajasini, ligandlarni va markaziy atomning koordinatsion sonini ko'rsating:  $[\text{Pt}(\text{NH}_3)_2\text{Cl}_2]$ .

- a) Pt, +3,  $\text{Cl}^-$ ,  $\text{NH}_3$ , 6; d) Pt, +2,  $\text{Cl}^-$ ,  $\text{NH}_3$ , 4;  
 b) Cl, +4,  $\text{K}^+$ , 2; e) Cl, +2,  $\text{K}^+$ , 6.

10. Kompleks birikmalarda kompleks ion bilan tashqi sfera ioni orasidagi bog' turini ko'rsating.

- a) ion; d) qutbli kovalent;  
 b) donor-aktseptor; e) qutbsiz kovalent.

## LABORATORIYA ISHI

### 1-tajriba. Kompleks ion hosil bo'lishi.

$\text{FeCl}_3$  tuzlari eritmasiga tomchilab  $\text{NaOH}$  eritmasidan qo'shing. Hosil bo'lgan gidroksid cho'kmani  $\text{NH}_4\text{OH}$  reaktivning mo'l miqdorida eriting. Kationlarga xos kompleks birikmalar – ammiakatlar hosil bo'ladi. Komplekslarning hosil bo'lgan eritmalariga ishqor eritmasidan soling. Metall gidroksidlari cho'kmaga tushadimi? Ammiakat hosil bo'lish reaksiya tenglamalarini yozing.

### 2- tajriba. Kompleks anion hosil bo'lishi.

a) Probirkaga 5 tomchi  $\text{Hg}(\text{NO}_3)_2$  eritmasi soling. 2 tomchi KI eritmasini qo'shing. Cho'kma hosil bo'lishini kuzating. Cho'kmaga erib ketguncha asta-sekin KI tomizing. Reaksiya tenglamasini yozing.

b)  $\text{Zn}(\text{NO}_3)_2$  va  $\text{Al}(\text{NO}_3)_3$  tuzlari eritmasiga  $\text{NaOH}$  eritmasidan soling. Hosil bo'lgan gidrokid cho'kmalarini reaktivning mo'l miqdorida eriting. Gidroksokomplekslar hosil bo'lish reaksiyasi tenglamalarini yozing.

**3- tajriba. Kompleks hosil bo‘lish reaksiyasi muvozanatini siljish.**

- Probirkaga 5 tomchi  $\text{AgNO}_3$  va 3 tomchi  $\text{NaCl}$  eritmasidan soling. Reaksiya tenglamasini yozing;
- hosil bo‘lgan  $\text{AgCl}$  cho‘kmasiga 10 tomchi  $\text{NH}_4\text{OH}$  eritmasi tomizing. Erish reaksiyasi tenglamasini yozing;
- hosil bo‘lgan eritmaga 10 tomchi  $\text{HNO}_3$  eritmasidan qo‘sning.  $\text{AgCl}$  cho‘kmasi hosil bo‘lish reaksiyasi tenglamasini yozing.

**4- tajriba. Kompleks birikmalarning barqarorligi.**

$\text{FeCl}_3$  tuzi eritmasiga  $\text{NH}_4\text{CNS}$  eritmasidan qo‘sning. Hosil bo‘lgan eritma rangini belgilang.  $\text{NaF}$  eritmasidan qo‘sning. Borayotgan hodisalarni tushuntiring.

**5- tajriba. Kompleks birikmalar eritmasidagi almashinish reaksiyalari.**

$\text{FeCl}_3$  tuzi eritmasiga  $\text{K}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]$  eritmasidan,  $\text{FeCl}_2$  tuzi eritmasiga  $\text{K}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6]$  dan qo‘sning. Hosil bo‘lgan cho‘kmalar rangini belgilang, ularning hosil bo‘lish reaksiyasi tenglamalarini yozing. Alovida probirkada bir necha tomchidan  $\text{K}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]$  va  $\text{K}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6]$  eritmalarini solib aralashtiring. Nima uchun bu holda cho‘kma hosil bo‘lmaydi?

## KOMPLEKSONOMETRIK TITRLASH USULI

**Mashg‘ulotning maqsadi.** Kompleks birikmalar hosil bo‘lishi qonuniyatlarini bilgan holda biologik suyuqliklardagi metall ionlari miqdorini aniqlashni o‘rganish.

**O‘rganilayotgan mavzuning ahamiyati.** Kompleksonometriya usuli tibbiy-biologik tadqiqotlarda, sanitariya-gigienik va dorivor moddalarini analiz qilishda keng qo‘llanadi. 80 dan ortiq elementlarni miqdoriy analiz qilish usullari ma’lum. Bu usul bilan biologik suyuqliklardagi kalsiy, magniy, mis, temir va boshqa kationlarning miqdori aniqlanadi. Sanitariya-gigienik analizda kompleksonometriya usuli bilan suvning umumiy qattiqligi aniqlanadi.

**Boshlang‘ich bilim darajasi:**

1. Kompleks birikmalarning hosil bo‘lishi.
2. Kompleks birikmalarning barqarorligi.
  - 2.1. Kompleks birikmalarning beqarorlik konstantasi.
3. Kompleks birikmalar hosil bo‘lish reaksiyalari yo‘nalishi.
4. Suvning qattiqligi.

**Mustaqil tayyorlanish uchun adabiyotlar:**

1. *Н.А.Алексеев.* Количественный анализ. М., 1972, 336- bet.
2. *Н.А.Селезнёв.* Аналитическая химия. М., 1973, 222- bet.
3. *И.К.Цитович.* Курс аналитической химии. М., 1985, 263- bet.
4. *А.В.Бабков, Г.Н.Горшкова, А.М.Кононов.* Практикум по общей химии с элементами количественного анализа. М., 1978, 151- bet.
5. *X.H.Hakimov, A.Z.Tatarskaya, N.T.Olimxo'jayeva.* Umumiy kimyodan amaliy mashg'ulotlar. T., 1993, 130–132- betlar.
6. *S.S.Qosimova, S.M.Masharipov, Q.O.Najimov.* Umumiy va bioorganik kimyodan amaliy mashg'ulotlar», T., 2001, 72–76- betlar.

**Darsda ko'rildigan savollar:**


1. Kompleksionometrik titrlash usulining nazariy asoslari.
2. Suvning qattiqligi va uni yo'qotish usullari.
3. Laboratoriya ishining nazariy asoslari.
  - 3.1. Kimyoviy reaksiya tenglamasi.
  - 3.2. Indikatorning ta'sir mexanizmi.
  - 3.3. Laboratoriya ishining bajarilishi.
  - 3.4. Hisoblash formulalari.
  - 3.5. Analiz natijalaridan xulosa chiqarish.
4. Kompleksionometrik titrlash usulining tibbiyotdagi ahamiyati.
5. Xelatoterapiya asoslari.
6. Laboratoriya ishi.

**MA'LUMOTLAR YIG'INDISI****Kompleksionometrik titrlash usuli**


Kompleksionometrik titrlash usuli tibbiy-biologik tadqiqotlarda klinik, sanitariya-gigienik analizlar olib borishda, farmatsevtika va dorivor preparatlardan analizida keng qo'llanadi. 80 dan ortiq elementni aniqlash usuli ishlab chiqilgan.

Bu usul bilan biologik suyuqliklar, a'zolardagi kalsiy, magniy va boshqa kationlarni aniqlash mumkin. Sanitariya-gigiena analizlarida bu usul suvning qattiqligini aniqlash uchun ishlatiladi. Kompleks hosil qilish reaksiyalari tibbiyotda og'ir metallar bilan zaharlanishda ularni ligand sifatida ishlatiladigan komplekslar bilan eruvchan kompleks birikmalar hosil qilib, organizmdan chiqarib yuborishda qo'llanadi.

Kompleksometrik titrlash usuli asosida kompleks III ning metall ionlari bilan barqaror ichki kompleks birikma hosil qilish reaksiyasi yotadi. Kompleks III – EDTA (etilendiamintetrasirka kislotanig ikki natriyli tuzi):



Ichki kompleks birikmalar – kompleks III molekulasidagi karboksil guruh vodorodi o'rnnini metall ionlari egallashidan va azot atomlari vositasida koordinatsion bog' hosil qilishidan paydo bo'lgan birikmalardir. Odatda, ichki kompleks birikmalarda metall : ligand nisbati 1 : 1 boladi:




Kompleks III ko'pchilik metall kationlari bilan suvda eruvchan barqaror ichki kompleks birikmalar (tuzlar) hosil qiladi, bu esa uning metallar miqdorini aniqlash uchun ishlatalish imkonini beradi. Bu usulda ekvivalentlik nuqtasini metall indikatorlar yordamida aniqlanadi, ular organik bo'yoqlar bo'lib, metall kationlari bilan boshqa rangli kompleks birikmalar hosil qiladi. Bu birikmalarning barqarorligi shu kationlarning kompleks III bilan hosil qilgan birikmasinikidan kam. Masalan, kalsiy va magniy ionlarini aniqlashda indikator sifatida erioxrom qora T ishlataladi. Erioxrom qora T – 3 negizli kuchsiz organik kislota:




$pH < 3$  – qizil;  $pH = 7-11$  – ko'k;  $pH > 12$  – sariq qovoq rang.

$pH < 10$  da  $\text{Ca}^{2+}$  va  $\text{Mg}^{2+}$  ionlarning indikator bilan hosil qilgan kompleksi olcha rangli bo'ladi.  $\text{Ca}^{2+}$  va  $\text{Mg}^{2+}$  tuzlarining kompleks III va erioxrom qora T ishtirokida titrlashda quyidagi reaksiyalar boradi:


1.  $pH = 10$  da erioxrom qora T  $\text{Ca}^{2+}$  va  $\text{Mg}^{2+}$  ionlari bilan olcha rangli komplekslar hosil qiladi (beqaror):



2. Kalsiy va magniy tuzlarini titrlashda, metallarning indikator bilan bog'lanmaganlari kompleks III bilan barqaror rangsiz komplekslar hosil qiladi:



3. Kalsiy va magniyning eritmadagi erkin ionlari kompleks III bilan barqaror kompleks hosil qilib bo'lgandan so'ng, kompleks III u kationlarni endi beqaror  $[\text{Ca}Ind]^-$ ,  $[\text{Mg}Ind]^-$  komplekslardan juda barqaror  $[\text{Cay}]^{2-}$ ,  $[\text{Mgy}]^{2-}$  komplekslarga bog'laydi:




Ekvivalent nuqtada eritma rangi olcha rangidan ko'k rangga o'zgaradi.

### Suvning qattiqligi va uni yo'qotish usullari

Tabiatda toza suv uchramaydi – uning tarkibida doimo turli xil qo'shilmalar bo'ladi. Suv yer qobig'idagi tuzlar bilan o'zaro ta'sir etishi natijasida muayyan qattiqlikka ega bo'ladi.

Suvning qattiqligi –  $\text{Ca}^{2+}$  va  $\text{Mg}^{2+}$  ionlari bo'lishi bilan bog'liq holdagi xossalari yig'indisidir. Agar suvda bu ionlarning konsentratsiyasi katta bo'lsa, *qattiq suv*, agar kam bo'lsa – *yumshoq suv* deyiladi.

Xuddi ana shu ionlar tabiiy suvlarga o'ziga xos xususiyat bahsh etadi. Kir yuvishda qattiq suv yuvilayotgan kiyimlarning sifatini pasaytirishi bilan birga sovun ko'p sarflanadi:



Kalsiy va magniy ionlari to'liq cho'kkidan keyin ko'pik hosil bo'ladi. Ba'zi sintetik yuvish vositalari qattiq suvda ham yaxshi yuvadi, chunki bu moddalardagi kalsiy va magniy tuzlari yaxshi eriydi.

Qattiq suvda oziq-ovqat mahsulotlari qiyin hazm bo'ladi, bunday suvda pishirilgan sabzavot bemaza bo'ladi. Qattiq suvda choy damlansa, yomon chiqadi va uning ta'mi buziladi. Suv tarkibida  $\text{Mg}^{2+}$  ionlarning miqdori ko'p bo'lganda suv taxir bo'ladi (dengiz yoki okean suvidek) va kishi organizmiga surgi sifatida ta'sir etadi.

Qattiq suvni bug' qozonlarida ishlatib bo'lmaydi: suv qaynatilganda uning tarkibida erigan tuzlar qozon devorlarida quyqa qatlamini hosil qiladi, bu qatlam issiqlikni yomon o'tkazadi. Natijada yoqilg'i ko'p sarflanadi, qozonlar muddatidan oldin ishdan chiqadi, ba'zan esa qozonlar o'ta qizib ketishi natijasida avariya yuz berishi mumkin.


Choynaklarda ham quyqa ana shunday hosil bo'ladi. Nihoyat, suvning qattiqligi metall konstruksiyalar, quvurlar va sovitiladigan mashinalarning g'ilofi uchun ham zararlidir.

$\text{Ca}^{2+}$  ionlari kalsiyli qattiqlikni,  $\text{Mg}^{2+}$  ionlari esa magniyli qattiqlikni keltirib chiqaradi. Umumiy qattiqlik kalsiy va magniyli qattiqliklarning yig'indisiga, ya'ni suvdagi  $\text{Ca}^{2+}$  va  $\text{Mg}^{2+}$  ionlar konsentratsiyalarning yig'indisiga teng bo'ladi.


Suvni yumshatish jarayonlari nuqtai nazaridan qattiqlik karbonatli va karbonatsiz qattiqlikka bo'linadi. Suv tarkibidagi  $\text{HCO}_3^-$  gidrokarbonat ionlarga ekvivalent bo'lgan  $\text{Ca}^{2+}$  va  $\text{Mg}^{2+}$  ionlar karbonatli qattiqlikni keltirib chiqaradi. Boshqacha aytganda, karbonatli qattiqlik, suvda kalsiy va magniy gidrokarbonatlarning bo'lishi tufayli yuzaga keladi. Suv qaynatilganda gidrokarbonatlar parchalanadi, bunda hosil bo'ladigan kam eruvchan karbonatlar cho'kmaga tushadi va suvning umumiy qattiqligi karbonatli qattiqlik miqdori qadar kamayadi. Shuning uchun karbonatli qattiqlik muvaqqat qattiqlik deyiladi. Suv qaynatilganda  $\text{Ca}^{2+}$  ionlari karbonat holida cho'kadi:



$\text{Mg}^{2+}$  ionlari esa gidroksikarbonat yoki magniy gidroksid ( $pH > 10,3$  bo'lganda) holida cho'kadi:



$\text{HCO}_3^-$  ionlarining suv bilan o'zaro ta'siri natijasida  $\text{OH}^-$  ionlari hosil bo'ladi:



va qizdirilganda muvozanat o'ngga siljiydi.

Suv qaynatilgandan keyin ham saqlanib qoladigan qattiqlik karbonatsiz qattiqlik deyiladi. U kuchli kislotalarning kalsiy va magniyli tuzlari, asosan, sulfat va xloridlarining suvdagi miqdori bilan aniqlanadi. Suv qaynatilganda bu tuzlar yo'qolmaydi, shu sababli karbonatsiz qattiqlikni doimiy qattiqlik ham deyiladi.

**Suv qattiqligining miqdoriy tafsifi.** Suvning qattiqligi turlicha ifodalanadi. U 1 l suv tarkibidagi  $\text{Ca}^{2+}$  va  $\text{Mg}^{2+}$  ionlarining milligramm-ekvivalentlar soni bilan ifodalanadi. 1 mg-ekv  $\text{Ca}^{2+}$  ionlarning massasi 20,04 mg, 1 mg-ekv  $\text{Mg}^{2+}$  ionlarniki esa 12,6 mg bo'lgani sababli yuqorida berilgan ta'rifga muvosif suvning umumiy qattiqligi  $Q$  ni quyidagi formula bilan hisoblab topish mumkin:

$$Q = \frac{c(\text{Ca}^{2+})}{20,04} + \frac{c(\text{Mg}^{2+})}{12,16},$$



bunda  $c(\text{Ca}^{2+})$  va  $c(\text{Mg}^{2+})$  – kalsiy va magniy ionlarning konsentratsiyasi, mg/l. Juda yumshatilgan yoki distillangan suvning qattiqligi 1 kg suvdagi  $\text{Ca}^{2+}$  va  $\text{Mg}^{2+}$  ionlarning mikrogramm-ekvivalentlari bilan ifodalanadi ( $1 \text{ mgk-ekv/kg} = 0,001 \text{ mg-ekv/l}$ ).

Qattiqlik darajasiga ko‘ra tabiiy suv juda yumshoq – qattiqligi 1,5 mg-ekv/l gacha, yumshoq – 1,5 dan 4 mg-ekv/l gacha, o‘rtacha qattiq – 4 dan 8 mg-ekv/l gacha, qattiq – 8 dan 12 mg-ekv/l gacha, juda qattiq – 12 mg-ekv/l dan yuqori bo‘lgan suvlarga bo‘linadi.



Dengiz va okean suvlarining qattiqligi ayniqsa katta bo‘ladi. Masalan, Qora dengiz suvining kalsiyli qattiqligi 12 mg-ekv/l, magniyli qattiqligi 53,5 mg-ekv/l va umumiyligi 65,5 mg-ekv/l ga, Kaspiy dengizi suvining kalsiyli qattiqligi 36,4 mg-ekv/l, magniyli qattiqligi 30 mg-ekv/l va umumiyligi 66,4 mg-ekv/l ga teng. Okeanda o‘rtacha kalsiyli qattiqlik 22,5 mg-ekv/l, magniyli – 108 mg-ekv/l va umumiyligi 130,5 mg-ekv/l ga teng.

Xo‘jalikdagi ichiladigan vodoprovod suvining qattiqligi 7 mg-ekv/l dan oshmasligi kerak.



Qattiq suvni ko‘pincha ishlatalish oldidan yumshatiladi. Odatda, buning uchun suvga turli kimyoviy moddalar bilan ishlov beriladi. Masalan, karbonatli qattiqlikni so‘ndirilgan ohak qo‘sish yo‘li bilan yo‘qotish mumkin:




yoki molekulyar shaklda:



Ohak bilan soda bir vaqtida qo‘silganida karbonatli va karbonatsiz qattiqlikni yo‘qotish mumkin (ohak-sodali usul). Bunda karbonatli qattiqlik ohak ta’sirida (yuqoriroqqa qarang), karbonatsiz qattiqlik esa soda ta’sirida yo‘qoladi:



va so‘ngra




bo‘ladi.

Suvning qattiqligini yo‘qotish uchun boshqa usullardan ham foydalilanadi. Hozirgi paytda foydalilanadigan eng yangi usullardan biri

*kationitlar* (kationli usul) ishlatalishga asoslangan. Kationitlar ion almashtiruvchi sintetik smola va alyumosilikatlar (masalan,  $[Al_2Si_2O_8 \cdot nH_2O]$ ) dir.


Ularning tarkibini  $Na_2R$  umumiyl formula bilan ifodalash mumkin, bunda  $Na^+$  ancha harakatchan kation va  $R^-$  manfiy zaryadga ega bo'lgan zarrachasi, masalan, keltirilgan misolda  $R = [Al_2Si_2O_8 \cdot nH_2O]^{2-}$ .

Agar qattiq suv kationit qatlami orqali o'tkazilsa, natriy ionlari kalsiy va magniy ionlariga almashinadi. Buni sxema tarzida quyidagicha yozish mumkin:



Shunday qilib, kalsiy va magniy ionlari eritmada kationitga, natriy ionlari esa kationitdan eritmaga o'tadi. Bunda suvning qattiqligi yo'qoladi.

Natriy ionlarining ko'p qismidan foydalanilgandan keyin kationit regeneratsiya qilinadi. Buning uchun u natriy xlorid eritmasida tutib turiladi. Natijada teskari jarayon sodir bo'ladi. Natriy ionlari kationit-dagi kalsiy va magniy ionlari o'rmini oladi, bu ionlar esa eritmaga o'tadi:



Regeneratsiya qilingan kationitdan qattiq suvning yangi miqdorini yumshatish uchun foydalaniladi.

### Xelatoterapiya asoslari

Biomuhitlarda metall ionlarining taqsimlanishi ularning ligandlar bilan hosil qilgan kompleksining barqarorligiga va ligandlarning konsentratsiyasiga bog'liq bo'ladi. Metall kationlarining organizmga kiritilishi metabolizm, kationlarning chiqarilishi elementoz gomeostaz jarayoni bilan boshqariladi.

Metalloligand gomeostaz sistemasining buzilishi toksik metall kationlarning ko'payishi, biogen metall kationlarining ortib yoki kamayib ketishi oqibatida yuzaga kelishi mumkin.


Bu jarayonlarni normal holatlarda ushlab turish uchun tibbiyotda maxsus yo'nalish – xelatoterapiya yuzaga kelgan. *Xelotterapiya usuli* – organizm toksik metallar bilan zaharlanganda shu metallar bilan yanada barqaror kompleks birikma hosil qiluvchi ligandlar (antidotlar) yuborib, toksik metallarni organizmdan chiqarib yuborishga asoslangan. Bunda kompleksyonlar yordamida metall-ligand balansi hosil qilinadi.

Masalan, organizmga  $Cd^{2+}$  ionlari tushib qolganda karboangidraza fermentlari bilan mustahkam kompleks hosil qilib,  $Zn^{2+}$  ionlarini bu ferment tarkibidan siqib chiqarib, fermentning o'z aktivligini yo'qtishga olib keladi.


Toksik elementlartni organizmdan chiqarib yuborish uchun organizmga yanada barqarorroq kompleks (toksik element bilan) hosil qiluvchi ligandlar kiritiladi. Xelatoterapiyada qo'llanadigan ligandlar antidotlar (zaharga qarshi moddalar) deb ataladi. Ular o'z tarkibida bir nechta funksional guruhlar tutadi, bu guruhlar toksik element ionlari bilan 5 yoki 6 a'zoli halqa – barqaror kompleks (xelatlar) hosil qiladi.

Noorganogen elementlar toksik oqibatlarining klinik namoyon bo'lishi 8–12 soatgacha davom etadi. Antidotlarning himoyasi ularni o'z vaqtida 10–12 soat oralig'ida kiritilishiga bog'liq.


Tibbiyotda antidot sifatida unitiol, dimerkaprol (BAL), dimerkaptokahrabo kislota, penitsilamin, aurintrikarbon kislota, etilendiamin tetrasirka kislota (EDTA) etilendiamin tetrasirka kislotaning ikki natriyli tuzi, pentatsit va boshqalar qo'llanadi:




Etilendiamintetra sirka kislotaning ikki natriyli tuzi (EDTA)




Dimerkaptokahrabo kislota




Unitiol



Dimerkaprol (BAL)



Penitsilamin



Pentatsit

Ba'zi holatlarda og'ir metallarni organizmdan chiqarib yuborish uchun makrosiklik ligandlar, masalan, kriptandlar ishlataladi. Bu antidotlarning afzalligi ma'lum bir metall ioniga bog'lanishi, ya'ni tanlab ta'sir etishidir. Masalan, u  $Zn^{2+}$  va  $Ca^{2+}$  bilan kompleks hosil qilmaydi, noorganogen  $Cd^{2+}$ ,  $As^{3+}$  lar bilan barqaror kompleks birikma hosil qilib, organizmdan chiqarib yuboriladi.

Tibbiyotda bir nechta og'ir metallar bilan zaharlanishda davolash mos kelgan 2 va undan ortiq antidotlar bilan amalga oshiriladi.

### **Mavzu bo'yicha masalalar va ularni yechish namunasi**

**1- masala.** Kompleks ionlarning beqarorlik konstantasi  $[Ca\gamma]^{2-} = 2 \cdot 10^{-11}$ ,  $[Mg\gamma]^{2-} = 2 \cdot 10^{-9}$ . Eritmada  $Ca^{2+}$  va  $Mg^{2+}$  ionlari birga bo'lganda ularni titrlashda qaysi reaksiya bиринчи navbatda amalga oshishini aniqlang ( $Ca^{2+}$  va  $Mg^{2+}$  ionlarining indikator bilan hosil qilgan kompleksining beqarorlik qiymati bir xil deb hisoblang).

#### **Yechish:**

$[Ca\gamma]^{2-}$  ionining beqarorlik konstantasi magniy ioninikidan kichik, demak,  $Ca^{2+}$  saqlagan kompleks ion barqarorroq va kompleksон III bиринчи navbatda  $CaInd^-$  bilan ta'sirlashib  $Ca^{2+}$  ionni bog'lab oladi:

1.  $CaInd^- + [H_2\gamma]^{2-} + OH^- \rightleftharpoons [Ca\gamma]^{2-} + HInd^{2-} + H_2O$
2.  $MgInd^- + [H_2\gamma]^{2-} + OH^- \rightleftharpoons [Mg\gamma]^{2-} + HInd^{2-} + H_2O$

**2- masala.** 50,00 ml vodoprovod suvini erioxrom qora T bilan titrlash uchun 4,86 m/ 0,5050 mol/l li kompleksон III eritmasi sarf bo'ldi. Suvning qattiqligini aniqlang.

#### **Berilgan:**

$$V(\text{kompl. III}) = 4,86 \text{ ml}$$

$$c(\text{kompl. III}) = 0,0505 \text{ mol/l}$$

$$V(H_2O) = 50,00 \text{ ml}$$

$$x = ?$$

**Yechish.** Suvning qattiqligi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$x = \frac{c(\text{kompl. III}) \cdot V(\text{kompl. III})}{V(H_2O)} \cdot 1000$$

$$x = \frac{4,86 \cdot 0,0505}{50,00} \cdot 1000 \frac{\text{ml} \cdot \text{mol} \cdot \text{mg}}{\text{l} \cdot \text{ml} \cdot \text{mol}} = 4,9086 \text{ mg/l}$$

*Javob:*  $x = 4,91 \text{ mg/l}$ .

**3- masala.**  $\text{ZnSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$  antiseptik ta'sirga ega, uning 0,5% li eritmasi ko'z tomchisi sifatida qo'llanadi. 20,00 ml shunday eritmani titrlash uchun sarf bo'lgan 0,0500 mol /l kompleks III eritmasining hajmini aniqlang.

**Berilgan:**

$$\begin{aligned}\omega\%(\text{ZnSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}) &= 0,50\% \\ c(\text{kompl. III}) &= 0,0500 \text{ mol/l} \\ V(\text{ZnSO}_4) &= 20,00 \text{ ml} \\ M(\text{ZnSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}) &= 287,54 \text{ g/mol} \\ \rho(\text{eritma}) &= 1,0 \text{ g/ml}\end{aligned}$$


---

$$V(\text{kompl. III}) = ?$$

**Yechish:**

Kompleks III rux ionlari bilan quyidagi nisbatda ichki kompleks birikma hosil qiladi: Me : ligand = 1 : 1.

1. Eritma  $p = 1,00 \text{ g/ml}$  dan kelib chiqib 20,00 ml eritmadagi  $\text{ZnSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$  miqdori proporsiya orqali topiladi:

$$\begin{aligned}100,00 \text{ ml} &\longrightarrow 0,5 \text{ g } \text{ZnSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O} \\ 20,00 \text{ ml} &\longrightarrow x \text{ g } \text{ZnSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}, \\ x &= 0,10 \text{ g}.\end{aligned}$$

2. Ekvivalentlar qonuniga muvofiq 0,10 g  $\text{ZnSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$  ni titrlashga sarflangan 0,0500 mol/l kompleks III ertimasining hajmi aniqlanadi:

$$\begin{aligned}V(\text{kompl. III}) &= \frac{m(\text{ZnSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}) \cdot 1000}{c(\text{kompl. III}) \cdot M(\text{ZnSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O})} = \\ &= \frac{0,10 \cdot 1000}{287,3 \cdot 0,0500} \frac{\text{g} \cdot \text{ml} \cdot \text{mol}}{\text{mol} \cdot \text{g}} = 6,96 \text{ ml}\end{aligned}$$

*Javob:*  $V(\text{kompl. III}) = 6,96 \text{ ml}.$

### Mavzuni o'zlashtirishni mustaqil nazorat qilish uchun savol va masalalar

1. Suvning qattikligini kompleksonometrik titrlash usuli asosida aniqlashda qanday reaksiya yotadi?
2. Metall-indikatorlarning ta'sir mexanizmini tushintiring.
3. Suvning qattikligini yo'qotish usullarini ko'rsating.

4. 50,00 ml vodoprovod suvini erioxrom qora T ishtirokida titrashga 4,58 m/ 0,0511 mol/l konsentratsiyali kompleksion III eritmasi sarflandi. Suvning umumiy qattiqligini aniqlang.

*Javob:*  $x = 4,68 \text{ mg/l}$ .

### Vaziyatli masalalar

1. Magniy sulfat  $\text{MgSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$  ning 20% li (massa jihatdan) eritmasini gipertoniya kasalligida muskul orasiga yoki qon tomiriga 10,0–20,0 ml miqdorda yuboriladi. Shu moddaning 2,00 ml/ 20,0% li eritmasini titrash uchun sarf bo‘ladigan 0,5235 mol/l konsentratsiyali kompleksion III eritmasi hajmini hisoblang.  $\rho(\text{MgSO}_4) = 1,235 \text{ g/ml}$ .

*Javob:*  $V(\text{kompl. III}) = 3,836 \text{ ml}$ .

2. Kalsiy vloiid —  $\text{CaCl}_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$  eritmasi tibbiyot amaliyotida turli patologik holatlarda keng ishlataladi. Undagi kalsiy ioni kislotali xrom to‘q ko‘ki ishtirokida kompleksometrik usulda aniqlanadi.

Agar qon tomiri orqali yuboriladigan  $\text{CaCl}_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$  eritmasining 5,00 ml ni titrashga 4,50 ml 0,5028 mol/l konsentratsiyali kompleksion III eritmasi sarflangan bo‘lsa, shu tekshirilayotgan eritmada  $\text{CaCl}_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$  ining massa ulushini (%) hisoblang.

$\rho(\text{CaCl}_2 \cdot 6 \text{ H}_2\text{O}) = 1,125 \text{ g/ml}$ .

*Javob:*  $\omega\%(\text{CaCl}_2 \cdot 6 \text{ H}_2\text{O}) = 8,81\%$ .

### Test savollari

1. Kompleksometriya usulida ammiakli bufer aralashma qanday maqsadda qo‘shiladi?

- a) kuchsiz kislotali muhit hosil qilish uchun;
- b) kislotali muhit hosil qilish uchun;
- c) ishqoriy muhit hosil qilish uchun;
- d) kuchsiz ishqoriy muhit hosil qilish uchun.

2. Qanday tuzlar suvning vaqtincha qattiqligiga sabab bo‘ladi?

- a)  $\text{CaCl}_2, \text{MgCl}_2$ ;
- b)  $\text{Ca}(\text{HCO}_3)_2, \text{Mg}(\text{HCO}_3)_2$ ;
- c)  $\text{CaSO}_4, \text{MgSO}_4$ ;
- e)  $\text{CaSO}_4, \text{MgSO}_4, \text{MgCl}_2, \text{CaCl}_2$ .

3. Qanday tuzlar suvning doimiy qattiqligiga sabab bo‘ladi?

- a)  $\text{CaCl}_2, \text{MgCl}_2$ ;

b)  $\text{Ca}(\text{HCO}_3)_2$ ,  $\text{Mg}(\text{HCO}_3)_2$ ;

d)  $\text{CaSO}_4$ ,  $\text{MgSO}_4$ ;

e)  $\text{CaSO}_4$ ,  $\text{MgSO}_4$ ,  $\text{MgCl}_2$ ,  $\text{CaCl}_2$ .

4. Vaqtincha qattiqlik qanday yo'qotiladi?

a) suvni qaynatish va  $\text{Ca}(\text{OH})_2$  qo'shish yo'li bilan;

b)  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  qo'shish bilan;

d)  $\text{Na}_2\text{CO}_3$ ,  $\text{NaOH}$  va  $\text{Na}_2\text{R}$  qo'shish bilan;

e)  $\text{Na}_2\text{CO}_3$ ,  $\text{NaOH}$ ,  $\text{Ca}(\text{OH})_2$  va  $\text{Na}_2\text{R}$  qo'shish bilan.

5. Doimiy qattiqlik qanday yo'qotiladi?

a) suvni qaynatish va  $\text{Ca}(\text{OH})_2$  qo'shish yo'li bilan;

b)  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  qo'shish bilan;

d)  $\text{Na}_2\text{CO}_3$ ,  $\text{NaOH}$  va  $\text{Na}_2\text{R}$  qo'shish bilan;

e)  $\text{Na}_2\text{CO}_3$ ,  $\text{NaOH}$ ,  $\text{Ca}(\text{OH})_2$  va  $\text{Na}_2\text{R}$  qo'shish bilan.

6. Suvning umumiy qattiqligi qanday yo'qotiladi?

a) suvni qaynatish yo'li bilan;

b)  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  qo'shish bilan;

d)  $\text{Na}_2\text{CO}_3$ ,  $\text{NaOH}$  va  $\text{Na}_2\text{R}$  qo'shish bilan;

e)  $\text{Na}_2\text{CO}_3$ ,  $\text{NaOH}$ ,  $\text{Ca}(\text{OH})_2$  va  $\text{Na}_2\text{R}$  qo'shish bilan.

7. Kompleksionometriya usuli bilan qanday moddalarning miqdori aniqlanadi?

a) metal ionlarini; d) asoslarni;

b) kislotalarni; e) tuzlarni.

8. Unitiol formulasini ko'rsating:

a)  $\text{HOOC}-\underset{\text{SH}}{\text{CH}}-\underset{\text{SH}}{\text{CH}}-\text{COOH}$  b)  $\underset{\text{SH}}{\text{CH}_2}-\underset{\text{SH}}{\text{CH}}-\text{CH}_2-\text{SO}_3\text{Na}$

d)  $\text{CH}_2-\text{SH}$

  |

$\text{CH}-\text{SH}$

  |

$\text{CH}_2-\text{OH}$

e)  $\text{HS}-\underset{\text{CH}-\text{COOH}}{\text{C}(\text{CH}_3)-\text{CH}_3}$

  |



$\text{NH}_2$

9. Antidot BAL formulasini ko'rsating:

a)  $\text{HOOC}-\underset{\text{SH}}{\text{CH}}-\underset{\text{SH}}{\text{CH}}-\text{COOH}$  b)  $\underset{\text{SH}}{\text{CH}_2}-\underset{\text{SH}}{\text{CH}}-\text{CH}_2-\text{SO}_3\text{Na}$

  |

$\text{SH}$



9. Tibbiyotda og‘ir metallar bilan zaharlanganda davolashda qo‘llanadigan moddalar qanday nomlanadi?

- a) kompleksonlar; b) antidotlar; d) ingibitorlar; e) promotorlar.

## LABORATORIYA ISHI

### 1. Suvning umumiy qattiqligini nazorat-analitik yo‘l bilan aniqlash

**Ishning borishi.** Titrlash uchun mo‘ljallangan kolbaga byuretkadan 100,00 ml vodoprovod suvi o‘lchab solinadi. Unga 5,00 ml ammiakli bufer eritmasi ( $pH = 10$ ), shpatel uchida indikator erioxrom qora T (quruq NaCl bilan aralashma holida) qo‘shiladi va kompleksion III ning standart eritmasi bilan olcha rangdan ko‘k rangga (yashil tusli) o‘tguncha titrlanadi. Titrlash so‘ngida kompleksion III eritmasini tomchilab qizil tus batamom yo‘qolguncha qo‘shiladi. Titrlashni yana 2 marta takrorlanadi. Tajriba natijalarini jadvalga yoziladi. Yaqin kelgan natijalardan o‘rtacha arifmetik qiymatini olib vodoprovod suvining umumiy qattiqligi hisoblanadi.

Tartib raqami	$V(\text{H}_2\text{O})$ , ml	$V(\text{kompl. III})$ , ml	$c(\text{kompl. III})$ , mol//l	Indikator
1				Erioxrom
2				qora T
3				
O‘rtacha qiymati				

Suvning umumiy qattiqligini ( $\text{Ca}^{2+}$  va  $\text{Mg}^{2+}$  ionlarining 1/suvdag‘i miqdorini) quyidagi tenglama bo‘yicha hisoblanadi:

$$x = \frac{c(\text{kompl. III}) \cdot V(\text{kompl. III}) \cdot 1000}{V(\text{H}_2\text{O})} .$$

### 2. Dorivor preparatlardagi kalsiyning konsentratsiyasi va titrini kompleksionometrik aniqlash

**Ishning borishi:** titrlash uchun mo‘ljallangan kolbaga 20,00 ml tekshirilayotgan eritma, 5,00 ml ammiakli bufer eritma ( $pH = 10$ ),

shpatel uchida indikator erioxrom qora T (quruq NaCl bilan aralashma holida) qo'shiladi va komplekson III ning standart eritmasi bilan olcha rangdan ko'k rangga (yashil tüsli) o'tguncha titrlanadi. Titrlashni yana 2 marta takrorlanadi. Yaqin keladigan natijalardan o'rtacha arifmetik qiymatni olib kalsiy tuzining ekvivalent molyar konsentratsiyasi va titri hisoblanadi:

$$c(\text{CaCl}_2) = \frac{c(\text{kompl. III}) \cdot V(\text{kompl. III})}{V(\text{CaCl}_2)}, \frac{\text{mol}}{\text{l}};$$

$$t(\text{CaCl}_2) = \frac{c(\text{CaCl}_2) \cdot V(\text{CaCl}_2)}{1000} \frac{\text{g}}{\text{ml}},$$

Tartib raqami	$V(\text{CaCl}_2)$ , ml	$c(\text{kompl. III})$ , mol/l	$V(\text{kompl. III})$ , ml	$c(\text{CaCl}_2)$ , mol/l	$t(\text{CaCl}_2)$ , g/ml
1					
2					
3					
O'rtacha qiymati					

## GETEROGEN MUVOZANAT

**Mashg'ulotning maqsadi.** Cho'ktirish va eritish reaksiyalarida hosil bo'lgan mahsulotlarning xususiyatlarini o'rganishga sistemali yondoshuvni o'rganish va biologik sistemalarda kam eriydigan moddalarning hosil bo'lishini oldindan aytib berish.

**O'rganiladigan mavzuning ahamiyati.** Cho'kma hosil bo'lishi va erish reaksiyalarining borish qonunlarini bilish, cho'kma – eritma sistemasi bo'lgan tirik organizmda boradigan kimyoviy jarayonlarni boshqarish va ularni biokimyoviy sistemalarga tatbiq qila bilish katta ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonlarning muvozanati buzilishi natijasida kam eriydigan birikmalar hosil bo'lishi va ularning yig'ilishidan hosil bo'lgan kasalliklar mavjud. Masalan, buyrak va o't yo'llarida tosh hosil bo'lishi, podagra, glaukoma, ateroskleroz va boshqalar.

«Bariyi» va «strontsiyi» raxit suyakdag'i kalsiy karbonatlari va fosfatlari o'rnnini stronsiy va bariy egallashi natijasida vujudga keladi. Kam eriydigan birikmalar hosil bo'lishi ularni ishlatishda tirik organizmda ularning biometall va bioligandlar bilan cho'kma hosil qilishi mumkinligini hisobga olishni talab qiladi.

Me'da-ichak kasalliklarini davolashda ko'pincha kislotani kamaytiruvchi va adsorbsiyalovchi vosita sifatida suvda kam eriydigan, lekin me'dadagi HCl da yaxshi eriydigan moddalar ishlatiladi. Masalan:

magniy oksid – MgO, kalsiy karbonat – CaCO<sub>3</sub> va boshqalar. Tibbiyot amaliyotida BaSO<sub>4</sub> rentgen-diagnostikada kontrast modda sifatida ishlataladi. Bariy ionlari organizmga toksik ta'sir ko'rsatadi, lekin u kislotalarda eriymaydigan (oshqozon shirasidagi HCl da) tuz, u organizmga tushganda ichakda so'rilmaydi va organizmga zaharli ta'sir ko'rsatmaydi.

### Boshlang'ich bilim darajasi:

1. Qaytar va qaytmas reaksiyalar.
2. Kam eriydigan birikmalar hosil bo'lish reaksiyalarining ionli tenglamalari.
3. Massalar ta'siri qonuni; kimyoviy muvozanat.
4. Kimyoviy muvozanatni siljitim.
5. Kislota, asos va tuzlarning eruvchanligini ko'rsatuvchi jadvaldan foydalanishni bilish.

### Mustaqil tayyorlanish uchun o'quv adabiyotlar:

1. *N.L. Glinka*. Umumiy ximiya. T., 1979, 220- bet.
2. *X.R. Rahimov*. Anorganik ximiya. T., 1974, 95- bet.
3. *С.С. Оленин, Г.Н. Фадеев*. Неорганическая химия. М., 1979, 137- bet.
4. *И.К. Цитович*. Курс аналитической химии. М., 1985, 41- bet.
5. *Х.Н. Hakimov, A.Z. Tatarskaya, N.T. Olimxo'jayeva*. Umumiy kimyodan amaliy mashg'ulotlar. T., 1993, 111–117- betlar.

### Darsda ko'rildigan savollar:

1. Cho'ktirish va eritish jarayonlari.
2. Eruvchanlik ko'paytmasi konstantasi.
3. To'yingan, to'yinmagan va o'ta to'yingan eritmalar.
4. Cho'kmalarni eritma holatiga o'tkazish.
5. Cho'ktirish va eritish jarayonlarining tibbiyotdagi ahamiyati.

## MA'LUMOTLAR YIG'INDISI

### Cho'ktirish va eritish jarayonlari

Kuchli eletrolit eritmalarining nazariyasidan ma'lumki, suvda oz eriydigan kuchli elektrolitlar eritmaga molekula holatda o'tmasdan balki, alohida to'liq dissotsiyalangan ionlar holatida o'tadi. Shuning uchun bunday moddalarning to'yingan eritmalarida, erigan moddalarning ionlari bilan qattiq (cho'kmadagi) faza orasida dinamik muvozanat vujudga keladi. Masalan, AgCl ning to'yingan eritmasida, AgCl cho'kmasi bilan eritmadagi ionlari orasida muvozanat bo'ladi:



Bu muvozanat holati uchun massalar ta'siri qonunini qo'llab, muvozanat konstantasining ifodasi yoziladi:

$$K = \frac{c(\text{Ag}^+) \cdot c(\text{Cl}^-)}{c(\text{AgCl})}. \quad (2)$$

Qattiq fazadagi  $\text{AgCl}$  ning konsentratsiyasi ayni temperaturada turg'un qiymatga ega, shuning uchun (2) tenglamani quyidagicha yozish mumkin:

$$K \cdot c(\text{AgCl}) = c(\text{Ag}^+) \cdot c(\text{Cl}^-). \quad (3)$$

2 ta turg'un qiymatlar ko'paytmasi  $K \cdot c(\text{AgCl})$  ning hosilasi ham turg'un bo'ladi. Demak,

$$c(\text{Ag}^+) \cdot c(\text{Cl}^-) = \text{const.} \quad (4)$$

Shunday qilib, suvda oz eruvchi elektrolitlarning to'yingan eritmasida, ayni temperaturada erkin ionlar konsentratsiyalarining ko'paytmasi o'zgarmas qiymatdir. Bu qiymatga *elektrolitning eruvchanlik ko'paytmasi* deyiladi va  $EK(\text{AgCl})$  bilan ifoda etiladi.

Yuqoridagi (4) tenglamadan const qiymatini  $EK(\text{AgCl})$  bilan almashirilsa, ayni elektrolit uchun eruvchanlik ko'paytmasi ifodalananadi:

$$c(\text{Ag}^+) \cdot c(\text{Cl}^-) = EK(\text{AgCl}) = 1,56 \cdot 10^{-10}.$$

Agar oz eriydigan elektrolit eritmada bir necha ionlarga dissotsiatsiyalansa, ayni elektrolitning eruvchanlik ko'paytmasini ifodalash uchun tenglamada shu ionlarning stehiometrik koeffitsiyenti konsentratsiyasi darajasiga ko'tarilib yoziladi: Masalan, kumush xromat  $\text{Ag}_2\text{CrO}_4$  ning eruvchanlik ko'paytmasi:



$$c^2(\text{Ag}^+) \cdot c(\text{CrO}_4^{2-}) = EK(\text{Ag}_2\text{CrO}_4) = 9 \cdot 10^{-12}.$$

Yuqoridagi tushunchalarga asoslanib, shunday xulosaga kelish mumkin. Agar oz eriydigan elektrolit eritmadasidagi ionlar konsentratsiyalarining ko'paytmasi o'zgarmas temperaturada ayni elektrolitning eruvchanlik ko'paytmasi qiymatiga teng bo'lsa, *to'yingan eritma* hosil bo'ladi:

$$c(\text{Ag}^+) \cdot c(\text{Cl}^-) = EK(\text{AgCl}).$$

Agar oz eriydigan elektrolit eritmadasidagi erkin ionlar konsentratsiyalarining ko'paytmasi o'zgarmas temperaturada ayni elektrolitning eruvchanlik ko'paytmasi qiymatidan kichik bo'lsa, *to'yinmagan eritma* hosil bo'ladi. Bunday sharoitda elektrolit yana erishi mumkin va cho'kma hosil bo'lmaydi:

$$c(\text{Ag}^+) \cdot c(\text{Cl}^-) < EK(\text{AgCl}).$$

Agar oz eriydigan elektrolit eritmasidegi erkin ionlar konsentratsiyalarining ko‘paytmasi o‘zgarmas temperaturada ayni elektrolitning eruvchanlik ko‘paytmasi qiyamatidan katta bo‘lsa, o‘ta to ‘yingan eritma hosil bo‘lib, elektrolit cho‘kmaga tushadi:

$$c(\text{Ag}^+) \cdot c(\text{Cl}^-) > EK(\text{AgCl}).$$

Moddalarning eruvchanlik ko‘paytmasi qiyamatidan foydalanib ayni moddalarning suvda erish qobiliyati haqida xulosa chiqarish mumkin.

Moddalarning  $EK$  qiymati qancha kichik bo‘lsa, elektrolit shuncha oz eriydi:

$$EK(\text{AgCl}) = c(\text{Ag}^+) \cdot c(\text{Cl}^-) = 1,78 \cdot 10^{-10},$$


$$EK(\text{AgBr}) = c(\text{Ag}^+) \cdot c(\text{Br}^-) = 5,3 \cdot 10^{-13},$$

$$EK(\text{AgI}) = c(\text{Ag}^+) \cdot c(\text{I}^-) = 8,3 \cdot 10^{-17}.$$


$\text{AgI}$  eng kam eriydi.  $EK$  qiymatiga ko‘ra eritmadiagi ion konsentratsiyalari ko‘paytmasi  $EK$  qiyamatidan katta bo‘lgandagina cho‘kmaga tushadi. Eritmada bir necha xil ionlar bo‘lganda, eng kam eriydigan birikma birinchi navbatda cho‘kmaga tushadi. Masalan,  $\text{Cl}^-$ ,  $\text{Br}^-$ ,  $\text{I}^-$  aralashmasiga  $\text{AgNO}_3$  qo‘shilganda dastlab  $\text{AgI}$  cho‘kmaga tushadi, keyin  $\text{AgBr}$  va eng so‘ngida  $\text{AgCl}$  cho‘kmaga tuchadi. Shunday qilib, birikmalarning eruvchanlik ko‘paytmasini bilgan holda reaksiya yo‘nalishini belgilash mumkin, bu esa kimyoiy analiz olib borishda juda katta ahamiyatga ega. Kam eriydigan elektrolitlarning eruvchanligi temperaturaga bog‘liq.

Boshqa moddalalar ta’sirida reaksiya muhitini o‘zgartirib, cho‘ktirish reaksiyalari muvozanatini siljitim mumkin.

Analiz olib borishda suvda yomon eriydigan moddalarni eritmaga o‘tkazish masalasi ham ahamiyatga ega. Cho‘kmani eritish uchun uning erishida hosil bo‘layotgan ionlarning hech bo‘lmaganda bittasining konsentratsiyasini kamaytirish kerak. Bunga qo‘shiladigan reaktiv ioni yordamida to‘yingan eritmadiagi ionlarning birini kam dissotsilanadigan birikma tarzida bog‘lash yo‘li bilan erishiladi. Masalan,  $\text{Mg(OH)}_2$  ning xlorid kislotada erishini quyidagicha tasvirlash mumkin:



Uning molekula va ionlari orasidagi muvozanat buziladi va muvozanat o‘ngga siljiydi. Buning natijasida cho‘kmaning erishi ro‘y beradi. Xuddi shunday  $\text{Mg(OH)}_2$  ni  $\text{NH}_4\text{OH}$  da erishini ham tushuntirish mumkin:



Ervchanlik ko'paytmasi haqidagi qoidaning ahamiyati shundaki, bu qoidaga asoslanib, kimyoviy reaksiyalar natijasida hosil bo'layotgan moddalarni qaysi holatlarda cho'kmaga tushish yoki cho'kmadan eritmaga o'tish sharoitlari aniqlanadi.

Elektrolitlar ervchanlik ko'paytmalarining qiymatlariga asoslanib, ularning ervchanligi hisoblanadi yoki elektrolitning ervchanligi ma'lum bo'lsa, ularning ervchanlik ko'paymasini hisoblash mumkin.

### Mavzu bo'yicha masalalar va ularni yechish namunalarini

**1- masala.** Quyida keltirilgan holatlarning qaysi birida kam eriydigan elektrolit  $\text{CaCO}_3$  eritmasi to'yinmagan:

$$\begin{aligned} c(\text{Ca}^{2+}) \cdot c(\text{CO}_3^{2-}) &= EK(\text{CaCO}_3), \\ c(\text{Ca}^{2+}) \cdot c(\text{CO}_3^{2-}) &< EK(\text{CaCO}_3), \\ c(\text{Ca}^{2+}) \cdot c(\text{CO}_3^{2-}) &> EK(\text{CaCO}_3)? \end{aligned}$$

**Yechish.**  $\text{CaCO}_3$  eritmasi  $c(\text{Ca}^{2+}) \cdot c(\text{CO}_3^{2-}) < EK(\text{CaCO}_3)$  bo'l-ganda to'yinmagan bo'ladi va bunday eritmada cho'kma hosil bo'lmaydi.

**2- masala.** Tarkibida  $\text{Mg}^{2+}$ ,  $\text{Fe}^{2+}$ ,  $\text{Cu}^{2+}$  ionlari bo'lgan eritmaga  $\text{NaOH}$  eritmasi qo'shilsa, avval qaysi gidroksid hosil bo'ladi?

**Yechish.** Bu savolga javob berish uchun ko'rsatilgan gidroksid-larning ervchanlik ko'paytmasi konstantalari qiymatini bilish kerak, ularning qiymati esa har birining ervchanligini ko'rsatadi:

$$\begin{aligned} EK(\text{Mg(OH)}_2) &= 6,0 \cdot 10^{-10}, \\ EK(\text{Fe(OH)}_2) &= 1,0 \cdot 10^{-15} \\ EK(\text{Cu(OH)}_2) &= 5,0 \cdot 10^{-20}. \end{aligned}$$

$EK$  qiymatidan ko'rindaniki, avval cho'kmaga  $\text{Cu}(\text{OH})_2$ , keyin  $\text{Fe}(\text{OH})_2$  va so'ngra eng oxirida  $\text{Mg}(\text{OH})_2$  tushadi.


**3- masala.** Quyidagi reaksiya qaysi yo'nalishda borishini aniqlang:



**Yechish:**

$$EK(\text{SrSO}_4) = 4 \cdot 10^{-8}; \quad EK(\text{SrCO}_3) = 1,1 \cdot 10^{-10}.$$

Shunday qilib,  $\text{SrCO}_3$ ,  $\text{SrSO}_4$  ga nisbatan kam eruvchan ekan. Shuning uchun reaksiya chapdan o'ngga qarab ketadi:



**4- masala.**  $20^{\circ}\text{C}$  da  $\text{PbI}_2$  ning eruvchanligi  $1,3 \cdot 10^{-3} \text{ mol/l}$  ga teng. Shu birikmaning eruvchanlik ko'paytmasi konstantasini toping.


**Berilgan:**

$$c(\text{PbI}_2) = 1,3 \cdot 10^{-3} \text{ mol/l}$$

$$EK(\text{PbI}_2) = ?$$

**Yechish:**

Har bir mol  $\text{PbI}_2$  erishidan eritmada 1 mol  $\text{Pb}^{2+}$  va 2 mol  $\text{I}^-$  hosil bo'ladi. Shunday qilib, bu tuzning to'yangan eritmasida quyidagi muvozanat qaror topadi:



Bundan,  $c(\text{Pb}^{2+}) = 1,3 \cdot 10^{-3} \text{ mol/l}$ ,  $c(\text{I}^-) = 2,6 \cdot 10^{-3} \text{ mol/l}$ ;

$$EK(\text{PbI}_2) = c(\text{Pb}^{2+}) \cdot c^2(\text{I}^-) = 1,3 \cdot 10^{-3} \cdot (2,6 \cdot 10^{-3})^2 = 8 \cdot 10^{-9}.$$

$$Javob: EK(\text{PbI}_2) = 8 \cdot 10^{-9}.$$

### Mavzuni o'zlashtirishni mustaqil nazorat qilish uchun savol va masalalar

- Qaysi holatda  $\text{CaCO}_3$  ning erishi kuzatiladi?
- Qaysi holatda  $\text{PbI}_2$  elektrolit eritmasi to'yangan, to'yinmagan va o'ta to'yangan bo'ladi?
- $\text{PbI}_2$  elektrolitning  $c(\text{Pb}^{2+})$  konsentratsiyasi 2 marta oshirilganda va  $c(\text{I}^-)$  2 marta kamaytirilganda  $c(\text{Pb}^{2+})$  va  $c^2(\text{I}^-)$  qiymatining ko'paytmasi qanday o'zgaradi?
- Natriy va kалиy tuzlari – xloridlar, bromidlar, yodidlar farmatsevtik preparat bo'lib xizmat qiladi.  $\text{Cl}^-$ ,  $\text{Br}^-$ ,  $\text{I}^-$  ionlari saqlagan eritmaga  $\text{AgNO}_3$  ta'sir ettirilganda  $\text{AgCl}$ ,  $\text{AgBr}$ ,  $\text{AgI}$  tuzlari qanday tartibda cho'kmaga tushadi?
- Me'da shirasasi kislotaligi ko'payganda kislota miqdorini kamaytiruvchi vosita sifatida suvda erimaydigan, lekin me'da shirasidagi  $\text{HCl}$  da eriydigan  $\text{CaCO}_3$  ishlataladi. Bu preparatni  $\text{CaSO}_4$  ga  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  ta'sir ettirib olish mumkinmi?

6. Me'da shirasida kislota ko'payganda  $MgO$  ishlataladi, u suvda deyarli erimaydi, lekin suyultirilgan mineral kislotalarda eriydi. Bu preparatning ta'siri nimaga bog'liqligini tushuntiring.

### Vaziyatli masalalar

**1- masala.** 1 / to'yingan eritmada  $6,3 \cdot 10^{-3}$  g kalsiy karbonat bo'ladi. Eruvchanlik ko'paytmasi konstantasini hisoblang.

$$\text{Javob: } EK(\text{CaCO}_3) = 6,3 \cdot 10^{-9}.$$

**2- masala.** Oz eriydigan  $\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2$  birikmasining eruvchanlik ko'paytmasi konstantasini keltirib chiqaring. U qaysi omillarga bog'liq va qaysilariga bog'liq emas?


$$\text{Javob: } EK(\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2) = c^3(\text{Ca}^{2+}) \cdot c^2(\text{PO}_4^{3-})$$

### Test savollari

1. Oz eriydigan  $\text{BaSO}_4$  ning eruvchanlik ko'paytmasi konstantasi to'g'ri keltirilgan javobni ko'rsating.

- a)  $EK(\text{BaSO}_4) = c(\text{Ba}^{2+}) \cdot c(\text{SO}_4^{2-})$
- b)  $EK(\text{BaSO}_4) = c^2(\text{Ba}^{2+}) \cdot c(\text{SO}_4^{2-})$
- c)  $EK(\text{BaSO}_4) = c(\text{Ba}^{2+}) \cdot c^2(\text{SO}_4^{2-})$
- d)  $EK(\text{BaSO}_4) > c(\text{Ba}^{2+}) \cdot c^2(\text{SO}_4^{2-})$

2. Quyidagi reaksiyaning yo'nalishini aniqlang:



$$EK(\text{CaCO}_3) = 4,8 \cdot 10^{-9}, \quad EK(\text{CaSO}_4) = 9,1 \cdot 10^{-6}.$$

- a) chapdan o'ngga;
- b) o'ngdan chapga;
- c) muvozanat qaror topadi;
- d) reaksiya sodir bolmaydi.

3. Qaysi holatda  $\text{BaSO}_4$  cho'kma eriydi?

- a)  $EK(\text{BaSO}_4) = c(\text{Ba}^{2+}) \cdot c(\text{SO}_4^{2-})$
- b)  $EK(\text{BaSO}_4) > c(\text{Ba}^{2+}) \cdot c(\text{SO}_4^{2-})$
- c)  $EK(\text{BaSO}_4) < c(\text{Ba}^{2+}) \cdot c(\text{SO}_4^{2-})$
- d)  $EK(\text{BaSO}_4) = c(\text{Ba}^{2+}) \cdot c^2(\text{SO}_4^{2-})$

4. Kam eriydigan  $\text{Sr}_3(\text{PO}_4)_2$  ning eruvchanlik ko'paytmasi konstantasi to'g'ri keltirilgan javobni ko'rsating.

- a)  $EK(\text{Sr}_3(\text{PO}_4)_2) = c^3(\text{Sr}^{2+}) \cdot c^2(\text{PO}_4^{3-})$   
 b)  $EK(\text{Sr}_3(\text{PO}_4)_2) = c^2(\text{Sr}^{2+}) \cdot c^3(\text{PO}_4^{3-})$   
 d)  $EK(\text{Sr}_3(\text{PO}_4)_2) = c^2(\text{Sr}^{2+}) \cdot c(\text{PO}_4^{3-})$   
 e)  $EK(\text{Sr}_3(\text{PO}_4)_2) = c(\text{Sr}^{2+}) \cdot c(\text{PO}_4^{3-})$

5. To‘yingan eritmani ko‘rsating.

- a)  $c^2(\text{Ag}^+) \cdot c(\text{CrO}_4^{2-}) = EK(\text{Ag}_2\text{CrO}_4)$   
 b)  $c^2(\text{Ag}^+) \cdot c(\text{CrO}_4^{2-}) > EK(\text{Ag}_2\text{CrO}_4)$   
 d)  $c^2(\text{Ag}^+) \cdot c(\text{CrO}_4^{2-}) < EK(\text{Ag}_2\text{CrO}_4)$   
 e)  $c(\text{Ag}^+) \cdot c(\text{CrO}_4^{2-}) = EK(\text{Ag}_2\text{CrO}_4)$


6. To‘yinmagan eritmani ko‘rsating.

- a)  $c^2(\text{Ag}^+) \cdot c(\text{CrO}_4^{2-}) = EK(\text{Ag}_2\text{CrO}_4)$   
 b)  $c^2(\text{Ag}^+) \cdot c(\text{CrO}_4^{2-}) > EK(\text{Ag}_2\text{CrO}_4)$   
 d)  $c^2(\text{Ag}^+) \cdot c(\text{CrO}_4^{2-}) < EK(\text{Ag}_2\text{CrO}_4)$   
 e)  $c(\text{Ag}^+) \cdot c^2(\text{CrO}_4^{2-}) = EK(\text{Ag}_2\text{CrO}_4)$ .

7. O‘ta to‘yingan eritmani ko‘rsating.

- a)  $c^2(\text{Ag}^+) \cdot c(\text{CrO}_4^{2-}) = EK(\text{Ag}_2\text{CrO}_4)$   
 b)  $c^2(\text{Ag}^+) \cdot c(\text{CrO}_4^{2-}) > EK(\text{Ag}_2\text{CrO}_4)$   
 d)  $c^2(\text{Ag}^+) \cdot c(\text{CrO}_4^{2-}) < EK(\text{Ag}_2\text{CrO}_4)$   
 e)  $c(\text{Ag}^+) \cdot c(\text{CrO}_4^{2-}) = EK(\text{Ag}_2\text{CrO}_4)$

8. Quyidagi reaksiyaning yo‘nalishini aniqlang.



- a) chapdan o‘ngga;      d) muvozanat qaror topadi;  
 b) o‘ngdan chapga;      e) reaksiya sodir bo‘lmaydi.

9. Quyidagi moddalarning qaysi biri eng oz eriydi?

- a)  $EK(\text{AgCl}) = 1,78 \cdot 10^{-10}$   
 b)  $EK(\text{AgBr}) = 5,3 \cdot 10^{-13}$   
 d)  $EK(\text{AgI}) = 8,3 \cdot 10^{-17}$   
 e)  $EK(\text{Ag}_2\text{SO}_4) = 7,7 \cdot 10^{-5}$

10. Oz eriydigan  $\text{CaCO}_3$  ning eruvchanlik ko‘paytmasi konstantasi to‘g‘ri keltirilgan javobni ko‘rsating.


- $EK(\text{CaCO}_3) = c(\text{Ca}^{2+}) \cdot c(\text{CO}_3^{2-})$
- $EK(\text{CaCO}_3) = c^2(\text{Ca}^{2+}) \cdot c(\text{CO}_3^{2-})$
- $EK(\text{CaCO}_3) = c(\text{Ca}^{2+}) \cdot c^2(\text{CO}_3^{2-})$
- $EK(\text{CaCO}_3) > c(\text{Ca}^{2+}) \cdot c^2(\text{CO}_3^{2-}).$

## LABORATORIYA ISHI

### Kam eriydigan elektrolitlarning olinishi va xossalalarini o‘rganish

#### **1- tajriba. Kam eriydigan birikmalarining hosil bo‘lishi**

Quyidagi tajribalarni probirkada bajaring:



Kam eriydigan birikmalar hosil bo‘lish reaksiyalarining molekular, to‘liq ion va qisqa ion tenglamalarini yozing, ranglarini belgilang.

#### **2- tajriba. Bir ion vositasida bir necha oz eriydigan birikmalar hosil bo‘lishi.**

3 ta probirkaga 2–3 tomchidan qo‘rg‘oshin nitrat eritmasini soling: birinchisiga 3–4 tomchi kaliy yodid, ikkinchisiga 3–4 tomchi kaliy xromat, uchinchisiga esa 3–4 tomchi kaliy xlorid soling. Hosil bo‘lgan oz eriydigan birikmalar rangini belgilang. Reaksiyalarning ion elektron tenglamalarini yozing. Cho‘kmalarining qaysi biri ko‘proq (kamroq) eriydi?

#### **3- tajriba. Muvozanatni oz eriydigan birikmalar hosil bo‘lish tomoniga siljитish.**

Probirkaga 2–3 tomchi kaliy xromat eritmasini soling, 1–2 tomchi kumush nitrat eritmasidan qo‘sning, probirkadagi aralashmaga 2–3 tomchi kaliy xlorid qo‘sning. Cho‘kma va eritma rangi qanday o‘zgaradi? Reaksiyaning ion-molekular tenglamasini tuzing. Bitta oz eriydigan birikmaning boshqasiga o‘tishini asoslab bering.

$$EK(\text{Ag}_2\text{CrO}_4) = 1,1 \cdot 10^{-12}; EK(\text{AgCl}) = 1,78 \cdot 10^{-10}.$$

Ervchanlik:  $\text{Ag}_2\text{CrO}_4 = 1 \cdot 10^{-4} \text{ mol/l}$ ;  $\text{AgCl} = 1,28 \cdot 10^{-5} \text{ mol/l}$ .

#### **4- tajriba. Cho'kmanning erish shartlari. EK kattaligining cho'kmanning erishiga ta'siri.**

3 ta probirkaga 2–3 tomchidan kumush nitrat soling. Birinchisiga 2–3 tomchi kaliy xlorid, ikkinchisiga 2–3 tomchi kaliy bromid, uchinchisiga 2–3 tomchi kaliy yodid eritmalaridan qo'shing. Cho'kmalar rangini belgilang. Har bir probirkadagi cho'kmaga 3–4 tomchidan ammiak eritmasi qo'shing. Qaysi holatda cho'kma tezroq eriydi? Nima uchun? Qaysi birikma cho'kmasi amalda erimaydi? Oz eriydigan kumush birikmalarining hosil bo'lish va ammiakda erish reaksiyalarining ion-molekular tenglamalarini yozing.

#### **5- tajriba. Ba'zi amfoter gidrosidlarning olinishi va xossalari.**

2 ta probirkaga 3–4 tomchidan qo'rg'oshin nitrat soling, har biriga oz eriydigan qo'rg'oshin gidrosid hosil bo'lguncha 1–2 tomchi ishqor eritmasi qo'shing. Qo'rg'oshin gidrosid xususiyatini tushuntiring. Reaksiyalarining ion-molekular tenglamalarini yozing. Xrom (III) sulfat bilan xuddi shunday tajriba o'tkazing.

### **CHO'KTIRISH USULI. ARGENTOMETRIYA USULI. MOR USULI**

**Mashg'ulotning maqsadi.** Cho'kma hosil bo'lishi bilan boradigan reaksiyalar qonuniyatlarini bilgan holda eritmada xlorid ionlarining miqdorini aniqlashni o'rganish.

**O'rGANILAYOTGAN MAVZUNING AHAMIYATI.** Klinik analizda cho'ktirish usullari siyidik, me'da shirasi, qondagi xloridlar miqdorini aniqlashda keng qo'llanadi. Sanitariya-gigienik tajribalarda ichimlik suvining analizida ham shu usullardan foydalilanildi.

Xloridlar ( $\text{NaCl}$ ,  $\text{KCl}$  va boshqalar) mineral suv tarkibida uchraydi. Bu tuzlar organizmdagi hujayra va to'qimalarning asosiy tarkibiy qismini tashkil etadi. Natriy xlorid (osh tuzi) odam organizmi uchun ayniqsa keraklidir. Bu tuz qonda, to'qimalardagi suyuqliklar tarkibida bo'lib, me'da shirasida xlorid kislotaning hosil bo'lishida ishtirok etadi. Natriy xloridning qondagi konsentratsiyasi 0,5–0,6% bo'ladi. Organizmda natriy xloridning yetishmasligi natijasida to'qimalar suvsizlanadi, oqibatda qon aylanish sistemasi buziladi. Organizmning bir sutkada osh tuziga bo'lgan ehtiyoji katta kishilar uchun 12–15 g ga teng. Tirik organizmda tuzning etishmasligi hayot uchun xavflidir.  $\text{NaCl}$  tuzining tashqaridan organizmga yetarli miqdorda kirmasligi natijasida organizm turli kasalliklarga uchraydi. Bunday holatlarda tuzning

organizmdagi normal miqdorini saqlash uchun bemorga natriy xlorid eritmasi yuboriladi. Bemor ko'p miqdorda qon yo'qtoganda, to'xtovsiz qayt qilgan hollarida, organizm suvsizlanib qolganda natriy xloridning 0,86% li eritmasi tomchilatib vena orgali yuboriladi.

Lekin tuzning organizm talabidan ortiqcha miqdorda iste'mol qilinishi yurak va buyrakning normal faoliyatini buzadi. Oqibatda organizmda suyuqlikning ushlanib qolishi natijasida shish paydo bo'ladi, bu esa organizmda qon to'qimalari faoliyatining buzilishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham ba'zi bir kasalliklarni davolashda iste'mol qilinuvchi tuzning miqdori chegaralab qo'yiladi. Tuzsiz parhez giper-toniya, buyrak va yurak kasalliklarini davolashda yaxshi natija beradi. Tuzsiz parhezda sutkasiga 5–6 g tuz iste'mol qilinishi yetarli deb hisoblanadi.

Klinik analizda qon, siydik va me'da shirasi tarkibidagi xloridlar miqdorini aniqlashda hamda galogen saqlagan dori-darmon preparatlarini analiz qilishda cho'ktirish usulidan foydalaniladi. Siydik tarkibidagi xlorid miqdorining o'zgarishi, shu organizmda paydo bo'lgan patologik o'zgarishlardan xabar beradi. Bir sutkada odamdan 1000 ml dan 1600 ml/gacha siydik va 500 ml/gacha ter ajraladi. Normal organizmda ajraladigan siydikning o'rtacha miqdori erkaklar uchun 1300 m/bo'lib, ayollar uchun 1200 m/ ga teng. Ajralgan siydik tarkibidagi natriy xloridning o'rtacha miqdori 10–15 g ni tashkil qiladi. Buyrak funksiyasi buzilganda siydikdagi natriy xlorid miqdori o'zgaradi. Shuning uchun klinik analizda siydik tarkibidagi natriy xlorid miqdorini aniqlash diagnostik ahamiyat kasb etadi. Bu analiz Mor usuli bilan olib boriladi.

### **Boshlang'ich bilim darajasi:**

1. Elektrolitik dissotsiatsiya.
2. Kuchli va kuchsiz elektrolitlar.
3. Eruvchanlik ko'paytmasi.

### **Mustaqil tayyorlanish uchun o'quv adabiyotlar:**

1. V.N.Alekseev. Miqdoriy analiz. M., 1972.
2. К.А. Селезнёв. Аналитическая химия. М., 1973, 216- bet.
3. И.К. Цитович. Курс аналитической химии. М., 1985, 253- br.
4. А.В. Бабков, Г.Н. Горшкова, А.М. Кононов. Практикум общей химии с элементами количественного анализа. № 123- bet.

### **Darsda ko'rildigani savollar:**

1. Argentometrik titrlash usulining nazariy
2. Laboratoriya ishining nazariy asoslari.

- 2.1. Kimyoviy reaksiya tenglamasi.
- 2.2. Indikatorning ta'sir mexanizmi.
- 2.3. Laboratoriya ishini bajarish uslubi.
- 2.4. Hisoblash formulalar.
- 2.5. Olingan natijalardan xulosa chiqarish.
3. Mor usulining tibbiyotda qo'llanishi.

## MA'LUMOTLAR YIG'INDISI

Argentometrik titrlash usuli – Mor usuli – miqdoriy analiz usullaridan biri bo'lib, titrlashda qiyin eriydigan birikmalar hosil bo'ladigan reaksiyalarni qo'llashga asoslangan. Bu usulda biror (ion) moddani cho'kmaga tushurib uning miqdori aniqlanadi.

Cho'ktirish usuli bilan aniqlashda moddalar bir-biri bilan ekvivalent miqdorda reaksiyaga kirishadi, shuning uchun tekshirilayotgan moddalarni cho'ktirishga sarf bo'lgan ishchi eritmaning hajmini aniq bilgan holda tekshirilayotgan eritmadagi moddaning miqdorini hisoblash mumkin.




Mor usuli kumush ionining galogen ionlari  $\text{Cl}^-$ ,  $\text{Br}^-$ ,  $\text{I}^-$  bilan birikib qiyin eruvchi kumush galogenidlar holida cho'kma hosil qilish reaksiyasiga asoslangan. Bu usulda boradigan asosiy reaksiya tenglamasi quyidagicha:



bu yerda  $\text{Gl} = \text{Cl}^-$ ,  $\text{Br}^-$ ,  $\text{I}^-$ .

Ishchi eritma sifatida kumush nitrat  $\text{AgNO}_3$  dan foydalaniladi. Bu usulda reaksiya oxiridagi ekvivalent nuqtani aniqlash uchun indikator sifatida kaliy xromat  $\text{K}_2\text{CrO}_4$  eritmasi ishlataladi.  $\text{K}_2\text{CrO}_4$  kumush ionlari bilan birikib, qizil  $\text{Ag}_2\text{CrO}_4$  i kumush xromat  $\text{Ag}_2\text{CrO}_4$  cho'kmasini ayotgan eritmadagi xloridlar miqdorini

$\text{O}_4^-$  indikator ishtirotida kumush nitrat uyidagi reaksiyalar ketma-ketlikda boradi:



ning ikkalasi ham qiyin eruvchi vvalo eritmadagi barcha  $\text{Cl}^-$  ionlari

bu  $\text{AgCl}$  oq cho'kmaga tushib a ortiqcha xlor ionlari qolmagan-

ж.  
№ 1978,  
а.,

асослari. Mor usuli.

dan keyin, reaksiyaning oxiridagi ekvivalent nuqtada, ortiqcha qo'shilgan  $\text{AgNO}_3$  ning bir tomchi eritmasidagi  $\text{Ag}^+$  ioni, indikatorning xromat  $\text{CrO}_4^{2-}$  ioni bilan birikib, qizil g'isht rangli kumush xromat cho'kma hosil bo'ladi. Avval oq rangli  $\text{AgCl}$  cho'kmani keyin esa qizil g'isht rangli  $\text{Ag}_2\text{CrO}_4$  cho'kmani tushishiga sabab,  $\text{AgCl}$  ning eruvchanligi ( $1,25 \cdot 10^{-5}$  g-ion/l)  $\text{Ag}_2\text{CrO}_4$  ning eruvchanligiga ( $6,5 \cdot 10^{-5}$  g-ion/l) nisbatan ozligidir.  $\text{AgCl}$  cho'kmasini hosil qilish uchun

$$c(\text{Ag}^+) \cdot c(\text{Cl}^-) > EK(\text{AgCl})$$

bo'lishi kerak.


$\text{Ag}_2\text{CrO}_4$  cho'kmasining hosil bo'lishiga  $\text{Ag}^+$  ionlarning konsentratsiyasi nisbatan oz sarf bo'ladi:

$$c^2(\text{Ag}^+) \cdot c(\text{CrO}_4^{2-}) > EK(\text{Ag}_2\text{CrO}_4)$$


$\text{AgCl}$  cho'kmasining hosil bo'lishi eritmada xlor ionlarining konsentratsiyasi  $1,25 \cdot 10^{-5}$  g-ion/l ga teng bo'lguncha davom etadi.

Mor usuli bilan titrlashni faqat neytral yoki kuchsiz ishqoriy muhitda olib boriladi, chunki:

a) ishqoriy muhitda quyidagi reaksiya bo'yicha  $\text{Ag}^+$  ioni qo'ng'ir rangli  $\text{Ag}_2\text{O}$  holida cho'kmaga tushadi:



b) kislotali muhitda  $\text{Ag}_2\text{CrO}_4$  yaxshi eriydi va kuchsiz xromat kislotasi hosil bo'ladi:



d) ammiakli muhitda esa  $\text{AgCl}$  va  $\text{Ag}_2\text{CrO}_4$  cho'kmalari erishi natijasida kumush ammiakli kompleks tuzlari hosil bo'ladi.

Mor usuli bilan analiz qilinganda titrlashni xona temperaturasida olib boriladi, chunki temperatura ortishi bilan  $\text{Ag}_2\text{CrO}_4$  cho'kmasining eruvchanlik ko'paytmasi qiymati ortadi va indikatorning  $\text{Ag}^+$  ioniga bo'lgan sezgirligi kamayadi. Titrlash davomida quyidagi tartibga albatta rivoja qilish kerak: byuretkaga  $\text{AgNO}_3$  eritmasini quyib, bu eritma bilan kolbadagi tekshirilayotgan eritma titrlanadi, reaksiya oxirida cho'kma rangining yaqqol o'zgaganligini ko'rib, ekvivalent nuqtani xatosiz belgilanadi.

Mor usulining asosiy kamchiliklari quyidagilardan iborat:

1. Tekshirilayotgan eritmada to'sqinlik qiluvchi  $\text{Ba}^{2+}$ ,  $\text{Pb}^{2+}$ ,  $\text{B}^{3+}$ ,  $\text{PO}_4^{3-}$ ,  $\text{CO}_3^{2-}$ ,  $\text{CrO}_4^{2-}$  ionlarining bo'lmasligi shart.

2. Bu usul bilan yodid va rodanidlar miqdorini aniqlab bo'lmaydi, chunki kumush yo'did rodanidlar bilan xromat  $\text{CrO}_4^{2-}$  ionlarining orasidagi adsorbsiya hodisasi tufayli analiz noto'g'ri natijalar beradi.

Argentometriya usuli ayrim kamchiliklarga ega: kumush tuzlari qimmat va nodir birikmalardir. Shuning uchun bu usuldan foydalalishda reaksiya chiqindilarini yig'ib, undan kumushni qaytadan ajratib olinadi.

Argentometriya usuli klinik analizda biologik suyuqliklar tarkibidagi galogenid ionlar miqdorini aniqlashda keng qo'llanadi.

### Mavzu bo'yicha masalalar va ularni yechish namunasi

**1- masala.** Osh tuzining 20,00 ml molyar konsentratsiyasi 0,0501 mol/l bo'lgan eritmasini titrlash uchun 19,64 ml kumush nitrat eritmasi sarf bo'lди. Kumush nitrat eritmasining molyar konsentratsiyasi va titrini aniqlang.


**Berilgan:**

$$\begin{aligned} V(\text{NaCl}) &= 20,00 \text{ ml} \\ c(\text{NaCl}) &= 0,0501 \text{ mol/l} \\ V(\text{AgNO}_3) &= 19,64 \text{ ml} \\ M(\text{AgNO}_3) &= 170 \text{ g/mol} \end{aligned}$$

$$c(\text{AgNO}_3) = ? \quad t(\text{AgNO}_3) = ?$$

**Yechish:**

Analiz asosida quyidagi reaksiya yotadi:



1. Ekvivalentlar qonuga asoslanib  $\text{AgNO}_3$  ning ekvivalent molyar konsentratsiyasi aniqlanadi:

$$c(\text{AgNO}_3) = \frac{V(\text{NaCl}) \cdot c(\text{NaCl})}{V(\text{AgNO}_3)} \text{ mol/l},$$

$$c(\text{AgNO}_3) = \frac{20,00 \cdot 0,0501}{19,64} \frac{\text{ml} \cdot \text{mol}}{\text{ml} \cdot \text{l}} = 0,0510 \frac{\text{mol}}{\text{l}}.$$

Eritmaning titri aniqlanadi:

$$t(\text{AgNO}_3) = \frac{c(\text{AgNO}_3) \cdot M(\text{AgNO}_3)}{1000} \frac{\text{g}}{\text{ml}},$$

$$t(\text{AgNO}_3) = \frac{0,0510 \cdot 170}{1000} \frac{\text{mol} \cdot \text{g}}{\text{ml} \cdot \text{mol}} = 0,008673 \frac{\text{g}}{\text{ml}}.$$

*Javob:*  $c(\text{AgNO}_3) = 0,0510 \text{ mol/l}; \quad t(\text{AgNO}_3) = 0,008673 \text{ g/ml}.$

**2-masala.** 5,00 ml kaliy bromid eritmasini titrlash uchun 6,32 ml 0,0504 mol/l konsentratsiyali kumush nitrat eritmasi sarflandi. Kaliy bromidning ekvivalent molyar konsentratsiyasi va titrini aniqlang.

**Berilgan:**

$$V(\text{KBr}) = 5,00 \text{ ml}$$

$$c(\text{AgNO}_3) = 0,0504 \text{ mol/l}$$


$$V(\text{AgNO}_3) = 6,32 \text{ ml}$$

$$M(\text{KBr}) = 119 \text{ g/mol}$$

$$c(\text{KBr}) = ? \quad t(\text{KBr}) = ?$$

**Yechish:**

Analiz asosida quyidagi reaksiya yotadi:



$$f_{\text{ekv.}}(\text{AgNO}_3) = 1; \quad f_{\text{(ekv.)}}(\text{KBr}) = 1.$$

I. Ekvivalentlar qonuniga asoslanib  $\text{AgNO}_3$  ning ekvivalent molyar konsentratsiyasi aniqlanadi:

$$c(\text{KBr}) = \frac{V(\text{AgNO}_3) \cdot c(\text{AgNO}_3)}{V(\text{KBr})} \frac{\text{mol}}{\text{l}},$$

$$c(\text{KBr}) = \frac{6,32 \cdot 0,0504 \text{ ml} \cdot \text{mol}}{5,00 \text{ l} \cdot \text{ml}} = 0,0637 \frac{\text{mol}}{\text{l}}.$$

Eritmaning titri aniqlanadi:

$$t(\text{KBr}) = \frac{c(\text{KBr}) \cdot M(\text{KBr})}{1000} \frac{\text{g}}{\text{ml}},$$

$$t(\text{KBr}) = \frac{0,0637 \cdot 119}{1000} \frac{\text{mol} \cdot \text{g}}{\text{ml} \cdot \text{mol}} = 0,007581 \frac{\text{g}}{\text{ml}}.$$

*Javob:*  $c(\text{AgNO}_3) = 0,0637 \text{ mol/l}; \quad t(\text{AgNO}_3) = 0,007581 \text{ g/ml}.$

**Mavzuni o'zlashtirishni mustaqil nazorat qilish uchun,  
savol va masalalar**

1. Mor usulida qanday indikator qo'llanadi?
2. Indikatorning ta'sir mexanizmini tushuntiring.
3. Mor usulida analiz qanday muhitda olib boriladi?
4. Osh tuzining 10,00 m/molyar konsentratsiyasi 0,0100 mol/l bo'lgan eritmasini titrlash uchun 9,60 ml kumush nitrat eritmasi sarf bo'ldi. Kumush nitrat eritmasining molyar konsentratsiyasi va titrini aniqlang.
5. Mor usulining tibbiyotdagi ahamiyati.

### Vaziyatli masalalar

1. Kumush nitrat  $\text{AgNO}_3$  yoki «lyapis» bakteritsid kuydiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Uning 10,00 ml ini titrlaganda 12,50 ml ekvivalent molyar konsentratsiyasi 0,0485 mol/l bo'lgan  $\text{NaCl}$  eritmasi sarflandi. Kumush nitrat eritmasining ekvivalent molyar konsentratsiyasini aniqlang.

Javob:  $c(\text{AgNO}_3) = 0,0606 \text{ mol/l}$ .

2. Suyultirilgan xlorid kislota me'da shirasi kislotaliligi kamligida ishlataladi. Preparatning haqiqiyligi  $\text{AgNO}_3$  yordamida aniqlanadi. Bunda boradigan reaksiya tenglamasini yozing. 5,0 g 8,4% li (massa jihatidan)  $\text{HCl}$  eritmasidagi xlor ionini to'la cho'ktirish uchun  $\text{AgNO}_3$  dan necha gramm olish kerak?

Javob:  $m(\text{AgNO}_3) = 1,96 \text{ g}$ .

### Test savollari


1.  $\text{Ag}_2\text{CrO}_4$  cho'kmasining rangini ko'rsating:

- a) sariq;    b) qizil;    d) oq;    e) g'isht rangli-qizil.

2. Mor usulida qanday indikator qo'llanadi?

- |   |                               |
|---|-------------------------------|
| a) $\text{Ag}_2\text{CrO}_4$ ;  | d) $\text{K}_2\text{CrO}_4$ ; |
| b) $\text{NH}_4\text{Fe}(\text{SO}_4)_2 \cdot 12\text{H}_2\text{O}$ ; | e) $\text{Ag CrO}_4$ .        |

3. Quyidagi reaksiyaning yo'nalishini aniqlang:



$$EK(\text{CaCO}_3) = 4,8 \cdot 10^{-9}; \quad EK(\text{CaSO}_4) = 9,1 \cdot 10^{-6}.$$

- a) chapdan o'ngga;    d) muvozanat qaror topadi;  
b) o'ngdan chapga;    e) reaksiya sodir bolmaydi.

4. Oz eriydigan  $\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2$  ning eruvchanlik ko'paytmasi konstantasi to'g'ri keltirilgan javobni ko'rsating.

- a)  $EK(\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2) = c^3(\text{Ca}^{2+}) \cdot c^2(\text{PO}_4^{3-})$   
 b)  $EK(\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2) = c^2(\text{Ca}^{2+}) \cdot c^3(\text{PO}_4^{3-})$   
 d)  $EK(\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2) = c^2(\text{Ca}^{2+}) \cdot c(\text{PO}_4^{3-})$   
 e)  $EK(\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2) = c(\text{Ca}^{2+}) \cdot c(\text{PO}_4^{3-})$

5. To'yingan eritmani ko'rsating:

- a)  $EK(\text{BaSO}_4) = c(\text{Ba}^{2+}) \cdot c(\text{SO}_4^{2-})$

- b)  $EK(\text{BaSO}_4) < c(\text{Ba}^{2+}) \cdot c(\text{SO}_4^{2-})$   
 d)  $EK(\text{BaSO}_4) < c(\text{Ba}^{2+}) \cdot c^2(\text{SO}_4^{2-})$   
 e)  $EK(\text{BaSO}_4) = c(\text{Ba}^{2+}) \cdot c^2(\text{SO}_4^{2-})$


6. To'yinmagan eritmani ko'rsating:

- a)  $EK(\text{BaSO}_4) = c(\text{Ba}^{2+}) \cdot c(\text{SO}_4^{2-})$   
 b)  $EK(\text{BaSO}_4) > c(\text{Ba}^{2+}) \cdot c(\text{SO}_4^{2-})$   
 d)  $EK(\text{BaSO}_4) < c(\text{Ba}^{2+}) \cdot c(\text{SO}_4^{2-})$   
 e)  $EK(\text{BaSO}_4) = c(\text{Ba}^{2+}) \cdot c^2(\text{SO}_4^{2-})$

5. O'ta to'yingan eritmani ko'rsating:

- a)  $EK(\text{BaSO}_4) = c(\text{Ba}^{2+}) \cdot c(\text{SO}_4^{2-})$   
 b)  $EK(\text{BaSO}_4) > c(\text{Ba}^{2+}) \cdot c(\text{SO}_4^{2-})$   
 d)  $EK(\text{BaSO}_4) < c(\text{Ba}^{2+}) \cdot c(\text{SO}_4^{2-})$   
 e)  $EK(\text{BaSO}_4) = c(\text{Ba}^{2+}) \cdot c^2(\text{SO}_4^{2-})$

8. Quyidagi reaksiya yo'nalishini aniqlang:



$$EK(\text{Ag}_2\text{SO}_4) = 7,7 \cdot 10^{-5}; \quad EK(\text{Ag}_2\text{CO}_3) = 6,2 \cdot 10^{-2}$$

- a) chapdan o'ngga;                    d) o'ngdan chapga;  
 b) muvozanat qaror topadi;        e) reaksiya sodir bolmaydi.

9. Quyidagi moddalarning qaysi biri eng oz eriydi?

- a)  $EK(\text{AgCl}) = 1,78 \cdot 10^{-10};$       d)  $EK(\text{AgI}) = 8,3 \cdot 10^{-17};$   
 b)  $EK(\text{AgBr}) = 5,3 \cdot 10^{-13};$       e)  $EK(\text{Ag}_2\text{SO}_4) = 7,7 \cdot 10^{-5}.$

10. Kam eriydigan  $\text{BaCO}_3$  ning eruvchanlik ko'paytmasi konstantasi to'g'ri keltirilgan qatorni ko'rsating.

- a)  $EK(\text{BaCO}_3) = c(\text{Ba}^{2+}) \cdot c(\text{CO}_3^{2-})$   
 b)  $EK(\text{BaCO}_3) = c^2(\text{Ba}^{2+}) \cdot c(\text{CO}_3^{2-})$   
 d)  $EK(\text{BaCO}_3) = c(\text{Ba}^{2+}) \cdot c^2(\text{CO}_3^{2-})$   
 e)  $EK(\text{BaCO}_3) > c(\text{Ba}^{2+}) \cdot c^2(\text{CO}_3^{2-})$

## LABORATORIYA ISHI

### 1. Mor usuli bilan kumush nitrat eritmasining ekvivalent molyar konsentratsiyasi va titrini aniqlash

Byuretkaga  $\text{AgNO}_3$  eritmasi solinadi. Titrash uchun mo'ljallangan kolbaga pi petka yordamida konsentratsiyasi ma'lum bo'lgan  $\text{NaCl}$  eritmasidan 5 ml solib, unga 2–3 tomchi  $\text{K}_2\text{CrO}_4$  eritmasi qo'shiladi va eritmani byuretkadagi  $\text{AgNO}_3$  eritmasi bilan titrlanadi. Titrash davomida eritma aralashtirilib turiladi. Eritmaning rangi bug'doy rangga o'tguncha titrash davom ettiriladi. Tajriba 3 marta takrorlanadi. Bajarilgan ish natijalarini jadvalga yoziladi.

Tartib raqami	$V(\text{NaCl})$ , ml	$c(\text{NaCl})$ , mol/l	Indikator	$V(\text{AgNO}_3)$ , ml	$c(\text{AgNO}_3)$ , mol/l	$t$ , g/ml
1						
2						
3						
O'rtacha qiymati						

Kumush nitratning ekvivalent molyar konsentratsiyasi va titri quyidagi formula bilan hisoblanadi :

$$c(\text{AgNO}_3) = \frac{V(\text{NaCl}) \cdot c(\text{NaCl})}{V(\text{AgNO}_3)}, \text{ mol/l},$$

$$t(\text{AgNO}_3) = \frac{c(\text{AgNO}_3) \cdot M(\text{AgNO}_3)}{1000}, \text{ g/ml}.$$

### 2. Siydkdag'i $\text{NaCl}$ massasini nazorat analitik aniqlash

Titrash uchun mo'ljallangan kolbagapi petkayordamida ma'lum hajm (o'qituvchi nazorat ish sifatida beradi) analiz uchun mo'ljallangan siydk solinadi. Uning ustiga 5 tomchi 5% li  $\text{K}_2\text{CrO}_4$  solib astasekin aralashtirib turib  $\text{AgNO}_3$  ning titrlangan eritmasi bilan barqaror qizil g'isht rangli tus paydo bo'lguncha titrlanadi.

Tajriba 3 marta takrorlanadi. Bajarilgan ish natijalarini jadvalga yoziladi.

Tartib raqami	$V_{\text{siydk}}, \text{ml}$	$c(\text{AgNO}_3), \text{mol/l}$	$V(\text{AgNO}_3), \text{ml}$	$c(\text{NaCl}), \text{mol/l}$	$m(\text{NaCl}), \text{g}$	Indikator
1						
2						
3						
O'rtacha qiymati						

Yaqin keladigan natijalardan o'rtacha arifmetik qiymatni olib, siydkagi NaCl massasi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$m(\text{NaCl}) = \frac{c(\text{AgNO}_3) \cdot V(\text{AgNO}_3) \cdot M(\text{NaCl})}{1000}, \text{ g} ,$$

$M(\text{NaCl})$  – NaCl ning molyar massasi;  $M(\text{NaCl}) = 58,5 \text{ g/mol}$ .

Bir kecha-kunduzgi siydk tarkibidagi NaCl miqdori quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$m'(\text{NaCl}) = \frac{m(\text{NaCl})}{V_{\text{siydk}}} \cdot 1300, \text{ g} .$$



## CHO'KTIRISH USULI. TIOTSIANOMETRIK TITRLASH. FOLGARD USULI

**Mashg'ulotning maqsadi.** Cho'kma hosil bo'lishi bilan boradigan reaksiyalar qonuniyatlarini bilgan holda eritmadagi xlorid ionlarining miqdorini aniqlashni o'rganish.

**O'rganilayotgan mavzuning ahamiyati:** Klinik analizda cho'ktirish usullari siydk, me'da shirasasi, qondagi xloridlar miqdorini aniqlashda keng qo'llanadi. Sanitariya-gigienik tajribalarda ichimlik suvini analiz qilishda ham shu usullardan foydalilanadi.

Klinik analizda siydk va me'da shirasidagi xloridlarning miqdorini aniqlashda hamda galogen saqlagan dori-darmon preparatlarni analiz qilishda cho'ktirish usulidan foydalilanadi. Bu analizlarni bajarishda kumush nitratning titrlangan eritmasi ishlatiladi.

### Boshlang'ich bilim darajasi:

1. Elektrolitik dissotsiatsiya.
2. Kuchli va kuchsiz elektrolitlar.
3. Eruvchanlik ko'paytmasi.

### Mustaqil tayyorlanish uchun o'quv adabiyotlar:

1. V.N.Alekseyev. Miqdoriy analiz. M., 1972.
2. K.A. Селезнёв. Аналитическая химия. М., 1973, 216- bet.

3. И.К. Цитович. Курс аналитической химии. М., 1985, 253- bet.
4. А.В. Бабков, Г.Н. Горшкова, А.М. Кононов. Практикум по общей химии с элементами количественного анализа. М., 1978, 123- bet.

### Darsda ko‘riladigan savollar:

1. Argentometrik titrlash usulining nazariy asoslari.
2. Laboratoriya ishining nazariy asoslari.
  - 2.1. Kimyoviy reaksiya tenglamasi.
  - 2.2. Indikatorning ta’sir mexanizmi.
  - 2.3. Laboratoriya ishining bajarish uslubi.
  - 2.4. Hisoblash formulalari.
  - 2.5. Olingan natijalardan xulosa chiqarish.
3. Folgard usulining tibbiyotda qo‘llanishi.

## 5

### MA’LUMOTLAR YIG‘INDISI

Cho‘ktirish usullari cho‘kma (oz eriydigan moddalar) hosil bo‘lishi bilan boradigan reaksiyaga asoslangan. Bu usulda qo‘llanadigan reaksiyalarga asosiy talab *EK* (eruvchanlik ko‘paytmasi) qiymati kichik bo‘lgan moddalarning hosil bo‘lishidir. Cho‘ktirish usullari asosan kumush, galogenidlar va sianidlar miqdorini aniqlashda ishlataladi. Folgard usulida kumush nitrat bilan ammoniy yoki kaliy tiotsianat to‘g‘ridan-to‘gri titrланади. Indikator sifatida tarkibida  $\text{Fe}^{3+}$  ioni saqlaydigan temirammoniyli achchiqtosh  $\text{NH}_4\text{Fe}(\text{SO}_4)_2 \cdot 12\text{H}_2\text{O}$  ning to‘yin-gan eritmasi qo‘llanadi. Folgard usuli asosida kumush ioni bilan rodanid ionlarining birikib suvda yomon eruvchi oq rangli kumush rodanid cho‘kmasi hosil bo‘lish reaksiyasi yotadi:



Eritmada kumush nitratning ortiqcha miqdori qoladi. Eritmada ortib qolgan  $\text{Ag}^+$  ionlarini indikator-temir ammoniyli achchiqtosh  $\text{NH}_4\text{Fe}(\text{SO}_4)_2 \cdot 12\text{H}_2\text{O}$  ishtirokida ammoniy rodanid bilan titrланади. Bu tuzni indikator sifatida qo‘llash sababini quyidagicha tushuntiriladi. Tekshirilayotgan eritmadiagi kumush  $\text{Ag}^+$  ioni tomchilab qo‘shilayotgan ammoniy rodanid eritmadiagi rodanid  $\text{CNS}^-$  ioni bilan kumush rodanid  $\text{AgCNS}$  oq cho‘kmasini hosil qiladi. Eritmadagi  $\text{Ag}^+$  va  $\text{CNS}^-$  ionlari reaksiyaga kirishib,  $\text{Ag}^+$  ioni tugagan vaqtidan boshlab, ortiqcha tomgan bir tomchi  $\text{NH}_4\text{CNS}$  bilan indikator tarkibidagi temir  $\text{Fe}^{3+}$  ioni reaksiyaga kirishadi va qizil g‘isht rangli temir rodanid hosil bo‘ladi:



Folgard usulining Mor usulidan afzalligi shundaki, bu usulda reaksiyani kislotali muhitda olib borish mumkin. Ma'lumki, 3 valentli temir ionining tuzlari neytral muhitda qisman gidrolizga uchraydi:



Bu esa eritma rangining o'z-o'zidan o'zgarishiga olib keladi. Shunga ko'ra,  $\text{Fe}^{3+}$  tuzining eritmadiagi gidrolizlanish reaksiyasini orqaga qaytarish uchun reaksiya kislotali muhitda olib boriladi.

Folgard usuli bilan eritma tarkibidagi galogen, rodanid va kumush ionlarining miqdorini aniqlashda, ayni eritmada boshqa ionlarning bo'lishi to'sqinlik qilmaydi.

### Mavzu bo'yicha masalalar va ularni yechish namunalari

**1- masala.** Blennoreya kasalligining oldini olish uchun chaqaloqlar ko'ziga kumush nitratning suyultirilgan eritmasi tomiziladi. 10,00 ml kumush nitrat eritmasini titrlash uchun ekvivalent molyar konsentrasiyasi 0,05010 mol/l bo'lgan 22,10 ml ammoniy rodanid eritmasi sarflandi. Kumush nitrat eritmasining titrini aniqlang.

#### Berilgan:

$$V(\text{AgNO}_3) = 10,00 \text{ ml}$$

$$V(\text{NH}_4\text{SCN}) = 22,10 \text{ ml}$$


$$c(\text{NH}_4\text{SCN}) = 0,05010 \text{ mol/l}$$

$$M(\text{AgNO}_3) = 169,9 \text{ g/mol}$$

$$t(\text{AgNO}_3) = ?$$

#### Yechish:

1. Reaksiya tenglamasi:



$$f_{\text{ekv}}(\text{AgNO}_3) = 1; f_{\text{ekv}}(\text{NH}_4\text{SCN}) = 1.$$

2. Eritmaning titri topiladi:

$$t(\text{AgNO}_3) = \frac{c(\text{AgNO}_3) \cdot M(\text{AgNO}_3)}{1000},$$

$$c(\text{AgNO}_3) = \frac{c(\text{NH}_4\text{SCN}) \cdot V(\text{NH}_4\text{SCN})}{V(\text{AgNO}_3)},$$

bundan

$$t(\text{AgNO}_3) = \frac{169,9 \cdot 22,10 \cdot 0,05010}{1000 \cdot 10,00} \frac{\text{g} \cdot \text{l} \cdot \text{mol}}{\text{mol} \cdot \text{l} \cdot \text{ml}} = 0,01881 \frac{\text{g}}{\text{ml}}$$

Javob:  $t(\text{AgNO}_3) = 0,01881 \text{ g/ml}.$

**2- masala.** Otolaringologiyada antiseptik vosita sifatida protargol ishlataladi. Uning tarkibida kumush nitrat bo'ladi. Kumush nitratning massa ulushi 5% bo'lgan 1 l protargol ( $\rho = 1,00 \text{ g/ml}$ ) tayyorlash uchun necha gramm kumush nitrat kerak?

**Berilgan:**

$$\begin{aligned}\omega(\%) &= 5\% \\ V &= 1 \text{ l} = 1000 \text{ ml} \\ \rho &= 1,00 \text{ g/ml}\end{aligned}$$


---

$$m(\text{AgNO}_3) = ?$$

**Yechish:**

1. Eritmaning massasi aniqlanadi:

$$\begin{aligned}m(\text{eritma}) &= V(\text{eritma}) \cdot \rho \\ m(\text{eritma}) &= 1000 \text{ ml} \cdot 1,00 \text{ g/ml} = 1000 \text{ g}\end{aligned}$$

2. Eritmadagi  $\text{AgNO}_3$  massasi aniqlanadi:

$$\omega\% = \frac{m(\text{AgNO}_3)}{m(\text{eritma})} \cdot 100\%,$$

$$m(\text{AgNO}_3) = \frac{\omega\% \cdot m(\text{eritma})}{100\%},$$

$$m(\text{AgNO}_3) = \frac{5 \cdot 1000}{100} \frac{\% \cdot \text{g}}{\%} = 50 \text{ g}.$$

Javob:  $m(\text{AgNO}_3) = 50 \text{ g.}$

### Mavzuni o'zlashtirishni mustaqil nazorat qilish uchun savol va masalalar

1. Folgard usuli asosida qanday reaksiya yotadi?
2. Folgard usulida indikatorning ta'sir mexanizmini tushuntiring.
3. Tibbiyotda kumush nitrat – lyapis yaralarni kuydirish maqsadida qo'llanadi. 0,2 g lyapisni eritib titrlash uchun 10,20 ml ekvivalent molyar konsentratsiyasi 0,0520 mol/l ammoniy tiotsianatdan sarflandi. Lyapisdagi kumush nitratning massa ulushini aniqlang.
4. 10,00 ml kumush nitrat eritmasini titrlash uchun 7,80 ml ekvivalent molyar konsentratsiyasi 0,4800 mol/l kaliy tiotsianat sarf bo'ldi. Eritmadagi kumush nitrat massasini aniqlang.
5. Folgard usulining Mor usulidan qanday farqi bor?
6. Folgard usuli tibbiyotda qo'llanadimi? .

## Vaziyatli masalalar

**1- masala.** 15,00 ml kumush nitrat eritmasini titrlash uchun 17,25 ml ekvivalent molyar konsentratsiyasi 0,0502 mol/l bo'lgan ammoniy rodanid eritmasi sarflangan. 200 ml kumush nitrat eritmasidagi tuzning massasini aniqlang.

Javob:  $m(\text{AgNO}_3) = 1,9628 \text{ g.}$

**2- masala.** Surunkali gastritni davolashda kumush nitratning suyultirilgan eritmasi qo'llanadi. 100,00 ml kumush nitrat eritmasini titrlash uchun 3,10 ml ekvivalent molyar konsentratsiyasi 0,05020 mol/l ammoniy rodanid eritmasi sarflandi. Kumush nitrat eritmasining ekvivalent molyar konsentratsiyasi va titrini aniqlang.

Javob:  $c(\text{AgNO}_3) = 0,001556 \text{ mol/l}; t(\text{AgNO}_3) = 0,0002643 \text{ g/ml.}$

## Test savollari

1. AgSCN cho'kmasingning rangini ko'rsating:  
a) sariq; b) qizil; d) oq; e) qizil g'isht rangli.
2. Fe(CNS)<sub>3</sub> cho'kmasingning rangini ko'rsating:  
a) sariq; b) qizil; d) oq; e) qizil g'isht rangli.
3. Oz eriydigan BaCrO<sub>4</sub> ning eruvchanlik ko'paytmasi konstantasi to'g'ri keltirilgan javobni ko'rsating.  
a)  $EK(\text{BaCrO}_4) = c(\text{Ba}^{2+}) \cdot c(\text{CrO}_4^{2-})$   
b)  $EK(\text{BaCrO}_4) = c^2(\text{Ba}^{2+}) \cdot c(\text{CrO}_4^{2-})$   
d)  $EK(\text{BaCrO}_4) = c(\text{Ba}^{2+}) \cdot c^2(\text{CrO}_4^{2-})$   
e)  $EK(\text{BaCrO}_4) > c(\text{Ba}^{2+}) \cdot c(\text{CrO}_4^{2-})$
4. Quyidagi reaksiyaning yo'nalishini aniqlang:  

$$\text{CaCO}_3 + (\text{NH}_4)_2\text{SO}_4 \rightleftharpoons \text{CaSO}_4 + (\text{NH}_4)_2\text{CO}_3$$

$$EK(\text{CaCO}_3) = 4,8 \cdot 10^{-9}; EK(\text{CaSO}_4) = 9,1 \cdot 10^{-6}.$$
  
a) chapdan o'ngga; d) muvozanat qaror topadi;  
b) o'ngdan chapga; e) reaksiya sodir bolmaydi.
5. Folgard usulida titrlashni qanday muhitda olib boriladi?  
a) kislotali; d) neytral;  
b) ishqoriy; e) kislotali va ishqoriy.

6. Qaysi holda  $\text{BaSO}_4$  cho'kma eriydi?

- a)  $EK(\text{BaCrO}_4) = c(\text{Ba}^{2+}) \cdot c(\text{CrO}_4^{2-})$
- b)  $EK(\text{BaCrO}_4) > c(\text{Ba}^{2+}) \cdot c(\text{CrO}_4^{2-})$
- c)  $EK(\text{BaCrO}_4) < c(\text{Ba}^{2+}) \cdot c(\text{CrO}_4^{2-})$
- e)  $EK(\text{BaCrO}_4) = c^2(\text{Ba}^{2+}) \cdot c(\text{CrO}_4^{2-})$

7. Oz eriydigan  $\text{Sr}_3(\text{PO}_4)_2$  ning eruvchanlik ko'paytmasi konstantasi to'g'ri keltirilgan javobni ko'rsating.

- a)  $EK(\text{Sr}_3(\text{PO}_4)_2) = c^3(\text{Sr}^{2+}) \cdot c^2(\text{PO}_4^{3-})$
- b)  $EK(\text{Sr}_3(\text{PO}_4)_2) = c^2(\text{Sr}^{2+}) \cdot c^3(\text{PO}_4^{3-})$
- d)  $EK(\text{Sr}_3(\text{PO}_4)_2) = c^2(\text{Sr}^{2+}) \cdot c(\text{PO}_4^{3-})$
- e)  $EK(\text{Sr}_3(\text{PO}_4)_2) = c(\text{Sr}^{2+}) \cdot c(\text{PO}_4^{3-})$

8. To'yingan eritmani ko'rsating:

- a)  $c(\text{Ba}^{2+}) \cdot c(\text{CrO}_4^{2-}) = EK(\text{BaCrO}_4)$
- b)  $c(\text{Ba}^{2+}) \cdot c(\text{CrO}_4^{2-}) > EK(\text{BaCrO}_4)$
- d)  $c(\text{Ba}^{2+}) \cdot c(\text{CrO}_4^{2-}) < EK(\text{BaCrO}_4)$
- e)  $c^2(\text{Ba}^{2+}) \cdot c(\text{CrO}_4^{2-}) = EK(\text{BaCrO}_4)$

9. To'yinmagan eritmani ko'rsating:

- a)  $c(\text{Ba}^{2+}) \cdot c(\text{CrO}_4^{2-}) = EK(\text{BaCrO}_4)$
- b)  $c(\text{Ba}^{2+}) \cdot c(\text{CrO}_4^{2-}) > EK(\text{BaCrO}_4)$
- d)  $c(\text{Ba}^{2+}) \cdot c(\text{CrO}_4^{2-}) < EK(\text{BaCrO}_4)$
- e)  $c^2(\text{Ba}^{2+}) \cdot c(\text{CrO}_4^{2-}) = EK(\text{BaCrO}_4)$

10. O'ta to'yingan eritmani ko'rsating:

- a)  $c(\text{Ba}^{2+}) \cdot c(\text{CrO}_4^{2-}) = EK(\text{BaCrO}_4)$
- b)  $c(\text{Ba}^{2+}) \cdot c(\text{CrO}_4^{2-}) > EK(\text{BaCrO}_4)$
- d)  $c(\text{Ba}^{2+}) \cdot c(\text{CrO}_4^{2-}) < EK(\text{BaCrO}_4)$
- e)  $c^2(\text{Ba}^{2+}) \cdot c(\text{CrO}_4^{2-}) = EK(\text{BaCrO}_4)$

## LABORATORIYA ISHI

### **Folgard usuli bo'yicha siyidik tarkibidagi NaCl miqdorini aniqlash**

**Tajriba.** Titrlash uchun mo'ljallangan kolbagapi petkayordamida 4 ml siyidik olib ustiga kislotali muhit hosil qilish uchun 4 ml molyar konsentratsiyasi 4 mol// HNO<sub>3</sub> eritmasi qo'shiladi va 8 ml AgNO<sub>3</sub> ning ishchi eritmasidan solib uning ustiga 5 tomchi indikator NH<sub>4</sub>Fe(SO<sub>4</sub>)<sub>2</sub> · 12H<sub>2</sub>O qo'shiladi. Bunda AgNO<sub>3</sub> ning bir qismi siyidik tarkibidagi xloridlar bilan oq rangli cho'kma hosil qiladi. Ortib qolgan AgNO<sub>3</sub> eritmasi NH<sub>4</sub>CNS eritmasi bilan qizil gisht rang hosil bo'lguncha titrlanadi. Titrlashni 3 marta takrorlab, NH<sub>4</sub>CNS ning o'rtacha hajmi aniglanadi. Hisoblashni NH<sub>4</sub>CNS ning o'rtacha hajmining qiymati bilan olib boriladi.

Tar. raq.	V <sub>siyidik</sub> ml	c(AgNO <sub>3</sub> ) mol/l	Indikator NH <sub>4</sub> Fe(SO <sub>4</sub> ) <sub>2</sub> · 12H <sub>2</sub> O	c(NH <sub>4</sub> CNS), mol/l	V(NH <sub>4</sub> CNS) ml	t <sub>NaCl</sub> , g/ml	g <sub>NaCl</sub>
1							
2							
3							
O'rtacha qiymati							

Masalan, 4,00 ml tekshirilayotgan eritmaga (siyidik) 8,00 ml 0,0190 molyarli AgNO<sub>3</sub> ning titrlash uchun 3,50 ml 0,0200 molyarlik NH<sub>4</sub>CNS eritmasidan sarf bo'lgan bo'lsa, hisoblash quyidagicha bajariladi:

1. AgNO<sub>3</sub> eritmasi bilan reaksiyaga kirishgan NH<sub>4</sub>CNS ning hajmi topiladi:

$$c(\text{NH}_4\text{CNS}) \cdot V(\text{NH}_4\text{CNS}) = c(\text{AgNO}_3) \cdot V(\text{AgNO}_3),$$

$$V(\text{AgNO}_3) = \frac{c(\text{NH}_4\text{CNS}) \cdot V(\text{NH}_4\text{CNS})}{c(\text{AgNO}_3)} = \frac{0,0200 \cdot 3,50}{0,0190} \frac{\text{mol} \cdot \text{ml} \cdot l}{l \cdot \text{mol}} = 3,68 \text{ ml}.$$

2. Analiz qilinayotgan eritmadiagi xlorid ionlari bilan reaksiyaga kirishgan AgNO<sub>3</sub> eritmasining hajmi topiladi:

$$8,00 \text{ ml} - 3,68 \text{ ml} = 4,32 \text{ ml}.$$

3. Analiz gilinayotgan eritmaning konsentratsiyasi aniqlanadi:

$$c(\text{NaCl}) = \frac{c(\text{AgNO}_3) \cdot V(\text{AgNO}_3)}{V(\text{NaCl})} = \frac{0,0190 \cdot 4,32 \text{ mol} \cdot \text{ml}}{4,00 \text{ l} \cdot \text{ml}} = 0,0205 \text{ mol/l}.$$

4. Analiz gilinayotgan eritmaning titri aniqlanadi:

$$t(\text{NaCl}) = \frac{0,0205 \cdot 58,5}{1000} \frac{\text{mol} \cdot \text{g}}{\text{ml} \cdot \text{mol}} = 0,001199 \text{ g/ml}.$$

5. Bir sutkada ajralayotgan 1300 ml siyidikdagagi natrui xloridning miqdori:

$$g(\text{NaCl}) = 0,001199 \cdot 1300 \frac{\text{g} \cdot \text{ml}}{\text{ml}} = 1,5589 \text{ g}.$$

Analiz qilishdan oldin siyidikni 10 marta suyultirilgan edi, shuning uchun bu miqdor 10 ga ko'paytiriladi:

$$g(\text{NaCl}) = 1,5589 \text{ g} \cdot 10 = 15,59 \text{ g}.$$


Erkaklar va ayollar organizmidan bir sutkada ajraladigan siyidikdagagi NaCl ning o'rtacha miqdorini quyidagicha hisoblanadi:

$$\begin{aligned} g_{\text{erkaklarda}} &= t \cdot 1300 \cdot 10 = 0,001199 \cdot 1300 \cdot 10 = 15,587 \text{ g}, \\ g_{\text{ayollarda}} &= t \cdot 1200 \cdot 10 = 0,001199 \cdot 1200 \cdot 10 = 14,388 \text{ g}. \end{aligned}$$


## OKSIDLANISH-QAYTARILISH REAKSIALARI. REDOKS POTENSIALNI ANIQLASH

**Mashg'ulotning maqsadi.** Biologik sistemalarda kechadigan oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining borish imkoniyatlari va ularga sistemali yondoshishni o'rGANISH.

**O'rganilayotgan mavzuning ahamiyati.** Tirik organizmda kechadigan biokimyoiy jarayonlarning ko'pchiligi oksidlanish-qaytarilish jarayonlaridir, shuning uchun tibbiyot amaliyotida oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining borish qonuniyatlarini o'rGANISH va ularni biologik sistemalarga tatbiq etish zarur. Biokimyoiy reaksiyalarni tushuntirish va asoslab berishda redoks potensialni bilib ishlatish organizmda boradigan oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarni boshqarish imkonini beradi. Tarkibida hayot uchun zarur bo'lgan metallar – temir, mis, kobalt, molibden va boshqa moddalar saqlaydigan metall-fermentlar tomonidan amalga oshiriladigan biokimyoiy oksidlanish-qaytarilish jarayonlarida kislород atomi elektron qabul qilib, gidrooksguruhlarga o'tishi, vodorod va gidrid ionlarning ajralishi va boshqa jarayonlar ro'y beradi. O'simliklarda fotosintez, tirik organizmlarda esa nafas olish eng ahamiyatli bioredoks jarayonlardir. Fotosintezda quyosh energiyasining yig'ilishi (akkumulyatsiyasi) CO<sub>2</sub> ning qaytarilishi va O<sup>2-</sup> ning oksidlanishi hisobiga quyidagi reaksiya bo'yicha sodir bo'ladi:



Odam va hayvon organizmida glyukozaning oksidlanishi va kislo-rodning qaytarilishi yig'ilgan energiyaning ajralib chiqishi bilan boradi:



### Boshlang'ich bilim darajasi:

1. Birikmalarda elementlarning oksidlanish darajasini aniqlash.
2. Reaksiyalarning molekular va ionli shakllarini tuzish.
3. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini tuzish va elektron muvozanat usulida koefitsientlar tanlash.

### Mustaqil tayyorlanish uchun o'quv adabiyotlar:

1. *N.L.Glinka*. Umumiy ximiya. Т., 1968, 241- bet.
2. *X.Rustamov*. Umumiy ximiya. Т., 1969, 140- bet.
3. *И.К.Цитович*. Курс аналитической химии. М., 1985, 271-bet.
4. *А.В.Бабков, Г.Н.Горшкова, А.М.Кононов*. Практикум по общей химии с элементами количественного анализа. М., 1978, 135- bet.
5. *X.H. Hakimov, A.Z. Tatarskaya, N. T. Olimxo'jayeva*. Umumiy kimyodan amaliy mashg'ulotlar. Т., 1993, 77–91- betlar.
6. *S.S.Qosimova, S.M.Masharipov, Q.O.Najimov*. Umumiy va bioorganik kimyodan amaliy mashg'ulotlar. Т., 2001, 54–56- betlar.


### Darsda ko'rildigan savollar:

1. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini.
2. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining turlari.
3. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalariga muhitning ta'siri.
4. Oksidlovchi va qaytaruvchilarning ekvivalent molyar massasini aniqlash.
5. Redoks potensiali va uning tibbiyotdagi ahamiyati.
6. Nernst tenglamasi.

## MA'LUMOTLAR YIG'INDISI


### Oksidlanish-qaytarilish reaksiyaları

Reaksiyaga kiruvchi moddaalr tarkibidagi atomlarning oksidlanish darajasi o'zgarishi bilan boradigan reaksiyalar *oksidlanish-qaytarilish reaksiyaları* deyiladi. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida elektronlarning bir molekula atom yoki ionlardan boshqalariga o'tishi kuzatiladi. Elektron berish jarayoni *oksidlanish*, elektron qabul qilish esa *qaytarilish jarayoni* deyiladi:




Oksidlanishda atom (ion)ning musbat oksidlanish darajasi ortadi, qaytarilishda esa kamayadi. Oksidlanish va qaytarilish jarayonlari bir-biri bilan uzviy bog'liq. Elektron qabul qilib olgan molekula atom yoki ionlar *oksidlovchi* (u elektron qabul qilib qaytariladi), elektron beradiganlari (yo'qtadiganlari) – *qaytaruvchi* (u elektron berib oksidlanadi) deyiladi. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining quyidagi turlari mavjud:


**1. Molekulalararo oksidlanish-qaytarilish.** Bu jarayonda oksidlovchi va qaytaruvchi turli molekulalar tarkibida bo'ladi:





**2. Ichki molekular oksidlanish-qaytarilish.** Bu jarayonda molekula tarkibining bir qismi oksidlanadi, qolgan qismi qaytariladi. Bu turdag'i reaksiyalarga ko'pchilik termik parchalanish jarayonlari misol bo'la oladi.



**3. Disproporsiyalanish** (o'z-o'zini oksidlash – o'z-o'zini qaytarish). Bu jarayonda bir elementning o'zi ham oksidlanadi, ham qaytariladi.



**4. Sinproporsiyalanish.** Bu jarayonda molekulada bir elementning turli xil oksidlanish darajasidagi atomlari reaksiya natijasida bir hil oksidlanish darajasidagi birikmalarga aylanadi. Masalan:




Bunday reaksiyalarda sodir bo'ladigan vaziyat disproporsiyanishdagi holatning teskarisi bo'ladi.


Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida koeffitsiyent tanlash elektron balans usulida yoki ion-elektron usulda amalga oshiriladi.

Elektron balans usulini kaliy sulfitni kaliy permanganat ta'sirida oksidlanishi misolida ko'rish mumkin. Bu reaksiyada oksidlanish va qaytarilish mahsulotlari kechayotgan jarayon muhitiga bog'liq bo'ladi.

**1. Kislotali muhitda** marganes  $\text{Mn}^{7+}$  dan  $\text{Mn}^{2+}$  gacha qaytariladi:




Kaliy permanganat binafsha rangli marganes sulfatga o'tganda rangsizlanadi. Reaksiyaning elektron muvozanati tuziladi:




Bir reaksiyada qaytaruvchi beradigan va oksidlovchi qabul qiladigan elektronlar soni bir xil bo'lishi kerak. Shuning uchun ularning soni tenglashtiriladi va elektron tenglamalar jamlanadi.


Koeffitsiyentlarni qo'yib reaksiya tenglashtiriladi:




**2. Neytral muhitda** marganes  $\text{Mn}^{7+}$  dan  $\text{Mn}^{4+}$  gacha qaytariladi:




Binafsha rangli kaliy permanganat qo'ng'ir rangli marganes (IV) oksid cho'kmasigacha qaytariladi.




Koeffitsientlarni qo'yib reaksiya tenglashtiriladi:




3. Ishqoriy muhitda marganes Mn<sup>7+</sup> dan Mn<sup>6+</sup> gacha qaytariladi:



Binafsha rangli kaliy permanganat yashil tusli kaliy manganatgacha qaytariladi.




Koeffitsientlarni qo'yib reaksiya tenglashtiriladi:



Oksidlovchi va qaytaruvchilar doimo o'zaro ekvivalent miqdorda reaksiyaga kirishadi.

*Moddaning ekvivalenti* deb oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida moddaning bir elektronga ekvivalent miqdoriga aytildi, shuning uchun oksidlovchi yoki qaytaruvchi ekvivalent molyar massasi moddaning *bir molekulasi* qabul qiladigan yoki yo'qtodigan elektronlar sonidan hisoblab chiqariladi. Shunday qilib, oksidlovchi (qaytaruvchi)ning ekvivalent molyar massasi uning molyar massasini bir molekula oksidlovchi (qaytaruvchi) qabul qilgan (yo'qtgan) elektronlar nisbatiga teng. Masalan:



NaNO<sub>3</sub>ning ekvivalent molyar massasi:

$$M(1/3 \text{ NaNO}_3) = \frac{M(\text{NaNO}_3)}{3} = \frac{85}{3} = 28,33 \text{ g/mol},$$

$$M(1/1 \text{ FeSO}_4) = \frac{M(\text{FeSO}_4)}{1} = \frac{152}{1} = 152 \text{ g/mol}.$$

Bitta oksidlovchi yoki qaytaruvchining ekvivalent molyar massasi reaksiya sharoitiga (konsentratsiya va temperatura) va muhitiga bog'liq holda turlicha bo'ladi. Masalan, kaliy permanganatning ekvivalent molyar massasi kislotali muhitda molyar massasining 1/5 qismiga, neytral muhitda 1/3 qismiga, ishqoriy muhitda esa o'zining molyar massasiga teng.


## Redoks potensiali

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida oksidlovchi elektronni qabul qilib olib qaytariladi, qaytaruvchi – elektronni berib oksidlanadi. Oksidlovchi va qaytaruvchilarning oksidlanish-qaytarilish reaksiyalardagi o‘rnii ularning kuchiga bog‘liq. Buni tasdiqlash uchun quyidagi misollarni ko‘rib chiqish mumkin.



3 ta stakanga 3 xil tuz eritmalari quyilgan: birinchisiga  $\text{KMnO}_4$  eritmasi, ikkinchisiga  $\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$  eritmasi, uchinchisiga –  $\text{Fe}_2(\text{SO}_4)_3$  eritmasi. Kislotali muhit hosil qilish uchun har bir stakanga 0,1000 mol/l  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasi qo’shiladi.

1. Har bir stakanga KI eritmasi qo’shiladi. Uchala holda ham erkin  $\text{I}_2$  ajralib chiqishi kuzatiladi.



1.1. 1-stakanda reaksiya quyidagi tenglama bo‘yicha boradi:



1.2. 2- stakanda:




1.3. 3- stakanda:





2. 2- misolda stakandagi shunday eritmalarga KI o‘rniga KBr qo’shiladi.


2.1. 1- stakanda reaksiya quyidagi tenglama bo‘yicha boradi:



## 2.2. 2- stakanda:





## 2.3. 3- stakanda:




3. 3- misolda xuddi shu stakanlardagi berilgan eritmalarga KCl qo'shiladi.

Oxirgi misolda Cl<sub>2</sub> faqat 1- stakanda ajralib chiqadi. Keyingi 2 ta stakanda xlor ajralishi kuzatilmaydi:



Shunday qilib, 3 ta oksidlovchi — KMnO<sub>4</sub>, K<sub>2</sub>Cr<sub>2</sub>O<sub>7</sub>, Fe<sub>2</sub>(SO<sub>4</sub>)<sub>3</sub> dan eng kuchlisi — KMnO<sub>4</sub>, kuchsizi — Fe<sub>2</sub>(SO<sub>4</sub>)<sub>3</sub>.

Keltirilgan misollarda KI eng kuchli qaytaruvchi, KCl — kuchsiz qaytaruvchi, chunki u faqat eng kuchli oksidlovchi bilan reaksiyaga kirishadi:





Turli sistemalarning oksidlash-qaytarish xossasi ularning oksidlanish-qaytarilish (redoks) potensiali qiymati bilan belgilinadi.

Oksidlanish-qaytarilish potensiallari qiymatini bilgan holda reaksiya yo'nalishini oldindan aytib berish mumkin. Masalan, quyidagi moddalar orasida qanday jarayonlar amalga oshadi:

$$\begin{array}{ll} \text{Br}_2/2\text{Br}^- & E^\circ = 1,065 \text{ v} ; \\ \text{Fe}^{3+}/\text{Fe}^{2+} & E^\circ = 0,77 \text{ v} ; \\ \text{I}_2/2\text{I}^- & E^\circ = 0,54 \text{ v} ? \end{array}$$

Reaksiya yo'nalishini belgilash uchun quyidagi qoidaga amal qilinadi: standart potensial qiymati yuqori bo'lgan birikmalarining oksidlangan shakli standart potensial qiymati kichik bo'lgan birikmalarining qaytarilgan shakli bilan o'zaro ta'sirlashadi. Br<sub>2</sub>(E<sup>0</sup> = 1,065 v) I<sub>2</sub>(E<sup>0</sup> = 0,54 v) ga nisbatan kuchliroq oksidlovchi bo'lgani sababli u I<sub>2</sub><sup>0</sup> ni I<sup>-</sup> saqlovchi eritmalardan siqib chiqaradi. Shuning uchun quyidagi reaksiyalar borishi mumkin:



Elektrod potensiallari o‘zgaruvchan bo‘lib, ular moddaning oksidlangan va qaytarilgan shakllari konsentratsiyalari (aniqrog‘i, aktivliklari) nisbatiga, temperaturaga, erituvchining tabiatiga, muhit  $pH$ iga va boshqa omillarga bog‘liq.

Elektrod potensiali qiymatining oksidlangan va qaytarilgan shakllarining konsentratsiyasiga bog‘liqligi Nernst tenglamasi orqali ifodalanadi:

$$E = E^0 + \frac{0,058}{n} \lg \frac{c^x \text{ oksidlanish}}{c^y \text{ qaytarilish}},$$

$E^0$  – sistemaning standart redoks potensiali.

Agar  $c^x$  oksidlanish =  $c^y$  qaytarilish bo‘lsa, unda

$$\frac{c^x \text{ oksidlanish}}{c^y \text{ qaytarilish}} = 1, \lg 1 = 0,$$

unda  $E = E^0$ , ya’ni sistemaning redoks potensiali standart redoks potensialiga teng bo‘lib qoladi.





### Mavzu bo‘yicha masalalar va ularni yechish namunalarini

**1- masala.** Ushbu jarayonlarning qaysi birida azotning oksidlanishi va qaysi birida qaytarilishi ro‘y beradi: oksidlanish darajasi har bir holatda qanday o‘zgaradi?




#### Yechish:

Atomlarning elektron berish jarayoni oksidlanish deb ataladi, u oksidlanish darajasining ortishi bilan boradi. Atomlarning elektronni biriktirib olishi qaytarilish deyiladi, u oksidlanish darajasining pasayishiga olib keladi:



**2- masala.** Quyidagi reaksiya qaysi yo‘nalishda boradi:




**Yechish:**

Oksidlovchi va qaytaruvchining o‘zaro ta’siri reaksiyaga kirishayotgan moddalar standart redoks potensiali  $E^{\circ}$  (voltlarda ifodalanadi) qiymatiga bog‘liq: Masalan,


$$E^{\circ} \text{Fe}^{3+}/\text{Fe}^{2+} = 0,76 \text{ V}; E^{\circ} \text{I}_2/2\text{I}^- = 0,54 \text{ V}.$$

Qoidaga muvofiq, redoks potensiali qiymati katta bo‘lgan sistemaning oksidlangan shakli redoks potensiali qiymati kichik bo‘lgan sistemaning qaytarilgan shakli bilan o‘zaro ta’sirlashadi. Bunga asoslanib quyidagi ionli tenglamani yozish mumkin:




### **Mavzuni o‘zlashtirishni mustaqil nazorat qilish uchun savol va masalalar**

1. Kislorod ishtirokida boradigan fermentativ jarayonlarda kislorod  $\text{H}_2\text{O}$  yoki  $\text{H}_2\text{O}_2$  gacha qaytarilishi mumkin. Bunda  $\text{O}_2$  bilan bo‘ladigan jarayonlarni ko‘rsating.
2. Standart oksidlanish-qaytarilish potensiali qiymati bilan oksidlovchi xususiyati orasida qanday bog‘liqlik bor?
3. Metall ionlari saqlovchi biomolekulalar redoks potensiali qiymati qanday omillarga bog‘liq?
4. Redoks sistemasini qanday elementlardan tuzish mumkin?
5. Tarkibida temir saqlovchi fermentlarning redoks potensiali kattaligi qanday? Turli birikmalarning redoks potensiallari orasidagi farqi qanday tushuntiriladi?
6. Standart redoks potensiallar qiymatini bilgan holda quyidagi oksidlanish-qaytarilish reaksiyasining yo‘nalishini aniqlang:




### **Vaziyatli masalalar**

**1- masala.** Fotosintez – muhim biologik jarayon. Umumiy natija  $\text{CO}_2$  ni  $\text{HCOH}$  gacha qaytarishidan va suvni molekular kislorodgacha oksidlanishidan tashkil topgan. Boshlang‘ich bosqichni



ko‘rinishida ifodalash mumkin. Ushbu reaksiyaning elektron balansini tuzib tenglashtiring.

**2- masala.** Biologik oksidlanish barcha tirik hujayralarda boradigan oksidlanish reaksiyalarining yig‘indisidir. Biologik oksidlanish mexanizmini umumiy ko‘rinishda quyidagicha ifodalash mumkin:



Ushbu reaksiya koefitsiyentlarni tanlang hamda glyukoza va kislorod orasida qanday jarayonlar borishini ko‘rsating. Qaysi modda oksidlovchi, qaysinisi qaytaruvchi bo‘ladi?

### Test savollari


1. Eng kuchli oksidlovchini ko‘rsating:

- a)  $\text{K}_2\text{SO}_4$ ;    b)  $\text{KMnO}_4$ ;    d)  $\text{KOH}$ ;    e)  $\text{K}_2\text{SO}_3$ .

2. Ham oksidlovchi, ham qaytaruvchi bo‘la oladigan moddani ko‘rsating:

- a)  $\text{K}_2\text{SO}_4$ ;    b)  $\text{KMnO}_4$ ;    d)  $\text{K}_2\text{S}$ ;    e)  $\text{K}_2\text{SO}_3$ .

3. Quyidagi oksidlanish-qaytarilish reaksiyasining turini ko‘rsating:



- a) molekulalararo oksidlanish-qaytarilish reaksiysi;
- b) ichki molekulyar reaksiya;
- d) disproporsiyalanish reaksiysi;
- e) sinproporsiyalanish reaksiysi.

4. Qaysi modda faqat qaytaruvchi bo‘ladi:

- a)  $\text{NH}_3$ ;    b)  $\text{NO}_2$ ;    d)  $\text{N}_2\text{O}_3$ ;    e)  $\text{N}_2\text{O}_5$ .

5. Ichki molekular oksidlanish-qaytarilish reaksiyasini ko‘rsating:

- a)  $\text{HCl} + \text{MnO}_2 \rightarrow \text{MnCl}_2 + \text{Cl}_2 + \text{H}_2\text{O}$
- b)  $\text{KMnO}_4 \rightarrow \text{K}_2\text{MnO}_4 + \text{MnO}_2 + \text{O}_2$
- d)  $\text{KMnO}_4 + \text{HCl} \rightarrow \text{MnCl}_2 + \text{KCl} + \text{Cl}_2 + \text{H}_2\text{O}$
- e)  $\text{Cl}_2 + \text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{HCl} + \text{HClO}$

6. Disproporsiyalanish reaksiyasini ko‘rsating.

- a)  $\text{HCl} + \text{MnO}_2 \rightarrow \text{MnCl}_2 + \text{Cl}_2 + \text{H}_2\text{O}$
- b)  $\text{KMnO}_4 \rightarrow \text{K}_2\text{MnO}_4 + \text{MnO}_2 + \text{O}_2$
- d)  $\text{KMnO}_4 + \text{HCl} \rightarrow \text{MnCl}_2 + \text{KCl} + \text{Cl}_2 + \text{H}_2\text{O}$
- e)  $\text{Cl}_2 + \text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{HCl} + \text{HClO}$



7. Elektrod potensiali qanday omillarga bog'liq?
- moddaning oksidlangan va qaytarilgan shakllari konsentratsiyasi nisbatiga;
  - temperatura va muhit  $pH$  iga;
  - erituvchi tabiatiga;
  - javoblarning barchasi to'g'ri.
8. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyasi yo'nalishi qanday belgilanadi?
- standart potensial qiymati yuqori bo'lgan birikma oksidlangan shakli standart potensial qiymati kichik bo'lgan birikmalarning qaytarilgan shakli bilan o'zaro ta'sirlashadi;
  - standart potensial qiymati kichik bo'lgan birikma oksidlangan shakli standart potensial qiymati kichik bo'lgan birikmalarning qaytarilgan shakli bilan o'zaro ta'sirlashadi;
  - standart potensial qiymati yuqori bo'lgan birikma oksidlangan shakli standart potensial qiymati yuqori bo'lgan birikmalarning qaytarilgan shakli bilan o'zaro ta'sirlashadi;
  - standart potensial qiymati kichik bo'lgan birikma oksidlangan shakli standart potensial qiymati yuqori bo'lgan birikmalarning qaytarilgan shakli bilan o'zaro ta'sirlashadi.
9. Elektrod potensiali qiymatining oksidlangan va qaytarilgan shakllari konsentratsiyasiga bog'liqligi qaysi tenglama orqali ifodalanadi?
- Vant-Goff tenglamasi;                   d) Nernst tenglamasi;
  - A.Verner tenglamasi;                   e) Wagner tenglamasi.
10. Ham oksidlovchi, ham qaytaruvchi bo'la oladigan moddani ko'rsating.
- $HCl$ ;   b)  $HNO_3$ ;   d)  $H_2O_2$ ;   e)  $H_2SO_4$ .

### LABORATORIYA ISHI

#### Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida muvozanatni siljitim

**1- tajriba. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini muvozanatini siljitimga muhit  $pH$  ining ta'siri.**


Probirkaga 5–6 tomchi 2% li (massa jihatdan)  $Na_3AsO_3$  eritmasi va 3 tomchi 2% li (massa jihatdan)  $I_2$  eritmasidan solinadi. Bunda  $As^{3+}$   $As^{5+}$  gacha oksidlanishi tufayli  $I_2$  rangi yo'qoladi.



Muvozanatni o'ngdan chapga siljitim uchun 8–10 tomchi 10% li HCl eritmasi va 1 tomchi kraxmal qo'shiladi. Eritma I<sub>2</sub> ajralib chiqishi tufayli ko'k rangga bo'yaladi. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida muvozanatni siljitimiga pH ning ta'siri haqida xulosa chiqariladi.

### 2-tajriba. Kompleks birikma hosil bo'lishi natijasida oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini muvozanatning siljishi.

Probirkaga 3 tomchi 2% li FeCl<sub>3</sub> eritmasi va 1 tomchi shunday konsentratsiyali KI eritmasi tomiziladi:



Reaksiya natijasida yod ajralib chiqadi. Uni eritmaning rangi qizil-qo'ng'ir tusga kirishidan aniqlash mumkin. Kompleksion III [Na<sub>2</sub>H<sub>2</sub>γ]<sup>1-</sup> konsentrangan eritmasi qo'shiladi. Bunda eritma rangsizlanadi. Reaksiyaning o'ngdan chapga siljishi Fe<sup>3+</sup> ning kompleksion III bilan barqaror kompleks birikma hosil qilishi va uning natijasida [Feγ]<sup>1-</sup>/[Feγ]<sup>2-</sup> redoks potensialining kamayishi oqibatida ro'y beradi:



## OKSIDLANISH-QAYTARILISH USULI BILAN TITRLASH. PERMANGANATOMETRIYA USULI

**Mashg'ulotning maqsadi.** Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining borish qonuniyatlarini bilgan holda biologik ob'yektlar va dorivor preparatlari hamda sanitariya-gigiena tavsifiga ega bo'lgan ob'yektlarni permanganatometriya usulida aniqlash.

**O'r ganilayotgan mavzuning ahamiyati.** Oksidlanish-qaytarilish usuli dorivor preparatlarni klinik va sanitariya-gigiena jihatidan tekshirishda keng qo'llanadi. Kaliy permagantrning yuqori oksidlovchilik xossasidan foydalangan holda uni biologik obyektlarda qaytaruvchilarni aniqlashda qo'llash mumkin. Permanganatometriya usuli bilan siydikdagi siydik kislotaning, qon zardobidagi kalsiy ionining miqdorini, qonda qand moddasi va boshqalarni aniqlash mumkin. Kaliy permanganatning oksidlovchilik xossasidan tibbiyot amaliyotida keng foydalaniladi. Uning

0,1–0,55% li suvli eritmasi yaralarni yuvishga antisептик vosita sifatida, 0,01–0,1% li eritmasi og'iz va tomoqni chayish uchun, 0,02–0,1% li eritmasi esa zaharlanganda me'dani chayish uchun ishlataladi.

### Boshlang'ich bilim darajasi:

1. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining borish qonuniyatlarini.
2. Elektron muvozanat va ion-elektron usulida oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini tuzish.

### Mustaqil tayyorlanish uchun o'quv adabiyotlar:

4. *A.B. Бабков, Г.Н. Горшкова, А.М. Кононов.* Практикум по общей химии с элементами количественного анализа. М., 1978, 135- bet.
1. *V.N. Alekseyev.* Miqdoriy analiz. M., 1972, 378-bet.
3. *И.К. Цитович.* Курс аналитической химии. М., 1985, 271- bet.
4. *X.H. Hakimov, A.Z. Tatarskaya, N.T. Olimxo'jayeva.* Umumiy kimyodan amaliy mashg'ulotlar. T., 1993, 92–101- betlar.
5. *S.S. Qosimova, S.M. Masharipov, Q.O. Najimov.* Umumiy va bioorganik kimyodan amaliy mashg'ulotlar. T., 2001, 56–61- betlar.

### Darsda ko'rildigan savollar:



1. Permanganatometriya usulining nazariy asoslari:
  - 1.1. Kaliy permanganatning kislotali, ishqorli va neytral muhitda qaytarilishi.
2. Oksidlovchi va qaytaruvchilarining ekvivalent molyar massasini hisoblash.
3. Kimyoviy reaksiya tenglamasi.
4. Qayta titrlash usulining mohiyati.
5. Permanganatometriya usulining tibbiyotda qo'llanishi.
6. Laboratoriya ishi.

## MA'LUMOTLAR YIG'INDISI

### Permanganatometrik titrlash usuli


Permanganatometriya usuli kaliy permanganatning qaytariluvchilarni oksidlash reaksiyalariga asoslangan. Kaliy permanganat kislotali, ishqorli va neytral muhitlarda oksidlovchi xossalalarini namoyon qiladi.

1. Kislotali muhitda marganes Mn<sup>7+</sup> dan Mn<sup>2+</sup> gacha qaytariladi:




Kaliy permanganatning binafsha rangi rangsizlanadi.

2. Neytral muhitda marganes  $Mn^{7+}$  dan  $Mn^{4+}$  gacha qaytariladi:



Binafsha rangli kaliy permanganat qo'ng'ir rangli marganes (IV)-oksid cho'kmasigacha qaytariladi.

3. Ishqoriy muhitda marganes  $Mn^{7+}$  dan  $Mn^{6+}$  gacha qaytariladi:





Binafsha rangli kaliy permanganat yashil tusli kaliy manganatgacha qaytariladi.

Permanganatometriya usulida analiz har doim kislotali muhitda olib boriladi, chunki unda bu moddaning oksidlovchi xususiyati ko'proq namoyon bo'ladi, titrlashda esa uning tarkibiga kirgan binafsha rangli  $Mn^{7+}$  ioni rangsiz  $Mn^{2+}$  ionigacha qaytariladi. Ekvivalent nuqtaga erishilgandan so'ng kaliy permanganat ortiqcha tomchisining birinchisiyoq titrlanayotgan suyuqlikni pushti ranga bo'yaydi, bu esa titrlashni indikatorsiz olib borish imkonini beradi. Neytral muhitda qaytarilish jarayonida to'q qo'ng'ir cho'kma  $MnO_2$  hosil bo'ladi, ishqoriy muhitda esa binafsha rangli kaliy permanganat yashil tusli kaliy manganatgacha  $K_2MnO_4$  qaytariladi. eritmada ularning mayjudligi ekvivalent nuqtani aniqlashni qiyinlashtiradi.

Permanganatometriya usulida oksidlovchining ekvivalent molyar massasini aniqlash lozim. Ma'lumki *modda ekvivalenti* deb oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida moddaning bir elektronga ekvivalent miqdoriga aytildi, shuning uchun oksidlovchi yoki qaytaruvchi ekvivalent molyar massasini moddaning bir molekulasi qabul qiladigan yoki yo'qtadigan elektronlar sonidan hisoblab chiqariladi. Oksidlovchi (qaytaruvchi)ning ekvivalent molyar massasini aniqlash uchun uning molyar massasini bir molekula oksidlovchi yoki qaytaruvchi qabul qilgan yoki yo'qtgan elektronlar soniga bo'linadi.

$KMnO_4$  eritmasi konsentratsiyasi boshlang'ich modda bo'lgan oksalat kislotaning standart eritmasi yordamida aniqlanadi. O'zaro ta'sirlashuv quyidagi reaksiya bo'yicha boradi:



Reaksiya natijasida  $\text{KMnO}_4$  5 ta elektronni biriktirib olgani uchun ekvivalent molyar massasi uning molyar massasining 1/5 qismiga teng:




$$M\left(\frac{1}{5} \text{ KMnO}_4\right) = \frac{158,03}{5} = 31,61 \text{ g/mol.}$$

Oksalat kislota reaksiya natijasida 2 ta elektron beradi, shuning uchun ekvivalent molyar massasi uning molyar massasining 1/2 qismiga teng:

$$M\left(\frac{1}{2} \text{ H}_2\text{C}_2\text{O}_4\right) = \frac{126,07}{2} = 63,03 \text{ g/mol.}$$

Permanganatometriya usuli qo'llanayotgan vaqtida qo'shimcha (keraksiz) jarayonlar boradigan bo'lsa, qayta titrlash usulidan foydalilanildi.

Masalan, tibbiyotda ishlatiladigan eritmasining titri va ekvivalent molyar konsentratsiyasini aniqlash qayta titrlash usuli bilan aniqlanadi. Bu usul quyidagi reaksiyalarga asoslangan:



Qayta titrlash usulining mohiyati shundan iboratki, bunda ortiqcha olingan  $\text{KMnO}_4$  ning titrlangan eritmasiga ozgina kislota qo'shib, natriy nitrit eritmasidan aniq hajmda qo'shiladi va kaliy permanganatning ortiqcha miqdori oksalat kislotaning standart eritmasi bilan titrlanadi.

Permanganatometriya usuli klinik analizda keng qo'llaniladi. Bu usul bilan qondagi siydiq kislota, qon plazmasidagi kalsiy, kaliy, qand moddasi miqdori, biosuyuqliklardagi oksidlovchi va qaytaruvchilar miqdori aniqlanadi. Sanitariya-gigiyenik analizda ichimlik suvning analizida qo'llaniladi.

### Mavzu bo'yicha masalalar va ularni yechish namunalarini

**1- masala.**  $\text{KMnO}_4$  eritmasi kontsentratsiyasini aniqlash uchun ishlatiladigan 0,0500 mol/l li 500 ml eritma tayyorlash uchun kerak bo'lgan oksalat kislota miqdorini aniqlang.

**Berilgan:**

$$V(\text{eritma}) = 500,00 \text{ ml} = 0,5 \text{ l}$$

$$M(\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}) = 126,1 \text{ g/mol}$$


$$M(\text{KMnO}_4) = 158,0 \text{ g/mol}$$

$$c(1/2 \text{ H}_2\text{C}_2\text{O}_4) = 0,0500 \text{ mol/l}$$

$$m(\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}) = ?$$

**Yechish:**

1. Reaksiya tenglamasi yoziladi:



$2\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  ning ekvivalent molyar massasi:

$$M\left(\frac{1}{2}\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}\right) = \frac{M(\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O})}{2} = \frac{126,1}{2} = 63,0 \text{ g/mol}$$

2. 500,00 m/l eritmadiagi  $\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  massasi aniqlanadi:

$$m(\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}) = \frac{M\left(\frac{1}{2}\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}\right) \cdot c\left(\frac{1}{2}\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4\right) \cdot V(\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4)}{1000};$$

$$m(\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}) = \frac{63,0 \cdot 0,0500 \cdot 0,5}{1} \frac{\text{g} \cdot \text{mol} \cdot \text{l}}{\text{mol} \cdot \text{l}} = 1,575 \text{ g}.$$

Javob:  $m(\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}) = 1,575 \text{ g}$ .

**2- masala.** 500,0 m/l i o'chov kolbasidagi suvda 0,8 g  $\text{KMnO}_4$  eritildi. 20,00 ml/0,04741 mol/l oksalat kislota eritmasini titrlash uchun 18,30 ml  $\text{KMnO}_4$  eritmasi sarf bo'ldi.  $\text{KMnO}_4$  eritmasining ekvivalent molyar konsentratsiyasi va titrini aniqlang.

**Berilgan:**

$$m(\text{namuna}) = 0,8 \text{ g}$$

$$V(\text{eritma}) = 500,00 \text{ ml}$$

$$V(\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4) = 20,00 \text{ ml}$$


$$c(1/2\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4) = 0,0474 \text{ mol/l}$$

$$V(\text{KMnO}_4) = 18,30 \text{ ml}$$

$$M(\text{KMnO}_4) = 158,00 \text{ g/mol}$$

$$c\left(\frac{1}{5}\text{KMnO}_4\right) = ? \quad n(\text{KMnO}_4) = ?$$

**Yechish.** 1. Reaksiya tenglamasi yoziladi:



$$M\left(\frac{1}{5}\text{KMnO}_4\right) = 31,60\text{g/mol},$$

$$M\left(\frac{1}{2}\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}\right) = \frac{126,07}{2} = 63,03 \text{ g/mol.}$$

2. Ekvivalentlar qonuniga asoslanib eritmadagi oksidlovchi (kaliy permanganat) ning ekvivalent molyar konsentratsiyasini aniqlanadi:

$$c\left(\frac{1}{2}\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4\right) \cdot V(\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4) = c\left(\frac{1}{5}\text{KMnO}_4\right) \cdot V(\text{KMnO}_4)$$

$$c\left(\frac{1}{5}\text{KMnO}_4\right) = \frac{c\left(\frac{1}{2}\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4\right) \cdot V(\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4)}{V(\text{KMnO}_4)};$$

$$c\left(\frac{1}{5}\text{KMnO}_4\right) = \frac{0,04741 \cdot 20,00}{18,30} \frac{\text{mol} \cdot l}{l \cdot ml} = 0,0518 \text{ mol/l.}$$

3. Eritmani titri aniqlanadi:

$$t(\text{KMnO}_4) = \frac{c\left(\frac{1}{5}\text{KMnO}_4\right) \cdot M\left(\frac{1}{5}\text{KMnO}_4\right)}{1000};$$

$$t(\text{KMnO}_4) = \frac{0,0518 \cdot 31,60}{1000} \frac{\text{mol} \cdot \text{g}}{\text{ml} \cdot \text{mol}} = 0,001637 \text{ g/ml.}$$

Javob:  $c(1/5\text{KMnO}_4) = 0,0518 \text{ mol/l}$ ;  $t(\text{KMnO}_4) = 0,001637 \text{ g/ml.}$

### Mavzuni o‘zlashtirishni mustaqil nazorat qilish uchun savol va masalalar




1. Permanganatometrik titrlash usuli qanday reaksiyalarga asoslangan?

2. Nima uchun titrimetrik analizda permanganat bilan oksidlash reaksiyalarini ko‘pincha kislotali muhitda olib boriladi?

3. Oksidlovchi va qaytaruvchining ekvivalent molyar massasi qanday aniqlanadi?

4.  $\text{KMnO}_4$  ishqoriy muhitda qanday birikmagacha qaytariladi?

5. Quyidagi reaksiyalarda oksidlovchi va qaytaruvchilarning ekvivalent molyar massasini aniqlang:




### Vaziyatli masalalar

1. Ekvivalent molyar konsentratsiyasi 0,1020 mol/l bo'lgan 15,00 ml oksalat kislotani kislotali muhitda titrlash uchun 13,50 ml  $\text{KMnO}_4$  eritmasi sarf bo'ldi. Kaliy permanganatning ekvivalent molyar konsentratsiyasi va titrini aniqlang.

Javob:  $c(\frac{1}{5} \text{ KMnO}_4) = 0,1133 \text{ mol/l}$ ;  $t(\text{KMnO}_4) = 0,003580 \text{ g/mL}$ .

2. Sotuvdag'i tibbiy preparat  $\text{H}_2\text{O}_2$  dan 1,00 ml olib o'chov kolbasida 100,00 ml gacha suv bilan suyultiriladi  $c(\text{H}_2\text{O}_2) = 1,0 \text{ g/mL}$ . Quyidagi reaksiya bo'yicha



titrlashda suyultirilgan eritmaning har 20,00 ml iga o'rtacha 16,90 ml 0,0198 mol/l  $\text{KMnO}_4$  eritmasi sarf bo'ladi. Tibbiy preparatdag'i  $\text{H}_2\text{O}_2$  ning massa ulushini (%) aniqlang.

Javob:  $\omega\%(\text{H}_2\text{O}_2) = 2,84\%$ .

### Test savollari

1. Ishqoriy muhitda  $\text{Mn}^{+7}$  qanday iongacha qaytariladi?

1.  $\text{Mn}^{+7} \rightarrow \text{Mn}^{2+}$     2.  $\text{Mn}^{+7} \rightarrow \text{Mn}^{+4}$     3.  $\text{Mn}^{+7} \rightarrow \text{Mn}^{+6}$

- a) 1 va 2;    b) 1 va 3;    d) 3;    e) 1.

2. Permanganatometriya usulida qanday indikator qo'llanadi?

- a) metilzarg'aldoq;    d) kraxmal;  
b) fenolftalein;    e) indikator ishlatilmaydi.

3. Quyidagi reaksiyalar ichida oksidlanish-qaytarilish reaksiyasini ko'rsating.

- a)  $2\text{Na}_2\text{CrO}_4 + \text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow \text{Na}_2\text{Cr}_2\text{O}_7 + \text{Na}_2\text{SO}_4 + \text{H}_2\text{O}$   
 b)  $6\text{NaOH} + \text{Cr}_2(\text{SO}_4)_3 \rightarrow 2\text{Na}_3[\text{Cr}(\text{OH})_6] + 3\text{Na}_2\text{SO}_4$   
 d)  $\text{Bi}(\text{NO}_3)_3 + 2\text{KOH} \rightarrow \text{Bi}(\text{OH})_2\text{NO}_3 + 2\text{KNO}_3$   
 e)  $4\text{KMnO}_4 + 4\text{KOH} \rightarrow 4\text{K}_2\text{MnO}_4 + \text{O}_2 + 2\text{H}_2\text{O}$

4. Kislotali muhitda  $\text{Mn}^{+7}$  qanday iongacha qaytariladi?


1.  $\text{Mn}^{+7} \rightarrow \text{Mn}^{2+}$     2.  $\text{Mn}^{+7} \rightarrow \text{Mn}^{+4}$     3.  $\text{Mn}^{+7} \rightarrow \text{Mn}^{+6}$

- a) 1 va 2;    b) 1 va 3;    d) 3;    e) 1.

5. Turli xil muhitda  $\text{KMnO}_4$  ning ekvivalent molyar massasi bir xilmi?

- a) ha;    b) yo‘q;    d) past temperaturada;
- e) yuqori temperaturada.

6. Quyidagi oksidlanish-qaytarilish reaksiyasida qaysi elementning oksidlanish darajasi kamayadi?




- a) S;    b) As;    d) N;    e) H.

7. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida  $\text{KMnO}_4$  qanday vazifani bajaradi?


- |                 |                                      |
|-----------------|--------------------------------------|
| a) oksidlovchi; | d) ham oksidlovchi, ham qaytaruvchi; |
| b) qaytaruvchi; | e) hech qanday vazifani bajarmaydi.  |

8. Quyidagi oksidlanish-qaytarilish reaksiyada qaysi elementlarning oksidlanish darajasi ortadi?



- a) As, N;    b) As, S;    d) S, N;    e) As, H.

9. Quyidagi reaksiyada oksalat kislotaning ekvivalent molyar massasini aniqlang:



- |  |  |
|--|--|
| a) $M(\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4)$ ;             | d) $M(\frac{1}{2} \text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4)$ ; |
| b) $M(\frac{1}{4} \text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4)$ ; | e) $M(\frac{1}{3} \text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4)$ . |

10. Kimyoviy reaksiyalarda  $\text{H}_2\text{O}_2$  qanday xossalarni namoyon qiladi?

- a) oksidlovchi;    d) ham oksidlovchi, ham qaytaruvchi;
- b) qaytaruvchi    e) hech qanday xossani namoyon qilmaydi.

## LABORATORIYA ISHI

### 1- tajriba. Kaliy permanganat eritmasi konsentratsiyasini aniqlash.

**Ishning borishi.** Kolbaga 10,00 ml  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasi (1 : 4), 2,00 ml  $\text{MnSO}_4$  ning to‘yingan eritmasi (katalizator) pipetka bilan o‘lchab

20,00 ml titrlangan oksalat kislota eritmasi solinadi va kaliy permanganat eritmasi bilan toki bir tomchidan 30 sekundda o'zgarmaydigan och pushti rang hosil bo'lguncha titrlanadi. Titrlashni yana 2 marta takrorlanadi. Natijalar jadvalga yoziladi. Bir-biriga yaqin natijalarning o'rta arifmetik qiymatini olinadi va kaliy permanganat eritmasi ekvivalentining molyar kontsentratsiyasi va titrini hisoblanadi.

Tar.raq.	$V(H_2C_2O_4)$ , ml	$c(1/2H_2C_2O_4)$ , mol/l	$V(KMnO_4)$ , ml	$c(1/5KMnO_4)$ , mol/l	$t(KMnO_4)$ , g/ml
1					
2					
3					
O'rtacha qiymati					

Hisoblashni quyidagi tenglama bo'yicha olib boriladi:


$$c\left(\frac{1}{5} KMnO_4\right) = \frac{c\left(\frac{1}{2} H_2C_2O_4\right) \cdot V(H_2C_2O_4)}{V(KMnO_4)}, \text{ mol/l}$$

$$t(KMnO_4) = \frac{c\left(\frac{1}{5} KMnO_4\right) \cdot M\left(\frac{1}{5} KMnO_4\right)}{1000}, \text{ g/ml},$$

$M\left(\frac{1}{5} KMnO_4\right)$  – kaliy permanganatning ekvivalent molyar massasi;  
 $M\left(\frac{1}{5} KMnO_4\right) = 31,60 \text{ g/mol}.$

## 2- tajriba. Eritmadagi vodorod peroksid massasini nazorat-analitik aniqlash.

Vodorod peroksid  $KMnO_4$  bilan oksidlanish-qaytarilish reaksiyasida qaytaruvchi xossasini namoyon qiladi va jarayon quyidagi tenglama bo'yicha boradi:



**Ishning borishi.** Titrlash kolbasiga ma'lum hajmda (o'qituvchi nazorat vazifa sifatida beradi)  $H_2O_2$  eritmasi solinadi. 3,0 m/l  $H_2SO_4$  eritmasidan (1 : 4) qo'shiladi va  $KMnO_4$  eritmasi bilan pushti rang hosil bo'lguncha titrlanadi. Titrlashni yana 2 marta takrorlanadi. Natijalarni jadvalga yoziladi. Bir-biriga yaqin natijalardan o'rta arifmetik qiymat hisoblanadi.



$$c\left(\frac{1}{2} \text{NaNO}_2\right) = \frac{|V(\text{KMnO}_4) \cdot c\left(\frac{1}{5} \text{KMnO}_4\right)| - |V(\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4) \cdot c\left(\frac{1}{2} \text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4\right)|}{V(\text{NaNO}_2)}, \frac{\text{mol}}{1},$$

$$t(\text{NaNO}_2) = \frac{c\left(\frac{1}{2} \text{NaNO}_2\right) \cdot M\left(\frac{1}{2} \text{NaNO}_2\right)}{1000}, \text{g/ml}$$

## OKSIDLANISH-QAYTARILISH USULI BILAN TITRLASH. YODOMETRIYA USULI

**Mashg‘ulotning maqsadi.** Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining borish qonunlarini bilgan holda yodometriya usuli bilan dorivor preparatlardan miqdorini aniqlashni o‘rganish.

**O‘rganilayotgan mavzuning ahamiyati.** Titrlashning oksidlanish-qaytarilish usuli dorivor preparatlarni analiz qilishda, sanitariya-gigiena va klinik analizda keng qo’llanadi.

Yodometrik titrlash usulida qaytaruvchilar hamda oksidlovchilar miqdorini aniqlash mumkin, bu esa titrimetrik analizda undan keng foydalanish imkonini beradi. Bu usul bilan eritmalarda aldegid va keton guruhlarni, atseton, xinon, antipirin, vodorod peroksid, suvdagi erkin xlor, mis (II)-nitritlar va boshqalarni aniqlash mumkin. Moylardiagi yod sonini aniqlash yog‘larning oziq-ovqatga yaroqliliginini baholashda katta ahamiyatga ega.

### Boshlang‘ich bilim darajasi:

1. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining borish qonunlari.
2. Elektron balans usulida oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini tuzish.

### Mustaqil tayyorlanish uchun o‘quv adabiyotlar:

1. И.К.Цитович. Курс аналитической химии. М., 1985, 282- bet.
2. А.В.Бабков, Г.Н.Горшкова, А.М.Кононов. Практикум по общей химии с элементами количественного анализа. М., 1978, 142- bet.
3. В.Н.Алексеев. Количественный анализ. М., 1972., 395- bet.
4. X.H.Hakimov, A.Z.Tatarskaya, N.T.Olimxo’jayeva. Umumiy kimyodan amaliy mashg‘ulotlar. T., 1993, 102–110- betlar.

### Darsda ko‘riladigan savollar:


1. Yodometriya usulining nazariy asoslari:
  - 1.1. Yodometriya usuli bilan qaytaruvchilarning miqdorini aniqlash.

- 1.2. Yodometriya usuli bilan oksidlovchilarning miqdorini aniqlash.
2. Yodometriya usulining tibbiyotdagi ahamiyati.
3. Laboratoriya ishi.


## **MA'LUMOTLAR YIG'INDISI**

### **Yodometrik titrlash usuli**

Bu usul erkin yod  $I_2$  ning ion  $I^-$  holdagi yodgacha qaytarilishi bilan bog'liq bo'lgan oksidlanish jarayoniga asoslangan:




yoki  $I^-$  ionlarini  $I_2$  gacha oksidlanishi:



Yodometriya usulida erkin yod nisbatan kuchsiz oksidlovchi, yod anioni  $I^-$  esa – kuchli qaytaruvchidir. Titrimetrik analizda yod eritmasidan foydalanib qaytaruvchilarni miqdoroni aniqlashda va  $I^-$  eritmasidan foydalanib oksidlovchilar miqdorini aniqlashda foydalniladi.  $I_2$  eritmasi kraxmal ishtirokida ko'k rangga bo'yaladi. Biror qaytaruvchi eritmasini yod eritmasi bilan titrlansa, reaksiya tugaganda (ekvivalent nuqtada) ortiqcha yod tomchisidan eritma ko'k rangga kiradi. Agar yod eritmasiga kraxmal ishtirokida qaytaruvchi eritmasi qo'shilsa, reaksiya tugaganda eritmaning ko'k rangi yo'qoladi.





Qaytaruvchilar miqdori yod eritmasi bilan *to'g'ri titrlash* yoki *qayta titrlash* usuli bilan aniqlanadi. Masalan,  $I_2$  eritmasidan foydalanib quyidagi reaksiya asosida askorbin kislota (qaytaruvchi) miqdorini aniqlash mumkin:



Qaytaruvchilar miqdorini *qayta titrlash usuli* orqali aniqlaganda tekshirilayotgan eritmaga ortiqcha miqdorda titrlangan yod eritmasi qo'shiladi. Aniqlanayotgan modda bilan yodning ekvivalent miqdori reaksiyaga kirishadi. Yodning ortiqcha qismi ishchi eritma – natriy tiosulfat bilan titrlab aniqlanadi. Shunday qilib, yodning umumiy va reaksiyaga kirishmagan qismlarini bilgan holda tekshirilayotgan moddaga ekvivalent bo'lgan yod miqdori hisoblanadi.

Oksidlovchilar miqdori o'rin *almashish usuli* bilan aniqlanadi. Bunda kislotali muhitda oksidlovchi eritmasiga ortiqcha kaliy yod eritmasi qo'shiladi.

Oksidlovchilarning KI ga ta'siri natijasida ekvivalent miqdorda molekular yod ajralib chiqadi. Ajralib chiqqan yod standartlangan natriy tiosulfat eritmasi bilan titrlanadi:



Shunday qilib, oksidlovchining miqdori ajralib chiqqan  $\text{I}_2$  miqdoriga ekvivalent bo'lgan  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  hajmiga ko'ra hisoblanadi. Bu usulda kraxmal – indikator, u yod bilan to'q ko'k rangli adsorbsion kompleks – oraliq birikma hosil qiladi.

Yodometriya usulida natijalarning aniqlik darajasi yuqori bo'lgani uchun bu usul klinik analizda keng qo'llaniladi. Yodometriya usuli bilan qondagi qand, peroksidaza fermenti miqdori, sanitariya-gigienik analizda – xlorli ohak tarkibidagi aktiv xlor, suvdagi qoldiq xlor miqdori aniqlanadi.

### Mavzu bo'yicha masalalar va ularni yechish namunalarini

**1- masala.** Margimush (III) oksid  $\text{As}_2\text{O}_3$  miqdorini aniqlash yodometrik titrlash usuli bilan bajariladi. Bu preparat teri kasalliklarini davolashda va stomatologiyada nekrotik vosita sifatida qo'llanadi. Kamqonlik, darmonsizlik, asab charchaganda ichishga buyuriladi. 1,40 g preparatni 250,00 ml/ li o'lchov kolbasidagi suvda eritishdan hosil bo'lgan  $\text{As}_2\text{O}_3$  massa ulushini (%) aniqlang. Hosil bo'lgan eritmaning 25,00 m/ ni oksidlash uchun o'ttacha 24,40 m/ 0,0980 mol/l  $\text{I}_2$  eritmasi sarf bo'lgan.

#### Berilgan:

$$m(\text{preparat}) = 1,40 \text{ g}$$

$$V(\text{eritma}) = 250,00 \text{ ml}$$

$$V(\text{As}_2\text{O}_3) = 25,00 \text{ ml}$$

$$V(\text{I}_2) = 24,40 \text{ ml}$$



$$c(1/2\text{I}_2) = 0,0980 \text{ mol/l}$$

$$M(\text{As}_2\text{O}_3) = 197,8 \text{ g/mol}$$

$$\omega\%(\text{As}_2\text{O}_3) = ?$$

**Yechish:**

Reaksiyaning borish tenglamasi:



Bunda marginush angidrid ekvivalent molyar massasi quyidagiga teng bo‘ladi:

$$M\left(\frac{1}{4}\text{As}_2\text{O}_3\right) = \frac{M(\text{As}_2\text{O}_3)}{4} = \frac{197,82}{4} = 49,46 \text{ g/mol}.$$

Yodning ekvivalent molyar massasi:

$$M\left(\frac{1}{2}\text{I}_2\right) = \frac{M(\text{I}_2)}{2} = \frac{253,8}{2} = 126,9 \text{ g/mol}.$$

Ekvivalentlar qonuniga asosan  $\text{As}_2\text{O}_3$  ning ekvivalent molyar konsentratsiyasi aniqlanadi:

$$c\left(\frac{1}{4}\text{As}_2\text{O}_3\right) \cdot V(\text{As}_2\text{O}_3) = c\left(\frac{1}{2}\text{I}_2\right) \cdot V(\text{I}_2),$$

$$c\left(\frac{1}{4}\text{As}_2\text{O}_3\right) = \frac{c\left(\frac{1}{2}\text{I}_2\right) \cdot V(\text{I}_2)}{V(\text{As}_2\text{O}_3)} = \frac{0,0980 \cdot 24,40}{25,00} \frac{\text{mol} \cdot \text{ml}}{\text{l} \cdot \text{ml}} = 0,09565 \text{ mol/l}.$$

Eritmaning titri aniqlanadi:

$$t\left(\frac{1}{4}\text{As}_2\text{O}_3\right) = \frac{c\left(\frac{1}{4}\text{As}_2\text{O}_3\right) \cdot M\left(\frac{1}{4}\text{As}_2\text{O}_3\right)}{1000} =$$

$$= \frac{0,09565 \cdot 49,46}{1000} \frac{\text{mol} \cdot \text{g}}{\text{mol} \cdot \text{ml}} = 0,004731 \text{ g/ml}$$

250,00 ml eritmada  $\text{As}_2\text{O}_3$  ning massasi aniqlanadi:

$$m(\text{As}_2\text{O}_3) = t(\text{As}_2\text{O}_3) \cdot V(\text{eritma}) = 0,004731 \cdot 250,0 \frac{\text{g} \cdot \text{ml}}{\text{ml}} = 1,1827 \text{ g}.$$

Preparatdagi  $\text{As}_2\text{O}_3$  massa ulushi (%) aniqlanadi:

$$\omega\%(\text{As}_2\text{O}_3) = \frac{m(\text{As}_2\text{O}_3)}{m(\text{prepar.})} \cdot 100\% = \frac{1,1827 \cdot 100}{1,40} \frac{\text{g} \cdot \%}{\text{g}} = 84,48\%.$$

Javob:  $\omega\%(\text{As}_2\text{O}_3) = 84,48\%$ .

**2- masala.**  $\text{H}_2\text{O}_2$  dezinfeksiyalovchi vosita sifatida yaralarni yuvish va chayish uchun ishlataladi. Uning eritmasining 20,00 ml ni titrlash uchun o'rtacha 19,00 ml / 0,0180 mol/l kaliy yodid eritmasi sarf bo'lgan.  $\text{H}_2\text{O}_2$  eritmasining ekvivalent molyar konsentratsiyasini va titrini aniqlang.

**Berilgan:**

$$V(\text{KI}) = 19,00 \text{ ml}$$

$$V(\text{KI}) = 0,0180 \text{ mol/l}$$



$$V(\text{H}_2\text{O}_2) = 20 \text{ ml}$$

$$M(\text{H}_2\text{O}_2) = 34,0 \text{ g/mol}$$

$$\omega\%(\text{H}_2\text{O}_2) = ? \quad c\left(\frac{1}{2} \text{H}_2\text{O}_2\right) = ?$$

**Yechish:**

Reaksiyaning borish tenglamasi:



Bundan vodorod peroksid ekvivalent molyar massasi:

$$M\left(\frac{1}{2} \text{H}_2\text{O}_2\right) = \frac{M(\text{H}_2\text{O}_2)}{2} = \frac{34}{2} = 17 \text{ g/mol} .$$

1. Ekvivalentlar qonuniga muvofiq  $\text{H}_2\text{O}_2$  ekvivalent molyar konsentratsiyasi topiladi:

$$c\left(\frac{1}{2} \text{H}_2\text{O}_2\right) \cdot V(\text{H}_2\text{O}_2) = c(\text{KI}) \cdot V(\text{KI}),$$

$$c\left(\frac{1}{2} \text{H}_2\text{O}_2\right) = \frac{0,0180 \cdot 19,00}{20,00} \frac{\text{mol} \cdot \text{ml}}{\text{l} \cdot \text{ml}} = 0,0171 \text{ mol/l} .$$


2.  $\text{H}_2\text{O}_2$  eritmasining titri topiladi:

$$t(\text{H}_2\text{O}_2) = \frac{c\left(\frac{1}{2} \text{H}_2\text{O}_2\right) \cdot M\left(\frac{1}{2} \text{H}_2\text{O}_2\right)}{1000} = \frac{0,0171 \cdot 17,0}{1000} \frac{\text{mol} \cdot \text{g}}{\text{ml} \cdot \text{mol}} = 0,0002907 \text{ g/ml} .$$

$$Javob: c\left(\frac{1}{2} \text{H}_2\text{O}_2\right) = 0,0171 \text{ mol/l}; t(\text{H}_2\text{O}_2) = 0,0002907 \text{ g/ml} .$$

### Mavzuni o'zlashtirishini mustaqil nazorat qilish uchun savol va masalalar

1. Yodometrik analiz usuli nimaga asoslangan?
2. Nima uchun oksidlovchilarni yodometrik aniqlashda mo'l KI ishlataladi?
3. Yodometrik titrlash usulida qaysi indikator ishlataladi?
4. Askorbin kislota (*C* vitamini) yangi uzib olingen sabzavot va mevalarda ko'p bo'ladi. U organizmda oksidlanish-qaytarilish jarayonlarini boshqarib turadi. Askorbin kislota odam organizmida sintezlanmaydi. Organizmda *C* vitamini tanqisligi gipo- yoki avitaminoz rivojlanishiga olib keladi, bu esa singa (lavsha) kasalligining kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Askorbin kislotaning miqdoriy analizi yodometrik usulda olib boriladi:




1,20 g preparatni 100,00 ml suvda eritishdan hosil bo'lgan askorbin kislotaning massa ulushini (%) hisoblang. Shu eritmadaan 15,00 ml ni kraxmal ishtirokida titrlash uchun 21,00 ml 0,0973 mol/l konsentratsiyali yod eritmasi sarflangan. Askorbin kislota eritmasining ekvivalent molyar konsentratsiyasini aniqlang.

### Vaziyatli masalalar

1. Yodning 5% (massa jihatdan) suv-spirtli eritmasi antiseptik vosita sifatida qo'llanadi.  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  ning standartlangan eritmasi bilan miqdoriy analiz qilinadigan bu eritmaning ekvivalent molyar konsentratsiyasini aniqlang ( $\rho = 1,00 \text{ g/ml}$ ).

$$Javob: c\left(\frac{1}{2} \text{I}_2\right) = 0,3940 \text{ mol/l.}$$

2. Formaldegid miqdorini aniqlash uni yodning ishqoriy eritmasi bilan chumoli kislotagacha oksidlashga asoslangan:



Aniqlash qoldiq yodning natriy tiosulfat bilan qayta titrlash usulida bajariladi. Agar formaldegiddan 2,00 ml olib 100,00 ml li kolbada suyultirilgan va hosil bo'lgan eritmaning 10,00 ml/iga 40,00 m/ 0,01940 mol/l  $\text{I}_2$  eritmasi qo'shilgan bo'lsa, uning formalindagi massa ulushini aniqlang. Yod qoldig'ini titrlash uchun 16,00 ml 0,01980 mol/l  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  eritmasi ( $\rho = 1,00 \text{ g/ml}$ ) sarf bo'lgan.

$$Javob: \omega\%(\text{HCHO}) = 1,86\%.$$

### Test savollari

1. Yodometrik titrlash usulida qanday indikator qo'llanadi?  
 a) lakmus;    b) metilzarg'aldog'i;    d) metilqizili;    e) kraxmal.
2. To'gri titrlash usuli bilan qanday moddalarning miqdori aniqlanadi?  
 a) oksidlovchilarning;    d) oksidlovchi va qaytaruvchilarning;  
 b) qaytaruvchilarning;    e) to'g'ri javob yo'q.
3. O'rin armashish usuli bilan qanday moddalarning miqdori aniqlanadi?  
 a) oksidlovchilarning;    d) oksidlovchi va qaytaruvchilarning  
 b) qaytaruvchilarning;    e) to'g'ri javob yo'q.
4. Qayta titrlash usuli bilan qanday moddalarning miqdori aniqlanadi?  
 a) kislotalarning;              d) keton va aldegidlarning;  
 b) asoslarning;                e) to'g'ri javob yo'q.
5. Yod qaysi organda to'planadi?  
 a) suyakda;                      d) qalqonsimon bezda;  
 b) jigarda;                      e) me'da osti bezida.
6. Tibbiyotda yodning necha protsentli eritmasi ishlataladi?  
 a) 2%;    b) 5%;    d) 10%;    e) 8%.
7. Molekular yod kimyoviy reaksiyalarda qanday funksiyani bajaradi?  
 a) oksidlovchi;                d) kuchsiz oksidlovchi;  
 b) qaytaruvchi;                e) kuchsiz qaytaruvchi.
8. Yod ioni kimyoviy reaksiyalarda qanday funksiyani bajaradi?  
 a) oksidlovchi;                d) kuchsiz oksidlovchi;  
 b) qaytaruvchi;                e) kuchsiz qaytaruvchi.
9. Quyidagi reaksiyada  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  ning ekvivalent molyar massasini ko'rsating:  

$$2\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3 + \text{I}_2 \rightarrow 2\text{NaI} + \text{Na}_2\text{S}_4\text{O}_6$$

- a)  $M(\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3)$ ;    d)  $M(\frac{1}{3}\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3)$ ;
- b)  $M(\frac{1}{2}\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3)$ ;    e)  $M(\frac{1}{5}\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3)$ .
10. Quyidagi reaksiyada  $\text{I}_2$  ning ekvivalent molyar massasining aniqlang:  

$$2\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3 + \text{I}_2 \rightarrow 2\text{NaI} + \text{Na}_2\text{S}_4\text{O}_6$$

- a)  $M(\text{I}_2)$ ;    b)  $M(\frac{1}{2}\text{I}_2)$ ;    d)  $M(\frac{1}{3}\text{I}_2)$ ;    e)  $M(\frac{1}{5}\text{I}_2)$ .

## LABORATORIYA ISHI

### 1. Yod eritmasining ekvivalent molyar konsentratsiyasi va titrini aniqlash

**Ishning borishi.** Titrlash uchun kolbag'a 20,00 ml standartlangan natriy tiosulfat olinadi va 1,0 ml kraxmal ishtirokida och ko'k rang hosil bo'lguncha yod eritmasi bilan titrlanadi. Titrlash yana 2 marta takrorlanadi. Natijalar jadvalga yoziladi. O'rta arifmetik qiymatini olib hisoblash bajariladi.

Tar. raq.	$V(\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3)$ , ml	$V(\text{I}_2)$ , ml	$c(1/2 \text{I}_2)$ , mol/l	$t(\text{I}_2)$ , g/ml	Indikator
1					Kraxmal
2					
3					
O'rtacha qiymati					

Hisoblash quyidagi tenglama bo'yicha olib boriladi:

$$c\left(\frac{1}{2} \text{I}_2\right) = \frac{c(\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3) \cdot V(\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3)}{V(\text{I}_2)}, \text{ mol/l};$$

$$t = \frac{c\left(\frac{1}{2} \text{I}_2\right) \cdot M\left(\frac{1}{2} \text{I}_2\right)}{1000}, \text{ g/ml}.$$

Yodning suvli-spirtli eritmasi tibbiyotda antisептик vosita sifatida ishlataladi.  $\text{I}_2$  ning suvli-spirtli eritmasi KI ishtirokida tayyorlanadi:  $\text{I}_2 + \text{KI} = \text{K}\text{I}_3$  hosil bo'ladi.

### 2. Suvli eritmalarnda askorbin kislota massasini aniqlash (Nazorat-analitik aniqlash)

**Ishning borishi.** Titrlash kolbasiga askorbin kislota eritmasidan ma'lum hajmda (nazorat analitik vazifa tariqasida beriladi) olinadi va 1,00 ml kraxmal eritmasi qo'shib, ko'k rang hosil bo'lguncha bir tomchidan yod eritmasi bilan titrlanadi. Titrlashni yana 2 marta takrorlanadi. Tajriba natijalarini jadvalga yoziladi. Bir-biriga yaqin natijalar (hajmlar)dan o'rtacha arifmetik qiymatlari olib hisoblanadi.


Natijalar jadvalga yoziladi.

Tar.raq.	$V(C_6H_8O_6)$ , ml	$V(kraxmal)$ , ml	$V(I_2)$ , ml	$m(C_6H_8O_6)$ , g	Indikator
1					Kraxmal
2					
3					
O'rtacha qiymati					

Hisoblash quyidagi tenglama bo'yicha olib boriladi:

$$m(C_6H_8O_6) = \frac{c(\frac{1}{2}I_2) \cdot V(I_2) \cdot M(\frac{1}{2}C_6H_8O_6)}{1000}, \text{ g.}$$



Askorbin kislota miqdorini aniqlash uning qaytaruvchi xossasiga asoslangan. Yod askorbin kislota ta'sirida rangsizlanadi:





Yangi sabzavotlardan shovul, karam, lavlagi, kartoshka, mevalardan olma, qora smorodina, namatak, qora qand va boshqalar C vitamingga boy. Yana C vitamin – qichitqi o't va igna barglilarda ko'p bo'ladi. Bu vitamin qon ivishini tezlashtiradi va organizmnini infeksiyalarga qarshiligidini oshiradi.

### 3. Eritmadagi vodorod peroksid massasini nazorat-analitik aniqlash (o'rin almashish usuli)

Vodorod peroksid massasini o'rin almashish usulida aniqlash quyidagi reaksiyaga asoslangan:



Reaksiya natijasida ajralib chiqqan yodni natriy tiosulfat bilan titrlab olinadi:



**Ishning borishi.** Titrlash uchun kolbaga ma'lum hajmda (o'qituvchi nazorat analistik vazifa tariqasida beradi) vodorod peroksid olinadi, 3,0 ml ( $H_2SO_4$ ) ( $c(H_2SO_4)$  = 4,0 mol/l, 5,0 ml 5% li KI va 3 tomchi 30% li ammoniy molibdat (katalizator) qo'shiladi. Reaksiya to'liq tugallanishi uchun qorong'i joyda 10 min qoldiriladi, so'ngra ajralib chiqqan yod kraxmal ishtirokida standartlangan natriy tiosulfat eritmasi bilan titrlab olinadi. Kraxmalni eritma sariq somon rangga kirganda qo'shiladi. Hosil bo'lgan ko'k rang bir tomchi natriy tiosulfatdan rangsizlanishi kerak. Titrlashni yana 2 marta qaytariladi. Tajriba natijalari jadvalga yoziladi. Bir-biriga yaqin natijalardan o'rta arifmetik qiymatni olib, tekshirilayotgan eritmadagi vodorod peroksid massasi hisoblanadi:

Tar. raq	$V(H_2O_2)$ , ml	$V(Na_2S_2O_3)$ , ml	$c(Na_2S_2O_3)$ , mol/l	$m(H_2O_2)$ , g	Indikator
1					Kraxmal
2					
3					
O'rтacha qiymati					

Hisoblash quyidagi tenglamalar bo'yicha olib boriladi:


$$m(H_2O_2) = \frac{c(Na_2S_2O_3) \cdot V(Na_2S_2O_3) \cdot M(\frac{1}{2}H_2O_2)}{1000}, \text{ g},$$

bu yerda:  $c(Na_2S_2O_3)$  –  $Na_2S_2O_3$  eritmasining molyar konsentratsiyasi;  $M(\frac{1}{2}H_2O_2)$  –  $H_2O_2$  ekvivalent molyar massasi;  $M(\frac{1}{2}H_2O_2) = 17,0 \text{ g/mol}$ .



Vodorod peroksid eritmasi tibbiyotda shilliq pardalar yallig'lanishida chayish va surkash (stomatit, angina) hamda yiringli yaralarni davolashda keng ishlataladi. Teri kasalliklarida vodorod peroksiddan dezinfeksiyalovchi vositali sifatida foydalaniladi.

#### 4. Eritmadagi formaldegidni ekvivalent molyar konsentratsiyasi va titrini aniqlash (qayta titrlash)

Eritmadagi formaldegidni yodometriya usulida aniqlash quyidagi reaksiyaga asoslangan:



Tekshirilayotgan modda eritmasiga avvaldan ortiqcha olingan yod eritmasidan aniq hajmda qo'shiladi, so'ngra qoldiq yod standartlangan  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  eritmasi bilan titrlanadi:



Tenglamadan ko'rinaradiki,  $\text{I}_2$  ning ekvivalent molyar massasi quyidagiga teng:

$$M\left(\frac{1}{2}\text{I}_2\right) = \frac{M(\text{I}_2)}{2} = \frac{253,8}{2} = 126,9 \text{ g/mol.}$$

**Ishning borishi.** Titrlash uchun kolbaga 5,00 ml formaldegid eritmasi o'lchab solinadi, 20,00 ml yod eritmasi (titrlangan) qo'shiladi va somon-sariq rang hosil bo'lguncha tomchilab 2,00 mol/l konsentratsiyali NaOH eritmasi qo'shiladi. Kolbani shisha bilan yopib, 4–5 minut qorong'i joyda saqlanadi. Eritmaga 2,00 mol/l konsentratsiyali 3 m/ HCl qo'shiladi va aralashmani och sariq rangga kirguncha natriy tiosulfatning standartlangan eritmasi bilan titrlanadi; 1 ml kraxmal qo'shiladi, bunda eritma ko'k rangga bo'yaladi va shu rang yo'qolguncha bir tomchidan titrlashni davom ettiriladi. Titrlashga sarf bo'lgan natriy tiosulfat eritmasining aniq hajmi belgilanadi. Titrlashni yana 2 marta takrorlanadi, natijalarini jadvalga yoziladi. Bir-biriga yaqin natijalardan o'rta arifmetik qiymatni olib hisoblanadi.

Tar. raq.	$V(\text{CH}_2\text{O})$ , ml	$c(1/2\text{I}_2)$ , mol/l	$c(\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3)$ , mol/l	$c(\text{CH}_2\text{O})$ , mol/l	$t(\text{CH}_2\text{O})$ , g/ml	Indikator
1						
2						Kraxmal
3						
O'rtacha qiymati						

Formaldegidning ekvivalent molyar konsentratsiyasi quyidagicha topiladi:

$$c(\text{CH}_2\text{O}) = \frac{V(\text{I}_2) \cdot c\left(\frac{1}{2}\text{I}_2\right) \cdot V(\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3)}{V(\text{CH}_2\text{O})}, \text{ mol/l,}$$

$$t(\text{CH}_2\text{O}) = \frac{c(\text{CH}_2\text{O}) \cdot M\left(\frac{1}{2}\text{CH}_2\text{O}\right)}{1000}, \text{ g/ml.}$$

Formaldegid tibbiyotda dori moddalar olishda boshlang‘ich mahsulot sifatida ishlataladi. Uning 40% li eritmasi formalin deb ataladi. Formalin oqsilga ta’sir etib, uni suvda erimaydigan qiladi va chirishdan saqlaydi. Shuning uchun formalin anatomik preparatlarni konservatsiyalashda ishlataladi.

Formalin yana qo‘l yuvishda dezinfeksiyalovchi vosita sifatida, ko‘p terlashda (0,5–1% li eritmasi), asbob-anjomlarni dezinfeksiyalashda, klizma uchun (1 : 2000–1 : 3000 eritmalar) ishlataladi.

## IV b o b

### BIOGEN ELEMENTLAR

#### BIOGEN ELEMENTLAR KIMYOSI

**Mashg‘ulotning maqsadi.** Talabalarni biogen elementlar kimyosi va sifat analizi asoslari bilan tanishtirish.

**O‘rganilayotgan mayzuning ahamiyati.** Bionoorganik kimyoning biogen elementlar bo‘limi kimyoviy elementlarning biologik jarayonlardagi ahamiyati va vazifalarini o‘rganadi.

Odam organizmida juda ko‘p kimyoviy birikmalar sintezlanadi. Bu birikmalarning bir qismi energiya manbai bo‘lib, organizmning o‘sishi va rivojlanishini ta’minlaydi, qolgan qismi esa chiqindi sifatida organizmdan chiqib ketadi.

6 ta element – uglerod, kislorod, vodorod, azot, oltingugurt va fosfor organizmning hayot faoliyati jarayonida moddalar almashinuvida (metabolizmda) qatnashadi. Bularidan tashqari ko‘pchilik elementlar – kremlniy, vanadiy, marganes, kobalt, nikel, mis, molibden, yod, brom, rux va boshqalar organizmda ma’lum funksiyani bajaradi. Tirik organizmni asosan 78 ta element tashkil etadi, jumladan odam organizmining 90% ini biogen elementlar tashkil etadi.

Ko‘pgina *s*- va *d*-elementlar hayotiy muhim va fiziologik faol biogen elementlardir. Shuningdek, ko‘pgina I, II guruh *s*- elementlari va ba’zi *d*- va *p*- elementlar, asosan temir guruhchasi elementlarining dorivor preparatlari mavjud.

Moddalarning tarkibiy qismlarini aniqlashda sifat analizi katta ahamiyat kasb etadi. Sifat analizining asosiy maqsadi ayni moddaning sifat tarkibini aniqlash, ya’ni modda tarkibiga kiruvchi ionlarning yoki organik moddalar tarkibidagi ayrim funksional guruhlarni aniqlashdir. Sifat analizi tibbiyot amaliyotida biologik obyektlarni

tekshirishda keng qo'llanadi. Masalan, organizmdagi biologik suyuqliklarning, oziq-ovqat mahsulotlarining tarkibini aniqlashda ham sifat analizi usullaridan foydalaniladi.

### **Boshlang'ich bilim darajasi:**

1. Elementlar xossalaring D.I. Mendeleyev davriy jadvalidagi joylashishiga ko'ra o'zgarishi qonuniyatları.
2. Atomlarning elektron tuziliishi.
3. Molekulalardagi kimyoviy bog'lanish turlari.
4. Kimyoviy reaksiyalarning molekular va ionli tenglamalarini tuzish.

### **Mustaqil tayyorlanish uchun o'quv adabiyotlar:**

1. Н.Л. Глинка. Общая химия. 1984, 543–652- bet.
2. С.С. Оленин, Г.Н. Фадеев. Неорганическая химия. М., 1979, 241–372- betlar.
3. В.Н. Алексеев. Курс качественного химического полумикроанализа. М., 1973, 121–344- betlar.
4. К.А. Селезнёв. Аналитическая химия. М., 1973, 71–98- betlar.
5. И.К. Цитович. Курс аналитической химии. М, 1985, 102–131- betlar.
6. Х.Х.Хакимов, А.З.Татарская. Периодическая система и биологическая роль элементов. Т., 1985, 16–64- betlar.
7. С.С.Касымова. Биогенные элементы. Т., 1990.
8. S.S.Qosimova, S.M.Masharipov, Q.O.Najimov. Umumiy va bioorganik kimyodan amaliy mashg'ulotlar. Т., 2001, 88–103- betlar.
9. X.H.Hakimov, A.Z.Tatarskaya, N.T.Olimxo'jayeva. Umumiy kimyodan amaliy mashg'ulotlar. Т., 1993, 157–240- betlar.

### **Darsda ko'rildigan savollar:**

1. Biogen elementlar kimyosi – kimyoviy elementlarning tirik organizmdagi biologik rolini o'rganishning asosi.
2. Biologik muhim *s*-elementlar.
3. Biologik muhim *d*-elementlar.
4. Biologik muhim *p*-elementlar.
5. *s*-elementlarning kimyoviy xossalari.
6. *d*-elementlarning kimyoviy xossalari.
7. *p*- elementlarning kimyoviy xossalari.
8. Tibbiyotda *s*-, *p*- va *d*- elementlar birikmalarining qo'llanishi.
9. Sifat analizi asoslari.
10. *s*-, *p*- va *d*- elementlar ionlariga sifat reaksiyalari.
11. Laboratoriya ishi.

## MA'LUMOTLAR YIG'INDISI

Tirik organizmning normal hayot faoliyati uchun zarur bo'lgan va ularning tanqisligi ba'zi patologik holatlarga olib keladigan, organik va noorganik birikmalar asosini tashkil etuvchi elementlar *biogen elementlar* deyiladi. Organizmda biogen elementlar ishtirokida bora-digan reaksiyalarni *bionoorganik kimyo fani* o'rGANADI. Elementlarning biologik ahamiyati ularning fizik-kimyoviy xossalari bilan belgilanadi.

Biogen elementlar tirik organizmdagi hayotiy jarayonlarda ahamiyatiga ko'ra 3 guruhga bo'linadi:

1. Tirik organizmlarning asosini tashkil qiladigan va ularning yetishmasligi patologik holatlarni keltirib chiqaradigan elementlar. Ularga: H, O, N, C, P, S, F, Cl, I, Se, Na, K, Mg, Ca, Mn, Fe, Co, Cr, V, Cu, Zn, Mo, Ti, B, Si kiradi.

2. Biogen bo'lмаган, ammo dorivor preparatlar tarkibiga kira-digan elementlar. Ularga: Ag, Au, Al, Pb, Sb, Bi, Pt kiradi.

3. Hozirgi kunda dorivor preparatlar tarkibiga kirmaydigan va ahamiyati oxirigacha o'rganilmagan elementlar.

Odam organizmidagi turli o'rganlar ba'zi elementlarni o'zida tutib qolib, ma'lum miqdorda to'playdi va shu organ faoliyati uchun bu elementlar ahamiyatga ega bo'ladi. Organizmda bu elementlar miqdorining kamayishi patologik holat keltirib chiqaradi. Shuning uchun bu elementlarni organizmga kiritish (yoki chiqarib yuborish) tibbiyot ilmining muhim masalalaridan hisoblanadi.

Hozirgi kunda 110 dan ortiq kimyoviy elementlar ma'lum bo'lib, ulardan 92 tasi tabiatda uchraydi. Yarmidan ko'pi esa biologik sistemalar tarkibiga kiradi. 18 ta element organizmdagi biologik muhim funksiyalarni bajaradi. Ulardan 6 tasi (H, C, O, P, S, N) oqsillar, nuklein kislotalar tarkibiga kiradi. Qolgan 12 ta elementlar (Na, K, Ca, Mg, Mn, Fe, Co, Cu, Zn, Mo, Cl, I) organizmning hayot faoliyatida ishtirok etadi. Ulardan 10 ta metall *biometallar* deb ataladi. Bu elementlar bir-biridan atom tuzilishi, kimyoviy xossalari va organizmdagi miqdorlari bilan farqlanadi.

O'simlik va hayvon organizmlari atrof muhitdan turli elementlarni o'zlashtiradi va o'zida to'playdi.

Kimyoviy elementlarning organizmdagi miqdori turlicha bo'li-shiga quyidagi omillar ta'sir etadi:

- Yer qobig'ida elementning tarqalganligi;
- tabiatdagi birikmalarining agregat holati;
- ularning suvda eruvchanligi.

Tirik organizmda tabiatda ko'p uchraydigan elementlar (kislород, углерод, водород, азот, кальций, магний, натрий, фосфор, олтингурт, хлор) ко'п miqdorda bo'ladi.

Biogen elementlarning sinflanishi quyidagi hususiyatlariiga ko'ra olib boriladi.

*Elektron tuzilishiga ko'ra:*

- biogen s- elementlar: Li, Na, K, Mg, Ca va boshqalar;
- biogen p- elementlar: O, C, S, Cl, P va boshqalar;
- biogen d- elementlar: Mn, Fe, Zn, Co, Cu, Ni, Cr, Mo va boshqalar.

*Bu elementlar organizmdagi miqdoriga ko'ra:*

- makrobiogen elementlar – organizmdagi umumiyl miqdori 0,01% va undan ko'p bo'lgan elementlar. Ularga: O, C, H, N, S, P, Ca, Na, K, Mg va boshqalar kiradi
- mikrobiogen elementlar – organizmdagi umumiyl miqdori  $10^{-3}$ – $10^{-5}$  % bo'lgan elementlar. Ularga: Mn, Co, Cu, Mo, Zn, F, I va boshqalar kiradi.
- ultramikrobiogen elementlar – organizmdagi umumiyl miqdori  $10^{-5}$  % dan kam bo'lgan elementlar. Ularga: Au, Se, Bi, Hg va boshqalar kiradi.

Biogen elementlar tirik organizmda bajaradigan funksiyasi, ahamiyati bo'yicha quyidagi 3 guruhga bo'linadi:

- organizmning hayot faoliyatida *muhim rol o'ynaydigan*, hayotiy zarur elementlar. Ularning organizmda yetishmasligi turli patologik holatlarga olib keladi. Bularga ko'pchilik makrobiogen va ba'zi mikrobiogen elementlar kiradi. Masalan: Na, K, Mg, Ca, Co, Cu, Fe, Zn va boshqalar;
- organizmning hayot faoliyatida *ahamiyatga ega bo'lishi mumkin bo'lgan* elementlar. Ularga organizmning biologik sistemalarida mavjud bo'lib, ishtiroki, ahamiyati oxirigacha o'rganilmagan elementlar kiradi. Masalan: Cr, Ni, Cd va boshqalar;
- biologik faoliyati *aniglanmagan* elementlarga shu kungacha to'qimalarda uchrashi, ammo faoliyati o'rganilmagan elementlar kiradi. Masalan: Tl, In, La, Te, W va boshqalar.

## BIOLOGIK MUHIM s- ELEMENTLAR

**Natriy va kaliy** I guruhning biogen s- elementlari bo'lib, organizmning normal faoliyati uchun juda muhim hisoblanadi. Ular odamning barcha organlarida mavjud. Bu elementlar makroelementlardir. Natriy ion ko'rinishida turli biomolekulalar tarkibiga kiradi. Odam organizmida uning miqdori 0,25% ni tashkil etadi. Natriya 1 sutkada

bo‘lgan talab 4–7 g dir. Natriyning qondagi miqdori 0,32% ni tashkil qiladi. Uning ionlari organizmda suvni bir me'yorda ushlab turishga yordam beradi. U  $Mg^{2+}$ ,  $Ca^{2+}$ ,  $K^+$ ,  $Cl^-$ , ionlari bilan birga nerv impulsleri o‘zlashtirilishida va mushaklarning normal holatini saqlashda muhim ahamiyatga ega. Kaliy ioni hujayranning ichki suyuqliklari tarkibiga, natriy ioni esa hujayralararo suyuqlik tarkibiga kiradi. Qattiq kuyish oqibatida kelib chiqadigan shok holatlarida  $K^+$  ionlarining shu suyuqliklarda etishmasligi kuzatiladi. Kaliy ionlari yurak va miyaning normal hayot faoliyatini uchun zarurdir.  $Na^+$  ionlari fosfat kislota birikmalarini va organik kislotalar o‘rtasidagi kislota-asosli muvozanatni saqlaydi. Kaliy ioni piruvatkinaza fermenti bilan birga fosfoenolpiruvatni enolpiruvatga aylantirishda ishtirot etadi. Bu organizm ucun eng muhim bo‘lgan jarayonlardan birini oxirgi reaksiyasi hisoblanadi. Organizmga  $Na^+$  va  $K^+$  ionlari sabzavot va mevalar bilan kiradi.

II guruh biogen s- elementlari – Mg va Ca makroelementlardir.

**Magniy** ionlari 15 dan ortiq fermentni faollaydi. Bu element ATP ni AMF ga o‘tishida qatnashadi. Mg organizmga antiseptik va qon tomirlarni kengaytiruvchi ta’sir etadi, qon bosimini kamaytiradi, o‘simliklarda xlorofill tarkibining 2% i tashkil etadi.

Magniy ionlari ribosomalar tarkibiga kirib, ularda oqsil molekulasiini bog‘lovchi ko‘prikcha vazifasini bajaradi. Magniyning zarur miqdorini organizm meva va sabzavotlardan oladi. Mg asosan o‘rik, shaftoli, gulkaram, karam, kartoshka, pomidor tarkibida bo‘ladi. Oziq ovqatlardagi magniy ionining faqatgina 40 % ini organizm o‘zlashtiradi. O‘zlashtirilgan magniy ionlari jigarda to‘planadi, keyin mushak va suyaklarga o‘tadi. U uglevodlar almashinuvini yaxshilaydi, suyaklarda Ca bilan birga muhim element hisoblanadi. Kalsiy-magniyli muvozanat buzilganda barcha magniy suyak va mushaklarga o‘tib kalsiyini siqib chiqaradi va magniyli raxit kelib chiqadi. Magniy miya faoliyatida ham katta ahamiyatga ega. Bu ion ta’sirida nerv impulslarini o’tkazish jarayonlari, mushaklar qisqaruvi kuzatiladi.

**Kalsiy** o‘ta zarur hayotiy elementdir. U organizmda ion ko‘rinishida oqsillar va lipidlar bilan bog‘langan holda bo‘ladi. Kalsiy organizmga o‘simlik oziqlari va sut orqali tushadi. Odam organizmining 2% ni tashkil etadi. Uning asosiy qismi suyak va tish to‘qimalarida fosfatlar, karbonatlar, fторидлар shaklida bo‘ladi.

To‘qimalarda kalsiyning konsentratsiyasi oz bo‘ladi.

Normal holdagi odam qonida kalsiy 9–11 mg · % miqdorida bo‘ladi. Bu miqdorning kamayishi asab sistemasining qo‘zg‘aluvchanligini oshiradi. Ionlashgan kalsiy qon ivishida va muskullarning qisqaruvi va bo‘shashuvida ishtirot etadi. Uning sintezi D vitaminiga bog‘liq. D vitaminini organizmda kalsiy almashinuvini boshqaradi. Odam organizmiga tushgan kalsiy ichaklarning shilliq qavatida saqlanadigan maxsus oqsil

moddasi bilan bog'lanadi va organizmda tutib qolinadi. O'z navbatida bu oqsilning sintezlanishi D vitaminini miqdoriga bog'liq bo'lib, uning organizmda kamayishi bu oqsilning sintezlanishi va demak kalsiy ionining o'zlashtirishini qiyinlashtiradi va oqibatda raxit keltirib chiqaradi.

$\text{Ca}^{2+}$  ionlari qator ishqoriy-yer metallar, masalan, stronsiy bilan almashinishi mumkin. Bu holda kasbiy kasalliklar kelib chiqadi.

Organizmda kalsiy miqdori ortib ketsa, u toksik ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ba'zi kalsiy almashinuvi buzilgan jarayonlarda glaukoma, ateroskleroz, siyidik-tosh kasalliklari, podagra kelib chiqadi.

## BIOLOGIK MUHIM d- ELEMENTLAR

d- elementlar fiziologik faol elementlardir. Ular hayotiy zarur elementlar hisoblanib, qon hosil bo'lishi kabi muhim jarayonlarda ishtirot etadi. Ular ko'pgina fermentlar tarkibiga kiradi, tirik hujayra ning bioredoks jarayonlarida ishtirot etadi. Biogen d- elementlar ichida o'zgaruvchan elementlar, ya'ni d pog'onachasi to'lman elementlar katta ahamiyatga ega. Ularga Cu, Zn, Mn, Fe, Co, Ni, Cr, Mn, Mo va boshqalar kiradi.

**Mis** – I turuh biogen d- elementidir. U organizm faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Uning fiziologik deposi jigar, suyak va bosh miya hisoblanadi. Mis organizmnинг  $1 \cdot 10^{-4} \%$  ini tashkil etadi. Organizmnинг 1 sutkadagi misga bo'lqan ehtiyoji 2–3 mg ni tashkil etadi.

Mis organizmda oqsillar, fermentlar va vitaminlar bilan kompleks holda bo'ladi. Oqsillar va fermentlar, masalan oksidaza, laktaza, askarbinoksidaza tarkibiga kirib, fermentativ oksidlanish jarayonida faol qatnashadi.

Mis oksidlanish-qaytarilish fermenti bo'lgan – sitoxromoksidaza tarkibiga kiradi, u seruloplazmin molekuläsining ajralmas qismidir. Uning miqdorining o'zgarishi patologik holatlarni keltirib chiqaradi. Miya va jigarda Cu ning ortiqcha miqdorda to'planishidan Vilson kasalligi kelib chiqadi.

Mis almashtirib bo'lmaydigan mikroelementdir. Qon zardobidagi misning asosiy qismi oqsil muddalari ( $\alpha$ - globulinlar) bilan birikkan holda bo'ladi. Bu kompleks *seruloplazmin* deyiladi. U jigarda sintezlanadi, keyin qon tarkibiga o'tadi.

Tirik organizmda qon hosil bo'lishida mis maxsus vazifani bajradi. Ba'zi fikrlarga ko'ra u noorganik temirni gemoglobinli temirga aylantirishda zarur bo'ladi. Mis retsikulotsitlarning eritrotsitga o'tishini ta'minlaydi. Uning organizmda etishmasligi o'tkir anemiyani, diareya (yosh bolalarda), Menxes kasalligini keltirib chiqaradi. Menxes

sindromi bolalarda mis ioni so'rilishining genetik daffektidan kelib chiqadi. Uning tavsifli belgilari: miya rivojlanishda orqada qolishi, gipotermiya, uzun suyaklar uchlari emirilishi va h.k.

Mis fermentativ jarayonlarda elektronning tashilishini, ularni kompleks hosil qilishini tezlashtiradi hamda fermentlarning uchlamchi tuzilishini saqlashda yordam beradi. Mis insulinning insulinazaga o'tishini katalizlovchi fermentning faolligini kamaytirishi mumkin.

Mis ba'zi fermentlarning faolligini oshirishi mumkin. Bu fermentlar oksidlanishda, teri orqali nafas olishda, immun jarayonlarda, pigmentatsiyada qatnashadi.

**Rux II** guruh biogen *d*-elementi bo'lib, organizmda uning miqdori  $1 \cdot 10^{-3} \%$  ni tashkil etadi. Organizmga 1 sutkada 10–15 mg rux talab qilinadi. Rux organizmga oziq-ovqatlar bilan tushib, ingichka ichakning yuqori qismlarida so'rildi. Keyin jigarga borib, depolanadi va talabga ko'ra sarflanadi. Ruxning katta qismi ko'zning shox pardasida bo'ladi, ichki sekretsiya bezlarida, jigarda, mushaklarda uchraydi.

Rux ioni qator fermentlarga kofaktor vazifasini bajaradi. Masalan: karboangidraza, karboksipeptidaza, alkogoldegidrogenaza va h.k. Rux insulin tarkibiga kiradi va qand almashinuviga ta'sir etadi. Ovqatda ruxning yetishmasligi organizm o'sishning sekinlashuviga, soch to'kilishiga, jinsiy faoliyatning o'zgarishiga olib keladi.

Rux almashtirib bo'lmaydigan mikroelementlarga kiradi. U yog', uglerod, oqsil almashinuvida faol ishtirok etadi.

Rux ionlari ishqoriy fosfotazani faollashtiradi. Rux gipofiz gormonlarini va jinsiy gormonlarni faollashtiradi, qon hosil bo'lishida ishtirok etadi, organizmdan  $\text{CO}_2$  ning chiqib ketishini ta'minlaydi.

**Marganes VII** guruh biogen *d*-elementi bo'lib, odam organizmda uning miqdori  $1-10^{-3} \%$  ni tashkil etadi. Oziq-ovqat mahsulotlaridan lavlagi, pomidor, soya, yashil nohat, kartoshkada ko'p uchraydi.

Marganesning ko'pgina qismi mushaklarda, bosh miyada, buyrakda, jigarda, qalqonsimon bezda, suyaklarda, taloqda uchraydi. Odam organizmining marganesga sutkalik ehtiyoji 6 mg atrofida. Bola organizmining bu elementga ehtiyoji katta, chunki bu element uning normal o'sishi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Marganes 8 xil oksidlanish darajasini namoyon eta oladi, biologik sistemalarda asosan 2 tasi uchraydi:  $\text{Mn}^{2+}$  va  $\text{Mn}^{3+}$ , ba'zan  $\text{Mn}^{4+}$  ham bo'lishi mumkin. Marganesning anion xili uchrashi ehtimoli deyarli yo'q.  $\text{Mn}^{2+}$  ioni  $\text{Mn}^{3+}$  ga o'xshash xossaga ega bo'lganligi uchun DNK komplekslarida  $\text{Mn}^{2+}$  ni almashtirib turishi mumkin.  $\text{Mn}^{3+}$  ning ko'pgina komplekslari, masalan,  $[\text{Mn}(\text{C}_2\text{O}_4)_3]$  barqaror hisoblanadi. Bu element

ham organizmning o'sishi va rivojlanishida, ko'payishida, hujayra bo'linishida, gormonlar ta'sirini oshirishda ishtirok etadi. Uning ishtirokisiz fotosintez jarayoni amalga oshmaydi. Odam va ba'zi jonivorlar qonida  $0,02 \text{ mg/l}$  miqdorda uchraydi. Marganes temir, mis va kobalt bilan birga qon hosil bo'lishida qatnashadi, antitelolar hosil bo'lishini tezlashtiradi. Marganes qand miqdorini kamaytiradi, ateroskleroz rivojlanishini to'xtatadi. Qator fermentlarni masalan, degidrogenaza va dekarboksilazani faollowaydi. Bu fermentlarsiz spetsifik metabolistik jarayonlar bormaydi, masalan, siydkning hosil bo'lishi.

Marganes tutgan metallofermentlar gidrolitik va oksidlanish-qaytarilish jarayonida ishtirok etadi.

Marganes B<sub>1</sub> va E vitaminlarining almashinuviga ta'sir ko'rsatadi. Oqsil va mineral almashinuvlarini ta'minlaydi. Uning oziq-ovqatlarda yetishmasligi patologik semirish, suyak rivojlanishida buzilish, endemik buqoq kasalliklarini keltirib chiqaradi.

Marganes skelet shakllanishida, immunitet reaksiyalarida, qon hosil bo'lishida, teri orqali nafas olishda qatnashadi. Marganetsning ortiqcha miqdori zaharli ta'sir ko'rsatadi va turli asab kasalliklarini keltirib chiqaradi.

**Temir** oilasiga temir, kobalt, nikel kiradi. Bu elementlar fiziologik faol va almashtirib bo'lmaydigan elementlar hisoblanadi.

Temir tabiatda eng keng tarqalgan element bo'lib, organizmdagi uning miqdori  $1 \cdot 10^{-5} \%$  ni tashkil etadi. U o'simliklarda, odam va hayvonlar organizmida muhim fiziologik funksiyani bajaradi. Odam organizmida 4–5 g miqdorda temir bo'ladi. Organizmda temir yetishmasa gemoglobin miqdori kamayib, anemiya kelib chiqadi. Uning asosiy deposi eritrotsitlar, jigar, taloq hisoblanadi. Temirning 60–72% gemoglobinda ekanligini hisobga olsa, qon hosil bo'lishida ahamiyati juda katta deb aytish mumkin. Gemoglobinda temir gemning porfirin halqasi bilan xelat kompleks hosil qiladi. Gemoglobin 2 funksiyani bajaradi: o'z atomlari bilan kislородни bog'lab olib, uni o'pkadan mushaklarga tashiydi va mioglobinga uzatiladi. Keyin aminoguruuhlar yordamida karbonat angidridni bog'lab, qayta o'pkaga yuboradi.

Kompleks birikmalarda temir bilan bog'langan ligand tabiatiga ko'ra temir 2 xil valent holatida bo'lishi mumkin: Fe<sup>2+</sup> – gemoglobin-da, mioglobinda, Fe<sup>3+</sup> – katalaza va oksidazada.

Oqsil bilan birikkan temir birikmalari turli vazifalarni bajaradi. Gemoglobin kislород tashiydi, mioglobin bog'langan holatda saqlaydi, c-sitoxrom oksidaza kislородни suvgacha oksidlaydi, P<sub>450</sub>-sitoxrom

kislorod bilan oksidlanishni katalizlaydi, *b*- sitoxrom va *c*- sitoxrom elektron tashish vazifasini bajaradi.

Tabiatda temir tutgan juda ko'p oqsil birikmalar mayjud. Ular oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida, fotosintez jarayonida elektron tashishida, azot va kislorod fiksatsiyasida va h.k. larda ishtirok etadi. Ularga 1 dan 8 tagacha temir atomlari kiradi. Ular o'zaro sistein qoldiqlari bilan bog'lanadi.

**Kobalt** kuchli biologik faoliyikka ega. U muhim hayotiy ahamiyatga ega bo'igan mikroelement. Kobaltning organizmdagi miqdori  $1 \cdot 10^{-6} \%$  ni tashkil etadi. Uning asosiy deposi jigar, buyrak, qon va taloq, oshqozon osti bezi, gipofiz, tuxumdonlar, suyak to'qimalari. Bir sutkada organizmnинг kobal'tga bo'lган ehtiyoji 0,001 mg. U B<sub>12</sub> vitaminini — sianokobalamin tarkibiga kiradi. Kobalt B<sub>12</sub> vitaminining 4,0% ini tashkil etadi. U ko'pgina fermentlar sintezida, qalqonsimon bez gormonlari, gemoglobin va boshqalar sintezida ishtirok etadi. Uning yetishmasligi yomon oqibatli anemiyanı keltirib chiqaradi. U ko'pgina fermentlarni faollaydi. Kobalt tuzlari organizmda nikatinamid va piridoksin to'planishini kuchaytiradi. Organizmda kobaltning ko'payib ketishi qalqonsimon bez faolyatini susaytiradi.

**Nikel** biosistemalardagi faoliyatiga ko'ra kobaltga yaqinroq. Odam organizmida nikelning miqdori  $1 \cdot 10^{-6} \%$  ni tashkil etadi. U jigarda, buyrakda, me'da osti bezida, gipofizda, terida, ko'zda uchraydi. Hozirgi kunda nikelning fermentativ jarayonlarga ta'siri aniqlangan. U angidraza fermentini faollaydi, oksidlovchilik jarayoniga ta'sir etadi va uglevod almashinuvida qatnashadi. Nikel insulin tarkibiga kiradi.

**Xrom va molibden** VI guruhning fiziologik faol *d*-elementlaridir. Xrom o'simlik dunyosida keng tarqalgan, ammo uning fiziologik faoliyati kam o'r ganilgan. U sochda va tirnoqlarda to'planadi. Odam organizmida  $1 \cdot 10^{-5} \%$  ni tashkil etadi. U glukoza almashinuvida ishtirok etadi. Ba'zi ma'lumotlar uning xossalari, marganes xossalari bilan o'xshashlidan dalolat beradi.

**Molibden** ham o'simlik dunyosida keng tarqalgan. Odam organizmida  $1 \cdot 10^{-5} \%$  uchraydi. U jigarda, buyrakda, buyrak usti bezida, ko'zda to'planadi. Molibden o'sishni tezlashtiradi, organizmda uning miqdori ortib ketishi esa molibdenli podagrani keltirib chiqaradi.

## BIOLOGIK MUHIM *p*- ELEMENTLAR

**Ublerod** — organizmdagi barcha organik birikmalarning asosidir. U organizmgaga oziq-ovqat mahsulotlari bilan tushadi, shuningdek ichimlik suvi bilan karbonatlar va bikarbonatlar ko'rinishida o'tadi. Organizmdan nafas chiqarish orqali 90% i chiqib ketadi. U asosiy

makrobiogen elementlardan biridir. Organizmdagi miqdori 20,2% ni tashkil etadi. Uning 52% i oqsillar tarkibida bo'ladi, 37% i DNK va RNK, fermentlar, gormonlar, vitaminlar tarkibida bo'ladi.

O'pkaga uzoq vaqt ko'mir changi kirsa, antrakoz kasalligi kelib chiqadi.

**Azot** – makrobiogen elementlardan biri. Hujayraning asosiy tarkibi bo'lgan protoplazma va yadro oqsil moddalardan tuzilgan. Oqsil azotsiz mavjud bo'lmaydi, oqsilsiz hayot yo'q. Oqsilning birlamchi tuzilishini aminokislotalar tashkil etadi.

Oqsil tarkibiga o'rtacha 15–17% azot kiradi. Azot shuningdek, fermentlar, ko'pgina gormonlar, vitaminlar tarkibida bo'ladi. Tirik organizmda doimo hujayralarning buzilishi va qayta tiklanishi boradi. Azot odam organizmining 3% ni tashkil etadi. Odam organizmi azotni havodon emas, balki tarkibida azot bo'lgan birikmalardan oladi. Uzoq vaqt oqsilsiz ovqatlar iste'mol qilish organizmda azot miqdori kamayishiga olib keladi. Aqliy mehnat bilan shug'ullanadigan katta yoshdagi odamlar organizmidagi azotga bo'lgan ehtiyoji 100 g, jismoniy mehnatda esa 130–150 g. Oqsillar hazm bo'lish jarayonida aminokislotalargacha parchalanadi. Aminokislotalar o'z navbatida oqsillar biosinteziga, boshqa moddalar energiya sarfiga va boshqa jarayonlarga sarf bo'ladi.

Barcha antibiotiklar – tabiiy moddalar bo'lib, mikroorganizmlarni o'ldiradi yoki o'sishini to'xtatadi. Bu moddalarning tarkibida ham azot bo'ladi.

Ko'pgina dorivor preparatlar – aminokislotalar, vitaminlar, gormonlar tarkibida azot hayot faoliyatiga zarur ko'rinishida bo'ladi.

**Fosfor** azot kabi organizm uchun muhimdir. Organizmgaga o'simliklar orqali tushadi.

Odam organizmida fosfor 1,16% ni tashkil etib, uning 86% i qiyin eruvchi kalsiy fosfat ko'rinishida suyak va tishlarda bo'ladi. Fosforning bir qismi yumshoq to'qimalar tarkibiga kiradi. Fosfat kislota yuqori energetik birikmalar hosil bo'lishida asosiy rol o'ynaydi (masalan, ATP, uglevod almashinuvida ham), DNK, RNK tarkibiga kiradi, fosfolipidlari, bufer sistemalar tarkibiga kiradi.

Bir sutkada organizm 2,94g fosfor talab qiladi. Uning katta qismi sut, go'sht, parranda, baliq, non, sabzavotlar orqali organizmgaga tushadi. Bu mahsulotlardagi fosforning 70% i organizmgaga so'rildi.

**Kislorod** ham makroelementlardan biri bo'lib, organizmda 65% ni tashkil etadi. U uglevodlar, oqsillar, barcha organlar, biologik suyuqliklar va boshqalar takribida bo'ladi.

Kislorodga boy bo'lgan keng tarqalgan modda suv hisoblanadi. Suv faqat hayotiy jarayonlar kechadigan muhitgina emas, balki kimyo-viy biologik jarayonlarda ham faol ishtiroy etuvchi moddadir.

Kislород карбонат кислота билан биргаликда нafas оlish va qon томир harакати markazlarini ishga soladi. U g'ovvoslar, o't o'chiruv-chilar va tog'-kon qurilmalarida (nafas оlish uchun) va tibbiyotda keng qo'llanadi.

**Oltingugurt** одам организмининг 0,16% ini tashkil qiladi. U организмнинг almashtirib bo'lmaydigan komponenti hisobланади, chunki u ko'pgina oqsillar, aminokislotalar, gormonlar, vitaminlar, nuklein kislotalar va h.k. tarkibiga kiradi. Tirik организмда oltingugurtli aminokislotalar sulfatlargacha, qisman tiosulfatlargacha oksidланади va elementар oltingugurt ham hosil bo'ladi.

**Ftor** yer po'stida keng tarqalган bo'lib, asosan birikmalar тarkibida uchraydi. Одам организмінде  $1 \cdot 10^{-50}\%$  uchraydi. Oziq-ovqatlar bilan организмга sutkasiga 1 ml tushadi. Suvdagи fтор miqdori одам va hayvonlar tishiga ta'sir ko'rsatadi. Normal holatda 1 l suvda 1 mg fтор bo'lishi kerak, suvda fтор miqdorining kamayishi karies (tish chirishi)ga olib keladi.

Fтор организмда kalsiy, magniy va boshqa ferment sistemalarining aktivatorlari bilan kompleks holda bo'ladi. Fтор организмга ko'p miqdorda kiritilsa yo'dning o'rnini egallab qalqonsimon bez faoliyatini buzadi.

Fтор ko'pgina neyroleptik preparatlar тarkibiga kiradi, fторsenazin shizofreniyada ishlatiladi. Fтор uratsil, fтораfur kabilar xavfli o'smalarda, fторонат – yallig'lanish va allergik teri kasalliliklarida ishlatiladi.

**Xlor** makroelement bo'lib, faol metalloid, sariq tusli o'tkir hidli gaz. U nafas оlish yo'llariga ta'sir etadi, yo'tal va qizib achishish, xatto bo'g'ilishgacha olib keladi. Shuning uchun uning havodagi miqdori 0,001 mg/l dan oshmasligi zarur.

Одам организмінде  $1 \cdot 10^{-2}\%$  xlor uchraydi. Hujayraning tashqi suyuqligida bo'ladi va xlorid kislota hosil qilishda ishtirot etadi. Me'da shirasining 0,4–0,5% ini tashkil etadi, u oqsillarning gidrolizini tezlashtiradi, protolitik fermentlarning faolligini oshiradi, bakteriotsid xususiyatga ega. Одам организмінде taxminan 0,25% xlor ionи mayjud. Bu ionlar hujayra membranalarining elektr o'tkazuvchanligiga ta'sir etadi, qon bufer sistemasining hosil bo'lishida, suv-tuz almashinuvida qatnashadi.

**Brom** tabiatda ishqoriy va ishqoriy-yer metallarning bromidlari ko'rinishida uchraydi. Bundan tashqari u dengiz, grunt va yer osti suvlarida uchraydi. Faol metalloid, xona temperaturasida harakat-chan to'q-ko'ng'ir rangli suyuqlik, parlanganda bo'g'uvchi hidli qo'ng'ir qizil rangda. Teri, ko'z, nafas yo'llarini zararlaydi.

Brom organizmning  $1 \cdot 10^{-4} \%$  ini tashkil etadi. U ko‘pgina organlarda uchraydi, gipofizda uning ta’siri faol ekanligi seziladi.

Brom organizmga oziq-ovqat bilan kirib (sutkasiga 7,5 mg) to‘qimalarda va qonda to‘planadi. Brom organizmning jinsiy gormonlarida uchraydi. Asosiy ijobiy ta’siri markaziy nerv sistemasi tormozlanishini kuchaytiradi. Bromning organik birikmalari tinchlan-tiruvchi va uxlatuvchi ta’sir ko‘rsatadi.


**Yod** tabiatda natriy va kaliy yo‘didlar ko‘rinishida uchraydi. Organizmning  $1 \cdot 10^{-6} \%$  ini tashkil etadi. Yod moddalar almashinuvida muhim vazifalarni bajaradi. U asosan qalqonsimon bezda (15 mg) to‘planadi. Piyoz va dengiz balig‘i tarkibida uchraydi. Yod tiroksin va triyodtironin gormonlarining asosiy tarkibini tashkil etadi. Yod organizmda ortib ketsa, qalqonsimon bez faoliyati buziladi, u gormonlar ishlab chiqarishini keskin kamaytiradi.

Molekular yod mikrobgaga qarshi ta’sirga ega, uning eritmalari bilan yaralarga ishlov beriladi. Tibbiyotda yodning 5–10% li spirtli eritmasi mikroblarga qarshi kurashishda qo’llanadi. Yod organizmga so‘rilib, moddalar almashinuviga faol ta’sir ko‘rsatadi, dissimilyatsiya jarayonini tezlashtiradi, tiroksin sintezida ishtirot etib qalqonsimon bez faoliyatini yaxshilaydi. Organizmning unga sutkalik ehtiyoj 0,1 mg ni tashkil qiladi.






## BIOGEN ELEMENTLARNING KIMYOVIY XOSSALARI

### s- ELEMENTLARINING KIMYOVIY XOSSALARI


**Natriy va kaliy** I guruh biogen s-elementlariga kiradi. Ular ishqoriy metallarga mansub bo‘lib, tashqi elektron qavatida  $ns^1$  elektronga ega. Kimyoviy faol metalmaslar bilan reaksiyaga kirishganda kuchli qaytaruvchi hossasini namoyon qiladi. Birikmalarda ularning oksidlanish darajasi +1.




Kaliy natriyga nisbatan katta atom radiusi va kichik ionlanish energiyasi bilan farqlanadi. Ular – elektromanfiy elementlar, ko‘pgina murakkab moddalar bilan reaksiyaga tez kirishadi:



Vodorod bilan gidridlar hosil qiladi:




Ishqoriy metallarning oksidlari suv bilan reaksiyaga oson kirishib suvda eruvchan gidroksidlar hosil qiladi:




Bu gidroksidlar suvda yaxshi dissotsilanadi, shu sababli ularni kuchli ishqorlar deb ham yuritiladi.

Ishqoriy metallarning barcha kislotalar bilan tuzlari mavjud. Tuzlari kuchsiz kislotadan hosil bo'lgan bo'lsa, suvda gidrolizga uchraydi va ishqoriy muhit hosil qiladi:




**Kalsiy va magniy II** guruh biogen s- elementlariga kiradi. Magniy tipik element, kalsiy – ishqoriy-yer metall. Tashqi elektron qavatida  $ns^2$  elektronlar mavjud. Havoda oson oksidlanadi. Oksidlanish darajasi +2, ular kuchli qaytaruvchi xossaga ega:



Kalsiy, magniya nisbatan katta atom radiusi va kichik ionlanish energiyasi bilan farqlanadi.

Kalsiy vodorod bilan to'g'ridan-to'g'ri reaksiyaga kirib gidrid hosil qiladi:



Kalsiy havoda oson oksidlanadi. Ko'pchilik elektromansiy elementlar bilan reaksiyaga kirishadi:




Kalsiy oksid olovbardosh modda. Uning texnik nomi kuydirilgan yoki so'ngdirilmagan ohak. So'ngdirilmagan ohak suv bilan katta energiya ajratib reaksiyaga kirishadi:



Kalsiy gidroksid kuchli asos, suvda oz miqdorda eriydi, to'yingan eritmasi *ohakli suv* deb ataladi, ishqoriy xususiyatga ega. Kalsiy gidroksid havodon  $\text{CO}_2$  gazini yutadi va suvda erimaydigan kalsiy karbonat hosil qiladi.

Magniyidan kalsiyga qarab asoslik xossalari ortib boradi:



Bu metallarning, oksid va gidroksidlarining suvda eruvchanligi ham shu tartibda ortib boradi.

Magniyning ko‘pchilik tuzlari suvda yaxshi eriydi. Kalsiyning nordon tuzlari, nitrati, xloridi suvda yaxshi eriydi, karbonat, fosfat va sulfat tuzlari esa suvda qiyin eriydi.


Magniy, kalsiydan farqli o‘laroq kompleks birikmalar hosil qiladi:




## d- ELEMENTLARNING KIMYOVIY XOSSALARI

**Xrom** VI guruh d- elementlarga kiradi. Xrom atomining elektron konfiguratsiyasi  $3d^54s^1$ . Bu element o‘zgaruvchan oksidlanish darajasiga ega, ulardan +2, +3, +6 birikmalari barqarorroq. Bog‘ hosil bo‘lishida oxirgi va oxiridan bitta oldingi qavatdagi elektronlar qatnashadi.


Xrom juda qattiq metall. U qizdirilganda ko‘pchilik metallmaslar bilan reaksiyaga kirishadi:




Xrom suyultirilgan kislotalardan vodorodni siqib chiqaradi:




Xromning kimyoviy xossalari uning oksidlanish darajasiga bog‘liq.  $\text{Cr}^{2+}$  – kuchli qaytaruvchi:




$\text{Cr}^{3+}$  – kuchsiz qaytaruvchi:




$\text{Cr}^{6+}$  – kuchli oksidlovchi:




$\text{CrO}$ ,  $\text{Cr(OH)}_2$  – asosli xossaga ega:



$\text{Cr}_2\text{O}_3$ ,  $\text{Cr(OH)}_3$  – amfoter xossaga ega:




$\text{CrO}_3$ ,  $\text{H}_2\text{CrO}_4$ ,  $\text{H}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$  – kislotali xossaga ega:




$\text{Cr}^{2+}$  va  $\text{Cr}^{3+}$  ionlari kation va anion tipidagi kompleks birikmalar hosil qiladi. Bu birikmalarda xromning koordinatsion soni 4 va 6 ga teng:  $[\text{Cr}(\text{H}_2\text{O})_4]^{2+}$ ,  $[\text{Cr}(\text{H}_2\text{O})_6]^{3+}$ ,  $[\text{Cr}(\text{H}_2\text{O})_5\text{Cl}]^{2+}$ ,  $[\text{Cr}(\text{H}_2\text{O})_4\text{Cl}_2]^+$ ,  $[\text{CrCl}_6]^{3-}$ .

Xromning xlorid, sulfat va nitrat tuzlari suvda yaxshi eriydi, gidroksidi, fosfat va asosli tuzlari qiyin eriydi. Xromni kuchli kislotalar bilan hosil qilgan tuzlari suvli eritmalarda gidrolizga uchraydi va asosli tuzlar hosil qiladi:




Mis I guruh *d*-elementlarga kiradi. Atomining elektron konfiguratsiyasi  $3d^{10}4s^1$ . Misning kimyoviy faolligi yuqori emas. Mis kuchsiz qaytaruvchi bo'lib, qiyin oksidlanadi. Kimyoviy bog' hosil qilishda atomidagi tashqi va oxiridan bitta oldingi qavatdagi elektronlar qatnashadi. Shuning uchun misning oksidlanish darajasi +2 va +1 ga teng.

Odatdagi temperaturada galogenlar va kislorod misga ta'sir etmaydi. U vodorod, azot, uglerod bilan bevosita reaksiyaga kirishmaydi. Oksidlovchi xossaliga ega bo'lмаган kislotalar misni eritmaydi. Konsentrangan sulfat kislota, konsentrangan va suyultirilgan nitrat kislota bilan mis shiddatli reaksiyaga kirishadi:



Misning oksidi va gidroksidi beqaror birikmalar bo'lib, suvda erimaydi. Qizdirilganda mis gidroksid parchalanadi:




Mis kompleks hosil qilishga moil element bo'lib, koordinatsion soni 4 va 6 bo'lgan kation va anion tipidagi kompleks birikmalar hosil qiladi:  $[\text{Cu}(\text{H}_2\text{O})_6]^{2+}$ ;  $[\text{Cu}(\text{NH}_3)_4]^{2+}$ ;  $[\text{Cu}(\text{H}_2\text{O})_4(\text{NH}_3)_2]^{2+}$ ;  $[\text{Cu}(\text{OH})_4]^{2-}$ .

Misning tuzlari: xloridlari, sulfatlari, nitratlari, asetatlari suvda yaxshi eriydi.

**Rux** II guruh d- elementlarga mansub. Atomining elektron konfiguratsiyasi  $3d^{10}4s^2$ . Bu element IV davrdagi oxirgi d- elementdir, oxiridan bitta oldingi qavati tugatilgan va  $d^{10}$  konfiguratsiyaga ega. Bu bilan rux boshqa elementlardan farq qiladi va katta davr elementlariga o'xshab ketadi. Ruxning oksidlanish darajasi +2.


Rux og'ir metall bo'lib, qaytaruvchilik xossasini namoyon qiladi. Havoda oksidlanganda sirtida oksid parda hosil bo'ladi. Bu parda uni keyingi oksidlanishidan saqlaydi. Shuning uchun rux barqrordir. Qizdirilganda ko'pchilik metalmaslar bilan oson reaksiyaga kirishadi:





Rux elektrokimyoviy kuchlanishlar qatorida vodoroddan chapda joylashgan, shuning uchun kislorodsz kislotalardan vodorodni siqib chiqaradi:



Qizdirilganda ishqor eritmalarida eriydi:





Rux oksid va gidroks amfoter xossaga ega:




Rux kation va anion tipidagi kompleks birikmalar hosil qiladi. Bu birikmalarda uning koordinatsion soni 4 va 6 ga teng:  $[\text{Zn}(\text{OH})_4]^{2-}$ ,  $[\text{Zn}(\text{NH}_3)_6]^{2+}$ ,  $[\text{Zn}(\text{H}_2\text{O})_6]^{2+}$ .

Ruxning ko'pchilik tuzlari suvda oz eriydi. Xlorid, nitrat va sulfat tuzlari suvda yaxshi eriydi. Rux tuzlarining aksarisi suvli eritmada gidrolizlanib kislotali muhit hosil qiladi:




**Marganes** VII guruh d- elementlariga mansub. Atomining elektron konfiguratsiyasi  $3d^54s^2$ . Marganesga o'zgaruvchan oksidlanish darajasi hos +2, +3, +4, +6, +7. Kimyoviy bog' hosil qilishda marganes atomining tashqi va oxiridan oldingi qavatdagi elektronlari qtnashadi.


Marganes metall sifatida ancha faol. Qizdirilganda ko'pchilik metalmaslar, suyultirilgan kislotalar bilan reaksiyaga oson kirishib vodorodni siqib chiqaradi:




Marganes birikmalarining kimyoviy xossalari uning oksidlanish darajasiga bog'liq. Masalan,  $\text{Mn}^{2+}$  birikmalari qaytaruvchi hossasini namoyon qiladi:




$\text{Mn}^{4+}$  birikmalari kuchsiz qaytaruvchilardir:




$\text{Mn}^{7+}$  birikmalari kuchli oksidlovchi xossalarni namoyon qiladi:





$\text{MnO}$ ,  $\text{Mn(OH)}_2$  asosli xossani namoyon qiladi:




$\text{Mn}_2\text{O}_3$ ,  $\text{Mn(OH)}_3$  asosli xossasi ustunrok bo'lgan amfoter xossaga ega:




$\text{MnO}_2$ ,  $\text{H}_2\text{MnO}_3$  amfoter xossaga ega:



$\text{H}_2\text{MnO}_4$ ,  $\text{HMnO}_4$  kislotali xossaga ega:



Marganesning oksidlanish darajasi ortishi bilan kislotali xossasi kuchayadi, asosli xossasi kamayadi.




Marganes hamma valent holatlarida ko‘p sonli kationli va anionli komplekslar hosil qiladi. Bu komplekslarda marganesning koordinatsion soni 6 va 4 ga teng:  $[\text{Mn}(\text{H}_2\text{O})_6]^{2+}$ ,  $[\text{Mn}(\text{OH})_4]^{2-}$ ,  $[\text{Mn}(\text{CN})_6]^{4-}$ ,  $[\text{MnF}_6]^{4-}$  va boshqalar.

Uning neytral komplekslari – karbonillari mavjud:  $[\text{Mn}_2(\text{CO})_{10}]$ .


Marganesning xloridlari, sulfatlari, nitratlari, asetatlari ishqoriy metallarning manganatlari, permanganatlari suvda yaxshi eriydi. Gidroksidlari, sulfidlari, karbonatlari, fosfatlari suvda qiyin eriydi.

$\text{Mn}^{2+}$  tuzlari suvli eritmada gidrolizlanadi, ishqoriy metallarning permanganatlari esa gidrolizlanmaydi.



**Temir, kobalt, nikel** temir oilasidagi d- elementlarga kiradi. Ular atomining elektron konfiguratsiyasi:



Bu elementlar o‘zgaruvchan oksidlanish darajasiga ega:




Bu oiladagi barcha elementlar tugallanmagan 3d- pog‘onachaga ega. Kimyoviy bog‘ hosil qilishda 4s va 3d pog‘onacha elektronlari qatnashadi. Ular o‘rtacha faollikga ega metallar bo‘lib, boshqa metallardan magnitga tortilishi bilan farqlanadi. Bu metallar oddiy sharoitda metallmaslar bilan reaksiyaga kirishishi qiyinroq, lekin qizdirilganda ularning kimyoviy faolligi ortadi:



Temir yuqori temperaturada suv bilan reaksiyaga kirishadi:



Suyultirilgan kislotalardan vodorodni siqib chiqaradi:





Kobalt, nikel esa faolligi kamroq bo‘lgani uchun kislotalar bilan reaksiyaga qiyinroq kirishadi.

Konsentrlangan sulfat kislota bilan temir reaksiyaga kirishmaydi.



Fe – Co – Ni qatorida kimyoviy faoliyk kamayadi.

Temirning kimyoviy xossalari uning oksidlanish darajasiga bog‘liq:


Fe<sup>2+</sup> birikmalari kuchli qaytaruvchi:




Fe<sup>3+</sup> birikmalari oksidlovchi:




Fe<sup>6+</sup> birikmalari kuchli oksidlovchi:




FeO, Fe(OH)<sub>2</sub> asosli xossalari namoyon qiladi:



Fe<sub>2</sub>O<sub>3</sub>, Fe(OH)<sub>3</sub> asosli xossasi ustunroq bo‘lgan amfoter xossaga ega:





FeO<sub>3</sub> (H<sub>2</sub>FeO<sub>4</sub>) kislotali xossani namoyon qiladi:



Co<sup>2+</sup> birikmalari Fe<sup>2+</sup> birikmalariga nisbatan kuchsiz qaytaruvchi.

Fe(OH)<sub>2</sub> havo kislороди ta’sirida oson, Co(OH)<sub>2</sub> esa sekin oksidlanadi. Ni(OH)<sub>2</sub> umuman oksidlanmaydigan gidoksid.

Co<sup>3+</sup> birikmalari Fe<sup>3+</sup> birikmalariga nisbatan beqaror, lekin oksidlovchi xossasi kuchliroq:




Bu elementlar, ko‘pchilik o‘tuvchi metallar kabi kompleks hosil qiluvchilardir. Ular ham noorganik, ham organik ligandlar bilan kation va anion tipida kompleks birikmalar hosil qiladi. Ko‘pincha bu birikmalarda metallarning koordinatsion soni 4 va 6 ga teng.

[Fe(H <sub>2</sub> O) <sub>6</sub> ] <sup>2+</sup>	[Fe(H <sub>2</sub> O) <sub>6</sub> ] <sup>3+</sup>	[Co(H <sub>2</sub> O) <sub>6</sub> ] <sup>2+</sup>	Ni(H <sub>2</sub> O) <sub>6</sub> <sup>2+</sup>
[Fe(NH <sub>3</sub> ) <sub>6</sub> ] <sup>2+</sup>	[Fe(NH <sub>3</sub> ) <sub>6</sub> ] <sup>3+</sup>	[Co(NH <sub>3</sub> ) <sub>6</sub> ] <sup>2+</sup>	[Ni(NH <sub>3</sub> ) <sub>6</sub> ] <sup>2+</sup>
[Fe(CN) <sub>6</sub> ] <sup>4-</sup>	[Fe(CSN) <sub>6</sub> ] <sup>3-</sup>	[Co(OH) <sub>4</sub> ] <sup>2-</sup>	[Ni(CN) <sub>4</sub> ] <sup>2-</sup>
[Fe(CO) <sub>5</sub> ]	[FeF <sub>6</sub> ] <sup>3-</sup>	[Co(CSN) <sub>4</sub> ] <sup>2-</sup>	[Ni Cl <sub>4</sub> ] <sup>2-</sup>
[Fe(CN) <sub>6</sub> ] <sup>4-</sup>		[Co(NO <sub>2</sub> ) <sub>6</sub> ] <sup>3-</sup>	



Ko‘pchilik kompleks birikmalar o‘ziga xos rangli bo‘lib, ularning hosil bo‘lishidan sifat analizida shu ionlarni aniqlashda foydalilaniladi.

Temirning o‘ziga xos xususiyati uning CO bilan kompleks hosil qilishidir:



Bu kompleks birikma bipiramida tuzilishga ega bo‘lib, temir atomi markazda joylashgan.

Temir, kobalt, nikelning xlorid, sulfat va nitratlari suvda yaxshi eriydi, gidroksidlari, sulfidlari, fosfatlari, karbonatlari, asosli tuzlari oz eriydi. Temir (III) tuzlari gidrolizlanadi:






## p- ELEMENTLARNING KIMYOVIY XOSSALARI



**Uglerod** IV guruh p- elemenlarga mansub. Atomining elektron konfiguratsiyasi  $1s^2 2s^2 2p^2$ . Uglerod atomining eng tavslifi oksidlanish darajasi +2, +4, -4. Uglerod – tipik metallmas. Uglerod atomi beqiyos elektron tuzilishga ega: unda valent elektronlar soni valent orbitallar soniga teng, bu esa unga ko‘pchilik elementlar bilan kovalent

bog' va turli sondagi bog'li cheksiz zanjirlar hosil qilish imkonini beradi. Uglerod – organik dunyoning asosidir.



Uglerod juda inert, uning kimyoviy faolligi temperatura ortishi bilan kuchayadi. U qaytaruvchi bo'lib, metalllar, metallmaslar va ba'zi birikmalar bilan reaksiyaga kirishadi:



Uglerod dioksid  $\text{CO}_2$  – gaz, kislotali oksid:






$\text{H}_2\text{CO}_3$  – kuchsiz 2 asosli kislota, uning tuzlari gidrolizlanadi:





V guruh p- elementlariga azot va fosfor kiradi. Ularning atomlari elektron konfiguratsiyasi  $ns^2np^3$ . Bu elementlarning barqaror oksidlanish darajasi –3, +3, +5; azot yana boshqa oksidlanish darajali birikmalar hosil qilishi mumkin.


**Azot** – gaz, fosfor – qattiq modda, tipik metallmaslar. Azot atomining elektron konfiguratsiyasi  $1s^2 2s^2 2p^3$ . Azot yuqori temperaturada ko'pchilik metalllar, vodorod, kislorod bilan reaksiyaga kirishadi:




Ammiak –  $\text{NH}_3$  – o'ziga xos hidli ega gaz,  $\text{H}^+$  ionini biriktirib ammoniy kationiga  $\text{NH}_4^+$  aylanadi. Ammiakning suvdagi eritmasi –  $\text{NH}_4\text{OH}$ .

Ammiak metallar, metall oksidlari, kislotalar, kislorod, tuzlar bilan reaksiyaga kiriadi:









Ammoniy tuzlari suvdagi yaxshi eriydi, gidrolizlanadi, oson parchalanadi:




Azot kislород bilan 5 ta oksid hosil qiladi:  $\text{N}_2\text{O}$ ,  $\text{NO}$ ,  $\text{N}_2\text{O}_3$ ,  $\text{NO}_2$ ,  $\text{N}_2\text{O}_5$ .


$\text{N}_2\text{O}_3$  – nitrit kislota  $\text{HNO}_2$  angidridi. Ikkalasi ham oksidlovchi, ham qaytaruvchi xossaga ega:



Nitrit kislota beqaror:



$\text{NO}_2$  – kislotali oksid, oksidlovchi va qaytaruvchi:












$\text{N}_2\text{O}_5$  – kislotali oksid, suv bilan reaksiyaga kirishib nitrat kislota  $\text{HNO}_3$  hosil qiladi. Nitrat kislota – kuchli kislota, to‘liq dissotsiatsiya-lanadi:



Nitrat kislota kuchli oksidlovchi bo‘lib, konsentratsiyasiga va qaytaruvchining tabiatiga qarab turli birikmalargacha qaytariladi:  $\text{NH}_3$ ,  $\text{N}_2$ ,  $\text{NO}$ ,  $\text{N}_2\text{O}_3$ ,  $\text{NO}_2$ .

$\text{HNO}_3$  metallar va metallmaslarni oksidlaydi:



Nitrat kislota tuzlari – *nitratlar*, nitrit kislota tuzlari – *nitritlar* deyiladi. Nitrit kislota tuzlarining ko‘philigi suvda erib, gidrolizlanadi. Nitrat kislota tuzlari oksidlovchi xossasini namoyon qiladi.

**Fosfor** V guruh *p*-elementidir. Atomining elektron konfiguratsiyasi  $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^3$ . Fosforning bir necha allatropik shakl o‘zgarishlari mavjud: oq, qizil, qora fosfor va boshqalar.



Fosforning vodorodli birikmasi fosfin –  $\text{PH}_3$ . U havoda turqun gaz, suvda juda oz eriydi, eritmasi neytral xususiyatga ega. Juda kuchli kislotalar bilan reaksiya kirib fosfoniy tuzlarini hosil qiladi:



Fosfor bir necha oksid hosil qiladi. Ulardan eng muhimlari  $\text{P}_2\text{O}_3$ ,  $\text{P}_2\text{O}_5$  va  $\text{P}_4\text{O}_{10}$ . Bu oksidlar kislotali oksidlar bo‘lib, ularga fosfit  $\text{H}_3\text{PO}_4$  va fosfat  $\text{H}_3\text{PO}_4$  kislotalar mos keladi.  $\text{P}_2\text{O}_5$  3 xil kislota hosil qiladi:













Bu kislotalar ichida ahamiyatlisi ortofosfat kislota —  $\text{H}_3\text{PO}_4$  bo‘lib, o‘rtacha kuchli, 3 negizli kislota, o‘rta va nordon tuzlar hosil qiladi:




**Kislorod** va **oltingugurt** VI guruh *p*- elementlariga kiradi. Atomlarining elektron konfiguratsiyasi tegishlicha  $1s^2 2s^2 2p^4$  va  $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^4$ . Kislorod -2, ba’zan -1, ftor bilan birikmasida +2, oltingugurt -2, +2, +4, +6 oksidlanish darajasini namoyon qiladi. Kislorod bilan oltingugurt tipik metallmaslardir.

Kislorod geliy, neon va argondan tashqari ko‘pchilik oddiy va murakkab moddalar bilan birikmalar hosil qiladi; oltingugurning faolligi kamroq bo‘lib, ba’zi metallmas, ko‘pchilik birikmalar bilan reaksiyaga kirishadi:



Kislorod — kuchli oksidlovchi, uning allotropik shakl o‘zgarishi — ozon  $\text{O}_3$ , u parchalanganda hosil bo‘ladigan atomar kislorod hisobiga yanada kuchliroq oksidlovchilik xossasini namoyon qiladi:



Kislorod turli xil kislotali, amfoter va asosli oksid va gidroksidlar, kislorodli kislotalar hosil qiladi:



Asos xossali






amfoter xossali







kislotali xossali

Oltingugurtning vodorodli birikmalaridan eng muhimi vodorod sulfiddir. U o'ziga xos hidli gaz, qaytaruvchi, suvda eriganda kuchsiz 2 negizli kislota  $H_2S$  hosil qiladi, uning ko'pchilik tuzlari suvda erimaydi, ba'zilari rangli:







Oltingugurt  $SO_2$  va  $SO_3$  oksidlarni hosil qiladi. Bu oksidlarga tegishli  $H_2SO_3$  va  $H_2SO_4$  kislotalar mos keladi.

$SO_2$ ,  $H_2SO_3$  lar ham oksidlovchi, ham qaytaruvchi xossaga ega:




Sulfit kislota  $H_2SO_3$  – beqaror kislota:  $H_2SO_3 \rightarrow H_2O + SO_2 \uparrow$

Sulfat kislota  $H_2SO_4$  – kuchli oksidlovchi, uning xossalari konsentratsiyasiga bog'liq bo'ladi. U oddiy moddalar bilan ham, murakkab moddalar bilan ham reaksiyaga kirishadi. Sulfat kislota kislotalarning barcha xossalari ega:




$H_2SO_4$  ko'pchilik suvda eruvchan va erimaydigan tuzlarni hosil qiladi.

Oltingugurt birikmalaridan yana biri tiosulfat kislota  $H_2S_2O_3$  dir. Bu birikmada oltingugurt bir atomi  $-2$ , ikkinchisi  $+6$  oksidlanish darajaga ega. Tiosulfat kislota beqarordir:








Tiosulfat kislota tuzlari qaytaruvchi xossaga ega:




**Ftor, xlor, brom, yod** VII guruh p- elementlariga kiradi. Ularning atomining elektron konfiguratsiyasi  $ns^2np^5$ . Galogenlar (ftordan tashqari)  $-1, +1, +3, +5, +7$  oksidlanish darajasini namoyon qiladi, ftroring oksidlanish darajasi  $-1$  ga teng.

Galogenlar – tipik metallmaslar. Galogenlar guruhchasida yuqorida pastga qarab oksidlovchi xossasi kamayib, qaytaruvchi xossasi ortib boradi. Ftor – eng kuchli oksidlovchi. Galogenlarning reaksiyaga kirishish xususiyati yuqori bo'lib, ko'pchilik oddiy va murakkab moddalar bilan reaksiyaga oson kirishadi:




Deyarli hamma galogenlarning vodorodli birikmasi (HF dan tashqari) kuchli kislota bo'lib, ular kislotalarning barcha xossalari namoyon qiladi:




Galogenlar deyarli hamma metallar bilan reaksiyaga kirishib metall galogenidlari hosil qiladi. Galogenid anionlari juda yaxshi ligandlardir:



Galogenlar qator kislородли kislotalar hosil qiladi. Bu kislotalar galogenlarga suv ta'sir ettirib olinadi:



Xloring quyidagi kislородли kislotalari mavjud:



Bu qatordagi kislotalarda xloring oksidlanish darajasi ortishi bilan oksidlovchi xossasi kamayadi, kislotalaning kuchi esa ortadi.

HClO – eng kuchli oksidlovchi;

HClO<sub>4</sub> – eng kuchli kislota.

## Biogen elementlar birikmalarining tibbiyotdagi ahamiyati

$\text{Li}_2\text{CO}_3$	Litiy karbonat	Psixiatriyada qo'llanadi
$\text{NaCl} - 0,86\%$ (massa jihatdan) eritma	Fiziologik eritma	Ko'p qon yo'qotilganda, organism suvsizlanganda tomirdan tomchilab yuboriladi
$\text{NaCl}$ 3%, 5% (massa jihatdan) eritma	Natriy xlorid	Jarrohlikda qo'llanadi
$\text{NaHCO}_3$	Natriy gidrokarbonat	Me'da shirasi kislotaligi ortganda neytrallash uchun qo'llanadi
$\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$	Natriy sulfat	Surgi vositasi sifatida qo'llanadi
$\text{NaBr}, \text{KBr}$	Kaliy va natriy bromid	Tinchlantiruvchi vosita
$\text{NaI}, \text{KI}$	Kaliy va natriy yo'did	Qalqonsimon bez kasalligida qo'llanadi
$\text{KCl}$	Kaliy xlorid	Yurak aritmiyasida qo'llanadi
$\text{CH}_3\text{COOK}$	Kaliy asetat	Siydik haydovchi vosita
$\text{MgO}$	Magniy oksid	Me'da-ichak trakti kasalligida adsorbtsiyalovchi modda sifatida qo'llanadi
$\text{MgSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$	Magniy sulfat	Gipertoniya, ateroskleroz, teri kasalliklarida
$\text{MgS}_2\text{O}_3 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$	Magniy tiosulfat	Gipertoniya, ateroskleroz, teri kasalliklarida
$3\text{MgSiO}_3 \cdot \text{Mg}(\text{HSiO}_3)_2$	Magniy silikat va gidrosilikat	Teri kasalliklarida qo'llanadi
$\text{CaCl}_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$	Kalsiy xlorid	Allergik, teri kasalliklarida, nefrit, shamollahsha qo'llanadi
$\text{CaCO}_3$	Kalsiy karbonat	Me'da shirasi kislotaligi oshganda ishlatalidi
$\text{CaPO}_3 - \text{O} - \text{C}_3\text{H}_5(\text{OH})_2 \cdot n\text{H}_2\text{O}$		Asab sistemasini tiklashda qo'llanadi
$\text{CaSO}_4 \cdot 1/2\text{H}_2\text{O}$	Kalsiy sulfat	Gips bog'lovlar
$\text{KMnO}_4$	Kaliy permanganat	Antiseptik modda
$\text{Na}_2\text{CrO}_4$	Natriy xromat	Onkologiyada diagnostika maqsadida qo'llanadi

Koamid		Qon ko'paytiruvsi vosita
B <sub>12</sub> vitamini		Kamqonlikni davolashda qo'llanadi
Kobavit		Gepatitni davolashda, organizm immunitetini oshirishda qo'llanadi
Qaytarilgan temir		Temir tanqisligi anemiyasini davolash maqsadida ishlataladi
Temir glitserofosfat		O'sha patologiyada
Temir laktat		O'sha patologiyada
FeSO <sub>4</sub> · 7H <sub>2</sub> O	Temir (II)-sulfat	O'sha patologiyada
Ferramid		O'sha patologiyada
Ferrotseron		O'sha patologiyada
Ferkoven		O'sha patologiyada
Gemostimulin		O'sha patologiyada
FeCl <sub>3</sub> · 6H <sub>2</sub> O	Temir (III)-xlorid	Qon ketishini to'xtatishda ishlatinadi
ZnSO <sub>4</sub> · 7H <sub>2</sub> O	Rux sulfat	Konyunktivitga qarshi, surtma
ZnO	Rux oksid	Teri kasalligini davolashda qo'llanadi
HgCl <sub>2</sub>	Sulema	Teri kasalligini davolashda qo'llanadi
Hg(CN) <sub>2</sub> · HgO		Dezinfektsiyalovchi modda
HgO	Simob oksid	Teri kasalligini davolashda qo'llanadi
HgNH <sub>2</sub> Cl		Teri kasalligini davolashda qo'llanadi
Hg <sub>2</sub> Cl <sub>2</sub>	Kalomel	Ko'z shox pardasini davolashda qo'llanadi
CuSO <sub>4</sub> · 5H <sub>2</sub> O	Mis kuperosi	Konyunktivitni davolashda qo'llanadi
CuCl <sub>2</sub> · 2B <sub>6</sub>	Kupir	Sil, gepatit, vitiligoni davolashda qo'llaniladi
Mis sitrat		Sil, gepatit, vitiligoni davolashda qo'llanadi
AgNO <sub>3</sub>	Lyapis	Antiseptik, bakteritsid xossaga ega, surtma sifatida qo'llanadi
(Au – CH <sub>2</sub> – CH <sub>2</sub> – CHOH – CH <sub>2</sub> CO <sub>3</sub> ) <sub>2</sub> Ca	Krizanol	Sil, prokaza, volchankani davolashda qo'llanadi
NH <sub>4</sub> Cl	Ammoniy xlorid	Siydik haydovchi vosita

## SIFAT ANALIZINING ASOSLARI

Analitik kimyo – bu kimyoviy analizning usullarini va asoslarini nazariy jihatdan o‘rganadigan fan. Analitik kimyo kursining vazifasi moddalar yoki ularning aralashmalari tarkibini o‘rganishdan, aniqlashdan iborat. Analiz qilishda avval berilgan aralashma yoki modda qanday atomlar guruhidan, kation va anionlardan iborat ekanligini, ya’ni sifat tarkibi o‘rganiladi, so‘ng uning tarkibidagi moddalar, kation va anionlar qanday miqdoriy nisbatda ekani tekshiriladi.

Tekshirilayotgan modda qanday element atom, molekula yoki ionlardan tarkib topganini aniqlash **sifat analizining** vazifasidir.

Tekshirilayotgan modda tarkibini tashkil etgan element atom, molekula yoki ionlar miqdorini aniqlash **miqdoriy analizning** vazifasidir.

Sifat analizi tibbiy biologik obyektlarni tekshirishda, dorivor preparatlarning tarkibini aniqlashda keng qo’llanadi.

Bu analiz turli usullar (kimyoviy, fizik, fizik-kimyoviy) bilan amalga oshiriladi, ular tobora takomillashib, rivojlanib bormoqda.

Sifat analizining kimyoviy usuli bilan tekshirish kimyoviy reaksiylarga asoslanadi. Bu reaksiyalar tavsifli bo‘lib, sodir bo‘ladigan kimyoviy o‘zgarish – *analitik reaksiya*, qaysi modda yordamida tekshirilayotgan bo‘lsa, o‘sha modda *reagent* deyiladi. Reagent sifatida shunday modda tanlanadiki, u tekshirilayotgan modda bilan reaksiyaga kirishganda tashqi o‘zgarish kuzatiladi, ya’ni cho‘kma hosil bo‘ladi, eritma rangi o‘zgaradi, gaz ajralib chiqadi yoki tavsifli hid yuzaga keladi va shu kabilar.

Fizik usullar sistemaning qaysidir parametrlari o‘zgarishiga asoslanadi.

Fizik-kimyoviy usullar tekshirilayotgan element yoki moddaning qandaydir bir fizik xossasiga asoslanadi, bu uning uchun tavsifli bo‘ladi. Masalan, nurlanish spektrlari hosil bo‘lishi yoki ularning yutilishi (spektr analizi), kristallarning shakli va rangi (kristallokimyoviy analiz), suyuqlanish temperaturasining o‘zgarshi (termik analiz), turli yutuvchi moddalarga adsorbsiyalanish xossasi (xromotografik adsorbsion analiz) va shu kabilar.

Ushbu bo‘limda asosan kimyoviy sifat analizi usullari ko‘rib chiqiladi.

Moddani tekshirishni «xo‘l» va «quruq» usullarda amalga oshirish mumkin. Birinchi holatda tekshirilayotgan modda suvda (yoki boshqa erituvchida) eritiladi va hosil bo‘lgan eritmaga reaktivlar ta’sir ettiriladi. Ikkinchchi usulda esa quruq moddalar bilan ish olib boriladi. Bunda ko‘pincha modda tarkibi rangsiz alangani bo‘yalgan rangiga ko‘ra aniqlanadi.

Tekshirilayotgan moddaning miqdoriga ko'ra:

1. *Makroanaliz* – analiz uchun 0,1 dan 1 g gacha quruq modda olinadi.


2. *Yarim mikroanaliz* – makroanalizdagidan 20–30 marta kam miqdorda modda olinadi.

3. *Mikroanaliz* – makroanalizdan 100 marta kam miqdorda modda olinadi.

Sifat analizi ko'pincha «xo'l» usulda olib boriladi, ya'ni bunda elektrolit erituvchida erganda ionlarga ajraladi.

Sifat analizida qo'llanadigan reaksiyalar sezgir bo'lishi, to'liq va tez boradigan bo'lishi kerak. Ularning asosiy shartlari: muhit, temperatura, konsentratsiya (eritmadiagi qidirilayotgan ion) va h.k.

Ionlarni sifat jihatidan aniqlash uchun cho'kma hosil qiluvchi (eruvchanligi o'zgarishi), rangi o'zgaruvchi yoki ma'lum xossal gazlar hosil qiluvchi va h.k. reaksiyalar qo'llanadi. Bunday reaksiyalar va ularda qo'llanadigan reaktivlar berilgan ion uchun *tavsifli* deyiladi. Masalan, kalsiy ionlarini oksalat ionlari ta'sirida oq kristall cho'kma hosil bo'lishidan aniqlash mumkin:



Tavsifli reaktiv bilan boshqa ionlarni eritmadan chiqarib tashlangandan keyin (shuningdek bu reagent bilan ta'sir etishi mumkin bo'l-ganiarini ham) tekshirilayotgan ionni aniqlash mumkin.

Bunda reaksiyaning spetsifikligi juda muhim. *Spetsifik reaksiya* deb boshqa ionlar ham eritmada mavjudligida aniqlanayotgan ionni tekshirish mumkin bo'lgan reaksiyalarga aytildi. Bunday reaksiya beruvchi reagentlar *spetsifik reagentlar* deyiladi. Masalan, ammoniy ioni uchun spetsifik reagent ishqordir, u ammoniy ioni bor eritmaga ta'sir ettirilsa ammiak hosil qi'ladi, uni o'ziga xos hididan yoki lakkusning rangini ko'kartirishidan aniqlasa bo'ladi:



Bu reaksiya yordamida ammoniy ionini boshqa ionlar mavjudligida ham aniqlash mumkin.

Izlanayotgan ionlarni spetsifik reaksiyalardan foydalanib tekshirilayotgan eitmaning alohida ulushlaridan (bu eritmada boshqa ionlar bo'lishidan qat'i nazar) bevosita topish mumkin. Bu usul *bo'lib-bo'lib analiz qilish usuli* deb ataladi.

Ma'lum bir guruuh ionlarini aniqlash imkonini beradigan reaksiyalar *guruhashgan reaksiyalar*, unda ishlataladigan reagentlar esa

*guruhashgan reagentlar* deyiladi. Masalan, Ag, Rb, Hg, Cu ionlar guruhi reagent vodorod sulfiddir. Bu moddalar reaksiyasi natijasida suyultirilgan kislotalarda erimaydigan sulfid cho'kmalari hosil bo'ladi.

Sifat analizi kasr analizi usuli bilan yoki sistematik analiz usulida olib borilishi mumkin.

Bir ionni spetsifik reaksiya yordamida eritmaning ma'lum bir bo'lagida analiz qilish *kasr analiz* deyiladi.

*Sistematik analizda* ionlar guruhashgan reaktivlar yordamida analistik guruhlarga bo'lib olinadi. Agar ionlarning bir guruhi ikkinchi guruhini aniqlashga xalal bersa, ularni maxsus reaktivlar yordamida ajratib olib, keyin har bir turini alohida reaksiyalar yordamida aniqlanadi.


Demak, sistematik analizda faqat tekshirilayotgan ionni aniqlash reaksiyasidan foydalanmay, balki eritma tarkibidagi ionlarni bir-biridan ajratib olish reaksiyalari ham ishlataladi. Chegaralangan ionlar soniga samara beruvchi reaksiyalar *tanlovchi* yoki *selektiv reaksiyalar* deyiladi.

## **BIOGEN ELEMENTLAR KATIONLARINING ALOHIDA SIFAT REAKSIYALARINI O'RGANISH**


### **Natriy ioni – Na<sup>+</sup> reaksiyasi**

*Reaktiv: kaliy geksagidroksostibat (V) – K[Sb(OH)<sub>6</sub>].*

Kaliy geksagidroksostibat (V) – K[Sb(OH)<sub>6</sub>] – neytral yoki kuchsiz ishqoriy muhitda natriy tuzlari bilan oq kristall cho'kma – Na[Sb(OH)<sub>6</sub>] hosil qiladi:





Cho'kma hosil bo'lishi eritma sovitilganda va shisha tayoqcha bilan probirka devoriga ishqalanganda tezlashadi. Tekshirilayotgan eritma nordon bo'lmasligi shart, chunki kislotali muhitda metasurma kislota oq cho'kmasi hosil bo'ladi:



**Na[Sb(OH)<sub>6</sub>] cho'kmasining xossalalarini tekshirish.**


1. Cho'kma issiq suvda eriydi.
2. Cho'kma o'yuvchi ishqor eritmasida eriydi.



### Kaliy ionи – K<sup>+</sup> реаксиya

*Reaktiv: natriy gidrotartrat – NaHC<sub>4</sub>H<sub>4</sub>O<sub>6</sub>.*


Natriy gidrotartat NaHC<sub>4</sub>H<sub>4</sub>O<sub>6</sub> – neytral muhitda kaliy tuzlari bilan mayda kristall cho'kma hosil qiladi:




Cho'kma hosil bo'lishi sovitliganda, aralashtirilganda va probirka devori shisha tayoqcha bilan ishqalanganda tezlashadi.

**KHC<sub>4</sub>H<sub>4</sub>O<sub>6</sub> cho'kmasingin xossalarini tekshirish:**

1. Cho'kma qizdirilganda suvda eriydi.
2. Cho'kma kuchli kislotada eriydi:




3. Cho'kma o'yuvchi ishqor eritmasida eriydi:



*Reaktiv: natriy geksanitrokobalt (III) – Na<sub>3</sub>[Co(NO<sub>2</sub>)<sub>6</sub>].*

Natriy geksanitrokobalt (III) Na<sub>3</sub>[Co(NO<sub>2</sub>)<sub>6</sub>] kuchsiz kislotali va neytral muhitda kaliy tuzlari bilan mayda sariq kristall cho'kma – K<sub>2</sub>Na[Co(NO<sub>2</sub>)<sub>6</sub>] hosil qiladi:




Reaksiyani neytral yoki kuchsiz kislotali muhitda olib borish kerak, chunki kuchli kislotali muhitda reaktiv parchalanadi:



H<sub>3</sub>[Co(NO<sub>2</sub>)<sub>6</sub>] – beqaror modda.

Shuningdek, reaktiv ishqoriy muhitda ham parchalanadi:




Co(OH)<sub>3</sub> – to'q qo'ng'ir rangli cho'kma.

## Magniy ioni – Mg<sup>2+</sup> reaksiyalari


*Reaktiv: natriy, kалиy gidroksid – NaOH, KOH.*

O'yuvchi ishqorlar magniy tuzlari eritmasidan oq amorf cho'kma – Mg(OH)<sub>2</sub> ajratadi:




**Mg(OH)<sub>2</sub> cho'kmasining xossalalarini tekshirish.**

1. Cho'kma kislotalarda eriydi:




2. Cho'kma ammoniy tuzlarida eriydi::



## Petrashen reaksiyasi

Yod eritmasi (yodli suv) ishqor ishtirokida magniy tuzlari bilan to'q qo'ng'ir cho'kma hosil qiladi.

Probirkaga 2–3 tomchi yodli suv tomizib, ishqor eritmasida ho'llangan shisha tayoqcha bilan rangi o'zgarguncha qayta-qayta ho'llab aralashtiriladi. Hosil bo'lgan aralashmaga 1 tomchi magniy tuzi eritmasi qo'shiladi, to'q qo'ng'ir rangli cho'kma hosil bo'ladi:




Yod va ishqor orasidagi reaktsiya qaytar bo'lib, bu aralashmaga magniy ionlari tushirilganda reaksiya teskari tomonga borib, Mg(OH)<sub>2</sub> cho'kmasi hosil bo'lishi oqibatida muvozanat o'ngdan chapga siljiydi, bunda molekula shakldagi yod ajralib chiqadi va oq cho'kma Mg(OH)<sub>2</sub> ustiga adsorbsiyalanib (shimilib) uni to'q qo'ng'ir tusga kiritadi. Reaksiyani ortiqcha miqdordagi ishqor ishtirokida o'tkazib bo'lmaydi.

## Kalsiy ioni – Ca<sup>2+</sup> reaksiyalari

*Reaktiv: sulfat kislota – H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>*

Sulfat kislota H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> va uning suvdagi eriydigan tuzlari kalsiy tuzlari bilan oq kristall cho'kma CaSO<sub>4</sub> hosil qiladi:




### **CaSO<sub>4</sub> cho'kmasining xossalarini tekshirish:**

1. Cho'kma issiq suvda eriydi.
2. Cho'kma kislota va o'yuvchi ishqorlarda erimaydi.

### **Reaktiv: ammoniy oksalat – (NH<sub>4</sub>)<sub>2</sub>C<sub>2</sub>O<sub>4</sub>**


Ammoniy oksalat (NH<sub>4</sub>)<sub>2</sub>C<sub>2</sub>O<sub>4</sub> kalsiy tuzlari bilan mayda oq kristall cho'kma – CaC<sub>2</sub>O<sub>4</sub> hosil qiladi:



Qizdirilganda cho'kma hosil bo'lishi tezlashadi.

### **CaC<sub>2</sub>O<sub>4</sub> cho'kmasining xossalarini tekshirish.**


1. Cho'kma mineral kislotalarda eriydi, lekin sirkal kislotalarda erimaydi:



### **Xrom ioni – Cr<sup>3+</sup> reaksiyaları**

#### **Reaktiv: natriy va kaliy gidroksid – NaOH, KOH.**


Xrom III tuzlari eritmasiga o'yuvchi ishqorlar extiyotkorlik bilan qo'shilganda kulrang-yashil xrom gidroksid Cr(OH)<sub>3</sub> cho'kmaga tushadi:




#### **Cr(OH)<sub>3</sub> cho'kmasining xossalarini tekshirish.**

Cr(OH)<sub>3</sub> amfoter xossaga ega:

1. Cho'kma mineral kislotalarda eriydi:




2. Cho'kma o'yuvchi ishqorning mo'l miqdorida eriydi:




[Cr(OH)<sub>6</sub>]<sup>3-</sup> yashil-zumrad rangli eritma.

**Reaktiv: natriy gidrokarbonat –  $\text{NaHCO}_3$ .**

Natriy gidrokarbonat –  $\text{NaHCO}_3$  xrom tuzlari eritmasiga ta'sir ettirilsa xrom gidroksid  $\text{Cr(OH)}_3$  cho'kmasini hosil qiladi:




$\text{NaHCO}_3$  suvli eritmada gidrolizlanadi:



Shuning uchun bu tuzning suvli eritmasida  $\text{HCO}_3^-$ ,  $\text{OH}^-$  va  $\text{CO}_3^{2-}$  ionlari bo'ladi.  $\text{Cr(OH)}_3$  gidroksid  $\text{Cr}_2(\text{CO}_3)_3$  ga nisbatan suvda yomonroq erigani uchun aynan xrom gidroksid cho'kmaga tushadi.

**Reaktiv: kompleks III –  $\text{Na[H}_2\text{Y}]$ .**

Kompleks III kuchsiz kislotali muhitda xrom kationi bilan qizdirilganda binafsha rangli quyidagi tarkibli kompleks birikma hosil qiladi:




Xrom tuzi eritmasiga kerakli muhit hosil qilish uchun 2–3 tomchi  $\text{CH}_3\text{COOH}$  va  $\text{CH}_3\text{COONa}$ , so'ngra kompleks III qo'shish kerak. Eritma qizdirilganda 2–3 minutdan so'ng binafsha rangga kiradi.

### Marganes ioni – $\text{Mn}^{2+}$ reaksiyalari

**Reaktiv: natriy va kaliy gidroksidlari –  $\text{NaOH}$ ,  $\text{KOH}$ .**

O'yuvchi ishqorlar marganes tuzlari eritmasidan oq cho'kma  $\text{Mn(OH)}_2$  ajratadi:




**$\text{Mn(OH)}_2$  cho'kmasingin xossalalarini tekshirish.**

1. Cho'kma havoda oson oksidlanib, oq rangdan to'q ko'k rangga o'tadi:




2. Cho'kma kislotalarda eriydi:



3. Cho'kma o'yuvchi ishqorning mo'l miqdorida erimaydi.

4. Cho'kma ammoniy tuzlarda eriydi:



*Reaktiv: oksalat kislota – H<sub>2</sub>C<sub>2</sub>O<sub>4</sub>.*

Oksalat kislota MnO(OH)<sub>2</sub> (H<sub>2</sub>MnO<sub>3</sub>) bilan pushti rangli kompleks ion [Mn(C<sub>2</sub>O<sub>4</sub>)<sub>3</sub>]<sup>3-</sup> hosil qiladi.

*Aniqlash usuli quyidagicha:* marganes tuzi eritmasiga 2–3 tomchi KOH yoki NaOH qo'shiladi, oq cho'kma qo'ng'ir tusga kirdi shisha tayoqcha bilan aralashtiriladi. Unda quyidagi reaksiya sodir bo'ladi:




So'ngra cho'kma eriguncha oksalat kislota eritmasi quyiladi va eritma tiniq pushti rangga kiradi:



### Temir (II) ioni – Fe<sup>2+</sup> reaksiyaları


*Reaktiv: natriy va kалиy gidroksidlari – NaOH, KOH.*

O'yuvchi ishqorlar Fe<sup>2+</sup> tuzlari eritmalariga ta'sir ettirilganda oq cho'kma Fe(OH)<sub>2</sub> hosil qiladi. U havoda o'z rangini qora qo'ng'ir ranggacha o'zgartiradi:




**Fe (OH)<sub>2</sub> cho'kmasingin xossalalarini tekshirish.**

1. Cho'kma havoda oson oksidlanib qo'ng'ir rangli Fe(OH)<sub>3</sub> ga o'tadi:





2. Cho'kma mineral kislotalar hamda sırka kislotada eriydi:



**Reaktiv: kaliy geksatsianoferrat (III) –  $K_3[Fe(CN)_6]$ .**



Kaliy geksatsianoferrat (III) –  $K_3[Fe(CN)_6]$ .  $Fe^{2+}$  ionlari bilan neytral yoki kuchsiz kislotali muhitda to‘q ko‘k rangli cho‘kma – «turnbul ko‘ki» hosil qiladi:



**$Fe_3[Fe(CN)_6]_2$  cho‘kmasining xossalarni tekshirish.**

1. Cho‘kma kislotalarda erimaydi.



2. Cho‘kma o‘yuvchi ishqorlar ta‘sirida parchalanadi:



### Temir (III) ioni – $Fe^{3+}$ reaksiyalari



**Reaktiv: natriy va kaliy gidroksidlari – NaOH, KOH.**

O‘yuvchi ishqorlar  $Fe^{3+}$  tuzlariga ta’sir etganda qizil-qo‘ng‘ir rangli temir gidroksid  $Fe(OH)_3$  cho‘kmasini hosil qiladi:




**$Fe(OH)_3$  cho‘kmasining xossalarni tekshirish.**

1. Cho‘kma mineral kislotalarda eriydi:





2. Cho‘kma konsentrangan ishqor eritmasida qisman eriydi:




**Reaktiv: kaliy geksatsianoferrat (II) –  $K_4[Fe(CN)_6]$ .**

Kaliy geksatsianoferrat (II) –  $K_4[Fe(CN)_6]$  –  $Fe^{3+}$  ionlari bilan to‘q ko‘k rangli cho‘kma – «berlin lazuri» –  $Fe_4[Fe(CN)_6]_3$  ni hosil qiladi:





Temir tuzlari gidrolizini kuchaytirish uchun reaksiyani kuchsiz kislotali muhitda olib borish lozim:



**Fe<sub>4</sub>[Fe(CN)<sub>6</sub>]<sub>3</sub>** cho'kma xossasini o'rghanish.



1. Cho'kma kislotalarda erimaydi.

2. Cho'kma o'yuvchi ishqorlarda parchalanadi:




**Reaktiv: ammoniy yoki kaliy tiotsianat – NH<sub>4</sub>SCN, KSCN.**

Kaliy va ammoniy tiotsianatlar NH<sub>4</sub>SCN, KSCN – ortiqcha olinganda Fe<sup>3+</sup> ioni bilan eritma rangini qizil qon rangiga bo'yaydigan kompleks birikma K<sub>3</sub>[Fe(SCN)<sub>6</sub>] hosil qiladi:



**K<sub>3</sub>[Fe(SCN)<sub>6</sub>]** xossalari tekshirish.


Oksalat, vino, fosfat kislotalar va ftoridlar K<sub>3</sub>[Fe(SCN)<sub>6</sub>] bilan yanada barqaror kompleks hosil qilib eritmani rangsizlantiradi:




### Kobalt ioni – Co<sup>2+</sup> reaksiyaları

**Reaktiv: natriy va kaliy gidroksidlari – NaOH, KOH.**

O'yuvchi ishqorlar asta-sekin Co<sup>2+</sup> tuzlari eritmasidan CoOHCl ning ko'k rangli asosli tuzini cho'ktiradi:




Ishqor qo'shish davom ettirilganda asosli tuz qizil rangli Co(OH)<sub>2</sub> ga aylanadi:




**Co(OH)<sub>2</sub> cho'kmasining xossalari tekshirish.**


1. Cho'kma havo kislороди ta'sirida qisman oksidlanib kobalt (III)-gidroksid Co(OH)<sub>3</sub> ni hosil qilishi oqibatida asta-sekin qo'ng'ir tusga kira boshlaydi:



2. Cho'kma kislotalarda eriydi:




3. Cho'kma mo'l miqdordagi  $\text{NH}_4\text{OH}$  da erib, xira-sariq rangli kompleks birikma hosil qiladi:



Cho'kma o'yuvchi ishqorning ortiqcha miqdorida erimaydi.

*Reaktiv: ammoniy tiotsianat –  $\text{NH}_4\text{SCN}$ .*


Ammoniy tiotsianat  $\text{NH}_4\text{SCN}$   $\text{Co}^{2+}$  ionlari bilan kompleks birikma hosil qiladi. Kompleks birikma organik erituvchilar, masalan, atsetonda yaxshi eriydi va to'q ko'k rang hosil qiladi. Shuning uchun uni aniqlashda  $\text{NH}_4\text{SCN}$  ning atsetondagi to'yingan eritmasi ishlataladi:



### Nikel ioni – $\text{Ni}^{2+}$ reaksiyasi


*Reaktiv: natriy va kaliy gidroksidlari –  $\text{NaOH}$ ,  $\text{KOH}$ .*

O'yuvchi ishqorlar  $\text{Ni}^{2+}$  tuzlari eritmasidan och yashil rangli nikel gidroksid –  $\text{Ni}(\text{OH})_2$  ni cho'ktiradi:




**$\text{Ni}(\text{OH})_2$  cho'kmasining xossalalarini tekshirish.**


1. Cho'kma havoda barqaror.
2. Cho'kma kislotalarda eriydi:




3. Cho'kma  $\text{NH}_4\text{OH}$  ning mo'l miqdorida och ko'k rangli kompleks birikma hosil qilib eriydi:



4. Cho'kma o'yuvchi ishqorning mo'l miqdorida erimaydi.

**Reaktiv: dimetilglioksim – Chugayev reaktivи**


Dimetilglioksim nikel ionlari  $\text{Ni}^{2+}$  bilan  $pH = 5-10$  oralig'ida qirmizi-qizil rangli ichki kompleks tuzning kristall cho'kmasini hosil qiladi:



Reaksiyani  $pH = 5$ , bo'lgan asetat bufer aralashmasi ishtirokida olib boriladi. Asetat bufer aralashma 1 tomchi  $\text{CH}_3\text{COOH}$  bilan 5 tomchi  $\text{CH}_3\text{COONa}$  ni qo'shib hosil qilinadi. Reaksiyani isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik maqsadida  $\text{NH}_4\text{OH}$  ishtirokida ham olib borish mumkin.



**Rux ioni –  $\text{Zn}^{2+}$  reaksiyalari****Reaktiv: natriy va kaliy gidroksidlari –  $\text{NaOH}$ ,  $\text{KOH}$ .**

O'yuvchi ishqorlar rux tuzlari eritmasi bilan ta'sirlashib oq amorf cho'kma  $\text{Zn}(\text{OH})_2$  hosil qiladi:



 **$\text{Zn}(\text{OH})_2$  cho'kmasining xossalarni tekshirish.**

$\text{Zn}(\text{OH})_2$  amfoter xossalni namoyon qiladi.

1. Cho'kma kislotalarda eriydi:





2. Cho'kma o'yuvchi ishqorning mo'l miqdorida eriydi:





*Reaktiv: natriy gidrokarbonat – NaHCO<sub>3</sub>.*

Natriy hidrokarbonat va karbonatlar rux tuzlaridan oq rangli rux – hidroksid Zn(OH)<sub>2</sub> ni cho'ktiradi:



Suvli eritmada NaHCO<sub>3</sub> hidrolizlanadi:





Bu tuzning suvli eritmasida Zn<sup>2+</sup>, HCO<sub>3</sub><sup>-</sup>, OH<sup>-</sup> va CO<sub>3</sub><sup>2-</sup> ionlari mavjud. Zn(OH)<sub>2</sub> ZnCO<sub>3</sub> ga nisbatan oz eruvchan bo'lgani uchun Zn(OH)<sub>2</sub> holatda cho'kadi.

## ANIONLARNING XUSUSIY SIFAT REAKSIYALARINI O'RGANISH

**Karbonat ioni – CO<sub>3</sub><sup>2-</sup> reaksiyalari**

*Reaktiv: bariy xlorid – BaCl<sub>2</sub>.*

Bariy xlorid BaCl<sub>2</sub> karbonat eritmalaridan oq kristall cho'kma BaCO<sub>3</sub> ajratadi:





**BaCO<sub>3</sub> cho'kmasining xossalalarini tekshirish.**

I. Cho'kma mineral kislotalarda eriydi:




Cho'kma sirkal kislotalada eriydi:




*Reaktiv: sulfat kislota – H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>.*


Suyultirilgan sulfat kislota H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> ta'sirida karbonatlar parcha-langanda CO<sub>2</sub> ajralib chiqadi. Karbonat angidrid ohakli suvdan o'tkazilganda uni loyqalantiradi. Bunda CaCO<sub>3</sub> oq cho'kmasi hosil bo'ladi:

**CaCO<sub>3</sub> cho'kmasining xossalari ni tekshirish.**


1. Uzoq vaqt CO<sub>2</sub> o'tkazilganda cho'kma eriydi:

**Fosfat ioni – PO<sub>4</sub><sup>3-</sup> reaksiyalari****Reaktiv: bariy xlorid – BaCl<sub>2</sub>.**


Bariy xlorid BaCl<sub>2</sub> hidrofosfat eritmalaridan oq amorf bariy hidrofosfat BaHPO<sub>4</sub> cho'kmasini ajratadi:




Ammoniy hidroksid ishtirokida esa bariy fosfat hosil bo'ladi:

**BaHPO<sub>4</sub> cho'kmasining xossalari ni tekshirish.**

1. Cho'kma mineral kislotalarda eriydi:




2. Cho'kma sirka kislotalada eriydi:

**Reaktiv: magnezial aralashma – MgCl<sub>2</sub> + NH<sub>4</sub>OH + NH<sub>4</sub>Cl.**

Magniy xlorid ammoniy hidroksid va ammoniy xlorid ishtirokida fosfat tuzlari eritmasidan kristall qo'sh tuz MgNH<sub>4</sub>PO<sub>4</sub> ajratadi.

*Tajribani bajarish.* Na<sub>2</sub>HPO<sub>4</sub> eritmasiga 3 tomchi MgCl<sub>2</sub> 3 tomchi NH<sub>4</sub>OH va 3 tomchi NH<sub>4</sub>Cl eritmasi qo'shilganda oq cho'kma hosil bo'ladi:




**MgNH<sub>4</sub>PO<sub>4</sub>** cho'kmasining xossalari tekshirish.

1. Cho'kma mineral kislotalarda eriydi:




2. Cho'kma sirkalarda kislotalada eriydi:



### Nitrit ioni – NO<sub>2</sub><sup>-</sup> reaksiyasi

**Reaktiv: sulfat kislota – H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>.**



Suyultirilgan sulfat kislota nitritlarni parchalaganda qo'ng'ir tusli gaz – NO<sub>2</sub> ajralib chiqadi:



**Reaktiv: kaliy yodid – KI.**

Kaliy yodid kislotali muhitda nitritlar ta'sirida erkin I<sub>2</sub> gacha oksidlanadi.

*Tajribani bajarish.* Probirkaga 2–3 tomchi H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>, 2–3 tomchi KI eritmasi va bir necha tomchi efir tomiziladi. Ajralib chiqayotgan yod efir qatlamini binafsha ranga bo'yaydi:






### Nitrat ioni – NO<sub>3</sub><sup>-</sup> reaksiyalari

**Reaktiv: temir (II)-sulfat – FeSO<sub>4</sub>.**

Temir (II)-sulfat FeSO<sub>4</sub> nitratlarni azot (II) oksid NO gacha qaytaradi. Hosil bo'lgan azot (II) oksid FeSO<sub>4</sub> bilan qo'ng'ir rangli kompleks birikma [FeSO<sub>4</sub> · NO] hosil qiladi.


*Tajribani bajarish.* Probirkaga KNO<sub>3</sub> eritmasi quyib, FeSO<sub>4</sub> kristallaridan bir nechta solinadi va probirkaga devoriga tekkizib 1 tomchi konsentrirlangan H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> tomiriladi:



### Sulfid ioni – $\text{S}^{2-}$ reaksiyaları

*Reaktiv: kumush nitrat –  $\text{AgNO}_3$ .*

Kumush nitrat –  $\text{AgNO}_3$  sulfid eritmaları bilan qora rangli cho'kma kumush sulfid –  $\text{Ag}_2\text{S}$  hosil qiladi:




**$\text{Ag}_2\text{S}$  cho'kmasining xossalari tekshirish.**

- Cho'kma suyultirilgan xlorid kislotada erimaydi.
- Cho'kma ammiak eritmasida erimaydi.
- Cho'kma suyultirilgan nitrat kislotada eriydi:





*Reaktiv: kadmiy nitrat –  $\text{Cd}(\text{NO}_3)_2$ .*

Kadmiy tuzlari sulfidlar bilan sariq rangli cho'kma kadmiy sulfid –  $\text{CdS}$  hosil qiladi:



**$\text{CdS}$  cho'kmasining xossalari tekshirish.**

- Cho'kma suyultirilgan xlorid va sulfat kislotalarda eriydi:




- Cho'kma suyultirilgan nitrat kislotada eriydi:



### Sulfat ioni – $\text{SO}_4^{2-}$ reaksiyaları

*Reaktiv: bary xlorid –  $\text{BaCl}_2$ .*

Bary xlorid  $\text{BaCl}_2$  sulfat eritmalaridan oq kristall cho'kma – bary sulfat  $\text{BaSO}_4$  ajratadi:




**BaSO<sub>4</sub> cho'kmasining xossalalarini tekshirish:**

1. Cho'kma mineral kislotalarda erimaydi.
2. Cho'kma o'yuvchi ishqorning mo'l miqdorida erimaydi.

### Sulfit ioni – SO<sub>3</sub><sup>2-</sup> reaksiyalari


*Reaktiv: bariy xlorid – BaCl<sub>2</sub>.*

Bariy xlorid – BaCl<sub>2</sub> sulfit eritmalaridan oq cho'kma – BaSO<sub>3</sub> ni ajaratib chiqaradi:




**BaSO<sub>3</sub> cho'kmasining xossalalarini tekshirish.**

1. Cho'kma mineral kislotalarda eriydi:



*Reaktiv: kaliy permanganat – KMnO<sub>4</sub>.*


Kaliy permanganat KMnO<sub>4</sub> sulfat kislota ishtirokida sulfit kislota tuzi eritmasiga qo'shilganda rangsizlanadi:



### Tiosulfat ioni – S<sub>2</sub>O<sub>3</sub><sup>2-</sup> reaksiyalari


*Reaktiv: bariy xlorid – BaCl<sub>2</sub>.*

Bariy xlorid BaCl<sub>2</sub> tiosulfat eritmasidan oq rangli cho'kma – bariy tiosulfat BaS<sub>2</sub>O<sub>3</sub> ni cho'ktiradi:




**BaS<sub>2</sub>O<sub>3</sub> cho'kmasining xossalalarini tekshirish.**

Cho'kma mineral kislotalarda eriydi:




**Reaktiv: sulfat kislota – H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>.**


Tiosulfat eritmasiga suytirilgan sulfat kislota qo'shib qaynatganda elementar oltingugurt chiqishi natijasida eritma sekin-asta loyqalanadi:

**Xlor ioni – Cl<sup>-</sup> reaksiyalari****Reaktiv: kumush nitrat – AgNO<sub>3</sub>.**


Kumush nitrat AgNO<sub>3</sub> xlorid eritmalaridan g'ovaksimon oq cho'kma – kumush xlorid AgCl ajratadi:

**AgCl cho'kmasing xossalari tekshirish.**

1. Cho'kma ammoniy gidroksidning mo'l miqdorida eriydi.


**Bromid ioni – Br<sup>-</sup> reaksiyalari****Reaktiv: kumush nitrat – AgNO<sub>3</sub>.**

Kumush nitrat AgNO<sub>3</sub> bromid eritmalaridan sarg'ish cho'kma – kumush bromid AgBr ajratadi:

**AgBr cho'kmasing xossalari tekshirish.**


1. Cho'kma nitrat kislotada erimaydi.

2. Cho'kma mo'l miqdordagi ammiak eritmasida qisman eriydi:

**Reaktiv: xlorli suv – Cl<sub>2</sub>.**

Xlorli suv Cl<sub>2</sub> kislotali muhitda bromidlardan o'ziga xos rangli erkin brom ajratadi.


*Tajribani bajarish.* Bromid eritmasiga 2–3 tomchi H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> eritmasi, 2–3 tomchi xlorli suv va bir necha tomchi efir yoki benzol solib, probirka chayqatiladi. Elementar brom efir qatlamini sariq-zarg'aldoq rangga bo'yaydi:



## Yo‘did ioni – I<sup>-</sup> reaksiyalari

**Reaktiv: kumush nitrat – AgNO<sub>3</sub>.**

Kumush nitrat AgNO<sub>3</sub> yodid eritmasidan och-sariq rangli kumush yodid – AgI cho‘kmasini ajratadi:




**AgI cho‘kmasining xossalari tekshirish.**

1. Cho‘kma nitrat kislotada erimaydi.
2. Cho‘kma mo‘l miqdordagi ammiakda erimaydi.

**Reaktiv: xlorli suv – Cl<sub>2</sub>.**

Xlorli suv Cl<sub>2</sub> kislotali muhitda yodidlardan o‘ziga xos rangli erkin yod ajratadi.


*Tajribani bajarish.* Yodid eritmasiga 2–3 tomchi H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> eritmasi, bir necha tomchi efir yoki benzol va 2–3 tomchi xloramin qo‘sib, probirkcha chayqatiladi. Elementar yod efir qatlamini malina-binafsha rangga bo‘yaydi:



## Mavzu bo‘yicha masalalar va ularni yechish namunasi

**1- masala.** Nima sababdan Mg(OH)<sub>2</sub> ammoniy tuzlarida eriydi?

**Yechish.** Ma'lumki, Mg(OH)<sub>2</sub> ammoniy tuzlarida eriydi. Bu OH<sup>-</sup> ionlarining kam dissotsilanadigan NH<sub>4</sub>OH hosil bo‘lishi hisobiga kamayishi oqibatidir. Ammoniy tuzlari ta’sirida cho‘kma – eritma o‘rtasidagi muvozanat buziladi va cho‘kma erishi tomon siljiydi:



**2- masala.** Boshlang‘ich modda sifatida kaliy dixromat olinsa qanday qilib xrom-kaliyli achchiqtosh hosil qilish mumkin? 1 kg achchiqtosh olish uchun zarur bo‘lgan K<sub>2</sub>Cr<sub>2</sub>O<sub>7</sub> massasini toping.

**Berilgan:**


$$m(\text{achchiqtosh}) = 1 \text{ kg}$$

$$M(\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7) = 294 \text{ g/mol}$$


$$M(\text{achchiqtosh}) = 499,09 \text{ g/mol}$$

$$m(\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7) = ?$$

**Yechish:** Xromkaliyli achchiqtoshning formulasi:




1.  $\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$  dan xromkaliyli achchiqtosh olish uchun  $\text{Cr}^{6+}$  ni  $\text{Cr}^{3+}$  gacha qaytarish lozim. Bu jarayonni turli qaytaruvchilar:  $\text{SO}_2$ ,  $\text{HI}$ ,  $\text{H}_2\text{S}$  va boshqalar yordamida amalga oshirish mumkin. Etil spirit bilan qaytarish eng qulay hisoblanadi, chunki bu holda boshqa anorganik ionlar hosil bo'lmaydi:



2. Reaksiya tenglamasidan ko'rinaradiki, 1 mol  $\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$  dan 2 mol  $\text{KCr}(\text{SO}_4)_2 \cdot 12\text{H}_2\text{O}$  hosil bo'ladi, ya'ni  $1 \text{ mol} \cdot 294,10 \text{ g/mol} = 294,10 \text{ g}$   $\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$  dan

$2 \text{ mol} \cdot 449,09 \text{ g/mol} = 998,18 \text{ g } \text{KCr}(\text{SO}_4)_2 \cdot 12\text{H}_2\text{O}$   
hosil bo'ladi:



Proporsiya tuziladi:

$$\begin{aligned} 294,10 : 1000 &= x : 998,18, \\ x &= \frac{294,10 \cdot 1000}{998,18} = 294,63 \text{ g} = 0,2946 \text{ kg}. \end{aligned}$$

Javob:  $m(\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7) = 0,2946 \text{ kg}$ .

### Mavzuni mustaqil o'zlashtirishini nazorat qilish uchun savollar va masalalar

1. II guruh asosiy guruhcha gidroksidlarining xossalari quyidagi qatorda  $\text{Be}(\text{OH})_2 - \text{Ca}(\text{OH})_2 - \text{Sr}(\text{OH})_2 - \text{Ba}(\text{OH})_2$  qanday o'zgaradi?

2. Ammoniy oksalat eritmasidan foydalaniib, tekshirilayotgan eritma tarkibida kalsiy xlорид borligiga ishonch hosil qilish mumkinmi?

3. Quyidagi tuzlarning eritmaları  $\text{Na}_2\text{CO}_3$ ,  $\text{CH}_3\text{COOK}$  qanday muhitga ega?

4. Tibbiyot amaliyotida  $\text{KBr}$  va  $\text{NaBr}$  tinchlantiruvchi vosita sifatida keng qo'llanadi. Agar eritmaga geksanitrokobaltat bilan ta'sir ettirilganda sariq cho'kma hosil bo'lsa, tekshirilayotgan preparatda qanday tuz bo'ladi?

5. Rux gidroksidning amfoterlik xossasini ko'rsating.

6. Xrom (III) tuziga ammoniy sulfid qo'shilganda xrom gidroksid hosil bo'ladi. Reaksiyani yozing.  
 7.  $Mn(OH)_2$  qaysi moddada eriydi?

### Vaziyatli masalalar

**1- masala.** Jarrohlik amaliyotida  $NaCl$  ning 3, 5, 10% li (massa jihatdan) gipertonik eritmalari keng ishlataladi. 1 l 10% li  $NaCl$  eritmasini tayyorlash uchun necha gramm tuz olish kerak? Uning ta'siri nimaga asoslangan? ( $\rho = 1,11 \text{ g/mL}$ )

Javob:  $m(NaCl) = 111,0 \text{ g}$ .

**2- masala.** Mis kuporosi —  $CuSO_4 \cdot 5H_2O$  konyunktivitlarda antiseptik va bog'lovchi vosita sifatida ishlataladi. 100,00 ml 0,25% li eritma tayyorlash uchun kerak bo'lgan shu preparat massasini aniqlang. Shu preparatda misning massa ulushi (%) qanday?

Javob:  $m(CuSO_4 \cdot 5H_2O) = 0,25 \text{ g}; \omega\%(Cu) = 0,06\%$ .

### Test savollari

1.  $Fe^{3+}$  ioni qaysi reagent yordamida aniqlanadi?
  - a)  $NaOH$ ;   b)  $NH_4SCN$ ;   d)  $K_3[Fe(CN)_6]$ ;   e)  $NH_4Cl$ .
2. Qaysi eritma fiziologik eritma sifatida ishlataladi?
  - a) 3%  $NaCl$ ;   b) 0,86%  $KCl$ ;   d) 0,86%  $NaCl$ ;   e) 0,9%  $CaCl_2$ .
3. Organizmada ftorining kamayishi oqibatida qanday kasallik rivojlanadi?
  - a) flyuerez;   b) karies;   d) anemiya;   e) gipotireioz.
4. Mikrobiogen d- elementni ko'rsating:
  - a) Ag;   b) Hg;   d) Cu;   e) Cd.
5. Yod qaysi organda yig'iladi?
  - a) suyak;   b) jigar;   d) qalqonsimon bez;   e) buyrak.
6. Mis qaysi organda yig'iladi?
  - a) suyak;   b) jigar;   d) qalqonsimon bez;   e) buyrak.
7. Organizmada yod miqdori ortib ketishi oqibatida kelib chiqadigan kasallikni ko'rsating:
  - a) kamqonlik;   b) karies;   d) gipotireioz;   e) gipertireioz.

8. Analiz qilinayotgan eritmaga  $K_4[Fe(CN)_6]$  qo'shilganda ko'k cho'kma hosil bo'ladi. Eritmada qaysi kation mavjud?

- a)  $Zn^{2+}$ ; b)  $Pb^{2+}$ ; d)  $Fe^{2+}$ ; e)  $Fe^{3+}$ .

9. Temir (II) kationiga hos reagentni ko'rsating:

- a)  $Na_2S_2O_3$ ; b)  $K_4[Fe(CN)_6]$ ; d)  $K_3[Fe(CN)_6]$ ; e)  $KSCN$ .

10. Qaysi element organizmda qand almashinuviga ta'sir etadi?

- a) Mg; b) Ca; d) Fe; e) Zn.

## LABORATORIYA ISHI

### Biogen elementlarning kationlariga sifat reaksiyalari

#### 1- tajriba. $Ca^{2+}$ ioniga reaksiya.

$Na_2C_2O_4$  reaktivisi ishtirokidagi reaksiya.

5–6 tomchi  $CaCl_2$  eritmasiga 5–6 tomchi reaktiv qo'shiladi, oq cho'kma hosil bo'ladi.

#### 2- tajriba. $Cr^{3+}$ ioniga reaksiya.

$NaOH$  reaktivisi ishtirokidagi reaksiya.

5–6 tomchi  $CrCl_3$  eritmasiga cho'kma hosil bo'lguncha reaktiv qo'shiladi.

#### 3- tajriba. $Fe^{3+}$ ioniga reaksiya.

$NH_4CNS$  reaktivisi ishtirokidagi reaksiya.

a) 4–5 tomchi  $FeCl_3$  eritmasiga 4–5 tomchi reaktiv qo'shiladi, qonga o'xshash qizil rang hosil bo'ladi.

b)  $K_4[Fe(CN)_6]$  reaktivisi ishtirokidagi reaksiya.

4–5 tomchi  $FeCl_3$  eritmasiga 4–5 tomchi reaktiv qo'shiladi, «berlin zangorisi» hosil bo'ladi.

#### 4-tajriba. $Fe^{2+}$ ioniga reaksiya.

$K_3[Fe(CN)_6]$  reaktivisi ishtirokidagi reaksiya.

4–5 tomchi  $FeSO_4$  eritmasiga 4–5 tomchi reaktiv qo'shiladi, «turnbul ko'ki» hosil bo'ladi.

#### 5- tajriba. $Mn^{2+}$ ioniga reaksiya.

$NaOH$  reaktivisi ishtirokidagi reaksiya.

4–5 tomchi  $Mn(NO_3)_2$  eritmasiga 4–5 tomchi reaktiv qo'shiladi, oq cho'kma hosil bo'ladi.

#### 6- tajriba. $Zn^{2+}$ ioniga reaksiya.

$K_4[Fe(CN)_6]$  reaktivisi ishtirokidagi reaksiya.

4–5 tomchi  $ZnCl_2$  eritmasiga 4–5 tomchi reaktiv qo'shiladi, oq cho'kma hosil bo'ladi.

### **7- tajriba. $Co^{2+}$ ioniga reaksiya.**

$Na_2CO_3$  reaktivi ishtirokidagi reaksiya.

4–5 tomchi  $CoCl_2$  eritmasiga 4–5 tomchi reaktiv qo'shiladi, pushti rangli cho'kma hosil bo'ladi.

## **V b o b**

### **NOORGANOGEN ELEMENTLAR**

**Mashg'ulotning maqsadi:** talabalarni noorganogen elementlar kimiyoysi, ularning umumiy xossalari, toksik ta'sirlari bilan tanish-tirish. Noorganogen elementlar ionlariga sifat reaksiyalari o'tkazishni o'rganish.

**O'r ganilayotgan mavzuning ahamiyati.** Noorganogen elementlar kimyosining tirik organizmda kechadigan (shu elementlar ishtirokida) reaksiyalar asosida tushuntiriladi. Bu elementlarning toksik ta'siri ma'lum darajada shu elementlarning tuzilishiga, turli to'qima va organlarda to'planish imkoniyatlariiga va umumlashtirilgan fizik-kimyoviy xossalariiga bog'liq.

Noorganogen elementlarning ionlari organizmda ma'lum miqdorda bo'lib, ko'pincha ularning biologik faoliyati, saqlanish shakli, konsentratsiyasi (to'qima va organlardagi) ma'lum bo'lmaydi. Organizmga noorganogen elementlar ozuqa mahsulotlari, havo va suv bilan kiradi.

Bu elementlar konsentratsiyasining ortishi, jiddiy patologik holatlarga olib keladi. Ularni davolash uchun klinik amaliyotda xelatoterapiya usuli qo'llanadi.

Biologik suyuqliklardagi noorganogen elementlarni sifat reaksiylari yordamida aniqlash mumkin.

#### **Boshlang'ich bilim darajasi:**

1. Elementlar va ular birikmalarining xossalari o'zgarishining davriyligi va bu xossalarning D.I. Mendeleyev davriy sistemasida joylashgan o'rniiga bog'liqligi.

2. Atomlarning elektron tuzilishi.

3. Molekuladagi bog'lanish turi.

4. Kimyoviy reaksiyalarni ion va molekular shakllarda ifodalash.

### Mustaqil tayyorlanish uchun o'quv adabiyotlari:

1. Н.Л.Глинка. Общая химия. 1984, 383–608- betlar.
2. С.С.Оленин, Г.Н.Фадеев. Неорганическая химия. М., 1979, 314–336- betlar.
3. В.Н.Алексеек. Курс качественного химического полумикроанализа. М., 1973, 318–419, 448- betlar.
4. К.А.Селезнёв. Аналитическая химия. М., 1973, 90, 100, 106, 108, 116, 121- betlar.
5. И.К.Цитович. Курс аналитической химии. М., 1985, 113- bet.
6. X.H.Hakimov, A.Z.Tatarskaya, N.T.Olimxo'jayeva. Umumiy kimyodan amaliy mashg'ulotlar. T., 1993, 233–237- betlar.

### Darsda ko'rildigan savollar:

1. Noorganogen elementlarning organizmga toksik ta'siri va oqibatlari.
2. Noorganogen elementlarning tibbiyotda qo'llanadigan dorivor preparatlar tarkibiga kirishi.
3. Noorganogen elementlar va ular birikmalarining kimyoviy xossalari.
4. Noorganogen element ionlariga sifat reaksiyalari.
5. Laboratoriya ishi.

## MA'LUMOTLAR YIG'INDISI

**Noorganogen elementlar** – organizmda ma'lum miqdorda bo'lib, biologik faoliyati o'rganilmagan va ularning organizmda ortishi jiddiy patologik oqibatlarga olib keladigan elementlardir.

Bu ta'rif shartli, chunki ushbu elementlarning biologik ahamiyati o'rganilishi oqibatida, ular biogen elementlarga yaqinlashishi mumkin.

Noorganogen elementlarga bariy, strontsiy, simob, aluminiy, qo'rg'oshin, margumush, vismut, qalay va h.k. lar kiradi.

**Bariy, Ba.** Bariy yer po'stida massa jihatdan  $5 \cdot 10^{-2}\%$  ni tashkil etadi. Organizmda  $1 \cdot 10^{-5} \%$  uchraydi. Bariy ko'z pigmenti qavatida uchraydi. Uning miqdori qonda ortsasida *leykoz* kasalligi kelib chiqadi. Bu element odam organizmi uchun zaharlidir. Bariy kalsiyini biomolekulalardan siqib chiqaradi.

Bariyning eruvchan tuzlari zaharlidir, masalan,  $\text{BaCl}_2$  uchun havodagi cheklangan chegara qiymat miqdori  $0,4 \text{ mg}/\text{m}^3$  ni tashkil etadi. Lekin tibbiyotda bariyning sulfat tuzi ishlataladi, chunki uning eruvchanligi ( $EK(\text{BaSO}_4) = 0,87 \cdot 10^{-10}$ ) juda kichik bo'lib, ion hosil qilish ehtimoli kam, shuning uchun bu tuz rentgenodiagnostikada ishlataladi.

Ma'lumki, bariy silliq mushakllarga ta'sir etadi, qon bosimni orttiradi, yurak urishini tezlashtiradi, onkologik kasalliklarni keltirib chiqaradi. Organizmda bariy miqdori ortsa, *gastroenterit* va *leykotsitoz* kuzatiladi.

Bariy kalsiyning antagonisti hisoblanadi va kalsiy yetishmasligidan suyaklar deformatsiyasi va sinuvchanligi ortib, *bariyli rahit* rivojlanadi.

Bariyning suvda eriydigan birikmalari kemiruvchilarga qarshi kurashishda ishlataladi. Fiziologik nuqtayi nazardan  $\text{BaCl}_2$  kuchli zahar. Bariyning  $\text{BaCO}_3$ ,  $\text{BaSO}_3$  va boshqa xlorid kislotada (me'da shirasidagi) eriydigan birikmalari ham o'rganizmga toksik ta'sir etadi.  $\text{BaSO}_4$  me'da shirasida erimasligi sababli rentgenoskopiyada ishlataladi.

**Stronsiy, Sr.** Yer po'stida  $4 \cdot 10^{-2} \%$  miqdorda bo'ladi. U yuqori va quyi organizmlarda suyak tarkibida uchraydi.

Atom elektrostansiyalari ishlash jarayonida radioaktiv stronsiy ajraladi va u organizmda yig'ilib kamqonlik, leykoz va saraton kassalligini keltirib chiqaradi. Stronsiy ko'pincha kalsiy ko'p bo'lib magniy kam bo'lgan organlarda uchraydi. Stronsiy organizmga tushgandan so'ng fosfatli birikmalardagi  $\text{Ca}^{2+}$  ning o'rnini egallaydi. Bu birikma suyak to'qimasining asosini tashkil etadi va stronsiyli raxitni keltirib chiqaradi. Bu elementni organizmdan chiqarib yuborish imkoniyati juda oz, shu sababli to'qimalar doimiy ichki nurlanishga uchrab turadi va *leykemiya* kelib chiqadi.

**Kadmiy, Cd.** Yer po'stida  $1,35 \cdot 10^{-5} \%$  uchraydi. Agar uning tuproqdagи miqdori  $3 \text{ mg/kg}$  ga yetsa, uning o'simliklar biomassasidagi konsentratsiyasi  $0,4 \text{ mg/kg}$  ga yetib, odam va hayvon organizmida toksik oqibatlar kelib chiqadi. Odam organizmida  $1 \cdot 10^{-4} \%$  uchraydi. Bu mikroelementning biologik faoliyati aniqlanmagan. Organizmda kadmiy miqdorining ko'payishi qon bosimining ortishi, suyaklarni deformatsiyalanishiga va  $\text{Ca}^{2+}$ ,  $\text{Mg}^{2+}$ ,  $\text{Zn}^{2+}$  kabi biometallarning ionlarini siqib chiqarilishiga ( $\text{Cd}$  bioligandlar bilan barqaror kompleks hosil qiladi) olib keladi. Kadmiy, shuningdek, kanserogen xossaga ega.

Kadmiy ko'pgina fermentlarning ingibitoridir, u uglevod almashi-nuviga ta'sir etib, qondagi qand miqdorini boshqarib turishi aniqlangan.

**Simob, Hg.** Yer po'stida  $7 \cdot 10^{-6} \%$  uchraydi. Dengiz suvi tarkibida uning miqdori  $0,0001111 \text{ mg/l}$  ni tashkil etadi. Organizmda  $1 \cdot 10^{-6} \%$  simob bo'ladi. Kuniga organizmga  $0,002\text{--}0,005 \text{ mg}$  simob kiradi. Simob komplekslari barqaror, shu xususiyati bilan fermentlarni ingibirlaydi. Kadmiya nisbatan kompleks birikmalarining barqarorligi yuqori bo'l-gani sababli simob oqsillar bilan bog'lanib ularni denaturatsiyaga uchratadi. Simob organizmda to'planadi va chiqib ketishi juda qiyin bo'ladi.

Zamonaviy tasavvurlarga ko'ra simobning organik birikmalari ferment zaharlari hisoblanadi.

Simob nihoyatda zaharli bo'lib, uning organizmga kirishi oshqozon-ichak sistemasi, buyrak, jigar va turli bezlar faoliyatini buzib o'limga olib keladi. Organizmga nafas yo'llari orqali kirgan simob bug'lari markaziy nerv sistemasini zaharlaydi, quloq, tomoq va burun hastaliklariga olib keladi. Shuningdek, simob qalqonsimon bez faoliyatini ham buzadi.

Metall holdagi simob va uning birikmari juda zaharlidir.

Organik birikmalaridan metil simob, etil simob kabilar juda zaharlidir.

Simob ionlari oqsillar bilan mustahkam bog'lanib, erimaydigan albuminli birikmalar hosil qiladi va ichak, buyrakning zaharlanishiga olib keladi.

Simob bilan zaharlanishda oshqozon-ichak sohasida kuchli og'riq paydo bo'ladi, qayt qilish kuzatiladi, ahlat bilan qon ajraladi, me'da-ichakda yara hosil bo'ladi, *nekroz* kuzatiladi.

Doimiy zaharlanishda soch, qosh, kiprik va tishlar to'kiladi. Asab sistemasi ishdan chiqadi, qon aylanishi buziladi. Shuning uchun sanoatda havo tarkibidagi simobning miqdori  $1 \cdot 10^{-5}$  mg/m<sup>3</sup> dan oshmasligi kerak. Zaharlanishda sut, tuxum oqsili iste'mol qilinadi, chunki oqsil simobni oshqozonda cho'ktiradi.

**Aluminiy, Al.** Yer po'stida 8,8% uchraydi. Bu element organizmning  $8,7 \cdot 10^{-5}$  % ni tashkil etadi. Organizmda oksikislotalar, polifenol, uglevodlar, lipid va hokazolar bilan kompleks holda bo'ladi.

Aluminiy odamning organ va to'qimalari tarkibiy qismiga kiradi. Havodagi miqdori 0,5 mg/dm<sup>3</sup> dan oshmasligi kerak. Aks holda u biologik faol moddalar metabolizmini buzadi.

Aluminiy fosfatlar bilan ichakda birikib, to'qimalarda modda almashinuvining buzilishiga sabab bo'ladi.

Organizmda uning miqdori ortib ketishi suyaklarda raxit keltirib chiqaradi. U bosh miyada, o'pka, jigar, taloq, buyrak va suyaklarda ko'p miqdorda to'planadi.

Aluminiy to'qima oqsillari bilan barqaror birikma hosil qilib, moddalar almashinuvini buzadi.

Aluminiy fermentlar faolligini susaytiradi. Masalan, laktatdegidrogenaza, ishqoriy fosfataza, aldolaza faolligiga ta'sir ko'rsatadi.

Kompleks hosil qilish xususiyatiga ko'ra gemoglobin sintezini to'xtatadi, qon hosil bo'lishidagi fermentlar faoliyatini susaytiradi.

Aluminiy magniy ionlariga antagonist bo'lib, ribosomalarning makro tuzilishini buzadi va nuklein kislotalar sinteziga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Oqibatda saraton kasalligi rivojlanadi.

Aluminiyning organizmda ko'payishi neyrotoksik zaharlanishni keltirib chiqaradi. Uning dorivor preparatlari bog'lovchi va dezinfeksiyalovchi xususiyatga ega.

**Qo'rg'oshin, Pb.** Yer po'stida  $7 \cdot 10^{-6}$  % uchraydi. U organizmning  $1 \cdot 10^{-4}$  % ni tashkil etadi. Havoda 0,01 mg/kg bo'lganda letal holat keltirib chiqaradi.

U motor yoqilg'isi tarkibida bo'lib, atmosferada yig'iladi va havoni ifloslaydi. Shuning oqibatida organizmg'a kiradi. Qo'rg'oshin hujayralarning protoplazmasi uchun zaharli hisoblanadi. Nafas olish organlarida uning bug'lari to'planadi va o'pkaga so'rildi.


Qo'rg'oshinning asosiy qismi qizil qon tanachalarida to'planadi (40–45%). Qo'rg'oshin ionlari organizmg'a tushib, miyada qora dog'lar hosil qiladi, asab sistemasining va buyrak funksiyasining buzilishiga olib keladi, *anemiyani* rivojlantiradi. Zaharlanish belgilari: quvvatsizlik, kamqonlik, bosh aylanishi, shol.

Qo'rg'oshin bilan zaharlanganda davolash uchun tuxum oqsili, askorbin kislota ishlataladi.

**Margimush, As.** Yer po'stida  $1,7 \cdot 10^{-4}$  % uchraydi. Bu element barcha tirik organizmlar uchun zaharlidir. Organizmda  $1 \cdot 10^{-6}$  % uchraydi. Havodagi miqdori  $0,30 \text{ mg/m}^3$  dan, suvda  $0,05 \text{ mg/l}$  dan oshmasligi kerak. Sanoat korxonalari chiqindilari bunday ifloslanishga olib kelishi mumkin.

Organizmg'a oziq-ovqatlar bilan kuniga 1 mg atrofida margimush tushadi. U asosan eritrotsitlarda, taloqda, oqsil to'qimalarida uchraydi. Organizmdagi  $0,1\text{--}0,3 \text{ g}$  miqdori o'limga sabab boladi.

As (III) birikmalari – *arsenitilar* ferment va oqsillarning –SH guruhlariiga ta'sir etib ularni ingibirlaydi:



Margimush birikmalaridan  $\text{AsH}_3$  – arsenening zaharli oqibatlari kuchlidir. U gem faolligini ingibirlaydi. Buning natijasida eritrotsitlar gemolizga uchrab buyrak kanallari tiqilib qoladi va organizning sarg'ayishiga olib keladi.

Arsenat ionlari ATF sintezini ingibirlaydi. Pirouzm kislotasining metabolizmini susaytiradi. Bu esa uglevod, aminokislotalar va lipidlar metabolizmining buzilishiga olib keladi. Uning organizmda ortishi «qorason» kasaligiga sabab bo'ladi.

Katta miqdorda zaharli bo'lgan margimush ozgina dozada yurak qon tomir faoliyatiga, qon ishlab chiqarishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**Vismut, Bi.** Ichimlik suvida mavjud bo'lgani uchun suv va oziq-ovqatlar orqali organizmga bir sutkada 20 mkg tushadi. Organizmda  $1 \cdot 10^{-6} \%$  uchraydi. Vismut jigar, buyrak va ichki sekretsiya bezlarida oz miqdorda bo'ladi.

Vismut tuzlari organizmga tushib, oson gidrolizlanadi va oz eriydigan birikmalar hosil qiladi. Me'da-ichak sistemasida aminoguruh tutgan ligandlar bilan barqaror kompleks hosil qiladi va toksik ta'sir etadi, ya'ni aminokarboksipolipeptidaza birikmalari kabilarni ingibirlaydi.

Vismut ionlari yurak faoliyatini susaytiradi. Asosan buyrakda to'planib, uning faoliyatini buzadi, terida yig'ilib *dermatit* keltirib chiqaradi.

Vismutning eruvchan birikmalari zaharlidir.

**Surma, Sb.** Organizmda  $1 \cdot 10^{-6} \%$  uchraydi. Tibbiy-biologik xossalariiga va farmokologik ta'siriga ko'ra u margimushga o'xshaydi, ammo uning birikmalari nisbatan kamroq zaharli. Surma va uning birikmalari suyaklarda, buyrak va taloqda to'planadi.

Surmaning 0,12g miqdori odam uchun letal miqdor hisoblanadi.

**Qalay, Sn.** Yer po'stida  $8 \cdot 10^{-3} \%$  uchraydi. Bu metall organizmda  $1 \cdot 10^{-4} \%$  ni tashkil etadi. Organizmga oziq bilan sutkasiga 1 mg tushib turadi, konservalangan mahsulotlarda uning miqdori 38 mg gacha etadi. Qalay jigar, o'pka, buyrak va eritrotsitlarda to'planadi. U anemiyaga sabab bo'ladi, oqibatda qizil qon tanachalari va gemonoglobin kamayadi.

Uning organizmda ko'payishi teri, yuqori nafas organlarini zaharlaydi va asab kasalliklariga olib keladi. Qalay bilan zaharlangan 59% kasallarda ensefalopatiya, 38% ida aqliy zaiflik kuzatiladi.

Tibbiyotda quyidagi noorganogen elementlarning preparatlari qo'llanadi:

$\text{BaSO}_4$	baryi sulfat	Oshqozon-ichakning rentgenologik tekshiruvlarida qo'llanadi.
$\text{BaS}$	baryi sulfid	Teridan tuklarini olib tashlashda ishlatiladi.
$^{89}\text{Sr}$ va $^{90}\text{Sr}$	stronsiy izotoplari	Nur terapiyasida ishlatiladi
Cd	kadmiy	Stomatologiyada, tishlarni plombalashda ishlatiladi.

$\text{Al}(\text{OH})_3$	aluminiy gidroksid	Adsorbsiyalovchi moddalar.
$\text{KAl}(\text{SO}_4)_2 \cdot 12\text{H}_2\text{O}$	kvasslar	Teri va shilliq pardalar yallig'lanishida ishlataladi.
$\text{Al}_2\text{S}_3$	aluminiy sulfid	Stomatologiyada ishlataladi.
Sb birikmalari	surma	Leyshmaniozni davolashda ishlataladi.
$\text{As}_2\text{S}_3$	margimush sulfid	Stomatologiyada ishlataladi
$\text{Na}_2\text{HAsO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$		Kamqonlikda, tinchlantiruvchi va qvvatlaniruvchi preparat.
<b>Margimush birikmalari:</b>		
Aminarson		Amebioz, zaxm kasalliklarini davolashda ishlataladi.
Novarsenol		
Miarsenol		
$\text{BiOOH}$		Oshqozon-ichak kasalliklarini davolashda; surtmasi esa teri shamollashida ishlataladi.
$\text{BiONO}_3$		
<b>Vismut birikmalari:</b>		
dermatol, bismoverol,		Oshqozon-ichak kasalliklarini davolashda; surtmasi esa teri yallig'lanishida ishlataladi,
biyoxinol-kentabismol		zaxmni davolashda qo'llanadi
$\text{HgCl}_2$	Sulema	Teri kasalliklarini davolashda qo'llanadi.
$\text{HgO}, \text{HgNH}_2\text{Cl}$		Teri kasalliklarini davolashda qo'llanadi.
$\text{Hg}_2\text{Cl}_2$	Kalomel	Ko'zning shox pardasini davolashda ishlataladi.
PbO	$\text{Qo'rg'oshin yaltirog'i}$	Plastir ko'rinishida terining yiringli kasalliklarida, chipqonda qo'llanadi.
Qalay, kumush va oltin qotishmalari		Stomatologiyada ishlataladi
Qo'rg'oshin birikmalari;		Gelmintoz, teri kasalliklarida ishlataladi.
$\text{KC}_4\text{H}_4\text{O}_6(\text{SbO}) \cdot \text{H}_2\text{O}$		

## NOORGANOGEN ELEMENTLARNING KIMYOVIY XOSSALARI

**Baryi Ba.** Tabiatda sulfatlar, karbonatlar, silikatlar ko'rinishida uchraydi. Muhim minerallari: barit  $\text{BaSO}_4$ , viterit  $\text{BaCO}_3$  va h.k.


Bariy – qayishqoq metall ( $t_{\text{suyuq.}} = 710 \text{ }^{\circ}\text{C}$ ,  $t_{\text{qayn.}} = 1696 \text{ }^{\circ}\text{C}$ ). 7 ta barqaror izotopidan iborat. Ulardan eng ahamiyatlisi  $^{140}\text{Ba}$  va  $^{133}\text{Ba}$ . Bariy atomi katta hajmlı va kam qutblanuvchi bo'lgani uchun barqaror kompleks birikmalar hosil qilmaydi.

Bariy havoda kislород bilan reaksiyaga kirishib oksid qatlamini hosil qiladi, shuning uchun germetik idishlarda saqlanadi. Nisbatan kimyoviy faol metallmaslar bilan reaksiyaga kirishadi. Gallogenlar bilan gallogenidlar hosil qiladi:  $\text{Ba}G_2$ , bu yerda  $G = \text{F}^-$ ,  $\text{Cl}^-$ ,  $\text{Br}^-$ ,  $\text{I}^-$ .

Bariy suv bilan reaksiyaga kirichadi:



Oddiy sharoitda uglerod (IV)-oksid bilan ta'sirlashadi:




Metall holdagi Ba – kuchli qaytaruvchi.


Bariy gidrid  $\text{BaH}_2$  – vodorod atmosferasida bariyni qizdirish yoli bilan olinadi:



$\text{BaO}$  elementlardan to'g'ridan-to'g'ri sintezlanadi yoki karbonatlar va nitratlarni termik parchalab olinadi:




$\text{BaO}$  suvda erib bariy gidroksidi hosil qiladi.  $\text{Ba}(\text{OH})_2$  – bariyli suv:




$\text{Ba}(\text{OH})_2$  – bariy gidroksid, kuchli asosli hossani namoyon qiladi.

$\text{BaO}_2$  – bariy peroksiidi  $\text{BaO}$  ga kislород ta'sir ettirish yoli bilan olinadi:




$\text{BaO}_2$  – qiyin eruvchi modda.


Bariy tuzlari kaliy xromat bilan birikib, sariq cho'kma hosil qiladi:



$\text{BaCrO}_4$  nitrat, xlorid va sırka kislotada eriydi:



Sulfat kislotada oq cho'kma hosil qiladi:



**Stronsiy, Sr.** Yer po'stida  $4 \cdot 10^{-20}$  % uchraydi. Stronsiyning radioaktiv izotoplari juda zaharlidir. Uning 4 ta izotopi bor:  $^{84}\text{Sr}$ ,  $^{86}\text{Sr}$ ,  $^{87}\text{Sr}$ ,  $^{88}\text{Sr}$ . Stronsiy yengil metall. U tashqi pog'onasidagi 2 ta s- elektronini juda oson yo'qotadi va shuning uchun, faqat  $\text{Sr}^{2+}$  ion hosil qiladi.


Stronsiy kislород bilan shiddatli reaksiyaga kirishgani sababli parafin moyi, petroley efiri, kerosin ostida saqlanadi. Havoda stronsiy oksid parda ( $\text{SrO}$ , qisman  $\text{SrO}_2$ ) bilan qoplanadi va oson parchalana-digan nitrid  $\text{Sr}_3\text{N}_2$  holida ham bo'ladi.

Stronsiy kuchli qaytaruvchi.


Qizdirilganda vodorod bilan gidrid hosil qiladi:




bu gidrid suv bilan reaksiyaga kirishadi:



Stronsiy qizdirilganda kislород, galogenlar, oltingugurt, azot bilan reaksiyaga kirishadi:



Stronsiy suv bilan tez ta'sirlashadi:




Kislotalarda oson erib tuz hosil qiladi, suyultirilgan  $\text{HNO}_3$  bilan reaksiyaga kirishadi:




Konsentrangan  $\text{H}_2\text{SO}_4$  bilan asta-sekin ta'sirlashadi:



Stronsiy peroksid  $\text{SrO}_2$  quyidagi reaksiya natijasida olinishi mumkin:



Strontsiy gidroksid vodorod peroksid bilan ta'sirlashadi:



Stronsiy tuzlari bariy tuzlariga nisbatan yaxshiroq, ammo kalsiy tuzlaridan sustroq eriydi. Uning galogenidlari, nitratlari, atsetat, xlorat-

lari yaxshi eruvchan. Uchuvchan tuzlari pirotexnikada (mushak-bozlikda), raketa sanoatida ishlataliladi.


**Kadmiy Cd.** Kadmiy tabiatda erkin holatda uchramaydi. U minerallar tarkibida bo'ladi. Kadmiy – og'ir, yumshoq metall. Havoda yuzasi himoya oksid pardasi bilan qoplanadi. Yuqori temperaturada suv bilan ta'sirlashadi:



Cd(OH)<sub>2</sub> amfoter xossaga ega. U oq bo'linuvchan cho'kma. Havoda qizdirilganda jigarrang oksid hosil qiladi. Asoslarda erimaydi, suyultirilgan kislotalarda asta-sekin eriydi. HNO<sub>3</sub>, HCl, H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> da qizdirilganda eriydi:



U galogenlar bilan ta'sirlashib galogenidlar hosil qiladi: CdF<sub>2</sub>, CdCl<sub>2</sub>, CdBr<sub>2</sub>, CdI<sub>2</sub>. Vodorod bilan gidrid CdH<sub>2</sub>, azot bilan nitrid Cd<sub>3</sub>N<sub>2</sub>, oltinguggurt bilan sulfid CdS hosil qiladi. Kadmiy birikmalari kompleks birikmalar hosil qilishga moyildir:




Kadming barcha tuzlari zaharli.

**Simob, Hg.** Simob tabiatda minerallar tarkibida bo'ladi. Yer po'stida 7 ta barqaror izotopi mavjud.


Simob – yaltiroq kumush rang oq metall. U oddiy sharoitda suyuq holda bo'ladi.

Oddiy temperaturada simob kislorod bilan ta'sirlashmaydi, qizdirilganda (350–400 °C) esa qizil rangli oksid HgO hosil qiladi, yuqoriroq temperaturada bu modda kislorod va simobgacha parchalanadi:



Quyi oksidi Hg<sub>2</sub>O da – Hg – Hg – bog' tufayli simobning valentligi 2 ga, oksidlanish darajasi esa +1 ga teng. Bunday bog'lanish simob (I) tuzlarining eritmasida ham mavjud Cl – Hg – Hg – Cl.

Simob gidroksidi Hg(OH)<sub>2</sub> eritmada hosil bo'lishidayoq simob (I)-oksid Hg<sub>2</sub>O bilan suvg'a ajraladi:




Simob kislotalarda erib tuzlar hosil qiladi:




Kuchlanish qatorida simob vodoroddan keyin joylashgan, shuning uchun suvdan va kislotalardan  $\text{H}_2$  ni siqib chiqara olmaydi.

Simob tuzlariga ishqorlar qo'shilganda oksidlar hosil bo'ladi:





Simob birikmalari oson qaytariladi (simob (I) tuzlari va metall-gacha):



Oddiy sharoitda galogenlar bilan reaksiyaga kirishadi.

Sharoitga qarab  $\text{Hg}_2^+$  oksidlovchi va qaytaruvchi bo'lishi mumkin:



Simobning galogenli hosilalari ishqoriy metallarning galogenidlari bilan turli xil kompleks birikmalar hosil qiladi. Masalan, suvda oz eriydigan simob yodid (II) kaliy yodid bilan tetrayod (II) gindrargirat kaliy hosil qiladi:




Shu kabi simobning misli  $\text{Cu}_2[\text{HgI}_4]$  va kumushli  $\text{Ag}_2[\text{HgI}_4]$  komplekslari bo'lib, temperatura o'zgarsa, o'z rangini o'zgartiradi va shu xususiyatiga ko'ra termoskopiyada qo'llanadi.

**Aluminiy, Al.** Tabiatda keng tarqalgan element. Yer yuzida tarqalishiga ko'ra kisloroddan keyin uchinchi o'rinni egallaydi. 250 dan ortiq minerallari mayjud: boksit –  $\text{Al}_2\text{O}_3 \cdot x\text{H}_2\text{O}$ , kaolinit –  $\text{Al}_2\text{O}_3 \cdot 2\text{SiO}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ , nefelin –  $\text{Na}_2\text{O} \cdot \text{Al}_2\text{O}_3 \cdot 2\text{SiO}_2$  va boshqalar. I tabiatiy izotopi bor.


Aluminiy kumushsimon oq rangli metall (zichligi 2,7 g/sm<sup>3</sup>). U egiluvchan, issiqlik va elektrni yaxshi o'tkazadi.

Kimyoviy xossalalariga ko'ra juda faol element hisoblanadi. Xona temperaturasida kislorod bilan ta'sirlashadi,  $\text{Al}_2\text{O}_3$  himoya pardasi hosil qiladi va bu parda uni keyingi oksidlanishdan saqlaydi.





Agar himoya pardasini tozalab tashlansa, metall suv bilan reaksiyaga kirishadi:



Aluminiy suyultirilgan kislotalarda eriydi:



Aluminiy, uning oksidi va gidroksidi amfoter xossaga ega:



Aluminiy konsentirlangan  $\text{HNO}_3$  bilan ta'sirlashmaydi.



Qizdirilganda galogenidlar hosil qiladi.  $700-2000$  °C gacha qizdirilganda oltingugurt, azot, uglerod bilan reaksiyaga kirishib sulfidlar, nitridlar, karbidlar hosil qiladi.

Aluminiy ko'pgina metallarni (marganes, xrom, vanadiy va boshqalar) ularning oksidlaridan gaytaradi – aluminotermiya jarayonida qatnashadi.


Aluminiy ko'pgina metallar bilan yengil qotishmalar hosil qiladi. Aluminiy texnikada va sanoatda keng qo'llanadi.





**Qalay, Sn; qo'rg'oshin, Pb** kamyoob va kam eruvchan metallardir. Qalay oq kumushsimon yaltiroq metall, qo'rg'oshin esa yuzasi kulrang ko'kish tusli yaltiroq metall, lekin havo kislorodi ta'sirida tez hiralashib qoladi.

Qalay havoda uzoq vaqt o'zgarmay saqlanib turadi, ya'ni oksidlanmaydi. Lekin suyuqlanish temperaturasiga qadar qizdirilganda  $\text{SnO}_2$  ga aylanadi. Suyultirilgan xlorid va sulfat kislotalar qalayga juda sekin ta'sir etadi. Xlorid kislotalan konsentrangan eritmasi qalayni  $\text{SnCl}_2$  gacha, konsentrangan sulfat kislota esa  $\text{Sn}(\text{SO}_4)_2$  gacha oksidlaydi:




Qalay oksidlari va qalay gidroksidi amfoter xossaga ega.  $\text{SnO}$  qaynoq konsentrangan ishqorlar bilan,  $\text{SnO}_2$  esa suyultirilganda ishqoriy metall oksidlari bilan yoki ishqorlar bilan metastannatlar, suv ishtirokida esa geksogidrostannatlar hosil qiladi:






Qo'rg'oshin suv bilan ta'sirlashmaydi, lekin havo kislrorodida oksidlanib avval sariq  $\text{PbO}_2$ , keyin esa och qizil  $\text{Pb}_3\text{O}_4$  hosil qiladi.  $\text{Pb}_3\text{O}_4$  nitrat kislota bilan reaksiyaga kirishadi:





$\text{PbO}$  va  $\text{PbO}_2$  — amfoter oksidlar.  $\text{PbO}$  ning asosli xossalari,  $\text{PbO}_2$  ning kislotali xossalari kuchliroq.

Qo'rg'oshin (II) ning suvda eriydigan tuzlariga ishqor ta'sir etib go'rg'oshin (II)-gidroksid olinadi:





Qo'rg'oshin (II)-gidroksid amfoter xossaga ega, uning kislotali xossasi asosli xossasidan ustunroqdir:





$\text{Sn}^{2+}$  birikmalari kuchli qaytaruvchi,  $\text{Pb}^{4+}$  birikmalari esa kuchli oksidlovchidir.

$\text{Sn}$  (IV) va  $\text{Pb}$  (IV)-oksidlariga kuchsiz kislotalar mos keladi:  $\text{H}_2\text{SnO}_3$  va  $\text{H}_2\text{PbO}_3$ .

Bu elementlar o'ta elektromusbat elementlar bilangina manfiy oksidlanish darajasini namoyon qiladi:



$\text{Ca}_2\text{Sn}$  va  $\text{Mg}_2\text{Pb}$  birikmalari xlorid kislota bilan ta'sirlashganda beqaror zaharli gazlar ajraladi:




Qalay va qo'rg'oshin ko'plab birikmalar hosil qiladi, bunda ular 2 va 4 valentli holda bo'ladi. Bu elementlar 6 va 8 koordinatsion sonli barqaror komplekslar hosil qiladi. Qo'rg'oshin ionlari oqsil va fermentlarning sulfgidril guruhlari bilan kompleks hosil qiladi.

**Margimush, As; surma, Sb va vismut, Bi.** Yer qobig‘idagi miqdori oz bo‘lib, rudalar tarkibida uchraydi. Bu elementlarning ba’zilari erkin holda uchrashi ham mumkin. Margimush va surma bir necha allotropik holatlarda bo‘ladi. Margimush ko‘pincha +5 yoki +3, surma asosan +3 (goho +4), vismut esa ko‘pincha +3 (faqat kuchli oksidlovchilar ishtirokida +5 ga o‘tadi) oksidlanish darajasini namoyon etadi.

Suvda va organik erituvchilarda erimaydi. Havoda margimush va vismut oksid parda bilan qoplanadi. Havoda qizdirilganda bu elementlar  $\text{Me}_2\text{O}_3$  oksidi hosil qilib yonadi. Ularning gidroksidi amfoter,  $\text{As}(\text{OH})_3$  ning kislotaliligi,  $\text{Bi}(\text{OH})_3$  ning asosliligi ko‘proq kuzatiladi. Arsenit kislota  $\text{H}_3\text{AsO}_3$  faqat eritma holida mavjud bo‘ladi. Stibit kislota  $\text{H}_3\text{SbO}_3$  oq cho‘kma bo‘lib, uning tuzlarini ammonitlar deb ataladi.

Bu kislotalar dissotsiyalanganda suv ajraladi va kuchsiz kislotalar hosil bo‘ladi:  $\text{HAsO}_2$  – metaarsenit kislota va  $\text{HSbO}_2$  metastibit kislotasi. Yuqori oksidlari  $\text{As}_2\text{O}_5$  va  $\text{Sb}_2\text{O}_5$  ga arsenat kislota  $\text{H}_3\text{AsO}_4$  va stibiat kislota  $\text{H}_3\text{SbO}_4$  mos keladi. Ularning tuzlari *arsenatlar* va *antimonatlar* deyiladi, ular suvda qiyin eriydi.


$\text{MeH}_3$  birikmalari metalli birikmalariga kislotalar ta’sir ettirib olinadi:





Gazsimon gidridlar:  $\text{AsH}_3$  – arsin,  $\text{SbH}_3$  – stelogin va  $\text{BiH}_3$  – vismutinlar beqaror zaharli moddalardir.

$\text{AsH}_3$  va  $\text{SbH}_3$  kuchli qaytaruvchidir.

Bu elementlar oddiy sharoitda suv bilan ta’sirlashmaydi. Ular faqat oksidlovchi xossalari kislotalar bilan reaksiyaga kirishadi:



As, Sb, Bi konsentralangan nitrat kislotada eriydi:



Sulfidlari rangli bo‘lib, shu elementlarning sifat analizida ishlatiladi.

$\text{As}_2\text{S}_3$  va  $\text{As}_2\text{S}_5$  – sariq, surma sulfidlari  $\text{Sb}_2\text{S}$  va  $\text{Sb}_2\text{S}_5$  zarg‘aldoq,  $\text{Bi}_2\text{S}_3$  – qora rangli.

Bu elementlar gallogenlar bilan reaksiyaga kirishadi. 1 valentli metal xloridlari bilan kompleks hosil qiladi.


As, Sb, Bi yumshoq, rangli metall bilan past temperaturada suyuqlanadigan yengil eruvchan qotishmalar hosil qilinadi.

## NOORGANOGEN ELEMENTLAR IONLARINING SIFAT REAKSIYALARI

### Bariy kationi – Ba<sup>2+</sup> reaksiyalari

*Reaktiv: sulfat kislota – H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>.*

Sulfat kislota H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> va eruvchan sulfatlar bariy tuzlari bilan oq kristall cho'kma BaSO<sub>4</sub> hosil qiladi:




### BaSO<sub>4</sub> cho'kmasining xossalalarini tekshirish.

Cho'kma kislota va o'yuvchi ishqorlarda erimaydi.


*Reaktiv: kaliy xromat – K<sub>2</sub>CrO<sub>4</sub>.*

Kaliy xromat K<sub>2</sub>CrO<sub>4</sub> bariy tuzlari bilan sariq cho'kma BaCrO<sub>4</sub> hosil qiladi:




### BaCrO<sub>4</sub> cho'kmasining xossalalarini tekshirish.

Cho'kma kuchli kislotalarda eriydi, lekin sirka kislotada erimaydi:




*Reaktiv: kaliy bixromat – K<sub>2</sub>Cr<sub>2</sub>O<sub>7</sub>.*


Kaliy bixromat K<sub>2</sub>Cr<sub>2</sub>O<sub>7</sub> bariy tuzlari bilan bariy xromat sariq cho'kma – BaCrO<sub>4</sub> hosil qiladi. Buning sababi quyidagicha: Cr<sub>2</sub>O<sub>7</sub><sup>2-</sup> ionlari suvli eritmada CrO<sub>4</sub><sup>2-</sup> ionlari bilan muvozanatda bo'ladi:



Bariy xromat bariy bixromatga qaraganda oz eruvchan bo'lgani uchun cho'kmaga BaCrO<sub>4</sub> tushadi:




Ba<sup>2+</sup> ionlari to'la cho'kishi uchun reaksiyani natriy asetat ishtirokida olib borish kerak. Bunda natriy asetat reaksiya davomida ajralib chiqadigan va BaCrO<sub>4</sub> ni eritishi mumkin bo'lgan kuchli kislota HCl ni kuchsiz kislota CH<sub>3</sub>COOH ga aylantiradi, unda BaCrO<sub>4</sub> erimaydi.



### Stronsiy ioni – $\text{Sr}^{2+}$ reaksiyalari

*Reaktiv: sulfat kislota –  $\text{H}_2\text{SO}_4$ .*

Sulfat kislota –  $\text{H}_2\text{SO}_4$  va suvdagi eriydigan sulfat kislota tuzlari stronsiy tuzlari bilan oq kristall cho'kma  $\text{SrSO}_4$  hosil qiladi:




**$\text{SrSO}_4$  cho'kmasining xossalalarini tekshirish.**

Cho'kma kislota va ishqorda erimaydi.

*Reaktiv: gips suvi –  $\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ .*

Gipsning suvdagi to'yingan eritmasi stronsiy tuzlari bilan oq loyqa  $\text{SrSO}_4$  hosil qiladi. Eritma qizdirilganda loyqa hosil bo'lishi tezla-shadi.


Bu reaksiya yordamida  $\text{Sr}^{2+}$  ionini aniqlashda albatta eritmadan  $\text{Ba}^{2+}$  ionlari yo'qotilishi zarur (chunki  $\text{Ba}^{2+}$  ionlari ham huddi shunday oq loyqa hosil qiladi). Reaksiya tenglamasi:



### Simob ioni – $\text{Hg}^{2+}$ reaksiyalari


*Reaktiv: natriy va kaliy gidroksidlar –  $\text{NaOH}$ ,  $\text{KOH}$ .*

O'yuvchi ishqorlar simob (II) tuzlariga ta'sir etganda eritmadan simob (II)-oksidning  $\text{HgO}$  sariq cho'kmasini ajratadi:



**$\text{HgO}$  cho'kmasining xossalalarini tekshirish.**


1. Cho'kma mineral kislotalarda eriydi:



2. Cho'kma o'yuvchi ishqorlarning mo'l eritmalarida erimaydi.


*Reaktiv: kaliy yodid –  $\text{KI}$ .*

Kaliy yodid simob (II) kationlarini qizil-zarg'aldoq cho'kma –  $\text{HgI}_2$  holida cho'ktiradi:



### **HgI<sub>2</sub> cho'kmasining xossalalarini tekshirish.**


Cho'kma reaktivining mo'l miqdorida kompleks birikma – K<sub>2</sub>[HgI<sub>4</sub>] hosil qilib eriydi:



### **Simob ioni – Hg<sub>2</sub><sup>2+</sup> reaksiyalari**


#### **Reaktiv: xlorid kislota – HCl.**

Xlorid kislota Hg<sub>2</sub><sup>2+</sup> ionlari bilan oq cho'kma – Hg<sub>2</sub>Cl<sub>2</sub> hosil qiladi:




#### **Hg<sub>2</sub>Cl<sub>2</sub> cho'kmasining xossalalarini tekshirish.**

1. Cho'kma suyultirilgan kislotalarda erimaydi.
2. Cho'kma NH<sub>4</sub>OH ning mo'l miqdorida erimaydi va qora metall holdagi simob chiqishi natijasida qorayadi:



#### **Reaktiv: metall holdagi mis – Cu.**


Tozalangan mis plastinka (mis tangaga)ga 1–2 tomchi Hg<sub>2</sub>(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub> tomiziladi. Bir ozdan so'ng ajralib chiqqan metall holdagi simobdan yaltiroq dog' hosil bo'ladi:



### **Aluminiy ioni – Al<sup>3+</sup> reaksiyalari**

#### **Reaktiv: natriy va kaliy gidroksidlar – NaOH, KOH.**

Aluminiy tuzi eritmasiga o'yuvchi ishqorlar ehtiyyotkorlik bilan qo'shilganida oq liqaldoq alyuminiy gidroksid cho'kmasini Al(OH)<sub>3</sub> ajraladi:




**Al(OH)<sub>3</sub> cho'kmasining xossalarini tekshirish.**

Al(OH)<sub>3</sub> – amfoter xossaga ega.


1. Cho'kma mineral kislotalarda eriydi:




2. Cho'kma o'yuvchi ishqorning mo'l miqdorida eriydi:

**Reaktiv: natriy gidrokarbonat – NaHCO<sub>3</sub>.**

Natriy gidrokarbonat va karbonatlar alyuminiy tuzlari bilan oq liqildaoq cho'kma Al(OH)<sub>3</sub> hosil qiladi:



NaHCO<sub>3</sub> suvli erimalarda gidrolizga uchraydi:




Shunday qilib, bu tuz eritmasida OH<sup>-</sup> va HCO<sub>3</sub><sup>-</sup> bor. Al(OH)<sub>3</sub> nisbatan oz eruvchan bo'lgani uchun cho'kmaga tushadi.

**Reaktiv: alizarin (I) – S – C<sub>14</sub>H<sub>9</sub>O<sub>2</sub>(OH)SO<sub>3</sub>Na.**

Alizarin aluminiy tuzlari bilan qirmizi-qizil rangli lok hosil qiladi. Reaksiya filtr qog'oz bo'lagida bajariladi: filtr qog'oz bo'lagiga 1 tomchi aluminiy tuzi eritmasi tomiziladi. Unga gaz holdagi ammiak bilan ishlov beriladi, buning uchun filtr qog'oz bo'lagini konsentr-langan ammiak eritmasi idishi ustida ushlab turiladi. Dog'ni periferiyasi bo'yicha alizarinli kapillar bilan o'rab chiqiladi va yana ammiak gazi bilan ishlov beriladi. Binafsha ko'rinishda (ammiakli muhitdagi alizarin rangi) qirmizi-qizil rang hosil bo'ladi. Alizarin aluminiy bilan ichki kompleks tuz hosil qiladi.

**Qo'rg'oshin ion – Pb<sup>2+</sup> reaksiyalari****Reaktiv: xlorid kislota – HCl.**

Suyultirilgan xlorid kislota va xloridlar qo'rg'oshin tuzlaridan oq g'ovak qo'rg'oshin xlorid PbCl<sub>2</sub> cho'kmasini ajratib chiqaradi:




### **PbCl<sub>2</sub>, cho'kmasining xossalarini tekshirish.**

1. Cho'kma qaynayotgan suvda eriydi.
2. Cho'kma kislotalarda erimaydi.
3. Cho'kma quyuq o'yuvchi ishqorlarda eriydi.

### **Reaktiv: natriy va kaliy gidroksidlar – NaOH, KOH.**


Qo'rg'oshin tuzlariga o'yuvchi ishqorlar ehtiyojkorlik bilan ta'sir ettirilganda – Pb(OH)<sub>2</sub> oq cho'kma hosil bo'ladi:




### **Pb(OH)<sub>2</sub>, cho'kmasining xossalarini tekshirish.**

Pb(OH)<sub>2</sub> amfoter xossaga ega.

1. Cho'kma mineral kislotalarda eriydi:




2. Cho'kma o'yuvchi ishqorning mo'l miqdorida eriydi:




### **Reaktiv: kaliy yodid – KI.**

Kaliy yodid KI qo'rg'oshin tuzlari eritmasi bilan sariq amorf cho'kma – qo'rg'oshin yodid PbI<sub>2</sub> hosil qiladi:



### **PbI<sub>2</sub>, cho'kmasining xossalarini tekshirish.**

1. Cho'kma reaktivning mo'l miqdorida qisman eriydi:



2. Cho'kma qaynayotgan suvda eriydi.

3. Cho'kma suyultirilgan sirkal kislotada qaynatilganda eriydi.


Hosil bo'lgan eritmani asta-sekin sovitilsa, tillasimon-sariq kristall ko'rinishidagi cho'kma tushadi. Bu sifat analizining eng chiroylı reaksiyalaridan biridir.

### **Margimush ionı – As<sup>3+</sup> reaksiyalari**

#### **Reaktiv: natriy tiosulfat - Na<sub>2</sub>S<sub>2</sub>O<sub>3</sub>**


Natriy tiosulfat Na<sub>2</sub>S<sub>2</sub>O<sub>3</sub> – kislotali muhitda (HCl ishtiroqida) margimush tuzlari bilan qaynatilganda As<sub>2</sub>S<sub>3</sub> – margimush sulfid sariq cho'kma hosil bo'ladi.

**Ishning borishi.** Probirkaga 2–3 tomchi  $\text{Na}_3\text{AsO}_3$ , 1 tomchi HCl va 2–3 tomchi  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  eritmasi tomiziladi. Aralashma qaynaguncha qizdirilsa 2–3 minutdan so'ng cho'kma hosil bo'ladi:



### **As<sub>2</sub>S<sub>3</sub> cho'kmasining xossalariini tekshirish.**


1. Cho'kma o'yuvchi ishqor eritmasida eriydi:




$\text{Na}_3\text{AsS}_3$  – *tiotuz* deb nomlanadi. Bu tiokislotaga tegishli tuzdir. Tiokislotalar kislородли kislotalarga o'xshash bo'lib, kislородни oltingugurtga almashinganligi bilan farq qiladi. Masalan:



2. Cho'kma ishqoriy metallarning sulfidlarida  $\text{Na}_2\text{S}$ ,  $\text{K}_2\text{S}$  eriydi:




3. Cho'kma ammoniy karbonatda eriydi:



### **Vismut ioni – $\text{Bi}^{3+}$ reaksiyalari**


**Reaktiv: natriy va kaliy gidroksidlar –  $\text{NaOH}$ ,  $\text{KOH}$ .**

O'yuvchi ishqorlar vismut tuzlari bilan vismut gidroksid oq cho'kmasi –  $\text{Bi}(\text{OH})_3$  ni hosil qiladi:



### **Bi(OH)<sub>3</sub> cho'kmasining xossalariini tekshirish.**

1. Cho'kma mineral kislotalarda eriydi:





2. Cho'kma o'yuvchi ishqorning mo'l miqdorida erimaydi.


**Reaktiv: qalay (II)-xlorid –  $\text{SnCl}_2$ .**

Qalay (II)-xlorid kuchli ishqoriy muhitda vismut tuzlaridan  $\text{Bi}^{3+}$  ni metall holigacha qaytaradi, u esa qora cho'kma tarzida ajraladi.

**Ishning borishi.**  $\text{SnCl}_2$  tuzi eritmasiga  $\text{NaOH}$  qo'shiladi,  $\text{Sn(OH)}_2$  oq cho'kmasi hosil bo'ladi.  $\text{Sn(OH)}_2$  amfoter xossaga ega. Uni  $\text{NaOH}$  ning mo'l miqdorida eritiladi, so'ngra vismut tuzi eritmasi qo'shiladi. Bunda  $\text{NaOH}$  ta'sirida oq amorf  $\text{Bi(OH)}_3$  cho'kma ajraladi va u bir lahzada qaytarilgan vismut metali hosil bo'lishi oqibatida qorayib qoladi:

**Kadmiy ioni –  $\text{Cd}^{2+}$  reaksiyalari****Reaktiv: vodorod sulfid –  $\text{H}_2\text{S}$ .**

Vodorod sulfid kuchsiz kislotali muhitda  $\text{Cd}^{2+}$  kationi bilan sariq cho'kma kadmiy sulfid  $\text{CdS}$  hosil qiladi:

 **$\text{CdS}$  cho'kma xossalariini o'rganish.**

1. Cho'kma suyultirilgan xlorid kislotada erimaydi.
2. Cho'kma suyultirilgan nitrat kislota eritmasida isitilganda eriydi.
3. Cho'kma konsentrangan kislotalarda eriydi.

**Mavzu bo'yicha masalalar va ularni yechish namunasi**

**1- masala.** Tarkibida 6% aralashmasi bo'lgan 25 g qo'rg'oshin yaltirog'didan qancha metall holidagi qo'rg'oshin olish mumkin?

**Berilgan:**

$$m(\text{ruda}) = 25 \text{ g}$$

$$\omega\%(\text{aralashma}) = 6\%$$


$$M(\text{PbS}) = 239,25 \text{ g/mol}$$

$$M(\text{Pb}) = 207,19 \text{ g/mol}$$

$$m(\text{Pb}) = ?$$

**Yechish:**

Reaksiyaning borish tenglamasi:



Qo'rg'oshin yaltirog'i tarkibidagi aralashmalarining massasi topiladi:

$$\begin{array}{l} 25\text{g (ruda)} \longrightarrow 100\% \\ x \longrightarrow 6\% \end{array}$$

$$x = \frac{25 \cdot 6}{100} \frac{\text{g \%}}{\%} = 1,5 \text{ g ;}$$

$$m(\text{aralashma}) = 1,5 \text{ g.}$$

Sof PbS ning massasi topiladi:

$$m(\text{PbS}) = 25 \text{ g (ruda)} - m(\text{aralashma}) = 25 \text{ g} - 1,5 \text{ g} = 23,5 \text{ g.}$$

23,5 g PbS dan olingan qo'rg'oshin massasi topiladi. Reaksiya teng-lamasidan ko'rindiki, 1 mol PbS 1 mol Pb hosil qiladi. Shunday qilib,

$$\begin{array}{l} 1 \text{ mol} \cdot 239,25 \text{ g/mol} = 239,25 \text{ g PbS,} \\ 1 \text{ mol} \cdot 207,19 \text{ g/mol} = 207,19 \text{ Pb} \end{array}$$

hosil qiladi.

$$\begin{array}{l} 239,25 \text{ g PbS} \longrightarrow 207,19 \text{ g Pb} \\ 23,5 \text{ g PbS} \longrightarrow x \text{ g Pb} \end{array}$$


$$\text{Proporsiya tuziladi: } 239,25 : 207,19 = 23,4 : x$$

$$x = \frac{207,19 \cdot 23,4}{239,25} \frac{\text{g} \cdot \text{g}}{\text{g}} = 20,35 \text{ g.}$$

$$Javob: m(\text{Pb}) = 20,35 \text{ g.}$$

**2- masala.** Zn(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub> va Hg(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub> tuzlari suyultirilgan eritmalari-ning (konsentratsiyasi bir xil) qaysi birida pH qiymati kichikroq va gidroliz kuchliroq boradi?

**Yechish.** Simob va rux tuzlari kuchsiz asosdan hosil bo'lganligi uchun suvli eritmalarda gidrolizga uchraydi. Gidroliz bosqichma-bosqich boradi:



Muvozanat holati Me(OH)<sup>+</sup> ionining dissotsiatsiyasiga ( $K_{\text{diss.}}$ ) bog'liq va  $K_{\text{diss.}}$  qiymati uning miqdoriy tafsifi bo'ladi. Dissotsiatsiya-lanish konstantasining qiymati qancha katta bo'lsa, ion shuncha to'liq dissotsiatsiyalanadi. Ma'lumki,


$$K_{\text{diss.}}([\text{Zn}(\text{OH})]^+) = 4 \cdot 10^{-5}; K_{\text{diss.}}([\text{HgOH}]^+) = 5 \cdot 10^{-11};$$

$$K_{\text{diss.}}([\text{Zn}(\text{OH})]^+) > K_{\text{diss.}}([\text{HgOH}]^+)$$

bo'lgani uchun,  $\text{Hg}(\text{NO}_3)_2$  tuzining gidrolizi  $\text{Zn}(\text{NO}_3)_2$  ga nisbatan kuchliroq boradi, demak,  $\text{Hg}(\text{NO}_3)_2$  ning  $pH$  qiymati  $\text{Zn}(\text{NO}_3)_2$  dan kichik bo'ladi.

### Mavzuni o'zlashtirishni mustaqil nazorat qilish uchun savollar va masalalar

1. Tibbiyotda simob xlorid tuzlari keng qo'llanadi:




Sifat analizi usullari bilan bu moddalarning tarkibini aniqlash mumkinmi?

2. Kaliy tetryodomerkurat II –  $\text{K}_2[\text{HgI}_4] + \text{KOH}$  tibbiyotda dorivor preparatlar tarkibini sifat analiz qilishda qo'llanadi.

Bu aralashma  $\text{K}_2[\text{HgI}_4] + \text{KOH} - \text{Nessler reaktiv}$  deb ataladi.

U  $\text{NH}_4^+$  ioni bilan qizil-qo'ng'ir cho'kma hosil qildi:



Shu reaktivning  $\text{NH}_4\text{Cl}$  bilan reaksiyasini yozing.

3.  $\text{Al}(\text{OH})_3$  me'da-ichak yo'llari kasalligida me'da shirasining kislotaligi oshganda ichiladi. Uning ta'siri nimaga asoslanganligini tushuntiring. Nima sababdan bu preparatni ko'p miqdorda ichish mumkin emas?

4. Bariy tuzlari organizm uchun zaharli. Nima sababdan bariy sulfat  $\text{BaSO}_4$  rentgenologiyada oshqozon sistemasi analizida qo'llanadi?

5. Tibbiyotda simob (II)-xlorid antisептик modda sifatida qo'llaladi. Shu preparatni sifat analiz qilinganda kaliy yodid qizil rangli cho'kma hosil qiladi. Bu cho'kma ortiqcha reaktivda eriydi. Preparat tarkibida simobning qanday tuzi ( $\text{Hg}^{2+}$  yoki  $\text{Hg}_2^{2+}$ ) mavjud ekanligini aniqlang. Reaksiya tenglamasini yozing.

6.  $\text{SrSO}_4$  ning eruvchanlik ko'paytmasi  $3,6 \cdot 10^{-7}$  ga teng. Konsentratsiyasi 0,002 mol/l bo'lgan bir xil hajmli  $\text{SrCl}_2$  va  $\text{K}_2\text{SO}_4$  eritmalarini aralashtirilganda  $\text{SrSO}_4$  cho'kma hosil bo'ladimi? Reaksiya tenglamasini molekular va ionli ko'rinishini yozing.

7.  $\text{As}_2\text{O}_3$  toksik modda, lekin shunga qaramasdan oz dozada stomatologiyada qo'llanadi. Nima sababdan bu birikma organizmga toksik ta'sir ko'rsatmaydi?

8. Simobning barcha birikmalari, shu jumladan oddiyalari juda ham zaharlidir. Simob bug'i odam organizmiga kirib, uni zaharlaydi. Ma'lumki metall holatdagi simob termometrlarda ishlataliladi. Behosdan termometr sindirib qo'yilsa, simob to'kilib ketadi (metall holdagi simob suyuq). Uni albatta to'liq yo'qotish kerak. Qaysi reaktiv yordamida buni amalga oshirish mumkin. Reaksiya tenglamasini yozing.

### Vaziyatli masalalar

**1- masala.** Me'da shirasining kislotaliligi ortishi bilan bog'liq bo'lgan me'da-ichak kasalliklarini davolashda  $\text{Al}(\text{OH})_3$  qo'llanadi.  $\text{Al}(\text{OH})_3$ , qaysi reaktivlarda eriydi?

*Javob:*  $\text{Al}(\text{OH})_3$  amfoter xossaga ega bo'lganligi uchun ham kislota, ham ishqorda eriydi.

**2- masala.** Qo'rg'oshin asetat –  $\text{Pb}(\text{CH}_3\text{COO})_2$  – teri yallig'lanishida burushtiruvchi vosita sifatida qo'llanadi. 100g 0,5% li (massa jihatdan) eritma tayyorlash uchun kerak bo'lgan modda massasini hisoblang. Shu eritmadagi qo'rg'oshinning massa ulushi qanday?  $p = 1 \text{ g/mL}$ .

*Javob:*  $m(\text{Pb}(\text{CH}_3\text{COO})_2) = 0,5 \text{ g}; \omega\%(\text{Pb}) = 0,32\%$ .

### Test savollari

1. Noorganogen elementlarni ko'rsating.

- a) O, Cu, Hg;    b) Al, Ba, As;    d) Al, Hg, Fe;    e) Cu, Fe, Na.

2. Qo'rg'oshin kationiga reagentni ko'rsating.

- a) NaCl;    b) KOH;    d) NaOH;    e) KI.

3. Qaysi modda rentgenologiyada rentgenkontrast modda sifatida qo'llanadi?

- a)  $\text{CaSO}_4$ ;    b)  $\text{BaSO}_4$ ;    d)  $\text{Na}_2\text{SO}_4$ ;    e)  $\text{K}_2\text{SO}_4$ .

4. Tibbiyotda gips bog'lov sifatida qo'llanadigan moddani ko'rsating.

- a)  $\text{BaSO}_4$ ;    b)  $\text{CaSO}_4$ ;    d)  $\text{CaSO}_4 \cdot 0,5\text{H}_2\text{O}$ ;    e)  $\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ .

5.  $p$ -elementlar qatorini ko'rsating.
- a) Al, Pb, Hg;    b) Hg, Au, Ag;    d) Al, As, Pb;    e) Pb, Au, Hg.
6. Stomatologiyada marginushning qaysi birikmasi qo'llanadi?
- a)  $\text{AsH}_3$ ;    b)  $\text{As}_2\text{S}_3$ ;    d)  $\text{As}_2\text{O}_3$ ;    e)  $\text{Na}_2\text{AsO}_3$ .
7. Qaysi moddaning kanserogen hossasi kuchliroq?
- a)  $\text{Ca}^{+2}$ ;    b)  $\text{Cu}^{+2}$ ;    d)  $\text{Ni}^{+2}$ ;    e)  $\text{Ba}^{+2}$ .
8.  $\text{As}_2\text{O}_3$  kimyoviy reaksiyalarga qanday oksid sifatida kirishadi?
- a) asosli oksid;                         d) amfoter oksid;  
 b) kislotali oksid;                         e) indeferent oksid.
9. Qaysi element nekrozga sabab bo'ladi?
- a) As;    b) Ba;    d) Ni;    e) Li.
10.  $\text{Bi}^{3+}$  ioniga reagentni ko'rsating.
- a)  $\text{SnCl}_2$ ;    b)  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$ ;    d)  $\text{H}_3\text{AsO}_3$ ;    e) KI.

## LABORATORIYA ISHI

### «Noorganogen» elementlar ionlarining sifat reaksiyalari

#### 1. $\text{Ba}^{2+}$ ioniga reaksiya.

*Reaktiv:* kaliy xromat  $\text{K}_2\text{CrO}_4$ .

Probirkaga 5 tomchi  $\text{BaCl}_2$ , 3–5 tomchi  $\text{CH}_3\text{COONa}$  va 3 tomchi  $\text{K}_2\text{CrO}_4$  eritmasi solinadi. Sariq rangli  $\text{BaCrO}_4$  cho'kmasi hosil bo'ladi. Cho'kma kuchli kislotalarda eriydi, sirka kislotada erimaydi. Tegishli reaksiya tenglamasini molekular va ionli ko'rinishda yozing.

#### 2. $\text{Hg}^{2+}$ ioniga reaksiya.

*Reaktiv:* kaliy yodid KI.

Probirkaga 3–5 tomchi  $\text{Hg}(\text{NO}_3)_2$  va 3–5 tomchi KI eritmasi solinadi. Qizil-qo'ng'ir rangli  $\text{HgI}_2$  cho'kmasi hosil bo'ladi. Cho'kma ortiqcha KI eritmasida eriydi va kompleks birikma hosil bo'ladi. Tegishli reaksiya tenglamalarini molekular va ionli ko'rinishda yozing.

#### 3. $\text{Al}^{3+}$ ioniga reaksiya.

*Reaktiv:* ishqoriy muhitdag'i S-alizarin qizili.

Bir bo'lak filtr qog'ozga bir tomchi  $\text{AlCl}_3$  eritmasi tomiziladi va konsentrangan ammiak ustida 1–2 minut ushlab turiladi, unda  $\text{Al}(\text{OH})_3$  hosil bo'ladi. Filtrdag'i dog'ning o'rtafiga 1 tomchi alizarin-

ning spirdagi eritmasi tomizilib, yana konsentrlangan ammiyak ustida ushlab turiladi. Qizil-pushti rang hosil bo'ladi. Uni «aluminli lok» deb ataladi.

#### **4. $Pb^{2+}$ ioniga reaksiya.**

*Reaktiv:* kалий юдид КІ.

Probirkaga 3–5 томчи Pb(CHCOO)<sub>2</sub> eritmasidan solinadi va унга 3–5 томчи КІ eritmasidan qo'shiladi. Sariq amorf cho'kma – PbI<sub>2</sub> hosil bo'ladi. Cho'kma ortiqcha KІ da, qaynoq suvda va sirka kislotada qisman eriydi. Reaksiya tenglamalarining molekulyar va ionli ko'rinishda yozing.

#### **5. $Sn^{2+}$ ioniga reaksiya.**

*Reaktiv:* висмут нитрат Bi(NO<sub>3</sub>)<sub>3</sub> ning ishqoriy eritmasi.

SnCl<sub>2</sub> тузи eritmasiga NaOH eritmasidan qo'shiladi, oq cho'kma – Sn(OH)<sub>2</sub> hosil bo'ladi. Sn(OH)<sub>2</sub> – amfoter hossaga ega, shuning uchun ortiqcha NaOH qo'shilganda erib ketadi. Rangsiz eritmaga qora cho'kma hosil bo'lguncha Bi(NO<sub>3</sub>)<sub>3</sub> eritmasi qo'shiladi. Unda metall holdagi Bi ajraladi. Reaksiya tenglamalarining molekulyar va ionli ko'rinishda yozing.

#### **6. $As^{3+}$ ioniga reaksiya.**

*Reaktiv:* натрий тиосульфат Na<sub>2</sub>S<sub>2</sub>O<sub>3</sub>.

Reaksiya kislotali muhitda olib boriladi. Probirkaga 2–3 томчи Na<sub>3</sub>AsO<sub>3</sub>, 3–5 томчи HCl va 2–3 томчи Na<sub>2</sub>S<sub>2</sub>O<sub>3</sub> eritmasidan solinadi va aralashma qaynaguncha qizdiriladi. Sariq rangli As<sub>2</sub>S<sub>3</sub> cho'kmasi hosil bo'ladi. Cho'kma ishqor va Na<sub>2</sub>S eritmalarida eriydi.

#### **7. $Bi^{3+}$ ioniga reaksiya.**

*Reaktiv:* қалай xlorid SnCl<sub>2</sub> (ishqoriy muhitda).

SnCl<sub>2</sub> тузи eritmasiga NaOH eritmasidan qo'shiladi, oq cho'kma – Sn(OH)<sub>2</sub> hosil bo'ladi, u ortiqcha NaOH eritmasida erib ketadi. Rangsiz eritmaga qora cho'kma – metall holdagi висмут hosil bo'lguncha Bi(NO<sub>3</sub>)<sub>3</sub> eritmasi qo'shiladi. Reaksiya tenglamasini molekulyar va ionli ko'rinishda yozing.

## VI bob

### FIZKOLLOID KIMYO

#### SIRT HODISALARI. ADSORBSIYA

**Mashg‘ulotning maqsadi.** Sirt tarangligi, adsorbsiya hodisalari va xromatografiya hodisalari haqida tushuncha berish.

**O‘rganilayotgan mavzuning ahamiyati.** Biomembranalarning tarkibi va tuzilishini tushunish uchun sirt faol moddalar (SFM) va sirt nofaol moddalar (SNM)ning ta’siri hamda sirt hodisalarini o‘rganish katta ahamiyat kasb etadi.

Qon va protoplazma to‘qimalarida moddalarning musbat va manfiy adsorbsiyasi organizmda moddalar almashinuviga olib keladi. Organizmga zaharli moddalar tushganda sorbentlarning yuqori adsorbsiyalash xususiyatlari namoyon bo‘ladi. Tibbiyotda sorbsion usuldan organizmga tushgan zaharli moddalarni tozalashda, ya’ni toksik moddalarни organizmdan siqib chiqarishda foydalaniлади.

Xromatografiya usuli universal usul bo‘lib, undan moddalarni aralashmalardan tozalash va ajratishda foydalaniлади. So‘nggi vaqtда bu usul vitaminlar, antibiotiklar, oqsillar va boshqa biologik faol moddalarni analiz qilishda va ajratib olishda qo‘llanmoqda. Bu usul bilan termik beqaror va oz miqdordagi birikmalarni ajratib olish qulaydir.

**Boshlang‘ich bilim darajasi:**

1. Adsorbsiya hodisasi.
2. Gidrofob va gidrofil molekulalar.

**Mustaqil tayyorlanish uchun o‘quv adabiyotlar:**

1. *A.Abdusamatov, A.Rahimov, S.Musayev.* Fizik va kolloid ximiya. T., 1992. 187–205- betlar.
2. *В.Н.Захарченко.* Коллоидная химия. М., 1989. 28–29- betlar.
3. *М.И.Раевич-Шерба, В.В.Новиков.* Физическая и коллоидная химия. М., 1976. 153–168- betlar.
4. *A.B.Akbarov.* Bioanorganik va biofizik kimyo asoslari. T., 1996. 355–374- betlar.
5. *Е.Г.Фролов.* Курс коллоидной химии. М, 1989, 25–50- betlar.
6. *S.S.Qosimova, S.M.Masharipov, Q.O.Najimov.* Umumiyl va bioorganik kimyodan amaliy mashg‘ulotlar. T., 2001, 121–128- betlar.

**Darsda ko‘riladigan savollar:**

1. Sorbsiya tushunchasi: adsorbsiya, absorbsiya, desorbsiya, kapillar kondensatsiya.

2. Suyuqlik sirtidagi adsorbsiya.
3. Qattiq adsorbentdagи adsorbsiya.
4. Ion almashtirish va tanlangan adsorbsiya.
5. Adsorbsiyani miqdor jihatdan aniqlash. Lengmyur tenglamasi.
6. Ion almashinish va tanlangan adsorbsiyaning biologik va tibbiy ahamiyati.
7. Xromatografiya.

### MA'LUMOTLAR YIG'INDISI

Ikki va undan ortiq fazadan iborat bo'lgan geterogen sistemalarda sirtlar chegarasi yaqinida kuzatiladigan hodisalar katta ahamiyatga ega. Sirt yuzada joylashgan zarrachalar fazaning ichki hajmlaridagi zarrachalardan o'zining orientatsiyasi, energetik holati hamda zichligi, qovushqoqligi va boshqa xossalari bilan farqlanadi.

Gazsimon yoki suyuq moddalarning qattiq yoki suyuq agregat holatdagi moddalar tomonidan yutilishi turli mexanizm asosida boradi. Bu jarayonlar *sorbsiya* deb ataladi.

Sorbsiya jarayoni xususiyatiga qarab 4 turga bo'linadi: adsorbsiya, absorbbsiya, xemosorbsiya va kapillyar kondensatsiya.


Biron bir moddaning boshqa bir modda sirtiga yig'ilishi *adsorbsiya* deyiladi. Adsorbsiyalanadigan modda – *adsorbat* yoki *adsorbtiv*, sirt yuzasida adsorbsiya sodir bo'layotgan modda *adsorbent* deyiladi.

Gazsimon moddaning qattiq yoki suyuq agregat holatidagi biron moddaning butun hajmi bo'ylab yutilishi *absorbsiya* deb ataladi.

Adsorbsiya va absorbbsiya umuman olganda qaytar bo'lib, ularga teskari bo'lgan jarayon *desorbsiya* deyiladi.

Adsorbsiya va absorbbsiya fizikaviy sorbsiyaga tegishli bo'lib, ularning borishida kuzatiladigan issiqlik ko'p hollarda 8–20 kJ/mol ga teng bo'ladi. Bu qiymat fizikaviy sorbsiyaning Van-der-Vals kuchlari hisobiga amalga oshishi orqali kelib chiqadi.

Valent kuchlari hisobiga boradigan adsorbsiya jarayoni *xemosorbsiya* (kimyoviy sorbsiya) deb ataladi. Masalan:



bunda CaO – adsorbent, CO<sub>2</sub> esa adsorbat vazifasini bajaradi.

Xemosorbsiya fizik adsorbsiyadan farq qiladi. Bu jarayonda adsorbent–adsorbat bog'lanish energiyasi katta qiymatga (80–850 kJ/mol) ega bo'ladi. Bu qiymatlar miqdor jihatidan kimyoviy moddaning hosil bo'lishi issiqlik effektlariga yaqin bo'ladi.

Adsorbsiya kuchlari hisobiga adsorbsiyalangan moddaning erituvchi yordamida ajratib olish (erituvchiga o'tkazish) *elyutsiya*, adsorbsiyalangan moddani saqlovchi eritma esa *elyuat* deyiladi.

Agar adsorbsiyaga uchrayotgan modda molekulalar tabiatli bo'lsa – *molekular adsorbsiya*, ion tabiatli bo'lsa – *ion adsorbsiya* deyiladi.

Qattiq sorbent kapillarlarida modda bug'ining kondensatsiya lanishiga (gaz holatdan suyuq holatga o'tishiga) *kapillar kondensatsiya* deyiladi.

Tabiiy adsorbentlarga ko'mir, qatiq, qotgan non, tvorog, sut, piyoz, tabiiy tolalar misol bo'ladi. Tibbiyotda organizmdan toksik moddalar, gazlarni chiqarib yuborish uchun adsorbent sifatida faollangan ko'mir keng qo'llanadi.

Suyuqlik – suyuqlik, suyuqlik – gaz, qattiq modda – gaz, qattiq modda – suyuqlik chegaralarida boradigan adsorbsiya jarayoni katta ahamiyat kasb etadi.

Suyuqlik sirt yuzasida joylashgan molekulalarining qo'shni molekulalar bilan ta'sirlashuvi sistemaning ichki hajmida bo'lgan aynan shu molekulaning ta'sirlashuvidan keskin farq qiladi. Fazaning ichki muhitida joylashgan molekula va qo'shni zarrachalarning o'zaro ta'sirlashuvlari bir xil bo'ladi. Oqibatda bu ta'sirlashuvlar o'zaro mutanosiblashadi. Lekin fazaning ichki muhit (suyuq faza) molekulalarining ta'sir kuchi tashqi muhit (gaz faza) molekulalarining ta'siridan ancha yuqori bo'ladi va oqibatda bu molekulaga suyuq fazaning bosimiga teng bo'lgan kuchlar ta'sir etadi. Bu kuchlar molekulaning fazaning ichki muhitiga qarab intilishiga sabab bo'ladi.

Suyuqlikning ichki bosimi deganda uning hajm birligidagi molekulalarning o'zaro tortishuv kuchlari tushuniladi. Bu kuchlar ta'sirida suyuqliklar aynan shu sharoit uchun mos bo'lgan eng kichik sirt yuzasiga ega bo'lish tomon intiladi va suyuqlik tomchilari ko'pincha sharsimon shaklga ega bo'ladi.

### **Suyuqlik sirtidagi adsorbsiya**

Suyuqliklar sirt yuza energiyasini kamaytirish tomon intiladi. Toza erituvchilarda bu holat sirt yuzasini kamaytirishga intilish natijasida erishiladi. Eritmalarda esa bu holat erigan modda zarrachalarning eritmaning sirt yuzasi va umumiy hajmi orasida taqsimlanishi orqali amalga oshiriladi.

Eritmaning sirt tarangligi sof erituvchiga nisbatan kattaroq qiyomatga ega.

Eritma sirt tarangligini orttiradigan moddalar *sirt nofaol moddalar* (SNF) deyiladi. Ularga kuchli elektrolit tabiatli anorganik moddalar (kislotalar, ishqorlar, tuzlar) misol bo‘ladi.

Eriganda fazalarni ayirib turuvchi sirt yuzalarining tarangligini kamaytiruvchi moddalar *sirt faol moddalar* (SFM) deyiladi. Ularga nosimmetrik tuzilishga ega qutbli hamda qutbsiz guruhlardan iborat moddalar – yog‘lar, yog‘ kislotalar, oqsillar misol bo‘ladi.

Moddalarning sirt tarangligini kamaytiradigan xususiyati ularning tarkibida qutblangan yoki oson qutblanadigan (gidrofil – suvni yaxshi ko‘radigan) hamda qutbsiz (gidrofob – suvdan qo‘rquvchi) guruhlar borligi bilan belgilanadi. Bir vaqtning o‘zida ham gidrofil, ham gidrofob guruh saqlovchi moddalar *difil molekulalar* deyiladi.

SFMning molekulalari asosan eritma sathida yig‘ilib, sirt tarangligini kamaytiradi. Bunda difil molekulalar o‘zining gidrofil guruhi bilan eritmaga qarab, gidrofob guruhlari bilan esa havoga oriyentatsiyalangan bo‘ladi.

Suyuqlik sirtida suyuqlikda eritilan modda zarrachalari adsorbsiyalanadi. Adsorbsiya eriyotgan modda muhitlar orasida taqsimlanishiga ta’sir qiladi, ya’ni Gibbs energiyasining minimal qiymatini ta’minalash asosida amalga oshadi. Natijada modda tabiatidan qat’iy nazar, eritma yuzasi va ichki muhiti orasida konsentratsiya gradiyenti ( $c_2 - c_1 = \Delta c$ ) paydo bo‘ladi va diffuziya hodisasi kuzatiladi.

Eritmaning sirt yuzasidagi modda miqdorining sirt yuza birligiga bo‘lgan nisbati *Gibbs adsorbatsiyasi* yoki *adsorbatsiya kattaligi* deyiladi va quyidagicha ifodalanadi:

$$G = -\frac{c}{RT} \cdot \frac{\Delta\delta}{\Delta c} = -\frac{c}{RT} \cdot \frac{(\delta_1 - \delta_2)}{(c_2 - c_1)}.$$

Bu tenglama *Gibbs tenglamasi* deyiladi.

Bu yerda  $\Delta\delta - \Delta c$  konsentratsiya o‘zgarishiga mos keladigan sirt tarangligining o‘zgarishi;  $\Delta\delta/\Delta c$  – moddaning sirt faolligini ko‘rsatkichi.

Gibbs tenglamasi eritma sirt yuzasida yig‘ilgan moddaning miqdori eritmaning ichki hajmidagi miqdoridan qanchalik ko‘p yoki ozligini ko‘rsatadi.

Adsorbsiya qiymatining ( $G$ ) erigan modda sirt faolligi  $\Delta\delta/\Delta c$  va konsentratsiyaga bog‘liqligi natijasida quyidagi 2 holat kelib chiqadi.

1. Agar gidrofil guruh tabiatli ustun bo‘lsa, erigan modda eritma sathidan siqib chiqarilib, uning ichki hajmi sari yonalgan bo‘ladi va oqibatda sirt tarangligi ortadi, ya’ni  $\Delta\delta > 0$ . Bunday jarayon *salbiy adsorbsiya* deyiladi. Bunda sistemaning adsorbsiya qiymati kamayadi: ( $G < 0$ ).

2. Agar sistemada gidrofob guruh tabiatи ustun bo'lsa, erigan modda eritma sirt yuzasiga yig'ilib, sistema sirt tarangligi kamayadi, ya'ni  $\Delta\delta < 0$ , sistemaning adsorbsiya qiymati esa ortadi ( $G > 0$ ). Moddaning sirt yuzasida to'planishi natijasida sodir bo'ladi gan va oqibatda sirt tarangligini kamayishiga olib keladigan adsorbsiya *ijobiy adsorbsiya* deyiladi.

SFM ning sirt taranglik qiymatini kamaytirish mezoni vazifasini  $\Delta\delta/\Delta c$  nisbatli bajaradi va bu nisbat *sirt faollik* deyiladi. Uning fizik talqini quyidagicha: sirt faol modda konsentratsiyasining bir birlikka o'zgorganida kuzatiladigan sirt taranglikning o'zgarish miqdori *sirt faollik* deb ataladi. Sirt faollik moddaning adsorbsion xususiyatiga proporsional ravishda o'zgaradi.

SFM ning qutbli nosimmetrikligi qanchalik yuqori bo'lsa, ularning sirt faolligi shuncha yuqori bo'ladi.

SFM gidrofob guruhlarining sirt faollikkiga ta'siri ma'lum konsentratsiyaga bo'yinib, *Dyuklo-Traube qoidasi* bilan ifodalanadi: to'yingan karbon kislotalari va spirtlarning uglevodorod zanjirlarining bitta CH<sub>2</sub> guruhiga ortishi gomologlarning suvli eritmadi sirt faolligi 3–3,5 marta ortishiga olib keladi.

*Dyuklo-Traube qoidasining matematik ifodasi* quyidagicha:

$$\beta = \frac{G_{n+1}}{G_n} = 3 \div 3,5,$$

bunda  $\beta$  – *Traube koeffitsiyenti* deb ataladi.

Eritmalardagi adsorbsiya jarayoni 3 turga bo'linadi.

1. *Addetiv adsorbsiya* – eritma komponentlarining adsorbsiyasi ularning sorbsya xususiyati bilan belgilanadi. Komponentning sorbsiyalanish xususiyati qancha katta bo'lsa, u shunchalik tez va ko'p miqdorda adsorbsiyalanadi.

2. *Antagonistik adsorbsiya* – eritma komponentlaridan biri boshqasining sorbsiya xususiyatini keskin kamaytiradi.

3. *Sinergestik adsorbsiya* – eritma komponentlaridan biri boshqasining sorbsiya xususiyatini keskin oshiradi.

## Qattiq adsorbentdagи adsorbsiya

Qattiq adsorbentlarda gazlar, bug', eritmada erigan modda zarachalari adsorbsiyalanishi mumkin. Qattiq adsorbentlar tabiiy yoki sun'iy bo'ladi. Adsorbsiya jarayoni qattiq adsorbentlarning katta o'lcham qiymatiga ega bo'lgan tashqi yoki ichki sirt yuzalarida sodir bo'ladi. Qattiq jismlardagi adsorbsiyani kristal panjaradagi bog'lanishlarning teng bo'lmasligi hisobiga vujudga keladigan tortishish kuchlari maydonlarining mavjudligi bilan tushuntiriladi.

Qattiq adsorbentning faol markazlarida bo'rtib turgan qismlarida adsorbsiya ayniqsa kuchli bo'ladi. Masalan, faollashtirilgan ko'mir zarrasining bo'rtib turgan uchlarida kislородning adsorbsiyalanishi chuqur joylaridagiga qaraganda 4,5 marta tezroq bo'ladi.

G'ovak adsorbentlarda (faollangan ko'mir, silikagellar, alumogellar va h.k.) adsorbsiya ularning ichki yuzalarida, kukun holidagi adsorbentlarda esa adsorbsiya ularning yuzalarida sodir bo'ladi.

Adsorbsiya tezligi adsorbentning solishtirma sirt yuzasi ( $S$ ) ( $m^2/kg$ ,  $sm^2/g$ ) qiymatiga bog'liq. Solishtirma sirt yuzasi qancha katta bo'lsa adsorbsiya jarayoni shunchalik tez boradi.

Adsorbent va adsorbatlarning o'zaro ta'sirlashuv tabiatini adsorbentning konsentratsiyasiga (gazlar uchun bosim qiymatiga) bog'liq bo'lib, konsentratsiyaning kichik qiymatlarida kimyoviy (valent kuchlari), yuqori qiymatlarida esa fizik (Van-der-Vals kuchlari) omillar orqali amalga oshadi. Temperaturaning ortishi fizik adsorbsiyani kamaytiradi, chunki bunda adsorbsion qavatda molekulalarning harakati kuchayadi, adsorbsiyalangan molekulalarning orientatsiyasi buziladi, ya'ni desorbsiya kuchayadi. Shu bilan bir qatorda temperaturaning ko'tarilishi, adsorbsiyalangan zarrachalarning energiyasini oshiradi, oqibatda, kimyoviy omillar kuchayishiga va adsorbsiya jarayonining tezlashishiga olib keladi.

Temperaturaning adsorbsiyaga ta'siri sistema komponentlari tabiatini bilan belgilanadi. Masalan, ko'pchilik gazlarning adsorbsiyasi temperatura ortishi bilan kamayadi. Shu bilan birga platina va  $O_2$  dan iborat sistema temperaturasi  $-185^{\circ}C$  dan  $+20^{\circ}C$  gacha o'zgartirilganda adsorbsiya jarayoni 10 marta ortadi.

Bosimning ortishi bilan gaz va bug'lar adsorbsiyasi kuchayadi.

Yuqori kuchlanish maydoniga ega bo'lgan adsorbentlar sath yuzalari bilan, past kuchlanish maydonli adsorbentlar faqat faol markazlari bilangina adsorbsiya jarayonini ta'minlaydi.

Adsorbsiyaga faqat adsorbentning tabiatini emas, balki adsorbtivning tabiatini ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, qattiq adsorbentlarda osonroq suyuqlanadigan, ya'ni kritik temperaturasi yuqoriroq gazlar kuchli adsorbsiyalanadi.

Adsorbsiya qaytar jarayon bo'lib, adsorbsiyalangan zarrachalar adsorbenta hammasi bo'lib sekundning yuz va ming ulushida ushlanadi va desorbsiyalanib, yangi zarrachalarga almashtiriladi. Lekin ular adsorbenta mahkam o'rnashib qolmasdan, uning sathi bo'ylab ko'chib yurishi mumkin. Natijada erkin va adsorbsiyalangan zarrachalar o'rtaida dinamik adsorbsion muvozanat qaror topadi. Zarrachalarning adsorbsion muvozanatga yetish tezligi modda tabiatiga

bog'liq. Masalan,  $H_2$  faollangan ko'mirda adsorbsiyalanganda muvozanat 20 soat o'tgandan keyin,  $O_2$  adsorbsiyalanganda 2,5 soatdan keyin,  $CO_2$  adsorbsiyalanganda esa 20 sekunddan keyin qaror topadi.

## Ion almashtirish va tanlangan adsorbsiya

Kuchli elektrolitlar ion holida adsorbsiyalananadi. Ion adsorbsiya jarayoni aksariyat hollarda kimyoviy omillar asosida bo'ladi va quyidagi ikki mexanizm asosida amalga oshadi:

1. Ion almashinuv adsorbsiyasi.
2. Ionlarning qattiq adsorbentlardagi tanlangan adsorbsiyasi.

Ikkala mexanizmning amalga oshishi qo'sh elektr qavatining hosil bo'lishiga bog'liq. Ion almashinuv adsorbsiyaning mohiyati shundan iboratki, ba'zi adsorbentlar kuchli elektrolit tabiatiga ega bo'lib, dissotsiatsiya jarayonida ularning sirtqi yuzasida joylashgan zarrachalar eritmaga ionlashadi, eritmadagi ionlarning ekvivalent miqdori esa adsorbentga adsorbsiyalananadi.

Ion almashinish xususiyatiga ega bo'lgan sorbentlar **ionitlar** deb ataladi. Ular quyidagi 3 turga bo'linadi:

1. *Kationitlar* – kislotali sorbentlardir. Ularning funksional guruhlari karboksil, gidroksil va sulfoguruhlar bo'lib (masalan, silikagel, selluloza) ularda adsorbent bilan kation almashinish orqali ta'sirlashadi.

2. *Anionitlar* – asosli adsorbentlar bo'lib, (masalan,  $Al(OH)_3$ ,  $Fe(OH)_3$ ) funksional guruhlari adsorbent bilan anion ( $OH^-$ ,  $Cl^-$ ,  $SO_4^{2-}$ ) almashinish orqali ta'sirlashadi.

3. *Amfoter ionitlar* – tarkibi jihatidan  $H^+ SO_3^- - R - N^+ (CH_3)_3$ ,  $OH^-$  ga (R – organik polimer) yaqin bo'lgan sorbentlar bo'lib, sorbat bilan ham kation ( $H^+$  hisobiga), ham anion ( $OH^-$  hisobiga) almashinish orqali ta'sirlashadi.


Ionitlar tibbiy maqsadlarda keng qo'llanadi. Masalan, chaqaloqlarning sun'iy oziqlarini tayyorlashda, qon va limfalarni konservatsiya qilish jarayonlarida, sof antibiotiklar olishda, me'da-ichak yo'llidagi zaharli moddalar, toksinlarni tozalashda keng qo'llanadi.

Ionlarning tanlangan adsorbsiya jarayoni qattiq adsorbent sirt yuzasida bir xil zaryad va ma'lum bir tabiatga ega bo'lgan adsorbat tarkibidagi ionlarning sorbsiyasidir.

Tanlangan adsorbsiya tabiatni jihatdan kimyoviy sorbsiya bo'lib, valent bog'lar kuchi hisobiga sodir bo'ladi va temperatura ortishi bilan tezlashadi.

*Panet-Fayans qoidasiga* binoan, qattiq adsorbentda shu adsorbent tarkibiga kiradigan yoki adsorbent bilan umumiy guruhga ega bo'lgan ionlargina adsorbsiyalanadi.

Masalan, tanlangan adsorbsiyani quyidagi misolda ko'rsatiish mumkin:



Bu jarayonda hosil bo'lgan  $\text{Fe(OH)}_3$ , cho'kmasi qattiq fazali adsorbat vazifasini bajaradi. Agar shu sistemaga ortiqcha miqdorda  $\text{NaOH}$  yoki  $\text{Fe}(\text{NO}_3)_3$  qo'shilsa tanlangan adsorbsiyaga  $\text{Na}^+$ ,  $\text{NO}_3^-$  ionlari emas, faqat  $\text{OH}^-$  va  $\text{Fe}^{3+}$  ionlar uchraydi, chunki adsorbent tarkibida  $\text{OH}^-$  va  $\text{Fe}^{3+}$  ionlari bo'lishligi oqibatida adsorbent va adsorbatning  $\text{OH}^-$  va  $\text{Fe}^{3+}$  ionlari orasidagi moyillik holati kelib chiqadi.

Tanlangan adsorbsiya ionlarning zaryad soniga, radiusiga, gidratlanish darajasiga bog'liq bo'ladi. Ko'p valentli ionlar bir valentli ionlarga qaraganda kuchliroq adsorbsiyalanadi. Bir xil zaryadga ega bo'lgan ionlar o'chamlari va gidratatsiya darajasiga qarab adsorbsiyaga moilligi turlicha bo'ladi va liotrop qatorlardan joy oladi:



Tanlangan adsorbsiya yordamida kerakli adsorbentlarni tanlab olib, murakkab aralashmalardan kerakli moddalarini ajratib olish mumkin.

Har bir antitelo aniq bir begona oqsil (antigen) bilan birikadigan immunli oqsillar (antitelolar) tanlash qobiliyatiga egadir.

Buyrak va siyidik yo'llarida tosh hosil bo'lishi jarayoni ham tanlangan adsorbsiyaga asoslangan.

### **Adsorbsiyani miqdor jihatidan aniqlash. Lengmyur tenglamasi**

Muvozanat holatida adsorbsiyalangan moddaning miqdori adsorbent va adsorbatning tabiatini hamda adsorbsiya borayotgan sistemaning temperaturasi, gazsimon adsorbat uchun bosim va boshqa omillarga bog'liq. Masalan, gazning qaynash temperaturasi ko'tarilishi bilan adsorbsiyalish miqdori ortadi. Muvozanat holatida ma'lum adsorbentga adsorbsiyalangan gaz miqdorining temperatura bilan bosimiga bog'liqligi quyidagicha ifodalanadi:

$$a = f(T, P)$$

bu yerda  $a = 1$  g adsorbentga adsorbsiyalangan gaz miqdori.

Adsorbsiyalanayotgan modda miqdorining konsentratsiya, temperatura, bosim va boshqa omillarga bog'liqligini ko'rsatadigan egri chiziq *adsorbsiyalanish izotermasi* deyiladi yoki qisqacha *izoterma* deyiladi.

Gaz-suyuq sistemasidagi adsorbsiyani sirt tarangligi o'zgarishiga qarab aniqlasa bo'ladi. Buning uchun o'zgarmas temperaturada turli konsentrasiyalı eritmalarning sirt tarangligi izotermasi chiziladi. Masalan, suvgaga moy kislota adsorbsiyalangananda kislotaning adsorbsiyalangan miqdoriga qarab uning sirt tarangligi kamayadi.

Lekin adsorbsiya izotermasi sirt qavatini adsorbsiyalanayotgan modda zarrachalari bilan to'liq to'yinishidan iborat bo'lgan oxirgi chegaraga intiladi. Sirt tarangligi izotermasi yordamida adsorbsiyalangan modda miqdorini aniqlash mumkin.

Adsorbsiya qattiq modda – suyuqlik, qattiq modda – gaz sistema larning sirt chegarasida sodir bo'lsa, adsorbentning sirt yuzasi adsorbsiyalangan moddaning monomolekulyar pardasi bilan qoplangan deb qabul qilinadi. Bunday sistemalar uchun Lengmyur izotermasi tuziladi va adsorbsiya qiymati quyidagi tenglama bilan aniqlanadi:

$$a = \frac{a_{\text{maks.}} \cdot c}{\alpha + c}, \quad (1)$$

bu tenglikda  $a_{\text{maks.}}$  – maksimal adsorbsiya qiymati. Unga adsorbentning hamma markazlari egallanganda erishiladi;  $c$  – muvozanat holatdagi adsorbatning konsentratsiyasi;  $\alpha$  – adsorbsiyaning muvozanat doimiysi yoki qisqacha *muvozanat doimiysi* deyiladi. Muvozanat doimiysi adsorbsiya va desorsiya jarayonlarining tezlik doimiyalarining nisbatiga ( $k_{\text{adsorts.}}/k_{\text{desorts.}}$ ) teng bo'lган kattalik hisoblanadi.

Sistemada adsorbsiyalashayotgan moddaning konsentratsiyasi kichik bo'lsa, (1) tenglama uchun  $a + c = \alpha$  tenglik qaror topadi va (1) tenglama quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$a = a_{\text{maks.}} \cdot \frac{c}{\alpha}.$$

Adsorbsiyalashayotgan modda konsentratsiyasi yuqori bo'lsa ( $a + c = \alpha$ ) (1) tenglama quyidagi ko'rinishga keladi:

$$a = a_{\text{maks.}} \cdot$$

Adsorbsiya kattaligini jarayon natijasida eritma konsentratsiya-sining o'zgarishi orqali aniqlash ham mumkin:

$$a = \frac{(c_0 - c) \cdot V}{m},$$

bu yerda:  $c_0$  – eritmaning dastlabki konsentratsiyasi ( $\text{mol/l}$ );  $c$  – sistemda muvozanat qaror topgan paytdagi eritmaning konsentratsiyasi ( $\text{mol/l}$ );  $V$  – eritmaning hajmi,  $\text{dm}^{-3}$ ;  $m$  – adsorbent massasi, g, kg.

Noelektrolit yoki kuchsiz elektrolit tabiatli gazsimon adsorbatdan iborat sistemalar uchun mos keladigan izoterma va uning empirik ifodasi *G.Freydlix* taklif etgan tenglama orqali ifodalanadi:

$$a = \frac{x}{m} = Kp^{\frac{1}{n}},$$

$$a = \frac{x}{m} = Kc^{\frac{1}{n}},$$

bu yerda  $p$  va  $c$  – adsorbatlarning muvozanat holatidagi bosim va konsentratsiya qiymatlari;  $K$  – adsorbatlarning bosimi yoki konsentratsiya qiymati birga teng bo‘lgan sistemalar uchun adsorbsiya kattaligi;  $K$  – adsorbent va adsorbatning tabiatiga va temperaturaga bog‘liq bo‘lib, katta qiymat chegaralarida o‘zgaradi. Uning fizik ma’nosи  $p = 1 \text{ kPa}$  yoki  $c = 1 \text{ mol/l}$  bo‘lganda kuzatiladigan  $a = K$  tengligi orqali kelib chiqadi;  $1/n$  – adsorbsion ko‘rsatkich bo‘lib, uning qiymati adsorbat tabiatni va temperaturaga bog‘liq. Ko‘pincha uning qiymati 0,1–1 orasida bo‘ladi.

### Ion almashinish va tanlangan adsorbsiyani biologik va tibbiy ahamiyati

Bitta adsorbentning tanlanuvchanligi har xil bo‘lgan faol markazlari bo‘lishi mumkin. Shu sababli bir modda bir faol markazda, boshqa modda esa boshqa faol markazda adsorbsiyalanishi mumkin.

Odam organizmida turli toksinlar va boshqalar to‘qimalar va hujayralar orqali tanlab adsorbsiyalanadi. Masalan, qoqshol, botulizm va boshqa kasalliklarni qo‘zg‘atuvchi toksinlar avvalo markaziy asab sistemasi hujayralarini shikastlantiradi, dizenteriya qo‘zg‘atuvchi toksinlar – vegetativ asab sistemasini zararlantiradi, toshmali tifda ko‘pincha teri, miya va qisman yurak tomirlari shikastlanib, og‘ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

Immunkistemasi faoliyatining asosiy fizik-kimyoviy mexanizmi adsorbsiya jarayoniga asoslangan. Immunkistemasi oqsillari (antitelolar) juda katta tanlangan adsorbsiya qiymatiga ega. Ular organizm uchun yot bo‘lgan ma’lum tur oqsillarga (antigenlarga) adsorbsiyalanib, ularni eritib yuboradi. Elektron mikroskopik tekshirishlar shuni ko‘rsatadiki, antitelolar, masalan, ich terlama bakteriyalari ustida bir xil adsorsiyalanmasdan, «faol markazlar» bo‘yicha adsorbsiyalanadi.

Buyrak va siyidik yo'llarida tosh hosil bo'lishi jarayoni ham tanlangan adsorbsiyaga asoslangan. Buyrak biosuyuqliklari tarkibida  $Mg^{2+}$ ,  $Ca^{2+}$ ,  $PO_4^{3-}$  va  $C_2O_4^{2-}$  ionlarining konsentratsiyasi ortganda ularning eruvchanlik ko'paytmalari kritik konsentratsiyasiga etib kalsiy va magniy fosfat yoki oksalat tuzlari holida cho'kma hosil qiladi. Bu jarayon natijasida tanlangan adsorbsiya hisobiga suvda erimaydigan tuzlarga moyilligi katta bo'lgan ionlar adsorbsiyalanadi, natijada qattiq fazaya yiriklashib buyrak va siyidik yo'llarida qum va tosh hosil bo'ladi.

Tibbiyotda ishlatiladigan «adsorbsion terapiya» deb ataladigan ba'zi davolash usullari adsorbsiyaga asoslangandir. Masalan, me'da-ichak sistemasiiga tashqi muhitdan tushgan zaharli moddalarni yoki ichaklarga turli organlardan ajralib chiqqan zaharli gazlarni (meteorizm) karbolenga (faollangan ko'mir) adsorbsiyalantirish orqali chiqarib yuboriladi.

Tibbyotda turli xil moddalar bilan zaharlanganda qo'llanadigan adsorbentlar quyidagi jadvalda keltirilgan.

### **Turli moddalarni yo'qotish uchun qo'llanadigan adsorbentlar**

Modda	Sorbent
Fenol, geparin	To'rtlamchi ammoniy va fosfoniy asosli anionitlar
Bilirubin	Faollangan ko'mir
Kaliy ioni	Kationitlar, alumosilikatlar, sirkoniysilikatlar
Ammoniy ioni	Nordon fosfat kationitlar
Kreatinin	Nikel, mis, rux, kobalt tuzlari bilan modifikatsiyalangan alyumosilikatlar
Xolesterin	Uglerod sorbentlar, biospetsifik sorbentlar.

Tirik organizmda ko'pchilik reaksiyalar biokatalizator—fermentlar ishtirokida boradi. Fermentlarning ta'siri avvalo substratning ferment kompleksi sirtida adsorbsiyalishidan boshlanadi va shundan keyin ferment o'zining katalitik ta'sirini ko'rsatadi.

Odam organizmidagi ba'zi ferment va boshqa biologik faol birikmalarning faol markazlarida juda yaxshi adsorbsiyalanadigan zahar va toksinlarni oz miqdorda yuborish ko'pincha ularning adsorbsiyalishiga olib keladi. Misol tariqasida organizmgaga sianid kislota tuzlarini yuborishni keltirish mumkin. Sianid kislota tuzlari tarkibida temir saqlaydigan nafas fermentlarining faol markazlarida adsorbsiyalib ularning faoliyatini to'xtatadi. Bu og'ir oqibatga olib keladi, natijada bir necha sekund ichida inson halok bo'lishi mumkin.

## Xromotografiya

**Xromotografiya** (yunoncha *xromos* – rang demakdir) murakkab moddalarni ayrim qismlarga ajratib tarkibini aniqlashga asoslangan fizik-kimyoviy usullardan biri. Xromotografiyaning maqsadi quyidagi lardan iborat. Qo‘zg‘almas fazalar (adsorbent) vazifasini bajaruvchi qavatdan adsorbat va elyuent (suyuqlik yoki gazlar) o‘tkaziladi. Natijada elyuent bilan birga adsorbat ham harakatlana boshlaydi. Agar adsorbat komponentlarining adsorbsiyalanishga moyilligi turlicha bo‘lsa, kuchli adsorbsiyalanadigan moddalar adsorbentning yuqori qismida, nisbatan kuchsizlari esa quyi qismida sorbsiyalanadi va elyuent yordamida o‘zaro ajraladi. Masalan, eritmadagi mis va kobalt ionlarini bir-biridan ajratish maqsadida eritma aluminiy oksid bilan to‘ldirilgan adsorbsion kolonka orqali o‘tkaziladi. Kolonkaning yuqori qismida avval ikkala ion ham adsorbsiyalanadi. Kolonkadan erituvchi o‘tkazilsa, u aluminiy oksidga kuchsiz adsorbsiyalangan kobalt ionlarini pastroqqa tushiradi va ionlar aralashmasi ajratiladi.

Xromotografiyaning bir necha usullari farqlanadi:

1. *Adsorbsion xromotografiya* – bu usul birorta adsorbent tomonidan biron-bir adsorbtivning tanlab adsorbsiyalashiga asoslangan.

2. *Ion almashinish xromotografiysi* – eritma bilan adsorbent o‘rtasida ion almashinishiga asoslangan.

3. *Taqsimlanish xromotografiysi* – o‘zaro aralashmaydigan suyuqliklarda moddalarning turlicha taqsimlanishiga asoslangan.

Dissotsiatsiyalanadigan yoki kam dissotsiatsiyalanadigan moddalar taqsimlanishidagi farqi *Nernst qonuni* asosida ifodalanadi va o‘zgarmas temperaturada o‘zaro aralashmaydigan 2 faza orasida taqsimlangan moddalarning konsentratsiyalari nisbat o‘zgarmas son bo‘ladi:

$$\frac{c_1}{c_2} = K,$$

bu yerda  $K$  – taqsimlanish koefitsiyenti.

Taqsimlanish xromotografiyasining quyidagi turlari mavjud:

1. Taqsimlanish xromotografiyasining ekstraksiya usuli.

2. Qog‘ozli taqsimlanish xromotografiya.

3. Taqsimlanish xromotografiyasining gelfiltratsiya usuli.

4. Yupqa qavatli xromotografiya.

5. Gazli xromotografiya.

Adsorbsion xromotografiya hodisasi tibbiyotda keng qo‘llanadi. Masalan, ko‘pchilik dorivor moddalar: antibiotiklarni, gormonlarni, antiseptik moddalarni, alkaloidlarni preparativ ajratish va tozalashda adsorbsion xromotografiya usulidan foydalilanildi.

### Mavzu bo'yicha masalalar va ularni yechish namunaları

**1- masala.** Qattiq adsorbent  $\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2$  da qaysi ionlar adsorbsiyalanadi?

**Yechish.** Panet—Fayans qoidasiga binoan qattiq adsorbentda shu adsorbent tarkibiga kiradigan yoki adsorbent bilan umumiy guruhga ega bo'lgan ionlarga adsorbsiyalanadi.

Demak,  $\text{CaCl}_2 + \text{H}_3\text{PO}_4$  reaksiyasi natijasida hosil bo'lgan  $\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2$  adsorbentda  $\text{Ca}^{2+}$  yoki  $\text{PO}_4^{3-}$  ionlar adsorbsiyalanadi.

**2- masala.** Ekvivalent molyar konsentratsiyasi 0,2000 mol/l bo'lgan 50,00 ml sirkə kislota eritmasi 3,0 g adsorbent bilan aralashтирилди. Muvozanat qaror topgandan keyin shu eritmaning 10 ml ni titrlashga 14,00 ml ekvivalent molyar konsentratsiyasi 0,1000 mol/l bo'lgan natriy gidroksid eritmasi sarflandi. Sirkə kislotaning adsorbsiya qiymatini hisoblang.

**Berilgan:**

$$V(\text{ertima}) = 50,00 \text{ ml} = 0,05 \text{ l}$$

$$c_0(\text{CH}_3\text{COOH}) = 0,2000 \text{ mol/l}$$

$$m(\text{adsorbent}) = 3,0 \text{ g}$$

$$V(\text{CH}_3\text{COOH}) = 10,00 \text{ ml}$$

$$V(\text{NaOH}) = 14,00 \text{ ml}$$

$$c(\text{NaOH}) = 0,1000 \text{ mol/l}$$

$$c(\text{CH}_3\text{COOH}) = ?$$

**Yechishi.** Sirkə kislotaning muvozanat qaror topgandagi konsentratsiyasi aniqlanadi:

$$c(\text{CH}_3\text{COOH}) = \frac{c(\text{NaOH}) \cdot V(\text{NaOH})}{V(\text{CH}_3\text{COOH})} = \frac{0,1000 \cdot 14,00 \text{ mol} \cdot \text{ml}}{10,00 \text{ l} \cdot \text{ml}} = 0,1400 \frac{\text{mol}}{\text{l}}$$

Adsorbsiya qiymati quyidagicha hisoblanadi:

$$a = \frac{(c_0 - c) \cdot V}{m} = \frac{(0,2000 - 0,1400) \cdot 0,05 \text{ mol} \cdot \text{l}}{3 \text{ l} \cdot \text{g}} = 0,001 = 1 \cdot 10^{-3} \frac{\text{mol}}{\text{g}}$$

Javob:  $c(\text{CH}_3\text{COOH}) = 1 \cdot 10^{-3} \text{ mol/g.}$

### Mavzuning o'zlashtirilishini mustaqil nazorat qilish uchun savollar va masalalar

1. Sirt faol va sirt nofaol moddalar haqida tushuncha bering.
2. Tibbiyotda keng qo'llanadigan adsorbentlarni ko'rsating.
3. Adsorbsiya izotermasi deb nimaga aytildi?
4. Lengmyur tenglamasining matematik ifodasini ko'rsating.

5. Freydlix tenglamasining fizik ma'nosini tushuntiring.
6. Adsorbsiya jarayonining tibbiyotdagi ahamiyati.
7. Xromatografiya va uning turlarini ko'rsating.

### Vaziyatli masalalar

**1- masala.** Dyuklo—Traube qoidasi va uning matematik ifodasini ko'rsating.

*Javob:* SFM gidrofob guruhining ta'siri Dyuklo—Traube qoidasi bilan tushuntiriladi. U quyidagicha ta'riflanadi: to'yingan karbon kislotalar va spirtlar uglevodorod zanjirlarining bitta  $\text{CH}_2$  guruhiga ortishi gomologlarning suvli eritmadagi sirt faolligining 3—3,5 marta ortishiga olib keladi.

Dyuklo—Traube qoidasining matematik ifodasi quyidagicha:

$$\beta = \frac{G_{n+1}}{G_n} = 3 \div 3,5 ,$$

bunda  $\beta$  — Traube koeffitsiyenti.

**2- masala.** Organizmga tushgan toksin yoki zaharli moddalar ta'siri qanday adsorbsiyaga asoslangan?

*Javob:* Immun oqsillari (antitelolar) juda katta tanlangan adsorbsiya qiymatiga ega. Ular organizm uchun yot bo'lgan ma'lum tur oqsillarga (antigenlarga) adsorbsiyalanib, ularni eritadi.

$\text{CN}^-$  ionlari nafas zanjiri fermentlarini faol markazi bilan birikib, adsorbsiya jarayoni hisobiga ularni ingibirlaydi. Bu sianidlarning organizmga toksik ta'sirini tavsiflaydi.

Organizmga tushgan zaharli moddalar ta'siri tanlangan adsorbsiyaga asoslangan.

### Test savollari

1. Gibbs tenglamasini ko'rsating:

- |  |  |
|--|--|
| a) $G = \frac{c}{RT} + \frac{\Delta\delta}{\Delta c}$ ;      | d) $G = \frac{RT}{c} \cdot \frac{\Delta c}{\Delta\delta}$ ;  |
| b) $G = -\frac{S}{RT} \cdot \frac{\Delta\delta}{\Delta c}$ ; | e) $G = -\frac{c}{RT} \cdot \frac{\Delta\delta}{\Delta c}$ . |

2. Quyidagi jarayonlarning qaysi biri sorbtsiyaga taalluqli?

- |                  |                                  |
|------------------|----------------------------------|
| a) adsorbsiya;   | d) kapillar kondensatsiya;       |
| b) xemosorbsiya; | e) javoblarning hammasi to'g'ri. |

3. Sorbentlarni ko'rsating: 1. C (faol). 2. CaO. 3.  $\text{CO}_2$ . 4.  $\text{H}_2\text{O}$ .

- a) 1, 2;    b) 2, 3;    d) 3, 4;    e) 2, 4.

#### 4. Difil molekulani ko'rsating.

- a)  $\text{CH}_3 - \text{COOH}$ ; b)  $\text{HOOC} - \text{COOH}$ ; d)  $\text{CH}_4$ ; e)  $\text{H}_2\text{O}$ .

5. Moy kislota  $\text{CH}_3 - \text{CH}_2 - \text{CH}_2 - \text{COOH}$  molekulasidagi hidrofil guruhni ko'sratqan:

- a)  $-\text{CH}_3$       d)  $\text{CH}_3 - \text{CH}_2 - \text{CH}_2 -$   
 b)  $\text{CH}_3 - \text{CH}_2 -$       e)  $- \text{COOH}.$

6. AgCl zarrachada qaysi ionlar adsorbsiyalanadi?

- a)  $\text{Na}^+$ ; b)  $\text{Cu}^{2+}$ ; c)  $\text{Cl}^-$ ; d)  $\text{I}^-$ .

7. Quyidagi reaksiya qanday jarayonga taalluqli:



- a) adsorbsiya; b) absorbiya; d) xemosorbsiya; e) desorbsiya.

8. Qaysi ionlarning konsentratsiyasi ortishi siyidik yo'li va buyrakda tosh hosil bo'lishiga sabab bo'ladi?

- a)  $\text{Na}^+$ ,  $\text{Ca}^{2+}$ ,  $\text{PO}_4^{3-}$ ;      d)  $\text{Mg}^{2+}$ ,  $\text{Ca}^{2+}$ ;  
 b)  $\text{K}^+$ ,  $\text{Ca}^{2+}$ ,  $\text{PO}_4^{3-}$ ;      e)  $\text{Mg}^{2+}$ ,  $\text{Ca}^{2+}$ ,  $\text{PO}_4^{3-}$ ,  $\text{C}_2\text{O}_4^{2-}$

#### 9. Xromotografiya turlarini ko'rsating.

- a) adsorbsion ; d) taqsimlanish;  
b) ion almashinuv; e) javoblarning hammasi to‘g‘ri.

10. Freyndlix tenglamasining matematik ifodasini ko'rsating.

$$\text{a) } \frac{x}{m} = Kp \quad \text{b) } a = \frac{x}{m} = Kp^{\frac{1}{n}} \quad \text{d) } G = \frac{C}{R_T} \quad \text{e) } G = \frac{x}{S}.$$

## LABORATORIYA ISHI

## **Adsorbsiyaning sifat jihatini o‘rganish**

### **1- tajriba. Qattiq adsorbentdagи adsorbsiya.**

4 ta probirka olib, har biriga 2,0 m/ dan, mis sulfat, kaliy dixromat, temir (III)-gidroksid va berlin lazurining suytirilgan eritmalaridan quying. So'ogra har bir probirkaga 0,2 g dan maydalangan faollangan ko'mir qo'shing. Probirkalarni 5 min. davomida aralashtiring, so'ogra filtrlang. Kuzatilgan hodisani tushuntiring. Filtratning rangidan foydalanib, probirkada qaysi modda eritmasi borligini aniqlash mumkinmi?

## **2- tajriba. Adsorbsiyaga erituvchilarning ta'siri.**

Yodning erituvchi tabiyati bilan farqlanadigan 2 ta eritmasi (№ 1 va № 2) bor. Birinchi probirkaga 2,0 ml № 1 eritma, ikkinchisiga № 2 eritma quyying. Har bir probirkaga 0,2 g dan faollangan ko'mir solib,

5 min davomida aralashtiring, so‘ngra filtrlang. Kuzatilgan hodisani tushuntiring. Fuksinning suvli va spirtli eritmalarini aniqlang. Ularning adsorblanishida farq bormi? Agar javob asosli bo‘lsa, sababini tushuntiring.

### 3- tajriba. Og‘ir metallarning xemosorbsiyasi.

2 ta probirkaga 2,0 ml/ dan qon zardobi quyib, ularga 2 tomchidan qon tomizing. Birinchi probirkaga № 3 eritmadan 1,0 ml/; ikkinchisiga esa № 4 eritmadan 1,0 ml qo‘shing. Kuzatilgan hodisani tushuntiring. Qaysi eritmada  $\text{Na}^+$  ionlari, qaysi eritmada  $\text{Pb}^{2+}$  ionlari borligini aniqlang. Og‘ir metallarning ionlari xemosorbsiya tufayli qonning shaklli elementlariga ta’sir etib, ular membranalarining fizik-kimyoviy xossalari o‘zgartiradi.

### Sirka kislotaning ko‘mirdagi adsorbsiyasi

a) 4 ta toza va quruq usti qopqoqli idishga 0,5 g dan faollangan ko‘mir va pipetka yordamida 15,00 ml/ dan jadvalda ko‘rsatilgan ekvivalent molyar konsentratsiyali sirka kislota eritmasi quyiladi. (0,0250; 0,0500; 0,1000; 0,2000 mol/l). Idishlarning qopqog‘ini 20–25 minut yopiq qoldirilib, vaqtqi-vaqtqi bilan chayqatib turiladi. Shundan so‘ng sirka kislota eritmasi filtr qog‘oz yordamida filtranadi va alohida idishlarga joylanadi. Filtratlar konsentratsiyasini (*c*) aniqlash uchun ishlatalidi.

b) Sirka kislotasining boshlang‘ich ekvivalent molyar konsentratsiyasini (*c<sub>0</sub>*) aniqlash.

Buning uchun yuqorida ko‘rsatilgan konsentratsiyali sirka kislota eritmasidan 10,00 ml/ olib 4 ta kolbaga solinadi. Eritmalarga 2–3 tomchi fenolftalein indikatori qo‘silib natriy gidroksidning ekvivalent molyar konsentratsiyasi 0,1000 mol// bo‘lgan eritmasi bilan och pushtirang paydo bo‘lguncha titrlanadi. Titrlashga sarf bo‘lgan natriy gidroksid hajmi jadvalga yoziladi.

Idishlar raqami	Sirka kislotaning ekvivalent molyar konsentratsiyasi, mol/l	10,0 ml sirka kislotaga sarflangan natriy gidroksid hajmi, ml/	Adsorbsiyalangan modda miqdori <i>x</i> , mol	Solishtirma adsorbsiya <i>x/t</i> , mmol/l
1	0,0250			
2	0,0500			
3	0,1000			
4	0,2000			

Masalan, agar 10,00 ml 0,0250 mol/l konsentratsiyali sirka kislotani titrlashga 2,50 ml natriy gidroksid eritmasi sarflangan bo'lsa, 0,0500 mol/l ga – 5,30 ml; 0,1000 mol/l ga – 10,50 ml va 0,2000 mol/l ga – 20,6 ml 0,1000 mol/l konsentratsiyali natriy gidroksid eritmasi sarflangan bo'lsa, demak shunga mos ravishda sirka kislotasi uchun  $V_0 = 25,00 \text{ ml}$ , 53,00 ml, 105,0 ml va 206,00 ml. Olingan natijalarni jadvalga yozib olinadi.


d) Sirka kislotaning muvozanat konsentratsiyasi, ya'ni sirka kislotaning ko'mirga adsorbsiyalangandan keyingi konsentratsiyasini ( $c$ ) aniqlash: buning uchun 10,00 ml sirka kislota eritmasi (faollangan ko'mir bilan adsorbsiyalangandan keyingi filtratdan) olib, alohida kolbalarga solinadi. Har bir kolbaga 2–3 tomchi fenoltalein indikatori qo'shiladi va pushti rang paydo bo'lguncha natriy gidroksidning 0,1000 mol/l konsentratsiyali eritmasi bilan titrlanadi. Sirka kislotani titrlash uchun sarf bo'lgan natriy gidroksid miqdori jadvalga yoziladi, bunda kontsentratsiyani 100 m/l sirka kislotaga 0,1000 mol/l ga mos ravishda hajmda ifodalanadi.

e) Har bir konsentratsiya uchun adsorbsiyalangan sirka kislotaning miqdori quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$x = \frac{(c_0 - c)V}{100}, \text{ mmol},$$

bu yerda  $x$  – 1 g adsorbentga adsorbsiyalangan sirka kislota miqdori, g;  $c_0$  va  $c$  – boshlang'ich va muvozanat konsentratsiyalar;  $V$  – adsorbsiyalash uchun olingan sirka kislota hajmi, ml.

f) Millimetrali qog'ozda adsorbsiya izotermasi chiziladi. Buning uchun abssissa o'qiga jadvalda ko'rsatilgan boshlang'ich konsentratsiya  $c$  qiymati (mol/l da), ordinata o'qiga esa adsorbsiya qiymatlari  $G$  (mol/g da) qo'yiladi. Hosil bo'lган izoterma quyidagi rasmdagi (13- rasm) kabi bo'lishi kerak.



13- rasm. Adsorbsiya isotermasi.

## ERITMALARNING ELEKTR O'TKAZUVCHANLIGI. KONDUKTOMETRIK TITRLASH

**Mashg'ulotning maqsadi.** Konduktometrik titrlash usulining mohiyati va uning tibbiyotdagi ahamiyati haqida ma'lumot berish.

**O'rganilayotgan mavzuning ahamiyati.** Biologik suyuqliklar tarkibida har xil elektrolitlar erigan holda bo'lib, ular yuqori elektr o'tkazuvchanlik tabiatiga ega. Organizmdagi turli to'qimalar va biologik suyuqliklarning solishtirma elektr o'tkazuvchanligi bir biridan farq qiladi. Masalan, muskullar, bosh miya kulrang moddasining elektr o'tkazuvchanligi yuqori. Suyak va yog' to'qimalari, teri qoplamalarining elektr o'tkazuvchanligi juda kichik. Hujayralaroro suyuqliklarning elektr o'tkazuvchanligi hujayralarnikiga nisbatan yuqoridir.

Shu sababli eritmalarning elektr o'tkazuvchanligini bilish yurak, miya va boshqa organlarning ba'zi xastaliklarini tashxiz qilishda va fizioterapiya usullari bilan davolashda katta ahamiyat kasb etadi.

### Boshlang'ich bilim darajasi:

1. Elektrolitik dissotsiatsiya nazariyasi.
2. Kuchli va kuchsiz elektrolitlar.
3. Birinchi va ikkinchi tur o'tkazgichlar.
4. O'tkazgichlarning solishtirma qarshiligi.

### Mustaqil tayyorlanish uchun o'quv adabiyotlar:

1. *Л.И.Антропов.* Теоритическая электрохимия. М., 1984, I va 2 qism.
2. *M.I.Ravich-Sherbo, G.A.Annenkov.* Fizik va kolloid ximiya. Т., 1971, 43–51- betlar.
3. *Дж.Плембек.* Электрохимические методы анализа. М., 1985, IV bob.
4. *A.B.Akbarov.* Bioanorganik va biofizik kimyo asoslari. Т., 1996, 319–329- betlar.
5. *S.S.Qosimova, S.M.Masharipov, Q.O.Najimov.* Umumiyl va bioorganik kimyodan amaliy mashg'ulotlar. Т., 2001, 104–112- betlar.

### MA'LUMOTLAR YIG'INDISI

Ma'lumki, moddalar elektrolit va noelektrolitlarga bo'linadi. Suyuqlanma yoki eritma holida elektr tokini yaxshi o'tkazadigan moddalar *elektrolitlar* deyiladi.

Elektrolitlar eritmada to'liq yoki qisman ionlarga ajraladi. Kuchli elektrolitlar ionlarga to'liq, kuchsiz elektrolitlar esa qisman ajraladi. Kuchsiz elektrolitlar dissotsiatsilanish darajasi  $\alpha$  bilan tavsiflanadi:

$$\alpha = c/c'$$

bu yerda:  $c$  – ionga ajralgan molekulalar soni;  $c'$  – eritmadağı ionlarning umumiy soni.

Dissotsilanish darajasi  $\alpha$  elektrolit va erituvchi tabiatiga, eritma konsentratsiyasiga va temperaturaga bog'liq. Eritma qanchalik suyultirilgan bo'lsa, shunchalik ko'p dissotsiatsiya ro'y beradi. Konsentratsiya ortishi bilan esa dissotsilanish darajasi kamayadi. Elektrolit to'liq dissotsiatsiyalanganda  $\alpha = 1$  bo'ladi. Temperatura ortishi bilan dissotsiatsiyalish darajasi ortadi.

Kuchsiz elektrolitlar dissotsiatsiyalish konstantasi bilan tavsiflanadi:



$$K = \frac{c(M^+) \cdot c(A^-)}{c(MA)} .$$

Elektrolitlarning kuchli va kuchsiz elektrolitlarga ajralishi shartli bo'lib, u faqat elektrolit tabiatiga bog'liq bo'lmay, balki erituvchining tabiatini va boshqa omillarga ham bog'liq.

Dissotsiatsiyalish darajasi va dissotsiatsiyalish konstanta orasidagi bog'lanish *Ostvald tenglamasi* orqali ifodalanadi:

$$K = \frac{c \cdot \alpha^2}{1 - \alpha} .$$

Juda kuchsiz elektrolitlar uchun  $\alpha$  birdan ancha kichik, shuning uchun maxrajda  $\alpha$  ning qiymatini e'tiborga olmasa ham bo'ladi, chunki  $1 - \alpha \approx 1$  bo'lib, tenglama quyidagi ko'rinishga keladi:  $K = c \cdot \alpha^2$ . Bundan

$$\alpha = \sqrt{\frac{K}{c}} .$$

Bu qonun *Ostvaldning suyultirish qonuni* deyiladi va quyidagicha o'qiladi: *kuchsiz binar elektrolitlarning dissotsiatsilanish darajasi ular konsentratsiyalarining kvadrat ildiziga teskari proporsional yoki suyultirishning kvadrat ildiziga to'g'ri proporsional bo'ladi*.

### **Elektrolit eritmalarining solishtirma elektr o'tkazuvchanligi**

Barcha moddalar elektr o'tkazuvchanligi jihatidan o'tkazgich, yarim o'tkazgich va izolyatorlar (dielektriklar)ga bo'linadi. O'tkazgichlar o'z navbatida birinchi va ikkinchi tur o'tkazgichlarga bo'linadi. Birinchi tur o'tkazgichlar faqat erkin elektronlar harakati tufayli elektr

to'kini o'tkazadi. Ularga metallar, metallarning qotishmalari, ko'mir, grafit va boshqalar misol bo'ladi. Bunday moddalardan elektr toki o'tganda hech qanday kimyoviy o'zgarish sodir bo'lmaydi.

Ikkinci tur o'tkazgichlarga elektrolitlar eritmasi: tuzlar, ishqorlar, kislotalarning suyuqlanmalari va eritmalar misol bo'ladi. Bularda elektr toki elektrolit ionlari orqali uzatiladi va natijada modda kimyoviy jihatdan o'zgaradi.

Har qanday moddaning tashqi elektr maydon ta'sirida o'zidan elektr tokini o'tkaza olish xossasi elektr o'tkazuvchanlik yoki qarshilik deyiladi. Elektr o'tkazuvchanlik ( $L$ ) qarshilikka teskari proporsionaldir:

$$L = \frac{1}{R}, \quad \frac{1}{\text{Om}} = \text{Om}^{-1}. \quad (1)$$

O'tkazgichning uzunligi ( $l$ ) ga to'g'ri proporsional va ko'ndalang kesimining yuzasi ( $S$ )ga teskari proporsional kattalik *qarshilik* ( $R$ ) deyiladi. Uning o'lchov birligi Om dir:

$$R = \rho \frac{l}{S}, \quad \text{Om}, \quad (2)$$

bu tenglamada  $\rho$  – solishtirma qarshilik, ya'ni uzunligi 1 sm va ko'ndalang kesimi 1  $\text{sm}^2$  bo'lgan o'tkazgichning qarshiliagi.

(1) tenglamaga  $R$  ning qiymatini qo'yilsa:

$$L = \frac{1}{R} = \frac{1}{\rho} \cdot \frac{S}{l} = \chi \frac{S}{l} \quad (3)$$

yoki

$$\chi = \frac{1}{\rho} = \frac{1}{R} \cdot \frac{l}{S}. \quad (4)$$

Solishtirma qarshilikka teskari bo'lgan qiymat  $1/\rho$  solishtirma elektr o'tkazuvchanlik deyiladi va yunoncha kappa –  $\chi$  harfi bilan belgilanadi.

Solishtirma elektr o'tkazuvchanlik 1  $\text{sm}^3$  eritmaning elektr o'tkazuvchanligi bo'lib, birligi  $\text{Om}^{-1} \cdot \text{sm}^{-1}$ .

Eritmaning solishtirma elektr o'tkazuvchanligi hajm birligidagi eritmada mavjud bo'lgan ionlar konsentratsiyasiga va ularning harakat tezligiga bog'liq. Ionlarning konsentratsiyasi qancha yuqori bo'lsa, solishtirma elektr o'tkazuvchanlik shuncha katta bo'ladi. O'z navbatida ionlarning harakat tezligi ularning o'lchamlari, gidratlanish darajasi, eritmaning temperaturasi va qovushqoqligiga bog'liq bo'ladi. Ionlarning harakat tezligi ortishi bilan solishtirma elektr o'tkazuvchanlik ham ortadi.

Molyar elektr o'tkazuvchanlik – o'zaro 1 sm (yoki 1 m) masofada joylashgan 2 elektrod orasidagi eritmaning elektr o'tkazuvchanligi. Molyar elektr o'tkazuvchanlikni quyidagi tenglama bo'yicha hisoblanadi:

$$\lambda_c = \frac{\chi}{c\left(\frac{1}{Z}X\right)}, \quad (\text{Om}^{-1} \cdot \text{sm}^2 \cdot \text{mol}^{-1}), \quad (5)$$

bu tenglamada  $\lambda_c$  – molyar elektr o'tkazuvchanlik,  $c\left(\frac{1}{Z}X\right)$  – ekvivalent molyar konsentratsiya.

Kuchli va kuchsiz elektrolitlarning elektr o'tkazuvchanliklari eritma konsentratsiyasiga bog'liq bo'ladi. Kuchli elektrolitlarning konsentratsiyasi ortishi bilan eritmada ionlarning miqdori va  $\chi$  ortadi. Lekin konsentratsiya ma'lum miqdorga etganda, eritmadiagi ionlar orasidagi elektrostatik tortishuv kuchlari ortib, ionlarning harakat tezligi kamayadi va  $\chi$  ning qiymati kamayadi. Kuchsiz elektrolitlarda konsentratsiyaning ko'tarilishi  $\chi$  ning ortishiga olib keladi. Bu holda elektrolit kam dissotsiatsiyalangani sababli ionlar harakat tezligi konsentratsiyaga deyarli bog'liq bo'lmaydi va asosan konsentratsiya va dissotsiatsiya darajasining ko'paytmasi qiymati bilan belgilanadi:

$$\chi = c \cdot \alpha. \quad (6)$$

Kuchsiz elektrolitlar konsentratsiyasining ma'lum qiymatlargacha ortishi  $\alpha$  ning kamayishiga olib keladi, natijada konsentratsiya ma'lum qiymat chegarasiga yetganda  $\chi$  ning kamayishi kuzataladi.

Elektrolitlar eritmalarining molyar elektr o'tkazuvchanligi suyultirish darajasiga bog'liq. Eritma suyultirilgan sari molyar elektr o'tkazuvchanlik ortib boradi. Eritma konsentratsiyasi bilan molyar elektr o'tkazuvchanlik orasidagi bog'liqlik F. Kolraushning *ionlarning mustaqil harakatlanishi qonuni* bilan tushuntiriladi: Cheksiz suyultirilgan eritmalarida ionlar o'zaro bog'liq bo'lmasdan holda harakatlanadi.

Bunday eritmalarida ionlarning harakatlanish tezligi maksimal qiymatiga ( $\lambda_{\infty}$  – cheksiz molyar elektr o'tkazuvchanlikka) ega bo'ladi:

$$\lambda_{\max} = \lambda(\text{Kt}^+) + \lambda(\text{An}^-) \quad (7)$$

Bu tenglama *Kolraush tenglamasi* deyiladi.

$\lambda(\text{Kt}^+)$  va  $\lambda(\text{An}^-)$  – kation va anionlarning cheksiz molyar o'tkazuvchanligi ( $\text{Om}^{-1} \cdot \text{sm}^2 \cdot \text{mol}^{-1}$ ).

Kolraush tenglamasining yana bir ko'rinishi quyidagicha:

$$\lambda_{\max} = F \cdot V_{\text{Kt}^+} + F \cdot V_{\text{An}^-} = F(V_{\text{Kt}^+} + V_{\text{An}^-}), \quad (8)$$

bu tenglamada  $F$  – proporsionallik koeffitsiyenti;  $V_{\text{Kt}^+}$  va  $V_{\text{An}^-}$  – kation va anionlarning mutloq harakat tezligi.

### Eritmalarning ion kuchi. Ionlarning faolligi

Kuchli elektrolitlarning molyar elektr o'tkazuvchanligini konsentratsiya o'zgarishi bilan o'zgarishi eritmada mavjud bo'lgan ionlarning hammasi ham faol emasligini bildiradi. Elektrolitlar eritmalarining tarkibini ifodalashda haqiqiy konsentratsiyalari o'rniga faollik ( $\alpha$ ) dan, ya'ni faolligini namoyon qiladigan ionlar konsentratsiyasiga mos keladigan qiymatidan foydalaniladi.

Elektrolitlar zarrachalarining haqiqiy konsentratsiyalari bo'yicha ularning faolligini faollik koeffitsienti  $\Upsilon$  orqali aniqlanadi:

$$\Upsilon = \alpha/c; \text{ bundan } \alpha = \Upsilon c. \quad (9)$$

Eritmadagi ionlarning o'zaro ta'siri eritmada barcha ionlarning umumiy konsentratsiyasiga bog'liqdir. Bir xil konsentratsiyali biror ionning turli eritmalaridagi faollik koeffitsienti turlicha bo'ladi.

Elektrolit eritmasingin *ion kuchi*  $\mu$  deb, eritmada ishtirok etadigan har bir ionning konsentratsiyasi  $c$  ning kvadratini uning valentligi  $Z$  ga ko'paytmasi yig'indisining yarmiga teng qiymatiga aytildi:

$$\mu = 0,5 \Sigma c^2 Z. \quad (10)$$

Ionlar faolligining koeffitsiyenti suyultirilgan eritmaning ion kuchi bilan quyidagicha bog'langan:

$$\lg \Upsilon = -0,5 Z^2 \sqrt{\mu}. \quad (11)$$

Demak, eritmaning ion kuchi qancha katta bo'lsa, ionlarning faollik koeffitsienti shuncha kichik bo'ladi.

### Konduktometriya


Eritmalarning elektr o'tkazuvchanligini o'lchashga asoslangan usul *konduktometriya* deb ataladi. Bu usuldan foydalanib eritmadi eritmolarining konsentratsiyasi, eruvchanligi, erigan moddalarning dissotsiatsiya darajasi va konstantasi, elektr o'tkazuvchanligi va h.k. aniqlanadi. Konduktometriya usulidan tibbiyotda qonning shaklli elementlari miqdori, ivish tezligi, suv-tuz almashinuvi, kislota-asos

muvozanati buzilishini aniqlashda keng foydalaniadi. Konduktometrik titrlash usulidan foydalanib nafaqat tiniq eritmalarini, balki rangli yoki loyqa eritmalarini ham analiz qilish mumkin. Bu usulda eritmalarning elektr o'tkazuvchanligi o'zgarishi cho'kma, kompleks birikmalar hosil bo'lishi, oksidlanish-qaytarilish, neytrallanish reaksiyalari ning borishiga asoslangan. Masalan, neytrallanish jarayoniga asoslangan konduktometrik analizdan foydalanib eritmadagi kuchli va kuchsiz kislota yoki asoslarning miqdorini aniqlash mumkin.


Konduktometrik analizda eng ko'p qo'llanadigan usullardan biri *konduktometrik titrlashdir*.

Konduktometrik titrlash usuli kislota (yoki asos) lar eritmalarida yahshi elektr o'tkazuvchanlikka sabab bo'ladigan, juda harakatchan  $H^+$  yoki  $OH^-$  ionlarning ishtirok etishiga asoslangan. Konduktometrik titrlash jarayonida olingan ma'lumotlardan foydalanib, konduktometrik titrlash egri chizig'i tuziladi. *Titrlash egri chizig'i* deb eritma elektr o'tkazuvchanligining ishchi eritmaning titrlashga sarf bo'lgan miqdoriga qarab o'zgarib borishini ko'rsatuvchi egri chiziqqa aytildi. Titrlash egri chizig'i idagi sinish nuqtasi *ekvivalent nuqta* deyiladi. Titrlash egri chizig'i ini chizish uchun abssissa o'qiga ishchi eritma hajmining o'zgarishi, ordinatalar o'qiga esa eritmaning solishtirma elektr o'tkazuvchanligining ishchi eritma hajmi ortib borishiga mos ravishda o'zgarishi qo'yiladi.

Kuchli kislotani titrlash jarayonida kislota bilan asos orasida neytrallanish reaksiyasi sodir bo'ladi va bu ionlar o'rniغا eritmada kam harakatchan bo'lgan tuz ionlari to'planadi. Ekvivalent nuqtada, ya'ni ekvivalent miqdorda kislota asos bilan neytrallangan vaqtida eritmaning elektr o'tkazuvchanligi minimal bo'ladi. Ortiqcha qo'shilgan asos yana harakatchanligi yuqori bo'lgan  $OH^-$  ionlarini hosil bo'lishi va oqibatda elektr o'tkazuvchanlikning keskin ortishiga olib keladi (14- rasm).




**14- rasm.** Kuchli kislotani ishqor bilan konduktometrik titrlash egri chizig'i.



**15- rasm.** Kuchsiz kislotani ishqor bilan konduktometrik titrlash egri chizig'i.

Kuchsiz kislotani ishqor bilan titrlashda avval elektr o'tkazuvchanlik asta-sekin ortadi. Bunga sabab neytrallanish jarayoni hisobiga kuchsiz elektrolit (kislota) miqdorining kamayishi va kuchli elektrolit (tuz) miqdorining ortishidir (15- rasm). Ekvivalent nuqta qaror topgandan so'ng qo'shilgan ishqor miqdori eritmada  $\text{OH}^-$  ionlarining va elektr o'tkazuvchanlikning sezilarli darajada ortishiga olib keladi. Toza bir xil elektrolitli eritmalarning titrlash egri chizig'ida 1 ta sinish nuqtasi kuzatiladi.

Eritmada bir nechta elektrolit bo'lsa yoki bosqichli reaksiyaga kirishuvchi moddalar bo'lsa, titrlash egri chizig'ida 2 va undan ortiq sinish nuqtasi kuzatiladi. Kuchli va kuchsiz kislotalar aralashmasini kuchli asos bilan titrlanishida avval kuchli kislota neytrallanadi va elektr o'tkazuvchanlik qiymati kamayadi, keyin esa kuchsiz kislota titrlanishi sababli elektr o'tkazuvchanlik qiymati keskin ortadi (16- rasm), shuning uchun elektr o'tkazuvchanlik kuchli kislotaning ekvivalent nuqtasigacha kamayadi, keyin asta-sekin ortib borib, kuchsiz kislota ekvivalent nuqtasiga etgandan so'ng keskin ortib ketadi.



**16- rasm.** Kuchli va kuchsiz kislotalar aralashmasini ishqor bilan koduktometrik titrlash egri chizig'i.

Eritmadagi kislota yoki ishqorning konsentratsiyasi ekvivalentlar qonuni

$$c_1 \left( \frac{1}{Z} X_1 \right) Y_1 = c_2 \left( \frac{1}{Z} X_2 \right) Y_2 \quad (12)$$

asosida hisoblanadi.

### **Elektr o'tkazuvchanlikning tibbiyotdagi ahamiyati**

Tirik organizm to'qimalaridagi elektr o'tkazuvchanlik hodisalarini o'rganish katta ahamiyat kasb etib, bu usul hujayra va to'qimalardagi jarayonlarni o'rganishda keng qo'llanadi.

Odam organizmidagi turli to'qima va biologik suyuqliklarning solishtirma elektr o'tkazuvchanligi bir-biridan farq qiladi.

Masalan, orqa miya suyuqligi, qon zardobi, limfa, o't suyuqligining elektr o'tkazuvchanligi katta. Muskul, bosh miyaning kulrang moddasining elektr o'tkazuvchanligi nisbatan katta, o'pka, yurak, jigarning elektr o'tkazuvchanligi ancha kichik. Yog', suyak, asab to'qimalari, ayniqsa teri (shox qavati) elektr to'kini yomon o'tkazadi. Quruq epidermisning elektr o'tkazuvchanligi eng kichik.

Hujayralar o'rtaida bo'ladigan suyuqlik hujayra suyuqliklariga qaraganda to'kni yahshiroq o'tkazadi, chunki hujayra membranalari atrofida bir xil zaryad belgisiga ega bo'lgan ionlarning yig'ilishi hisobiga qutblanish hosil bo'ladi, oqibatda to'qimalardan o'tayotgan o'zgarmas tok kuchi kamayadi. To'qimalardan (hujayralardan) yuqori chastotali o'zgaruvchan tok oson o'tadi, chunki tok yo'nalishining qisqa vaqt ichida tez-tez o'zgarib turishi qutblanish hosil bo'lishiga to'sqinlik qiladi.

O'zgarmas tok elektrodlari qo'yilganda to'qimalardagi harakat-chan 1 valentli  $H^+$ ,  $Na^+$  va  $K^+$  ionlari katod ostida to'planib, konsentratsiyasi ortadi. Natijada 2 valentli kationlar anod ustida ko'payadi.  $Na^+$  va  $K^+$  ionlari katod atrofidagi hujayra qobiqlarini bo'shashtirib, ularning o'tkazuvchanligini oshiradi. Bu esa o'z navbatida katod ostiga turli dorivor moddalarni joylashtirib ularning elektr to'qimalarga oson va tez o'tkazish orqali davolash imkonini beradi. Anod oldida yig'ilgan 2 valentli  $Ca^{2+}$  va  $Mg^{2+}$  ionlari hujayra membranalarining zichligini oshiradi va elektr o'tkazuvchanlikni pasaytiradi. Elektrod qutblarini almashtirish ionlarning teskari taqsimlanishi va dastlabki holatning qayta tiklanishiga olib keladi. Bu usullar fizioterapiyada to'qimalarning faoliyatini tiklash, og'riqni qoldirish, moddalar almashinuvini yahshi-

lash orqali shamollash oqibatlarini kamaytirish, chandiqlarni so'riliшини tezlatishda keng qo'llanadi.

Konduktometrik titrlash usuli yordamida biologik suyuqliklarning elektr o'tkazuvchanligini aniqlash mumkin. Sog'lom kishining siydigining solishtirma elektr o'tkazuvchanligi  $1,65 - 2,29 \text{ Om}^{-1} \cdot \text{sm}^{-1}$  oralig'ida bo'ladi. Buyrak funksiyasi buzilgan bemorlar siydigining solishtirma elektr o'tkazuvchanligi  $8,65 - 13,8 \text{ Om}^{-1} \cdot \text{sm}^{-1}$  gacha kamayib ketadi. Bunga sabab, noelektrolit oqsil miqdori ortib, kuchli elektrolit NaCl ning konsentratsiyasi kamayishidir. Qandli diabetga chalingan bemorlar siydigining elektr o'tkazuvchanligi noelektrolit bo'lgan qand miqdorining ortishi hisobiga kamayadi.

### **Mavzu bo'yicha masalalar va ularni yechish namunalari**

**1- masala.** Kaliy ionining mutloq harakat tezligi  $7,62 \cdot 10^{-4}$  ga teng, xlor ioniniki esa  $7,91 \cdot 10^{-4}$ . 298 K da kaliy xloridning cheksiz elektr o'tkazuvchanligini aniqlang.

**Berilgan:**

$$U(K^+) = 7,62 \cdot 10^{-4}$$

$$U(Cl^-) = 7,91 \cdot 10^{-4}$$


---

$$\lambda_{\max} = ?$$

**Yechish.** Kaliy va xlor ionlarining cheksiz elektr o'tkazuvchanligi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\lambda = FU,$$

$$\lambda(K^+) = U(K^+) \cdot F = 7,62 \cdot 10^{-4} \cdot 96500 = 73,5 \text{ sm}^2 \cdot \text{Om}^{-1} \cdot \text{mol}^{-1},$$

$$\lambda(Cl^-) = U(Cl^-) \cdot F = 7,91 \cdot 10^{-4} \cdot 96500 = 76,3 \text{ sm}^2 \cdot \text{Om}^{-1} \cdot \text{mol}^{-1}$$

Kaliy xloridning cheksiz elektr o'tkazuvchanligi:

$$\lambda_{\max} = \lambda_1 + \lambda_2,$$

$$\lambda_{\max}(KCl) = \lambda(K^+) + \lambda(Cl^-) = 73,5 + 76,3 = 149,8 \text{ sm}^2 \cdot \text{Om}^{-1} \cdot \text{mol}^{-1}.$$

$$Javob: \lambda_{\max}(KCl) = 149,8 \text{ sm}^2 \cdot \text{Om}^{-1} \cdot \text{mol}^{-1}.$$

**2- masala.** Molyar konsentratsiyasi  $0,0070 \text{ mol/l}$  bo'lgan sirka kislotaning  $25^\circ\text{C}$  da solishtirma elektr o'tkazuvchanligi  $1,15 \cdot 10^{-4} \text{ Om}^{-1} \cdot \text{sm}^{-1}$  ga teng. Sirka kislotaning dissotsiatsilanish darajasini aniqlang.

**Berilgan:**

$$c(\text{CH}_3\text{COOH}) = 0,0070 \text{ mol/l} = 7,0 \cdot 10^{-3} \text{ mol/l}$$

$$\chi = 1,15 \cdot 10^{-4} \text{ Om}^{-1} \cdot \text{sm}^{-1}$$

$$t = 25^\circ\text{C}, T = 298 \text{ K}$$


---

$$\alpha = ?$$

**Yechish.** Ko'rsatilgan konsentratsiyadagi molyar elektr o'tkazuvchanlik:

$$\lambda_c = -\frac{\chi}{c \cdot 10^{-3}} = \frac{1,15 \cdot 10^{-4}}{7,0 \cdot 10^{-3} \cdot 10^{-3}} = 16,4 \text{ sm}^2 \cdot \text{Om}^{-1} \cdot \text{mol}^{-1}$$

ga teng.

Kolraush qonuni bo'yicha cheksiz molyar elektr o'tkazuvchanlik aniqlanadi:

$$\lambda_{\text{H}^+} = 349,8 \text{ sm}^2 \cdot \text{Om}^{-1} \cdot \text{mol}^{-1},$$

$$\lambda_{\text{CH}_3\text{COO}^-} = 39,3 \text{ sm}^2 \cdot \text{Om}^{-1} \cdot \text{mol}^{-1},$$

$$\lambda_{\max} = \lambda_{(\text{H}^+)} + \lambda_{(\text{CH}_3\text{COO}^-)} = 349,8 + 39,3 = 389,1 \text{ sm}^2 \cdot \text{Om}^{-1} \cdot \text{mol}^{-1}.$$

Ko'rsatilgan konsentratsiyali eritmada sirka kislotanang ionlanish darajasini quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\alpha = \frac{\lambda_c}{\lambda_{\max}} = \frac{16,4 \text{ sm}^2 \cdot \text{Om}^{-1} \cdot \text{mol}^{-1}}{389,1 \text{ sm}^2 \cdot \text{Om}^{-1} \cdot \text{mol}^{-1}} = 0,042 \text{ yoki } 4,2\%,$$

*Javob:*  $\alpha = 0,042$  yoki  $4,2\%$ ;

### **Mavzuni o'zlashtirishni mustaqil nazorat qilish uchun savollar va masalalar**

1. Kuchsiz elektrolitning dissotsiatsiyalanish konstantasi uning dissotsiatsiyalanish darjasini bilan qanday bog'langan?
2. Solishtirma va ekvivalent o'tkazuvchanlik deb nimaga aytildi?
3. Birinchi va ikkinchi tur elektr o'tkazgichlarga misollar keltiring.
4. Titrlash jarayonida eritma elektr o'tkazuvchanligining o'zgarish sababini tushintiring.
5. Kuchli va kuchsiz kislota aralashmasini kuchsiz asos bilan titrlaganda elektr o'tkazuvchanlik qanday o'zgaradi?

6.  $\text{H}_2\text{SO}_4$  ni KOH bilan konduktometrik titrlash egri chizig'ini chizing.
7. Eritmadagi ion faolligi qanday aniqlanadi?

### Vaziyatli masalalar

**1- masala.** LiBr ning 25 °C dagi molyar elektr o'tkazuvchanligini aniqlang.

Javob:  $\lambda_{\max}(\text{LiBr}) = 117,1 \text{ sm}^2 \cdot \text{Om}^{-1} \cdot \text{mol}^{-1}$ .

**2- masala.** Konsentratsiyasi  $7,8 \cdot 10^{-3}$  mol// bo'lgan propion kislotaning 25 °C da solishtirma elektr o'tkazuvchanligi  $1,21 \cdot 10^{-4}$   $\text{Om}^{-1} \cdot \text{sm}^{-1}$  ga teng. Propion kislotaning dissotsiatsiyalanish darajasini aniqlang.

Javob:  $\alpha = 0,04$  yoki 4%.

### Test savollari

1. Eritmaning ion kuchi qanday omillarga bog'liq?

- a) har bir ionning zaryadiga;
- b) temperaturaga;
- d) har bir ionning konsentratsiyasiga;
- e) har bir ionning faollik koefitsientiga.

2. Elektr o'tkazuvchanlik qanday maqsadda aniqlanadi?

- a) dissotsiatsiyalanish darajasini aniqlash uchun;
- b) ekspress diagnostika qilish uchun;
- d) potensialni aniqlash uchun;
- e) eritmaning ion kuchini aniqlash uchun.

3. Molyar elektr o'tkazuvchanlik qaysi formula bilan aniqlanadi?

a)  $\chi = c \cdot \alpha$ ;      d)  $\lambda_c = \frac{\chi}{c \left( \frac{1}{Z} \chi \right)}$ ;

b)  $\lambda_{\max} = \lambda(\text{Kt}^+) + l(\text{An}^-)$ ;      e)  $R = \rho \lambda / S$ .

4. Cheksiz molyar elektr o'tkazuvchanlik qaysi formula bilan aniqlanadi?

a)  $\lambda_{\max} = \lambda(\text{Kt}^+) + \lambda(\text{An}^-)$ ;      d)  $\lambda_c = 1000 \cdot c / (c \lambda / Z)$ ;  
 b)  $\lambda = s \cdot \alpha$ ;      e)  $R = \rho \cdot l / S$ .

5. Molyar elektr o'tkazuvchanlik qanday birlikda o'lchanadi?

a)  $\text{Om}^{-1} \cdot \text{sm}^2$ ;      b)  $\text{Om}$ ;      d)  $\text{Om}^{-1}$ ;      e)  $\text{Om}^{-1} \cdot \text{sm}^2 \cdot \text{mol}^{-1}$ .

6. Elektr o'tkazuvchanlik qaysi formula bilan aniqlanadi?

- a)  $R = \rho \cdot l/S$ ; d)  $\chi = c \cdot \alpha$ ;  
 b)  $L = 1/R$ ; e)  $\lambda_{\max} = \lambda(\text{Kt}^+) + \lambda(\text{An}^-)$ .

7. Birinchi tur o'tkazgichni ko'rsating.

- a) metallar; b) tuzlar; d) kislotalar; e) asoslar.

8. Ikkinci tur o'tkazgichni ko'rsating.

- a) metallar; d) kislotalar;  
 b) metall qotishmalar; e) grafit.

9. Solishtirma elektr o'tkazuvchanlik qanday birlikda o'lchanadi?

- a)  $\text{Om}^{-1} \cdot \text{sm}^2$ ; b)  $\text{Om} \cdot \text{sm}^{-1}$ ; d)  $\text{Om}^{-1}$ ; e)  $\text{Om}^{-1} \cdot \text{sm}^2 \cdot \text{mol}^{-1}$ .

10. Konduktometrik analiz nimaga asoslangan?

- a) eritmalarning konsentratsiyasini aniqlashga;  
 b) eritmalarning elektr o'tkazuvchanligini aniqlashga;  
 d) elektrolitning dissotsiatsiyalanish temperaturasini aniqlashga;  
 e) eritmalarning  $pH$  ini aniqlashga.

## LABORATORIYA ISHI

### **1. Me'da shirasidagi xlorid kislota miqdorini konduktometrik titrlash usulida aniqlash**

Tajribani bajarish uchun reoxord ko'prigining elektrodli idishiga 40 m/l tekshirilayotgan eritma quyiladi. Reoxord ko'pri P-38 yordamida eritmaning qarshiligi o'lchanadi. Buning uchun quyidagilarni bajarish lozim:

1. Qurilmaning tok bilan ta'minlanish nuqtasiga 50 Gs chastotali 127 yoki 220 V kuchlanishli o'zgaruvchan tok ulanadi, o'tkazgich dastagini «~» holatiga qo'yiladi.

2. Elektrodlarni elektrolitik yacheykaga  $\langle R_x \rangle$  qistirgich orqali ulanadi.

3. Yelkalar kalitini «no'lga keltirish» holatiga va galvanometr kalitini «aniq» holatiga qo'yib, korrektorni burash bilan galvanometr ko'rsatkichini 0 holatiga keltiriladi.

4. Galvanometr kalitini «taxminiy» holatiga qo'yib, reoxord ko'prigini muvozanat holatiga keltiriladi, so'ngra galvanometr kalitini «aniq» holatiga qo'yib, muvozanatlashni oxirigacha yetkaziladi.

5. Solishtiruvchi yelkadan ( $R$ ) hamda yelkalar nisbati  $m$  dan (shkala bo'yicha) foydalanib, o'lchangan qarshilik qiymati quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$R_x = R \cdot m, \text{ Om}$$

Shundan so'ng tekshirilayotgan eritmaga byuretka yordamida 1 ml dan ishchi eritma quyib va har gal ishchi eritma quyilganda eritma qarshiligini o'lchanadi. Olingan ma'lumotlarni jadvalga yoziladi.

Nº	Tekshirilayotgan eritma, ml	$V$ ishchi eritma hajmi, ml	$R$	$M$	$R_x, \text{ Om}$ $R_x = R_m$	$R_x, \text{ Om} \cdot \text{sm}^{-1}$ $\chi = \frac{k}{R_x}$	Ekvivalent nuqta	$c(l/Z)$ , mol/l
1 2 3 4 5 6	HCl	NaOH						
		1						
		2						
		3						
		4						
		5						
1 2 3 4 5 6	$\text{CH}_3\text{COOH}$	NaOH						
1 2 3 4 5 6	$\text{NH}_4\text{OH}$	NaOH						

Olingan qiymatlardan foydalanib,  $R$  ning ishchi eritma hajmiga bog'liqligi egri chizig'i chiziladi va undan ekvivalent nuqta aniqlanadi. So'ngra eritmaning ekvivalent molyar konsentratsiyasi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$c\left(\frac{1}{Z}\right)_{\text{teksh. er-ma}} = \frac{V_{\text{ishchi eritma}} \cdot c\left(\frac{1}{Z}\right)_{\text{ishchi eritma}}}{V_{\text{teksh. eritma}}}, \text{ mol/l}.$$

## 2. Ekvivalent molar konsentratsiyasi 0,0100 mol/l bo‘lgan kuchsiz elektrolitning dissotsiatsiya konstantasi va darajasini aniqlash

Elektr o‘tkazuvchanlikni aniqlash uchun mo‘ljallangan idishga 50,00 ml aniqlanayotgan eritma solinadi. Reoxord ko‘prigi P-38 yordamida eritmaning dastlabki qarshiligi o‘lchanadi. Keyin byuretkadan tomchilab 1,00 ml ishchi eritma solinadi. Har 1,00 ml ishchi eritma qo‘shilgandan keyin qarshilik o‘lchanadi. Olingan natijalar jadvalga yoziladi.

Nº	Tekshirilayotgan eritmaning hajmi, ml	$R$ , Om	$R_x$ , Om	$\chi$ , $\text{Om}^{-1} \cdot \text{sm}^{-1}$	$\lambda$ , $\text{Om}^{-1} \cdot \text{sm}^{-1} \cdot \text{mol}^{-1}$	$\alpha$	$K$
1	50						
2	50						
3	50						
O‘rtacha qiymati							

Quyidagi formula bo‘yicha  $\chi$ ,  $\lambda$ ,  $\alpha$ ,  $K$  qiymatlarini aniqlanadi:

$$\chi = \frac{K}{R_x}, \text{ Om}^{-1} \cdot \text{sm}^{-1},$$

$$\lambda = \frac{1000}{CR}, \text{ Om}^{-1} \cdot \text{sm}^{-1},$$

$$\alpha = \frac{\lambda}{\lambda_{\infty}}; \quad K = \frac{c\alpha^2}{1-\alpha} = \frac{c\lambda^2}{\lambda_a(\lambda - \lambda_{\infty})}, \text{ Om}^{-1} \cdot \text{sm}^{-1},$$

bu yerda:  $\chi$  – solishtirma elektr o‘tkazuvchanlik,  $\text{Om}^{-1} \cdot \text{sm}^{-1}$ ;  $R_x$  – kuchsiz elektrolitning qarshiligi, Om;  $K$  – elektrolitik dissotsiatsiya konstantasi;  $\lambda$  – suytirilgandagi molar, elektr o‘tkazuvchanlik,  $\text{Om}^{-1} \cdot \text{sm}^{-1}$ ;  $\lambda_{\infty}$  – cheksiz suytirilgandagi molar elektr o‘tkazuvchanlik,  $\text{Om}^{-1} \cdot \text{sm}^{-1}$ ,  $\lambda_{\infty} = \lambda_k + \lambda_{\alpha}$ ;  $\lambda_k \lambda_{\alpha}$  – kation va anion harakat-chanligi;  $c$  – eritmaning ekvivalent molar konsentratsiyasi.

## **ELEKTROKIMYO ASOSLARI. BIOLOGIK SUYUQLIKLARNING pHINI POTENSIOMETRIK ANIQLASH**

**Mashg‘ulotning maqsadi.** Elektrokimyo asoslari, galvanik elementlarning tuzilishi va ishlash printsipi haqida ma’lumotga ega bo‘lgan holda potensiometrik usul bilan biologik suyuqliklarning *pH*ini aniqlashni o‘rganish.

**O‘rganilayotgan mavzuning ahamiyati.** Tana temperaturasi, turli biologik suyuqliklar osmotik bosimi ma’lum qiymatlarga ega bo‘lganligi kabi, organizmning *pH* qiymati ham muhim doimiyliklardan hisoblanadi. Masalan, qon *pH* = 7,36, siydk *pH* = 5,0–8,0 me’da shirasining *pH* = 0,9–2,0. Tegishli *pH* qiymatlarining o‘zgarishi patologik jarayonlarga, ya’ni kasallik paydo bo‘lishiga olib keladi. Qon, siydk, me’da shirasining reaksiya muhitlarini o‘rganish diagnostikada, shuningdek, jarrohlikda va boshqa kasalliklarda hamda ovqatlanish, dorivor moddalarni qabul qilishda muhim ahamiyatga ega. *pH* ni potensiometrik aniqlash usuli aniq va ishonchlidir. Bu usulni, biologik suyuqliklarning *pH*ini boshqa usullar bilan aniqlab bo‘lmaydigan hollarda ham qo‘llash mumkin. Masalan, rangli va loyqasimon moddalarni, ya’ni qon, hujayra suspenziyasi kabilarning *pH* qiymatini titrimetrik analiz usullari bilan aniqlab bo‘lmaydi, faqt potensiometrik usul yordamida aniqlash mumkin. Potensiometrik usulining bunday afzalliklari, uni biokimyoviy, klinik hamda sanitariya-gigiena laboratoriyalarida keng qo‘llanishiga imkon beradi.

### **Boshlang‘ich bilim darajasi:**

1. Vodorod ko‘rsatkich – *pH*.
2. Elektr energiyasining doimiy va o‘zgaruvchan manbai;
3. Normal vodorod elektrod. Normal elektrod potensiali.

### **Mustaqil tayyorlanish uchun o‘quv adabiyotlar:**

1. *A.Abdusamatov, A.Rahimov, S.Musayev.* Fizik va kolloid ximiya. T., 1992. 120–138- betlar.
2. *A.B.Akbarov.* Bioanorganik va biofizik kimyo asoslari. T., 1996. 331–351- betlar.
3. *М.И.Равич-Щерба, В.В.Новиков.* Физическая и коллоидная химия. Т. 1975. 59–71- betlar.
4. *S.S.Qosimova, S.M.Masharipov, Q.O.Najimov.* Umumiyl va bioorganik kimyodan amaliy mashg‘ulotlar. T., 2001, 113–120- betlar.

### Darsda ko‘riladigan savollar:

1. Metall-suv, metall-eritma chegarasida hosil bo‘ladigan potensial. Nernst tenglamasi.
2. Galvanik elementlarning tuzilishi. Yakobi-Daniel elementi.
3. Elektrod potensialning metall tabiatiga, konsentratsiya va temperaturaga bogliqligi.
4. Elektrodlar turi: solishtirish (standart) elektrodlari, aniqlash elektrodlari, ionoselektiv elektrodlar.
5. Diffuziya va membrana potensiallari hamda ularning biologik ahamiyati.
6. Oksidlanish-qaytarilish sistemalari va ularning biologik ahamiyati.
7. Eritmalar  $pH$  ini potensiometrik aniqlash.

## MA’LUMOTLAR YIG‘INDISI

### Elektrokimyo asoslari


*Elektrokimyo* – fizik kimyoning bir bo‘limi bo‘lib, turli sistemalardagi kimyoviy jarayonlar energiyasining elektr energiyasiga va aksincha, elektr energiyasini kimyoviy energiyaga aylanishini o‘rganadigan fandir. Birinchi hodisa galvanik elementlarda, ikkinchi hodisa esa elektroliz vaqtida yuz beradi.


Tirik organizmda qator kimyoviy jarayonlar natijasida elektr energiyasi (biotok) hosil bo‘лади. О‘з navbatida bu energiya turi boshqa kimyoviy jarayonlarni amalga oshirishni ta’minlab turadi. Bu esa endogen kimyoviy jarayonlar va biotoklarning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bu jarayonlarni o‘rganish va talqin qilishda elektrokimyo fanining asosiy tushunchalaridan foydalaniлади.

Biokimyoviy jarayonlar borishi natijasida hosil bo‘lgan yoki sarf bo‘lgan energiyaning miqdorini aniqlash tibbiyotda diagnostika maqsadida keng qo‘llaniladi.

### Galvanik elementlar nazariyasi

Agar metall plastinka toza suvgaga (erituvchiga) tushirilsa uning kristall panjarasi yemirilishi hisobiga va metall ionlari suvning polyar molekulalari tomonidan tortilishi hisobiga eritmaga ma’lum ionlar ajralib chiqadi, ya’ni metall oksidlanadi:





**17- rasm.** Qo'sh elektr qavat hosil bo'lishi.

Oqibatda musbat ionlarning bir qismini yo'qtgan metall ortiqcha ionlarga ega bo'lib qoladida, manfiy zaryadlanadi, metall atrofida esa metall kationlari to'planadi va musbat zaryadlanadi. Metall atomi elektron berib, ya'ni oksidlanib metall ioniga aylanadi (17- rasm):



Metalldan eritmaga o'tgan musbat ionlar manfiy zaryadlangan metallga tortiladi va metall sirti yaqiniga joylashib, *qo'sh elektr qavat* hosil qiladi. Hosil bo'lган potensial metall atomini ionga aylanib eritmaga o'tishiga to'sqinlik qiladi va oqibatda ma'lum bir kattalikga ega bo'lган potensiallar ayirmasi vujudga keladi. Agar Cu, Ag, Au metallari shu metall ionlari saqlagan eritmaga tushirilsa, kationlar eritmadan metallga o'tadi. Natijada metall musbat zaryadlanadi va uning atrofida eritmadagi manfiy ionlar to'planadi. Bu holda ham potensiallar ayirmasi vujudga keladi. Eritmaga tushirilgan plastinkani *elektrod* deb, metall—eritma chegarasida paydo bo'lган potensialni *metallning elektrod potensiali* deb ataladi.

Agar metall o'zining biron-bir eritmasiga tushirilsa metall ionlari ning eritmaga o'tishiga eritmada mavjud bo'lган shu metall ionlari qarshilik qiladi. Bu qarshilik eritmadagi metall ionlarining metallning kristall panjarasi tarkibiga kirishga intilishida namoyon bo'lib, eritmadagi ionlar konsentratsiyasiga proporsionaldir:

- agar metall va uning tuzi eritmasidan iborat sistemada metall ionlaringning eritmaga o'tish jarayoni ustunlik qilsa, metall manfiy zaryadlanadi;
- agar metall ustiga kationlar o'tishi jarayoni ustunroq bo'lsa, metall musbat zaryadlanadi.

Ikkala holda ham metall sathi bilan suyuqlikning yondoshgan qavati orasida potensiallar ayirmasi vujudga keladi. Bu potensiallar ionlarning metaldan eritmaga o'tishini chegaralab turadi va shuning uchun har bir metall va uning ma'lum tuzi konsentratsiyasiga

qandaydir biror potensial to‘g‘ri keladi (shunga asoslanib, ba‘zi metallarning potensiallar jadvali tuzilgan) (1-jadval). Bunda vodoroddan oldin turgan metallar manfiy zaryadga, keyingilari esa musbat zaryadga ega bo‘ladi.

Metall o‘z tuzi eritmasiga tushirilganda, vujudga keladigan potensial *elektrod potensiali* ( $E$ ) deyiladi. Agar eritmadiagi metall ionlarining faolligi 1 mol/l ga teng bo‘lsa, bu holda potensial *normal elektrod potensiali* ( $E^0$ ) deyiladi.

*1-jadval*

### 25 °C da metallarning elektrod potensiallari

Elektrod (metall/ion)	$E^0$ , V	Elektrod (metall/ ion)	$E^0$ , V
Li/Li <sup>+</sup>	-3,02	Pb/Pb <sup>2+</sup>	-0,126
K/K <sup>+</sup>	-2,92	H <sub>2</sub> /2H <sup>+</sup>	±0,000
Na/Na <sup>+</sup>	-2,713	Cu/Cu <sup>2+</sup>	+ 0,34
Al/Al <sup>3+</sup>	-1,66	Ag/Ag <sup>+</sup>	+0,80
Mn/Mn <sup>2+</sup>	-1,05	Hg/Hg <sup>+</sup>	+0,799
Zn/Zn <sup>2+</sup>	-0,763	Hg/Hg <sup>2+</sup>	+0,854
Fe/Fe <sup>2+</sup>	-0,441	Pt/Pt <sup>2+</sup>	+1,20
Ni/Ni <sup>2+</sup>	-0,23	Au/Au <sup>+</sup>	+1,70

Metallning elektrod potensiali  $E$  metallning xossalariiga, eritmadiagi metall ionining konsentratsiyasiga va temperatura bog‘liq. Bu bog‘liqlik Nernst tenglamasi bilan ifodalanadi:

$$E = E^0 + \frac{RT}{nF} \ln a^{n+},$$

bu tenglamada  $R$  – gaz doimiysi(8,31 l·kPa/mol · K);  $T$  – absolut temperatura;  $a$  – metall ionlarining faolligi;  $F$  – Faradey soni (96500 Ku);  $n$  – metallning bir atomi beradigan elektronlar soni;  $E^0$  – normal elektrod potensial.

Agar konsentratsiya 1 g-ion/l ga teng bo‘lsa  $E = E^0$ . Ya’ni, metall ionlarining konsentratsiyasi 1 g-ion/l ga teng bo‘lgan metall tuzi eritmasiga shu metallning o‘zi tushirilsa, metallning elektrod potensiali  $E^0$  ga teng bo‘ladi.

### Galvanik elementlar tuzilishi. Yakobi–Daniel elementi

Elektrokimiyoviy zanjirlar tashqi va ichki tarkibiy qismlardan iborat bo‘lib, ichki zanjir galvanik elementdan tashkil topgan bo‘ladi.

*Galvanik element* deb kimyoviy energiyani elektr energiyaga aylantiradigan va 2 ta o‘z tuzi eritmasiga tushirilgan va bir-biriga ulangan elektrodlardan tuzilgan sistemaga aytildi.

Galvanik elementlar:

1) elektrod potensiali belgisi va tabiatи bilan farqlanadigan elektrodlardan, masalan: Zn/Zn<sup>2+</sup> (-0,762 V) va Cu/Cu<sup>2+</sup> (+0,34 V) metallardan tuzilgan;






2) bir xil potensial belgisi, ammo turli metallardan iborat elektrodlardan, masalan Cu/Cu<sup>2+</sup> (+0,34 V) va Au/Au<sup>+</sup> (+0,70 V) tashkil topgan;

3) turli konsentratsiyali tuz eritmasiga tushirilgan bir xil metall elektrodlardan iborat bo‘ladi (konsentratsion element deyiladi).

2 metalli galvanik elementlarga Yakobi–Daniel elementini misol qilib keltirish mumkin. Bu element mis va rux elektrodlarining ularning sulfat tuzlari eritmalariga tushirilgan sistemadan iborat. Mis elektrod Cu<sup>2+</sup> ioni bor eritmaga (CuSO<sub>4</sub> eritmasiga), rux elektrod Zn<sup>2+</sup> ioni bor eritmaga (ZnSO<sub>4</sub> eritmasiga) tushirilgan (18- rasm). Elektrodlar o‘zaro sim bilan, eritmalar KCl ning agar agarli ko‘prikchasi bilan ulangan. Bu element zanjiri quyidagicha yoziladi:



Agar elektrodlar bir-biri bilan tutashtirilsa, sistemada elektr toki hosil bo‘ladi. Sistemada kimyoviy jarayonlar amalga oshishi hisobiga elektr toki paydo bo‘ladi:



18- rasm. Yakobi–Daniel galvanik elementining chizmasi.

Galvanik elementning elektr yurituvchi kuchini aniqlash uchun quyidagi tenglamadan foydalilanildi:

$$E = E^0 + \frac{RT}{nF} \ln a^{n+}.$$

Ion faolligi  $a^{n+} = 1$  bo'lsa,

$$E = E^0 + \frac{RT}{nF} \ln K, \quad E = \frac{RT}{nF} \ln K = E^0,$$

bunda  $E^0$  – eritmarda ionlarning faolligi bir-biriga teng yoki har qaysi ionning faolligi birga teng bo'lganda vujudga kelgan elektr yurituvchi kuch bo'lib, *normal (standart) elektr yurituvchi kuch* deyiladi.

Galvanik elementlar xususiyati jihatidan qaytar va qaytmas bo'ladi. Masalan, Yakobi–Daniel galvanik elementining tashqi zanjiridagi tok oqimi teskari yo'nalishda yuborilsa, elektrodlarda teskari jarayonlar sodir bo'ladi: rux elektrodda ajrala boshlaydi, mis elektrod esa eriy boshlaydi va sistema avvalgi holatga qayta boshlaydi. Elektr tokni teskari tomonga yo'naltirganda qaytar jarayonlar boradigan elementlar *qaytar elementlar* deyiladi. Agar eritma vazifasini bajaruvchi tuzlar sulfat kislotaga almashtirilsa rux elektrodining erishi, mis elektrodida esa vodorod molekulasi ajralib chiqishi kuzatiladi. Tok teskari tomonga yo'naltirilsa mis elektrod eriydi, rux elektrodida esa vodorod ajralib chiqadi. Bunday galvanik elementlar *qaytmas elementlar* deyiladi.

Elektrodlar hamma vaqt o'z tuzining eritmasiga botirilgan metall plastinka bo'lavermaydi. Ba'zan tuz eritmasi o'rniga kerakli tuz saqlagan pasta (kalomel elektrodlarda), gaz elektrodlari ham qo'llanadi, bunda metall plastinka vazifasini indeferent plastinkaga (oltin, platina) adsorbsiyalangan gaz bajaradi (vodorod va kislород elektrodlar) va boshqalar.

Ko'rib chiqilgan elektrodlar plastinka va eritma orasida ion almashinish asosida ishlaydi va ular anion yoki kationga nisbatan (qanday ion almashinayotganiga qarab) qaytar deyiladi.

Elektrodlar tuzilishi jihatdan birinchi va ikkinchi turga ajraladi.

*Birinchi tur elektrodlar* o'zining tuzi eritmasiga tushirilgan metalldan iborat bo'ladi. Ular eritma bilan qaytar tabiatga ega faqat kation almashinuvি jarayoni orqali ta'sirlashadi. Masalan,  $\text{Cu}|\text{Cu}^{2+}$ ;  $\text{Ag}|\text{Ag}^+$ .

*Ikkinchi tur elektrodlarda* metall o'zining qiyin eriydigan tuzi bilan qoplangan bo'ladi va elektrod shu tuz tarkibiga kirgan ion

saqlagan va suvda yaxshi eriydigan modda (tuz) eritmasiga solingan bo'ladi. Bunday eletrodlarga KCl eritmasiga tushirilgan AgCl bilan qoplangan kumush elektrodni misol qilib keltirish mumkin.

Elektrodlar potensial qiymatlari tabiatiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

1. Solishtirish elektrodlari.
2. Aniqlash elektrodlari.
3. Ion selektiv elektrodlar.


### Solishtirish elektrodlari

Tashqi omil ta'sirida potensial qiymatini o'zgartirmaydigan elektrodlar *solishtirish elektrodlari* deyiladi.

Elektrod potensialining aniq qiymatini o'lehash usullari ayni vaqtgacha mavjud emas. Buning uchun potensial qiymatini nol deb qabul qilingan standart elektrodnинг absolut qiymati bilan solishtirish orqali chegaralanadi. Standart elektrod sifatida odatda potensial qiymati nolga teng bo'lgan vodorod elektrodi qabul qilinadi. Unga nisbatan boshqa elektrodlarning potensiali solishtiriladi. Potensial qiymati aniqlangandan so'ng bu elektrodlar ham standart elektrod sifatida ishlatalishi mumkin (bunday hollarda ularni solishtirish elektrodlari deyiladi).


Solishtirish elektrodlari sifatida normal elektrodlar ishlataladi. Bu tuzi eritmasidagi metall ionlarining faolligi 1 g-ion//l ga teng bo'lgan elektrodlardir.

*Vodorod elektrod* qaytar tabiatli birinchi tur elektrodlarga mansub bo'lib, u faqat eritmadiagi bitta ionga — vodorod ioniga nisbatan qaytardir. Bu elektrod eng oddiy holda bir tomoni yopiq bo'lgan idishga platina bilan qoplangan platina plastinkadan iborat bo'lib, u vodorod ionlari faolligi 1 ga teng bo'lgan konsentratsiyasi 1 mol//l sulfat kislota eritmasiga tushirilgan. Bu eritmadan 1 atm (101,325 kPa) bosim ostida o'ta toza vodorod o'tkazilganda gaz yuqoriga ko'tariladi va platinada adsorbsiyaланади. Bunda quyidagi jarayon amalga oshadi:



Hosil bo'lgan elektronlar elektrodda yig'ilib uning manfiy zaryadlanishiga sabab bo'ladi.  $\text{H}^+$  ionlari esa elektrod atrofida yig'iladi. Natijada qo'sh elektr qavat hosil bo'ladi va potensiallar ayirmasi yuzaga keladi.

Vodorod elektrodnинг elektrokimyoiy sxemasi quyidagicha yoziladi:



Vodorod ionining faolligi  $a_{H^+} = 1$  g-ion/l va bosimi  $H_2 = 1$  atm bo‘lganda vodorod ionining potensiali shartli ravishda birga teng deb qabul qilingan. Bu esa uning yordamida boshqa elektrodlar potensial qiymatini oson aniqlash imkonini beradi.

Vodorod elektrodi juda aniq va sezgirligi juda yuqori bo‘lgani sababli, va uni tayyorlash va ishlatalish texnik qiyinchiliklarga olib kelgani bois ko‘p hollarda boshqa elektrodlardan foydalaniladi.

*Kumush xlorli elektrod.* Bu elektrod KCl ning to‘yingan eritmasiga tushirilgan AgCl tuzi bilan qoplangan kumush sim yoki plastinkadan iborat. Bu elektrodning elektrokimyoviy sxemasi quyidagicha yoziladi: Ag | AgCl | KCl. Kumush xlorli elektrodning potensiali xlor ionining faolligiga bog‘liq. Xlor ionining faolligi  $a_{Cl^-} = 1$  bo‘lganda va 25 °C temperaturada kumush xlorli elektrod potensiali +222 mV ga teng.

*Kalomel elektrodi.* Bu elektrod idish tagida joylashgan bir necha tomchi simob va maydalangan Hg<sub>2</sub>Cl<sub>2</sub> (kalomel)ning ustida KCl ning to‘yingan eritmasi quylgan sistemadan iborat. Kalomel elektrodning elektrokimyoviy sxemasi quyidagicha yoziladi: Hg | Hg<sub>2</sub>Cl<sub>2</sub> | KCl. Bu elektrodning potensial qiymati ham xlor ionlarining faolligiga (KCl eritmasining konsentratsiyasiga) bog‘liq bo‘lib, +246 mV ga teng.

### Aniqlash elektrodlari

Tashqi muhit komponentlari ta’sirida o‘z potensial qiymatini o‘zgartira oladigan elektrodlarga *aniqlash elektrodlari* deyiladi. Bunday elektrodlarga:

- 1) shisha elektrod;
- 2) xingidron elektrod va boshqalar kiradi.

*Shisha elektrod* – uchi sharsimon tuzilishli diametri 0,01 mm bo‘lgan yupqa shisha naycha bo‘lib, unga 1 mol/l konsentratsiyali HCl solingan. Bu eritmaga sirti AgCl bilan qoplangan kumush elektrodi tushiriladi. Shisha elektrodning potensiali vodorod ionlarining faolligiga bog‘liq bo‘lib, Nernst tenglamasi bilan aniqlanadi.

Shisha elektrod bilan pH ning katta oralig‘ida (pH = 2–12) foydalanish mumkin.

*Xingidron elektrod* – o‘zida ekvimolyar miqdorda xinon ( $C_6H_4O_2$ ) va gidroxinon  $C_6H_4(OH)_2$  saqlagan eritmaga tushirilgan platina simdan iborat. Xinon-gidroxinon sistema redoks (oksidlanish-qaytarilish) sistemaga mansub bo‘lib, xinon – oksidlangan, gidroxinon – qaytarilgan shaklga egadir.

Xingidron elektrod juda qulay bo'lib, uni ham solishtirish, ham aniqlash elektrodi sifatida ishlatish mumkin.

Xingidron elektrod potensiali asosan vodorod ionlarining miqdoriga bog'liq bo'ladi va vodorod ionlarining faolligi 1 mol/l ga teng bo'lganda uning potensialining qiymati 0,7044 mV ga teng. Lekin bu elektrodnинг qo'llashda qator kamchiliklar bor. Birinchidan, bu elektrod faqat  $pH = 8$  bo'lgan holdagini aniq ko'rsatkichlar beradi. Ikkinchidan, sistemada oksidlovchi yoki qaytaruvchi tabiatli moddalar bo'lmagandagina aniq natijalar olish mumkin.

### **Ion selektiv elektrodlar**

Bu elektrodlar potensial qiymatini faqat ma'lum bir ion turlarining ( $\text{Li}^+$ ,  $\text{Na}^+$ ,  $\text{K}^+$ ,  $\text{Ca}^{2+}$ ,  $\text{NH}_4^+$ ,  $\text{Ag}^+$ ,  $\text{Cu}^{2+}$ ,  $\text{S}^{2-}$ ,  $\text{CN}^-$ ) konsentratsiyasiga qarab o'zgartiradi. Ion selektiv elektrodlardan biologik sistemalardagi turli ionlarning miqdorini aniqlashda foydalaniлади.

### **Diffuziya va membrana potentsiallari va ularning biologik ahamiyati**

Turli konsentratsiyali 2 ta eritma o'zaro ulansa, erigan modda diffuziya hisobiga konsentratsiyasi yuqori bo'lgan eritmadan konsentratsiyasi kichik eritmaga o'ta boshlaydi. Bu jarayonda yuqori harakatchanlikga ega bo'lgan zarrachalar harakat tezligi sust bo'lgan zarracha larning oldida joylashib qoladi. Oqibatda quyi konsentratsiyali eritma harakat tezligi yuqori bo'lgan ion zaryad belgisiga, yuqori konsentratsiyali eritma esa nisbatan sust harakatlanadigan ion zaryad belgisiga ega bo'lib qoladi. Eritmalar tutashgan muhitning ma'lum bir qismida diffuziya potensiali vujudga keladi va bu potensial ionlar harakat tezligini tenglashtiradi.

Agar turli konsentratsiyali 2 eritma faqat bir xil o'cham va zaryad qiymatiga ega bo'lgan ion va molekulalarni o'tkazadigan membrana bilan ajratilsa, diffuziya potensiali qiymati keskin ortadi va natijada membrananing 2 tomonidagi muhitlarda zaryadlar farqi kelib chiqadi va bu *membrana potensiali* deyiladi.

Membranalarning musbat va manfiy zaryad qiymatiga ega bo'lishi ular tarkibidagi moddalarning funksional guruhlari tabiatli bilan belgilanadi. Masalan, manfiy zaryadga ega bo'lgan  $\text{COO}^-$  guruhlar saqlanishi ularda manfiy zaryad hosil bo'lishiga,  $\text{NH}_4^+$  membrana sirt yuzasining musbat bo'lishini belgilaydi. Masalan, eritrotsit

membranalaridan faqat anionlar o'ta oladi, kationlar esa maxsus membrana kanalchaliari orqali yoki faol transport orqali tashiladi.

Membrana potensiallari turg'un bo'lib, bir necha oy davomida saqlanadi.

Diffuziya va membrana potensiallari biologik obyektlarda hosil bo'lgani uchun tibbiyotda katta ahamiyat kasb etadi. Hujayralarning tashqi qavati yoki qobig'i buzilishi natijasida ularning tanlanuvchan o'tkazuvchanlik xususiyati buzilib, elektrolitlar konsentratsiyalar farqiga qarab hujayra ichiga yoki hujayradan tashqariga diffuziya hisobiga harakatlanadi. Buning oqibatida diffuziya potensiali hosil bo'ladi. Uning qiymati 30–40 mV ga yetadi. Diffuziya jarayoni tugaganda potensial nolgacha kamayadi. Ko'p hollarda zararlangan to'qima zararlanmagan to'qimaga nisbatan manfiy zaryadlanadi.

Bundan tashqari turli to'qimalar va hujayra organlari kimyoviy tarkibi jihatidan farq qilganligi uchun ular orasida membrana potensiallar ayirmasi yuzaga keladi. Membrananing 2 tomonidagi ionlar konsentratsiyasi o'zgarishi potensiallар ortishi yoki kamayishiga olib keladi.

### **Oksidlanish-qaytarilish (redoks) sistemalar va ularning tibbiyotdagi ahamiyati**

Bir xil ionlarning oksidlangan va qaytarilgan shakllarini saqlagan sistemalar *oksidlanish-qaytarilish* yoki *redoks sistemalar* deyiladi. Bularga  $Fe^{3+}$  va  $Fe^{2+}$ ,  $Cu^{2+}$  va  $Cu^+$ ,  $Co^{3+}$  va  $Co^{2+}$  ion juftlaridan iborat sistemalar kiradi.

Redoks sistemalarda oksidlangan hamda qaytarilgan shakllar miqdori o'zaro tenglashishga intiladi. Natijada inert elektrodlar – platina yoki oltin bilan elektron almashinuvi jarayoni orqali ta'sirlashadi.

Agar sistemada oksidlangan shaklning nisbiy miqdori ortsas, bu holda elektrod elektron beradi, ya'ni qaytarilish jarayoni boradi. Natijada sistemada oksidlangan shaklning miqdori kamayib, qaytarilgan ionlar miqdori ortadi. Elektrod esa musbat zaryadlanadi. Sistemadagi qaytarilgan ionlar nisbiy miqdori ko'p bo'lsa, elektrod sistemadan (qaytarilgan shakldagi ionlardan) elektron qabul qiladi. Bu esa oksidlangan ionlar miqdorining ortishiga va elektrodnинг manfiy zaryadlanishiga olib keladi.

Ikkala holda ham elektrodlar bevosita kimyoviy jarayonda ishtirok etmaydi, ular faqat elektron o'tkazgich vazifasini bajaradi. Bu jarayonda elektrodlarda potensiallар ayirmasi yuzaga keladi va bu potensial *redoks potensial* deyiladi. Redoks potensial Piters tenglamasi bilan aniqlanadi:

$$E = E^0 + \frac{RT}{nF} \ln \frac{c_{\text{(oksidlangan)}}}{c_{\text{(qaytarilgan)}}},$$

bu yerda:  $E^0$  – normal redoks potensial;  $n$  – zarrachaning oksidlanishi yoki qaytarilishi uchun sarf bo‘lgan elektronlar soni;  $c_{\text{(oksidlangan)}}$  va  $c_{\text{(qaytarilgan)}}$  – oksidlangan yoki qaytarilgan shakllarning konsentratsiyasi (faolligi);  $T$  – absolut temperatura;  $F$  – Faradey soni,  $96500 \text{ Cu/mol}$ ;  $R$  – universal gaz doimiysi,  $8,31 \text{ J} \cdot \text{kPa/mol} \cdot \text{K}$ .

$F$  va  $R$  larning qiymatini qo‘yib natural logarifmdan o‘nli logarifmga o‘tilsa quyidagi tenglama kelib chiqadi:

$$E = E^0 + \frac{0,0591}{n} \lg \frac{c_{\text{(oksidlangan)}}}{c_{\text{(qaytarilgan)}}}.$$

Agar elektrod oksidlangan va qaytarilgan shakllari teng eritmaga tushirilsa hosil bo‘lgan potensial *normal redoks potensial* ( $E^0$ ) deyiladi.

Oksidlanish-qaytarilish potensiallari odam fiziologiyasida katta ahamiyat kasb etadi. Ular qatoriga qon va to‘qimalar tarkibidagi 2 va 3 valentli temir saqlagan gem/gematin va sitoxrom, oksidlangan va qaytarilgan shakldagi askorbin kislota, sistin-sistein aminokislotalar va boshqalar kiradi.

## Eritmalar pH ini potensiometrik aniqlash

Potensiometrik titrlash usuli galvanik elementlarning elektr yurituvchi kuchini (EYUK) aniqlashga asoslangan. Potensiometrik usul bilan turli biologik sistemalardagi ionlarning miqdori va redoks jarayonlarning potensial qiymatlari, biologik suyuqliklarning  $pH$  qiymati aniqlanadi.

Sistemaning EYUK oksidlanish-qaytarilish reaksiyasida sistemaning redoks potensiali o‘zgarishi hisobiga o‘zgaradi, kislota-asosli reaksiya yoki cho‘kma hosil bo‘lishi bilan boradigan reaksiyalarda ionlar konsentratsiyasi o‘zgarishi hisobiga o‘zgaradi. Masalan, kislotani ishqor bilan titrlashda vodorod ionlarining konsentratsiyasi asta-sekin kamayadi, ekvivalent nuqtada esa keskin kamayib, so‘ng yana sekin o‘zgaradi. Sistemaning EYUK ham shunga mos ravishda o‘zgaradi.

Eritmalarning  $pH$  qiymatini aniqlash – analiz qilinayotgan eritmaga aniqlash elektrodi tushirilib uning potensial qiymati  $pH$  ga bog‘liqligini solishtirishga asoslangan. Sistemaning potensial qiymati aniqlash elektrodi va potensial qiymati ma’lum elektrod (normal vodorod, kalomel) dan tuzilgan zanjirning EYUK bo‘yicha aniqlanadi.

Potensiometrik titrlashda o'lchovchi va solishtiruvchi elektrodlarning potensiallari farqi bilan qo'shilayotgan ishchi eritmaning hajmi o'rtasidagi bog'lanish kuzatiladi.

Eritmalarning  $pH$  qiymatini potensiometrik usulda aniqlash kimyoviy va biokimyoviy laboratoriyalarda katta ahamiyat kasb etadi.

Bu usul bilan loyqa, rangli, indikatorlar yordamida ekvivalent nuqtani aniqlash qiyin bo'lgan, ko'p jinsli, kichik konsentratsiyali kuchsiz elektrolit tutgan bilogik suyuqliklarning  $pH$  qiymati aniqlanadi.

Keyingi vaqtda eritmalarining  $pH$  qiymati EYUK ni kompensatsion usulda aniqlash prinsipiiga asoslangan yarimavtomat va avtomat  $pH$  metrlar yordamida amalga oshadi.

### **Mavzu bo'yicha masalalar va ularni yechish namunaları**

**1- masala.** Vodorod elektrodining potensiali  $-0,082$  V ga teng. Ushbu eritmadagi  $H^+$  ionlarining konsentratsiyasini aniqlang.

**Yechish.**  $\varphi = -0,059 p a_{H^+}$  tenglamasi bo'yicha:

$$p a_{H^+} = -\frac{\varphi}{0,059} = \frac{0,082}{0,059} = 1,39 .$$

Bundan kelib chiqadiki:

$$\begin{aligned} -\lg a_{H^+} &= 1,39; \quad -\lg a_{H^+} = -\lg 0,041 = 2,6; \\ a_{H^+} &= 0,041 \text{ mol/l}. \end{aligned}$$

*Javob:*  $a_{H^+} = 0,041 \text{ mol/l}; \quad -\lg a_{H^+} = -\lg 0,041 = 2,6;$

**2- masala.** Ag/AgNO<sub>3</sub> (0,001M)//AgNO<sub>3</sub>(0,1M)/Ag galvanik elementining EYUK ni aniqlang. Bu element ishlaganda tashqi zanjirdagi elektronlar qaysi tomonga qarab harakatlanadi?

**Yechish.** Ag<sup>+</sup>/Ag sistemaning standart elektrod potensiali +0,80 mV ga teng. Chap elektrodning potensiali  $\varphi_1$ , o'ng eletrodniki esa  $\varphi_2$ , demak ular orqali:

$$\varphi_1 = 0,80 + 0,059 \cdot \lg 0,001 = 0,80 + 0,059 \cdot (-3) = 0,62 \text{ mV},$$

$$\varphi_2 = 0,80 + 0,059 \cdot \lg 0,1 = 0,80 + 0,059 = 0,74 \text{ mV}.$$

Elementning EYUK si:

$$E = \varphi_1 - \varphi_2 = 0,74 - 0,62 = 0,12 \text{ mV}.$$

$\varphi_1 < \varphi_2$  bo'lganligi uchun, chap elektrod elementni manfiy qutbi bo'lib, elektronlar tashqi zanjirda chap elektroddan o'ng elektrodga qarab harakat qiladilar.

### **Mavzuning o'zlashtirilishini mustaqil nazorat qilish uchun savol va masalalar**

1. Elektrod deb nimaga aytildi va uning qanday turlari mavjud?
2. Biologik hodisalarda redoks potensialning ahamiyatini tushuntirib bering.
3. Oksidlanish-qaytarilish potensialining hosil bo'lish mexanizmini tushuntiring.
4. O'lchovli va solishtirma elektrodlarni izohlab bering.
5. Suyultirilganda redoks potensial o'zgaradimi?
6. Piters tenglamasi va uning fizik ma'nosini tushintiring.
7. Potensiometrik titrlash usulining tibbiyotdagi ahamiyati qanday?

### **Vaziyathi masalalar**


**1- masala.** Tarkibida  $\text{Fe}^{3+}$  va  $\text{Fe}^{2+}$  ionlari bo'lgan eritmaga platina elektrodi tushirilganda uning potensiali 298 K da 0, 783 V ga teng. Bu eritmadagi temir ionlarining konsentratsiyalar nisbatini aniqlang.

*Javob:* eritmadagi  $\text{Fe}^{3+}$  ionlarining miqdori  $\text{Fe}^{2+}$ ga nisbatan 1,6 marta ko'p.

### **Test savollari**

1. Solishtirish elektrodini ko'rsating:
  - a) vodorod elektrod;
  - b) shisha elektrod;
  - c) ion-selektiv elektrod;
  - d) kalomel elektrod;
  - e) xingidron elektrod.
2. Aniqlash elektrodini ko'rsating.
  - a) vodorod elektrod;
  - b) shisha elektrod;
  - c) ion-selektiv elektrod;
  - d) kalomel elektrod;
  - e) xingidron elektrod.
3. Galvanik elementlarning EYUK ini aniqlash qaysi usul asosini tashkil qiladi?
  - a) elektroosmos;
  - b) potensiometriya;
  - c) oksidimetriya;
  - d) xromatografiya;
  - e) ion-selektiv elektrod.
4. Quyidagi oksidlanish-qaytarilish jarayonining sxemasini ko'rsating:
$$\text{Fe} + \text{Cd}(\text{NO}_3)_2 \rightarrow \text{Fe}(\text{NO}_3)_2 + \text{Cd}$$
  - a)  $\text{Fe}/\text{Fe}(\text{NO}_3)_2/\text{KCl}/\text{Cd}(\text{NO}_3)_2/\text{Cd}$
  - b)  $\text{Cd}/\text{Cd}(\text{NO}_3)_2/\text{KCl}/\text{Fe}(\text{NO}_3)_2$
  - c)  $\text{Fe}/\text{Cd}(\text{NO}_3)_2/\text{KCl}/\text{Cd}/\text{Fe}(\text{NO}_3)_2$
  - d)  $\text{Cd}(\text{NO}_3)_2/\text{Fe}(\text{NO}_3)_2/\text{KCl}/\text{Cd}/\text{Fe}$
  - e)  $\text{Cd}(\text{NO}_3)_2/\text{Fe}(\text{NO}_3)_2/\text{KCl}/\text{Cd}/\text{Fe}$

5. Quyidagi oksidlanish qaytarilish jarayonining sxemasini ko'rsating:



- a)  $\text{Fe}^0/\text{Fe}^{2+}/\text{KCl}/\text{Zn}^{2+}/\text{Zn}^0$
- b)  $\text{Zn}^0/\text{Fe}^{2+}/\text{KCl}/\text{Zn}^{2+}/\text{Fe}^0$
- v)  $\text{Zn}^{2+}/\text{Zn}^0/\text{KCl}/\text{Fe}^{2+}/\text{Fe}^0$
- g)  $\text{Fe}^0/\text{Fe}^{2+}/\text{KCl}/\text{Zn}^0/\text{Zn}^{2+}$

6. Qaysi biologik sistemaning elektr o'tkazuvchanligi eng kichik?

- a) yurak;
- b) qon;
- d) teri;
- e) jigar.

7. Konsentratsion element qanday tuzilgan?

- a) 2 ta bir xil elektroldardan;
- b)  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasiga tushirilgan 2 ta bir xil elektroddan;
- d) o'z tuzining eritmasiga tushirilgan 2 ta bir xil elektroddan;
- e) o'z tuzining turli konsentratsiyali eritmasiga tushirilgan 2 ta bir xil elektroddan.

8. Diagnostik usullardan biri elektrokardiografiya asosida qaysi kattaliklarni aniqlanishi yotadi:

- |                 |                            |
|-----------------|----------------------------|
| a) bosim;       | d) biopotensial;           |
| b) temperatura; | e) elektr o'tkazuvchanlik. |

9. Ham kation, ham anion bo'yicha qaytar elektrodnini ko'rsating:

- |                            |                         |
|----------------------------|-------------------------|
| a) solishtirish elektrodi; | d) normal elektrod;     |
| b) ion-selektiv elektrodi; | e) indikator elektrodi. |

10. Kumush xlorli elektrodnining elektrokimyoviy sxemasini ko'rsating.

- |   |  |
|---|--|
| a) $\text{Ag}/\text{AgCl}; \text{KCl};$     | d) $\text{Hg}/\text{Hg}_2\text{Cl}_2; \text{KCl};$ |
| b) $\text{AgCl}/\text{AgNO}_3; \text{KCl};$ | e) $\text{Ag}/\text{AgNO}_3;\text{HNO}_3;$         |

### LABORATORIYA ISHI

#### Potensiometriya usuli bilan biologik suyuqliqlarning *pH* ini aniqlash

Analiz *pH* metrda bajariladi.

**1- tajriba.** Stakanni 2 marta analiz gilinayotgan siydiq bilan chayiladi va ma'lum hajmda siydiq solinadi. Unga elektrodlar tushirilib siydiqning taxminiy *pH* qiymati aniqlanadi. Buning uchun *pH* metr-

ning  $pH = 1-19$  klavishi bosiladi. Keyin  $pH$  ning aniq qiymatini bilish uchun kerakli diapozon klavishi bosiladi. Analiz tugagandan keyin asbob o'chiriladi, elektrod distillangan suvga solib qo'yiladi. Analiz natijalari asosida diagnoz qo'yiladi.

**2- tajriba.** Analiz uchun 3 ta stakanga me'da shirasi solinadi va ularni  $pH$  qiymati yuqorida bajarilgan analiz kabi aniqlanadi. Analiz qilingan me'da shirasining  $pH$  qiymati asosida diagnoz qo'yiladi. HCl konsentratsiyasi normada, giperxlorgidriya yoki gipoxlorgidriya ekani haqida xulosa chiqariladi.

Ma'lumki, me'da shirasining kislotaligi oshganda bemorga  $\text{NaHCO}_3$  istemol qilish, kislotaliligi kamayganda esa askorbin kislota tavsya qilinadi. Elektrodlarni stakandan olmay turib kislotaliligi kam me'da shirasi solingan stakanga askorbin kislota, kislotaligi oshgan me'da shirasiga  $\text{NaHCO}_3$  solib siydikning  $pH$  qiymati normaga kelishi aniqlanadi.

**3- tajriba.** Stakandagi qon zardobiga qon qo'shib, uning  $pH$  qiymati yuqorida bajarilgan analiz kabi aniqlanadi. Keyin HCl eritmasi qo'shiladi.  $pH$  ning qaysi qiymatida kimyoiviy gemoliz hodisasi yuz beradi? Xulosa qilinadi. Xuddi shunday tajribani NaOH eritmasi bilan ham o'tkaziladi.

## KIMYOVIV TERMODINAMIKA VA TERMOKIMYO ASOSLARI

**Mashg'ulotning maqsadi.** Neytrallanish reaksiyasining issiqlik effekti miqdorini termodinamika qonunlari asosida aniqlashni o'rGANISH.

**O'rGANILAYOTGAN MAVZUNING AHAMIYATI.** Tirik organizmlar termodynamikasi organizmlarda energiyaning aylanish (bir turdan ikkinchisiga o'tish) jarayonlarini o'rGANADI. Bu energiya ish bajarish, tana temperaturasini saqlab turish, organizmda biokimyoiviy reaksiyalarining borishi uchun zarur. Odam va hayvonlar hayoti uchun asosiy issiqlik manbai uglevoddir, yog' va oqsillar rezerv issiqlik rolini o'ynaydi. Ularning oksidlanishi natijasida ro'y bergan ekzotermik reaksiya tufayli hujayralarda hayot uchun zarur bo'lgan energiya ajralib chiqadi. Odam oziq-ovqat orqali uglevod, yog', oqsillar va boshqa oziq mahsulotlarni iste'mol qiladi. Organizmning energiya sarfi bilan oziq mahsulotlardan energiya jamg'armasi orasida bog'lanish mavjudligi biokimyoiviy reaksiyalar energetikasini o'rGANISH AHAMIYATINI belgilaydi. Bu oziq mahsulotlardan energiya hosil bo'lish mexanizmini tushunish uchun zarurdir.

Sog‘lom va kasal hujayralar energetikasi va ularning rivojlanishini kuzatib turish ba’zi kasalliklar, masalan, saraton kasalligining boshlang‘ich diagnostikasini ishlab chiqishga imkon beradi. Oziq-ovqat mahsulotlarining energetik imkoniyatlarini aniqlash turli mehnat sharoitlaridagi kishilar uchun zarur ovqat ratsionlarini belgilash imkonini beradi.

### **Boshlang‘ich bilim darajasi:**

1. Ekzotermik va endotermik reaksiyalar.
2. Reaksiyaning issiqlik effekti.
3. Reaksiyaning termokimyoviy tenglamalari.

### **Mustaqil tayyorlanish uchun o‘quv adabiyotlar:**

1. *N.L.Glinka.* Umumiy ximiya. T., 1968. 76- bet.
2. *Sh.R.Rahimov.* Anorganik ximiya. T., 1974, 56- bet.
3. *X.U.Usmonov, X.R.Rustamov, X.R.Rahimov.* Fizikaviy ximiya. T., 113- bet.
4. *С.С.Оленин, Г.Н.Фадеев.* Неорганическая химия. М., 1979, 26- bet.
5. *A.B.Бабков, Г.Н.Горшкова, А.М.Кононов.* Практикум по общей химии с элементами количественного анализа. М., 1978, 51- bet.
6. *А.С.Ленский.* Введение в бионеорганическую химию. М., 1989.
7. *X.H.Hakimov, A.Z.Tatarskaya, N.T.Olimxo‘jayeva.* Umumiy kimyodan amaliy mashg‘ulotlar. T., 1993, 146–154- betlar.

### **Darsda ko‘riladigan savollar:**

1. Organizmda energiya va moddalar almashinuvining o‘zaro bog‘liqligi.
2. Termodynamikaning asosiy tushunchalari.
  - 2.1. Sistema va uning turlari.
  - 2.2. Sistemaning parametri.
  - 2.3. Sistemaning ichki energiyasi.
  - 2.4. Izobarik, izotermik potensial.
3. Termodynamikaning birinchi qonuni.
4. Termokimyoviy hisoblar. Gess qonuni.
5. Kimyoviy birikmalar hosil bo‘lish issiqligi.
6. Entalpiya.
7. Termodynamikaning ikkinchi qonuni.
8. Termodynamika va tirik organizmda kechadigan jarayonlar.

## MA'LUMOTLAR YIG'INDISI

Organizmda boradigan moddalar almashinuvi jarayoni muhim kimiyoiy birikmalar strukturalarining buzilishi va natijada energiya ajralishi bilan kuzatiladi.

Odam organizmi taraqqiy etishining boshlang'ich darajasida (yoshlik, bolalik) har qanday tirik organizmdagidek assimilyatsiya jarayonining o'tishi intensivligi dissimilyatsiya jarayonidan ustunroqdir. Qarilik yaqinlashishi bilan dissimilyatsiya jarayonlari ustun bo'lib, organizmdagi potensial energiya zahirasi asta-sekin kamayib boradi.

Energiyaning almashinish va saqlanish qonuni ochilishi bilan energiyadan bir turdan ikkinchisiga o'tishini o'rganish alohida fanga aylandi, bu fan *termodinamika* deb ataladi.

*Termodinamika* – kimiyoiy va fizik-kimiyoiy hodisalarini o'rghanishda termodinamika usullari va qonuniyatlarini qo'llaydigan fan. Uning eng asosiy masalalaridan biri individual moddalarning termodinamik konstantalarini eksperimental yo'l bilan aniqlashdir. Bular yordamida har qanday fizik-kimiyoiy, biokimyoiy jarayonlarning amalga oshish imkoniyatlarini oldindan aytib berish, ularning o'tish chegaralarini aniqlash mumkin.

Tirik organizmda kechadigan katta kimiyoiy energiyaga ega bo'lgan yoqori molekular moddalarning hosil bo'lishi, yig'ilishi (anabolizm) va parchalanishi hisobiga energiya ajralib chiqishi (katabolizm) jarayonlarida ro'y beradigan energiya o'zgarishini o'rganadigan fan – *bioenergetika* deyiladi.

### **Termodinamikaning asosiy tushunchalari**

Termodinamikaning vazifasi – turli sistemalarning xossalariini va ularda borayotgan jarayonlarni, ya'ni ish, issiqlik va energiyadan hamma turlarining o'zaro aylanish miqdoriy qonuniyatlarini o'rghanishdan iborat. Boshqacha qilib aytganda, termodinamika – kimiyoiy jarayonlarda bir turdag'i energiyani boshqa turdag'i energiyaga aylantirish yo'llarini, usullarini o'rganadigan fandir.

Termodinamikada qo'llanadigan boshlang'ich tushunchalar bilan tanishamiz.

*Sistema* deb tashqi muhitdan amalda yoki fikran ajratib olingan va o'zaro ta'sir etib turadigan modda yoki moddalar guruhiga aytildi. Masalan, idishdag'i gaz, odam organizmi yoki organi, hujayra va hokazo.

Sistema atrofidagi moddalar – tashqi muhitni tashkil qiladi.

Sistemalar 3 turga bo'linadi:

1. **Ochiq sistemalar** – bunda sistema bilan tashqi muhit o'rtasida o'zaro modda va energiya almashish imkoniyati bo'ladi. Bularga – tirik organizm, hujayra, biror organ kiradi.

2. **Yopiq sistemalar** – bunda sistema bilan tashqi muhit o'rtasida o'zaro faqat energiya almashishi mumkin. Moddalar almashmaydi. Masalan, muzlatgich, isituvchilar.

3. **Izolatsiyalangan sistemalar** – bunda sistema va tashqi muhit energiya bilan ham, modda bilan ham o'zaro almashmaydi. Bu o'zgarmas hajmga ega sistemadir.

Termodinamikada qo'llanadigan tushunchaning yana biri fazadir.

*Faza* – geterogen sistemadagi bir xil tarkibga va bir xil termodynamik hamda fizik-kimyoviy xossalarga ega bo'lgan, o'zaro aniq sirt chegarasi bilan ajralgan sistemaning tarkibiy qismlarning yig'inidisidir.

*Gomogen sistema* – bir fazali, *geterogen sistema* – ikki va undan ortiq fazali sistemadir, demak, geterogen sistemaning gomogen qismlari fazalardir.

Agar suvg'a solingan tuz to'liq erisa – 1 fazali sistema. Suv o'z bug'i bilan muvozanatda bo'lsa – bu 2 fazadan (suyuq va bug' holat-dagi suv) iborat sistema bo'ladi. Bug' – suv – muz bo'lakchalari saqlagan sistema – 3 fazali sistemadir. Quruq tuz – 1 fazali sistema.

Sistemaning holatlarini ifodalaydigan sonlar *parametrlar* deyiladi. Bularga bosim, hajm, temperatura, energiya, modda miqdori va hokazolar kiradi. Masalan, sog'lom va kasal odamning holatini temperatura, bosim, biologik suyuqliklarning kimyoviy tarkibi va hokazo parametrlar ifodalaydi.

Sistema holatining vaqt o'tishi bilan o'zgarishi – *termodinamik hodisa* deyiladi. Masalan, odamning kasalligi – termodinamik hodisadir, chunki bu holatda odam organizmida temperatura, bosim, biologik suyuqliklarning kimyoviy tarkibi (siydk, qon, me'da shirasi va hokazo), organizm vazni va boshqa parametrlar o'zgaradi.

O'zgarmas temperaturada o'tadigan jarayon – *izotermik jarayon* deyiladi. Bunday jarayon asosan termostatda boradi.

O'zgarmas bosimda boradigan jarayon – *izobarik jarayon* deyiladi. Bularga atmosfera bosimida o'tadigan jarayonlar misol bo'ladi.

O'zgarmas hajmda o'tadigan jarayonlar – *izoxorik jarayon* deyiladi. Bularga yopiq idishda o'tadigan jarayonlar kiradi.

Masalan, odam organizmida jarayonlar o'zgarmas temperatura va bosimda o'tadi.

Ko'pincha sistemaning holati o'zgaruvchan parametrlar bilan ifodalanadi. O'zgaruvchan parametrlar bu temperatura, vazn, energiya va hokazo.

Bularning asosida sistemaning holati va undagi o'zgarishlarni tavsiflaydigan, boshqa o'zgaruvchan parametrlar yuritiladi.

Termodinamikada eng ko'p ishlatiladigan funksiyalar quyidagilar:

1. Ichki energiya –  $U$ .

2. Entalpiya –  $H$ .

3. Entropiya –  $S$ .

4. Izobarik izotermik potentsial –  $Y$  va boshqalar.

1. *Ichki energiya*  $U$  termodinamik sistemaning eng asosiy tavsifiy funksiyasidan biridir. Ichki energiya – molekula harakati, atom va atomlar guruhining tebranma harakat energiyasi, yadro energiyasi va boshqa turdag'i energiyalarning yig'indisidir. Kinetik va potensial energiyalar ichki energiyaga kirmaydi. Bu tur energiyalarning jami (ichki, kinetik, potensial) sistemaning umumiy energiyasini tashkil qiladi.


Ichki energiyaning absolut kattaligini o'lchab bo'lmaydi. Tajribada sistema bir holatdan ikkinchi holatga o'tganda, uning ichki energiyasining o'zgarishini kuzatish va o'lhash mumkin. Moddaning dastlabki holatidagi ichki energiya  $U_1$ , oxirgi holatidagisi  $U_2$  bo'lsa, ichki energiyaning o'zgarishi  $\Delta U$  quyidagiga teng:

$$\Delta U = U_2 - U_1.$$

Ichki energiyaning o'zgarishi sistemaning boshlang'ich va ohirgi holatiga bog'liq bo'lib, sistema bir holatdan ikkinchi holatga qanday yol bilan o'tganiga bog'liq emas.

Termodinamikada muhim funksional tavsiflardan biri entalpiya yoki issiqlik saqlami tushunchasidir. Buni tushinish uchun quydagilarni ko'rib chiqamiz.

Masalan, izobarik, ya'ni  $P = \text{const}$ ,  $P_1 = P_2$  jarayonda sirtdan ta'sir etilgan issiqlik ( $Q$ ) ta'sirida sistema 1- holatdan 2- holatga o'tadi (19- rasm).



**19- rasm.** Sistema ichki energiyasining o'zgarishi.

Sistemaga ta'sir etilgan issiqlik ichki energiya o'zgarishi va sistema tashqi kuchlariga qarshi bajarilgan ishga ( $A$ ) sarflanadi, ya'ni silindr isitiladi va porshen ko'tariladi:

$$Q = \Delta U + A, \quad (1)$$

bu yerda:  $\Delta U$  – ichki energiyaning o'zgarishi;  $A$  – porshen ko'tarilishi uchun sarflangan ish;  $Q$  – sistemaga ta'sir etilgan issiqlik miqdori.

Yuqorida ko'rsatilgan tenglama energiyaning saqlanish qonunini ifodalab, *termodinamika birinchi qonuning* matematik ifodasidir. U quyidagicha ta'riflanadi: *energiya yo'qolmaydi va yo'qdan bor bo'lmaydi, u faqat ekvivalent nisbatda bir turdan ikkinchi turga aylanadi*. Bu qonunni XVIII asrda rus olimi M.V.Lomonosov kashf etgan.

Termodinamikaning birinchi qonunidan quyidagi xulosalar chiqadi:

1. Issiqlik sarflanmasdan ish bajarib bo'lmaydi yoki ajratilgan sistemada barcha turdag'i energiyalar yig'indisi o'zgarmas qiymatga ega.

2. Energiya sarflanmasdan abadiy ishlaydigan mashina qurib bo'lmaydi.

3. Energiya yo'qdan bor bo'lmaydi va bordan yo'q bo'lmaydi, u faqat bir turdan ikkinchi turga aylanadi.

Entalpiya ichki energiya bilan hajmning bosimga ko'paytmasi yig'indisiga teng:

$$H = \Delta U + p\Delta V. \quad (2)$$

Entalpiyaning absolyut qiymatini aniqlab bo'lmaydi. Termodynamik hisoblashlarda sistema holatining o'zgarishi, ya'ni  $\Delta H$  dan foydalilanildi:

$$\Delta H = H_2 - H_1$$

Bu holda (2) tenglama quyidagicha yoziladi:

$$\Delta H = \Delta U + p\Delta V. \quad (3)$$

$\Delta H$  – issiqlik saqlami deyiladi.

Entalpiyaning o'lchov birligi – kJ/mol.

Reaksiyalarning issiqlik effekti aniqlanganda entalpiya va ichki energiyaning absolyut miqdori emas, balki sistemaning holat o'zgarishi, ya'ni  $\Delta H$  va  $\Delta U$  olinadi.


Ekzotermik reaksiyalarda issiqlik ajraladi, ya'ni sistemaning entalpiyasi va ichki energiyasi kamayadi. Shuning uchun bunday reaksiyalar uchun  $\Delta H$  va  $\Delta U$  manfiy sonlardir.

Endotermik reaksiyalarda issiqlik yutiladi, sistemaning entalpiyasi va ichki energiyasi oshadi, shuning uchun  $\Delta H$  va  $\Delta U$  musbat ishoralidir.

Har xil jarayonlarning issiqlik effektini solishtirish imkoniyati bo‘lishi uchun, termokimyoviy hisoblarni odatda dastlabki moddalarni va reaksiya mahsulotini 1 molekulasiga va standart deb olingan sharoitga (1 atm yoki 101,325 kPa bosim, 25 °C yoki 298 K temperatura) moslashtiriladi. Sistemaning standart issiqlik effekti quyidagicha ifodalanadi:  $\Delta H^0 = 298$ .

Reaksiyaning issiqlik effekti ko‘rsatilgan kimyoviy tenglamalar *termokimyoviy tenglamalar* deyiladi.

Termokimyoviy tenglamalarda reaksiyaga kirishgan boshlang‘ich moddalar va reaksiya mahsulotlarining agregat holatlari ko‘rsatiladi: gaz (g), suyuqlik (s), kristall (kr), qattiq modda (q), eritilgan (e) va hokazo.



### **Termokimyoviy hisoblar. Gess qonuni**



Gess qonunini *Lavuazye–Laplas qonunining davomi sifatida qaralishi mumkin* *Lavuazye–Laplas qonuni* quyidagicha ta’riflanadi: *modda hosil bo‘lishidagi ajraladigan yoki yutiladigan issiqlik miqdori shu moddaning parchalanishidagi yutiladigan yoki ajraladigan issiqlik miqdoriga teng bo‘ladi*.



Termokimyoviy hisoblar 1840-yilda G.I.Gess tomonidan kasf etilgan qonunga asoslangan.

*Gess qonuni* quyidagicha ta’riflanadi: *agar dastlabki moddalardan oxirgi moddalar turli yo‘llar bilan olinishi mumkin bo‘lsa, bu yo‘llarda qanday oraliq reaksiyalar bo‘lishidan qat‘iy nazar, reaksiyaning umumiy issiqlik effekti har bir yo‘l uchun bir xil qiymatga ega va oraliq reaksiyalar issiqlik effektlarining yig‘indisiga teng*. Ya’ni kimyoviy reaksiyalarning issiqlik effekti dastlabki va ohirgi moddalar holati bilan tarkibiga bog‘liq bo‘lib, reaksiyani amalga oshirilgan yo‘lga bog‘liq emas.

Gess qonunini ahamiyati shundan iboratki, bu qonunga asoslanib, oxirigacha bormaydigan yoki amalga oshirish mumkin bo‘lmagan reaksiyaning issiqlik effektini topish mumkin.


Masalan, ko‘mir va CO ni to‘la yondirib, CO<sub>2</sub> olish. Bu reaksiyaning issiqlik effektini tajribada topish mumkin:





$$\begin{aligned} \Delta H_{1298}^0 &= \Delta H_{2298}^0 + \Delta H_{3298}^0 = \\ &= 114,54 \text{ kJ/mol} + 284,46 \text{ kJ/mol} = 396,0 \text{ kJ/mol}. \end{aligned}$$

Ammo ko'mirni yondirish yo'li bilan toza CO olib bo'lmaydi, bunda qisman CO<sub>2</sub> ham hosil bo'ladi. Demak, tajribada kalorimetrik yordamida



reaksiyasining  $\Delta H$  qiymatini topib bo'lmaydi, uni faqat Gess qonuni asosida aniqlash mumkin. Gess qonuni kimyoviy reaksiyalarni amalda bajarmasdan ham, uning issiqlik samarasini hisoblab chiqarishga imkon beradi.

Gess qonuni faqat o'zgarmas bosim yoki o'zgarmas hajmdagina o'z kuchini saqlab qoladi.

### **Kimyoviy birikmalarning hosil bo'lish issiqligi (entalpiyasi)**

Oddiy moddalardan (elementlardan) birikma hosil bo'lishida chiqadigan yoki yutiladigan issiqlik miqdori birikmalarning hosil bo'lish issiqligi deyiladi.

Birikmalarning hosil bo'lishi standart issiqligi  $\Delta H^\circ$  bilan ifodalanadi. Standart sharoitda barqaror bo'lgan oddiy moddalarning hosil bo'lish issiqligini (grafit, rombik oltingugurt, suyuq brom, kristall y'od, oq fosfor) no'lga teng deb qabul qilinadi.

Hozir taxminan 4 mingga yaqin moddaning hosil bo'lish issiqligi aniqlangan. Bu esa turli tuman reaksiyalarning issiqlik effektini hisoblash mumkinligini bildiradi. Bularni hisoblash, Gess qonunidan kelib chiqadigan birinchi hulosaga asoslanadi: har qanday reaksiyaning issiqlik effekti reaksiya mahsulotlarining hosil bo'lish issiqliklari yig'indisidan reaksiya uchun olingan dastlabki moddalarning hosil bo'lish issiqliklari yig'indisi ayirmasiga teng.


Gess qonunidan kelib chiqadigan ikkinchi xulosa: *organik moddalarning hosil bo'lish issiqlik effekti (standart entalpiyasi) shu modda olinishi mumkin bo'igan oddiy moddalarning yonish issiqlik effektlari yig'indilari bilan aynan shu organik moddaning yonish issiqlik effekti ayirmasidan qolgan son qiymatiga teng*.

Bunda oddiy modda deganda shu organik modda tarkibiga kiradigan elementlarning individual holati nazarda tutiladi.

Masalan  $C_2H_5OH$  hosil bo‘lishining standart entalpiyasi quyidagicha hisoblanadi:

Suyuq  $C_2H_5OH$  ning yonish standart entalpiyasi  $\Delta H_{\text{yonish}}^0 = 1368,5 \text{ kJ/mol}$ .

$C(\text{gr})$  va  $O_2(\text{g})$  ning yonish standart entalpiylari  $\Delta H_{\text{yonish}}^0$  mos ravishda 393,78 va 286,02 kJ/molga tengligi aniq bo‘lsa,



reaksiya bo‘yicha spirt hosil bo‘lish standart entalpiyasi quyidagiga teng bo‘ladi:


$$\begin{aligned} \Delta H_{298}^0 &= 2 \Delta H_{298}^0 C(\text{gr}) + 3 \Delta H_{298}^0 H_2(\text{g}) - \Delta H_{298}^0 C_2H_5OH(\text{s})_{\text{yonish}} = \\ &= [(-2 \cdot 393,78) + (-3 \cdot 286,02)] - [(-1368,5)] = -277,12 \text{ kJ/mol} \end{aligned}$$

ga teng.

Demak,  $C_2H_5OH$  ning hosil bo‘lish standart entalpiyasi  $-277,12 \text{ kJ/mol}$ .

Organik moddalarning sintezi, ko‘p hollarda, murakkab jarayondir. Organik moddalarning *yonish standart entalpiyasi* deb dastlabki va so‘nggi moddalar standart holatda bo‘lganda 1 mol modda yongan-dagi entalpiyasi o‘zgarishiga aytildi.

Masalan, glukozaning oksidlanishi natijasida ajralib chiqadigan energiya miqdorini bevosita odam organizmida o‘lchab bolmaydi, reaksiyaning issiqlik effekti quyidagicha aniqlanadi:



$$\begin{aligned} \Delta H_{\text{sist}}^0 [6 \Delta H_{298}^0 (CO_2 \text{ h-l b-sh}) + 6 \Delta H_{298}^0 (H_2O \text{ h-l b-sh})] - \\ - [\Delta H_{298}^0 (C_6H_{12}O_6 \text{ h-l b-sh}) + 6 \Delta H_{298}^0 (O_2 \text{ h-l b-sh})] = \\ = [6(-393,51 \text{ kJ/mol}) + 6(-285,84 \text{ kJ/mol})] - [(-1274,45 \text{ kJ/mol}) + \\ + 6(0 \text{ kJ/mol})] = -2801,69 \text{ kJ/mol}, \end{aligned}$$

$$\Delta H_{298}^0 CO_2(\text{g}) \text{ h-l b-sh} = -393,51 \text{ kJ/mol},$$

$$\Delta H_{298}^0 H_2O(\text{s}) \text{ h-l b-sh} = -285,84 \text{ kJ/mol},$$

$$\Delta H_{298}^0 C_6H_{12}O_6(\text{q}) \text{ h-l b-sh} = -1274,45 \text{ kJ/mol},$$

$$\Delta H_{298}^0 O_2(\text{g}) \text{ h-l b-sh} = 0,00.$$

Demak, odam organizmidagi glukozaning oksidlanish jarayoni natijasida  $-2801,69 \text{ kJ/mol}$  energiya ajraladi.

Tirik organizmlarda glyukozaning  $\text{CO}_2$  va  $\text{H}_2\text{O}$  gacha oksidlanishi bir qator oraliq fermentativ reaksiyalar orqali o'tadi. Har qaysisida aniq bir energiya ajralib chiqadi va organizmda asta-sekin sarflanadi. Ularning yig'indisi Gess qonuni bo'yicha  $-2801,69 \text{ kJ/mol}$  ga teng. Bu reaksiya bosqichli o'tgani uchun, jarayonning har bir bosqichida ajralib chiqqan energiya hayot uchun sarflanadi.

Termokimyoviy hisoblar yordamida hayvon va o'simliklarda kechadigan reaksiyalarning issiqlik effektini hisoblab chiqish mumkin.

Biroq bu qonun jarayon (hodisa) o'tish o'tmasligini yoki sistemadagi o'zgarishlar qaysi tomonga yo'nalishini ko'rsatmaydi. Bu aniqlash uchun yana bir kattalik kiritish kerak. Bunday kattalik – entropiyadir.

### Entropiya. Termodinamikaning ikkinchi qonuni


Termodinamikaning ikkinchi qonunidan foydalanib, biror jarayonni amalga oshirish uchun qanday sharoit lozimligini aniqlash mumkin. Shuning uchun ham bu qonun amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega.

Bularni amalga oshirish uchun yangi termodinamik kattalik bilan tanishamiz. Bu kattalik entropiyadir.

O'z o'zicha o'tadigan jarayonlar – musbat jarayonlardir.

O'z o'zicha bormaydigan jarayonlar – manfiy jarayonlardir.

2 ta gazdan iborat bo'lgan bir-biri bilan reaksiyaga kirishmaydigan sistemani (masalan, o'zaro to'siq bilan ajratilgan Ar va He gazlari) ko'rib chiqish mumkin (20- rasm).



**20- rasm.** 2 ta gazdan iborat sistema.

To'siqni olib tashlansa, gazlar aralashib idish bo'ylab bir xil tarqaladi. Bu hodisa albatta o'z-o'zidan o'tadi. Sistema ko'proq tartibli holatdan kamroq tartibli holatga o'tadi.

Lekin, teskari hodisa ro'y bermaydi, sistema o'z-o'zidan avvalgi holatga o'tolmaydi, gazlar o'z-o'zidan bir-biridan ajrala olmaydi.

Issiqlik temperaturasi yuqori bo'lgan jismdan temperaturasi pastroq bo'lgan jismga o'z-o'zicha o'tadi va bu jarayon temperatura tenglashguncha davom etadi.

Biroq issiqlik temperaturasi past bo'lgan jismdan, temperaturasi yuqori bo'lgan jismga o'z-o'zidan o'tmaydi (Klauzius). Demak, sistema bu yerda ham yuqori tartiblidan betartib tomonga o'tadi, ya'ni sistema har doim o'z-o'zidan betartib tomonga o'tadi.

Sistemaning tartibini ifodalaydigan kattalik – *entropiya* deb ataladi.


Har qanday harakat tartibning buzilishiga olib keladi va natijada entropiya ortadi. Suyuqlik qattiq jismga nisbatan betartibroq, demak kattaroq entropiyaga ega. Isitlganda suyuqlikning entropiyasi ortadi (ayniqsa gaz holatiga o'tganda).

Jismning betartiblik darajasi gaz holatida suyuq holatidagidan katta va qattiq holatidan yana ham katta:


$$S_{298}^0 \text{H}_2\text{O(q)} = 39,33 \text{ J/mol} \cdot \text{K},$$

$$S_{298}^0 \text{H}_2\text{O(s)} = 69,96 \text{ J/mol} \cdot \text{K},$$

$$S_{298}^0 \text{H}_2\text{O(g)} = 188,74 \text{ J/mol} \cdot \text{K},$$



Zarrachalar soni ortishi bilan boradigan jarayonda entropianing o'zgarishi ortadi,  $\Delta S > 0$  bo'ladi va aksincha, zarrachalarning soni kamaishi bilan boradigan jarayonda entropianing o'zgarishi kamayadi va  $\Delta S < 0$ .



Entropianing absolut qiymatini aniqlab bolmaydi. Entropianing o'zgarishi quyidagi tenglama bo'yicha aniqlanadi:

$$\Delta S = \frac{\Delta H}{T} = \frac{Q}{T}.$$

Ya'ni, entropianing o'zgarishi qaytar jarayondagi issiqlik o'zgarishining shu jarayon o'tkaziladigan absolut temperatura nisbatiga tengdir.

Entalpiyaning termodinamik ta'rifi *termodinamikaning ikkinchi qonuni* bo'lib, quyidagicha o'qiladi: *cheagaralangan sistemada sistema entropiyasini oshiruvchi jarayonlarga o'z-o'zicha boradi va entropiya eng katta qiymatiga ega bo'lguncha davom etadi*.

Demak, agar jarayonda  $\Delta S > 0$  bo'lsa, bu jarayon o'z-o'zicha boradi. Agar  $\Delta S < 0$  bo'lsa jarayon o'z-o'zicha bormaydi.


Entropianing birligi  $\text{J/mol} \cdot \text{K}$  bilan ifodalanadi va aniq bir (standart) sharoit – 25 °C (298,15 K) va 1 atm bosim (101,325 kPa)da ifodalanadi.

Sistema entropiyasining o'zgarishi quyidagicha ifodalanadi:

$$\Delta S_{298}^0 \text{ sist} = \Sigma \Delta S_{298}^0 (\text{r-ya mahs. h-l b-shi}) - \Sigma \Delta S_{298}^0 ((\text{dast. m-da h-l b-shi}))$$

Bu sonning qiymatiga qarab jarayon o'z-o'zicha o'tish-o'tmasligi aniqlanadi.

Glukozaning oksidlanish reaksiyasining entropiyasi o'zgarishi quyidagicha hisoblanadi:



$$S_{298}^0 \text{ CO}_2(\text{g}) \text{ h-l b-sh} = 213,6 \text{ J/mol} \cdot \text{K},$$

$$S_{298}^0 \text{ H}_2\text{O}(\text{s}) \text{ h-l b-sh} = 69,94 \text{ J/mol} \cdot \text{K},$$

$$S_{298}^0 \text{ C}_6\text{H}_{12}\text{O}_6(\text{q}) \text{ h-l b-sh} = 212,13 \text{ J/mol} \cdot \text{K},$$

$$S_{298}^0 \text{ O}_2(\text{g}) \text{ h-l b-sh} = 205,03 \text{ J/mol} \cdot \text{K},$$

ya'ni  $\Delta S > 0$ , demak, bu jarayon o'z-o'zidan boradi.

Har qanday kimyoviy sistemaning barqarorligi, entalpik va entropik omillarga bog'liq. Birinchi omil sistemaning tartibini ifodalaydi va bu jarayon ichki energiya kamayishi bilan o'tganligi uchun, sistemaning barqarorligi ortadi. Ikkinci omil sistemaning betartibligini ifodalaydi, chunki bu holatning termodinamika nuqtayi nazaridan imkoniyati ko'proq. Shu xususiyatlarning yig'indisi, yangi termodinamik funksiya — *Gibbs energiyasi* yoki *izobarik-izotermik potensial* deb ataladi. Izobarik-izotermik jarayonlar uchun Gibbs energiyasini o'zgarishi quyidagiga teng:

$$\Delta G_{298} = \Delta H_{298} - T\Delta S_{298}$$

Bu tenglama termodinamikaning ikkinchi qonunini ifodalaydigan tenglamaning bir turidir.

$\Delta H$  va  $\Delta S$  lar kabi, kimyoviy reaksiya natijasida Gibbs energiyasining o'zgarishi reaksiya mahsulotlarining hosil bo'lishi Gibbs energiyalarining yig'indilaridan dastlabki moddalar hosil bo'lishi Gibbs energiyalari yig'indilarining ayirmasiga teng:

$$\Delta G^0_{\text{sist}} = \Sigma \Delta G_{298}^0 \text{ (r-ya mahs. h-l b-shi)} - \Sigma \Delta G_{298}^0 \text{ (dast. m-da h-l b-shi)}$$

O'zgarmas temperatura va bosimda kimiyoiy reaksiyalar o'z-o'zicha o'tishi faqat  $\Delta G < 0$  bo'lgan tomonga yo'naladi va  $\Delta G > 0$  bo'lgan tomonga o'z-o'zicha o'tolmaydi.

$\Delta G = 0$  kimiyoiy muvozanat holatiga to'g'ri keladi. Shunga asoslanib termodinamikaning ikkinchi qonuni shunday ta'rifladi: *har qanday sistema sistemaning Gibbs energiyasini minimal kattalikka olib kelishga intiladi.*


Quyidagi jadvalda har xil  $\Delta H$  va  $\Delta S$  qiymatlaridaqi jarayon o'z-o'zicha o'tish yoki o'tmaslik imkoniyatlari ko'rsatilgan.

$\Delta G = \Delta H - T\Delta S$ ,  $\Delta G < 0$  bo'lsa bu jarayon o'z-o'zicha ketadi.

Funksiyaning ishorasi			O'z-o'zicha o'tishga imkoniyati bor yoki yo'qligi
$\Delta H$	$\Delta S$	$\Delta G$	
-	+	-	Har qanday sharoitda o'z-o'zicha boradi
+	-	+	Xech qanday sharoitda o'tmaydi
-	-	$\pm$	Deyarli past temperaturada o'z-o'zidan boradi
+	+	$\pm$	Deyarli yuqori temperaturada o'z-o'zidan boradi

Ma'lumotnomada ko'pchilik moddalarning 298,15 K da hosil bo'lish entropiyasi  $\Delta S_{298}^0$ , entalpiyasi o'zgarishi  $\Delta H_{298}^0$  keltirilgan. Ulardan foydalanib turli termodinamik hisoblar o'tkazish mumkin.

Misol tariqasida yana glukozaning oksidlanish reaksiyasini ko'rish mumkin:



Jarayon entalpiyasining o'zgarishi:

$$\Delta H_{\text{sist}} = -2801,68 \text{ kJ/mol},$$

entropiyasining o'zgarishi:  $\Delta S_{\text{sist}} = 259,32 \text{ J/mol} \cdot \text{K}$ .

Demak,

$$\begin{aligned} \Delta G &= \Delta H_{\text{sist}}^0 - T\Delta S_{\text{sist}}^0 = -2801,69 \text{ kJ/mol} - \\ &- (298,15 \text{ K}) \cdot [259,32 \text{ J/mol} \cdot \text{K}/1000] = -2879,0 \text{ kJ/mol}. \end{aligned}$$

Shunday qilib, odam organizmida glukozaning oksidlanish jarayoni natijasida 2879 kJ/mol energiya ajraladi.

$\Delta G$  qiymati katta manfiy ishorali son bo‘lganligi odam organizmida sodir bo‘layotgan va organizmni energiya manbayi (ATF) bilan ta’minlovchi asosiy jarayonlardan biri glukozaning biologik oksidlanish jarayoni o‘z-o‘zicha ketadigan jarayonligini ko‘rsatadi. Biroq havoda glukoza deyarli barqaror moddadir. Bu termodinamikaning kamchiligini ko‘rsatadi, chunki u reaksiyaning yo‘nalishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olish imkoniyatini berib, uning tezligi to‘g‘risida xech qanday ma’lumot bermaydi.

### Termodinamika va tirik organizmda kechadigan jarayonlar

Tirik organizm – ochiq sistemalar safiga kirib, ularda tashqi muhit bilan energiya va turli moddalar almashinadi.

Biokimyoviy reaksiyalar energetikasini o‘rganish har xil oziq moddalar energiyasining hayotiy energiyaga o‘tish mexanizmlarini tushunish uchun zarur. Oziq moddalarning issiqlik hosil qilish xususiyatini aniqlash turli kasb kishilari uchun kerakli oziq ratsionlari tuzish imkoniyatini beradi.

Odam kasalligida termodinamik ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi, birinchi darajada temperatura o‘zgarishi kuzatiladi. Demak, kasallikda sistemaning entropiyasi ortadi.

Embriogenez davrida, regeneratsiya jarayonlarida va havfli to‘qimalar o‘sishida sistemaning entropiyasi oshib borishi aniqlandi.

Statsionar holatdagi sistemada entropiya eng kichik qiymatga - minimumga intiladi.

I. Prigojin ta’rifiga ko‘ra, tirik organizmlar – yuqori darajali tartibga ega bo‘lgan past entropiyali, ya’ni termodinamik nuqtai nazardan beqaror sistemalardir.

Entropianing eng yuqori qiymatga – maksimumga intilishi organizmning parchalanishiga olib keladi.

### Mavzu bo‘yicha masalalar va ularni yechish namunaları

**1- masala.** Suvsiz tuzning erish jarayoni 2 bosqichda boradi: tuzning gidratlanishi(issiqlik ajralishi bilan boradi va gidratning erishi). Suvsiz  $MgCl_2$  tuzining gidratlanish issiqligini aniqlang.

$$\begin{aligned}\Delta H_{\text{erish}}^0(MgCl_2) &= -150,5 \text{ kJ/mol}, \Delta H_{\text{erish}}^0(MgCl_2 \cdot 6H_2O) = \\ &= -12,3 \text{ kJ/mol}.\end{aligned}$$

**Berilgan:**

$$\Delta H_{\text{erish}}^0 (\text{MgCl}_2) = -150,5 \text{ kJ/mol}$$

$$\Delta H_{\text{erish}}^0 (\text{MgCl}_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}) = -12,3 \text{ kJ/mol}$$


---

$$\Delta H_{\text{gidr.}}^0 = ?$$



**Yechish:**

1.  $\text{MgCl}_2$  ning gidratlanish tenglamasi tuziladi:



$$\Delta H_{\text{erish}}^0 (\text{MgCl}_2) = -150,5 \text{ kJ/mol.}$$

2. Bu jarayonni quyidagicha ko'rsatish mumkin:



$$\Delta H_{\text{erish}}^0 = -12,3 \text{ kJ/mol.}$$

3. Gess qonuniga asosan:

$$\Delta H_{\text{erish}}^0 (\text{MgCl}_2) = \Delta H_{\text{gidr.}}^0 + \Delta H_{\text{erish}}^0 (\text{MgCl}_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}),$$

shunday qilib:

$$\Delta H_{\text{gidr.}}^0 = \Delta H_{\text{erish}}^0 (\text{MgCl}_2) - \Delta H_{\text{erish}}^0 (\text{MgCl}_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}).$$

Bundan:

$$\Delta H_{\text{gidr.}}^0 = -150,5 \text{ kJ/mol} - (-12,3 \text{ kJ/mol}) = -138,2 \text{ kJ/mol.}$$

*Javob:*  $\Delta H_{\text{gidr.}}^0 = -138,2 \text{ kJ/mol.}$

**2- masala.** Vodorod peroksidning hosil bo'lish issiqligini tajriba yo'li bilan aniqlab bo'lmaydi, chunki vodorodga kislorod ta'sir etganda oddiy sharoitda suv hosil bo'ladi. Lekin vodorod peroksidning suv va kislorodga parchalanishini aniqlash mumkin. Vodorod peroksidning hosil bo'lish issiqligini aniqlang.

**Berilgan:**

$$\Delta H_{\text{parch.}}^0 (\text{H}_2\text{O}_2) (\text{s}) = -98,2 \text{ kJ/mol}$$


$$\Delta H_{\text{h-l bo'lish}}^0 (\text{H}_2\text{O}) (\text{s}) = -286,0 \text{ kJ/mol}$$


---


$$\Delta H_{\text{h-l bo'lish}}^0 (\text{H}_2\text{O}_2) (\text{s}) = ?$$

**Yechish:**



1.  $\text{H}_2\text{O}_2$  (s) ning hosil bo'lish reaksiyasi yoziladi:






2.  $\text{H}_2\text{O}$ (s) ning hosil bo'lish reaksiyasi yoziladi:



3.  $\text{H}_2\text{O}_2$  (s) ning parchalanish reaksiyasi yoziladi:



4. Ikkita qiymatni birlashtirib va Gess qonunidan foydalanib vodorod peroksidning hosil bo'lish issiqligi aniqlanadi:



Shunday qilib:

$$\Delta H_{\text{parch.}}^0 (\text{H}_2\text{O}_2) (\text{s}) = \Delta H_{\text{h-l bo'lish}}^0 (\text{H}_2\text{O}) (\text{s}) + \Delta H_{\text{h-l bo'lish}}^0 (\text{H}_2\text{O}_2) (\text{s}),$$

$$\Delta H_{\text{h-l bo'lish}}^0 (\text{H}_2\text{O}_2) (\text{s}) = \Delta H_{\text{parch.}}^0 (\text{H}_2\text{O}_2) (\text{s}) + \Delta H_{\text{h-l bo'lish}}^0 (\text{H}_2\text{O}) (\text{s}),$$

$$\Delta H_{\text{h-l bo'lish}}^0 (\text{H}_2\text{O}_2) (\text{s}) = -98,2 \text{ kJ/mol} + (-286 \text{ kJ/mol}) = -187,8 \text{ kJ/mol},$$


$$\Delta H_{\text{h-l bo'lish}}^0 (\text{H}_2\text{O}_2) (\text{s}) = -187,8 \text{ kJ/mol}.$$

## Mavzuning o'zlashtirilishini mustaqil nazorat qilish uchun savol va masalalar

1. Gess qonuni qanday ifodalanadi?
2. Termokimyoviy tenglamalar bilan arifmetik amallarni bajarish mumkinmi?
3. Gess qonunidan chiqadigan xulosa qanday sharhlanadi?
4. Reaksiyaga kirishgan moddaning hosil bo'lish issiqliklari orqali reaksiyaning issiqlik effektini hisoblash mumkinmi?
5. Reaksiyaning termokimyoviy tenglamalari nima?
6. Tibbiy-biologik tekshirishlarda Gess qonunining ahamiyati qanday?

### Vaziyatli masalalar

**1- masala.** Glukozaning yonish issiqligi 2816 kJ/mol, etil spirtining yonish issiqligi 1236 kJ/mol,  $\text{CO}_2$  (aq) ning hosil bo'lish issiqligi – 412,9 kJ/mol. Shu qiymatlarga ko'ra, glukozaning bijg'ishi-dagi biokimyoviy jarayonning issiqlik effektini hisoblab chiqaring:



Javob:  $\Delta H_{\text{reak.}}^0 = -482 \text{ kJ/mol}$ .

### Test savollari

1. Endotermik reaksiyalar bu:

- issiqlik ajralishi bilan boradigan reaksiyalar;
- issiqlik yutilishi bilan boradigan reaksiyalar;
- issiqlik effektisiz boradigan reaksiyalar;
- bosim oshganda boradigan reaksiyalar.

2. Ammiak hosil bo'lishining termokimyoviy tenglamasini ko'rsating:

- $3\text{H}_2 \text{ (g)} + \text{N}_2 \text{ (g)} = 2\text{NH}_3 \text{ (g)} + 91,608 \text{ kJ}$ ;
- $\frac{3}{2}\text{H}_2 \text{ (g)} + \text{N}_2 \text{ (g)} = \text{NH}_3 \text{ (g)} + 45,804 \text{ kJ}$ ;
- $\frac{3}{2}\text{H}_2 \text{ (g)} + \text{N}_2 \text{ (g)} = \text{NH}_3 \text{ (g)} + 91,608 \text{ kJ}$ ;
- $3\text{H}_2 \text{ (g)} + \text{N}_2 \text{ (g)} = 2\text{NH}_3 \text{ (g)} - 91,608 \text{ kJ}$ .

3. Entropiyaning o'lchov birligini ko'rsating.

- a) kJ/mol; b) kPa; d) J/mol · K; e) kPa/mol.

4. Standart sharoitni ko'rsating.

- a)  $P = 101,325\text{kPa}$ ,  $T = 298,15\text{ K}$ ;  
 b)  $P = 1 \text{ atm}$ ,  $T = 293 \text{ K}$ ;  
 d)  $P = 101,325\text{kPa}$ ,  $T = 0^\circ\text{C}$ ;  
 e)  $P = 101,325\text{kPa}$ ,  $T = 295 \text{ K}$ .


5. Entalpiyaning o'lchov birligini ko'rsating.

- a) kJ/mol; b) kPa; d) J/mol · K; e) kPa/mol.

6. Sistemaning muvozanat holatini ko'rsating.

- a)  $\Delta H > T\Delta S$ ; d)  $\Delta H = T\Delta S$ ;  
 b)  $\Delta H < T\Delta S$ ; e)  $\Delta G = \Delta H$ .

7. Quyidagi reaksiya uchun Gibbs energiyasini aniqlang:



$$\Delta G_{\text{HCl(g)}} = -95,36 \text{ kJ/mol}, \quad \Delta G_{\text{H}_2\text{S(g)}} = -33,83 \text{ kJ/mol},$$

- a)  $-1571 \text{ kJ/mol}$ ; d)  $-129,2 \text{ kJ/mol}$ ;  
 b)  $-157,1 \text{ kJ/mol}$ ; e)  $-61,53 \text{ kJ/mol}$ .

8. Ekzotermik reaksiya bu ...

- a) issiqlik ajralishi bilan boradigan reaksiyalar;  
 b) issiqlik yutilishi bilan boradigan reaksiyalar;  
 d) issiqlik effektisiz boradigan reaksiyalar;  
 e) bosim oshganda boradigan reaksiyalar.

9. Qachon jarayon o'z-o'zidan boradi:

- a)  $0 = \Delta G = \Delta H - T\Delta S$ ; d)  $0 > \Delta G = \Delta H - T\Delta S$ ;  
 b)  $0 < \Delta G = \Delta H - T\Delta S$ ; e) fermentlar ishtiroqida.

10. Qaysi moddaning hosil bo'lish entalpiyasi nolga teng?

- a)  $\text{H}_2\text{O}_2$ ; b)  $\text{H}_2\text{SO}_4$ ; d)  $\text{O}_2$ ; e)  $\text{CaSO}_4$ .

## LABORATORIYA ISHI

### Kuchli kislota bilan kuchli asosni neytrallash reaksiyasi orqali issiqlik effektini aniqlash

Ishni bajarish uchun calorimetrik moslama ishlataladi. U calorimetrik stakan (21- rasm) hamda ichki va tashqi idishdan tashkil topgan. Issiqlik yo'qotilishining oldini olish uchun calorimetrik idish 2 va tashqi stakan 1 devorlari bir-biriga tegmasligi zarur. Buning uchun ularning orasiga po'kak pona qo'yiladi. Kalorimetrik stakan termometr 4, aralashtirgich 6 va stakanga modda kiritishga mo'ljallangan voronka 5 uchun teshikli qopqoq 3 ga ega.

**Ishning borishi.** Kalorimetrnning ichki (quruq) stakanga (byuretka bilan) 50,00 ml molyar konsentratsiyasi 1,0000 mol/l KOH eritmasi quyladi. Uning tempeturasini 0,1 °C gacha aniqlikda o'lchab olinadi. Shu aniqlik bilan kislota eritmasi temperaturasi o'lchanadi. So'ngra byuretkani molyar konsentratsiyasi 1,0000 mol/l HCl eritmasi bilan to'ldirib, voronka ustiga mahkamlanadi. Aralashtirgichni ishlatib turgan holda ishqorli calorimetrik stakanga 50,00 ml kislota eritmasi quyladi. Eritmalar qo'shilgandan so'ng termometr ko'rsatgan maksimal (eng yuqori) temperatura belgilanadi. Tajriba natijalari jadvalda ko'rsatiladi.

$V(KOH), \text{ml}$	$V(HCl), \text{ml}$	$t_{\text{boshi}}, ^\circ\text{C}$	$t_{\text{oxiri}}, ^\circ\text{C}$	$\Delta t, ^\circ\text{C}$	$q, \text{kJ}$	$\Delta H, \text{kJ/mol}$	Xato, %
50,00	50,00						

Olingen natijalarga ko'ra hisoblash olib boriladi:


$t_{\text{oxiri}}, ^\circ\text{C}$  va  $t_{\text{boshi}}, ^\circ\text{C}$  farqiga ko'ra  $\Delta t, ^\circ\text{C}$  ni topiladi:

$$\Delta t = t_{\text{oxiri}} - t_{\text{boshi}}.$$

Kalorimetrda ajralib chiqqan issiqlik miqdorini quyidagi formula bo'yicha topiladi:

$$q = \Delta t \cdot \Delta C, \quad (1)$$

$\Delta C$  – sistemaning issiqlik sig'imi, calorimetrik idish, calorimetrik suyuqlik va modda issiqlik sig'imirining yig'indisi.



21- rasm. Kolorimetrik moslama.

$$\Delta C = C_1 m_1 + C_2 m_2,$$

bu yerda:  $C_1$  va  $m_1$  – reaksiya boradigan idishning massasi va solish-tirma issiqlik sig‘imi;  $C_2$  va  $m_2$  – kalorimetrdagi suyuqlik uchun yuqoridagi qiymatlar (erigan modda va suvning massalari yig‘indisi).

Shisha kalorimetrdan foydalanilganda issiqlik o‘tkazuvchanlik juda oz bo‘lgani uchun shisha kalorimetrik idishning issiqlik sig‘imini hisobga olmasa ham bo‘ladi, ya’ni  $C_1$  va  $m_1$  eritmalarining solishtirma issiqlik o‘tkazuvchanligi va zichligini  $H_2O$  qiymatlariga teng deb qabul qilish mumkin:

$$\rho(H_2O) = 1 \text{ g/ml},$$

$$C(H_2O) = 4,184 \text{ kJ/kg} \cdot \text{grad.}$$

Bu esa  $C_2$  dir.

Unda tenglama (1) quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$q = \Delta t \cdot C_2 \cdot m_2$$

bu yerda:  $m_2$  – kalorimetrdagi  $m_{k\text{-ta}}$  va  $m_{ishqor}$  yig‘indisi:

$$m = \rho \cdot V,$$

$$m_{k\text{-ta}} = 50 \text{ ml} \cdot 1 \text{ g/ml} = 50 \text{ g},$$

$$m_{ishqor} = 50 \text{ ml} \cdot 1 \text{ g/ml} = 50 \text{ g},$$

$$m_2 = 50 \text{ g} + 50 \text{ g} = 100 \text{ g yoki } 0,1 \text{ kg.}$$

Shunday qilib,

$$q = \Delta t \cdot C_2 \cdot m_2 = \Delta t \cdot 4,184 \cdot m_2$$

$$q = \Delta t \cdot 0,1 \cdot 4,184 \frac{\text{grad} \cdot \text{kg} \cdot \text{kJ}}{\text{kg} \cdot \text{grad}} = \text{kJ.}$$

Issiqlik effektini 1 mol modda hisobida olib boriladi:

$$Q = \frac{q}{n} \cdot \frac{\text{kJ}}{\text{mol}}.$$

Tajriba uchun KOH va HCl ning 50,00 ml 1,0000 molyar eritmalarini olingan. Shu eritmalaridagi mollar soni hisoblanadi:

$$n = cV,$$

$$n = 1,0000 \cdot 0,05 \frac{\text{mol} \cdot l}{l} = 0,05 \text{ mol.}$$

Shunday qilib,  $Q = \frac{q}{n} \frac{\text{kJ}}{\text{mol}}.$

Neytrallanish reaksiyasingin issiqlik effekti – neytrallanish reaksiyasingin standart entalpiyasidir (teskari ishora bilan olingan), ya'ni

$$\Delta H_{298}^0 = -\frac{q}{0,05} \frac{\text{kJ}}{\text{mol}}.$$

Tajribada aniqlangan  $\Delta H_{298}^0$  qiymatlarni ularning nazariy qiymatlari bilan solishtiriladi, tajribadagi xato hisoblanadi:

$$\text{Xato, \%} = \frac{(\Delta H_{\text{nazariy}}^0 - \Delta H_{\text{amatiy}}^0)}{\Delta H_{\text{nazariy}}^0} \cdot 100\%.$$

## DISPERS SISTEMALAR. KOLLOID ERITMALARNING TURG'UNLIGI VA ULARNI OLİSH USULLARI

**Mashg'ulotning maqsadi.** Kolloid eritmalarini hosil bo'lishi va ularning xossalari bilan tanishish. Kolloid eritmalarini va biologik muhim eritmalarini tozalash usullarini o'rganish.

**O'rnatilayotgan mavzuning ahamiyati.** Qon, limfa, orqa miya suyuqligi, hujayra protoplazmasi va boshqa biologik suyuqliklar kolloid eritmalaridir. Ular kolloid holatdagi ko'pgina moddalarni o'z ichiga oladi, masalan, fosfatlar, yog'lar, lipidlar va boshqalar. Biosuyuqliklarni tekshirib xossalarni o'rganishda bu birikmalarni ham hisobga olish zarur. Bundan tashqari kolloid eritmalar ko'rinishidagi dorivor preparatlar ham mavjud, masalan, protargol, kollargol. Ko'pgina oziqovqat mahsulotlari, yuvuvchi vositalari ham kolloid eritmalaridir. Shu sababli, kolloid eritmalarining olinishi va ularning xossalarni to'liq va chuqur o'rganish zarur.

### Boshlang'ich bilim darajasi:

1. Eritmalar. Gomogen va geterogen eritmalar.
2. Eritmalarining sinflanishi.
3. Molekular va ionli tenglamalarni tuzish.

### Mustaqil tayyorlanish uchun o'quv adabiyotlar:

1. М.И.Равич-Щербо, В.В.Новиков. Физическая и коллоидная химия. М., 1975, 178–179- betlar.
2. Е.Г.Фролов. Курс коллоидной химии. М., 1989, 14–16- betlar.
3. Х.М.Рубина и др. Практикум по физиологической и коллоидной химии. 121–126- betlar.
4. S.S.Qosimova, S.M.Masharipov, Q.O.Najimov. Umumiy va bioorganik kimyodan amaliy mashg'ulotlar. T., 2001, 122–128- betlar.

### Darsda ko‘riladigan savollar:

1. Dispers sistemalarning sinflanishi.
2. Kolloid eritmalarini olish usullari.
3. Kolloid eritmalarini tozalash usullari.
4. Kolloid zarracha mitsellanening tuzilishi.
5. Laboratoriya ishi.

## MA’LUMOTLAR YIG’INDISI

O‘z tarkibida muallaq holatdagi mayda zarrachalar bo‘lgan sistemalar dispers sistemalar deyiladi. Undagi mayda zarrachalar *dispers faza*, shu zarrachalar tarqalgan muhit esa *dispers muhit* deb ataladi. Dispers faza zarrachalarining o‘lchamlariga qarab dispers sistemalar 3 ga bo‘linadi:

1) *dag‘al dispers sistemalar* – zarrachalarning o‘lchamlari  $0,1 \text{ mk}$  va undan katta ( $10^{-4} - 10^{-7} \text{ m}$ ) (suspenziyalar, emulsiyalar, kukunlar va h.k.);

2) *kolloid sistemalar (zollar)* – zarrachalarining o‘lchami  $0,1 \text{ mk}$  dan  $1 \text{ mmk}$  ( $10^{-7} - 10^{-9} \text{ m}$ ) gacha bo‘ladi;

3) *ion yoki molekular dispers sistemalar* – zarrachalarning o‘lchamlari  $1 \text{ mmk}$  dan kichik ( $10^{-9} \text{ m}$  gacha).

Tibbiyotda kolloid eritmalar katta ahamiyatga ega. Qon, plazma, limfa, orqa miya suyuqligi va shu kabi biologik suyuqliklar kolloid sistemaga misoldir. Ularda oqsil, xolesterin, glikogen va boshqa moddalar kolloid holda bo‘ladi.

Dispers sistema muhitlarini agregat holatiga ko‘ra zollar quyidagi turlarga bo‘linadi.

1) *liozollar* – dispers muhiti suyuq agregat holatida bo‘lgan zollar;

2) *aerozollar* – dispers muhiti gaz agregat holatida bo‘lgan zollar;

3) *dispers muhit qattiq agregat* holatda bo‘lgan zollar.

Kolloid eritmalarning muhim xossalardan biri dispers faza bilan dispers muhitning o‘zaro ta’siridir. Shunga ko‘ra ular liofil va liosob zollarga bo‘linadi. Dispers faza bilan muhit orasida kuchli ta’sirlashuv bo‘lsa – sistema *liofil*, kuchsiz ta’sirlashuv bo‘lsa *liosob sistemalar* deyiladi.

Liofil kolloid eritmalar o‘z-o‘zidan hosil bo‘ladi, chunki ularning tarkibida qutblangan va qutblanmagan guruuhlar mavjud bo‘lib, erish jarayonida ular gidratlanadi (solvatlanadi). Bunday eritmalaрга oqsil, jelatin, pepsin va boshqa yuqori molekular moddalarning eritmalarini kiradi.

Liofob kolloidlar hosil bo‘lishida uchinchi modda – elektrolit ishtirok etadi, u *stabilizator* deyiladi. Stabilizator ionlaridan biri Panet–Fayans qoidasiga ko‘ra suvda erimaydigan cho‘kmaning ustiga adsorbirlanadi va unga ma’lum zaryad va barqarorlik beradi.

Kolloid eritmalar, chin eritmalaridan geterogenligi bilan farqlanadi. Haqiqatan ham kolloid zarracha o'lchamlari chin eritmada erigan modda zarrachalaridan ancha katta bo'lib erituvchi bilan sirt chegarasi hosil qiladi.

Sirt chegarasi fazalarni ajratuvchi chegara qavat *ajralish sati* deyiladi. Kolloid sistemalar mikrogeterogen bo'lib, quyidagi sharoitlarda hosil bo'ladi:

a) dispergirlanayotgan modda zarrachalarini, kolloid zarracha o'lchamiga keltirish orqali;

b) kolloid zarrachalarni muallaq holatda saqlash uchun stabilizator (elektrolit ionlari) qo'shiladi. Elektrolit ionlari fazalar chegarasida ion qavat va gidratlangan qobiq hosil qiladi;

d) dispers muhit qiyin eruvchi bo'lishi kerak (kamida hidrofob zollar hosil qila olishi kerak).

Shunday qilib, kolloid zarracha elektr zaryadga va gidrat qobiqga ega bo'ladi, bu esa uning cho'kmaga tushishiga to'sqinlik qiladi.

### **Kolloid eritmalar olish usullari**

Kolloid eritmalar dag'al dispers va molekulyar dispers sistema o'rtaсидиги holatda bo'lgani uchun ularni olishning 2 asosiy usulini sanab o'tish mumkin.

1. *Maydalash* – dispergirlash, nisbatan katta zarrachalarni kolloid zarracha o'lchamlariga keltirish.

2. *Yiriklashtirish* – molekula va ionlarni birlashtirib kolloid zarracha o'lchamlariga yetkazish yoki agregatlar hosil qilish.

### **Dispergirlash usuli**

**Mexanik usullar.** Moddalarni maydalashda zarbaga va ishqalashga asoslangan qurulmalardan foydalilanadi. Bunday qurulmalarga sharli yoki kolloid tegirmonlar kiradi. Sharli tegirmon kovak silindrsimon qurulma bo'lib, uning ichiga o'ta qattiq materialdan tayyorlangan sharchalar solinadi. Tegirmonga maydalanishi kerak bo'lgan modda solinadi, silindr maxsus mexanizmlar (reduktor, dvigatel) yordamida yopiladi. Tegirmonning tez aylanishi natijasida modda sharchalarning zarbasi va ishqalanishi natijasida maydalanadi. Bunday ishlovda disperslik darajasi nisbatan past – zarracha diametrlari 50–60 mk bo'ladi.

**Ultrato'vush usuli.** Bu usulda dispergirlash uchun ultratovushlardan foydalilanadi. Bunda parchalovchi kuchlar hosil bo'lib, moddaniнning maydalanishiga olib keladi. Ultratovush usuli yordamida grafit, oltingugurt, kraxmal, jelatin, ba'zi metallar (mis, qo'rg'oshin, rux) ni dispergirlash mumkin.

**Peptizatsiya usuli.** *Peptizatsiya* – moddalarni peptizatorlar yordamida geldan zolga o'tkazish jarayonidir. Peptizatsiya usulidan yangi hosil bo'lgan cho'kmalar zollar ko'rinishiga o'tkaziladi (yangi hosil bo'lgan metall gidroksidlari, masalan  $\text{Al(OH)}_3$ ,  $\text{Fe(OH)}_3$ ,  $\text{Zn(OH)}_2$  v.h.k.). Ba'zan peptizatsiya usuli koagulyatsiya chaqiruvchi ionlarni eritmadan chiqarib tashlash bilan olib boriladi. Bu ionlar eritmada qolsa, zarrachalarning yiriklashib ketishiga yoki peptizatorni adsorbsiyasiga sabab bo'ladi va qo'sh elektr qavat bilan kolloid zarrachalarda solvat qavat hosil bo'lishiga olib keladi. Peptizator vazifasini asosan elektrolitlar bajaradi, ular dezagregatsiyani boshqaradi.

**Eritish usuli yoki o'z-o'zidan dispergirlanish usuli.** Bu usulda qattiq polimerlardan (mos kelgan erituvchilar yordamida) yuqori molekular moddalar dispergirlanadi.


Qattiq moddaning suyuq muhitda o'z-o'zidan dispergirlanish usulidan foydalanylганда 2 fazali mustahкам kolloid sistema hosil bo'ladi.

O'z-o'zidan dispergirlanish tashqi mexanik ta'sirlarsiz amalga oshuvchi jarayondir.

### Kondensatsiya usuli



Kolloid eritmalarни kondensatsion usul bilan olish negizida turli kimyoviy reaksiyalar yotadi: oksidlanish, qaytarilish, almashinish, parchalanish, gidroliz va h.k.

**Oksidlanish usuli.** *Oksidlanish* – bu atom, molekula yoki ionlarning elektron yo'qotishidir. Oksidlanish reaksiyasi natijasida kolloid eritmalar hosil bo'ladi:




Hosil bo'lgan neytral oltingugurt atomlari o'z-o'zidan oltingugurtning kolloid zarrachalariga kondensatlanadi.



**Qaytarilish usuli.** *Qaytarilish* – bu atom, molekula yoki ionlarning elektron qabul qilishidir. Bunda ular atomlarga aylanib kolloid zarrachalarga kondensatlanadi. Qaytaruvchilar sifatida kuchsiz qaytaruvchilar (formalin, gaz holdagi vodorod va h.k.) qo'llanadi:



**Almashinish usuli.** Bu usul 2 moddaning o'zaro ta'sir etib qiyin eriydigan moddalar hosil qilish reaksiyalariga asoslanadi. Bu moddalar ma'lum qulay sharotlarda o'zining yuqori dispersligini saqlab qoladi. Kumush xlorid zolining hosil bo'lish reaksiyasini misol keltirish mumkin:



**Gidroliz usuli.** Bu usul tuzlardan zollar hosil bo'lishiga asoslanadi. Masalan:



$\text{FeOCl} \rightleftharpoons \text{FeO}^+ + \text{Cl}^-$  ionlariga dissotsatsiyalanadi va  $\text{Fe(OH)}_3$  zarrachalari atrofida bu ionli qavatni ta'minlaydi. Bunda zarrachalar muallaq holatda bo'lib zollar hosil qiladi.

**Erituvchini almashtirish usuli.** Bu usul eritmadan erigan moddani erituvchini almashtirish yo'li bilan yuqori dispers erimaydigan faza ko'rinishida ajratib olishga asoslangan. Erigan moddaning molekulalari qiyin eriydigan sharoitga tushib qolganda yirik kolloid zarrachalarga kondensatsiyalanadi.

**Elektr usuli.** Bredig tomonidan (1898) taklif qilingan bu usulda nodir metallarning gidrozollarini olishda foydalilanildi. Nodir metallar (kumush, platina, oltin)da dispergirlangan elektrodlari orasida elektr hosil bo'lishiga asoslanadi. Yuqori temperatura ta'sirida elektrodlarning materiali dispers suv muhitida bug'lanadi. Metall bug'lari kolloid zarrachalar holida kondensatlanib, tegishli zolni hosil qiladi. Bu jarayon sovutish davomida boradi.

### Kolloid eritmalarini tozalash usullari

Yuqori darajada barqaror kolloid eritmalar olish uchun ularni turli qo'shimchalardan, ayniqsa kolloid eritmalarini olishda hosil bo'ladigan ortiqcha elektrolitlardan tozalash zarur.

Bu qo'shilmalarni yo'qotishda quyidagi usullardan foydalilanildi.

1. **Dializ** – zollarni ortiqcha elektrolitlardan tozalash. Buning uchun dializator qo'llanadi. Kolloid eritma devori yarim o'tkazich tabiatiga ega membrana bo'lgan moslamaga joylashtiriladi (membrana vazifasini hayvon, o'simlik yoki sun'iy to'qimalar o'tashi mumkin). Bu moslama distillangan suv oqib turadigan idishga joylashtiriladi. Natijada kolloid eritmadi o'lchami kichik bo'lgan zarrachalar (elektrolit ionlari, quyi molekular moddalar) yarim o'tkazgichli

membrana devoridan o‘ta boshlaydi va kolloid eritma tozalanadi. Bu usul ko‘p vaqt talab etadi, shuning uchun jarayonni tezlatuvchi elektrodializ usulidan foydalaniladi.

2. **Elektrodializ.** Eritmadan doimiy tok o‘tkazilganda undagi ionlar mos elektrodlarga tortilib suv bilan yuvilib ketadi, kolloid eritma esa tozalanadi.

3. **Ultrafiltratsiya** – kolloid eritmani tozalashning maxsus usuli. Bu usul dispers fazani dispers muhitdan ajratishga asoslangan. Buning uchun kolloid eritma kolloid zarrachalarni yoki makromolekulalarni o‘tkazmaydigan membrana orqali o‘tkaziladi. Dispers faza filtrda qoladi. Filtr sifatida sellofan yoki kollodiy shimdirligani filtr qog‘oz ishlataladi.


Ultrafiltratsiya odatda sekin o‘tadi. Jarayonni tezlashtirish maqsadida uni ko‘pincha bosim ostida olib boriladi, buning uchun filtr ostidagi idishdan havo tortib olinadi.

4. **Kompensatsion dializ va vividializ.** Bu usulda dializatordagи suyuqlik toza erituvchi bilan emas, balki tozalanayotgan eritmaning turli xil konsentratsiyali eritmasi bilan yuviladi. Bu usul biologik eritmalarни tekshirishda qo‘llanib, kolloid eritmadagi u yoki bu kichik molekular moddalarни konsentratsiyasini aniqlash imkonini beradi. Vividializ usuli bilan qon tarkibidagi quyi molekular moddalar aniqlanadi va qonni tozalashda bu usul keng qo‘llanadi (Abel vividiffuziyasi). Bunda qon tomirining kesilgan uchlari orasiga shisha kanyula ulanadi va ularning tarmoqlangan qismlari kollodiyidan yasalgan naychalar bilan bir-biriga tutashtiriladi. Butun sistema osh tuzining fiziologik eritmasi (0,86% massa jihatdan) bilan to‘ldirilgan idishga tushiriladi.

Kompensatsion vividializ prinsipida «sun‘iy buyrak» qurulmasi tuzilgan. Bu qurulmani qonni moddalar almashuvi mahsulotlaridan xalos qilish va kasal buyrak o‘rniga vaqtincha ishlatish mumkin. O‘tkir buyrak xastaliklarida, terining ko‘p qismi qattiq kuyganda, qon quyilgandan keyingi uremiyada, homiladorlik toksikozlarida ko‘p hollarda «sun‘iy buyrak» qurulmasi qo‘llanadi.

### **Kolloid eritma zarrachalari mitsellasining tuzilishi**

Kolloid birikmalar mitsellasining tuzilishini AgI kolloid zarrachasi tuzilishi misolida ko‘rib chiqish mumkin. AgI kolloid zarrachasining hosil bo‘lish reaksiyasi quyidagi sxema bo‘yicha boradi:



Qiyin eriydigan AgI birikmasida  $\text{Ag}^+$  va  $\text{I}^-$  ionlari birlashadi va kristallik panjara AgI hosil qiladi. Yangi hosil bo‘lgan AgI zarrachalari avval amorf holatda bo‘ladi, keyin asta sekin kristallahadi. Agar


boshlang‘ich moddalar ( $\text{AgNO}_3$  va  $\text{KI}$ ) reaksiya uchun ekvivalent miqdorda olingan bo‘lsa, kristallar o‘sib, o‘lchamlari kolloid zarrachadan oshib ketadi va cho‘kmaga tushadi. Agar boshlang‘ich moddalardan biri ortiqcha olingan bo‘lsa,  $\text{AgI}$  zarrachasining o‘lchami kolloid zarracha o‘lchamlariga mos keladi. Ortiqcha miqdorda olingan reagent *stabilizator* vazifasini bajaradi. Masalan,  $\text{KI}$  ortiqcha olinganda eritmada  $\text{K}^+$  va  $\text{I}^-$  ionlari konsentratsiyasi ortadi. Panet–Fayans qoidasiga ko‘ra kristall panjaraning qurilishi faqat shu panjarani tashkil etgan ionlar xisobiga borishi mumkin. Bu holda  $\text{I}^-$  ionlari hisobiga bo‘ladi. Shuning uchun  $\text{I}^-$  ionlari yadroning kristall panjara qurilishini davom etdiradi va unga o‘z zaryadini beradi. Shu sababli  $\text{I}^-$  ionlari *potensial belgilovchi* ion yoki *elektrotermodinamik potensial* ( $\epsilon$ - potensial) deb ataladi. Zaryadi nisbatan katta bo‘lgan zarrachalar eritmadi qarama-qarshi zaryadli  $\text{K}^+$  ionlarini tortadi. Qarama-qarshi ionlarining adsorbsiyasi boshlanadi. Bunda adsorbsiyalangan ionlar bilan eritmadi erkin ionlar o‘rtasida dinamik muvozanat qaror topadi. Yadroga adsorbsiyalangan qarama-qarshi ionlar bilan birga potensial belgilovchi ionlar hammasi *adsorbsion qavatni* tashkil etadi. Yadro va adsorbsion qavat *granulani* tashkil qiladi. Granula  $\epsilon$ - potensial bilan bir xil zaryadga ega, lekin kattaligi jihatidan kichikroq bo‘lib, adsorbsion qavatdagi qarama-qarshi ionlar soniga bog‘liq. Agar 90% qarama-qarshi ionlar adsorbsiyalangan bo‘lsa, granulaning potensiali  $\epsilon$ - potensialning 10% i tashkil etadi. Granulaning potensiali *kinetik potensial* yoki *dzeta potensial* ( $\xi$ - potensial) deb nomlanadi, chunki uni granula yaqinida elektr tortishish kuchlari ta’sirida zarrachalarining harakatidan o‘lhash mumkin. Qarama-qarshi ionlarning qolgani elektrostatik tortilish kuchlari ta’sirida granula atrofida bo‘ladi va *diffusion qavatni* hosil qiladi. Diffuzion qavatning qalinligi turlicha bo‘lib, u eritmaning ion kuchiga bog‘liq, ya’ni ion kuchi qancha katta bo‘lsa, diffuzion qavat shuncha yupqa bo‘ladi. Diffuzion qavat qiymatining kattaligi adsorbsion va diffuzion qavatlardagi ionlar miqdoriga bog‘liq bo‘ladi: adsorbsion qavatdagi ionlar qancha ko‘p va diffuzion qavatdagilar qanchalik oz bolsa,  $\xi$ - potensial shunchalik kichik bo‘ladi. Bu kattalik kolloid zarrachaning barqarorlik me’zoni hisoblanadi. Granula diffuzion qavat bilan birga *mitsellani* hosil qiladi.

Diffuzion qavatdagi ionlar konsentratsiyasi zarracha chegarasiga yaqinlashgan sari kamayib boradi va potensial ham kamayadi, chegaraga etganda esa u nolga teng bo‘ladi.

Shunday qilib, mitsella doim elektroneytral holdadir. Agar adsorbsion qavatga ko‘p miqdorda qarama-qarshi ionlar joylashtirilsa, masalan 95%, bunda granula sathidagi  $\xi$ - potensial 5% gacha


kamayadi. Potensial belgilovchi ionlar miqdoriga bog'liq bo'lgan  $\epsilon$ -potensial qiymati o'zgarmaydi.

KI ortiqcha miqdorda olinganda AgI mitsellasining sxematik ko'rinishi qu'yidagicha boladi:



Kolloid eritmalarining barqarorligi stabilizatorlar (elektrolit) va granula zaryadi kattaligiga ( $\xi$ - potensialiga) bog'liq. Bu potensial qancha katta bo'lsa, zarrachalarning elektrostatik itarilish kuchi shuncha yuqori va demak, sistema shuncha barqaror bo'ladi.

$\text{AgNO}_3$  ortiqcha olingandagi AgI mitsellasining tuzilishini quyidagicha tasavvur qilish mumkin:



Agar barcha  $\text{K}^+$  ionlari diffuzion qavatdan adsorbsion qavatga ko'chib qolsa,  $\epsilon$ - potensial nolgacha kamayadi va granula elektroneytral yoki (noelektrolit) bo'lib qoladi:


$$\{ (\text{AgI})_m \cdot n\text{I}^- \cdot (n - x)\text{K}^+ \}$$

Kolloid eritmalar dispers fazalarining umumiy sirt yuzasi katta bo'lganligi sababli ularning sirt yuza energiyasi yuqori bo'ladi. Shu sababli ular o'z energiya qiymatini kamaytirishga intiladi. Natijada dispers fazalar o'zaro qo'shilib yiriklashadi. Bu jarayon *koagulatsiya* deyiladi. Buning oqibatida sistema termodinamik jihatdan barqaror holatga o'tadi.


### Mavzu bo'yicha masalalar va ularni yechish namunaları

**1- masala.**  $\text{As}_2\text{S}_3$  mitsellasi qanday hosil bo'ladi?


**Yechish.** Bu mitsella arsenat kislotasidan  $\text{H}_3\text{AsO}_3$  tok o'tkazish orqali hosil qilinadi:



Stabilizator vazifasini  $\text{H}_2\text{S}$  bajaradi:




Natijada mitsella hosil bo'ladi:



$\text{H}_2\text{S}$  ortiqcha miqdorda olingani uchun  $\text{HS}^-$  hisobiga granula manfiy zaryadlanadi.

**2- masala.** Tarkibida 80% uglerod bo'lgan 37,5 g ko'mir mahsulotiga o'rtta tuz hosil bo'lguncha ishqor qo'shiladi. Hosil bo'lgan tuzga 1 l  $\text{CaCl}_2$  qo'shiladi, uning molyar konsentratsiyasi 0,5000 mol/l. Bu reaksiyada kolloid eritma hosil bo'ladimi? Hosil bo'lgan mitsellaning tuzilishini yozing va granula zaryadini ko'rsating.

**Yechish.** Quyidagi sxema bo'yicha reaksiya boradi:



Ko'mirdagi uglerod miqdori:

$$37,5 \text{ --- } 100\%$$

$$x \text{ --- } 80\%$$

$$x = 3 \text{ g uglerod}$$

Bu necha molga mos keladi:


$$n = \frac{m}{M} = \frac{3}{12} = 0,25 \text{ mol uglerod.}$$

0,25 moldan 0,25 mol  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  hosil bo'ladi.

1 l 0,5 molyarlik  $\text{CaCl}_2$  eritmasisda

$$n = c \cdot V = 0,5000 \text{ mol/l} \cdot 1 \text{ l} = 0,5 \text{ mol CaCl}_2$$

Demak,  $\text{CaCl}_2$  ortiqcha miqdorda olingan ekan, shuning uchun kolloid eritma hosil bo'ladi.  $\text{CaCl}_2$  ortiqcha bo'lgandagi mitsella tuzilishi:



Granula musbat zaryadli.

### Mavzuning o'zlashtirilishini mustaqil nazorat qilish uchun savol va masalalar




1. Dispers fazva dispers muhit nima?
2. Zarracha o'lchamiga ko'ra dispers sistemalarning sinflanishi.

3.  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  ortiqcha bo‘lgandagi  $\text{BaSO}_4$  kolloid sistemadagi mitsellaning tuzilishini yozing.
4. Kolloid eritmalar o‘z holida saqlanishi uchun qanday sharoit zarur?
5. Kolloid eritmalarning farqli belgilari qanday?
6. Qanday eritmalar liofil va liofob kolloid eritma deyiladi?
7. Kolloid eritma olinishining 2 usulini aytинг.
8. Kolloid eritmalarning dispersion usul bilan olinishini ko‘rsating.
9. Mitsella qanday tarkibiy qismlardan tashkil topgan?


### Vaziyatli masalalar

**1- masala.** Temir gidroksidi zolining mitsellasi hosil bo‘lishi reaksiyasini yozing.

*Javob:*



**2- masala.** Ortiqcha  $\text{KCl}$  olinganda quyidagi reaktsiya bo‘yicha hosil bo‘lgan  $\text{AgCl}$  kolloid zarracha mitsellasining tuzilishini ko‘rsating:



*Javob:*  $\{(\text{AgCl})_m; n\text{Cl}^- (n - x)\text{K}^+\}^{x-} \cdot x\text{K}^+$ .

### Test savollari

1. «Sun’iy buyrak» qurilmasi qaysi usulda qo‘llanadi?
  - a) dializ;
  - b) elektrodializ;
  - c) vividializ;
  - d) ultrafiltratsiya.
2. Kolloid zarracha o‘lchamini ko‘rsating:
  - 1)  $10^{-7}$ – $10^{-9}$  m;
  - 2)  $10^{-4}$ – $10^{-7}$  m;
  - 3)  $10^{-9}$  m;
  - 4) 1–100 mmk;
  - 5) 1–50 mmk.
  - a) 1, 2, 3;
  - b) 2, 3, 4;
  - c) 1, 4;
  - d) 2, 4.
3. Difil molekulani ko‘rsating.
 

a) toluol;	d) $\text{HOOC} - \text{COOH}$ ;
b) $\text{NaCl}$ ;	e) $\text{CH}_3 - \text{CH}(\text{NH}_2) - \text{COOH}$ .

4. Kolloid sistemani ko'rsatin.
  - a) shakar eritmasi;
  - b) yelim;
  - c) osh tuzi eritmasi;
  - d) sut.
  
5. Dispers fazasi gaz bo'lgan sistema qanday ataladi?
  - a) suspenziya; b) emulsiya; d) aerozol; e) liozol.
  
6. Dispers fazasi suyuq bo'lgan sistema qanday ataladi?
  - a) suspenziya; b) emulsiya; d) aerozol; e) liozol.
  
7. Aerozol keltirilgan javobni ko'rsating.
  - 1) suv; 2) tuman; 3) xiralashish; 4) chang; 5) sut.
  - a) 1, 2, 3; b) 2, 3, 4; d) 2, 4; e) 3, 4.
  
8. Liozolni aniqlang.
 

a) suv;	d) qand eritmasi;
b) NaCl suvli eritmasi;	e) $\text{Fe(OH}_3\text{)}_3$ eritmasi.
  
9. Mitsellaning tarkibiy qismlari:
  - a) granulalar;
  - b) diffuzion va adsorbsion qavat;
  - d) granula va diffuzion qavat;
  - e) yadro va adsorbtion qavat.
  
10. Granulaning tarkibiy qismalari:
 

a) adsorbsion qavat;	d) yadro va diffuzion qavat;
b) diffuz va adsorbsion qavat;	e) yadro va adsorbsion qavat.

## LABORATORIYA ISHI

### 1- tajriba. Gidroliz usuli bilan temir gidroksid zolini hosil qilish.

Probirkaga 1 m/ 2% li  $\text{FeCl}_3$  eritmasi soling va 10,00 m/ distil-langan suv qo'shing. Aralashmani chayqating va qaynaguncha qizdiring. Hodisani tushintiring. Temir gidroksidi mitsellasining formulasini yozing. Boshqa probirkaga 2,00 ml hosil bo'lgan zoldan olib, bir necha tomchi 0,100 mol/l konsentratsiyali  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  qo'shing, kuzatiladigan hodisani tushuntiring. Temir gidroksid zolini keyingi tajribaga olib qo'ying.

## **2- tajriba. Berlin lazuri zolining olinishi.**

2.1. 0,1%  $K_4[Fe(CN)_6]$ ning 2,0 ml iga 4 tomchi 2% li  $FeCl_3$  qo'shing va aralashmani chayqating. Hosil bo'lgan modda rangiga e'tibor bering (1). Hosil bo'lgan berlin lazuri zolining formulasini yozing.

2.2. 0,1%  $K_4[Fe(CN)_6]$  2,0 ml iga 5 tomchi 0,1%  $FeCl_3$  eritmasidan qo'shing va aralashmani chayqating. Hosil bo'lgan zol rangiga e'tibor bering (2). Berlin lazuri zolining hosil bo'lish reaksiyasini yozing.

Hosil bo'lgan zollarning farqini tushuntiring va kolloid zarrachaning zaryadini ko'rsating. Eritmalarни keyingi tajribaga saqlab qo'ying.

## **3- tajriba. Kolloid zarrachalar zaryadining ishorasini aniqlash.**

3 ta filtr qog'oz oling. Birinchisiga 1 tomchi temir gidroksid zoli, ikkinchisiga 1 tomchi berlin lazuri (1), uchinchisiga 1 tomchi berlin lazuri (2) tomizing. Shimilgandan so'ng dog'lar hosil bo'ladi. Hodisalardan to'g'ri xulosa chiqarish uchun quyidagilarga e'tibor bering: musbat zaryadlangan zollar o'rtasida rangli, atrofida rangsiz dog' hosil qiladi, manfiy zaryadlanganlari chetlarigacha bir tekis taqsimlangan rangli dog' hosil qiladi. Bu hodisa suvgaga nisbatan manfiyoq zaryadlangan qog'oz musbat zarrachalarni adsorbsiyalaydi, manfiylarni esa adsorbsiyalamaydi. Aytib o'tilganlarga asosilanib zarrachalar zaryadi haqida xulosa yozing.

## **4- tajriba. Dializ usulida tozalash.**

Kolloid hالتachaga  $Fe(OH)_3$  ning issiq eritmasini quying. Bu xaltachani shisha tayoqchaga ilib, issiq distillangan suv to'ldirilgan stakanga tushiring. Temperaturani oshirish jarayonni tezlashtirishga yordam beradi. 10–15 minutdan so'ng  $AgNO_3$  yordamida  $Cl^-$  ionlari borligini va yuvilayotgan xaltachadagi sunning rangsizligini aniqlang. Rangiga qarab  $Fe(OH)_3$  mitsellalari membrana orqali eritmaga o'tganini aniqlang.

## **KIMYOVIY REAKSIYALAR KINETIKASI**

**Mashg'ulotning maqsadi.** Reaksiya tezligini oldindan belgilash va aniqlashga sistemali yondoshishni o'rganish; biokimoviy jarayonlar mexanizmi va kinetikasini oldindan belgilash; qaytar reaksiyalar borishini aniqlashni o'rganish; biologik sistemalardagi kimyoviy reaksiyalar yo'nalishini oldindan aniqlash; turli omillarning muvozanat holatga va uning siljishiga ta'sirini eksperimental tekshirish.

**O‘rganilayotgan mavzuning ahamiyatি.** Biokimyoviy reaksiyalar kinetik bo‘lib, ma’lum vaqt talab qiladi. Shuning uchun kimyoviy reaksiyalarning borish mexanizmi va kinetikasini o‘rganish hamda ularni biologik sistemalarga qo‘llashni bilish shifokorlar uchun juda zarur. Dorivor preparatlar kimyoviy kinetika qonunlariga asosan ta’sir qiladi. Biologik obyektlarda boradigan jarayonlar ochiq sistemalarga taalluqli bo‘lib, moddalar va energiya almashinuvi doimo tashqi muhit bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu sistemalarda biokimyoviy reaksiyalar ketma-ket boradi. Masalan, oqsil, uglevodlarning gidroliz reaksiyasi, monosaxaridlarning CO<sub>2</sub> ga aylanishshi va boshqalar. Biokimyoviy reaksiyalarning ko‘pchiligi radikal va fermentlar ishtirokida boradi. Bu reaksiyalar yuqori tezlikda kechishi bilan ajralib turadi. Tirik organizmda kimyoviy o‘zgarishlarning ro‘y berishi moddalar almashinuvi boradigan konkret sharoitga bog‘liq bo‘ladi. Biosistemalardagi kimyoviy reaksiyalar biologik katalizatorlar – fermentlar yordamida amalga oshiriladi. Biokatalizatorlar o‘ziga xosligi va ta’sir yo‘nalishining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Ularning ko‘pchiligi o‘zida metall ionlari va oqsillar saqlaydi. Masalan, gidrolazalar tarkibida rux, kalsiy, marganes; oksidazalar tarkibida esa temir, mis, molibden, kobalt bor.

Bir metall boshqasiga almashtirilganda metall-ferment faolligi o‘zgaradi (ko‘pincha kamayadi). Fermentlarning faolligi pasayishi *fermentopatiya* yoki *enzimopatiya* deb nomlanadigan kasalliklarga olib keladi. Bular irlsiy kasallik hisoblanadi. Masalan, albinizm hujayra tirozinining malaning aylanishini katalizlaydigan tirozinaza fermenti faolligining kamayishi oqibatida vujudga keladi.

### **Boshlang‘ich bilim darajasi:**

1. Gomogen va geterogen sistemalar.
2. Kimyoviy reaksiyalar tezligi haqida tushuncha.
3. Qaytar va qaytmas reaksiyalar.
4. To‘g‘ri va teskari reaksiyalar.

### **Mustaqil tayyorlanish uchun o‘quv adabiyotlar:**

1. *A.C.Ленский.* Введение в бионеорганическую и биофизическую химию. М., 1989, 55–73- betlar.
2. *M.I.Ravich-Sherbo, V.V.Novikov.* Fizik va kolloid ximiya. M., 1975, 101–115- betlar.
3. *A.Abdusamatov, A.Rahimov, S.Musayev.* Fizik va kolloid ximiya. T., 1992, 70–86- betlar.
4. *A.B.Akbarov.* Bioanorganik va biofizik kimyo asoslari. T., 1996, 70–111- betlar.

5. S.S.Qosimova, S.M.Masharipov, Q.O.Najimov. Umumiy va bioorganik kimyodan amaliy mashg'ulotlar. T., 2001, 20–33- betlar.

6. X.H.Hakimov, A.Z.Tatarskaya, N.T.Olimxo'jayeva. Umumiy kimyodan amaliy mashg'ulotlar. T., 1993, 22–43- betlar.

### Darsda ko'rildigan savollar:

1. Kimyoviy reaksiyalar tezligi.
2. Reaksiyalar tezligiga ta'sir etuvchi omillar.
  - 2.1. Reaksiyaga kirishayotgan moddalar tabiatı.
  - 2.2. Konsentratsiya.
  - 2.3. Temperatura.
  - 2.4. Katalizator.
  - 2.5. Bosim (gazsimon moddalar uchun).
3. Gomogen va geterogen kataliz.
4. Fermentlar, ularni organizmdagi roli.
5. Kimyoviy muvozanat. Le-Shatelye prinsipi.

## MA'LUMOTLAR YIG'INDISI

### Kimyoviy kinetika

Kimyoviy reaksiyalarning borish tezligini va tartibini o'rganadigan soha *kimyoviy kinetika* deyiladi.

Kimyoviy kinetika quyidagilarni o'rganadi:

1. Reaksiya tezligining modda tabiatiga, konsentratsiyasiga, temperaturaga va katalizatorlarga bog'liqligi.
2. Reaksiya mexanizmini belgilash, ya'ni turli bosqichlarda hosil bo'ladigan oraliq moddalar tabiatini aniqlash.

*Kimyoviy reaksiyalar tezligi* deb ma'lum vaqt birligi ichida reaksiyaga kirishayotgan birorta modda (yoki reaksiya mahsuloti) konsentratsiyasining o'zgarishiga aytildi. Agar  $t_1$  vaqtida  $A$  moddasi konsentratsiyasi  $c_1$  ga,  $t_2$  vaqtida esa  $c_2$  ga teng bo'lsa, bu vaqtlar oraliq'idagi  $\Delta t = t_1 - t_2$  konsentratsiyaning o'zgarishi  $\Delta c = c_1 - c_2$  bo'ladi. Reaksiyaning o'rtacha tezligi quyidagicha aniqlanadi:

$$v = \frac{c_1 - c_2}{t_1 - t_2} = \pm \frac{\Delta c}{\Delta t}.$$

Ba'zi reaksiyalar juda tez, sekund ulushida (portlash bilan), ba'zilari esa juda sekin (yillar mobaynida) sodir bo'ladi.


Kimyoviy reaksiya tezligiga quyidagi omillar ta'sir etadi:

1. Reaksiyaga kirishayotgan moddalarning tabiatı.
2. Reaksiyaga kirishayotgan moddalarning konsentratsiyasi.

3. Temperatura.
4. Bosim (gazsimon moddalarda).
5. Katalizator mavjudligi.

## **1. Kimyoiy reaksiya tezligiga reaksiyaga kirishuvchi moddalar tabiatining ta'siri**


Moddalar tabiatiga ko'ra reaksiyaga shiddatli yoki sekin kirishadi. Ko'pincha molekulasida ion bog' bilan bog'langan moddalar orasida reaksiya tez boradi. Masalan:




Qutbli kovalent bog' bilan bog'langan moddalar orasida kimyoiy reaksiya nisbatan sekinroq boradi. Masalan:



Qutbsiz kovalent bog' bilan bog'langan moddalar orasida reaksiya oddiy sharoitda juda sekin boradi yoki umuman bormaydi. Masalan:



Kuchli kislotalar reaksiyaga shiddatli, kuchsiz kislotalar esa ancha qiyin kirishadi. Masałan:



(1) reaksiya tezligi (2) reaksiya tezligidan ancha katta.

## **2. Kimyoiy reaksiya tezligiga reaksiyaga kirishuvchi moddalar konsentratsiyasining ta'siri**

Kimyoiy reaksiya sodir bo'lishi uchun reaksiyaga kirishuvchi moddalar molekulalari to'qnashuvi zarur. Molekulalar soni qancha ko'p bo'lsa, to'qnashuvlar soni shuncha ko'p bo'ladi va reaksiya tezligi ham shuncha katta bo'ladi. Yuqorida aytilganlardan kelib chiqqan holda 1867- yili norvegiyalik olimlar K.M.Guldberg va P.Vaagelar tomonidan kimyoiy kinetikaning asosiy qonuni — *massalar ta'siri qonuni kashf etildi*. Bu qonunga ko'ra: o'zgarmas temperaturada kimyoiy reaksiyaning tezligi reaksiyaga kirishayotgan moddalarning konsentratsiyalari ko'paytmasiga to'g'ri proporsional va reaksiya tenglamasidagi modda formulasi oldidagi koeffitsiyent konsentratsiya darajasiga qo'yiladi:

$aA + bB = cC$  reaksiya uchun:

$$V = k \cdot c^a(A) \cdot c^b(B),$$


yoki  $N_2 + 3H_2 = 2NH_3$  reaksiya uchun:

$$V = k \cdot c(N_2) \cdot c^3(H_2),$$


bu yerda:  $k$  – tezlik konstantasi, u doimiy kattalik bo‘lib, reaksiyaga kirishayotgan moddalar konsentratsiyasi 1 ga teng bo‘lganligi reaksiya tezligidir. Agar  $c(A) \cdot c(B) = 1$  mol//bo‘lsa  $V = k$  bo‘ladi.

$k$  reaksiyaga kirishayotgan modda tabiat, temperaturaga bog‘liq bo‘lib, modda konsentratsiyasiga bog‘liq emas.

Kimyoviy reaksiyada gaz va suyuq moddalar bilan birga qattiq moddalar ham qatnashsa, ya’ni geterogen reaksiyalarda qattiq fazadagi modda konsentratsiyasi reaksiya davomida odatda o‘zgarmaydi. Bunday hollarda reaksiya tezligi faqat gaz yoki suyuq moddalar konsentratsiyalari bilan o‘lchanadi:



$$V = k \cdot c(O_2),$$



$$V = k \cdot c^2(HCl)$$

Geterogen reaksiyalarda reaksiya fazalar chegarasi yuzasidagina borganligi sababli, bu yuza qancha katta bo‘lsa, uning suyuq yoki gaz holatdagi modda bilan reaksiyaga kirish tezligi shuncha katta bo‘ladi. Demak, qattiq moddalar maydalangan holda reaksiyaga tezroq kirishadi.

### 3. Kimyoviy reaksiya tezligiga temperaturaning ta’siri

Kimyoviy reaksiya sodir bo‘lishi uchun reaksiyaga kirishuvchi moddalarning to‘qnashishi zaruriy shart, lekin bu yetarli emas. Faqat aktiv molekulalarning to‘qnashuvigina yangi mahsulot hosil bo‘lishiga olib keladi. Temperaturaning ko‘tarilishi aktiv to‘qnashuvlar soni ortishiga va demak, reaksiya tezligining ortishiga olib keladi.

Molekulalar kimyoviy ta’sirlashishga uchrashi uchun o‘rtacha energiyadan ko‘proq kinetik energiyaga ega bo‘lishi kerak. Bu energiya aktivlanish energiyasi deyiladi. Bunday energiyaga ega bo‘lgan molekulalar aktiv molekulalar hisoblanadi.

Kimyoviy reaksiya vaqtida har doim energiya g‘ovi yengiladi, uning cho‘qqisida reaksiyaning oraliq mahsuloti – aktivlangan

*kompleks* hosil bo'ladi. *Aktivlanish energiyasi* – reaksiyaga kirishayotgan moddalarini aktivlangan kompleksdan ajratib turadigan energiya g'ovidir.

Aktivlanish energiyasi juda yuqori bo'lganda energiya g'ovini enga oladigan molekulalar soni oz, reaksiya tezligi juda kichik buladi.

Reaksiya tezligi konstantasini aktivlanish energiyasiga bog'liqligini Arrhenius tenglamasi ifodalaydi:

$$K = A \cdot e^{-E_a/Rt}$$

bu yerda:  $A$  – hajm birligida molekulalar to'qnashuvi soni;  $e$  – natural logarifm asosi ( $e = 2,716$ );  $R$  – universal gaz doimiysi ( $R = 8,314 \text{ J/mol} \cdot \text{K}$ );  $T$  – absolut temperatura,  $K$ ;  $E_a$  – aktivlanish energiyasi ( $\text{J/mol}$ ).

Arrhenius tenglamasining quyidagi ko'rinishi ham mavjud:

$$\lg \frac{k_2}{k_1} = \frac{E_a}{2,303 \cdot R} \cdot \left( \frac{1}{T_2} - \frac{1}{T_1} \right),$$

bu yerda:  $k_1$ ,  $k_2$  – boshlang'ich ( $T_1$ ) va berilgan ( $T_2$ ) temperaturadagi reaksiyaning tezlik konstantasi.

Temperatura ko'tarilganda odatda kimyoviy reaksiya tezligi ortadi. Vant-Goff qoidasiga ko'ra, reaksiya olib boriladigan sistemaning temperurasi  $10^\circ\text{C}$  ga ko'tarilganda reaksiya tezligi 2–4 marta ortadi. Bu qoidaga asosan temperatura bilan reaksiya tezligi o'trasisidagi bog'liqlikni quyidagi tenglama bilan ifodalash mumkin:

$$\gamma = \frac{v_{t_1}+10}{v_{t_2}} = \frac{k_{t_1}+10}{k_{t_2}}; \frac{v_{t_1}}{v_{t_2}} = \gamma^{\frac{t_2-t_1}{10}},$$


bu yerda:  $t_1$  va  $t_2$  – boshlang'ich va oxirgi vaqtligi temperatura;  $v_{t_1}$  va  $v_{t_2}$  boshlang'ich va oxirgi vaqtligi reaksiya tezligi;  $\gamma$  – reaksiyaning temperatura koeffitsiyenti bo'lib, temperatura har  $10^\circ\text{C}$  ga ko'tarilganda reaksiya tezligi necha marta ortishini ko'rsatadi. U ko'pincha 2–4 oraligidagi qiymatlarga teng bo'ladi.

Temperaturaning ko'tarilishi faol molekulalar sonining ortishiga olib keladi, ularning o'zaro to'qnashuvi tufayli reaksiya tezligi ortadi.


Kimyoviy reaksiyalar mexanizmini aniqlash uchun eksperimental yo'l bilan reaksiya tartibini aniqlash zarur.

*Reaksiya tartibi* – reaksiya tezligi tenglamasidagi reaksiyaga kirishayotgan moddalar konsentratsiyalari darajalari yig'indisiga teng.

Masalan,



bu reaksiya 1-tartibli.




bu reaksiya esa 2-tartibli.


*Reaksiyaning molekularligi* deb, kimyoviy ta'sirlashishning eng oddiy ko'rinishida qatnashuvchi molekulalar soniga aytildi.

Reaksiyalar mono-, bi- va uch molekular bo'lishi mumkin.

1 ta molekula o'zgarishi natijasida sodir bo'ladigan reaksiyalar – *monomolekular reaksiyalar* deyiladi:



2 ta molekulaning to'qnashuvidan hosil bo'lgan elementar akt *bimolekular reaksiyalar* deyiladi:




*Uch molekular reaksiyalarda* elementar akt 3 ta molekula to'qnashuvidan sodir bo'ladi:



Amalda uch molekulardan ortiq molekular reaksiyalar uchramaydi, chunki bir vaqtning o'zida, bir nuqtada uchta va undan ortiq molekulaning to'qnashuvi ehtimoli juda oz.

Kimyoviy tenglamaga binoan bir bosqichda kechadigan reaksiyalar *oddiy reaksiyalar* deyiladi. Masalan,



*Murakkab reaksiyalarda* molekulalardan tashqari radikallar, ionlar, faollangan komplekslar qatnashadi. Murakkab reaksiyalar parallel, ketma-ket, zanjir reaksiyalarga bo'linadi.

Yorug'lik ta'sirida boradigan reaksiyalar *fotokimyoviy reaksiyalar* deyiladi. Odam organizmida boradigan ko'pchilik reaksiyalar fotokimyoviy reaksiyalar qatoriga kiradi. Quyoshning ultrabinafsha nurlari ta'sirida odam terisida raxitga qarshi faollikka ega bo'lgan D vitaminini sintezlanadi.

*Fotosintez* – o'simliklar organizmini odam va hayvonlar uchun zarur bo'lgan kislород zahirasi bilan ta'minlovchi jarayon hisoblanadi.

Nurning fotokimyoviy ta'siri shundaki, bunda reaksiyaga kiri-shayotgan molekula yoki atomlar fotonlar ta'sirida qo'zg'algan holga o'tadi.

Fotokimyoviy reaksiyalar tezligi o'zgarishga uchrayotgan modda konsentratsiyasi va temperaturaga bog'liq bo'lib, yutilgan nurlanish energiyasi miqdoriga proporsional.

1. Tabiiy fotokimyoviy reaksiyalar organizmga ijobiy ta'sir etadi.

Masalan: quyosh nuri ta'sirida D provitamin D vitaminga aylanadi, bu esa suyak to'qimalarining regeneratsiyasini kuchaytiradi.

2. Ultrabinafsha nurlar bakteriyalarni o'ldiradi, uning bu hususiyatidan in'eksion eritmalarini sterilizatsiya qilishda foydalaniladi.

3. Fotokimyoviy reaksiyalar biokimyoviy reaksiyalarni qo'zg'a-tuvchisi (stimulyatori) hisoblanadi, shuning uchun ba'zi kasalliklarni profilaktika qilish va davolashda quyosh vannalaridan foydalaniladi.



Fotokimyoviy reaksiyalar nurlantirish chastotasiga ko'ra organizmga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan,  $^{60}\text{Cr}$  izotopining radioaktiv yemirilishi (parchalanishi) natijasida ajralib chiqadigan  $\gamma$ -nurlar saraton bilan kasallangan to'qimalarni yemirishga ijobiy ta'sir ko'rsatish bilan bir vaqtida, biokimyoviy reaksiyalarga salbiy ta'sir ko'rsatadi va uning natijasida nurlanish kasalligi yuzaga keladi. Qonda leykotsitlar sonining kamayib ketishi buning yaqqol dalili bo'ladi.

Har biri faol zarrachaning hosil bo'lishiga olib keladigan ketma-ket takrorlanadigan reaksiyalar *zanjirli reaksiyalar* deyiladi.

Ko'pchilik fotokimyoviy reaksiyalar zanjirli reaksiyalar hisoblanadi; yonish va oksidlanish jarayonlari, kreking, polimerlanish reaksiyasi. Zanjirli reaksiyalarning zamonaviy nazariyasi I.I.Semyonov tomonidan ishlab chiqilgan.


Zanjirli reaksiya 3 bosqichga bo'linadi:

- 1) zanjirning vujudga kelishi;
- 2) zanjirning rivojlanishi;
- 3) zanjirning uzilishi.




Erkin atomlar, shuningdek erkin radikallar zanjirli reaksiyalarda faol zarrachalar bo'lishi mumkin.

*Parallel reaksiyalar* deb, bir vaqtning o'zida bir nechta yo'nalishda boradigan reaksiyalarga aytildi. Masalan:




*Ketma-ket reaksiya* deb, oraliq mahsulotlar hosil bo'lishi bilan boradigan reaksiyalarga aytildi. Masalan, rabino'za (trisaxapid) gidrolizida avval dlisaxarid, so'ng monosaxarid hosil bo'lish reaksiyasi:



Agar bir reaksiyaning borishi ikkinchi reaksiyani keltirib chiqarsa, bunday reaksiyalar *o'zaro ta'sirli reaksiyalar* deyiladi.

Masalan, HI to'g'ridan-to'g'ri  $\text{H}_2\text{CrO}_4$  bilan reaksiyaga kirishmaydi, lekin shu sistemaga ozgina  $\text{FeO}$  qo'shilsa, reaksiya osongina amalga oshadi:




#### 4. Kimyoviy reaksiya tezligiga katalizatorning ta'siri

Kimyoviy reaksiya tezligi katalizatorlar ishtirokida ortib boradi. Katalizatorlar ishtirokida boradigan reaksiyalar *katalitik reaksiyalar* deyiladi. Katalizator ta'sirida reaksiya tezligining o'zgarish hodisasi *kataliz* deyiladi. Katalizatorlar ishtirokida boradigan jarayon *katalitik jarayon* deyiladi. Katalitik reaksiya natijasida katalizator kimyoviy jihatdan o'zgarmay qoladi va uning miqdori doimiyligicha saqlanadi.


Katalizator vazifasini noorganik va organik moddalar bajarishi mumkin. Reaksiyada ularning massasi kichik bo'lib, odatda reaksiya oxirida o'zgarmay qolaveradi. Katalizatorlar faqat ular ishtirokisiz sekin boradigan reaksiya tezligini oshiribgina qolmay, balki katalizatorlarsiz bormaydigan reaksiyalarni amalga oshirishi mumkin. ularning tavsifli joyi shundaki, ular reaksiya davomida sarf bo'lmaydi va shuning uchun oxirgi mahsulot tarkibiga kirmaydi. Ularning ikkinchi ajralib turadigan o'ziga xosligi kimyoviy muvozanatga ta'sir qilmashlidir.

Gomogen va geterogen kataliz mavjud. *Gomogen katalizda* katalizator va reaksiyaga kirishuvchi moddalar bir xil agregat holatda (fazada) bo'ladi:




Gomogen katalizda katalizator massasining hammasi ishtirok etadi, shuning uchun kimyoviy reaksiya tezligi uning konsentratsiyasiga to'g'ri proporsional.

Geterogen yoki kontakt katalizda katalizator odatda qattiq modda bo'lib, reaksiyon aralashma esa suyuq yoki gazsimon holatda bo'ladi:




Geterogen katalizda katalizatorning ta'sir etish mexanizmini adsorbsiya hodisasi asosida tushuntiriladi. *Adsorbsiya* deb moddalarning qattik modda yoki suyuqlik yuzasida to'planish hodisasiga aytiladi. Bu jarayonda qattiq katalizator yuzasida molekulalar adsorbsiyalanadi va bunda ayrim kimyoviy bog'lar bo'shashib, moddalarning reaksiyaga kirish moyilligi ortadi. Bunday holatda katalizator yuzasining katta-kichikligi katta ahamiyatga ega.

Katalizatorning ta'sir mexanizmi oraliq moddalar hosil bo'lishi nazariyasi bilan tushuntiriladi. Quyidagi katalitik reaksiyada:



Katalizator K dastlabki moddalarning biri bilan oraliq modda AK (aktiv kompleks) hosil qiladi:



Hosil bo'lgan oraliq modda dastlabki moddalarning ikkinchisi bilan oson reaksiyaga kirishib reaksiya mahsuloti –  $AB$  modda hosil bo'ladi va katalizator dastlabki holiga qaytadi:



Katalizatorlar kimyoviy reaksiya tezligini oshirishi va sekinlash-tirishi mumkin. Katalizator ishtirokida kimyoviy reaksiya tezligining ortishi *musbat kataliz* deyiladi. Katalizatorlar ishtirokida kimyoviy reaksiyaning sekinlashishi *manfiy kataliz* deyiladi. Bunda qo'llanadigan katalizator esa *ingibitor* deb nomlanadi.

Umuman katalitik reaksiyalarda reaksiya tezligining ortishi aktivlanish energiyasining kamayishi hisobiga sodir bo'ladi.

Tirik organizmda fermentativ kataliz amalga oshiriladi.

Fermentlar – biokatalizatorlardir, ular oqsillarning yuqori darajali ixtisoslashgan sinfidir. Fermentlar oddiy va murakkablarga bo‘linadi. Faqat aminokislotalardan tashkil topgan fermentlar *oddiy fermentlar* deyiladi, *murakkab fermentlar* o‘zida oqsil bo‘lmagan qismlarini ham saqlaydi. Fermentning oqsil qismi *apoferment* (temperaturaga chidamsiz), oqsil bo‘lmagan qismi *koferment* yoki *kofaktor* deyiladi. Koferment – apofermentdan oson ajraladi, kofaktor esa ajralmaydi. Ikkala qismning yig‘indisi *holoferment* deyiladi. Apoferment substratni tanlaydi, koferment esa «aktiv markaz» vazifasini bajaradi. (Fermentlar ta’siriga uchraydigan moddalar *substratlar* deyiladi.) Fermentartning substratlarga ta’siri «aktiv markaz» orqali amalga oshiriladi. Oddiy fermentlarda bu vazifani ayrim aminokislotalarning funksional guruhlari amalga oshiradi, masalan, metionin – CH<sub>3</sub>, treonin – OH, arginin – NH<sub>2</sub>, glutamine – COOH. Murakkab fermentlarda esa «aktiv markaz» vazifasini Na, K, Mg, Ca, Fe, Cu, Zn ionlari (kofaktorlar) bajaradi. Koferment vazifasini ko‘pincha vitaminlar (B<sub>2</sub>, B<sub>6</sub>, B<sub>12</sub>) hamda vitamin tutuvchi nukleotidlari (FAD, FMN, NAD, NADP) bajaradi.

Fermentlar barcha oqsillarga hos bo‘lgan fizik-kimyoviy hususiyatlarini namoyon qilish bilan birga, faqat o‘ziga xos bo‘lgan hususiyatlarini ham namoyon qiladi. Ular yuqori faollikka ega bolishi uchun reaksiyon sistemada optimal sharoit saqlanishi shart. Bu sharoitni tashkil qiladigan omillarga optimal muhit (*pH*), temperatura va shu reaksiyon sistema tarkibida boshqa moddalarning bo‘lishi ham kiradi. Ferment aktivligini oshiradigan moddalar *aktivatorlar* deyiladi, susaytiradigan moddalar esa *ingibitorlar* deyiladi.

Fermentlar organizmda minglab kimyoviy reaksiyalarni katalizlaydi. Ularning biokimyoviy o‘zgarishlardagi biokatalizatorlik o‘rni boshqa kimyoviy reaksiyalardagi katalizatorlarga o‘xshash.

Reaksiya tugagandan so‘ng, ferment katalizator kabi dastlabki erkin holida qoladi. Fermentativ reaksiyalar odatda geterogen-katalitik reaksiyalar turkumiga kiradi.

Koferment sifatida metall ionlarini saqlovchi fermentlar – *metallofermentlar* deyiladi.


Metallofermentlarning faolligi ularda metall ionlarining borligiga bog‘liq, metall ionlari chiqarib yuborilsa ferment faolligi yo‘qoladi. Masalan, rux ioni olib tashlansa, karboangidraza fermenti faolligini yo‘qotadi. Agar sistemaga yetarli miqdorda tuz ko‘rinishidagi rux ionlari kiritilsa, aktivligi yana tiklanadi.

## Komyoviy muvozanat


Komyoviy reaksiyalarni yo'nalishi bo'yicha 2 turga bo'lish mumkin:

a) amaliy jihatdan bir tomonga oxirigacha boradigan qaytmas reaksiyalar. Bunday reaksiyalarning amalga oshishi natijasida cho'kmalar, yomon ionlanadigan kuchsiz elektrolitlar, gazsimon moddalar hosil bo'ladi, yoki ko'p miqdorda energiya ajraladi.

b) bir vaqtning o'zida qarama-qarshi tomonga yo'nalgan qaytar reaksiyalar. Ko'pchilik reaksiyalar amaliy jihatdan qaytar reaksiylardir. Masalan:



Qaytar reaksiyalar oxirigacha bormaydi. Ularning borishida to'g'ri reaksiyalarning tezligi kamayib, teskarisiniki ortib boradi. Ma'lum muddatdan so'ng to'g'ri va teskari reaksiyalarning tezligi teng bo'lib, shunda *komyoviy muvozanat* qaror topadi. Komyoviy muvozanatning miqdoriy tafsifi - komyoviy muvozanat konstantasıdır. Uni ammiak sintezi reaksiyasi uchun quyidagicha keltirib chiqarazish mumkin:



Muvozanat qaror topganda:  $v_1 = v_2$  bo'ladi:


$$k_1 \cdot c(\text{N}_2) \cdot c^3(\text{H}_2) = k_2 \cdot c^2(\text{NH}_3),$$

$$\frac{k_1}{k_2} = \frac{c^2(\text{NH}_3)}{c(\text{N}_2) \cdot c^3(\text{H}_2)}, \quad \frac{k_1}{k_2} = K_m,$$

$K_m$  – muvozanat konstantası.

Muvozanat konstantasi tenglamasiga kiruvchi modda konsentratsiyasi *muvozanat konsentratsiyasi* deyiladi.

*Muvozanat konstantasi* – ushbu temperaturada doimiy son bo'lib, reaksiya mahsuloti bilan boshlang'ich moddalar muvozanat konsentratsiyalari orasidagi nisbatni ko'rsatadi. U qanchalik katta bo'lsa, reaksiya mahsuloti shuncha tez hosil bo'ladi:



$$K_m = \frac{c^c(C) \cdot c^d(D)}{c^a(A) \cdot c^b(B)}.$$

$K_m$  ifodasiga qattiq moddalar konsentratsiyalari kirmaydi. Muvozanat konstantasi har qaysi qaytar reaksiya uchun tafsifli bo'lib, reaksiyaga kirishuvchi moddalar konsentratsiyasiga bog'liq emas.

Qaytar reaksiyalarning muvozanat holati quyidagi omillarga bog'liq:

- 1) reaksiyaga kirishuvchi moddalar konsentratsiyasi;
- 2) temperaturaj;
- 3) bosim (reaksiyada gaz holatdagi moddalar ishtirok etsa).

Reaksiyalarning borish sharoiti o'zgartirilganda kimyoviy muvozanat buziladi. Biror yo'nalish bo'yicha reaksiyaning ko'proq borishi ko'pincha boshlang'ich holatdagi muvozanatdan farq qiladigan yangi kimyoviy muvozanat qaror topishiga olib keladi. Bir muvozanat holatidan boshqasiga o'tish *kimyoviy muvozanatning siljishi* deyiladi. Bu siljishning yo'nalishi Le-Shatelye prinsipiiga bo'ysinadi: kimyoviy muvozanatda turgan sistemaga tashqaridan biror ta'sir ko'rsatilsa, muvozanat shu ta'sirni kamaytiruvchi tomonga siljiydi. Temperaturaning ortishi kimyoviy muvozanatni endotermik reaksiya tomon siljishiga; bosimning oshirilishi gazsimon moddalarlardagi umumiyl mollar sonining kamayishiga; sistemadan reaksiya mahsulotining birini olib tashlash muvozanatni to'g'ri reaksiya tomonga siljishiga olib keladi. Katalizator muvozanat holatiga ta'sir etmaydi, u faqat sistemada tezroq muvozanat o'rnatilishiga yordam beradi.

Kimyoviy reaksiya muvozanat konstantasi Gibbs energiyasining standart o'zgarishiga bog'liq:

$$\Delta G_r^0 = -2,3 \cdot R \cdot T \cdot \lg K_r$$

298 K (25 °C) temperaturada tenglamada quyidagicha o'zgaradi:


$$\Delta G_{298} = -5,69 \lg K_{298},$$

bunda  $\Delta G_{298}$  kJ/ mollarda ifodalangan.

Shunday qilib, bu tenglamalardan ko'rindaniki,  $\Delta G^0 < 0$ ,  $\lg K > 0$ , ya'ni  $K > 1$ . Demak,  $\Delta G^0 < 0$  bo'lganda muvozanat to'g'ri reaksiya tomonga siljiydi va mahsulot chiqishi nisbatan yuqori;  $\Delta G^0 > 0$  da  $\lg K < 1$  bo'lib, mahsulot chiqishi kam bo'ladi.

Kimyoviy reaksiyalarning ko'pchiligi, jumladan tirik organizmda kechadigan ko'pchilik biokimyoviy jarayonlar qaytardir. Shulardan ba'zilarini misol qilib keltirish mumkin:

1. Qondagi gemoglobinning vazifasi qon bilan kislородни o'pkadan tirik organizmning to'qima va hujayralariga olib borishdir. Bu jarayonni umumiyl tarzda quyidagicha tasvirlash mumkin:



bu yerda:  $GFe^{2+}$  — gem.

O'pkada kislород konsentratsiyasi yuqori bo'lgani uchun bu jarayon o'ng tomonga siljigan bo'ladi. Hujayralarda kislорold konsentratsiyasi ancha kichik, shuning uchun bu muvozanat chapga siljiydi va hujayralarning doimo kislород bilan ta'minlanishiga olib keladi.


2. Fermentlarning katalitik ta'siri qaytar jarayon bo'yicha boradi. Masalan, karboangidraza koferment sifatida faol markazda rux ioni  $Zn^{2+}$  saqlaydi:



bu yerda:  $F$  — karboangidraza fermenti;  $AF$  — apoferment.

Organizmda rux tanqisligida muvozanat o'ngga siljiydi va fermentlarning faolligi pasayadi. Rux ionlarining kiritilishi muvozanatni chapga siljitadi, bu esa karboangidraza konsentratsiyasining ortishiga va fermentlar faolligini tiklanishiga olib keladi.

3. Og'ir metallar, masalan simob, qo'rg'oshin va boshqalar bilan zaharlanganda organizmga kompleks hosil qiluvchi moddalar, masalan komplekson (III), unitiol, penitsilamin kabi antidotlar yuboriladi. Bu antidotlar og'ir metallarning ionlari bilan organizmdagi kompleksga nisbatan barqarorroq kompleks birikmalar hosil qiladi va eritma holida organizmdan oson chiqarib yuboriladi:




bu yerda:  $Na_2[H_2\gamma]$  — komplekson (III);  $F$  — ferment.

4. Bakteritsid xususiyatga ega bo'lgan dorivor preparatlar ta'sirini ularni qollaganda muvozanatning siljitishi bilan tushuntirish mumkin. Maslan, izonikotin kislota gidrozidi (GINK) ta'siri. GINK bakteriya fermentlari faol markazdagi metall kationlari bilan o'zaro ta'sirlashib ularni kompleks holda bog'laydi. Buning natijasida muvozanat siljiydi, fermentlar faolligi kamayadi va bakteriya halok bo'ladi.

### Mavzu bo'yicha masalalar va ularni yechish namunalari

**1- masala.** Reaksiyaga kirishuvchi moddalar konsentratsiyasi  $c(NO) = 0,3 \text{ mol/l}$  va  $c(O_2) = 0,15 \text{ mol/l}$  bo'lgan quyidagi reaksiya tezligi  $1,2 \cdot 10^{-3} \text{ mol/l} \cdot \text{sek}$ .



reaksiya uchun tezlik konstantasini aniqlang.

**Berilgan:**

$$\begin{aligned}c(\text{NO}) &= 0,3 \text{ mol/l} \\c(\text{O}_2) &= 0,15 \text{ mol/l} \\v &= 1,2 \cdot 10^{-3} \text{ mol/l} \cdot \text{sek}\end{aligned}$$


---

$$k = ?$$

**Yechish.** Massalar ta'siri qonuniga asosan:

$$v = k \cdot c^2(\text{NO}) \cdot c(\text{O}_2)$$

Bundan:  $k = \frac{v}{c^2(\text{NO}) \cdot c(\text{O}_2)} ;$

$$k = \frac{1,2 \cdot 10^{-3}}{0,3 \cdot 0,3 \cdot 0,15} = 8,9 \cdot 10^2 .$$

Javob:  $k = 8,9 \cdot 10^{-3} .$

**2- masala.** Katalaza fermenti ishtiroqida boradigan vodorod peroksidni parshalanish reaksiyasining tezligi temperatura  $0^\circ\text{C}$  dan  $40^\circ\text{C}$  gacha ko'tarilganda necha marta ortadi?  $E_a = 23,03 \text{ kJ/mol}$ .


**Berilgan:**

$$\begin{aligned}t_1 &= 0^\circ\text{C}, \quad T_1 = 273 \text{ K} \\t_2 &= 40^\circ\text{C}, \quad T_2 = 313 \text{ K} \\E_a &= 23,03 \text{ kJ/mol}\end{aligned}$$


---

$$k_1/k_2 = ?$$

**Yechish.** Aktivlanish energiyasining temperaturaga bog'liqligini qo'llagan holda temperatura kotarilganda katalaza fermenti ishtirokida vodorod peroksidning parchlanish kimyoviy jarayonining tezligi quyidagicha hisoblanadi:



$$\lg \frac{k_2}{k_1} = \frac{E_a}{2,303 \cdot R} \cdot \left( \frac{1}{T_2} - \frac{1}{T_1} \right),$$

bu tenglamada:  $R = 0,0831 \text{ kJ/mol K}$ ;  $k_1$  va  $k_2$  –  $T_1$  va  $T_2$  temperaturadagi tezlik konstantalari.

$$\lg \frac{k_2}{k_1} = \frac{23,03}{2,303 \cdot 0,0831} \cdot \left( \frac{1}{273} - \frac{1}{313} \right) = 0,0572 .$$

Bu qiymatni antilogarifmi aniqlanadi:  $\frac{k_2}{k_1} = 1,14$ .

*Javob:* reaksiya tezligi 1,14 marta ortadi.

**3- masala.**  $A_{(g)} + 2B_{(g)} \rightarrow C_{(g)}$  sistemada muvozanat konsentratsiyalari quyidagicha:  $c(A) = 0,0216 \text{ mol/l}$ ,  $c(B) = 0,120 \text{ mol/l}$ ,  $c(C) = 0,216 \text{ mol/l}$ . Reaksiyaning muvozanat konstantasini toping.

**Berilgan:**

$$c(A) = 0,0216 \text{ mol/l}$$

$$c(B) = 0,120 \text{ mol/l}$$

$$c(C) = 0,216 \text{ mol/l}$$

$$K_m = ?$$

**Yechish.** Berilgan reaksiyaning muvozanat konstantasi massalar ta'siri qonuniga muvofiq quyidagi tenglama bilan ifodalaniladi:


$$K_m = \frac{c(C)}{c(A) \cdot c^2(B)}.$$

Tenglamaga masalada berilgan qiymatlarni qo'yib,  $K_m$  ning qiy-mati topiladi:

$$K_m = \frac{0,216}{0,216 \cdot (0,120)^2} \frac{\text{mol/l}}{\text{mol/l} \cdot (\text{mol/l})^2} = 69,45.$$

*Javob:* reaksiyaning muvozanat konstantasini 69,45 ga teng.

**4- masala.** Quyidagi sistemada bosim oshirilganda kimyoviy muvozanat qaysi tomonga siljiydi:




**Yechish.** Berilgan sistemada 2 mol  $\text{H}_2$  va 1 mol  $\text{O}_2$ , ya'ni jami 3 mol modda reaksiyaga kirishadi. 2 mol  $\text{H}_2\text{O}$  hosil bo'ladi. Le-Shatelye prinsipiiga asosan, bosim oshirilganda muvozanat chapdan o'ngga siljiydi, chunki o'zgarmas hajmda 3 mol boshlang'ich moddadan 2 mol modda hosil bo'lishi bosimning kamayishiga olib keladi, ya'ni ko'rsatilgan tashqi ta'sirni kamaytiradi.

### Mavzuning o'zlashtirilishini mustaqil nazorat qilish uchun savollar va masalalar

1. Massalar ta'siri qonunidagi tezlik konstantasi nimani ko'rsatadi?
2. Katalizator nima sababdan reaksiya tezligini oshiradi?
3. Katalizatorning ta'siri jarayon termodinamikasi bilan qanday bog'langan?

4. Le-Shatelye qonuni nimani ifodalaydi?
5. Le-Shatelye qonunidan biokimyoviy jarayonlarning borishini tushuntirishda foydalaniladimi?
6. Temperatura koeffitsienti 2,8 ga teng bo'lib, temperaturasi 20 °C dan 75 °C gacha ko'tarilganda reaksiya tezligi necha marta ortadi?
7. Reaksiya uchun massalar ta'siri qonuni ifodasini yozing:




### Vaziyatli masalalar

1. Vodorod peroksidning parchalanish energiyasi 25 °C da 75,24 kJ/mol ( $E$ ) ni tashkil etadi. Biror biokatalizator ishtirokida esa  $E_a = 50,14$  kJ/mol ga teng. 25 °C da vodorod peroksidning biokatalizator ishtirokida parchalanish tezligi necha marta ortishini hisoblang.

*Javob:* reaksiya tezligi 25000 marta ortgan.

2. Azot (IV) oksid —  $\text{NO}_2$  o'ziga xos hidli qo'ng'ir rangli gaz, odam uchun zaharli. Uni quyidagi reaksiya yordamida olish mumkin:



- 4 mol azot (II) oksid va 2 mol kisloroddan iborat boshlang'ich aralashma tayyorlangan. Muvozanat holatiga kelganda esa azotning boshlang'ich miqdoridan 20% i qoldi. Kimyoviy muvozanat konstantasi qiymatini aniqlang.

*Javob:*  $K_m = 40$ .

### Test savollari

1. Reaksiya tezligining konsentratsiyaga bog'liqligini qaysi qonun asosida tushuntiriladi?
  - a) Vant-Goff qonuni;
  - b) massalar ta'siri qonuni;
  - c) massaning saqlanish qonuni;
  - d) Gibbs qonuni.
2. Yog'larni parchalaydigan fermentni ko'rsating.
  - a) katalaza;
  - b) peroksidaza;
  - c) lipaza;
  - d) karboksipeptidaza.
3. Katalizator kimyoviy muvozanat qaror topganda qanday ta'sir ko'rsatadi?
  - a) to'g'ri reaksiya tezligini oshiradi;
  - b) kimyoviy muvozanatga ta'sir etmaydi;
  - c) teskari reaksiya tezligini oshiradi;

e) kimyoviy muzanatga ta'sir etmaydi, u faqat muvozanat qaror topishini tezlashtiradi.

4. Ushbu katalitik reaksiyada:  $2\text{SO}_2(\text{g}) + \text{O}_2(\text{g}) \rightleftharpoons 2\text{SO}_3(\text{g})$  katalizator miqdorini 5 marta ko'paytirilsa, muvozanat qanday o'zgaradi?

- a)  $\text{SO}_3$  miqdori 5 marta ortadi;
- b)  $\text{O}_2$  miqdori 2,5 marta kamayadi;
- c)  $\text{SO}_2$  miqdori 5 marta kamayadi;
- e) o'zgarish kiritilmaydi.

5.  $2\text{SO}_2(\text{g}) + \text{O}_2(\text{g}) \rightleftharpoons 2\text{SO}_3(\text{g})$  reaksiyada muvozanat qaror topganda  $c(\text{SO}_2) = 2,35 \text{ mol/l}$ ,  $c(\text{SO}_3) = 8,85 \text{ mol/l}$ ,  $c(\text{O}_2) = 8,02 \text{ mol/l}$  bo'lsa, muvozanat konstantasini aniqlang.

- a) 2,0;    b) 2, 3;    d) 2, 6;    e) 1, 6.

6. Tenglamasi  $2\text{SO}_2(\text{g}) + \text{O}_2(\text{g}) \rightarrow 2\text{SO}_3(\text{g})$ ,  $H = 280 \text{ kJ}$  bo'lgan reaksiya muvozanatini  $\text{SO}_3$  hosil bo'lish tomonga siljitim uchun qaysi parametrlarni o'zgartirish kerak?

- a)  $\text{SO}_2$  miqdorini kamaytirish;
- b)  $\text{SO}_3$  miqdorini oshirish;
- d) bosimni kamaytirish;
- e) temperaturani oshrish;

7. Agar 5 sekund davomida vodorod peroksidning konsentratsiyasi  $0,8 \text{ mol/l}$  dan  $0,6 \text{ mol/l}$  gacha kamaygan bo'lsa, reaksiya tezligining o'rtacha qiymatini ( $\text{mol/l} \cdot \text{sek}$ ) aniqlang.

- a) 2,0;    b) 0,8;    d) 0,01;    e) 0,04.

8. Reaksiya tezligi  $0,03 \text{ mol/l} \cdot \text{sek}$  bo'lsa, 30 sekund davomida boshlang'ich modda konsentratsiyasi qanchaga ( $\text{mol/l} \cdot \text{sek}$ ) o'zgaradi?

- a) 0,2;    b) 0,8;    d) 1,0;    e) 0,9.

9. Azot bilan vodorod orasidagi reaksiya tezligini qaysi omillar kamaytiradi: 1) azot konsentratsiyasini oshirish; 2) ingibitor qo'shish; 3) reaksiyaga kirishuvchi moddalarni aralashtirib turish; 4) sovitish; 5) qizdirish; 6) katalizator qo'shish; 7) bosimni kamaytirish?

- a) 1, 5, 6;    b) 2, 4, 7;    d) 3, 4, 5;    e) 1, 2, 6.

10. Vodorod peroksidni parchalaydigan ferment nomini ko'rsating.

- a) katalaza;    b) peroksidaza;    d) lipaza;    e) karboksipeptidaza.

## LABORATORIYA ISHI

### KIMYOVIY REAKSIYA TEZLIGINING TURLI OMILLARGA BOG'LIQLIGI

#### **1-tajriba. Kimyoviy reaksiya tezligining modda tabiatiga bog'-liqligi.**

Probirkalarga sirka va xlorid kislota quying va ularning har biriga metall holdagi rux bo'lakchasi tashlang. Vodorod ajralib chiqishi intensivligini taqqoslang. Reaksiya tenglamasini yozing. Jarayonning borishidagi tezlikning har xillagini tushuntiring.

#### **2-tajriba. Reaksiyaga kirishuvchi moddalar konsentratsiyasining kymoviy reaksiya tezligiga ta'siri.**

Qora qog'oz ustiga 3 ta probirkaga qo'ying. 1- probirkaga 15 tomchi  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  eritmasi, 2- probirkaga 10 tomchi  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  va 5 tomchi  $\text{H}_2\text{O}$ , 3- probirkaga 5 tomchi  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  eritmasi va 10 tomchi  $\text{H}_2\text{O}$ , alohida probirkaga 5 tomchi  $\text{H}_2\text{SO}_4$  quying. Kislotani 1- probirkaga quying va shu bilan bir vaqtida sekundomerni yoqing. Kuchsiz loyqa hosil bo'lguncha o'tgan vaqtini aniqlang. Huddi shunday holatni 2- va 3- probirkalarda ham tekshiring. Natijalarni jadvalga yozing va xulosa chiqaring.

Probirkaga nomeri	$\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$ tomchilar soni	$\text{H}_2\text{O}$ tomchilar soni	$\text{H}_2\text{SO}_4$ tomchilar soni	Vaqt, sek	Xulosa
1	15	—	5		
2	10	5	5		
3	5	10	5		

#### **3-tajriba. Kimyoviy reaksiya tezligiga temperaturaning ta'siri.**

3.1. 2 ta probirkaga 15 tomchidan  $\text{HCl}$  eritmasi tomizing. Eritmalardan birini isiting. Issiq va sovuq eritmalarga rux bo'lakchalari soling. Vodorod pufakchalari ajralib chiqish tezligi turlicha ekanini taqqoslang va sababini tushuntiring.

3.2. 2 ta probirkaga 5 tomchidan  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$ ,  $\text{NaAsO}_2$  va  $\text{HCl}$  eritmalari tomizing. 1 ta probirkadagi eritmani isiting. Probirkalardagi loyqalanish darajasi farqini solishtiring va tushuntirib bering.

3.3. 2 ta probirkaga 5 tomchidan  $\text{CrCl}_3$ , kompleks (III) va  $\text{CH}_3\text{COONa}$  eritmalari tomizing. 1 ta probirkani eritma qaynaguncha qizdiring. Probirkalardagi eritmalar rangi o'zgarish tezligini solishtiring va tushuntirib bering.


**4- tajriba. Kimyoviy reaksiya tezligining katalizator ishtirokiga bog'liqligi.**

2 ta probirkaga 10 tomchidan  $H_2C_2O_4$  va 8 tomchidan sulfat kislota eritmasi tomizing. Probirkalarning biriga bir necha bo'lak  $MnSO_4$  kristallaridan soling. Songra ikkala probirkaga 5 tomchidan  $KMnO_4$  eritmasi qo'shing. Probirkalardagi eritmalar rangining yo'qolish tezligini taqqoslang va berilgan reaksiyada  $MnSO_4$  ning ahamiyatini tushuntiring.

### Komyoviy muvozanat bo'yicha sifat reaksiyalari

**1- tajriba. Komyoviy muvozanatga reaksiyaga kirishayotgan modda konsentratsiyalarining ta'siri.**

Tajriba uchun quyidagi reaksiyadan foydalanish qulay:




$Fe(SCN)_3$ , modda to'q qizil rangga ega,  $FeCl_3$  eritmasi och sariq rangli.  $NH_4SCN$ ,  $NH_4Cl$  – rangsiz. 4 ta konussimon probirkaga 20 tomchidan 0,005 mol//li  $FeCl_3$  eritmasi va 0,15 mol//li  $NH_4SCN$  eritmasi soling. 1 ta probirkani hosil qilingan eritma bilan tajriba natijalarini taqqoslash uchun olib qo'ying. Qolgan probirkalarga quyidagi reaktivlardan: birinchisiga – 1 tomchi  $NH_4SCN$  ning to'yigan eritmasi, ikkinchisiga – 1 tomchi  $FeCl_3$  ning to'yigan eritmasi, uchinchi probirkaga  $NH_4Cl$  ning bir necha kristalidan soling. Hosil bo'lgan eritmalar rangining intensivligini etalon moddaning rangi bilan solishtiring. Kuzatuv natijalari va xulosalarni jadvalga yozing.

Probiraka nomeri	Qo'shilgan reaktiv	Rang intensivligining o'zgarishi, rang o'zgarishining yo'nalishi (susayishi, kuchayishi, muvozanatning chapga, o'ngga siljishi)
1		
2		

1-, 2- va 3- probirkalardagi rang o'zgarishini 4- probirka bilan taqqoslab tushuntiring.

**2-tajriba. Komyoviy muvozanatga temperaturaning ta'siri.**

2.1. Yodning kraxmal bilan o'zarot ta'siri natijasida ko'k rangli, murakkab tarkibli yod-kraxmal hosil bo'ladi. Reaksiya ekzotermik, muvozanatni shartli ravishda quyidagi sxema bilan ifodalash mumkin:



2 ta probirkaga 4–5 tomchidan kraxmal eritmasi soling va 1 tomchi suyultirilgan yod eritmasi qo'shing. Eritma ko'k rangga bo'yaladi. Probirkalarning birini qizdiring va rang o'zgarishini kuzating. So'ngra probirkani jo'mrakdan oqayotgan suv ostida sovuting. Eritma rangida qanday o'zgarish ro'y beradi?

Tajribani tushuntirib bering.


2.2. 2 ta probirkaga 5–7 ml distillangan suv, 2–3 tomchi fenolftalein va 1 tomchidan konsentrlangan ammiak eritmasi soling. 1 ta probirkani taqqoslash uchun qoldiring, 2- sini qizdiring. Qizdirish eritmada ammiak ajralib chiqishini va shu bilan birga muvozanat siljishini tezlatadi:



Qizdirilganda ammiak eritmasining rangi o'zgarishini tushuntiring.

### **3- tajriba. Kimyoviy muvozanatga muhitning ta'siri.**

Xrom (VI) ioni ishqoriy eritmada sariq rangli xromat ioni –  $\text{CrO}_4^{2-}$  shaklida namoyon bo'ladi.  $pH$  kamaytirish natijasida  $\text{CrO}_4^{2-}$  protonlashadi va kislotali muhitda zarg'aldoq rangli bixromat ioni –  $\text{Cr}_2\text{O}_7^{2-}$  hosil bo'ladi:



Probirkaga 2–3 ml 10% li (massa jihatdan)  $\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$  eritmasi quying. Shu eritmaga tomchilab konsentrlangan ishqor eritmasi quying, rang o'zgarishini kuzating. Eritma sariq rangga kirganda tomchilatib konsentrlangan sulfat kislota qo'shing. Rang o'zgarishini kuzating.

Sodir bo'layotgan hodisalarни tushuntiring.

### **4- tajriba. Muvozanatni kam dissotsiatsiyalanadigan modda hosil qilish natijasida siljitish.**

Probirkaga 4–5 ml magniy xlorid eritmasidan soling va astasekin cho'kma hosil bo'lguncha natriy gidroksid eritmasidan qo'shing. Cho'kmani chayqating, hosil bo'lgan suspenziyani boshqa 2 ta probirkaga soling.

1- probirkani taqqoslash uchun qoldiring, 2- siga cho'kma eriguncha xlorid kislota qo'shing, 3-siga cho'kma eriguncha ammoniy xlorid qo'shing. Magniy gidroksidning xlorid kislota va ammoniy xloridda erishini tushuntirib bering.

## ILOVALAR

Jadvallarda keltirilgan ma'lumotlar professor Yu.A.Yershov tahriri ostida tuzilgan metodik qo'llanmadan olingen.

### Fizikaviy doimiyalar

Avogadro soni .....	$N_A = 6,02 \cdot 10^{23} \text{ mol}^{-1}$
Universal gaz doimiysi .....	$R = 8,31 \text{ kJ/mol (kPa} \cdot \text{l/K mol)}$
Gazning normal molyar hajmi .....	$V_m = 22,4 \text{ l/mol}$
Plank doimiysi .....	$h = 6,63 \cdot 10^{-34} \text{ J/sek}$
Elektron zaryadi .....	$e = 1,60 \cdot 10^{-19} \text{ KI.}$
Faradey soni .....	$F = 9,65 \cdot 10^4 \text{ KI/mol.}$

*I-jadval*

### O'lcamlar xalqaro sistemasi (SI) ning asosiy birliklari

Kattalik	Birlik	
	nomi	Belgisi
<b>I. Asosiy kattaliklar</b>		
Uzunlik	metr	m
Vaqt	sekund	sek
Massa	kilogramm	kg
Elektr tok kuchi	amper	A
Termodinamik harorat	kelvin	K
Moddaning miqdori	mol	n
<b>II. Vaqt va kenglik kattaliklari ko'paytmasi</b>		
Hajm	kub metr	m <sup>3</sup>
Tezlik	metr sekund	m/sek
<b>III. Mexanik va issiqlik kattaliklari ko'paytmasi</b>		
Zichlik	kub metrlardagi kilogramm	kg/m <sup>3</sup>
Bosim	Paskal	Pa
Energiya, ish, issiqlik miqdori, termodinamik potensial	Joul	J
Entropiya	Joul/Kelvin	J/K

2- jadval

**Ba’zi tuzlarning turli temperaturada eruvchanligi  
(1 g suvsiz modda 100 g suvda)**

	<b>Modda</b>	<b>0 °C</b>	<b>10 °C</b>	<b>20 °C</b>	<b>30 °C</b>	<b>40 °C</b>
1	AgNO <sub>3</sub>	122	170	222	300	376
2	CuSO <sub>4</sub> ·5H <sub>2</sub> O	14,3	17,4	20,8	25	28,5
3	HgCl <sub>2</sub>	4,3	5,6	6,6	8,3	9,9
4	KCl	27,6	31,0	34,0	37,0	40,0
5	NH <sub>4</sub> Cl	29,4	33,3	37,2	41,4	45,8
6	NaCl	35,7	35,8	36,0	36,3	36,6
7	Ca(HCO <sub>3</sub> ) <sub>2</sub>	14,2	—	14,3	—	14,5
8	Li <sub>2</sub> SO <sub>4</sub>	26,2	—	25,7	—	24,5
9	MgSO <sub>4</sub> · H <sub>2</sub> O	—	—	38,6	37,8	36,3

3- jadval

**Ba’zi organik moddalarning yonish issiqligi**

<b>Modda</b>	<b>Agregat holati</b>	<b>Yonish <math>\Delta H^0</math>, kJ/mol</b>	<b>Modda</b>	<b>Agregat holat</b>	<b>Yonish <math>\Delta H^0</math>, kJ/mol</b>
CH <sub>4</sub>	g	−882	C <sub>6</sub> H <sub>6</sub>	s	−3170
CO(NH <sub>2</sub> ) <sub>2</sub>	kr	−634	C <sub>6</sub> H <sub>12</sub> O <sub>6</sub>	s	−3170
C <sub>2</sub> H <sub>4</sub>	g	−1390	C <sub>6</sub> H <sub>12</sub> O <sub>6</sub>	kr	−2810
C <sub>2</sub> H <sub>5</sub> OH	s	−1370	CH <sub>3</sub> COOH	s	−872

4- jadval

**Ba‘zi noorganik moddalarning suvda erish issiqligi**

<b>Modda</b>	<b><math>\Delta H^0</math> erish, kJ/mol</b>	<b>Modda</b>	<b><math>\Delta H^0</math> erish, kJ/mol</b>
$\text{Al}_2(\text{SO}_4)_3$	—350,5	$\text{MgCl}_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$	—12,3
$\text{CaCl}_2$	—75,3	$\text{Na}_2\text{CO}_3$	—23,6
$\text{CaCl}_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$	—19,1	$\text{Na}_2\text{CO}_3 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$	—67,5
$\text{CuSO}_4$	—66,5	$\text{Na}_2\text{SO}_4$	—2,3
$\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$	—11,6	$\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$	—79,1
KCl	—16,7	$\text{ZnSO}_4$	—77,6

5- jadval

**Tibbiyotda qo‘llanadigan ba‘zi moddalarning termodinamik ko‘rsatkichlari** $\Delta H_{298}^0$  — moddaning hosil bo‘lish standart issiqligi, kJ/mol; $\Delta G_{298}^0$  — oddiy moddalardan murakkab modda hosil bo‘lishida Gibbs energiyasining standart entalpiyasi, kJ/mol; $\Delta S_{298}$  — moddaning standart entalpiyasi, kJ/mol · K.*Jadvalda qilingan qisqartmalar:*

kr — kristallik holat;

g — gazsimon holat;

s — suyuq holat;

aq — suvli eritmadagi modda miqdori ko‘rsatkichi;

gr — grafit.

<b>Modda yoki ion</b>	<b>Aggregat holat</b>	$\Delta H_{298}^0$	$\Delta G_{298}^0$	$\Delta S_{298}$
C	gr	0	0	5,7
C	olmos	1,9	2,9	2,4
CO	g	—111	—137	198
$\text{CO}_2$	g	—394	—394	214
$\text{CO}_2$	aq	—413	—386	121

$\text{H}_2\text{CO}_3$	aq	-700	-623	187
$\text{HCO}_3^-$	aq	-691	-587	95
$\text{CO}_3^{2-}$	aq	-676	-528	-53
$\text{Ca}^{2+}$	aq	-543	-553	-55
$\text{CaO}$	kr	-636	-604	40
$\text{Ca(OH)}_2$	kr	-987	-897	76
$\text{CaSO}_4$	kr	1430	-1320	107
$\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$	kr	-2020	-1790	194
$\text{CaCl}_2$	kr	-795	-750	114
$\text{CaCl}_2$	aq	-877	-815	55
$\text{CaCl}_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$	kr	-2600	-	-
$\text{Cl}_2$	g	0	0	223
$\text{HCl}$	g	-92,3	-95,3	187
$\text{HCl}$	aq	-167	-131	55
$\text{CuSO}_4 \cdot 3\text{H}_2\text{O}$	kr	-1680	-1400	225
$\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$	kr	-2280	-1880	306
$\text{H}_2\text{O}$	s	-286	-238	70
$\text{H}_2\text{O}$	g	-242	-229	189
$\text{H}_2\text{O}_2$	s	-188	-118	-
$\text{H}_2\text{O}_2$	aq	-191	-	-
$\text{Br}^-$	aq	-372	-385	183
$\text{Cl}_2$	g	-216	-235	240
$\text{Cl}^-$	aq	-419	-414	158
$\text{I}^-$	aq	-307	-334	212
$\text{KMnO}_4$	kr	-814	-714	172
$\text{MgCl}_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$	kr	-2500	-1280	366

### Ba'zi indikatorlarning xossalari

Indikator	Rang o'zgarish oraligi	Indikator $K_{\text{ind.}}$	Indikator rangi	
			Kislota shakli	Asos shakli
Metilzarg'aldog'i	3,1 — 4,4	3,75	Pushti	Sariq
Metil qizili	4,2 — 6,2	5,3	Qizil	Sariq
Lakmus	5,0 — 8,0	6,5	Qizil	Ko'k
<i>n</i> -nitrofenol	5,6 — 7,4	6,5	Rangsiz	Sariq
Neytral qizili	6,8 — 8,0	7,5	Qizil	Sariq
Fenolftalein	8,2 — 9,8	9,0	Rangsiz	Malina rang
Timolftalein	9,3 — 10,5	9,9	Rangsiz	Ko'k

### Eritma konsentratsiyasini ifodalash usullari

Nomi	O'lchov birligi	Hisoblash formulalari
Molyar konsentratsiya, $c(X)$	mol/l	$c(X) = \frac{n(X)}{V(\text{eritma})} = \frac{m(X)}{M(X) \cdot V(\text{eritma})}$
Ekvivalentning molyar konsentratsiyasi, $c\left(\frac{1}{Z} X\right)$	mol/l	$c\left(\frac{1}{Z} X\right) = \frac{n\left(\frac{1}{Z} X\right)}{V(\text{eritma})} = \frac{m(X)}{M\left(\frac{1}{Z} X\right) \cdot V(\text{eritma})}$
Molyal konsentratsiya, $b(X)$	mol/kg	$b(X) = \frac{n(X)}{m(\text{erituvchi})} = \frac{m(X)}{M(X) \cdot m(\text{erituvchi})}$
Komponentning massa ulushi, $\omega$		$\omega(X) = \frac{m(X)}{m(\text{eritma})}$
Komponentning massa ulushi, $\omega\%$	%	$\omega\%(X) = \frac{m(X)}{m(\text{eritma})} \cdot 100\%$

Komponentning molyar ulushi, $n(X)$		$N(X) = \frac{n(X)}{n(\text{eritma})}$
Komponentning hajmiy ulushi, $\phi(X)$		$\phi(X) = \frac{V(X)}{V(\text{eritma})}$
Titr, $t(X)$	g/ml	$t(X) = \frac{m(X)}{V(\text{eritma})}$

8-jadval

**Ba'zi erituvchilarning krioskopik va ebulioskopik doimiyllari**

Erituvchi	$K$ , grad · kg/mol	$E$ , grad · kg/mol
Suv	1,86	0,52
Benzol	5,12	2,57
Nitrobenzol	6,9	5,27
Sirka kislota	3,9	3,1

6

9-jadval

**Ba'zi kam eriydigan tuz va gidroksidlarning  
suvli eritmalaridagi eruvchanlik ko'paytmasi konstantalari**

Modda	$K_{\text{eruvchi}}$	Modda	$K_{\text{eruvchi}}$
AgBr	$5,3 \cdot 10^{-13}$	$\text{Sr}_3(\text{PO}_4)_2$	$1,0 \cdot 10^{-31}$
AgSCN	$1,1 \cdot 10^{-12}$	$\text{Co}(\text{OH})_3$	$2,0 \cdot 10^{-16}$
$\text{Ag}_2\text{CrO}_4$	$1,1 \cdot 10^{-12}$	CuS	$6,3 \cdot 10^{-36}$
AgCl	$1,78 \cdot 10^{-10}$	$\text{Cu}(\text{OH})_2$	$5,0 \cdot 10^{-20}$
$\text{Ag}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$	$1,1 \cdot 10^{-10}$	$\text{Cr}(\text{OH})_3$	$6,3 \cdot 10^{-31}$
AgJ	$8,3 \cdot 10^{-17}$	$\text{Fe}(\text{OH})_2$	$1,0 \cdot 10^{-15}$
$\text{Ag}_2\text{S}$	$6,3 \cdot 10^{-50}$	$\text{Fe}(\text{OH})_3$	$3,2 \cdot 10^{-38}$
$\text{Al}(\text{OH})_3$	$1,0 \cdot 10^{-32}$	$\text{Hg}_2\text{Cl}_2$	$1,3 \cdot 10^{-18}$
$\text{BaCO}_3$	$5,1 \cdot 10^{-9}$	HgS	$4,0 \cdot 10^{-53}$
$\text{BaC}_2\text{O}_4$	$1,1 \cdot 10^{-7}$	$\text{Mg CO}_3$	$4,0 \cdot 10^{-5}$
$\text{BaCrO}_4$	$1,2 \cdot 10^{-10}$	$\text{Mg}(\text{OH})_2$	$6,0 \cdot 10^{-10}$

$\text{Ba}_3(\text{PO}_4)_2$	$6,0 \cdot 10^{-39}$	$\text{Mg}_3(\text{PO}_4)_2$	$1,0 \cdot 10^{-23}$
$\text{BaSO}_4$	$1,1 \cdot 10^{-10}$	$\text{Mn}(\text{OH})_2$	$4,5 \cdot 10^{-13}$
$\text{CaCO}_3$	$4,8 \cdot 10^{-9}$	$\text{MnS}$	$2,5 \cdot 10^{-10}$
$\text{Ca}_2\text{C}_2\text{O}_4$	$2,3 \cdot 10^{-9}$	$\text{PbCl}_2$	$1,6 \cdot 10^{-5}$
$\text{CaSO}_4$	$9,1 \cdot 10^{-6}$	$\text{PbCrO}_4$	$1,8 \cdot 10^{-14}$
$\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2$	$2,0 \cdot 10^{-29}$	$\text{PbI}_2$	$1,1 \cdot 10^{-9}$
$\text{CdS}$	$1,1 \cdot 10^{-29}$	$\text{Pb}(\text{OH})_2$	$1,1 \cdot 10^{-27}$
$\text{PbSO}_4$	$1,6 \cdot 10^{-8}$	$\text{PbS}$	$2,5 \cdot 10^{-27}$
$\text{SrCO}_3$	$1,1 \cdot 10^{-10}$	$\text{Zn}(\text{OH})_2$	$7,1 \cdot 10^{-18}$
$\text{SrCrO}_4$	$3,5 \cdot 10^{-5}$	$\text{ZnS}$	$1,6 \cdot 10^{-24}$
$\text{SrC}_2\text{O}_4$	$5,5 \cdot 10^{-8}$	$\text{ZnCO}_3$	$1,4 \cdot 10^{-11}$

10-jadval

### Ba'zi kislota va asoslarning dissotsiatsiyalanish konstantalari

Modda	K	pK
$\text{H}_2\text{SO}_4$	$K_1=1,4 \cdot 10^{-2}$ $K_2=6,0 \cdot 10^{-8}$	1,85 7,20
$\text{H}_2\text{S}$	$K_1=1,0 \cdot 10^{-7}$ $K_2=2,5 \cdot 10^{-13}$	6,99 12,60
$\text{H}_2\text{CO}_3$	$K_1=4,5 \cdot 10^{-7}$ $K_2=4,8 \cdot 10^{-11}$	6,32 10,35
$\text{H}_3\text{PO}_4$	$K_1=7,1 \cdot 10^{-3}$ $K_2=6,2 \cdot 10^{-8}$ $K_3=5,0 \cdot 10^{-13}$	2,15 7,21 12,0
$\text{CH}_3\text{COOH}$	$K_1=1,74 \cdot 10^{-5}$	4,76
$\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4$	$K_1=5,6 \cdot 10^{-2}$ $K_2=5,4 \cdot 10^{-5}$	1,25 4,27
$\text{NH}_4\text{OH}$	$K=1,76 \cdot 10^{-5}$	4,75
$\text{H}_2\text{O}$	$K=1,8 \cdot 10^{-15}$	15,74
$\text{Ca}(\text{OH})_2$	$K_2=4,0 \cdot 10^{-2}$	2,40
$\text{Cu}(\text{OH})_2$	$K_2=7,9 \cdot 10^{-14}$	
$\text{Mn}(\text{OH})_2$	$K=3,0 \cdot 10^{-4}$	
$\text{Zn}(\text{OH})_2$	$K_1=4,4 \cdot 10^{-5}$ $K_2=1,5 \cdot 10^{-9}$	4,36 8,83

11-jadval

### Suvli eritmalardagi ba'zi kompleks ionlarning beqarorlik konstantalari

Kompleks ion	$K_{\text{beqarorlik}}$	Kompleks ion	$K_{\text{beqarorlik}}$
$[\text{Ag}(\text{CN})_2]^-$	$1,4 \cdot 10^{-20}$	$[\text{Co}(\text{NH}_3)_6]^{3+}$	$6,17 \cdot 10^{-36}$
$[\text{Ag}(\text{NH}_3)_2]^+$	$5,75 \cdot 10^{-8}$	$[\text{Fe}(\text{CN})_6]^{4-}$	$1,0 \cdot 10^{-24}$
$[\text{Ag}(\text{NO}_2)_2]^-$	$1,48 \cdot 10^{-8}$	$[\text{Fe}(\text{CN})_6]^{3-}$	$1,0 \cdot 10^{-31}$
$[\text{Ag}(\text{SCH})_2]^-$	$5,37 \cdot 10^{-9}$	$[\text{Fe}(\text{SCH})_6]^{3-}$	$5,99 \cdot 10^{-4}$
$[\text{Ag}(\text{S}_2\text{O}_3)_2]^{3-}$	$3,47 \cdot 10^{-14}$	$[\text{HgBr}_4]^{2-}$	$1,0 \cdot 10^{-21}$
$[\text{Cu}(\text{NH}_3)_4]^{2+}$	$9,33 \cdot 10^{-13}$	$[\text{HgJ}_4]^{2-}$	$1,5 \cdot 10^{-30}$
$[\text{Co}(\text{NH}_3)_4]^{2+}$	$4,07 \cdot 10^{-9}$	$[\text{Ni}(\text{NH}_3)_4]^{2+}$	$3,4 \cdot 10^{-8}$
$[\text{Co}(\text{NH}_3)_6]^{2+}$	$8,51 \cdot 10^{-6}$	$[\text{Zn}(\text{NH}_3)_4]^{2+}$	$2,0 \cdot 10^{-9}$
$[\text{Co}(\text{SCH})_4]^{2-}$	$6,31 \cdot 10^{-3}$	$[\text{Zn}(\text{SCH})_4]^{2-}$	$2,0 \cdot 10^{-4}$

12-jadval

### Odam organizmidagi kimyoviy elementlar miqdori

Protsent miqdori	Elementlar
10	O(62), C(21), H(10)
1—10	N(3), Ca(2), P(1)
0,01—1	K(0,23), S(0,16), Cl(0,1), Na(0,08), Mg(0,027), Fe(0,01)
$10^{-3} — 10^{-2}$	Zn, Sr
$10^{-4} — 10^{-3}$	Cu, Cd, Br, Si, Cs
$10^{-5} — 10^{-3}$	J, Sn
$10^{-5} — 10^{-4}$	Mn, V, B, Si, Cr, Al, Ba
$10^{-6} — 10^{-3}$	Mo, Pb, Ti
$10^{-7} — 10^{-4}$	Be, Ag
$10^{-6} — 10^{-5}$	Co, Ni, La, Le, As, Hg, Bi
$10^{-7} — 10^{-5}$	Se, Sb, U
$10^{-7} — 10^{-6}$	Th
$10^{-12} — 10^{-4}$	Ru

**Kimyoviy elemntlarning yer po'stida tarqanganligi  
(V.I.Vernadskiy dekadalari bo'yicha)**

Dekada	%	Elementlar
I.	>10	O(49,13) Si(26,00)
II.	1–10	Al(7,45), Fe(4,20), Ca(3,25), Na(2,40), K(2,35), Mg(2,35), H(1,00)
III.	10 <sup>-1</sup> –1	Ti(0,61), C(0,35), Cl(0,20), P(0,10), S(0,10),
IV.	10 <sup>-2</sup> – 10 <sup>-1</sup>	F, Ba, N, Sr, Zr, V, Ni, Zn, B, Cu, Sr
V.	10 <sup>-3</sup> – 10 <sup>-2</sup>	Pb, Li, V, Be, Ce, Co, Th, Nb, Pb, Ga, Mo, Br, U, Vb, Dy, Gd, Sm, Er, La, Sn
VI.	10 <sup>-4</sup> – 10 <sup>-3</sup>	Sc, W, Cs, Cd, As, Pr, Hf, Ar, Zr, Ag, Tu, Ao, Tb, I, Ge
VII.	10 <sup>-5</sup> – 10 <sup>-4</sup>	Se, Sb, Nb, Ta, Eu, Jn, Bi, Tl, Ag
VIII.	10 <sup>-6</sup> – 10 <sup>-5</sup>	Pd, Pt, Ru, Os, Po, Au, Kh, Gr, Te, He
IX.	10 <sup>-7</sup> – 10 <sup>-6</sup>	Ne, Re, Tc
X.	10 <sup>-8</sup> – 10 <sup>-7</sup>	Kr
XI.	10 <sup>-9</sup> – 10 <sup>-8</sup>	Xe
XII.	10 <sup>-10</sup> – 10 <sup>-9</sup>	Ra
XIII.	10 <sup>-11</sup> – 10 <sup>-10</sup>	Pa

**Ba'zi atom va ionlarning radiuslari (pm)**

Atom, ion	Yadro zarya- di	Atom ra- diusi	Ion ra- diusi	Atom, ion	Yadro zarya- di	Atom ra- diusi	Ion ra- diusi
H, H <sup>+</sup>	2	53	208	Li, Li <sup>+</sup>	3	155	60
He	1	93	—	Be, Be <sup>2+</sup>	4	112	31
B,B <sup>3+</sup>	5	98	20	Zn, Zn <sup>2+</sup>	30	138	74
C,C <sup>4+</sup>	6	91	15	Ga, Ga <sup>3+</sup>	31	141	62

N, N <sup>3-</sup>	7	92	171	Ge, Ge <sup>4+</sup>	32	137	53
O, O <sup>2-</sup>	8	73	140	As, As <sup>5+</sup>	33	139	47
F, F <sup>-</sup>	9	72	136	Se, Se <sup>2-</sup>	34	140	198
Ne	10	71	—	Br, Br <sup>-</sup>	35	114	195
Na, Na <sup>+</sup>	11	190	95	Kr	36	112	—
Mg, Mg <sup>2+</sup>	12	160	65	Rd, Rd <sup>+</sup>	37	246	148
Al, Al <sup>3+</sup>	13	143	50	Sr, Sr <sup>2+</sup>	38	215	113
Si, Si <sup>4+</sup>	14	132	41	V, V <sup>3+</sup>	39	178	93
P, P <sup>3-</sup>	15	128	212	Zr, Zr <sup>4+</sup>	40	160	80
S, S <sup>2-</sup>	16	127	184	Nb, Nb <sup>5+</sup>	41	146	70
Cl, Cl <sup>-</sup>	17	99	181	Mo, Mo <sup>5+</sup>	42	139	62
Ar	18	98	—	Ru, Ru <sup>3+</sup>	44	134	69
K, K <sup>+</sup>	19	235	133	Rh, Rh <sup>2+</sup>	45	134	86
Ca, Ca <sup>2+</sup>	20	197	99	Pd, Pd <sup>2+</sup>	46	137	86
Sc, Sc <sup>3+</sup>	21	162	87	Ag, Ag <sup>+</sup>	47	144	126
Ti, Ti <sup>4+</sup>	22	147	68	Cd, Cd <sup>2+</sup>	48	154	97
V, V <sup>5+</sup>	23	134	59	In, In <sup>3+</sup>	49	166	81
Cr, Cr <sup>6+</sup>	24	130	52	Sn, Sn <sup>2+</sup>	50	162	112
Mn, Mn <sup>7+</sup>	25	135	56	Sb, Sb <sup>5+</sup>	51	159	62
Fe, Fe <sup>2+</sup>	26	126	76	Te, Te <sup>2+</sup>	52	160	221
Co, Co <sup>2+</sup>	27	125	74	I, I <sup>-</sup>	53	133	216
Ni, Ni <sup>2+</sup>	28	124	72	Xe	54	131	—
Cu, Cu <sup>2+</sup>	29	128	69	Cs, Cs <sup>+</sup>	55	267	169

Ba, Ba <sup>2+</sup>	56	222	135	Pt, Pt <sup>2+</sup>	78	139	96
La, La <sup>3+</sup>	57	187	115	Au, Au <sup>+</sup>	79	146	137
Ta, Ta <sup>5+</sup>	73	149	73	Hg, Hg <sup>2+</sup>	80	157	110
W, W <sup>6+</sup>	74	141	68	Ta, Ta <sup>3+</sup>	81	171	95
Os, Os <sup>4+</sup>	76	135	69	Pb, Pb <sup>2+</sup>	82	175	120
Ir, Ir <sup>4+</sup>	77	136	66	Bi, Bi <sup>3+</sup>	83	170	120

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **A.Abdusamatov, A.Rahimov, S.Musayev.** Fizik va kolloid ximiya. — T., 1992, 231 bet.
2. **А.С.Ленский.** Введение в бионеорганическую и биофизическую химию. — М., 1989, 255- bet.
3. **А.В.Бабков, Г.Н.Горшкова, А.М.Кононов.** Практикум по общей химии с элементами количественного анализа. — М., 1978, 167- bet.
4. **Akbarov A.B.** Bioanorganik va biofizik kimyo asoslari. — T., 1996, 396- bet.
5. **Л.И.Андропов.** Теоретическая электрохимия. — М., 1984, 1 va 2- qism.
6. **Н.Л.Глинка.** Общая химия. — М., 1984, 702- bet.
7. **M.I.Ravich-Sherbo, G.A.Annenkov.** Fizik va kolloid ximiya. — T., 1971, 265- bet.
8. **C.C.Касымова.** Биогенные элементы. — Т., 1990, 184- bet.
9. **V.N.Alekseyev.** Yarim mikrometod bilan qilinadigan ximiyaviy sifat analizi kursi. — Т., 1976, 624- bet.
10. **M.Mirkomilova.** Analitik kimyo. — T., 1996, 336- bet.
11. **X.U.Usmonov, X.R. Rustamov, X.R.Rahimov.** Fizikaviy ximiya. — T., 1963, 623- bet.
12. **X.H.Hakimov, A.Z.Tatarskaya, N.T.Olimxo'jayeva.** Umumiy kimyodan amaliy mashg'ulotlar. — T., 1993, 263- bet.
13. **Р.Чанг.** Физическая химия с приложением к биологическим системам. — М., 1980, 633- bet.
14. **A.J.Xamroyev, A.G.Mahsumov.** Umumiy kimyodan amaliy mashg'u-lotlar. — T., 2004, 152- bet.

# MUNDARIJA

So‘zboshi .....	3
<b>I bob. Kimyoviy laboratoriyalarda ishlash tartibi .....</b>	5
Kimyoviy laboratoriyalarda ishlashda texnika xavfsizligi qoidalari .....	6
<b>II bob. Eritmalar .....</b>	7
Xalqaro SI sistemasida eritma konsentratsiyasini ifodalash usullari .....	7
Kislota-asosli muvozanat .....	20
Bufer eritmalarning xossalari .....	30
Eritmalarning kolligativ xossalari .....	40
<b>III bob. Titrimetrik analiz .....</b>	60
Titrimetrik analizga kirish .....	60
Kislota asosli titrlash usulining nazariv asoslari .....	7
Kislota-asosli titrlash usuli. Alkalimetriya .....	80
Kislota-asosli titrlash usuli. Asidimetriya .....	91
Kompleks birikmalar .....	99
Kompleksionometrik titrlash usuli .....	111
Geterogen muvozanat .....	121
Cho‘ktirish usuli. Argentometriya usuli. Mor usuli .....	130
Cho‘ktirish usuli. Tiotsianometrik titrlash. Folgard usuli .....	141
Oksidlanish-qaytarilish reaksiyaları. Redoks potensialni aniqlash .....	152
<del>Oksidlanish-qaytarilish usullari. Permanganatometriya usuli .....</del>	163
Yodometriya usuli .....	171
<b>IV bob. Biogen elementlar .....</b>	184
Biogen elementlar kimyosi .....	184
Biologik muhim s- elementlar .....	187
Biologik muhim d- elementlar .....	189
Biologik muhim p- elementlar .....	192
s- elementlarning kimyoviy xossalari .....	193
d- elementlarning kimyoviy xossalari .....	197
p- elementlarning kimyoviy xossalari .....	203
Sifatly analizining asoslari .....	212
Biogen elementlar kationlarining alohida sifat reaksiyalarini o‘rganish .....	214
Anionlarning xususiy sifat reaksiyalarini o‘rganish .....	224
<b>V bob. Noorganogen elementlar .....</b>	234
Noorganogen elementlarning kimyoviy xossalari .....	240
Noorganogen elementlar ionlarining sifat reaksiyaları .....	248
<b>VI bob. Fizkolloid kimyo .....</b>	260
Sirt hodisalari. Adsorbsiya .....	260
Eritmalarning elektr o‘tkazuvchanligi. Konduktometrik titrlash .....	277
Elektrokimyo asoslari. Biologik suyuqliklarni pH ini potensiometrik aniqlash .....	291
Kimyoviy termodinamika va termokimyo asoslari .....	305
Dispers sistemalar. Kolloid eritmalarning turg‘unligi va ularni olish usullari .....	325
Kimyoviy reaksiyalar kinetikasi .....	336
Ilovalar .....	357
Foydalilanigan adabiyotlar .....	367